

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

G. N. MAHMUDOV

AVTOMOBILLARNING ELEKTR VA ELEKTRON JIHOZLARI

Qayta ishlangan, to 'ldirilgan ikkinchi nashri

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlarda avtomobil transporti yo'nalishlari
bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*

«NOSHIR»
TOSHKENT
2011

Mahmudov G'.N.

Avtomobilarning elektr va elektron jihozlari. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik.— qayta ishlangan, to'ldirilgan va lotin alifbosiga o'girilgan 2-nashr. T.: «Noshir». 304 b.

Darslikda avtomobilarning elektr va elektron jihozlarining tuzilishi, ishlash prinsipi, nazariyasi va tavsifnomalari keltirilgan. Ayniqsa zamonaviy avtomobil-larga o'matilayotgan elektr jihozlarning yangi avlodи, kompakt va kontaktksiz generatorlar, «xizmat ko'rsatilmaydigan» akkumulatorlar, ichki reduktorli va doimiy magnitlardan uyg'otiladigan startyorlar, energiya to'planishi boshqariladigan va mikroprotsessoriли o't oldirish tizimlari, gomofokal va elliptik faralar, ksenoni lampalarning tuzilishi va ishlashining o'ziga xos tomonlarini yoritishga katta e'tibor berilgan.

Kitobning 1-nashri 2000-yilda chop etilgan. 2-nashri lotin alifbosida tay-yorlangan, zamonaviy avtomobilarda keyingi yillarda joriy qilingan yangi tizim va jihozlar, elektron va mikroprotcessoriли asboblar haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

Darslik «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash», «Yer ustti transporti tizimlari», «Elektrotexnika, eletromexanika va elektrotexnologiyalar» (Avtotransport tarmog'i bo'yicha), «Atrof-muhit himoyasi» va «Kasbga o'qitish» (Transport vositalari bo'yicha) bakalavr tayyorlash yo'naliishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Taqribchilar:

t.f.d., prof. H.Karimov (Toshkent Davlat Texnika universiteti)

t.f.d., prof N.Xamidov (Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti)

Tahrirchi:

Lotin grafikasi bo'yicha tahrirchi

prof. Q.Do'stmuxammedov

prof. H. Dadaboyev.

SO‘ZBOSHI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kунларданоq президентимиз I.Karimovning tashabbusi bilan O‘zbekistonda avtomobilsozlik sanoatini yaratishga katta e’tibor berila boshlandi. Qisqa davr ichida Asakada zamonaviy yengil avtomobillar, Samarqandda esa avtobus zavodlari qurib bitirilda va ishga tushirib yuborildi. O‘zimizda chiqarilayotgan Nexia, Matiz va ayniqsa Lacetti, Spark avtomobillari eng zamonaviy va ancha murakkab elektr va elektron asboblar bilan jihozlangan bo‘lib, bo‘lajak avtomobilchi-muhandislar ularning tuzilishi va ishlashini yaxshi bilishlari zarur.

Avtomobilarning elektr va elektron jihozlari ishchi jarayonlarni avtomatlashirish, harakat va ekologik xavfsizlikni oshirish, haydovchi va yo‘lovchilarga quyliliklar yaratish kabi vazifalarni bajaruvchi murakkab tizim bo‘lib, avtomobilarni samarali ishlatish darajasi ko‘p jihatdan aynan elektr jihozlarning ishonchlilikiga bog‘liqdir.

Avtomobilarda elektr energiya dastlab, benzinli ichki yonuv dvigatellarida ishchi aralashmasini o‘t oldirish uchun ishlatilgan. Ishchi aralashmasining yuqori kuchlanishli elektr uchquni yordamida yondirilishi, o‘t oldirish daqiqasini nisbatan aniq belgilash, ichki yonuv dvigatellarining (IYOD) quvvati va tejamkorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Shuning uchun yonilg‘ini elektr uchqun vositasida o‘t oldirish boshqa usullarni siqib chiqardi va hozirgi kunda karbyuratorli dvigatellar uchun yagona tizim hisoblanadi.

Elektr energiya iste’molchilari sonining ko‘payishi, ular quvvatining ortishi avtomobilarda elektr ta’minot, ishga tushirish, o‘t oldirish, yoritish tizimlarining shakllanishiga olib keldi. Avtomobilarda turli xil nazorat-o‘lchov asboblari keng ko‘lamda ishlatila boshlandi.

Elektr ta’minot tizimi generator, kuchlanish rostlagichi va akkumulatorlar batareyasidan iborat. Juda uzoq muddat davomida avtomobilarda asosan o‘zgarmas tok generatorlari ishlatildi. Elektron sanoatning rivojlanishi va bu sohada erishilgan muvaffaqiyatlar avtomobilarda yarimo‘tkazgichli to‘g‘rilagichlarga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan tok generatorlarini ishlatish imkonini berdi. O‘zgaruvchan tok generatorlari o‘zgarmas tok generatorlariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, xususan ular ishlatish jarayonidagi ishonchlilik va chidamlilik darajasi ancha yuqori, o‘lchamlari nisbatan kichik bo‘lgan holda katta quvvatga ega, tannarxi ancha past va hokazo.

Avtomobil dvigatellarini ishga tushirish tizimi akkumulatorlar batareyasi, startyor, kommutatsiya jihozlari, dvigatelni ishga tushirishni yengillatuvchi moslamalardan tashkil topgan. Akkumulatorlar batareyasi avtomobil elektr jihozlarining zarur qismlaridan biriga aylandi. Avtomobilarda dizel dvigatellari qo‘llanilishi ishga tushirish tizimi quvvatining ancha oshirilishini talab qildi.

Bu, o'z navbatida, sig'imi 200...240 A-soat bo'lgan, takomillashgan akkumulator batareyalarni, quvvati 10...15 kW gacha bo'lgan startyorlarni ishlab chiqishga olib keldi.

Hozirgi zamon avtomobil dvigatellarida siqish darajasi, aylanishlar chastotasingin o'sishi bilan birga tejamkorligini oshirish, chiqindi gazlar zaharliligin kamatirish masalalariga bo'lgan talabning kuchayishi o't oldirish tizimlaridagi yuqori kuchlanish qiymatini 1,5–2 baravar oshirish zaruratinu tug'dirdi. Klassik yoki kontaktli o't oldirish tizimining imkoniyati cheklanganligi sababli bu muammoni hal qilish uchun o't oldirishning yangi tizimlari ishlab chiqildi, xususan kontakt-tranzistorli, kontaktisz-tranzistorli, mikroprosessorli o't oldirish tizimlari shular jumlasidandir.

Avtomobilarning yoritish tizimi bir tomonidan harakat havfsizligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomonidan haydovchi va yo'lovchilarga ma'lum qulaylik yaratish vazifasini ham bajaradi. Avtomobil transporti vositalari sonining ortib borishi va ular harakatining tobora tig'izlashishi yo'l-transport hodisalarining keskin ko'payishiga olib keldi. Davlat avtomobil nazorati to'plagan ma'lumotlarga ko'ra bu noxush hodisalarining 60 %dan ortiqrog'i ko'rinish yaxshi bo'lmagan sharoitlarda (ya'ni tun, tuman) sodir bo'ladi. Bu, avtomobilarda gomofokal va elipssimon farallar, yoritishni avtomatik rostlovchi tizimlar, tumaniga qarshi faralar, galogen va ksenon lampalarining joriy qilinishiga olib keldi. Yaqin keljakda avtomobilarning yoritish tizimida yarimo 'tkazichli yorug'lik chiqaruvchi elementlar, suyuq kristallar va boshqa turdag'i yangi yorug'lik jihozlarini ishlatalish mo'ljallanmoqda.

Avtomobil va uning asosiy qismlarining ishchonchli ishlashini ta'minlashda nazorat-o'Ichov asboblari alohida ahamiyatga ega. Nazorat-o'Ichov asboblari avtomobilning eng qimmatbaho va mas'uliyatli agregat va qismlari (dvigatel, generator, tormoz, yoritish-darak berish tizimlari va hokazo) holatini va me'yorida ishlashini nazorat qilib turish imkoniyatini beradi. Hozirgi vaqtida, harakat havfsizligini ta'minlash va haydovchining diqqatini bo'lmashlik maqsadida nazorat-o'Ichov asboblarning ko'rsatuvchi turlarini kamaytirib, ko'proq darak beruvchi turlarini o'rnatish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda.

Avtomobilarda elektr va elektron jihozlari rivojlanishining keyingi bosqichlari elektron texnikaning taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, u asosan avtomobilarning harakat havfsizligini yanada to'laroq ta'minlashga, dvigateldagi ishchi jarayonlar samaradorligini, tormoz tizimi ishchonchiligidini oshirishga yo'naltirilmoqda. Masalan, haydovchi holatini uzluksiz kuzatib, zaratut bo'yicha avtomatik ravishda harakat havfsizligini ta'minlovchi choralarни amalga oshiruvchi diagnostika asbobini yaratish borasida izchil ish olib borilmoqda.

Elektronika va mikroprotsessor texnikasining qo'llanishi dvigatel va transmisiya ishini avtomatik boshqarish tizimlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Xususan, hozirgi zamon avtomobillarida o'rnatilgan elektron antiblokirovkali tormoz

tizimi, dvigatelga yonilg'i miqdori aniq me'yorda uzatilishini ta'minlovchi elektron boshqarish tizimlari shular jumlasidadir.

Shunday qilib, zamonaviy avtomobillarining elektr jihozlari, malakali xizmat ko'rsatilishni talab qiluvchi, doimo rivojlanuvchi murakkab tizimga aylandi. Avtomobillar me'yorida va daromadli (rentabelli) ishlatalishi ko'p jihatdan elektr jihozlarning shayligiga bog'liq. Hozirgi zamon avtomobillaridagi elektr jihozlarining narxi ancha baland bo'lib, avtomobil to'la qiymatining 25-30 %ni tashkil qiladi. Elektr jihozlarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatishga ketadigan mablag' ham taxminan shu ko'rsatkich doirasida bo'ladi. Demak, avtomobillarning to'g'ri va daromadli ishlatalishini ta'minlash uchun ularning elektr va elektron jihozlari tuzilishini, ishslash prinsipini, tavsifnomalarini, ishlatalishining o'ziga xos tomonlarini har tomonlama va chuqur o'rganish juda muhimdir.

Avtomobillarning elektr jihozlarini quyidagi asosiy funksional tizimlarga bo'lish mumkin:

1. Elektr ta'minot tizimi (generator, kuchlanish rostlagichi, akkumulatorlar batareyasi).

2. Avtomobil dvigateline ishga tushirish tizimi (startyor, akkumulatorlar batareyasi, ishga tushirishni yengillatuvchi moslamalar).

3. O't oldirish tizimi (tok manbayi, o't oldirish g'altagi, o'zgich-taqsimlagich, tranzistor kommutatori, o't oldirish shamlari);

4. Nazorat-o'Ichov asboblari (temperatura, bosim sezgich va ko'rsatkichlari, taxometr, spidometr, darak beruvchi lampalar va boshqa).

5. Yoritish va yoritish xabarchilari (bosh yoritish faralari, avtomobil burilishi va to'xtashini ko'rsatuvchi chiroqlar, old va orqa fara osti chiroqlar va hokazo).

6. Avtomobillarning elektron boshqarish tizimlari.

7. Avtomobillarning qo'shimcha elektr jihozlari.

8. Avtomobil elektr jihozlarining sxemalari. Kommutatsiya jihozlari.

Generator, startyor, o't oldirish tizimiga taalluqli asboblar va nazorat-o'Ichov asboblarining sezgichlari bevosita dvigatelga, qolgan jihozlar esa avtomobil kuzovi va shassisining tegishli joylariga o'mnatiлади.

Generator va akkumulatorlar batareyasi bir-biri bilan parallel ulangan. Avtomobil harakatlanayotganda iste'molchilar tokni generatordan, to'xtaganda yoki dvigatelning aylanishlar chastotasi belgilangan qiymatdan kam bo'lganda esa, akkumulatorlar batareyasidan oladi. Iste'molchilarni bir tok manbayidan ikkinchisiga almashlab ularsh va generator kuchlanishini belgilangan darajada ushlab turish vazifasini kuchlanish rostlagichi bajaradi.

Avtomobilni ishlatalish jarayonida doimo ulab qo'yiladigan (yoritish, o't oldirish, nazorat-o'Ichov asboblari va hokazo) yoki qisqa, lekin tez-tez ishlataladigan (tormozlanish yoki burilishni ko'rsatuvchi yorug'lik darakchilari) iste'molchilar tokni umumiy zanjirdan oladilar. Dvigateli ishga tushirish vaqtida katta tok (bir necha yuz amper) iste'mol qiladigan startyor, kesimi ancha katta bo'lgan o'tkazgich

bilan bevosita akkumulatorlar batareyasiga ulanadi. Qiska vaqt davomida, kam ishlatiladigan, lekin katta tok iste'mol qiladigan va qulaylik yaratadigan ba'zi asboblar (tovushli darakchi, sigaret tutatqich, radiopriyomnik, soat va hokazo) istisno tariqasida to'g'ridan to'g'ri akkumulatorlar batareyasiga ulanadi.

Avtomobil elektr jihozlariga qo'yiladigan asosiy texnik talablar

1. Nominal kuchlanish. Elektr energiya iste'molchilarining nominal kuchlanishi – 12, 24 V. Asosiy tok manbayi – generatorning nominal kuchlanishi 14, 28 V qiymatida belgilanadi. Avtomobil harakatlanayotganda ishlaydigan elektr energiya iste'molchilari kuchlanish belgilangan nominal qiymatidan 95–125 % doirasida o'zgarganda ham o'z ish qobiliyatlarini yo'qotmasliklari kerak.

2. Elektr o'tkazgichlarning ulanish sxemasi. Avtomobilarda bir o'tkazgichli sxema joriy qilingan, ya'ni barcha iste'molchilarga bitta o'tkazgich ulanadi, tok manbayi va iste'molchilarning ikkinchi qutbi esa «massa» (avtomobil kuzoviga yoki shassisi)ga ulanadi. Elektr jihozlarning ba'zi buyumlarini ikki o'tkazgichli sxema bo'yicha tayyorlashga yo'l qo'yildi. Davlat standarti bo'yicha «massa»ga tok manbayi va iste'molchilarning manfiy qutbi ulanadi.

Avtomobil elektr jihozlarining nominal ko'rsatkichlari (quvvati, tok kuchi, kuchlanishi va hokazo), atrof-muhitning harorati 25 ± 10 °C, nisbiy namligi 45–80 foiz, atmosfera bosimi 870–1060 gPa bo'lgan sharoitda belgilanadi.

Avtomobil elektr jihozlarining chulg'amlari va tok o'tkazuvchi boshqa past kuchlanishli zanjir elementlarining korpusuga nisbatan izolyatsiyasi shikastlanmasdan 1 min davomida 50 Hz chastotali 500 V kuchlanishga bardosh berishi kerak.

Avtomobil elektr jihozlaridagi chulg'amlarning qizish temperaturasi atrof-muhit harorati 40–50 °C va havo bosimi 870–1060 gPa bo'lganda, ishlatilgan izolyatsiya materiallarning toifasiga ko'ra, 100–135 °C dan oshmasligi kerak.

Elektr mashinalar, o't oldirish tizimining taqsimlagichlari salt ishlash sharoitida kattalashtirilgan aylanishlar chastotasi bilan sinalganda 2 min davomida shikastlanmasdan ishlashi lozim. Startyor esa bunday sinovga 20 sekund davomida bardosh berishi zarur.

Elektr jihozlarining ishi jarayonida vujudga keladigan radioxalakitlar, Davlat standarti tomonidan belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak. Bu talablarni qondirish uchun elektr jihozlar ekranlangan yoki qisman ekranlangan holda tayyorlanadi.

I-BOB. AVTOMOBILLARNING ELEKTR TA'MINOT TIZIMI


UMUMIY MA'LUMOTLAR

Elektr ta'minot tizimi avtomobildagi barcha iste'molchilarni elektr energiya bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi va uning tarkibiga asosan generator, kuchlanish rostlagichi va akkumulatorlar batareyasi kiradi.

Generator avtomobildagi elektr energiyaning asosiy manbayi bo'lib, dvigatel o'rta va katta aylanishlar chastotasi bilan ishlab turganda hamma iste'molchilarni elektr toki bilan ta'minlaydi va akkumulatorni zaryadlaydi. Akkumulatorlar batareyasi yordamchi elektr energiya manbayi bo'lib, u asosan ichki yonuv dvigateli ni ishga tushirish jarayonida startyorni tok bilan ta'minlash hamda generator ish-lamayotganda yoki uning quvvati yetarli bolmaganda, iste'molchilarni elektr toki bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.

Generator tasmali uzatma orqali dvigatelning tirsakli validan harakat olganligi sababli uning aylanishlar chastotasi va demak, ishlab chiqarayotgan kuchlanishi juda keng doirada o'zgarib turadi. Generator kuchlanishining belgilangan qiy-mat darajasida avtomatik ravishda ushlab turish xizmatini kuchlanish rostlagichi bajaradi.

Elektr ta'minot tizimining tarkibiy sxemasi quyidagi ko'rinishga ega (1.1-rasm).



1.1-rasm. Elektr ta'minot tizimining tarkibiy sxemasi.

Bu sxemadan generator beradigan kuchlanish va akkumulatorlar batareyasida-gi EYuKning o'zaro munosabatini, ularning toklari qay tarzda sarf bo'lishini kuza-tish mumkin:

- agar $U_g > E_b$ bo'lsa, u holda $I_g = I_{bz} + I_{yu}$;
- agar $U_g < E_b$ bo'lsa, u holda $I_g + I_{br} = I_{yu}$;
- agar $U_g = 0$ bo'lsa, u holda $I_{br} = I_{yu}$.

Bunda: U_g – generator kuchlanishi, E_b – akkumulatorlar batareyasining EYuK, I_g – generator toki, I_{bz} – akkumulatorlar batareyasining zaryadlanish vaqtidagi iste'mol qilgan toki, I_{br} – akkumulatorlar batareyasining razryadlanish vaqtida ber-gan toki, I_{yu} – iste'molchilarga sarf bo'ladigan yuklama tok.

1.1. AVTOMOBIL GENERATORLARI

Avtomobil generatorining tuzilishi sodda, ishlatish jarayonidagi chidamlilik va ishonchlilik darjasini yuqori, gabarit o‘lchamlari, massasi, tannarxi mumkin qadar kichik va dvigatel aylanishlar chastotasi past bo‘lgan hollarda ham akkumulatorlar batareyasini zaryadlash kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Uzoq vaqt davomida avtomobillarda elektr energiyaning asosiy manbayi sifatida o‘zgarmas tok generatorlari ishlataldi. Avtomobilardagi elektr toki iste’molchilarining tobora ko‘payishi, katta shahar ko‘chalaridagi transport harakati qatnovining nihoyatda tig‘izlashganligi natijasida avtomobil dvigatellarining salt ishlash vaqtining ortishi, generatorlarning quvvatini va maksimal aylanishlar chastotasini oshirish ehtiyojini tug‘dirdi. O‘zgarmas tok generatorining jiddiy kamchiliklari va tuzilishining o‘ziga xos tomonlari bu masalani hal qilish imkonini bermaydi. Xususan:

- o‘zgarmas tok generatorida bir fazali o‘zgaruvchan tok yakor chulg‘amlarida, ya‘ni generatorning aylanuvchi qismida induksiyalanadi, uni iste’molchilarga uza-tish katta qiyinchiliklar tug‘diradi;

- o‘zgarmas tok generatorlarida mexanik to‘g‘rilagich vazifasini bajaruvchi kollektor generatoring aylanishlar chastotasini va quvvatini oshirish imkoniyatini bermaydi, chunki yakorning aylanishlar chastotasi va undagi tok qiymati oshganda, cho‘tka bilan kollektor orasida me’yordan ortiq uchqun hosil bo‘ladi va ular tez yeyilib ishdan chiqadi;

- o‘zgarmas tok generatorining yuklama toki belgilangan maksimal qiymatidan oshib ketishi tufayli hamda akkumulatorlar batareyasini (generator ishlatmay turgan holda) generator chulg‘amlari orqali zaryadsizlanish havfidan saqlash maqsadida kuchlanish rostlagichiga qo‘srimcha ravishda tok cheklagich va teskari tok relelari o‘rnatalidi. Bu rele-rostlagichlarning konstruksiyasini murakkablashtiradi va ularning ishonchlilikini pasaytiradi.

Elektron sanoatning rivojlanishi natijasida tannarxi arzon, o‘lchamlari kichik, yuqori haroratlarga chidamlili va ishonchliligi baland bo‘lgan kreminiy yarim-o‘tkazgichlar asosida yasalgan to‘g‘rilagichlarning paydo bo‘lishi avtomobilarda, o‘zgarmas tok generatorlariga xos bo‘lgan kamchiliklardan holi bo‘lgan o‘zgaruvchan tok generatorlarini keng ko‘lamda ishlatish imkonini berdi.

O‘zgaruvchan tok generatorlarning tuzilishi o‘zgarmas tok generatorlariga nisbatan sodda, quvvati bir xil bo‘lgan holda, gabarit o‘lchamlari va massasi 2–3 marta kichik, chidamlilik va ishonchlilik darjasini ancha yuqori. Ularda qimmat-baho rangli metall bo‘lgan mis o‘zgarmas tok generatoriga nisbatan ~3 baravar kam ishlatiladi. O‘zgaruvchan tok generatorlarida kollektor yo‘q, murakkab yakor chulg‘ami o‘rniga o‘ralishi oson bo‘lgan stator chulg‘amlari ishlatiladi. Uyg‘otish chulg‘ami ham yaxlit bitta g‘altakdan iborat. O‘zgarmas tok generatorlarning solishtirma quvvati (ya‘ni 1 kg massasiga to‘g‘ri keladigan quvvat) 45 W/kg dan

oshmagan holda, o'zgaruvchan tok generatorlaridagi bu ko'rsatkich 150 W/kg dan ortib ketdi.

O'zgaruvchan tok generatorlarida kollektorning yo'qligi hisobiga uning maksimal aylanishlar chastotasini $12000\text{--}15000 \text{ min}^{-1}$ ga yetkazish, dvigatel bilan generator orasidagi qiyiq tasmali uzatmaning uzatish sonini 2,0--2,5 martagacha oshirish mumkin. Bu dvigatel salt ishlagan holda ham generatorning 50...60 % quvvatini iste'molchilarga berish va akkumulatorni zaryadlash imkonini beradi.


O'zgaruvchan tok generatorlari yuklama tok qiymatini cheklash xususiyatiga ega bo'lganligi va ularda to'g'rilaqich sifatida yarimo'tkazgichli diodlar ishlataliganligi sababli tok cheklagich va teskari tok relelariga zarurat yo'qoladi. Bu generatorning kuchlanishini rostlash tizimini ancha soddalashishga va uning ishonchlik darajasini orttirishga olib keldi.

1.1.1. O'zgaruvchan tok generatorlarining ishlash prinsipi

O'zgaruvchan tok generatori (1.2-rasm) asosan quyidagi qismlardan tashkil topgan: qo'zg'almas stator 1, aylanuvchi rotor 9, kontakt halqlari 13, cho'tkalar 12, cho'tkatutqich 14, to'g'rilaqich bloki 7, parrakli shkiv 4 va qopqoqlar 3, 10. Stator elektrotemnik po'lat plastinalardan yig'ilgan bo'lib, uning ichki yuzasida stator g'altaklari o'rnatish uchun mo'ljallangan va oralig'i bir hil bo'lgan tishchalari mavjud. Tishchalarining soni 18, 36 yoki 72 bo'lishi mumkin. Hozirgi zamon generatorlarida ko'proq 36 tishchali statorlar ishlatilmoqda. Bu tishchalarga 18 (yoki 36, 72) stator g'altaklari joylashtirilib, ular uch fazaga bo'linadi. Har bir fazaga oltita ketma-ket ulangan g'altak kiradi. Fazalar o'zaro «yulduz» yoki «uchburchak» sxemasi bo'yicha ulanishi mumkin. Stator chulg'amlari «uchburchak» sxemasi bo'yicha ulanganda undagi faza tokining qiymati chiziqli tokka nisbatan $\sqrt{3}$ marta kam bo'ladi. «Yulduz» sxemasida esa faza va chiziqli toklar bir-biriga teng bo'ladi. Bu esa «uchburchak» sxemasi bo'yicha o'ralgan stator chulg'amlari uchun diameteri kichikroq bo'lgan sim ishlatish imkonini beradi. Shuning uchun oxirgi vaqtida generatorlarning zarur quvvatini saqlagan holda uning o'chamlarini ixchamroq qilish maqsadida stator chulg'amlarini «uchburchak» sxemasi bo'yicha o'rash tobora keng qo'llanilmoqda.

Rotor qarama-qarshi qutbli, olti uchli tumshuqsimon po'lat o'zak 9 va ular orasidaga po'lat vtulka 15 ga o'ralgan uyg'otish chulg'ami 8 dan iborat. Uyg'otish chulg'amining uchlari valdan va bir-biridan izolyatsiya qilingan mis halqlar 13 ga ulangan. Rotor vali aluminiy qotishmalaridan tayyorlangan qopqoqlarga o'rnatilgan zoldirli podshipniklarda aylanadi.

Kontakt halqlar tomonidagi qopqoq 10 ga plastmassadan tayyorlangan, ikkita mis-grafit cho'tkalar 12 joylashtirilgan, cho'tkatutqich 14 va to'g'rilaqich bloki 7 o'rnatilgan. Valga shponka yordamida parrakli shkiv 4 mahkamlangan. Generator rotori harakatni shkiv va tasmali uzatma orqali dvigatelning tirsakli validan oladi.




1.2-rasm. O'zgaruvchan tok generatori (soddalashtirilgan ko'rinishi)

Generator quyidagicha ishlaydi. Elektromagnit uyg'otish principiga asoslangan o'zgaruvchan tok generatorlari o'z-o'zini uyg'otish xususiyatiga ega emas. Bunday generatorlarni ishga tushirish uchun dastlabki daqiqalarda uning uyg'otish chulg'amiga akkumulatordan cho'tka va mis halqlar orqali tok beriladi. Uyg'otish chulg'amidan o'tayotgan tok ta'sirida uning atrofida magnit oqimi hosil bo'ladi (1.3-rasm). Magnit oqimi 7 ning asosiy qismi rotorning tumshuqsimon o'zagining

birinchi bo'lagi 3 orqali havoli tirkishni kesib stator 5 tishchalari va o'zagiga o'tadi, so'ngra havoli tirkishni yana bir bor kesib, rotorning tumshuqsimon o'zagining qarama-qarshi qutblangan ikkinchi bo'lagi 4 ga o'tib, uyg'otish chulg'ami vtulkasi 1 orqali tutashadi. Magnit oqimining qolgan qismi 8 o'zakdan tashqariga taralib ketadi.

Rotor aylanganda statoring har bir tishchasi ostidan rotorning dam musbat, dam manfiy qutblangan tumshuqsimon uchliklari o'tadi, ya'ni stator chulg'amlarini kesib o'tayotgan magnit oqimi yo'nalishi bo'yicha ham, qiymati bo'yicha ham o'zgarib turadi. Natijada, statoring faza



1.3-rasm. Generatorning magnit tizimi

chulg‘amlarida o‘zgaruvchan elektr yurituvchi kuch induksiyalani va uning qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$E_f = 4,44 \cdot k_{ch} \cdot f \cdot W \cdot F. \quad (1.1)$$

Bu yerda k_{ch} – chulg‘am koefitsiyenti, f – induksiyalangan EYuK chastotasi, W – statorning bitta fazaga chulg‘amlaridagi o‘rmlar soni, F – magnit oqimi.

O‘z navbatida:

$$f = \frac{pn}{60}.$$

Bunda: p – juft qutblar soni, n – aylanishlar chastotasi.

Chulg‘am koefitsiyenti k_{ch} ning qiymati rotor qutblariga va fazaga to‘g‘ri kela-digan stator tishchalari soni $= z/2pm$ ga bog‘liq (z – tishchalarining umumiy soni, m – fazalar soni). Hozirgi kunda avtomobilarda o‘rnatilgan uch fazali ($m = 3$), olti juftli qutbga ($r = 6$) ega bo‘lgan rotorli o‘zgaruvchan tok generatorlari uchun k_{ch} quyidagi qiymatlarga ega:

z	18	36	72
q	0,5	1,0	2,0
k_{ch}	0,866	1,0	0,966

Generatorning stator chulg‘amlarida induksiyalangan EYuKning o‘zgarish qonuniyatini ifodalovchi (1.1) formuladagi aylanishlar chastotasi n bilan magnit oqimi F dan boshqalari o‘zgarmas kattaliklar bo‘lgani uchun quyidagi belgilashni kiritishimiz mumkin:

$$C_e = \frac{4,44 \cdot p \cdot W \cdot k_{ch}}{60}.$$

U holda (1.1) ifoda quyidagi sodda ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$E_f = C_e \cdot n \cdot F, \quad (1.2)$$

Stator chulg‘amlarida induksiyalangan EYuKning vaqt bo‘yicha o‘zgarish xarakteri magnit oqimining stator doirasidagi havo tirkishlarida taqsimlanishi-ga bog‘liq, u esa o‘z navbatida rotor o‘zagi uchliklarining shakliga bog‘liq. O‘zgaruvchan tok generatorlarda asosan shakli trapetsiyasimon bo‘lgan tumshuqsimon uchlik rotor o‘zaklari qo‘llaniladi. Rotor o‘zagining bunday tuzilishi induksiyalangan EYuKning sinusoidaga yaqin ko‘rinishda o‘zgarishini ta‘minlaydi.


Generatorning stator chulg‘amlarida hosil bo‘lgan o‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tokka aylantirish uchun uch fazali, ikki yarim davrli, ko‘prikli to‘g‘rilash sxemasi ishlataladi. Bu sxema yordamida to‘g‘rilangan kuchlanishning pulsatsiya-

si nisbatan katta bo‘lmaydi va hozirgi vaqtida avtomobilarda juda keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan elektron jihozlarni me’yorida ishlashini ta‘minlaydi.

Generator chulg‘amlari «yulduz» sxemasi (1.4-rasm) bo‘yicha ulanganda, to‘g‘rilagich quyidagicha ishlaydi. To‘g‘rilagichdagi diodlar ikki guruhga bo‘linib, birinchi guruhdagi diodlarning (VD1, VD2, VD3) anodlari generatoring musbat qutbiga, ikkinchi guruhdagi diodlarning (VD4, VD5, VD6) katodlari manfiy qutbiga, ya’ni «massa»ga ularadi. Har qaysi berilgan daqiqada to‘g‘rilagichda bir vaqt-da ikkita diod ishlaydi (ya’ni ochiq bo‘ladi) – birinchi guruhdan anodning musbat potensiali stator chulg‘amlari ulangan tugun 0 nuqtaga nisbatan eng katta bo‘lgan diod va ikkinchi guruhdan katodining manfiy potensiali shu 0 nuqtaga nisbatan eng katta bo‘lgan diod.

Masalan, 1.4-*a*rasmda ko‘rsatilgan to‘g‘rilagich ishining dastlabki daqiqalarini tahlil qilaylik. Tokning 0 tugun tomon harakatini musbat, teskari tomonga harakatini manfiy yo‘nalish, deb qabul qilingan. Generator ishining dastlabki daqiqalarida statorning L3 chulg‘amidagi kuchlanish musbat, L2 chulg‘amidagi – manfiy qiymatga ega bo‘ladi. L1 chulg‘amda tok yo‘q. Bu holda chulg‘amlardagi tok rasmdagi ko‘rsatkichlar yo‘nalishi bo‘yicha «+» dan «-»ga harakat qiladi: O tugun – L2 chulg‘am – VD3 diod – yuklama qarshiligi R_{yu} – «massa» – D4 diod – L3 chulg‘am – O tugun. Ya’ni bu daqiqada, to‘g‘rilagichning VD3 va D4 diodlari ochiq bo‘ladi.

Boshqa, masalan, *t* daqiqada, L1 chulg‘amidagi kuchlanish musbat, L3 chulg‘amidagi – manfiy qiymatga ega bo‘ladi. L2 chulg‘amda esa tok yo‘q. Bu holda tok, iste’molchilarga, ochiq bo‘lgan VD1, VD5 diodi orqali to‘g‘rilanib boradi. Har juft diodlar kuchlanishdagi tebranish davrining taxminan $1/3$ qismiga teng vaqt davomida ishlaydi. To‘g‘rilangan kuchlanishning pulsatsiyalanish chastotasi generator fazalar sonining ikkilanganiga teng bo‘lib, bir davr davomida olti pulsatsiya-dan iborat (1.4- *b* rasm).



1.4-rasm. Uch fazali ikki yarimdavrli to‘g‘rilagich sxemasi

O'zgaruvchan tok generatorlarining afzallik tomonlaridan biri, to'g'rilaqich diodlari akkumulatorlar batareyasini stator chulg'amlari orqali razryad bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Bu generator bilan teskari tok relesini ishlatalish zarurati yo'qoladi va rostlagich tuzilishi ancha soddalashadi.

Statorlarining fazalar chulg'amlari «yulduz» sxemasi bo'yicha ulangan generatorlar uchun quyidagi munosabatlar mavjud:

$$U_{Ch} = 3U_f, I_{Ch} = I_f$$

Bunda: U_{Ch}, I_{Ch} – generatorning chiziqli kuchlanishi va toki; U_f, I_f – generatorning fazalar kuchlanishi va toki.

To'g'rilaqan kuchlanish U_f ning pulsatsiya qilish chastotasi f , generatorning o'zgaruvchan kuchlanishi chastotasiga nisbatan 6 baravar ko'p bo'ladi:

$$f = 6f = 6pn/60 = 0,1 pn.$$

To'g'rilaqan kuchlanishning minimal qiymati $1,5U_f$ ga, maksimal qiymati esa $1,73U_f$ ga teng. To'g'rilaqan kuchlanishning pulsatsiyasi:

$$U_d (1,73 - 1,5) U_f = 0,23 U_f \quad (1.3)$$

Pulsatsiya davri $T/6$ bo'lganda, to'g'rilaqan kuchlanishning o'rtacha qiymati U_d quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$U_d = \frac{6}{T} \int_{-T/12}^{T/12} \sqrt{3}U_{f\max} \cdot \cos \omega t \, dt = 1,65U_{f\max}. \quad (1.4)$$

Integralni aniqlashda generator rotorining burchak tezligi $\omega = 2\pi/T$ ekanligini hisobga olish zarur.

To'g'rilaqan kuchlanish pulsatsiyasini uning o'rtacha qiymati orqali ifodalash uchun (1.4) dagi $U_{f\max}$ qiymatini (1.3)ga qo'yamiz:

$$U_d = 0,23U_d / 1,65 = 0,139U_d.$$

Masalan, to'g'rilaqan kuchlanishning o'rtacha qiymati $U_d = 14 V$ bo'lganda, uning pulsatsiyasi $U_d = 1,95 V$ ga teng bo'ladi. Bunda: to'g'rilaqan kuchlanishning maksimal qiymati $14,65 V$ ga, minimal qiymati esa $12,7 V$ ga teng bo'ladi.

To'g'rilaqicha yuklama ulanganda o'tadigan tok:

$$I_d = \frac{U_d}{R_{yu}}.$$

Demak, to'g'rilaqan tok shakl bo'yicha to'g'rilaqan kuchlanish ko'rinishiga ega bo'ladi, ya'ni $I_d = U_d / R_{yu}$ amplitudasi bilan pulsatsiyalanadi.

To'g'rilaqan tokning o'rtacha qiymati:

$$I_d = \frac{6}{T} \int_{-T/12}^{T/12} I_{d\max} \cdot \cos \omega t \, dt = 3I_{d\max} / \pi = 0,955I_{d\max}. \quad (1.5)$$

Yuqorida qayd qilingandek, har bir diod davrning uchdan bir qismiga ($T/3$)

teng vaqt davomida tok o'tkazadi. Bitta dioddan o'tayotgan tokning o'rtacha qiymati $1/3 I_d$ ga teng.

Faza tokining amaldagi qiymati:


$$I_f = \sqrt{\frac{4}{T} \int_{-T/3}^{T/3} I_{d\max}^2 \sin^2 \omega t \, dt} = 0,775 I_{d\max}, \quad (1.6)$$

(1.5) va (1.6) ifodalardan

$$I_f = 0,815 I_d.$$

Tarkibida to'g'rilaqich bo'lgan o'zgaruvchan tok generatorining kuchlanishi va toki o'rtasidagi munosabatni tahlil qilganda to'g'rilaqichlarda ishlataladigan yarimo'tkazich diodlarning sifati benuqson emasligini hisobga olish zarur. Shuning uchun amalda generator kuchlanishining o'zgarish shakli sinusoidadan, to'g'rilaqan kuchlanish va tok qiymati esa, nazariy yo'l bilan hisoblanganidan farq qiladi. Chunki, generatorning induktiv chulg'ammlarida to'plangan elektromagnit energiya ta'sirida, yopilayotgan dioddagi tok darhol yo'qolmaydi, ochilayotgan dioddagi tok esa asta-sekin ortadi. Natijada, zanjirdagi yuklama qiymati ortishi bilan to'g'rilaqichgacha va to'g'rilaqichdan keyingi kuchlanishlarning hamda to'g'rilaqan va faza toklarining o'zaro munosabatlari o'zgaradi.

Generatorning salt ishlash rejimlariga yaqin hollarda faza kuchlanishining o'zgarish shakli sinusoidaga yaqin bo'ladi, faza tokining o'zgarish shakli esa sezilarli darajada buzilgan ko'rinishda bo'ladi. Yuklama qiymati ortishi bilan bu hol o'zgara boshlaydi. Faza kuchlanishining shakli buziladi, faza tokining o'zgarish shakli esa sinusoidaga yaqinlashadi.



1.5-rasm. Tashqaridan uyg'otiladigan o'zgaruvchan tok generatorining sxemasi

O'zgaruvchan tok generatorlari uyg'otilish uslubiga qarab tashqaridan uyg'otiladigan va o'z-o'zini uyg'otuvchi turlarga bo'linadi. Avtomobilarda aksariyat holda tashqaridan uyg'otiladigan generatorlar ishlataladi. Bu usulda (1.5-rasm) uyg'otish chulg'ami UCh ga tok o't oldirish kalliti O'OK va kuchlanish rostlagichi KR orqali, generator va akkumulatorlar batareyasi ABning umumiy musbat qutbidan keldi. Natijada, dvigatel ishga tushishi bilanoq uyg'otish chulg'amidan o'tayotgan tok o'zining maksimal qiymatiga ega bo'ladi va generatorning kuchlanishi tezlik bilan unumli qiymatiga erishadi. Bu sxemada akkumu-

Iatorning zaryadlanishi jarayoni va yuklama tokining qiymati ampermetr A yordamida nazorat qilinadi.


Generatorlarni tashqaridan uyg'otish usuli o'zining soddaligi va yuqori ishonchligi bilan diqqatga sazovordir. Lekin, generatorni ishga tushirish uchun albatta, tashqi tok manbayining zarurligi va avtomobil nisbatan o'zoq turib qolganda akkumulatorning uyg'otish chulg'ami orqali zaryadsizlanish xavfi borligi – bu usulning kamchiliklari hisoblanadi.

Shuning uchun keyingi vaqtida ba'zi avtomobilarda (masalan, BA3-2110) o'z-o'zini uyg'otish principiga asoslangan o'zgaruvchan tok generatorlari o'matilmoqda. Bu turdag'i generatorlarda (1.6-rasm) uyg'otish chulg'amiga tok akkumulatorordan kelmasdan, balki quvvati uncha katta bo'lmagan, uch dioddan tuzilgan va stator chulg'amlari bilan to'g'rilaqich diodlari tutashgan nuqtalarga ulangan qo'shimcha uyg'otish zanjiridan keladi.


O'z-o'zini uyg'otuvchi generator me'yorda ishlashining asosiy sharti – rotor o'zaklarining qoldiq magnetizm xususiyatga ega bo'lishi va uyg'otish zanjiri qarshiligining mumkin qadar kichik bo'lishidir. O'z-o'zini uyg'otuvchi generatorlarning stator chulg'amlarida dastlabki kuchlanish rotor o'zaklaridagi qoldiq magnetizm hisobiga hosil bo'lgan magnit oqimi ta'sirida vujudga keladi. Qiymati katta bo'lmagan bu EYuK uyg'otish chulg'ami orqali o'tadi va uning atrofida magnit maydonini hosil qiladi. Bu magnit maydoni rotor o'zaklarining magnitlanganlik darajasini oshiradi, natijada rotor o'zaklari atrofidagi magnit oqim kuchayadi. Bu esa, o'z navbatida, generatoring stator chulg'amlarida induksiyalanayotgan EYuK qiymatining ortishiga olib keladi. Bu jarayon uzlusiz davom etadi, natijada generator uyg'onib, ishga tushib ketadi.

O'z-o'zini uyg'otuvchi generatorlarning asosiy kamchiligi shundan iboratki, rotor o'zaklaridagi qoldiq magnetizm ta'sirida hosil bo'ladigan magnit oqimining ancha sustligi, generator to'la ishga tushishi uchun zarur bo'lgan uyg'otish tokiga erishish uchun rotoring aylanishlar chastotasi nisbatan yuqori bo'lishi kerak. Bundan tashqari, uyg'otish zanjiri qarshiligining ozgina ortishi ham generator uyg'onishining ishonchlichkeit darajasini kamaytiradi. Shuning uchun uyg'otishning bu usuli qo'llangan ba'zi generatorlarda qo'shimcha, tashqaridan uyg'otish tadbiri ham ko'rildi.

Zamonaviy generatorlarning ba'zi turlarida, ularning quvvatini oshirish maq-



1.6-rasm. O'z-o'zini uyg'otuvchi o'zgaruvchan tok generatorining sxemasi




1.7-rasm. Faza kuchlanishi U_f ni birinchi U_1 va uchinchi U_3 garmonika sinusoidalarning yig'indisi shaklidagi ko'rinishi

Sinusoidalarning yig'indisi ko'rinishiga keltirish mumkin. Bu sinusoidalar garmonikalar deb yuritiladi. Birinchi garmonikaning chastotasi faza kuchlanishining chastotasiغا mos keladi, uchinchi garmonikaning chastotasi esa birinchisinkiga nisbatan uch marta yuqori bo'ladi. Faza kuchlanishining o'zgarish shaklini birinchi va uchinchi garmonikalar yig'indisi ko'rinishidagi ifodasi 1.7-rasmida keltirilgan.

VD7, VD8 diodlar aynan uchinchi garmonika kuchlanishini to'g'rilaydi va generatorning nominal quvvatini taxminan 12...15 %ga oshirish imkonini beradi.

1.1.2: O'zgaruvchan tok generatorlarining elektr tavsifnomalari



1.8-rasm. O'zgaruvchan tok generatorining salt ishlash tavsifnomasi

O'zgaruvchan tok generatorlarining ishlash samarasi asosan salt ishlash, tashqi, «tok-tezlik», «tezlik-rostlash» va ishchi tavsifnomalari bilan belgilanadi.


Salt ishlash tavsifnomasi deb $n = \text{const}$ va $I_{Yu} = 0$ bo'lган holda generator ishlab chiqqan EYuK E ning uyg'otish toki I_U ga bog'liqligiga aytildi. Salt ishlash tavsifnomasi (1.8-rasm) bo'yicha generator rejadagi kuchlanishga erishiши uchun rotoring zaruriy aylanishlar chastotasi aniqlanadi. Amalda salt ishlash tavsifnomasi fazaviy EYuK qiymati ($E_f = 4,44 \cdot k_{ch} \cdot f \cdot \omega \cdot F$) orqali hisoblanadi.

Tashqi tavsifnomasi deb $n = \text{const}$, $R_u = \text{const}$ bo'lganda, generator kuchlanishining yuklama to-

sadida, to'g'rilagich blokiga ikki dioddan tashkil topgan qo'shimcha yelka o'rnatilmoqda (1.6-rasmida punktir chiziq bilan ko'rsatilgan). To'g'rilagichning bunday sxemasi stator chulg'amlarini faqat «yulduz» usuli bilan ulangan holda ishlatish mumkin, chunki qo'shimcha yelka generotorning umumiy zanjirga «yulduz» sxemasining nol nuqtasidan ularadi.

To'g'rilagichning VD7, VD8 diodlardan tashkil topgan qo'shimcha yelkasi generatorning faza kuchlanishining o'zgarish shakli sinusoidaladan farqli bo'lgan hollarda ishga tushadi. Bu hol, yuqorida ko'rsatilgandek, generatorning yuklamasi ortishi bilan kuchliroq namoyon bo'ladi. Kuchlanishning o'zgarish shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar uni ma'lum sinusoidalar yig'indisi ko'rinishiga keltirish mumkin. Bu sinusoidalar garmonikalar deb yuritiladi. Birinchi garmonikaning chastotasi faza kuchlanishining chastotasiغا mos keladi, uchinchi garmonikaning chastotasi esa birinchisinkiga nisbatan uch marta yuqori bo'ladi. Faza kuchlanishining o'zgarish shaklini birinchi va uchinchi garmonikalar yig'indisi ko'rinishidagi ifodasi 1.7-rasmida keltirilgan.

VD7, VD8 diodlar aynan uchinchi garmonika kuchlanishini to'g'rilaydi va generatorning nominal quvvatini taxminan 12...15 %ga oshirish imkonini beradi.




1.9-rasm. O'zgaruvchan tok generatorining tashqi tavsifnomalari

kiga bog'liqligiga aytildi, ya'ni $U_g = f(I_{yu})$. Generatorning yuklama toki ortishi bilan kuchlanishni kamayishi quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'ladi: stator chulg'amlarining aktiv va induktiv qarshiliklari uchun kuchlanishning pasayishi, yakor reaksiysi natijasida yuzaga keladigan magnit oqimning magnitsizlantiruvchi ta'siri hamda to'g'rilaqich zanjiridagi kuchlanishning pasayishi hisobiga. Tashqi tavsifnoma, generator o'z-o'zini uyg'otish (1.9-*a* rasm) va tashqaridan uyg'otilish (1.9-*b* rasm) hollarida olinishi mumkin.


«Tezlik-rostlash» tavsifnomasi deb, $U_g = \text{const}$ bo'lganda uyg'otish tokining aylanishlar chastotasiga bog'liqligiga aytildi, ya'ni $I_u = f(n)$. «Tezlik-rostlash» tavsifnomasi odatda yuklama tokining bir qator qiymatlarida aniqlanadi (1.10-rasm). Uyg'otish tokining minimal qiymati yuklama toki nolga teng bo'lganda va maksimal aylanishlar chastotasida aniqlanadi. Tezlik-rostlash tavsifnomasi $U_g = \text{const}$ bo'lganda, yuklama tokining qiymati o'zgarganda, uyg'otish tokining o'zgarish doirasini aniqlash imkonini beradi.

«Tok-tezlik» tavsifnomasi deb, $U_g = \text{const}$, $I_u = \text{const}$ bo'lganda, generator yuklama tokining rotor aylanishlar chastotasiga bog'liqligiga aytildi, ya'ni $I_{yu} = f(n)$ (1.11-rasm).

«Tok-tezlik» tavsifnomasi generatorlarni loyihalashda va tanlashda katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamondan avtomobil generatorlarining barchasi yuklama tokining maksimal qiymatini cheklash xususiyatiga ega. Bu xususiyat generator rotoring aylanishlar chastotasi, ya'ni stator chulg'amlarida induksiyalangan o'zgaruv-



1.10-rasm. O'zgaruvchan tok generatorining tezlik-rostlash tavsifnomasi



1.11-rasm. O'zgaruvchan tok generatorining tok-tezlik tavsifnomasi

chan tok chastotasi ortishi bilan stator chulg'amlarining induktiv qarshiliginin faza chulg'amlaridagi o'ramlar soni kvadratiga proporsional ravishda o'sishi bilan bog'liq. Stator chulg'amlaridagi o'ramlar sonini o'zgartirib, ularni shunday tarzda tanlash mumkinki, Bunda: maksimal aylanishlar chastotasida ham yuklama tokining eng katta qiymati generator uchun belgilangan maksimal miqdordan oshmaydi. Shuning uchun, bu xususiyatga ega bo'lgan generatorlarga tok cheklash relesini o'rnatish zarurati yo'qoladi.

Ishlayotgan generatorga yuklama berilsa, ya'ni u tashqi iste'molchilarga ulansa, stator chulg'amlaridan I tok o'tadi:

$$I = \frac{E}{\sqrt{(R_a + R_{yu})^2 + X_L^2}}, \quad (1.7)$$

Bunda: R_a – stator chulg'amlarining aktiv qarshiligi, R_{yu} – yuklama qarshiligi, X_L – induktiv qarshilik, E – stator chulg'amlarida hosil bo'lgan EYuK.

$f = pn/60$ ni hisobga olgan holda, induktiv qarshilik R_L ni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$X_L = 2\pi \cdot f \quad L = 2\pi \frac{pn}{60} \cdot L.$$

O'zgarmas kattaliklarni $C_x = \frac{2\pi \cdot p}{60} L$ orqali belgilasak:

$$X_L = C_x \cdot n,$$

Endi, $E = C_e \cdot n \cdot F$ hisobga olinsa, (1.7) quyidagi ko'rinishga keladi:

$$I = \frac{C_e \cdot n \cdot F}{\sqrt{(R_a + R_{yu})^2 + (C_x \cdot n)^2}}. \quad (1.8)$$

Aylanishlar chastotasi past bo'lganda qarshilikning induktiv qismi $(S_x \cdot n)^2$ aktiv qismi $(R_a + R_{yu})^2$ ga nisbatan juda kichik va uni hisobga olmasa ham bo'ladi:

$$I = \frac{C_e \cdot n \cdot F}{\sqrt{(R_a + R_{yu})^2}} = \frac{C_e \cdot \Phi}{R_a + R_{yu}} \cdot n$$

Bu ifodadan ko'rinib turibdiki, aylanishlar chastotasi past bo'lganda, tok aylanishlar chastotasiga proporsional ravishda o'sadi (1.11-rasmning boshlanish qismi).

Aylanishlar chastotasi ortishi bilan qarshilikning induktiv qismi tez o'sadi va aksincha, qarshilikning aktiv qismi hisobga olmaslik darajagacha keskin kamayadi. Bu holda:

$$I = \frac{C_e \cdot n \cdot F}{\sqrt{(C_x \cdot n)^2}} = \frac{C_e \cdot n \cdot F}{C_x \cdot n} = \frac{C_e}{C_x} \cdot F.$$

Demak, rotoring aylanishlar chastotasi katta bo'lganda, tokning qiymati generator chulg'amlarining ko'rsatkichlari va magnit oqimining kattaligi bilan belgilanib, aylanishlar chastotasiga bog'liq bo'lmaydi.


O'zgaruvchan tok generatorlarining «tok-tezlik» tavsifnomasini yetarli darajada aniqlik bilan ($n \geq n_s$ bo'lganda) quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin:

$$I_{yu} = I_{y_{u \max}} \left(1 - e^{-\frac{n_s - n}{n_s}} \right). \quad (1.9)$$

Bu yerda: n_s – generator salt ishlagandagi aylanishlar chastotasi; $I_{y_{u \max}}$ generator uchun belgilangan maksimal yuklama toki.

Yuklama tokini cheklash xususiyatiga ega bo'lgan o'zgaruvchan tok generatorlar uchun «nominal quvvat» degan tushuncha o'z ma'nosini yo'qotadi. Shuning uchun, generatorning asosiy ko'rsatkichlari R/n nisbatning (Bunda: R – generator quvvati) maksimal qiymatiga qarab belgilanadi. Demak, $R/n = f(n)$ egri chiziqning eng katta qiymatiga to'g'ri keladigan tok I_N va aylanishlar chastotasi n_N shu generator uchun nominal hisoblanadi (1.11-rasm). $I_{yu} = f(n)$ tavsifnomada generatorning nominal rejimiga to'g'ri keladigan nuqtani $R/n = f(n)$ egri chiziqsiz ham aniqlash mumkin. Buning uchun koordinata boshidan $I_{yu} = f(n)$ egri chizig'iga urinma o'tkaziladi va urinish nuqtasi I_N va n_N ning qiymatlari belgilanadi.

Ishchi tavsifnomasi deb, generator salt yoki har xil qiymatdagi yuklamalar bilan ishlaganda uning kuchlanishi U_g ni aylanishlar chastotasi n ga bog'liqligiga aytildi, ya'ni $U_g = f(n)$. Generatorning ishchi tavsifnomalaridan ko'rinib turibdiki (1.12-rasm), yuklama tokining qiymatidan qat'i nazar, rotoring aylanishlar chastotasi ortishi bilan generatorning kuchlanishi o'sib boradi va uning qiymati tok iste'molchilari uchun xavfli bo'lgan darajagacha ko'tarilishi mumkin (masalan, 12 V li avtomobil tok tarmog'i uchun – 28...30 V gacha). Bundan tashqari, generator harakatni dvigatelning tirsakli validan olganligi uchun, uning aylanishlar chastotasi juda katta chegarada o'zgarib turadi. Shuning uchun, avtomobil generatori beradigan kuchlanishi avtomatik ravishda rostlab turish zarur. Ishchi tavsifnomalaridan generatorning **unum** va **to'la unum** bilan ishlash nuqtalari aniqlanadi.



1.12-rasm. O'zgaruvchan tok generatorining ishchi tavsifnomasi

tavsifnomada nominal kuchlanish U_N chizig'ini kesib o'tgan nuqta N bilan belgilanadi (1.12-rasm).

Ishchi tavsifnomalarning tahlilidan yana bir muhim amaliy xulosa chiqarish mumkin – generatorning yuklama toki ortishi bilan nominal kuchlanish ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan aylanishlar chastotasi ham oshib boradi.

Unum bilan ishlash n_0 va to'la unum bilan ishlash n_N nuqtalari generatorning texnik holatini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar bo'lib, generatorlarning texnik tavsifnomalarida keltiriladi.


1.1.3. O'zgaruvchan tok generatorlarining konstruksiyasi va ularning o'ziga xos tomonlari

Kontakt halqali o'zgaruvchan tok generatorlarining avtomobil larda juda keng ko'lamda tafsiq etilgan turlaridan biri 32.3701 (Г250) belgili generator va uning ko'p sonli har xil ko'rinishlaridir. 1.13-rasmda shu generatorning tuzilishi berilgan.

Generatorning halqasimon stator o'zagi 10, uyurma toklarni kamaytirish maqsadida bir-biridan lok bilan izolyatsiya qilingan, qalinligi $\approx 1,0$ mm bo'lgan elektrotexnik polat tasmalardan yig'ilgan, ular tashqi yuzadagi aylana bo'ylab oltita nuqtada o'zaro kavsharlangan. Statorning ichki yuzasida 18 ta bo'ylama ariqchalari bo'lib, ular bir-biridan tishchalar bilan ajratilgan. Har bir tishchaga sirlangan mis simdan o'ralgan 18 ta g'altak 8 o'rnatilgan. G'altaklar uchta faza chulg'amlariga bo'linib, har bir chulg'amga ketma-ket ulangan oltita g'altak kiradi. Bitta

Unum bilan ishlash nuqta-si deb, generator salt ishlaganda, nominal kuchlanishli tok ishlab chiqish uchun rotoring zarur bo'lgan aylanishlar chastotasi n_0 ga aytildi va u $I_{yu} = 0$ bo'lgandagi ishchi tavsifnomada nominal kuchlanish U_N chizig'ini kesib o'tgan nuqta 0 bilan belgilanadi (1.12-rasm).

To'la unum bilan ishlash nuqtasi deb generator nominal yuklama toki bilan ishlaganda nominal kuchlanish ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan aylanishlar chastotasi n_N ga aytildi va u $I_{yu} = I_N$ bo'lgandagi ishchi



1.13-rasm. 32.3701 belgili o'zgaruvchan tok generatori:
a) ko'ndalang kesimi; b) asosiy qismlari

fazaga taalluqli g'altaklar ikkita tishcha oralatib uchinchisiga kiygizilgan. Faza chulg'amlari o'zaro «yulduz» sxemasi bo'yicha ulangan, ularning boshlang'ich uchlari bir joyda tutashib uch fazali sistemaning nol nuqtasini hosil qiladi. Faza chulg'amlarining ikkinchi uchlari to'g'rilaqich bloki 3 ning qisqichlari 2 ga ulangan.

Rotor (1.13- b rasm) taramlangan valga presslangan, ikkita, biri ikkinchisining orasiga kirgan, qarama-qarshi qutbli (biri shimoliy qutb N, ikkinchisi janubiy qutb S), olti uchli turmushuqsimon po'lat o'zaklar 9 dan va ular orasidagi po'lat vtulka

/2 ga sirlangan mis simdan o'ralgan uyg'otish chulg'ami // dan iborat. Uyg'otish chulg'amining uchlari valdan va biri-biridan izolyatsiya qilingan mis kontakt halqalari 4 ga qalaylab ulangan.


Rotor, qopqoqlarga o'matilgan yopiq turdag'i, zoldirli podshipniklarda aylana-di. Generatori ni yig'ish jarayonida podshipniklar yuqori sifatlari konsistent moy bilan to'ldiriladi va ishlatalish davrida boshqa moylanmaydi. Aluminiy qotishmalaridan bosim ostida quyish yo'li bilan tayyorlangan generator qopqoqlarida shamollatish darchalari qoldirilgan. Kontakt halqalari joylashgan tomondagi qopqoq 1 ga ikki-ta mis-grafit cho'tka o'rnatilgan, plastmassadan tayyorlangan cho'tkatutqich 6 va to'g'rilaqich bloki 3 joylashtirilgan. Cho'tkalar mis halqalarga cho'tkatutqichdagi prujinalar 7 yordamida bosib turiladi.

Generator qopqoqlari dvigateldagi tayanchga mahkamlash uchun mo'ljallangan teshikli quloqchalarga ega. Yuritma tomondagi qopqoq 13 da esa yana bir quloqcha bo'lib, unga uzatma tasmasining taranglik darajasini rostlash plankasi mahkamlanadi. Har ikkala qopqoq stator o'zagi bilan birgalikda uchta vint bilan bir-biriga tortilgan. Generator valiga shponka yordamida parrakli shkiv o'rnatilgan. Parraklar 14 qopqoqlardagi shamollatish darchalari orqali havo oqimini o'tkazib, generator chulg'amilarini va to'g'rilaqich blokidagi diodlarni sovutib turadi.

Hozirgi zamон avtomobil generatorlarida asosan ikki turdag'i to'g'rilaqich bloklari ishlatalmoqda:

a) aluminiy yoki uning qotishmalaridan tayyorlangan shina – issiqlik tarqatgichga presslangan yoki kavsharlangan yarimo'tkazgichli diodlardan tashkil topgan to'g'rilaqich;

b) kuchli darajada qovurg'alangan qobiqqa kavsharlangan tabletkasimon diodlardan tashkil topgan to'g'rilaqich.



1.14-rasm. БПИВ туридаги то'г'rilaqich bloki

Birinchi turdag'i to'g'rilaqichlar toifasiga Rossiya avtomobillarining generatorlarida keng tatbiq topgan БПИВ belgili to'g'rilaqich bloki kiradi. Generator qopqoq'iga o'rnatilgan БПИВ to'g'rilaqich bloki (1.14-rasm) uchta to'g'ri o'tkazuvchan diodlar 3 presslangan, yarim aylana musbat shina 5 va uchta teskari o'tkazuvchan diodlar 2 presslangan yarim aylanali manfiy shina 1 dan iborat.

Aluminiydan tayyorlangan shinalar bir-biridan to'la izolyatsiya qilingan bo'lib, ular tok o'tkazgich va diodlar qizib ketishidan saqlovchi issiqlik tarqatgich vazifasini bajaradi. To'g'rilaqich blokining kremniyli diodlari o'zaro uch fazali, ikkita yarim davrli, ko'priq sxemasi bo'yicha ulangan. Diodlardan chiqqan uchlari, shinalardan izolyatsiya qilingan, vintli qisqichlar 4 ga mahkamlangan bo'lib,

ularga stator fazalar chulg'amlari 6 ning ikkinchi uchlari ulanadi.


Ikkinci turdag to'g'rilaqichlarga misol tariqasida «Magneti Marelli» (Italiya) firmasining AA125R belgili generatorlari ga o'rnatilgan to'g'rilaqich blokini keltirish mumkin (1.15-rasm). Bu to'g'rilaqichlarda aluminiy qotish-malaridan ekstruziya usuli bilan yasalgan kuchli qovurg'alangan ikki radiator – issiqlik tarqatgichlari ularni bir-biridan ajratib turuvchi plastmassadan tay-yorlangan yig'ish taxtachasiga mahkamlangan. Tabletkasimon oltita katta quvvatli yarimo'tkazgichli diodlar kontakt yuzalari bilan issiqlik tarqatgichlarga va yig'ish taxtachasining metall shinalariga kavsharlangan. Uyg'otish chulg'amining uchta kam quvvatli diodlari alohida blokka birlashtirilgan bo'lib, ular yig'ish taxtachasining tegishli shinalariga kavsharlanadi.

32.3701 ($\Gamma 250$) belgili generatorining turli rusimli avtomobillar uchun mo'ljalangan 16.3701, 19.3701, 29.3701 ko'rinishlari (modifikatsiyalari) mavjud. Bu generatorlarning hammasida nominal kuchlanishi 14 V, umumiy tuzilish – bir xil. Ular biri-biridan yuritma shkvining o'lchamlari yoki uyg'otish chulg'ami uchlari qopqoqqa chiqarish uslubi bilan farq qiladi. 32.3701 generatorining nominal kuchlanishi 28 V bo'lgan va asosan dizel dvigatelli avtomobillarda ishlatalish uchun mo'ljalangan 3812.3701, $\Gamma 272$, $\Gamma 273$ ko'rinishlari ham bor.

BA3 2101, 2103, 2106 avtomobillarida o'rnatilgan $\Gamma 221$ generator 32.3701 dan statoridagi ariqchalarining soni ikki baravar ko'pligi ($z = 36$) bilan farq qiladi. Statorning chulg'amlari ikki qatlamli bo'lib, to'lqinsimon usulda o'ralgan va uning har bir g'altagi bir yo'la uchta tishchani qamrab olgan. Faza chulg'amlari «yulduz» sxemasi bo'yicha ulanib, nol nuqtasi akkumulator zaryad qilinishini ko'rsatadigan nazorat relesining lampachasiga ulangan. Bu nazorat lampachalari BA3 avtomobilarida ampermetr o'rnida ishlatalidi.

BA3-2109 avtomobillariga o'rnatilayotgan 37.3701 generatorlari, zamonaviy generatorlarda tatbiq qilingan texnik yangiliklarning ko'philigini o'zida mujassamlashtirgan. 37.3701 generatorlari (1.16-rasm) БПВ 11-60-02 belgili to'g'rilaqich bloki va 17.3702 ($\mathcal{K}112$) belgili kichik o'lchamli – integral kuchlanish rostagichini o'z ichiga oladi va amalda generator qurilmasi vazifasini bajaradi, ya'ni uch fazali o'zgaruvchan tok ishlab chiqaradi, o'zgarmas tokka aylantiradi va uni belgilangan kuchlanish chegarasida rostlab turadi.

Generator statori 5 ichki yuzasi bo'ylab oraliq'i bir xil bo'lgan 36 ta ariqchaga (pazga) ega. Ariqchalarga uch fazali «qo'sh yulduz» sxemasi bo'yicha ulangan sta-



1.15-rasm. «Magneti Marelli» (Italiya) firmasining AA125R belgili generatorning to'g'rilaqich bloki:
1 – musbat issiqlik tarqatgich, 2 – manfiy issiqlik tarqatgich, 3 – uyg'otish chulg'amining qo'shimcha to'g'rilaqichi va uning ulanish qisqichi, 4 – tabletkasimon yarimo'tkazgichli diod


quvvatli diodlari alohida blokka birlashtirilgan bo'lib, ular yig'ish taxtachasining tegishli shinalariga kavsharlanadi.

32.3701 ($\Gamma 250$) belgili generatorining turli rusimli avtomobillar uchun mo'ljalangan 16.3701, 19.3701, 29.3701 ko'rinishlari (modifikatsiyalari) mavjud. Bu generatorlarning hammasida nominal kuchlanishi 14 V, umumiy tuzilish – bir xil. Ular biri-biridan yuritma shkvining o'lchamlari yoki uyg'otish chulg'ami uchlari qopqoqqa chiqarish uslubi bilan farq qiladi. 32.3701 generatorining nominal kuchlanishi 28 V bo'lgan va asosan dizel dvigatelli avtomobillarda ishlatalish uchun mo'ljalangan 3812.3701, $\Gamma 272$, $\Gamma 273$ ko'rinishlari ham bor.

BA3 2101, 2103, 2106 avtomobillarida o'rnatilgan $\Gamma 221$ generator 32.3701 dan statoridagi ariqchalarining soni ikki baravar ko'pligi ($z = 36$) bilan farq qiladi. Statorning chulg'amlari ikki qatlamli bo'lib, to'lqinsimon usulda o'ralgan va uning har bir g'altagi bir yo'la uchta tishchani qamrab olgan. Faza chulg'amlari «yulduz» sxemasi bo'yicha ulanib, nol nuqtasi akkumulator zaryad qilinishini ko'rsatadigan nazorat relesining lampachasiga ulangan. Bu nazorat lampachalari BA3 avtomobilarida ampermetr o'rnida ishlatalidi.

BA3-2109 avtomobillariga o'rnatilayotgan 37.3701 generatorlari, zamonaviy generatorlarda tatbiq qilingan texnik yangiliklarning ko'philigini o'zida mujassamlashtirgan. 37.3701 generatorlari (1.16-rasm) БПВ 11-60-02 belgili to'g'rilaqich bloki va 17.3702 ($\mathcal{K}112$) belgili kichik o'lchamli – integral kuchlanish rostagichini o'z ichiga oladi va amalda generator qurilmasi vazifasini bajaradi, ya'ni uch fazali o'zgaruvchan tok ishlab chiqaradi, o'zgarmas tokka aylantiradi va uni belgilangan kuchlanish chegarasida rostlab turadi.

Generator statori 5 ichki yuzasi bo'ylab oraliq'i bir xil bo'lgan 36 ta ariqchaga (pazga) ega. Ariqchalarga uch fazali «qo'sh yulduz» sxemasi bo'yicha ulangan sta-



1.16-rasm. 37.3701 generatori

Aluminiy qotishmalaridan quyilgan generator qopqoqlari 8, 16 ga zoldirli podshipniklar 10, 17 o'rnatilgan. Podshipnikning tashqi halqasi aylanib ketishi va natijada qizib, tez ishdan chiqishining oldini olish maqsadida unga rezina halqa kiyigliqan.

Generator qopqog'i 16 ga o'rmatilgan to'g'rilagich bloki 14 odatdagilardan sxe-masidagi oltita diodga qo'shimcha yana uchta to'g'ri o'tkazuvchan diodlar borligi bilan farq qiladi. Bu diodlar orqali uyg'otish chulg'amiga generatordan tok beriladi. Generatorni bu usulda uyg'otish 1.2.1-bo'limda batafsil ta'riflangan.

Avtomobil elektron asboblarini kuchlanishning nazarga olinmagan impulslandidan saqlash maqsadida generatorning musbat qutbi bilan qobig'i (ya'ni «massa») orasiga kondensator 15 (1.16-rasm) ulangan.


Ikkita mis-grafitli, ЃГ51 belgili cho'tkalar o'rmatilgan cho'tkatutqich / va integral kuchlanish rostlagichi bitta plastmassa qobiq ichiga joylashtirilgan bo'lib, u generatorning kontakt halqalar tomonidagi qopqog'iga mahkamlangan.

Qopqoq 16 ning qulinqchasi 13 ga temir sim bilan mustahkamlangan rezina vtulka qo'yilib, u generator bilan dvigatelning elastik bog'lanishini ta'minlaydi va qulinqchalarni darz ketishidan yoki sinishdan saqlaydi.

Valga segmentli shponka 9 vositasida o'rnatilgan markazdan qochma ventilator 11 qopqoqlardagi darchalar orqali generator chulg'amlarini sovitib turish uchun xizmat qiladi.

tor chulg'amlari joylashtirilgan. Uning har bir fazasi ikkitadan parallel tarmoqdan iborat bo'lib, tarmoqlarning har biri oltitan dan ketma-ket, uzluksiz o'ralgan g'altaklarga ega.

Rotor 4, taramlangan val 3 ga presslangan ikkita yarim bo'lak o'zakdan iborat bo'lib, ular bir butun qilib ishlangan oltitatadan tumshuqsimon qutblarga va yarim vtulkalarga ega. Issiqqa chidamli ПЭТВ-1 belgiligi sirlangan mis simdan o'ralgan uyg'otish chulg'ami plastmas-sa karkasga, rotor o'zaklarining orasiga, ularning yarim vtulkalariiga o'rnashtirilgan. Uyg'otish chulg'aming uchlari mis kontakt halqalar 2 ga payvandlangan.



1.17-rasm. Delko Remy firmasining CS-130 belgili generatori:


a) umumiy ko'rinishi; b) rotor; c) to'g'rilaqich bloki; d) kuchlanish rostagichi va cho'tka-tutqich; 1 – musbat issiqlik tarqatgich; 2 – manfiy issiqlik tarqatgich.

GM-Uzbekistan qo'shma korxonasining avtomobillariga (TIKO, DAMAS, NEXIA) Delco Remy firmasining CS-121 va CS-130 belgili o'zgaruvchan tok generatorlari o'rnatilgan. TIKO va DAMAS avtomobillariga o'rnatilgan generatorlarning stator chulg'ammlari «yulduz» sxemasi bo'yicha, NEXIA avtomobilla-rida esa «uchburchak» sxemasi bo'yicha ulangan.

NEXIA avtomobiligao'rnatilgan CS-130 belgili generator (1.17-rasm) ikki xil sovitish tizimiga ega. Yuritma shkividagi markazdan qochma ventilyatordan tashqari rotor valining kontakt halqlari joylashtirilgan tomonga qo'shimcha «olmaxon g'ildiragi» turidagi (1.17- b rasm) markazdan qochma plastmassa ventilyator o'rnatilgan. Bu generatorning stator chulg'ammlarini sovitish sharoitlarini ancha yaxshilaydi.

Umuman, zamonaviy avtomobilarda sovitish parraklari ichki qismiga joylashtirilgan generatorlar tobora keng joriy qilinmoqda. Ular kompakt generatorlar (1.18-rasm) deb yuritiladi va an'anaviy tuzilishga ega bo'lgan generatorlardan asosan quyidagilar bilan farqlanadi:

a) ikkita sovitish parraklari generator korpusining ichiga joylashtirilib, ular rotor valining ikkala



1.18-rasm. BOSCH firmasining kompakt generatori:

1 – shkiv, 2, 6 – oldingi va ketingi qopqoqlar, 3 – ventilyatorlar, 4 – stator, 5 – rotor, 7 – cho'tkatutqich-kuchlanish rostagichi birlashtirilgan tugun, 8 – himoya qobiq'i, 9 – kontakt halqlari, 10 – to'g'rilaqich bloki, 11 – mahkamlash qulog'i.

tomoniga o'rnatiladi. Bu sovituvchi havo oqimini ancha kuchayishiga va generator o'lchamlarini o'zgartirmagan holda quvvatini 10...12% ga oshirish imkonini beradi;


b) kontakt halqalari, cho'tkatutqich va cho'tkalar, kuchlanish rostlagichi va to'g'rilagich bloki generatordaning ichki qopqog'idan tashqariga joylashtiriladi va maxsus himoya qobig'i bilan berkitiladi. Bu generator korpusi o'lchamlarini, kontakt halqalar diametrini kichraytirish, podshipniklarni sovitish sharoitlarini yaxshilaydi;

d) kompakt generator yuritmasi elastik poliklin tasma vositasida rotor valiga o'rnatilgan ko'p jilg'ali va diametri kichraytirilgan shkv orqali amalga oshiriladi. Uzatmaning uzatish nisbati 3,5 gacha orttirilgan va bu dvigatel salt ishlagan hollar da ham akkumulatorlar batareyasini zaryad qilish imkoniyatini beradi.


1.1.4. Kontaktsiz (cho'tkasiz) o'zgaruvchan tok generatorlari

Kontakt halqalari va cho'tkalari bo'lmagan o'zgaruvchan tok generatorlari boshqa turdag'i generatorlardan o'zining ishonchlilik va chidamlilik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu turkumdagi generatorlarning xizmat muddati faqat podshipniklar yeyilishi va chulg'amlar izolyatsiyasi eskirishi bilan cheklanadi. Kontaktsiz generatorlar og'ir sharoitda, ya'ni chang - to'zon ko'p bo'ladigan karyerlarda, yo'lsizlik sharoitida ishlaydigan avtomobil lar uchun ayniqsa zarur.

Kontaktsiz generatorlarning induktorli va qisqartirilgan tumshuqsimon qutbli shakllari mavjud. Bu turkumdagi generatorlarning umumiyligi tomoni shundan iboratki, ularda uyg'otish chulg'ami qo'zgalmas bo'ladi, farqi esa, uyg'otish chulg'ami o'rnatilgan joy bilan bog'liq. Masalan, induktorli generatorlarda (1.19-rasm) uyg'otish chulg'ami rotordaning yon tomonida, qopqoqqa mahkamlangan vtulkaga o'rnatilgan bo'lsa, qisqartirilgan tumshuqsimon qutbli generatorda (1.20-rasm),



1.19-rasm. Induktorli generatordaning konstruktiv sxemasi




1.20-rasm. Tumshuqsimon, qisqartirilgan qutbli generatordaning konstruktiv sxemasi.

maxsus moslamalar yordamida, rotorning ikkita yarim o'zagining o'rtasiga joylash-tiriladi.

Induktorli generatorlar quyidagicha ishlaydi. Uyg'otish chulg'ami 1 dan o'zgarmas tok o'tishi natijasida hosil bo'lgan magnit oqimi rotor aylanganda kattaligini ham, yo'nalishini ham o'zgartirmaydi. Bu oqim vtulka 2 va val 3 orasidagi havoli tirkish, tishchalari yulduzcha ko'rinishida ishlangan rotor 4, rotor va stator orasidagi havoli tirkish, stator o'zagi 5, qopqoq 6 orqali yana vtulka 2 ga tutashadi. Rotor aylanganda undagi tishchalarning stator tishchalariga nisbatan holti o'zgaradi va stator tishchalaridan o'tayotgan magnit oqimi maksimal qiymatdan (rotor va stator tishchalarining o'qlari mos kelganda) minimal qiymatgacha (stator tishchalar bilan rotor ariqchalarining o'qi mos kelganda) o'zgaradi. Stator tishchalaridagi magnit oqimining o'zgarishi uning chulg'ammlarida o'zgaruvchan EYuK induksiyalanishiga olib keladi.

Qisqartirilgan tumshuqsimon qutbli generatorlarda (1.20-rasm) uyg'otish chulg'ami 4 rotorning ikkita yarim o'zagi 2, 3 orasidagi tirkishdan tushirilgan qo'zgalmas nomagnit disk 1 ga o'rnatilgan. Uyg'otish chulg'amidan tok o'tganda, uning atrofida hosil bo'lgan magnit maydoni ta'sirida rotorning tumshuqsimon qutbli yarim o'zaklari magnetlanadi. Rotor aylanganda uning atrofidagi magnit maydonining kuch chiziqlari (magnit oqimi) stator chulg'ammlarini kesib o'tadi va ularda o'zgaruvchan EYuKni induksiyalaydi. Bu generatorlar sodda to'zilishi bilan ajralib turadi. O'lchamlari nisbatan kattaligi va uyg'otish chulg'aminibikr mahkamlash qiyinligi bu turdagilarning kamchiligi hisoblanadi.

AQSHning Delko-Remi firmasi tomonidan qisqartirilgan qutbli tumshiqsimon kontaktsiz generatorlarning boshqacha turi ishlab chiqilgan (1.21-rasm). Bu generatorlarda rotor qo'ng'iroqsimon shaklga ega bo'lib, po'lat qutbning birinchi yarmi oddiy cho'tkali generatorlardagi singari



1.21-rasm. Delko-Remi firmasining (AQSH) kontaktsiz generatori:

- 1 – shkiv, 2 – ventilyator, 3 – qo'zg'almas magnit o'tkazgich o'rnatilgan qopqoq,
- 4 – nomagnit halqa, 5 – qo'zg'almas uyg'otish chulg'ami, 6 – qo'ng'iroqsimon rotor qutbining valga mahkamlangan yarmi,
- 7 – orga qopqoq, 8 – kuchlanish rostagichi,
- 9 – to'g'rilagich bloki, 10 – mahkamlash qulog'i, 11 – stator, 12 – rotor qutbining nomagnit halqa orqali kavsharlangan yarmi.

rotor valiga presslab mahkamlangan. Qutbning ikkinchi yarmi esa qisqartirilgan ko'rinishda nomagnit halqa orqali qutbning birinchi yarmiga kavsharlangan. Uyg'atish chulg'ami generator qopqog'iga qo'zg'almas qilib mahkamlangan magnit o'tkazgichga joylashtirilgan. Rotor vali harakatga kelganda bir-biriga kavsharlangan turmushuqsimon po'lat qutblar aylanadi, uyg'atish chulg'ami esa qo'zg'almas hold bo'ladi.

1.2. AVTOMOBIL GENERATORINING KUCHLANISHINI AVTOMATIK ROSTLASH

1.2.1. Generator kuchlanishini rostlash asoslari

Avtomobil generatori o'ziga xos sharoitlarda ishlaydi. U harakatni tasmali uzatma orqali dvigatelning tirsakli validan olganligi sababli, rotorining aylanishlar chastotasi va demak, ishlab chiqqargan kuchlanishi ham nisbatan keng doira-da o'zgarib turadi. Generatorning yuklamasi unga ulanayotgan iste'molchilar soni va ularning quvvatiga qarab o'zgarib turadi. Yuklama tokining o'zgarishi ham generatorning kuchlanishiga ta'sir ko'rsatadi (1.9-rasmga qarang). Avtomobilga o'rnatilgan elektr toki iste'molchilar kuchlanishning ma'lum belgilangan (12 yoki 24 V) o'zgarmas qiymatida ishlashga mo'ljallangan. Yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra, generator ishlab chiqqan kuchlanishi rostlab, uni belgilangan darajada o'zgarmas holda ushlab turish zarurati tug'iladi. Bu vazifani kuchlanish rostlagichlari bajaradi. Ishlash prinsipiqa ko'ra rostlagichlar quyidagi guruhlarga bo'linadi: kontaktli (tebranuvchi), kontakt-tranzistorli, kontaktsiz-tranzistorli va integral.

Generator kuchlanishini rostlashning asosiy tamoyili quyidagidan iborat. Ichki qismiga to'g'rilaqich bloki o'rnatilgan o'zgaruvchan tok generatorining qisqichlaridagi kuchlanishi quyidagi bog'lanish orqali ifodalash mumkin:

$$U_G = E_G - U_O - ZI_G = c \cdot n \cdot F - U_O - ZI_G \quad (1.10)$$

Bunda: $E_G = c \cdot n \cdot F$ – generatorning EYuK, c – generatorning tuzilishiga bog'liq bo'lgan o'zgarnas koefitsiyent, n – rotoring aylanish chastotasi, F – uyg'otish chulg'amida hosil qilinadigan magnit oqimi, U_O – to'g'rilaqich blokida kuchlanishning pasayishi, Z – stator chulg'ammlaring to'la qarshiligi, I_G – to'g'rilaqan tokning o'rtacha qiymati.

Rotorda vujudga keladigan magnit oqimi F ning qiymati quyidagicha:

$$F = I_U (a + bI_U)$$

Bunda: I_U – uyg'otish toki, a va b – generatorning tuzilishi va ishlatilgan materiallarning magnit xususiyatlariga bog'liq bo'lgan o'zgarmas koefitsiyentlar.

Magnit oqimining bu ifodasini (1.10) ga qo'ysak hamda to'g'rilaqich blokidagi va stator chulg'amlaridagi kuchlanish pasayishini hisobga olmašak:

$$U_G \approx c n I_U (a + b I_U). \quad (1.11)$$

Bu ifodadan ko'rinib turibdiki, generator rotorining aylanishlar chastotasini va yuklama o'zgarganda generator kuchlanishi ni belgilangan darajada ushlab turish uchun *faqat uyg'otish toki* I_U *qiymatini o'zgartirish yo'li bilan* amalga oshirish mumkin. Rotorning aylanish chastotasi ortishi bilan uyg'otish tokini kamaytirish va yuklama toki ortishi bilan esa uyg'otish tokini ham oshirish zarur.


Generator qurilmasining kuchlanishini rostlashning tarkibiy sxemasi (1.22-rasm) kuchlanish rostlagichi 1 va generator 2 dan tashkil topgan. Rostlagich esa, o'z navbatida, taqqoslash 3, rostlash 4 va o'Ichov 5 elementlaridan iborat. O'Ichov elementi 5 generator kuchlanishini qabul qilib oladi va uni $U_{o'ich}$ signaliga aylantiradi. $U_{o'ich}$ signali solishtirish elementi 3 da uning belgilangan etalon qiymati U_E bilan taqqoslanadi. Ular orasidagi farq, generator kuchlanishi – U_G bilan belgilangan rostlanish kuchlanishi U_R orasidagi farqga proporsionaldir. Agar U_E bilan $U_{o'ich}$ orasida farq bo'lsa, taqqoslovchi element 3 da U_O signal hosil bo'ladi. Bu signal rostlash elementi 4 ga keladi va natijada u uyg'otish toki qiymatini, va demak, generator kuchlanishi U_G ni U_O signal nolga, ya'ni $U_{o'ich}$ signal U_E ga, U_G esa U_R ga teng bo'lguncha o'zgartiradi.

Amaliy rostlagichlarda etalon signal sifatida kuchlanish bilan bir qatorda o'zining qiymatini yetarli darajada barqaror saqlab turadigan fizik kattalik, masalan, prujinani tortish kuchi ishlatalishi mumkin.

1.2.2. Elektromagnit kuchlanish rostlagichlari

Rus artilleriya zabitasi M.I.Karmanov tomonidan 1881-yilda taklif qilingan elektromagnit (tebranuvchi) kuchlanish rostlagichlari asosan o'zgarmas tok generatorlari bilan ishlataladi. Elektr ta'minot tizimida o'zgaruvchan tok generatorlariga o'tilishi bilan ishonchliligi va ishlash muddati yuqori bo'lgan elektron kuchlanish rostlagichlar elektromagnitli rostlagichlarni toboro siqib chiqarmoqda. Elektromagnitli rostlagichlar tuzilishining soddaligi va nisbatan arzonligi tufayli hozirgi kunda ham ba'zi yengil avtomobilarda qo'llanilmoqda.

Elektromagnitli kuchlanish rostlagichining sxemasi 1.23-rasmda berilgan. Uning magnit tizimi U shaklidagi yarmo 8, chulg'am 7 o'ralgan o'zak 3 va yakorcha 4 dan iborat. O'zak, yarmo va yakorcha yuqori magnit o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan kam uglerodli po'latlardan tayyorlangan. Chulg'am 7 genera-




1.22-rasm. Generator kuchlanishini rostlashning tarkibiy sxemasi

torning to'la kuchlanishiga ulangan. Prujina 6 yakorcha 4 ni tortib, kontaktlar 2 ni tutash holda ushlab turadi. Rostlagichning volframdan tayyolangan kontaktlari 2 yakorcha va yarmo orqali generatorning uyg'otish chulg'ami U_{Ch} zanjiriga ketma-ket ulangan. Kontaktlarning biri yakorcha 4 ga, ikkinchisi esa qo'zg'almas plastina 1 ga mahkamlangan. Kontaktlarga parallel, uyg'otish chulg'amiga esa ketma-ket qo'shimcha qarshilik R_q ulangan. Yakorcha 4 termobimetall plastina (TBP) 5 ga joylashtirilgan. Elektromagnit kuchlanish rostlagichlarida etalon kattalik vazifasini prujina 6 ning tortish kuchi, o'Ichov elementi vazifasini esa generator ishlab chiqqan kuchlanishdan ta'sirlanuvchi rostlagichning chulg'ami 7 bajaradi.

Rostlagichning ishlash prinsipi. O't oldirish kaliti $O'OK$ ulanganda tok akkumulatorlar batareyasidan tutash kontaktlar 2, yakorcha 4, yarmo 8, ya'ni qarshili-gi kam bo'lgan zanjir orqali uyg'otish chulg'amiga keladi va uning atrofida magnit maydonni hosil qiladi. Ayni vaqtida tok elektromagnitning chulg'ami 7 ga ham keladi va o'zak 3 ni magnitlaydi. Generatorning kuchlanishi U_G belgilangan rostlanish kuchlanishi U_R dan kam bo'lгganda ($U_G < U_R$), prujina 6 kontaktlar 2 ni tutash holda ushlab turadi, chunki o'zak 3 da hosil bo'lgan magnit maydonining yakorni tortish kuchi, prujinani tortish kuchidan kam bo'ladi. Rotoring aylanishlar chastotasi ortishi bilan generatorning kuchlanishi ham o'sib boradi. Generator kuchlanishining ortishi rostlagichning chulg'ami 7 dagi tok kuchining ham ortishi-ga va o'zak 3 ni kuchli magnitlanishiga olib keladi. Bu jarayon davom etib, generator kuchlanishi U_G ning qiymati rostlanish kuchlanishi U_R dan ($U_G > U_R$), ortgan, ya'ni o'zak 3 magnit maydonining tortish kuchi prujina 6 ning tortish kuchidan ort-gan vaqtida kontakt 2 uziladi.

Kontakt 2 uzilishi bilan generatorning uyg'otish chulg'ami zanjiriga ketma-ket qo'shimcha qarshilik R_Q ulanadi, natijada uyg'otish chulg'amidan o'tayotgan tok miqdori keskin kamayadi. Bu esa o'z navbatida, uyg'otish chulg'ami atrofi-dagi magnit oqimining susayishiga va generatorning stator chulg'amlarida induksiyanayotgan EYuK qiymati, demak kuchlanishning taxminan 0,1–0,4 V ga kama-yishiga olib keladi. Generator kuchlanishining pasayishi bilan rostlagich chulg'ami 7 dan o'tayotgan tok va o'zak 3 dagi magnit maydonning tortish kuchi kamayadi va natijada prujina 6 ning tortish kuchi ta'sirida rostlagich kontaktlari yana tutashadi. Tok uyg'otish chulg'amiga yana qarshiligi kam bo'lgan zanjir, ya'ni yakorcha va yarmo orqali uzatiladi, uyg'otish chulg'amidan o'tayotgan tok ortadi, uning atrofida hosil bo'layotgan magnit oqim kuchayadi va demak, generatorning kuchlanishi yana o'sadi. Generator kuchlanishining o'sishi rostlagich chulg'amidan o'tayotgan tok kuchini oshiradi, o'zakning magnitlanishi kuchayadi va u yana yakorchani o'ziga tortib, kontaktlarni uzadi. Shunday qilib, elektromagnit rostlagich ishlayotganda uning kontaktlari davriy ravishda tutashib-uzilib turadi va rotoring aylanishlar chastotasiqa bog'liq holda, uyg'otish tokining qiymatini o'zgartirib turadi. Generatorning kuchlanishi esa o'zining o'rtacha qiymatini o'zgaradi (1.23-b rasm).



1.23-rasm. Elektromagnitli kuchlanish rostaglighichi:

a) rostaglich sxemasi, b) generator kuchlanishining aylanishlar chastotasiga bog'liqligi.

$$U_{o'rt} = \frac{(U_{\max} + U_{\min})}{2}.$$

Agar kontaktlarning tutashish-uzilish chastotasi bir sekundda 30 martadan kam bo'lmasa, kuchlanishning tebranishi amalda sezilmaydi va u belgilangan o'zgarmas qiymatga ega degan tasavvur hosil qilsa bo'ladi.

Generator kuchlanishining o'rtacha qiymati $U_{o'rt}$ ni kontaktlarning uzilish sharti, ya'ni o'zakning magnit kuchi F_m bilan, prujinaning tortish kuchi F_{pr} larning tengligi asosida aniqlash mumkin:

$$F_m = F_{pr}. \quad (1.12)$$

O'zakning magnit tortish kuchi:

$$F_m = c_1 \Phi^2.$$

Bu yerda: c_1 – proporsionallik koefitsiyenti, Φ – rostaglich o'zagidagi magnit oqimi.

Magnit zanjiriga taalluqli Om qonuniga ko'ra:

$$\Phi = \frac{\Theta}{R_M} = \frac{\Theta}{c_2 \delta}.$$

Bunda: Θ – rostaglich chulg'amining o'zakni magnitlovchi magnityurgizuvchi kuchi, $R_M = s_2 \delta$ rostaglich o'zagi va yakorcha orasidagi tirkish δ ga proporsional bo'lgan magnit qarshilik, c_2 – proporsionallik koefitsiyenti. Demak,

$$F_{pr} = F_m = c_1 \Phi^2 = \frac{c_1 \Phi^2}{c_2^2 \delta^2}.$$

$c = \frac{c_2}{\sqrt{c_1}}$ belgilash kiritib, rostlagichning asosiy tenglamasini quyidagi ko'ri-nishga keltiramiz:

$$\Theta = c \delta \sqrt{F_{pr}}. \quad (1.13)$$

Yuqorida aytiganidek, rostlagich chulg'ami generatorga parallel ulangan va unga generatorning rostlanayotgan kuchlanishi uzatiladi. Demak, rostlagich chulg'amininng magnit yurgizuvchi kuchi:

$$\Theta = i_o \omega_o = \frac{U_{o'rt}}{r_o} \omega_o.$$

Bunda: i_o – chulg'amdan o'tayotgan tok, ω_o – chulg'amdagagi o'ramlar soni, r_o – chulg'am qarshiligi.

Endi Θ ifodasini (1.13) ga qo'ysak:

$$\frac{U_{o'rt}}{r_o} \cdot \omega_o = c \cdot \delta \cdot \sqrt{F_{pr}}.$$


Bu tenglamani $U_{o'rt}$ ga nisbatan yechsak, generatorning rostlanayotgan kuchlanishing asosiy tenglamasini hosil qilamiz:

$$U = c \frac{r_o}{\omega_o} \cdot \delta \cdot \sqrt{F_{pr}}. \quad (1.14)$$

(1.14) ifodadan ko'rinish turibdiki, agar rostlagich chulg'ami qarshiligi r_o ni temperatura ta'sirida o'zgarishi hisobga olinmasa, generatorning rostlanayotgan kuchlanishi faqat o'zak bilan yakorcha orasidagi tirkish δ va prujinaning tortish kuchi F_{pr} ga bog'liq bo'ladi.

Demak, generatorning rostlanayotgan kuchlanishi qiymatini o'zgartirish uchun yo prujinaning tortish kuchi F_{pr} ni (asosiy usul), yoki havoli tirkish δ ni o'zgartirish zarur.


Elektromagnitli rostlagichning generator aylanishlar chastotasi o'zgargandagi ish jarayoni. Rostlagich kontaktlari tutash bo'lganda, generator kuchlanishi U_G ning ortishi va kontaktlar uzunganda kamayish tezliklari generatorning aylanish chastotasiga bog'liqidir. Uyg'otish chulg'aming zanjiri ulangan holda, generator kuchlanishi ma'lum chegaraviy qiyatgacha o'sib boradi, aylanishlar chastotasi qancha katta bo'lsa, bu chegaraviy kuchlanish qiymati ham shunchalik yuqori bo'ladi (1.24-rasm). Aylanish chastotasi ortishi bilan generator kuchlanishining o'sishi ham tezlashadi va kuchlanish o'sishini ifodalovchi egri chiziq shunchalik tik bo'ladi.



1.24-rasm. Generator kuchlanishining o'sish va pasayish chiziqlari

Rostlagich kontaktlari uzilganda generator kuchlanishi asimptotik ravishda ma'lum chegaraviy qiymatgacha kamayadi. Aylanish chastotasi qancha katta bo'lsa, kuchlanishning kamayish chegarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Agar 1.24-rasmida rostlagich kontaktlari tutashganda va uzilganda generator kuchlanishining qiymatini aniqlovchi to'g'ri chiziqlar o'tkazsak, ularning kuchlanishini o'sishi va kamayishini ifodalovchi egri chiziqlar bilan kesishish nuqtalari, generator rotorining turli aylanishlar chastotasida kuchlanishning kontaktlar tutashgan daqiqasidagi qiymati U_T dan kontaktlarning uzilish daqiqasidagi qiymati U_U gacha o'sishi uchun ketgan vaqt t_u va kuchlanishning qiymati U_U dan U_T gacha kamayishi uchun ketgan vaqt t_{U_2} ni aniqlash imkonini beradi. 1.24-rasmdan ko'rinish turibdiki, rotorining aylanishlar chastotasi ortishi bilan rostlagich kontaktlarining tutashib turish vaqtiga t_u kamayadi va aksincha, uzilib turish vaqtiga t_{U_2} ortadi.

Generator rotorining katta, o'rtacha va kichik aylanishlar chastotasiga taalluqli bo'lgan va kuchlanish o'zgarishini ifodalovchi egri chiziqlar 1.25-*a* rasmda ko'rsatilgan. Ular 1.24-rasmdagi kuchlanishning o'sishi va kamayishini ifodaluvchi egri chiziqlardan tegishli kesmalarni ajratib olish yo'li bilan tuzilgan. 1.25-*b* rasmda generator uyg'otish zanjirining rostlagich kontaktlar tutashgan holdagi qarshilik R_{UCH} (uyg'otish chulg'amining qarshiligi) dan kontaktlar uzilgandagi qarshilik $R_{UCH} + R_Q$ (uyg'otish chulg'ami va unga ketma-ket ulangan rezistor R_Q ning umumiy qarshiligi)gacha sakrashsimon o'zgarishi ko'rsatilgan.



1.25-rasm. Turli aylanishlar chastotasida U_G , R_{uch} va I_U ning vaqt bo'yicha o'zgarishi

Rostlagich kontaktlarining tutashish-uzilish chastotasi yuqori bo'lganligi tufayli generatorning uyg'otish zanjiri qarshiligining haqiqiy qiymati R_{uch} va $R_{uch} + R_q$ orasida tebranib turadi va o'rtacha arifmetik qiymatiga ekvivalent bo'ladi. Bu qarshilik uyg'otish zanjirining o'rtacha yoki effektiv qarshiligi deb yuritiladi:

$$\begin{aligned}
 R_{ef} &= \frac{R_{uch} \cdot t_T + (R_{uch} + R_q) \cdot t_u}{t_T + t_u} = \frac{R_{uch} t_T + R_{uch} t_u + R_q t_u}{t_T + t_u} = \\
 &= \frac{R_{uch}(t_T + t_u) + R_q t_u}{t_T + t_u} = R_{uch} + \tau_u R_q.
 \end{aligned}$$

Bunda: $\tau_u = \frac{t_u}{t_T + t_u}$ – kontaktlar uzilgan holda turishining nisbiy vaqt.

1.25- c rasmida yuqorida keltirilgan o'rtacha kuchlanish va effektiv qarshilik qiymatlariga mos ravishda uyg'otish tokining o'zgarishi ko'rsatilgan va uning o'rtacha qiymati quyidagiga teng:

$$I_{o'rt} = \frac{U_{o'rt}}{R_{ef}} = \frac{U_{o'rt}}{R_{uch} + \tau_u R_q}, \quad (1.15)$$

Demak, generator rotorining aylanishlar chastotasi ortishi bilan uyg'otish toki kamayadi, chunki Bunda: kontaktlar uzilib turish vaqtin t_u, binobarin τ_u ham kamayadi. Rotor aylanishlar chastotasi kamayganda uyg'otish tokining qiymati ortadi. Shunday qilib, kuchlanish rostlagichining ishlash jarayonida uyg'otish tokining qiymati generator rotorining aylanish chastotasiga teskari proporsional ravishda o'zgaradi va asosan, shuning hisobiga kuchlanish belgilangan chegarada ushlab turiladi (1.25-rasm). Bu jarayonni generator kuchlanish rostlagichi bilan birgalikda ishlagandagi ishchi-tezlik tavsiynomasida ham aniq ko'rish mumkin (1.26-rasm).

Rotoring aylanishlar chastotasi 0 dan n_{bosh} gacha o'sganda, ya'ni rostlagich hali ishga tushmaganda ($\tau_u = 0$) uyg'otish toki o'zining maksimal qiymatiga erishadi.


$$I_{U \max} = \frac{U_G}{R_{uch}};$$

Aylanishlar chastotasi n_{bosh} dan ortishi bilan rostlagich ishga tushadi va kuchlanishni belgilangan darajada ushlab turadi. Aylanishlar chastotasi n_{bosh} dan n_{max} gacha ortsasi, τ_u 0 dan 1 gacha o'sadi, uyg'otish toki τ_u = 1 holdagi (ya'ni rostlagich kontaktlari doimo uzilgan holat) qiymatigacha kamayadi:

$$I_{U \min} = \frac{U_G}{R_{uch} + R_q}.$$

Agar rotoring aylanishlar chastotasi bundan keyin ham orttirilsa, u holda generator kuchlanishi ham, uyg'otish toki ham o'sa boshlaydi, ya'ni bu nuqtadan boshlab rostlagich ishlamaydi va generator kuchlanishi rostlanmaydi.

Shunday qilib, uyg'otish zanjiriga ulagan qo'shimcha qarshilik qiymati kuchlanishni rostlash mumkin bo'lgan maksimal aylanishlar chastotasining chegarasini belgilaydi.



1.26-rasm. Generator rostlagich bilan birgalikda ishlagandagi tavsiynoması

1.2.3. Elektromagnitli kuchlanish rostagichlarining tavsifnomasini yaxshilash


Rostlagich yakorchaning tebranish chastotasini orttirish. Yuqorida ko'r-satilganidek, rostlangan kuchlanishning tebranishi tok iste'molchilariga sezilmasi- li uchun rostagich yakorchaning tebranish chastotasi 30 Hz dan kam bo'lmasligi kerak. Yaorchaning tebranish chastotasini orttirish uchun avvalo, uning mexanik inersiyasi kamaytiriladi. Buning uchun u mumkin qadar yupqa va yengil qilinadi va unga uchburchak yoki yarim doira shakli berilib, og'irlilik markazi aylanish o'qiga yaqinlashtiriladi.

Ammo yakorchaning mexanik inersiyasini kamaytirish hisobiga tebranish chastotasini orttirish, quvvati uncha katta bo'limgan (100 W gacha) generatorlarda-gina samara beradi. Generatorning quvvati ortishi bilan uning o'zaklaridagi magnit oqimi va uyg'otish chulg'amidagi induktivlik ham ortadi va natijada, rostagich o'zagining magnit inersiyasi kuchayishi hisobiga kuchlanishning o'sish va pasayish jarayonlari sekinchashadi.

Rostlagichning magnit inersiyasini kamaytirish uchun kontaktlar tutash hol-da uning o'zagini sun'iy ravishda magnitlash, kontaktlar uzilganda esa magnitsizlash zarur. Buni amalga oshirish uchun rostagich o'zagiga maxsus tezlatuvchi chulg'am o'raladi yoki rostagich chulg'ami zanjiriga tezlatuvchi qarshilik ular-nadi.

Hozirgi vaqtida, ishlatishga qulay bo'lgan, rostagichning tezlatuvchi qarshilik ulangan sxemasi kengroq qo'llanilmoqda (1.27-rasm). Bu sxemada rostagich chulg'ami (RCh) generator bilan qo'shimcha qarshilik R_t ga ketma-ket ulangan tezlatuvchi qarshilik R_s orqali bog'langan. Yakorchaning tebranish chastotasini tezlatish quyidagicha amalga oshiriladi.

Kontaktlar tutash bo'linda, rostagich chulg'ami RCh ga uzatilayotgan kuchlanish generatorning kuchlanish qiymatiga deyarli teng bo'ladi, chunki tezlatuvchi



1.27-rasm. Elektromagnitli kuchlanish rostagichining tezlatuvchi qarshilik ulangan sxemasi

qarshilik R_t orqali o'tayotgan rostagich chulg'amingin toki i_{Ch} ning qiymati juda kichik va R_t da (ya'ni «a» nuqtada) kuchlanishning pasayishi hisobga olmasa ham bo'ladi, chunki tezlatuvchi qarshilik R_s orqali o'tayotgan rostagich chulg'amingin toki i_{Ch} ning qiymati juda kichik va R_t da (ya'ni «a» nuqtada) kuchlanishning pasayishi hisobga olmasa ham bo'ladi:

$$U_{RCh} = U_G - i_{Ch} R_t \approx U_G$$

Kontaktlaruzilganda, tezlatuvchi qarshilik orqali i_{Ch} bilan birgalikda qiymati nisbatan katta bo'lga uyg'otish toki I_U ham o'ta boshlaydi, natijada «a» nuqtada kuchlanishning

pasayishi ancha sezilarli bo'ladi va rostlagich chulg'amiga uzatilayotgan kuchlanish ham keskin kamayadi:

$$U_{RCh} = U_G - (i_{Ch} + I_U) R_t$$

Kontaktlar uzilgandan so'ng, rostlagich chulg'amidagi kuchlanishning bunday pasayib ketishi, undagi tokni ham, demak rostlagich o'zagidagi magnit oqimining ham keskin kamayishiga va kontaktlarning tezlik bilan yana tutashishiga olib keladi. Bu jarayon uzuksiz davom etadi va rostlagich yakorchasining tebranish chastotasi sezilarli darajada (150–250 Hz gacha) ortadi.

Tezlatuvchi moslamalar qo'llanilgan rostlagichlarning salbiy tomoni shundan iboratki, rotoring aylanish chastotasi ortishi bilan generatorning kuchlanishi ham sekin-asta o'sib boradi. Bu kamchilik rostlagich sxemasiga baravarlashtiruvchi chulg'am yoki baravarlashtiruvchi qarshilik ular yo'li bilan bartaraf qilinadi.

Rostlagich kontaktlarida uchqun chiqishini kamaytirish. Rostlagich kontaktlari uzilganda uyg'otish toki o'z qiymatini darhol o'zgartira olmaydi va kontaktlar uzilgan birinchi daqiqalarda o'zining oldindi qiymati I_u ni saqlab qoladi. Bu tok qo'shimcha qarshilik orqali tutashib, unda kuchlanish pasayishi sodir bo'ladi va u kontaktlar orasidagi kuchlanish U_K ga teng bo'ladi:

$$U_K = I_u R_q \quad (1.16)$$

Uyg'otish tokining va uyg'otish zanjiridagi qarshilik qiymatining ortishi, kontaktlar orasidagi kuchlanish ortishiga va demak, ularda hosil bo'layotgan uchquning kuchayishiga olib keladi. Bu uchqun ta'sirida kontaktlarning oksidlanish va yemirilish jarayoni tezlashadi, natijada rostlagichning va umuman generator qurilmasining ishonchilik darajasi keskin pasayadi.

Kontaktlar orasida hosil bo'ladiqan uchqunning yemirish xususiyati, kontaktlar uzhilishi oldidan ulardan o'tgan uyg'otish toki I_u ni kontaktlar uzilgandan keyin ular orasida mavjud bo'ladiqan kuchlanish U_K ning ko'paytmasiga teng bo'lgan uzhilish quvvati P_K bilan belgilanadi:


$$P_K = U_K I_u$$

(1.16)ni hisobga olsak:

$$P_K = U_K I_u = I_u^2 \cdot R_k. \quad (1.17)$$

Kontaktlar ishonchli ishlashi uchun uzhilish quvvati 150–200 VA dan ortmasligi kerak.

Avtomobildagi elektr tokining iste'molchilarini tobora ko'payib borishi, generator quvvatini oshirishni taqozo qiladi. Rostlagichlardagi qo'shimcha qarshilik qiymatini kamaytirib bo'lmaydi, chunki u kuchlanishni rostlash mumkin bo'lgan maksimal aylanish chastotasining chegarasini belgilaydi. Uyg'otish tokining qiymatini kamaytirish generator o'lchamlarini va massasining ortishiga olib keladi.



1.28-rasm. Ikki bosqichli PP380 kuchlanish rostagichi

ttagich ishlamayotganda prujina birinchi bosqich kontaktlari K_1 ning tutashib turishini ta'minlaydi. Ikkinci juft kontaktlar K_2 yakorchaning pastki tomonidagi qo'zg'aluvchi kontaktdan va ustuncha 4 ga o'rnatilgan pastki qo'zg'almas kontaktdan iborat. Rostlagich ishlamaganda, ikkinchi bosqich kontaktlari K_2 uzilgan holda bo'ladi.

Birinchi juft kontaktlar K_1 ning ustki qo'zg'almas kontakti rostagichning (15) belgili qisqichiga ulangan. Har ikkala qo'zg'aluvchi kontaktlar yakorcha va yarmo orqali rostagichning (67) belgili qisqichiga ulangan. Ikkinci juft kontaktlar K_2 ning pastki qo'zg'almas kontakti «massa» ga ulangan. Rostlagichning (15) va (67) belgili qisqichlari orasiga, birinchi juft kontaktlar K_1 ga parallel ravishda drossel Dr va qo'shimcha qarshilik R_q dan iborat elektr zanjir ulangan. Drossel po'lat o'zakka sirlangan mis simdan o'rالgan g'altak bo'lib, ancha katta induktivlikka ega. Rostlagich asos 1 ga izolyatsiya qistirmasi 2 orqali o'rnatilgan.

Rostlagich quyidagicha ishlaydi. O't oldirish kaliti O'OK ulanganda uyg'otish toki quyidagi zanjir bo'yicha o'tadi: generatorning musbat qisqichi (+) – O'OK – rostagichning (15) belgili qisqichi – drossel (Dr)ning o'zagi – birinchi bosqich kontaktlari K_1 – yakorcha 2 – yarmo – rostagichning va generatorning (67) belgili qisqichi – uyg'otish chulg'ami (UCh) – qobiq – generatorning manfiy qisqichi (-).

Generator kuchlanishi belgilangan rostlanish qiymatiga yetganda, rostagich chulg'ami RCh o'zagida hosil bo'lgan magnit maydonning tortish kuchi prujinaning tortish kuchini yengib, K_1 kontaktlarni uzadi. Kontaktlar uzilganda, uyg'otish toki K_1 kontaktlarga parallel ulangan drossel Dr chulg'ami va qo'shimcha qarshilik R_q orqali o'tishga majbur bo'ladi va uning qiymati keskin kamayadi. Uyg'otish

Bu muammoni hal qilish uchun, generatorning uyg'otish chulg'ami ikki parallel tarmoqqa bo'linadi yoki ikki bosqichli rostagichlar qo'llaniladi. Misol tariqasida BA3-2101, 2103, 2106 avtomobilлari da tatiq qilingan va Г221 generatori bilan birga ishlaydigan PP380 belgili ikki bosqichli elektromagnitli kuchlanish rostagichini keltirish mumkin (1.28-rasm).


Rostlagich «U» simon yarmo, o'zak, termobimetall plastinaga joylashtirilgan yakorcha va prujina 1 dan iborat. Rostlagich ikki juft kumush kontaktlar K_1 va K_2 ga ega.

Birinchi juft kontaktlar K_1 ustuncha 3 ga o'matilgan ustki qo'zg'almas kontaktdan va yakorchaning ustki tomonidagi qo'zg'aluvchan kontaktidan iborat. Rost-

tokining kamayishi generator kuchlanishi, demak, rostlagich chulg' amiga uzatilayotgan kuchlanishning pasayishiga olib keladi. Natijada, rostlagich o'zagi dagi magnit maydon kuchsizlanadi va K_1 kontaktlar prujinani tortish kuchi ta'sirida yana tutashadi, generatorning kuchlanishi esa o'sa boshlaydi. Bu jarayon uzlusiz davom etadi. Xullas, birinchi bosqichda ikki bosqichli rostlagich oddiy bir just kontaktli rostlagich kabi ishlaydi. Birinchi bosqich kontaktlari K_1 ning ishlash chegarasi generatorning aylanishlar chastotasi doirasining taxminan yarmini egallaydi (1.29-rasm). Rotoring aylanishlar chastotasi bundan keyin yanada ortib, ma'lum qiymatga etganda (masalan, $n_{o'ri}$) uyg'otish zanjiridagi qo'shimcha qarshilik R_q ning qiymati uyg'otish tokini pasaytirishga yetmay qoladi.

Chunki kontaktlar orasidagi uchqun kuchini kamaytirish maqsadida (1.17) ifodaga qarang) uyg'otish zanjiriga ataylab qiymati 10–15 marta kamaytirilgan qarshilik ulanadi.

Natijada rotoring aylanishlar chastotasi $n_{o'ri}$ dan oshganda K_1 kontaktlar butunlay ochilib qoladi va generatorning kuchlanishi o'sa boshlaydi. Generatorning kuchlanishi birinchi bosqichda rostlangan kuchlanish qiymatidan 0,4–0,7 V ga ortganda, tabiiy ravishda rostlagich chulg' amida ham kuchlanish qiymati ortadi, o'zakdagidagi magnit maydon yanada zo'rayadi va yakorchanasi pastga kuchliroq tortib, ikkinchi just kontaktlar K_2 ni tutashtiradi. K_2 kontaktlar tutashishi uyg'otish tokining birdaniga nolgacha kamayishiga olib keladi, chunki uyg'otish chulg' amining ikkinchi uchi ham yarmo, yakorcha va K_2 kontaktlar orqali «massa»ga ulanib qoladi. Uyg'otish tokining nolga tushib qolishi generator kuchlanishining ham keskin kamayishiga olib keladi, natijada rostlagich chulg' amidagi kuchlanish ham kamayadi va K_2 kontaktlar yana uziladi. Uyg'otish toki uyg'otish chulg' amiga drossel Dr chulg' ami va qo'shimcha qarshilik R_q orqali o'ta boshlaydi. Demak, ikkinchi bosqichda tok uyg'otish chulg' amiga bir gal butunlay bormaydi (kontaktlar K_2 tutash) yoki drossel chulg' ami Dr va qo'shimcha qarshilik R_q orqali bora-di (kontaktlar K_2 uzilgan). Ikki bosqichli kuchlanish rostlagichlarini tatbiq qilish birdaniga ikkita muammoni hal qilish imkonini beradi. Birinchidan, qo'shimcha qarshilik qiymati kam bo'lganligi tufayli kontaktlar orasidagi kuchlanish qiymati keskin kamayadi va hosil bo'layotgan uchqunlarning uzilish quvvati ancha pasa-yadi. Ikkinchidan, uzilish quvvatining pasayishi uyg'otish tokining qiymati-



1.29-rasm. Generatorning ikki bosqichli rostlagich bilan ishlagandagi tavsifnomasi

ni 2,6–2,7 A gacha orttirishga, demak, generatorning quvvatini orttirish imkonini beradi.

Termokompensatsiya. Yuqorida, elektromagnitli rostlagichning asosiy tenglamasi (1.14) ifoda) tahlil qilinganda, rostlagich chulg‘ami qarshiligi r_o ning temperaturaga bog‘liqligi hisobga olinmasdan, o‘zgarmas, deb qabul qilingan edi. Lekin amalda, rostlagich ishlaganda chulg‘amning temperaturasi atrof-muhit harorati va undan o‘tayotgan tok ta’sirida +80 °C gacha ko‘tarilishi, qarshiligi r_o esa 25–30 %gacha ortishi mumkin. Natijada rostlagich chulg‘amidan o‘tayotgan tok qiymati kamayadi, o‘zak magnitlanishi susayadi va generatorning rostlanilayotgan kuchlanishi belgilangan qiymatdan oshib ketadi. Masalan, 14 V li generatorning kuchlanishi belgilangan qiymatdan 3,4–3,8 V ga; 28 V li generatorniki esa – 6,8–7,6 V gacha ortishi mumkin. Bu, akkumulatorlar batareyasining me’yordan ortiq zaryadlanib, «qaynab» ketishiga, yoritish lampalari cho‘g‘lanish tolalarining tezroq kuyishiga va boshqa noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Chulg‘am temperaturasinngi oshishini, rostlagich ishiga ta’sirini kamaytirish maqsadida rostlagich chulg‘amiga ketma-ket nixrom yoki konstantandan tayyorlangan qarshilik R_{tk} ulanadi. Bu materiallarning qarshiligi temperatura ta’sirida deyarli o‘zgarmaydi, shuning uchun rostlagich chulg‘ami zanjiridagi umumiylar qarshilikning temperatura ta’sirida ortishi bir necha bor kamayadi. Masalan, chulg‘am temperaturasi +80 °C ko‘tarilganda, R_{TK} ulangan chulg‘am zanjirining qarshiligi, asosan mis chulg‘amning qizishi hisobiga 12,5 %ga ortadi, demak generatorning rostlanilayotgan kuchlanishi ham taxminan 12,5 %ga oshadi. Shunday qilib, termokompensatsiya qarshiligi – R_{tk} hisobiga, temperatura ta’siridan generator kuchlanishining ortishini qisman cheklash mumkin. Rostlagich chulg‘amining temperaturasi o‘zgarganda generator kuchlanishini mumkin qadar belgilangan qiymatda ushlab turish uchun R_{tk} qarshiligini ularash bilan birga, rostlagich yakorchasi termobimetall plastinaga (TBP) o‘rnashtiriladi. TBP – bir-biriga kavsharlangan ikkita plastinadan iborat bo‘lib, plastinalarning biri issiqlikdan kengayish koefitsiyenti juda kichik bo‘lgan *invar-36* dan (tarkibida 63 % temir, 36 % nikel va boshqa metallar bo‘lgan qotishma) va ikkinchisi issiqlikdan kengayish koefitsiyenti yuqori bo‘lgan materialdan, masalan, xrom-nikelli yoki molibden-nikelli po‘latlardan tayyorlanadi.

TBPning issiqlikdan kengayish koefitsiyenti kichik bo‘lgan plastinasi rostlagichning o‘zagiga qaratib (ya’ni pastga), kengayish koefitsiyenti katta bo‘lgan plastina esa yakorchaga (ya’ni yuqoriga) qaratib joylashtiriladi. Rostlagich chulg‘amining harorati oshganda TBP ham qiziydi va plastinalarning issiqlikdan kengayish koefitsiyenti har xil bo‘lganligi tufayli u rostlagichning o‘zagi tomonga egilib, yakorchani prujinaning tortish kuchiga qarama-qarshi bo‘lgan tomonga tortadi va shuning uchun temperatura oshganligi sababli o‘zakdagisi magnit oqimi kuchsizlansa ham kontaktlar generatorning belgilangan kuchlanish qiymatida uziladi. Ya’ni, o‘zakdagisi magnit maydonining susayishi yakor-

chanı o'zak tomonga egib, ular orasıdagı tırqışicha δ ni kamaytirish yo'li bilan kompensatsiya qilinadi.

1.2.5. Yarimo'tkazgichli kuchlanish rostagichlari

Yuqorida ko'rib o'tilgan elektromagnitli kuchlanish rostagichlari bir qator afzalliklari, chunonchi tuzilishining nisbatan soddaligi, tannarxining pastligi va foydalı ish koefitsiyentining ancha yuqoriligi bilan birga jiddiy kamchiliklarga ham ega. Birinchidan, tebranuvchi kontaktlarning borligi, ulardan o'tishi mumkin bo'lgan uyg'otish toki qiymatini 1,5-1,8 A bilan cheklaydi va hozirgi zamon quvvati nisbatan katta bo'lgan o'zgaruvchan tok generatorlarini, bu turdagı rostagichlar bilan birga ishlash imkonini bermaydi. Oldingi bo'limlarda ta'riflangan, kontaktlarga tushadigan yuklama va ular orasida uchqun hosil bo'lishini kamaytirishga yo'naltirilgan usullar rostagichlar ishlash doirasini bir muncha kengaytiradi xolos, lekin ularga xos bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilmaydi.

Ikkinchidan, bu rostagichlarda generatorning rostlanilayotgan kuchlanishi qiymatini belgilovchi element – prujinaning tortish kuchidir (rostlagichning asosiy tenglamasi (1.14)ga qarang). Rostlagichning ishslash jarayonida vaqt o'tishi bilan muqarrar ravishda prujinaning qayishqoqligi susayadi, binobarin, uning tortish kuchi ham o'zgara boshlaydi. Natijada, rostlanilayotgan kuchlanish qiymati ham oldin belgilangandan ancha kamayib ketish hollari yuzaga kelib, bu akkumulatorni zaryad qilinmay qolishiga va muddatidan oldin ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Xillas, elektromagnitli rostagichda kontaktlar va prujinaning borligi ularning ishonchilik darajasini ancha pasaytiradi va doimo nazorat qilib, zarurat tug'ilganda prujinaning tortish kuchini rostlab turishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtida ko'pchilik avtomobilarga elektromagnitli kuchlanish rostagichlarining yuqorida keltirilgan kamchiliklаридан ko'p jihatidan holi bo'lgan yarimo'tkazgichli rostagichlar o'rnatilmоqda. Ularning kontakt-tranzistorli va kontakttsiz-tranzistorli turlari mavjud.

Kontakt-tranzistorli rostagichlar bizga ma'lum bo'lgan elektromagnitli rostagichlarning takomillashtirilgan ko'rinishi bo'lib, ularga o'matilgan tranzistor generatorning uyg'otish zanjiriga ulanadi va u rostlash elementi vazifasini bajradi. Bu turdagı rostagichlarda kontaktlar orasida uchqun hosil bo'lishini keskin kamaytirish hisobiga ularning ishonchli ishslash muddati sezilarli darajada oshirilgan. Lekin harakatlanuvchi qismi saqlanib qolgani uchun elektromagnitli rostagichlarga xos bo'lgan kamchiliklarning ko'pchiligi bu turdagı rostagichlarga ham taalluqlidir.

Generator kuchlanishini ishonchli rostlashni ta'minlashdagi keyingi bosqich kontakttsiz-tranzistorli rostagichlar ishlab chiqilishi va avtomobilarga keng ko'lama tatbiq qilinishi bo'ldi. Bu rostagichlarda o'Ichov elementi vazifasini ham, rostlash elementi vazifasini ham tranzistorlar bajarib, ularda kontakt-

lar va prujinaga ehtiyoj yo'q. Harakatlanuvchi qismlarining yo'qligi, qo'llanilgan yarimo'tkazgichlarning chidamlilik darajasining yuqoriligi va kafolatli xizmat muddatining kattaligi, namlikka, chang-loyga, vibratsiyaga ta'sirchansizligi kontaktlsiz-tranzistorli rostlagichlarning uzoq vaqt davomida ishonchli ishlashini ta'minlaydi. Bundan tashqari, bu turdag'i rostlagichlarda generatorning uyg'otish toki qiymatini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjud.


Yarimo'tkazgichli kuchlanish rostlagichlarida ishlatiladigan tranzistorlarning tavsiyfnomasi ma'lum darajada temperaturaga bog'liqligi, ularning asosiy kamchili-gi hisoblanadi. Atrof-muhitning yuqori harorati yarimo'tkazgichli rostlagichlarning barqaror ishlashiga puturyetkazishi mumkin. Shuning uchun, yarimo'tkazgichli rostlagichlarni ishlatishning chegaraviy temperaturasi elektromagnitli rostlagichlarni-kiga nisbatan kamroq bo'ladi.

Kontakt-tranzistorli kuchlanish rostlagichlari

Kontakt-tranzistorli kuchlanish rostlagichining umumiyligi sxemasi 1.30-rasmida keltirilgan. Rostlagich chulg'ami – RCh generatorning to'la kuchlanishiga ulangan. Tranzistor VT1 ning emitteri E musbat potensialga ega. Tranzistorning bazasi B ga R_b qarshilik orqali manfiy potensial uzatiladi. Kuchlanish rostlagichi KRning kontaktlari tutashganda, tranzistorning bazasiga musbat potensial uzatiladi. Generatorning uyg'otish chulg'ami UCh tok manbayiga tranzistorning emitter-kollektor o'tish joyi orqali ulangan.

Rostlagich quydagiicha ishlaydi. Generator kuchlanishi rostlanadigan kuchlanishdan kichik bo'lganda, rostlagich kontaktlari prujinaning tortish kuchi hisobiga uzilgan holda bo'ladi. Tranzistorning bazasi manfiy potensialga ega bo'ladi va emitter-baza o'tish joyi orqali boshqarish (baza) toki o'tadi. Tranzistor VT1 ochiladi va uning emitter-kollektor o'tish joyidan generatorning uyg'otish chulg'ami UCh ga akkumulatordan yoki to'g'rilaqichdan tok o'tadi.

Generatorning kuchlanishi belgilangan rostlash qiymatiga yetganda, rostlagich o'zagidagi elektromagnit maydonning tortish kuchi hisobiga kontaktlar tutashadi va tranzistorning bazasiga musbat potensial uzatiladi. Natijada tranzistor cho'rt bekilish holatida, ya'ni juda keskin yopiladi. Tranzistor yopiq holda bo'lganda uyg'otish toki zanjiriga qo'shimcha qarshilik R_q ulananadi va natijada, uyg'otish chulg'amidan o'tayotgan tok qiymati kamayadi, generator kuchlanishi pasayadi. Rostlagich kontaktlari yana uziladi, tranzistor ochiladi va tok uyg'otish chulg'amiga tranzistorning qarshiligi keskin kamaygan emitter-kollektor o'tish joyi orqali uzatiladi. Generator kuchlanishi yana orta boshlaydi. Bu jarayon davriy ravishda davom etadi va generatorning kuchlanishi belgilangan qiymat darajasida ushlab turiladi.



1.30-rasm. Kontakt-tranzistorli kuchlanish rostlagichining umumiy sxemasi


Kontakt-tranzistorli kuchlanish rostlagichlarning amalda eng keng tarqalgani ГАЗ-53А, ГАЗ-5204, Москвич-412 avtomobillariga о‘rnatilgan PP-362 belgili rostlagichdir.

Kontaktsiz-tranzistorli kuchlanish rostlagichlari

Kontaktsiz-tranzistorli kuchlanish rostlagichlarining umumiy sxemasi 1.31-rasmda keltirilgan. Sxemada о‘lchov elementi vazifasini R1 va R2 qarshiliklar, taqqoslash (sezuvchi) element vazifasini esa stabilitron VD1 bajaradi.

Generator kuchlanishi belgilangan rostlanish kuchlanishidan past bo‘lganda, stabilitron VD1 teskari tomonga tok o‘tkazmaydi (ya’ni stabilitron yopiq). Stabilitron VD1 yopiq bo‘lganda, tranzistor VT1 ham yopiq bo‘ladi, chunki uning baza toki zanjiri uzilgan. Bu holda tranzistor VT2 ochiq bo‘ladi, chunki unda baza toki mavjud bo‘ladi va u quyidagi zanjir orqali o‘tadi: «+» qutb – tranzistor VT2 ning emitter-baza o‘tish joyi – R_b qarshilik – «–» qutb.

Ochiq tranzistor VT2 ning qarshiligi keskin kamaygan emitter-kollektor o‘tish joyidan uyg‘otish chulg‘amiga tok o‘tadi va aylanishlar chastotasi ortishi bilan generatorning kuchlanishi o‘sса boshlaydi. Generatorning kuchlanishi belgilangan qiymatga yetganda, stabilitron VD1 teshiladi va teskari tomonga ham tok o‘tkaza boshlaydi. Stabilitron VD1 ning teshilishi tranzistor VT1 ning ochilishiغا olib keladi, chunki unda baza toki hosil bo‘ladi. VT1 tranzistorning emitter-kollektor o‘tish joyi orqali VT2 tranzistorning bazasiga musbat potensial uzatiladi va natijada VT2 yopiladi.




1.31-rasm. Kontaktsiz rostlagichning umumiy sxemasi

Endi uyg'otish chulg'amiga tok qo'shimcha qarshilik R_Q orqali o'tadi. Uyg'otish toki kamayadi, generator kuchlanishi pasayadi, stabilitron VD1 yana oldingi holiga qaytib yopiladi. VT1 tranzistor ham yopiladi, VT2 tranzistor ochiladi va tok uyg'otish chulg'amiga yana VT2 tranzistorning emitter-kollektor o'tish joyi orqali o'tadi. Uyg'otish toki ortadi va generator kuchlanishi yana o'sadi. Bu jarayon davriy ravishda juda katta tezlik bilan davom etadi va generatorning kuchlanishi belgilangan rostlanish qiymati darajasida ushlab turiladi.

Amalda qo'llanilayotgan kontaktsiz-tranzistorli rostlagichlarining eng keng tarqalgani ГА3-24, ЗИЛ-130 va boshqa avtomobilarga o'rnatilgan PP-350 belgili rostlagichdir (1.32-rasm). RR-350 rostlagich asosan R1, R3 qarshiliklardan iborat bo'lgan o'Ichov elementi, taqqoslash (sezuvchi) elementi stabilitron VD1, tranzistorlar VT1, VT2, VT3 va qo'shimcha qarshilik R8 larni o'z ichiga olgan rostlovchi elementdan tashkil topgan. Bundan tashqari, rostlagichning tez va barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida sxemaga diodlar VD2, VD3, VD4, drossel g'altagi L va bir qator qarshiliklar o'rnatilgan.

Rostlagich quyidagicha ishlaydi. Generator kuchlanishi, belgilangan rostlanish qiymatidan kam bo'lganda, stabilitron VD1 dagi kuchlanish uni teshib o'tish uchun zarur qiymatiga erishmaydi va u yopiq bo'ladi. Bu holda tranzistor VT1 ham yopiq, chunki uning baza toki zanjiri uzilgan. Tranzistor VT1 ning berk bo'lishi, tranzistor VT2 da baza toki hosil bo'lishiga olib keladi va u quyidagi zanjir bo'yicha o'tadi: «+» qutb – R7 – VD2 diod – VT2 tranzistorning emitter-baza o'tish joyi – R5 – «-» qutb. Baza toki ta'sirida VT2 tranzistor ochiladi va o'z navbatida VT3 tranzistorini ham ochiq bo'lishini ta'minlaydi, chunki unda baza toki mavjud bo'ladi va u «+» qutb – VT3 tranzistorning emitter-baza o'tish joyi – VD2 diod – VT2 tranzistorning emitter-kollektor o'tish joyi – R6 – «-» qutb zanjiri orqali o'tadi. Bizga ma'lumki, tranzistor ochiq bo'lganda uning emitter-kollektor o'tish joyining qarshiliqi hisobga olmasa ham bo'ladiqan darajada kichik qiymatga ega. Demak,



1.32-rasm. PP-350 belgili kuchlanish rostlagichining sxemasi

VT3 tranzistorning ochiq holda bo'lishi, generatorning uyg'otish chulg'ami UCh ga qarshiligi juda kam bo'lgan zanjir orqali tok borishi ta'minlanadi. Generatorning kuchlanishi ortadi.

Generatorning kuchlanishi belgilangan rostlanish qiymatiga yetganda R1, Rp, R3, R4 qarshiliklar kattaligini to'g'ri tanlash hisobiga, stabilitron VD1 dagi kuchlanish teshib o'tish qiymatiga erishadi va stabilitron keskin ochiladi (teshiladi). Stabilitronning ochilishi VT1 tranzistorida baza toki hosil bo'lishiga olib keladi va u quyidagi zanjir orqali o'tadi: «+» qutb – VT1 ning emitter-baza o'tish joyi – VD1 stabilitron – R3 – L drossel – «-» qutb. Bu tok ta'sirida VT1 tranzistor ochiladi va R5 qarshilikda kuchlanishning pasayishi sodir bo'ladi. Natijada VT2 tranzistorning emitter va baza orasidagi potensiallar ayirmasi keskin kamayadi, VT2 tranzistor yopiladi va VT3 tranzistorining baza toki zanjirini uzadi. Bu VT3 tranzistorning ham yopilishiga olib keladi va tok generatorning uyg'otish chulg'amiga qarshilik R8 orqali o'tishga majbur bo'ladi. Uyg'otish toki kamayadi, generatorning kuchlanishi pasaya boshlaydi va demak, stabilitrondag'i kuchlanish ham kamayadi. Stabilitrondag'i teskari kuchlanish, teshib o'tish kuchlanishi qiymatidan kamayishi bilanoq, u yopiladi. Bu esa VT1 tranzistorning ham yopilishiga, VT2 hamda VT3 tranzistorlarning ochilishiga va generator kuchlanishini yana ortishiga olib keladi. Bu jarayon davriy ravishda 300 Hz gacha chastota bilan sodir bo'ladi va shuning uchun rostlanayotgan kuchlanishning amplitudasi 0,1–0,2 V dan ortmaydi.

PP-350 rostlagichdagi qolgan elementlar uning barqaror ishlashini ta'minlash va ba'zi tranzistorlarni himoya qilish uchun xizmat qiladi.

So'ndiruvchi diod VD4 uyg'otish toki keskin kamayishi natijasida generatorning uyg'otish chulg'amida hosil bo'ladigan o'zinduksiya EYuK ta'sirida VT3 tranzistorni kuyishdan saqlaydi. Berkituvchi diodlar – VD2 va VD3 dagi kuchlanish pasayishi hisobiga VT2, VT3 germaniyli tranzistorlarning yopilishi tezlashadi.


Drossel L generatordan rostlagichga, ya'ni stabilitronga kelayotgan kuchlanish pulsatsiyasini silliqlash uchun xizmat qiladi. O'zgaruvchan tok generatoridagi magnit zanjirining va to'g'rinish sxemasining o'ziga xos tomonlari tufayli kuchlanish sezilarli pulsatsiyaga ega bo'lishi mumkin. Drossel L bo'limgan holda stabilitron ana shu kuchlanishning pulsatsiyasi ta'sirida ochilib, rostlanish jarayoni buzilishiga olib keladi.

Tranzistor R_{ik} harorat ortishi natijasida drossel qarshiligi va stabilitron tavsif nomasining o'zgarishini kompensatsiya qilish vazifasini bajaradi.

Teskari aloqa qarshiligi R9 tranzistorlar ochiq holdan yopiq holga o'tish vaqtini kamaytiradi va shuning hisobiga tranzistorlarni ortiqcha qizishdan saqlaydi. Bundan tashqari, teskari aloqa qarshiligi sxemaning bir holdan ikkinchi holga o'zgarish chastotasini kerakli qiymatlarga (50–300 Hz) kamaytirishni ta'minlaydi. Aks holda, ya'ni teskari aloqa qarshiligi bo'lmasa, sxemaning o'zgarish chastotasi generator kuchlanishning pulsatsiyasi bilan belgilanib, u bir necha kilogersga yetishi va tranzistorlardagi quvvat yo'qotilishi sezilarli darajada ortishi mumkin.

Uzoq vaqt davomida avtomobillarda juda keng tatbiq topgan PP-350 kuchlanish rostagichlari o'miga hozirgi kunda 201.3702, 2012.3702, 13.3702 belgili kontaktsiz tranzistorli rostagichlar chiqarilmoqda. Volga FAZ-31029 va Gazel FAZ-33021 avtomobillariga o'rnatalayotgan 13.3702-01 belgili rostagich sxemasi 1.33-rasmida keltirilgan. Bu rostagich sxemasining boshqalaridan farqi shundan iboratki, stabilitor VD1 tranzistor VT1 ning baza zanjiriga emas, balki emitter zanjiriga ulangan. Tranzistor VT1 emitter-baza o'tish joyidan o'tadigan tok ta'sirida ochilishini hisobga olganda, stabiltronni sxemaga bu tarzda ulanishi rostagichning ishlash prinsipiiga ta'sir ko'rsatmaydi, ammo emitter zanjiridagi tok kuchi baza zanjiridagidan katta bo'lishi stabiltronni va umuman rostagichning barqaror ishlash darajasini orttiradi. Bu rostagich sxemasining yana bir diqqatga sazovor joyi – VT4, VT5 tranzistorlarning qo'shma tranzistor sxemasi bo'yicha ulanishidir. Bunday usulda 1langan ikkita tranzistorni kuchaytirish koeffitsiyenti oshirilgan bitta tranzistor sifatida ko'rish mumkin. Rostagichning chiqish zanjirida qo'shma tranzistor sxemasini qo'llash natijasida unda baza toki kamayadi va baza zanjirida qiymati kichik bo'lgan rezistor ishlataladi. Bu rostagichda quvvat ortiqcha isrof bo'lniasligini ta'minlaydi va uning o'lchamlarini kichraytirish imkonini beradi.

Rostagich quyidagicha ishlaydi: generator kuchlanishi belgilangan rostagichning qiymatidan kam bo'lganda stabilitor VD1 va tranzistorlar VT1, VT2 yopiq bo'ladi, qo'shma tranzistor VT3-VT4 esa ochiq bo'ladi va uning emitter-kollektor o'tish joyidan uyg'otish chulg'amiga tok o'tadi. Generator kuchlanishi belgilangan qiymatga yetishi bilan stabilitor VD1, tranzistorlar VT1 va VT2 ochiladi. Qo'shma tranzistor VT3-VT4 ning emitter-baza o'tish joyi VT2 tranzistorning emitter-kollektor o'tish joyi tomondan shuntlanadi va u yopiladi. Natijada



1.33- rasm. 13.3702-01 belgili kuchlanish rostagichining sxemasi

uyg'otish toki zanjiri uziladi. Rostlagich sxemasida bikir teskari aloqa rezistori R2 ko'zda tutilgan. Qo'shma tranzistor VT3–VT4 ning ochilishi bilan R2 qarshilik R4 qarshilikga parallel ulanib qolishi natijasida stabilitron VD1 dagi kuchlanish keskin ortadi va u ochiladi. Bu esa tezkor ravishda VT1, VT2 tranzistorlarning ochilishi, VT3–VT4 qo'shma tranzistorning yopilishi va R2 qarshilik zanjirning uzilishiga olib keladi. Stabilitron VD1 dagi kuchlanish keskin kamayadi va u yopiladi. Natijada VT1, VT2 tranzistorlar ham yopiladi, VT3–VT4 qo'shma tranzistor esa ochiladi. Shunday qilib, teskari aloqa tranzistori R2 sxemadagi tranzistorlarning ochilib-yopilishini tezlatadi.


C1 kondensator generator kuchlanishi impulslarini silliqlaydi va ularni rostlagich ishiga ta'sirini istisno qiladi. VT5 tranzistor C2 kondensator va R12 rezistor bilan birgalikda rostlagichda egiluvchan teskari aloqani amalga oshiradi, ya'ni VT2, VT3–VT4 tranzistorlarning ochilib-yopilishini tezlatadi. Qo'shma tranzistor VT3–VT4 ning yopilishi uning kollektoridagi potensialning keskin kamayishiga olib keladi. Natijada VT5 tranzistorning emitter-baza o'tish joyi – R12 tranzistor – C2 kondensatorдан iborat zanjir orqali tok o'ta boshlaydi va VT5 tranzistor ochiladi. Bu VT2 tranzistorning tezkor ochilishi natijasida qo'shma tranzistor VT3–VT4 ning yopilishini tezlatadi. VT3–VT4 tranzistor yopiq bo'lganda, VT5 tranzistor ham yopiladi va C2 kondensator razryadlanib VT2 tranzistorining yopilishi, qo'shma tranzistor VT3–VT4 ning esa ochilishini tezlatadi.

Bundan tashqari VT5 tranzistordan tuzilgan sxema avariya rejimida VT3–VT4 tranzistorini kuyishdan saqlaydi. Uyg'otish chulg'amidagi qisqa tutashuv VT3–VT4 tranzistori kollektoridagi potensialni o'zgarishiga olib keladi. C2 kondensatorining zaryad toki VT5 va VT2 tranzistorlarni ochadi. Bunda: VT3–VT4 qo'shma tranzistori yopiladi. C2 kondensator zaryadlanib bo'lgandan so'ng uning zanjiridagi tok yo'qoladi va VT5, VT2 tranzistorlar yopilib, VT3–VT4 tranzistor ochiladi. Bu jarayon davriy ravishda davom etadi va VT3–VT4 tranzistor avtotebranish rejimiga o'tadi. Bu jarayonda qo'shma tranzistor VT3–VT4 orqali o'tayotgan tokning o'rtacha miqdori katta bo'lmaydi va unga zarar yetkazmaydi.

VD3 diod rostlagich sxemasida so'ndirgich diod vazifasini bajaradi. VD4 diod rostlagichni tok manbayi kuchlanishining teskari qutbli impulslaridan himoya qiladi. Sxemadagi qolgan elementlar rostlagichdagi yarimo'tkazgichli asboblarning me'yorida ishlashini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Elektron rostlagichlarning keyingi taraqqiyoti natijasida mikroelektronika elementlari ishlatilgan integral rostlagichlar ishlab chiqildi. Integral rostlagichlarning o'lchamlarini va massasini juda kichikligi, temperaturaga chidamlilik darajasi nisbatan yuqori bo'lganligi tufayli, ularni to'g'ridan to'g'ri generatorming ichki qismiga (ba'zi generatorlarda cho'tkatutqichga) joylashtirish imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtida ikki turdag'i integral rostlagichlar chiqarilmoqda: 14 V ga mo'ljallangan Я-112 va 28 V ga – Я-120. Ularning gabarit o'lchamlari va massasi PP-350 rostlagich 14–24 marta kichik, temperaturaga chidamliligi esa 1,6 mar-




1.34-rasm. Я-112A integral rostlagichi:
a) qopqog'i olingan; b) qopqog'i yopiq

ta yuqori. Я-112A rusumidagi rostlagichlar «Москвич», ВАЗ-2105, 2107 yengil avtomobilларида ва ПАЗ, ЛАЗ автобусларидаги о'rnatilgan. GM-Uzbekistan qo'shma korxonasidan chiqarayotgan avtomobilларидаги ham (Damas, Nexia, Matiz, Lacetti, Spark) integral rostlagichlar ishlataligani (1.17- d rasmga qarang).

Я-112A rostlagichi (1.34-rasm) integral rostlash elementi 2 va folgalangan getinaksdan yasalgan chiqish qisqichlari 4 o'matilgan metall asos 1 dan iborat. Integral rostlash elementi tarkibiga pylonkali qarshiliklar bloki 3, yarimo'tkazgich asboblar (tranzistorlar, diodlar, stabilitron) bloki 5 va kondensator 6 kiradi. Bloklar issiqlik o'tkazuvchanlik qobiliyati katta bo'lgan keramik plastinalardan iborat bo'lib, ularga qobiqsiz tranzistorlar, diodlar, stabilitron payvadlangan va qalin pylonka ko'rinishidagi qarshiliklar yopishtirilgan. Rostlash elementi qopqoq 9 bilan yopilib, asos 1 ga yelimlanadi va teshik 8 orqali maxsus germetik pasta quyiladi. Asosning turtib chiqqan joyi 7 rostlagichning cho'tkatutqichiga to'g'ri o'rnatilishini ta'minlaydi. Integral rostlagichlar qismalarga ajratilmaydi va ta'mirlanmaydi.

Avtomobil generatorlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashgan dunyoning **BOSCH** (Germaniya), **Valeo** (Fransiya), **Magneti Marelli** (Italiya), **Delco Remi** (AQSH), **Mitsubishi** (Yaponiya) va boshqa yetakchi firmalar tomonidan

oxirgi yillarda jahon bozoriga chiqarilgan zamonaviy generatorlarda aksariyat hollarida kuchlanish rostlagichi va cho'tkatutqich bir yaxlit qobiqga joylashtirilmoqda. **Mitsubishi** firmasining ba'zi generatorlariда to'g'rilaqich bloki, kuchlanish rostlagichi va cho'tkatutqich bir konstruktiv tugunga bir lashtirilgan. 1.35-rasmda **Magneti Marelli** firmasining AA125R generatorining kuchlanish rostlagichi-cho'tkatutqiqich tuguni keltirilgan.




1.35-rasm. AA125R generatorining kuchlanish rostlagichi – cho'tkatutqiqich tuguni

Я-112А ростлагичда $n-p-n$ турдаги транзисторлар ишлатылган және чиқыш босқичида 201.3702 ростлагичтаридеги кабінше транзистор схемасы орналанылған.

Rostlagich quyidagicha ishlaydi (1.36-rasm). Генераторнин күчланышы ростланыштың күйимділігінде паста болғанда, стабилитрон VD1 және транзистор VT1 берк болады, ошмалы транзистор VT2, VT3 орында болады, себебі оларда база токи мавжуд болады да үзіндігінде зандир орталықта: «+» шығару - UOK - генератор және ростлагичтің - «B» күйінде - R5 - VD2 - VT2 транзисторнан база - эмиттер о'тіштің орын - VT3 транзисторнан эмиттер-база о'тіштің орын - «massa» - «-» шығару. Ошмалы транзистор орындағанда генераторнин үзінші о'тіштің мавжуд болады да үзіндігінде зандир орталықта: «+» шығару - «B» күйінде - үзінші о'тіштің чұлғымы UCH - «III» күйінде - ошмалы транзистор VT2-VT3 нің коллекторы - эмиттер о'тіштің орын - «massa» - «-» шығару.

Генератор күчланышында күйимділікке жеткізгендегі, стабилитрон VD1 және транзистор VT1 орналады. Орындағанда VT1 нің коллектор-эмиттер о'тіштің орын - «massa» - VT2 транзисторының базасынан орналады. Олардың база токи мавжуд болады да үзіндігінде зандир орталықта: «+» шығару - «B» күйінде - үзінші о'тіштің чұлғымы UCH - «III» күйінде - ошмалы транзистор VT2-VT3 нің коллекторы - эмиттер о'тіштің орын - «massa» - «-» шығару.



1.36-rasm. Я-112 belgili integral kүчланыш ростлагичтің схемасы

Я-120 belgili integral rostlagich nominal kuchlanishi 28 V bo'lgan Г273 generatori bilan ishlatishga mo'ljallangan. Я-120 rostlagich Я-112 rostlagichdan asosan kuchlanish bo'lgichidagi qarshiliklarning qiymati, ketma-ket ulangan ikkita stabilitor va uyg'otish tokining tok manbayiga ularish uslubi bilan farq qiladi. Я-120 rostlagichining ishslash prinsipi Я-112 rostlagichi ishslashiga aynan o'xshashdir.

Elektronikaning keyingi yillarda jadal rivojlanishi, elektron asboblarni yartishda yangi texnologiyalarning joriy qilinishi kuchlanish rostlagichlarning yangi avlodining yaratilishiga olib keldi. Endi avtomobil larda ishlatilayotgan rostlagichlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:


a) an'anaviy sxema bo'yicha yig'ilgan, chiqish tranzistorining ochilib-yopilish chastotasi generatorning ish rejimi bilan bog'liq bo'lgan rostlagichlar;

b) kenglik-impulslı modullash (KIM) prinsipiiga asoslangan va chiqish tranzistorining ochilib-yopilishi barqarorlashtirilgan rostlagichlar.

Kenglik-impulslı modullash asosidagi rostlagichlar gibrid texnologiya yoki to'la ravishda kremniy monokristallida yig'ilishi mumkin. Kenglik-impulslı modullashli rostlagichlar generator kuchlanishini juda barqa-ror ravishda rostlash va tashqi muhit ta'sirini mustasno qilish imkonini beradi.

KIMli rostlagichga misol tariqasida BOSCH firmasining FLIYU LC va Ros-siyada ishlab chiqilgan Я212 А11Е belgili rostlagichlarni keltirish mumkin. Bu rostlagich gibrid texnologiya asosda metall shishali korpusga yig'ilgan. Rostlagich sxemasi 1.37-rasmda keltirigan.

Rostlagich asosini kremniy kristalliga yig'ilgan mikrosxema tashkil qiladi. Mikrosxema quyidagi elementlardan iborat: kirish bo'lgichi A1, parametrik kuchlanish stabilizatori A2, integrator-kuchaytirgich A3, teskari aloqa komparatori A4, tayanch kuchlanish manbayi A5, bistabil trigger A6 va chiqish kuchaytirgichi A7.



1.37-rasm. Kenglik-impulslı modullash prinsipiiga asoslangan kuchlanish rostlagichining sxemasi

Parametrik kuchlanish stabilizatorining posangi qarshiliqi R1, tok cheklovchi qarshilik R2, so‘ndiruvchi diod VD1 va chiqish tranzistori VT1 mikrosxemadan tashqarida joylashtiriladi.

Rostlagich quyidagicha ishlaydi: generator kuchlanishi kirish bo‘lgichi A1 orqali integrator-kuchaytirich A3 ga uzatiladi va A5 dan kelayotgan tayanch kuchlanish bilan taqqoslanadi. Agar generator kuchlanishi nominal qiymat darajasida bo‘lsa, sxema bistabil trigger A6 va chiqish kuchaytirgichi A7 orqali chiqish tranzistorining ochiq va yopiq holati bir xil vaqtga teng bo‘lishini ta’minlovchi signal uzatadi. Generator kuchlanishi nominal kuchlanishdan qanchalik katta yoki kichik bo‘lsa, integrator kondensatorining zaryad-razryad bo‘lish vaqt shunchalik katta yoki kam bo‘ladi. Kondensatordagi kuchlanishga ko‘ra bistabil trigger A6 chiqish kuchaytirgichi A7 orqali chiqish tranzistori VT1 uzoqroq ochiq yoki yopiq holda bo‘lishiga majbur qiladi. Teskari aloqa komparatori A4 integrator A3 ga qo‘srimcha kuchlanish uzatish hisobiga sxemaning ishlashini tezlatadi.

Shunday qilib, rostlagich uyg‘otish zanjiridagi jarayonlaming 460 Hz–2,5 kHz doirasidagi chastota bilan amalga oshirilishini ta’minlaydi. Kuchlanishning belgilangan qiymat darajasida ushlab turishi esa an‘anaviy rostlagichlardagi kabi uyg‘otish toki qiymatining o‘zgartirilishi hisobiga amalga oshiriladi.

1.3. AKKUMULATORLAR BATAREYASI

1.3.1. Umumiy ma’lumotlar

Akkumulator batareyasi ichki yonuv dvigatelini ishga tushirishda elektrostartyorni tok bilan ta’minalash va generator ishlamayotganda yoki uning quvvati yetarli bo‘maganda, avtomobilagi barcha iste’molchilarini elektr energiyasi bilan ta’minalash vazifasini bajaradi. Akkumulator elektr tokining kimyoviy manbayi bo‘lib, u tashqaridan elektr toki berilganda kimyoviy energiyani yig‘ish (zaryadlanish) va uni elektr energiya ko‘rinishida tashqi iste’molchilarga uzatish (razryadlanish) qobiliyatiga ega bo‘lgan moslamadir. Energiyani bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tish jarayoni akkumulatorning butun ishslash davrida uzlksiz davom etib turadi.

Dvigateli ishga tushirish jarayonida startyor juda qisqa vaqt ichida katta miqdorda, 250 A dan 1500 A gacha tok iste’mol qiladi. Tuzilishi katta razryad toki berishga moslashtirilgan akkumulator batareyasi – **startyor akkumulator batareyasi** deb yuritiladi.

Avtomobilarga o‘rnataladigan startyor akkumulatorlar batareyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ichki qarshiliqi imkon darajasida kichik bo‘lishi;
- o‘lchamlari va massasi imkon boricha kichik bo‘lgan holda yetarli quvvat va energiyaga ega bo‘lishi;

- generator ishlamaganda yoki avariyalı vaziyatda iste'molchilarni tok bilan ta'minlash uchun zarur energiya zaxirasiga (rezerv sig'im) ega bo'lishi;
- atrof-muhitning harorati past bo'lganda startyorni ishonchli ishlashi uchun zarur kuchlanishni belgilangan chegaralarda saqlashi (sovutqaytirish toki);
- atrof-muhit harorati baland bo'lgan (70°C gacha) hollarda uzoq muddat davomida ishslash qobiliyatini saqlashi;
- dvigatel ishlab turganda, dvigatelni ishga tushirish va boshqa iste'molchilarni ta'minlash uchun sarflangan sig'imini tiklash uchun generatordan zaryad qabul qila olishi (zaryad qabul qilish qobiliyati);
- texnik xizmat ko'rsatish qulay bo'lishi;
- ishlatilish sharoitlariga mos keladigan mexanik mustahkamlikka ega bo'lishi;
- ishlatilish jarayonida uzoq muddat davomida belgilangan ishchi tavsifnomalarini saqlashi (ishslash muddati);
- o'z-o'zidan razryadlanish darajasi kichik bo'lishi;
- narxi past bo'lishi.

Yuqorida keltirilgan talablarga ko'p jihatdan qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlar javob beradi. Qo'rg'oshin-kislotali akkumulator elementining elektr yurituchi kuchi (EYuK) 2 V ga teng bo'lib, 12 V kuchlanishga ega bo'lgan akkumulator batareyasini hosil qilish uchun oltita akkumulator elementi ketma-ket ulanadi. Qo'rg'oshin-kislotali akkumulator batareyalarining ichki qarshiligi nisbatan kichik bo'lganligi sababli, ularga startyor ulanganda akkumulatorlarning kuchlanishning pasayishi kam bo'ladi. Bu turdag'i batareyalarga xizmat ko'rsatish qulay, ularning razryadlanganlik darajasini aniqlashning oddiy usullari mavjud. Qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlar, ularda ishlatiladigan xom ashyoning narxi nisbatan pastligi, ishlab chiqarish jarayonini yuqori darajada avtomatlashtirilganligi sababli eng ommaviy va arzon kimyoviy tok manbayi hisoblanadi.

Shuning uchun, qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarning bir qator kamchiliklari bo'lishiga qaramasdan (mexanik mustahkamligi uncha katta emas, xizmat muddati nisbatan kichik va hokazo) avtomobilarda juda keng ko'lamda ishlatiladi, chunki ularning tavsifnomalari startyor rejimiga to'laroq mos keladi.

Ishqorli akkumulator elementining EYuK 1,25 V ga teng bo'lib, 12 V kuchlanishga ega bo'lgan akkumulator batareyasini hosil qilish uchun o'nta akkumulator elementi ketma-ket ulanadi. Ishqorli akkumulator batareyalarining ichki qarshiligi nisbatan katta bo'ladi, shuning uchun katta tok bilan razryad qilinganda (startyor rejimi), ularning tutqichlaridagi kuchlanish, qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarga nisbatan anchaligda past bo'ladi va demak startyorga yetarli quvvat bera olmaydi. 12 V kuchlanishga mo'ljalangan ishqorli akkumulator batareyasi, qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarga nisbatan 1,5 marta og'ir bo'ladi, narxi esa 2-3 barobar ortiq bo'ladi. Shuning uchun, ishqorli akkumulatorlar avtomobilda juda kam ishlatiladi. Lekin, ishqorli akkumulator-

larning mexanik mustahkamligini yuqoriligi va xizmat muddati qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarga nisbatan 4–5 barobar ortiq bo'lishi diqqatga sazovardir. Shu sababli, akkumulatorlarni ishlatish jarayonida ularning ishonchlik va chidamlilik omillari o'ta zarur bo'lганда (masalan, Yer sharining Shimoliy yoki Janubiy qutblarida, umuman yetib borish qiyin bo'lган joylarda ishlaydigan avtomobillar uchun) ishqorli akkumulatorlarni ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchi qo'rg'oshin-kislotali akkumulator batareyasini fransuz olimi Gaston Plante 1860-yilda yaratdi va fransuz fanlar akademiyasiga sovg'a qildi. Uning akkumulatori bir biridan rezina qatlami bilan ajratilgan va spiral shaklda o'rالgan qo'rg'oshin listlaridan tashkil topgan bo'lib, uning umumiy yuzasi 10 m^2 ni tashkil qilgan. Plante akkumulatorlari yuzali elektrodlardan tashkil topib, ular uzoq muddatli (bir necha oydan ikki yilgacha) shakllanish jarayoni ni talab qildi.

1881-yilda nemis olimi Folkmer tomonidan panjaralni elektrodlarga ega bo'lган akkumulator yaratildi. Bu akkumulatorsozlik sanoatining jadal va muvaffaqiyatli rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'sha davming eng yaxshi akkumulatorlari massa bo'yicha solishtirma enerjiyasi 7...8 $W\cdot\text{soat}/kg$ bo'lib, ishlash muddati 100 ta «zaryad-razryad» siklini tashkil qilgan (zamonaviy akkumulatorlarda 40–47 $W\cdot\text{soat}/kg$, 200...300 sikl).

Sobiq ittifoqda akkumulatorlar ishlab chiqarish sanoati 1940-yillardan shakllana boshladи. Bir qator zavodlar ishga tushirilib, ular ebonit va zichlashtirilgan bitumdan tayyorlangan yaxlit-qobiqli akkumulatorlar chiqara boshladilar. Urushdan keyingi yillarda yog'ochdan tayyorlangan separatorlar o'rniga ishlash muddati ancha katta bo'lган polivinilxlorid (miplast) va kauchukdan (mipor) tayyorlangan sintetik separatorlar o'rnatila boshlandi. O'tgan asrnинг oltmishinchi yillarda akkumulatorlarda miplast (yoki mipor) va shisha paxtadan tayyorlangan qo'sh separatorlar paydo bo'ldi. Bu akkumulatorlarning kafolatli ishlash muddatini 18 oydan 24 oygacha ko'tarish imkonini berdi.

Yetmishinchi yillarda plastina panjaralari korroziyaga chidamli qotishmalar dan (mishyk bilan legirlangan) quyila boshladи. Aktiv massadan foydalanish koefitsiyentini oshirish texnologiyasi o'zlashtirilishi hisobiga akkumulatorlarda ishlatildigan materiallarning hajmi 20 %ga kamaytirildi. Musbat plastinaning aktiv massasiga sintetik tolalarni qo'shilishi uni mustahkamligini oshirdi va shisha paxtani ishlatish darajasi ancha kamaytirildi. Manfiy plastinaning aktiv massasiga sintetik kengaytirgichlarni qo'shilishi, ularning g'ovakligini oshirdi va akkumulatorlarning razryad tavsifnomasini sezilarli darajada yaxshiladi. Shu davrda quruq zaryadlangan akkumulatorlarni ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqildi va yo'iga quyildi.

Saksoninchi yillarda termoplastdan (to'ldirilgan propilen) tayyorlangan yaxlit qobiqli va umumiy qopqoqli, «xizmat ko'rsatilmaydigan», «kam xizmat ko'rsatildigan» akkumulatorlar ishlab chiqarila boshlandi. Akkumulatorlarda mikro-g'ovak polietilendan tayyorlangan separator-konvertlar paydo bo'ldi. Bu akkumulatorlarning sig'imi va ishonchlilik darajasini ancha oshirdi.

Yangi asrdan «quruq» batareyalar, ya'ni elektroliti quyuqlashtirilgan gel ko'rinishdagi yoki suyuq elektrolit g'ovaklik darajasi juda katta bo'lган separatorga singdirilgan turdag'i akkumulatorlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1.3.2. Akkumulatorlar batareyasining ishlash prinsipi, tuzilishi va asosiy ko'rsatkichlari

Qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarning ishlash prinsipi va ulardagi elektrokimyoviy jarayonlar

Bir-biridan ajratilgan elektrodlar orasida sodir bo'ladigan oksidlanish-tiklanish kimyoviy jarayonlari hisobiga ulardagi ozod energiyani elektr energiyasiga aylantruvchi moslamalarga elektr tokining kimyoviy manbayi deb ataladi.

Ishlash tartibiga qarab kimyoviy tok manbalari ikki turga bo'linadi:

1. Birlamchi kimyoviy tok manbalari yoki galvanik elementlar;
2. Ikkilamchi kimyoviy tok manbalari yoki akkumulatorlar.

Birlamchi kimyoviy tok manbalarini bir marta ishlatish mumkin, chunki ularni razryad qilinganda hosil bo'ladigan moddalarni dastlabki holatiga qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun to'la razryadlangan galvanik elementni ishlatib bo'lmaydi.

Ikkilamchi kimyoviy tok manbalari energiyasi qayta tiklanuvchi manbalar sira-siga kiradi. To'la razryadlangan holda ham zaryadlash usuli bilan ularning ish qobiylatini tiklash mumkin. Buning uchun ikkilamchi tok manbayidan razryad jarayoni-dagi tok yo'nali shiga teskari yo'nali shda tok o'tkazilishi kerak bo'ladi. Bunda: razryad jarayonida hosil bo'lган moddalar o'zining dastlabki holatiga qaytadi.

Shu tarzda, ko'p marta kimyoviy energiyani elektr eneriyaga (razryad) va elektr energiyani kimyoviy energiyaga (zaryad) aylantirish jarayoni sodir bo'ladi.

To'la zaryadlangan qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarda tok hosil bo'lish jarayonida ishtirot etadigan aktiv moddalar quyidagilar:

– musbat plastinada – qo'rg'oshin ikki oksidi PbO_2 (to'q jigar rang) **oksidlovchi**;

– manfiy plastinada – g'ovak qo'rg'oshin Pb (kul rang) **tiklovchi**;

– elektrolit – sulfat kislotaling (H_2SO_4) distillangan suvdagi eritmasi.

Suv eritmasidagi kislota molekulalari bir qismi doimo musbat zaryadlangan vodorod ionlari N^- va manfiy zaryadlangan sulfat SO_4^{2-} ionlariga ajralgan holda bo'ladi.


Akkumulatorni razryadlash

Razryad jarayonida akkumulatorlarda sodir bo‘ladigan elektrokimyoviy jaryonlar 1-jadvalda keltirilgan.

Manfiy plastinadagi aktiv massa bo‘lgan g‘ovak qo‘rg‘oshinning (oksidlovchi) bir qismi elektrolitda eriydi va oksidlanib musbat ionlar Pb^{+2} ni hosil qiladi. Bu jarayonda ozod bo‘lgan ortiqcha elektronlar plastinaga manfiy zaryad uzatada va ular tashqi yopiq zanjir orqali musbat plastina tomoniga harakatlana boshlaydi.

1-jadval

Qo‘rg‘oshin-kislotali akkumulatorni razryad qilganda sodir bo‘ladigan elektrokimyoviy jaryonlar sxemasi




Musbat zaryadlangan qo‘rg‘oshin ionlari Pb^{+2} manfiy zaryadlangan sulfat ionlari SO_4^{2-} bilan reaksiyaga kirishi qo‘rg‘oshin sulfat $PbSO_4$ ni hosil qiladi. $PbSO_4$ elektrolitda deyarli erimaganligi sababli manfiy plastina yuzasiga cho‘kadi. Razryad jarayonida manfiy plastinadagi aktiv modda g‘ovak qo‘rg‘oshin Pb (to‘q kulrang) qo‘rg‘oshin sulfat tuzi $PbSO_4$ (och kulrang)ga aylanadi.

Musbat plastinadagi qo‘rg‘oshin ikki oksidi PbO_2 elektrolit tarkibidagi suv bilan ta’sirlanib musbat zaryadlangan to‘rt valentli qo‘rg‘oshin Pb^{+4} va manfiy zaryadlangan OH^- gidroksil ionlariga ajraladi.



Pb ionlari plastinaga musbat potensial beradi va tashqi yopiq zanjir orqali manfiy plastinadan kelgan ikkita elektron $2e^-$ ni o'ziga qo'shib olib ikki valentli Pb ionlariga tiklanadi, ya'ni:



Pb^{++} ionlari SO_4^{--} ionlari bilan birikib qo'rg'oshin sulfat tuzi $PbSO_4$ ni hosil qiladi va u musbat plastina yuzasiga cho'kadi. Musbat plastinaning aktiv massasi qo'rg'oshin ikki oksidi PbO_2 (to'q jigar rang) qo'rg'oshin sulfat $PbSO_4$ ga (och jigar rang) aylanadi.

Akkumulatorning razryad jarayonida musbat va manfiy plastinadagi aktiv moddalar (PbO_2 va Pb) qo'rg'oshin sulfat $PbSO_4$ tuziga aylanadi. Qo'rg'oshin sulfat tuzini hosil qilish uchun sulfat kislota H_2SO_4 sarflanadi va H^+ va OH^- ionlari esa birikib suv H_2O hosil qiladi.

Muhim xulosasi: Akkumulator razryad qilinganda zichliga katta bo'lgan ($1,83$ g/sm 3) sulfat kislota H_2SO_4 plastinalarga singadi, elektrolit tarkibida esa zichligi kichik bo'lgan ($1,0$ g/sm 3) suv H_2O hosil bo'ladi.

Demak, razryad jarayonida elektrolitning zichligi kamayadi.

Qo'sh sulfatlanish nazariyasiga asosan akkumulatorlarda razryad vaqtida sodir bo'ladigan jarayonlarni quyidagicha ifodalash mumkin:


Musbat plastinada:



Manfiy plastinada:




Umumiylar reaksiya:




Akkumulatorni zaryadlash

Zaryad vaqtida akkumulatorda sodir bo'ladigan elektrokimyoiy jarayonlarining sxemasi 2-jadvalda keltirilgan.

Akkumulator razryadlangan holda elektrolit tarkibida uncha katta bo'lmagan miqdorda qo'rg'oshin sulfat (Pb^{2+}, SO_4^{2-}) va suv (H^+, OH^-) ionlari mavjud bo'ladi. Agar zaryadlanadigan akkumulator o'zgarmas tok manbayi zanjiriga ketma-ket ulansa, uning kuchlanishi ta'sirida akkumulatorning tashqi zanjirda elektronlarning musbat plastinadan manfiy plastinaga yo'nalgan harakati boshlanadi. Natijada manfiy plastina oldidagi ikki valentli qo'rg'oshin Pb^{2+} ionlari tashqi zanjirdan kirib kelgan ikkita elektron $2e^-$ ta'sirida g'ovak qo'rg'oshin Pb holatiga tiklanadi. Bo'sh qolgan SO_4^{--} va H^+ ionlari birikib, sulfat kislota H_2SO_4 hosil qiladi:




Musbat plastinada zaryad toki ta'sirida ikki valenti qo'rg'oshin P^- ionlari ikkita elektron $2e^-$ ni berib, to'rt valentli qo'rg'oshin Pb ga oksidlanadi. Pb oraliq reaksiyalar natijasida ikkita kislorod ioni $2O^-$ – bilan birikib, qo'rg'oshin ikki oksidi PbO_2 ni hosil qiladi va u musbat plastinaga o'tiradi. SO_4^{2-} va H^+ ionlari xuddi manfiy plastinadagi kabi birikib, sulfat kislota H_2SO_4 hosil qiladi.



2-jadval

Qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorni zaryad qilganda sodir bo'ladigan elektrokimyoviy jarayonlar sxemasi



Zaryad jarayonining yakuniy tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Muhim xulosa: Akkumulator zaryadlanganda elektrolit tarkibidagi zichligi katta bo'lgan ($1,83 \text{ g/sm}^3$) sulfat kislotaning H_2SO_4 miqdori dastlabki holatiga tiklanadi, ya'ni ortadi, zichligi kichik bo'lgan ($1,0 \text{ g/sm}^3$) suv H_2O esa qo'rg'oshin ikki oksidi PbO_2 va sulfat kislota H_2SO_4 hosil qilish uchun sarflanadi, ya'ni uning miqdori kamayadi.

Demak, zaryad jarayonida elektrolitning zichligi ortadi

Musbat va manfiy plastinadagi aktiv moddalarning bir holatdan ikkinchi holata o'tish jarayoni tugagandan so'ng elektrolit zichligi o'zgarmay qoladi. Bu akku-

mulatorda zaryad jarayoni tugaganligining alomatidir. Zaryad davom ettirilsa, akkumulatorlarda ikkilamchi jarayon boshlanadi, ya'ni elektrolit tarkibidagi suv kislород va vodorodga parchalana boshlaydi. Bu gazlar elektrolit tarkibidan xavo pufakchalar ko'rinishida ajralib chiqib, elektrolitning «qaynash» tasavvurini hosil qiladi. Bu ham zaryad jarayoni tugaganligining bir belgisi hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan akkumulatorning razryad va zaryad jarayonlarining tahlilidan quyidagi qonuniyat aniqlandi:

Akkumulatorni razryadlash vaqtida sulfat kislota plastinalarga singadi va suv ajralib chiqadi, natijada elektrolitning zichligi kamayadi ($1,09\dots1,15 \text{ g/sm}^3$). Zaryadlanish vaqtida esa bu jarayonning teskarisi sodir bo'ladi, ya'ni suv yutiladi va sulfat kislota ajralib chiqadi, elektrolitning zichligi ortadi ($1,25\dots1,31 \text{ g/sm}^3$).

Bundan juda muhim xulosa kelib chiqadi – *elektrolitning zichligi akkumulatorning razryadlanganlik darajasini belgilovchi omillardan biridir.*

Tok hosil qiluvchi asosiy moddalarining sarfi

Akkumulator razryad qilinganda 1 *amper-soat* elektr miqdorini olish uchun yuqorida keltirilgan kimyoiy reaksiyalarda quyidagi miqdorda aktiv moddalar ishtirok etishi kerak:

Qo'rg'oshin ikki oksidi	PbO_2	–	4,463 g
G'ovak qo'rg'oshin	Pb	–	3,886 g
Sulfat kislota	H_2SO_4	–	3,680 g

Demak, 1 *amper-soat* elektr miqdorini olish uchun hammasi bo'lib 11,989 g aktiv modsa sarflanishi kerak. Bu albatta, nazariy ko'rsatkich. Amalda tok hosil qilish jarayonida aktiv moddaning hammasini bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish mumkin emas. Taxminan aktiv materiallarning yarmi plastinaning karkasini yasashga asos bo'lib xizmat qiladi va elektrolit bilan reaksiyada ishtirok etmaydi. Shuning sababli aktiv materiallarning real ishlatalidigan qismi musbat plastina uchun 45...55 %ni, manfiy plastina uchun esa 50...65 %ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, elektrolit sifatida sulfat kislotaning suvdagi 35...38 % eritmasi ishlataladi. Shuning uchun akkumulatorlarda nazariy ko'rsatkichlarga nisbatan real sarflanadigan materiallarning miqdori ancha yuqori, olinadigan elektr miqdori esa ancha past bo'ladi.

Akkumulatorlarning belgilanishi

MDH davlatlarida akkumulatorlar sobiq ittifoqda tasdiqlangan ГOCT 959-91 asosida ishlab chiqariladi.

2003-yil iyul oyidan Rossiyada yangi standart ГOCT 959-2002 kiritilib, bu me'yoriy hujjatga ko'ra akkumulatorlar quyidagicha belgilanadi:

6CT-55AM3 необслуживаемая

- birinchi raqam (6 yoki 3) batareyada ketma-ket ulangan akkumulatorlar sonini yoki uning nominal kuchlanishining (12 yoki 6 V) tavsiflaydi;
- keyingi ikkita harf (CT) batareyani vazifasini tavsiflaydi (CT – avtomobil startyorni tok bilan ta'minlash uchun);
- uchinchi raqam (55) batareyaning *amper-soat* dagi nominal sig'imini ko'rsatadi;
- keyingi harf yoki raqamlar batareyaning tuzilishi, unda ishlatalgan materiallar haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Masalan: A – umumiy qopqoqli, 3 – elektrolit quylgan va to'la zaryadlangan, Ә(T) – yaxlit qobiq ebonitdan (yoki termoplastdan) tayyorlangan, M(P) – separator materiali miplast (yoki mipor), П – polietilenden tayyorlangan separator-konvert, «необслуживаемая» so'zi – «xizmat ko'rsatilmaydigan» batareya.

Bundan tashqari batareyaning belgisi quyidagi ma'lumotlarni ham ko'rsatishi kerak:

- ishlab chiqargan korxonaning tovar belgisi;
- «+» va «-» qutblarining belgisi;
- tayyorlangan sanasi (ikkita raqam – oy, ikkita raqam – yil);
- batareyaning og'irligi (agar og'irligi 10 kg va undan ortiq bo'lsa);
- nominal sig'imi, *amper-soat* da;
- nominal kuchlanishi, V da;
- sovuq aylantirish toki, A da.

Yevropada ishlab chiqarilgan akkumulator batareyalari besh raqamli (DIN bo'yicha) yoki to'qqiz raqamli (ETN bo'yicha) kodlar bilan belgilanadi.

DIN va ETN bo'yicha birinchi uchta raqam batareyaning kuchlanishi va sig'imi haqida ma'lumot beradi.

6 V li batareyalar uchun birinchi uchta raqam (001 dan 499 gacha) akkumulator batareyasining 20 soatlik razryadlanishidagi nominal sig'imiga mos keladi. 12 V li batareyalarda esa sig'imi aniqlash uchun birinchi uchta raqamdan (501 dan 799 gacha) 500 sonini ayirish kerak.

Masalan, «55565» (DIN) yoki «555065042» (ETN) belgisiga ega bo'lgan batareyaning sig'imi 55 *amper-soat* ni tashkil qiladi. Agar 68032 yoki 68032100 bo'lsa, mos ravishda batareyaning nominal sig'imi 180 *amper-soat* bo'ladi va hokazo.

DIN bo'yicha koddagi oxirgi ikkita raqam, ETN bo'yicha esa ikkinchi uchta raqam batareyaning yasalish varianti, chiqish qisqichlarining holati, mahkamlovchi elementlar yoki qopqoq tuzilishiga oid ma'lumotlarni beradi.

ETN bo'yicha to'qqiz raqamli kod bilan belgilangan oxirgi uch raqam sovuq aylantirish tokining 0,1 qiyamatini ko'rsatadi. Masalan, yuqorida keltirilgan to'qqiz raqamli kodga ega bo'lgan batareyalarda (555 065 042, 680 032 100) sovuq aylantirish toki mos ravishda 420 A va 1000 A ni tashkil qiladi. «562 103 064» kodi bilan

belgilangan batareyaning nominal sig'imi 62 *amper-soat*, sovuq aylantirish toki esa 640 A ni tashkil qiladi.

Amerika batareya ishlab chiqaruvchilari o'zlarining mahsulotlarini SAE standarti talablari asosida belgilaydilar. Belgi batareyaning tur va o'lchamlar guruhi va -18°C dagi sovuq aylantirish tokini ifodalaydi. Masalan: A27500: A – avtomobil uchun 27-guruuh (306×173×225 mm), tok 500 A.

Akkumulator batareyalarning konstruktiv turlari va tuzilishi

Har bir akkumulator bir-biridan ajratilgan va mustahkam, kislota ta'siriga chidamli idishdagи elektrolit eritmasiga botirilgan turli ishorali elektrodlar (plastinalar)dan tashkil topgan.


Tuzilishi bo'yicha batareyalarning quyidagi turlari mavjud:

- odatdagи konstruksiyaga ega bo'lgan batareyalarda yaxlit qobiqqa joylashtirilgan uch yoki olti ketma-ket ulangan akkumulatorlardan tashkil topgan bo'lib, ularning ustti alohida qopqoqlar bilan yopilgan. Elementlararo ulagichlar esa qopqoqning ustidan o'tgan.
 - umumiy qopqoqqa ega bo'lgan yaxlit qobiqli va elementlararo ulagichlar qopqoq ostidan o'tkazilgan batareyalar;
 - «Xizmat ko'rsatilmaydigan» batareyalar. Bu akkumulator batareyasi ham umumiy qopqoqqa ega bo'lib, unda suyuqlik quyish teshiklari yo'q va ularni ishlatish jarayonida distillangan suv quyish talab qilinmaydi.
 - mutlaqo xizmat ko'rsatilmaydigan, zichlashtirilgan akkumulator batareyalari. Bu akkumulatorlar «DRYFIT» texnologiyasi bo'yicha yaratilgan. Ularda elektrolit quyuqlashtirilgan holatda bo'lib, bu akkumulatorlarni yuqori ishonchli va xavfsiz ishlatilishini kafolatlaydi.

Alovida qopqoqlarga ega bo'lgan batareyalar

Akkumulator batareyasi bitta ko'p bo'limli yaxlit qobiqqa yig'iladi (1.38-rasm). Yaxlit qobiq (12) kislotaga chidamli, mexanik mustahkamligi va izolyatsiya xususiyatlari yuqori bo'lgan materiallardan tayyorlanadi.

Yaxlit qobiq bo'linmasiga joylashtirilgan va qopqoq bilan yopilgan plastinalar bloki nominal kuchlanishi 2 V bo'lgan akkumulator elementini tashkil qiladi. Akkumulator elementlararo qo'rgoshin ulagichlar yordamida batareyaga birlashtiriladi. Qopqoqlar alohida bo'lgan akkumulatorlarda ulagichlar tashqaridan, ya'ni qopqoqlarning ustidan o'tadi. Akkumulatorlarni ketma-ket ulab, batareya hosil qilish uchun ulagichning bir uchi musbat plastinalar yarim blokining bortiga kavsharlanadi, ikkinchi uchi esa keyingi bo'linmada joylashtirilgan manfiy plastina yarim blokining bortiga kavsharlanadi va hokazo. Ikkita eng chekkadagi akkumulatorning bornlariga qutb chiqish joylari kavsharlanadi. Musbat va manfiy chiqish




1-38 rasm. Alohiba qopqoqli akkumulator batareyasi:

1 – separator, 2 – musbat plastinalar, 3 – manfiy plastinalar, 4 – baretka, 5 – saqlovchi to'siq, 6 – ko'priqcha, 7 – qopqoq, 8 – elektrolit va distillangan suv quyish tuynugi, 9 – elementlararo ulagich, 10 – tinqin, 11 – qutb qulog'i, 12 – yaxlit qobiq, 13 – tayanch qovurg'asi.


joylarining diametri har hil qilib ishlangan bo'lib, bu akkumulatorlarning avtomobilning tok tarmog'iga to'g'ri ularishini ta'minlaydi.

Ko'p yillar davomida yaxlit qobiq yasash uchun ebonit ishlatildi. Ebonit kislotaga chidamli va yaxshi izolyator, lekin uning zarur mexanik mustahkamligini ta'minlash uchun devorchalarining qaliligi 9...12 mm bo'lishi kerak. Bu batareyaning vaznni ortib ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, atrof-muhitning harorati pasayishi bilan ebonit juda ham mo'rt bo'lib qoladi. Shu sababli hozirgi vaqtida yaxlit qobiqlar termoplast (to'ldirilgan polietilen), polipropilen va polistirol kabi materiallardan tayyorlanmoqda. Bu materiallarning yuqori mustahkamligi yaxlit qobiq devorchalarining qaliligini 1,5...3,5 mm gacha va batareyaning og'irligini esa 5 barobar kamaytirish imkoniyatini beradi. Plastmassadan tayyorlangan yaxli qobiqning yetarli darajada tiniqligi batareyadagi elektrolit sathini bemalol tashqaridan nazorat qilish imkonini beradi.

Yaxlit qobiqning bir-biridan ajratilgan bo'linmalarida bir blokka yig'ilgan plastinalar (2,3) va separatorlar (1) joylashtiriladi. Oddiy separatorli batareyalarnda har bir bo'linmaning pastki qismida musbat va manfiy plastinalar tayanadigan to'rtta qovurg'a (13) o'rnatilgan bo'lib, ularning orasida hosil bo'lgan bo'shliqda



1.39-rasm. Akkumulator qopqog'i:
1 – qo'rg'oshin vtulka, 2 – qutb qulog'inining chiqish joyi, 3 – elektrolit, distillangan suv quyish tuynugi.



1.40-rasm. Akkumulator tiqinlari:
a – rezina halqali va o'rnatilgan qaytar-gichli tiqin; b – gulbargsimon qaytar-gich va rezina halqasiz tiqin; 1 – qobiq; 2 – plastmassa quyilma; 3 – rezina halqa; 4 – qaytargich; 5 – zichlashtiruchi quyim; 6 – gulbargsimon qaytargich.

Akkumulatorlarning rezbali tiqinlari (1.40-rasm) ebonitdan, polietilenden, polistirol yoki fenolitdan tayyorlanadi. Ish jarayonida akkumulatorlar ichida hosil bo'ladigan gazlarni tashqariga chiqishi uchun tiqinlarda maxsus shamollatish tuynugi qo'yiladi. Avtomobil harakatlanganda elektrolit chayqalib shamollatish tuynugi orqali sachramasligi uchun tiqinning pastki qismida to'siq (4) o'rnatiladi. Yangi konstruksiyaga ega bo'lган tiqinlarda to'siq gulbarg shaklida (6) ishlangan. Akkumulator qopqog'i bilan tiqin orasidagi zichlik rezina halqa 3 yoki zichlashtiruvchi quyim 5 yordamida ta'minlanadi.

Akkumulatorlarning rezbali tiqinlari (1.40-rasm) ebonitdan, polietilenden, polistirol yoki fenolitdan tayyorlanadi. Ish jarayonida akkumulatorlar ichida hosil bo'ladigan gazlarni tashqariga chiqishi uchun tiqinlarda maxsus shamollatish tuynugi qo'yiladi. Avtomobil harakatlanganda elektrolit chayqalib shamollatish tuynugi orqali sachramasligi uchun tiqinning pastki qismida to'siq (4) o'rnatiladi. Yangi konstruksiyaga ega bo'lган tiqinlarda to'siq gulbarg shaklida (6) ishlangan. Akkumulator qopqog'i bilan tiqin orasidagi zichlik rezina halqa 3 yoki zichlashtiruvchi quyim 5 yordamida ta'minlanadi.

Yangi, elektrolit quyilmaydigan akkumulatorlarda plastinalarning oksidlanib qolishining oldini olish uchun tiqinlarning shamollatish tuynugi plastinassa quyilma (2) bilan yopilgan bo'ladi. Akkumulatorga elektrolit quyilgandan keyin ushbu quyilma qirqib tashlanishi va shamollatish tuynugi ochib qo'yilishi zarur.

batareyaning ishlash jarayonida plastinalardagi aktiv massadan uqalanib tushadigan cho'kma yig'iladi va plastinalar aro qisqa tutashuv bo'lishidan saqlaydi.

Elektrolit sathini yoki zichligini o'lchash jarayonida plastinalar hamda separatorning yuqori qismini yemirilishdan saqlash maqsadida ular ustiga kislotaga chidamli plastmassadan tayyorlangan g'alvirsimon saqlovchi to'siq (5) o'rnatiladi.

Ebonit yoki plastmassadan tayyorlangan qopqoq (7) akkumulatorlarning alohida bo'linmalarini yopadigan qilib tayyorlanadi. Alohida qopqoqning atrofi kislotaga chidamli maxsus bitumli mastika bilan zichlashtiriladi. Har bir qopqoqning (1.39-rasm) uchta doirasimon tuynugi bo'lib, ikkita chekkasidagi plastina yarim bloklarining qutb qulochchalarini (2) chiqarish uchun mo'ljallangan bo'lsa o'rtadagi rezbali tuynuk (3) akkumulatorga elek-

trolit, distillangan suv quyish, elektrolit sathi va zichligini o'lchash uchun xizmat qiladi.

Plastina yarim bloklarining qutb qulochchalarini kavsharlash va tegishli germetik zichligini ta'minlash maqsadida qopqoqning ikki chekkadagi tuynugiga qo'rg'oshin halqlari (1) presslanib joylashtiriladi.

Akkumulatorlarning rezbali tiqinlari (1.40-rasm) ebonitdan, polietilenden, polistirol yoki fenolitdan tayyorlanadi. Ish jarayonida akkumulatorlar ichida hosil bo'ladigan gazlarni tashqariga chiqishi uchun tiqinlarda maxsus shamollatish tuynugi qo'yiladi. Avtomobil harakatlanganda elektrolit chayqalib shamollatish tuynugi orqali sachramasligi uchun tiqinning pastki qismida to'siq (4) o'rnatiladi. Yangi konstruksiyaga ega bo'lган tiqinlarda to'siq gulbarg shaklida (6) ishlangan. Akkumulator qopqog'i bilan tiqin orasidagi zichlik rezina halqa 3 yoki zichlashtiruvchi quyim 5 yordamida ta'minlanadi.

Yangi, elektrolit quyilmaydigan akkumulatorlarda plastinalarning oksidlanib qolishining oldini olish uchun tiqinlarning shamollatish tuynugi plastinassa quyilma (2) bilan yopilgan bo'ladi. Akkumulatorga elektrolit quyilgandan keyin ushbu quyilma qirqib tashlanishi va shamollatish tuynugi ochib qo'yilishi zarur.


Plastinalar

Akkumulator elementi musbat va manfiy plastinalardan yig'ilgan. Plastinaning asosini qo'rg'oshin panjara tashkil qilib, u aktiv massadan tok uzatish (razryad), tok qabul qilish (zaryad) va aktiv massani mexanik ushlab turish vazifasini bajaradi. Plastina panjarasi (1.41-rasm) ramka 2, vertikal qovurg'alar 4 va gorizontal psychalar 6, qulqochalar 1 va ikkita oyoqcha 3 dan tashkil topgan. Qovurg'alar diagonal (5) holatda ham bo'lishi mumkin. Gorizontal psychalar odatda vertikal qovurg'alarga nisbatan ingichkarot bo'lib, shaxmat tartibida joylashtiriladi. Ramka qovurg'a va psychalarga nisbatan ancha yo'g'on qilib ishlanadi.

Plastina panjarasi qo'rg'oshindan quyish yo'li bilan tayyorlanadi. Panjaraning mexanik mustahkamligini, korroziyaga chidamliligini oshirish, quyilish xususiyatini yaxshilash maqsadida qo'rg'oshinga 4...6 % surma va 0,1...0,2 % mishyak qo'shiladi. Masalan, qo'rg'oshinga 5 % surma qo'shilishi plastina panjarasining mustahkamligini ikki marta, uzilishga qarshiligini esa 3-4 barobar oshiradi.

To'rsimon tortilgan panjara (1.41- e rasm) o'ram ko'rinishidagi qo'rg'oshin tasmasidan maxsus qurilmada tayyorlanadi. Bunday panjaraning ishchi yuzasi ancha katta bo'lib, aktiv moddani yaxshiroq ushlaydi, panjaraga korroziya ta'sirini kamaytiradi va batareyaning ishlash muddatini oshiradi.

Plastina panjarasi g'ovak aktiv modda (pasta) bilan to'ldiriladi. Pastaning asosini sulfat kislotanining suvdagi eritmasi aralashtirilgan qo'rg'oshin kukuni tash-



1.41-rasm. Akkumulator plastinasining panjaralari:

a – an'anviy to'g'ri burchakli; b, c – diagonal qovurg'ali setkali (b – tayanch oyoqchasisiz; c – oyoqchali); d – diagonal qovurg'ali, qulqochalari o'rtaga surilgan; e – to'rsimon teshilgan va cho'zilgan; 1 – qulqocha; 2 – ramka; 3 – oyoqcha; 4 – vertikal qovurg'alar; 5 – diagonal qovurg'alar; 6 – gorizontal psychalar.

kil qiladi. Aktiv moddani mustahkamlash maqsadida pastaga polipropilen tolalar qo'shiladi. Manfiy plastina aktiv moddasini zichlashib ketishining oldini olish maqsadida bu elektrod pastasiga kengaytiruvchi elementlar [(bariy sulfati $BaSO_4$ (~44 %), lignosulfat Na (~28 %), kuya (~ 28 %)] qo'shiladi.

Xamirsimon pasta plastina panjaralariga suriladi, presslanadi va quritiladi. So'ngra akkumulator plastinalariga sulfat kislotaning distillangan suvdagi kuchsiz eritmasida (~1,05 g/sm³) kichik tok bilan elektrokimyoiyishlov beriladi. Bu jarayon plastinalarning shakllanishi deb nom olgan.

Shakllanish natijasida musbat plastinada to'q jigar rang qo'rg'oshin ikki oksidi (PbO_2), manfiy plastinada to'q kulrang g'ovak qo'rg'oshin (Pb) hosil bo'ladi. Shakllanishdan keyin plastinalardagi aktiv modda yuqori g'ovaklikka ega bo'ladi. G'ovak moddaning aktiv yuzasi (elektrolit bilan bevosita ta'sirlanadigan yuza) plastinaning geometrik yuzasiga nisbatan yuz barobardan ortiq bo'ladi. Bu elektrolitni plastinaning ichki qatlamlariga bemalol o'tishini ta'minlaydi va aktiv moddanan foydalanish koeffitsiyentini oshiradi.

Shakllanish jarayonidan keyin plastinalar quritiladi va havo tarkibidagi kislorod ta'sirida oksidlanadi. Bu usulda tayyorlangan akkumulatorlar «quruq razryadlangan» deb ataladi va ishga tushirishdan oldin ularni zaryad qilish kerak bo'ladi. «Quruq zaryadlangan» akkumulatorlarni tayyorlash uchun plastinalar o'ta qizdirilgan bug' yordamida, ya'ni kislorodsiz sharoitda quritiladi.

Tayyor plastinalar baretka yordamida manfiy va musbat yarim bloklarga birlashtiriladi. Baretka-born va plastinalarning qulqchalari kavsharlanadigan ko'prikchadan tashkil topgan. Yarim blokdagi parallel ulangan plastinalar soni, akkumulator batareyasining nominal sig'imimi belgilaydi, ya'ni plastinalar soni ortishi bilan sig'im ham ortadi. Musbat plastinalar odatda manfiy plastinalardan qalinroq bo'ladi. Standart avtomobil akkumulatorlarida musbat plastinalarning qalinligi 1,52 mm, manfiy plastinalar esa 1,4 mm ni tashkil qiladi. Quvvati katta bo'lgan akkumulatorlarda plastinalarning qalinligi 6,35 mm gacha bo'lishi mumkin.

Avval akkumulatorlar blokidagi manfiy plastinalar soni musbat plastinalarga nisbatan bitta ko'p bo'lar edi. Hozir bu an'ana o'zgarib, endi musbat plastina bitta ortiqcha tayyorlanmoqda, chunki bunday tuzilishga ega bo'lgan akkumulator, o'lchamlari o'zgarmagan holda, kattaroq tok berishi mumkin.


Har xil qutbli plastinalarning o'zaro qisqa tutashuvining oldini olish maqsadida ularning orasiga separatorlar o'rnatiladi. Bundan tashqari separatorlar plastinalar orasidagi tirqishni o'zgarmas holda saqlaydi, ularni silkinish va titrash (vibratsiya) natijasida surilib ketishini istisno qiladi.

Separatorlarning sifati akkumulatorning samarali ishlashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Batareyaning ichki qarshiligi va elektrstartyor qisqichlaridagi kuchlanish qiy-mati bevosita separatorlarning qarshiligiga bog'liq. Separatorlar musbat plastinalagi aktiv moddaning to'kilishini kamaytiradi, manfiy plastinaning sulfatlanish tezligini sekinlashtiradi, batareyaning ishlash muddatini oshiradi.

Separatorlar yuqori g'ovaklik, yetarli mexanik mustahkamlik, kislotaga chidamlilik, yaxshi izolyatsiya va elastiklik xususiyatlariga ega bo'lishi kerak. Qmaviy ravishda tayyorlanadigan avtomobil batareyalari uchun xomashyoning arzonligi va bemalol olish mumkinligi hamda tayyorlanish texnologiyasining soddaligi muhim ahamiyatga ega.

Qo'rg'oshin kislotali akkumulatororda separator tayyorlash uchun mikrog'ovakli plastmassa (miplast, porovinil, plastipor, vinipor), mikrog'ovakli ebonit (mipor), shisha paxta kabi materiallar ishlataladi. Mipordan tayyorlangan separatorlar o'zining o'ta g'ovakligi, elektr qarshiligi kamligi bilan boshqa materiallardan tayyorlangan separatorlardan ustini turadi va batareyaning ishlash muddatini oshirish imkonini beradi. Mipor tabiiy kauchuk, silikagel va oltingugurtning aralashmasini vulkanizatsiya qilish yo'li bilan olinadi. Mipordan tayyorlangan separatorlarning mo'rtligi, elektrolitning sekin singishi, xomashyoning kamyoib va qimmatligi asosiy kamchiligi hisoblanadi.

Miplast polixlorvinil yelimini (smolasini) qizdirib biriktirish yo'li bilan olinadi. Mioplast separatorlarini tayyorlash texnologiyasi ancha sodda, xomashyo ham kamyob emas. Mioplast separatorlar elektrolitni o'ziga juda tez singdiradi, mexanik mustahkamligi, kimyoiy chidamliligi yetarli darajada. Lekin mioplast separatorlarning g'ovakligi nisbatan past. G'ovaklarning diametri katta bo'lganligi uchun ularda tok o'tkazuvchi o'simtalarning hosil bo'lismi yuqoriroq bo'ladi. Shuning uchun mioplast separatorli akkumulatorlarning ishlash muddati bir muncha kamroq bo'ladi. Separatorlar yupqa (1...2 mm) to'rtburchakli plastina ko'rinishida bo'lib (1.42-rasm), elektrolit o'tishini yengillatish uchun musbat plastinaga qaratilgan tomoni trapetsiyasimon, yumaloq yoki tuxumsimon vertikal qovurg'ali qilib tayyorlanadi.




1.42-rasm. Qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarning separatorlari:
a – mioplastdan tayyorlangan separator; b – polietelendan tayyorlangan separator-konvert.

Balandligi uncha katta bo'limgan ($0,15\ldots2\text{ mm}$) va manfiy plastina tomonga qaratilgan qovurg'alar separatorlarni «o'sib» ketish ehtimolini kamaytiradi, manfiy plastina oldidagi elektrolitda diffuziya va konveksiya uchun sharoitlarni yaxshilaydi. Separatorlar plastinalarga nisbatan eniga $3\ldots5\text{ mm}$, bo'yiga $9\ldots10\text{ mm}$ ga kattaroq bo'ladi. Bu plastinalar orasida tok o'tkazuvchi o'simtalar hosil bo'lishini kamaytiradi. Ba'zida, og'ir sharoitda ishlaydigan avtomobillar uchun qo'sh separatorli akkumulatorlar o'rnatiladi. Qo'sh separatorlarda mipor yoki miplastdan tayyorlangan separatorlarning musbat plastinaga qaragan tomoniga shisha paxtadan tayyorlangan yupqa namat joylashtiriladi. Shisha namat musbat plastinaga yopishib turadi va uning aktiv massasini tebranish, titrash ta'sirida sirg'alib to'kilib ketishi danancha saqlaydi.


Umumiyl qopqoqli batareyalar

Kimyoiy sanoatning rivojlanishi, yangi xususiyatga ega bo'lgan materiallarning paydo bo'lishi akkumulatorlarni ishlab chiqarish texnologiyasini, ularning konstruksiyasini takomillashtirish imkonini berdi. Termoplastdan tayyorlangan yaxlit qobiqning ubti umumiyl qopqoq bilan yopiladigan batareyalar ishlab chiqildi (1.43- rasm).



1.43-rasm. Umumiyl qopqoqli, polipropilen yaxlit qobiqli «xizmat ko'rsatilmaydigan» akkumulator batareyasining tuzilishi:

1 – musbat plastina panjarasi; 2 – musbat plastina; 3 – separator-konvertga joylashtirilgan musbat plastina; 4 – manfiy plastina panjarasi; 5 – manfiy plastina; 6 – musbat plastinalar yarim bloki; 7 – elementlararo ulagich; 8 – umumiyl qopqoq; 9 – dasta; 10 – yaxlit qobiq; 11 – chiqish bomi; 12 – plastinalar bloki; 13 – manfiy plastinalar yarim bloki.




1.44-rasm. Qo'rg'oshin kislotali akkumulatorlarni nuqtali kontakt payvandlash yo'li bilan batareyaga birlashtirish:

a) payvandlashdan oldingi dastlabki holat; b) elektr kontakt hosil qilish uchun metallni siqib chiqarish; c) nuqtali elektr payvandlash; d) payvandlangandan keyingi holat:
 1 – elektrod; 2 – separator; 3 – ko'prikcha; 4 – born; 5 – yaxlit qobiq devorchesasi;
 6 – devorchadagi teshik; 7 – payvandlash mashinasining qisqichlari; 8 – payvandlash qisqichlarining puansonlari.

Yaxlit qobiq 10 ga turli qutbli plastinalardan yig'ilgan elektrodlar bloki 12 o'rnatilgan. Plastinalar bir-biridan separatorlar bilan ajratiladi. Bu turdag'i akkumulatorlarda plastina bloklari bir-biri bilan yaxlit qobiq devorchalaridagi teshiklar orqali qisqartirilgan elementlararo ulagichlar 7 yordamida ulangan. 1.44-rasmda umumiyoq qopqoqli batareyalarda akkumulatorlarning ulanish sxemasi keltirilgan. Qo'shni akkumulatorlarning trapetsiyasimon bornlari (1.44- a rasm) yaxlit qobiq devorchalaridan ochilgan teshik 6 oldiga joylashtiriladi. Payvandlash mashinasining qisqichlari 7 dagi puansonlar 8 yordamida born metallining bir qismi teshik 6 ning ichiga siqib chiqariladi (1.44- b, c rasm) va birlashtiriluvchi elementlar orasida mexanik va elektr kontaktlar o'rnatiladi. So'ngra payvandlash toki ulanib, teshik ichida bornlarning bir-biriga tegib turgan metal qismlari kontaktli elektr payvandlanadi (1.44- c rasm). Bu ulash usuli payvandlangan joyda metall tarkibining bir xil bo'lishini va akkumulatorlar orasida zarur zichlikni ta'minlaydi (1.44- d rasm).

Yuqori mexanik yuklamalar sharoitida ishlaydigan batareyalar uchun elementlararo ulagichlar vibratsiya va zarbalarga chidamli konstruksiya va texnologiya yaratildi (1.45-rasm). Bu holda akkumulatorlarni bir-biriga ularash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Avval yaxlit qobiq 1 devorchalarining yuqori qismidagi o'yiq 2 ga (1.45- a rasm) joylashtirilgan qo'shni akkumulatorlarning bornlari 5 gazli payvandlanadi (1.45- b rasm). Keyin, payvandlangan joyni maxsus qurilma yordamida plastmassa quyish yo'li bilan zichlashtiriladi (1.45- c rasm). Birikma atrofida hosil bo'lgan plastmassa «g'ilof» payvandlangan joyni yaxshi zichlashtiradi va elektrodlar blokini tashqi mexanik yuklamalardan (zarba, vibratsiya) asraydi (1.45- d rasm).




1.45-rasm. Plastmassa yordamida zichlashtirish va gaz vositasida payvandlash yo'li bilan akkumulatorlarni batareyaga birlashtirish usuli:

a) yaxlit qobiqdagi o'yilgan joyi va darchasi bor to'siq; b) plastina bloklarining payvandlash oldidan yaxlit qobiqga o'matilishi; c) payvandlashdan keyin bornlarga plastmassa sepish uchun qo'yilgan quyish qolipi; d) plastmassa bilan zichlashtirilgan tayyor birikma. 1 – yaxlit qobiq to'sig'i; 2 – qo'shni bornlarni birlashtirish uchun to'siqdagi o'yilgan joy; 3 – yaxlit qobiq devorcharsi; 4 – to'siqdagi darcha; 5 – bornlar; 6 – plastinalar; 7 – plastmassani quyish uchun qolip; 8 – quyilmaning qoldig'i.

Elementlararo ulagichlarning yangi konstruksiyalari batareyalarning ichki qarshiligini kamaytirish, startyor rejimida ishlaganda batareya qisqichlaridagi kuchlanishni 0,2...0,3 V ga oshirish, ishlataligan qo'rg'oshin miqdorini esa 0,5...3,0 kg gacha kamaytirish imkonini beradi.

Yaxlit qobiq tayyorlash uchun ishlataladigan termoplastik plastmassaning xususiyatlardan foydalaniib, umumiyoq qopqoqli batareyalarni zichlashtirishning mutlaqo yangi usullari ishlab chiqildi va ularni atrof-muhit haroratining o'zgarishiga chidamliligi oshirildi. Zichlashtirish kontakt-issiqlik payvandlash usuli bilan amalga oshiriladi (1.46-rasm).



1.46-rasm. Yaxlit qobiq va umumiyoq qopqoqni bir-biriga kontakt-issiqlik usuli bilan payvandlash:

a) payvandlashdan avval umumiyoq qopqoqni batareyani ustiga joylashtirish; b) payvandlanuvchi yuzalarни kontakt usulida qizdirish; c) payvandlangan tayyor birikmaning ko'rinishi; 1 – yaxlit qobiq; 2 – plastinalar bloki; 3 – umumiyoq qopqoq; 4 – qizdirilgan elektrod; 5 – yaxlit qobiqning payvandlash uchun qizdiriladigan qismi; 6 – umumiyoq qopqoqning payvandlash uchun qizdiriladigan qismi; 7 – payvandlash natijasida hosil bo'ladigan quyim.

Payvandlanadigan yuzalar orasiga metall elektrod 4 kiritiladi va elektr isitgichlar bilan 240...260 °C gacha qizdiriladi (1.45- b rasm). Yaxlit qobiq 1 ning yuqori qismi 5 ni va umumiy qopqoqning pastki qismi 6 ning qizdirilgan elektrod 4 ga tekkan joylari eriydi. Elektrod 4 payvandlash joyidan chiqarilgandan so'ng, vertikal yo'naltirilgan kuch P ta'sirida erib turgan monoblok va qopqoq yuzalari ning kontakt-issiqlik payvandlash jarayoni sodir bo'ladi. Payvand -50 °C...+70 °C harorat doirasida batareyaning chekkasi bo'ylab va akkumulator bankalar orasida ishonchli zichlikni ta'minlab beradi.

«Xizmat ko'rsatilmaydigan» akkumulatorlar batareyasi

Oddiy qo'rg'oshin-kislotali akkumulator batareyalariga xos kamchiliklarning (elektrolit sathining tez kamayib ketishi, musbat qutbli plastinalarning tez yemirilishi, o'z-o'zidan razryad bo'lishi va hokazo) ko'pchiligi plastina panjaralari tarkibida 4...6 % surma borligidan kelib chiqadi.

Surma elektrolit tarkibidagi suv elektroliz bo'lishiga katalizator sifatida ta'sir qiladi. Suv vodorod va kislorodga parchalanish potensialini generatordan ishchi kuchlanishlari darajasigacha pasaytirib, surma akkumulatordan gazlar ajralib chiqishini tezlatadi. Natijada, akkumulatordagi elektrolit sathi nisbatan tez pasayadi, ajralib chiqayotgan gazlar musbat plastina panjaralari, qutb quoqlari va avtomobilarning metall qismlari korroziyanishiga olib keladi.

Oddiy akkumulator batareyalarining yuqorida keltirilgan kamchiliklarini bar-taraf qilish maqsadida o'tgan asming yetmishinchı yillari oxiridan boshlab AQSH-da «xizmat ko'rsatilmaydigan» akkumulatorlar ishlab chiqarila boshlandi. Bu akkumulatorlarda musbat va manfiy plastina panjaralarini quyish uchun qo'rg'oshin-kalsiy-qalay qotishmasi ishlatalib, unda kalsiyning miqdori 0,07...0,1 %, qalay esa 0,1...0,12 %da bo'lib, qolgani qo'rg'oshin bo'lgan. Bu, akkumulatorlarda gaz ajralib chiqish va o'z-o'zidan razryad bo'lish jarayonini ancha kamaytirish va batareyani 2 yil davomida suv quymasdan ishlatish imkonini berdi. Lekin bu batareyalar ikki-uch marta chuqur razryad qilinganda, o'zining sig'imini 40...50 %ga yo'qotib, starterni ishga tushirish uchun deyarli yaroqsiz holga kelgan. Shuning uchun bunday batareyalar yevropada, xususan sobiq ittifoqda uncha keng qo'llanilmadi.

Qo'rg'oshin-kalsiy texnologiyali xizmat ko'rsatilmaydigan batareyalar ishlab chiqarish bilan deyarli bir vaqtning o'zida AQSHda «kalsiy plus» texnologiyasi ishlatala boshlandi. Bu usulga ko'ra musbat plastina panjarsi tarkibiga 1,5 %gacha surma, 1,3...1,5 % kadmiy qo'shilib, manfiy plastina qo'rg'oshin-kalsiy-qalay qotishmasidan (0,06...0,09 % – kalsiy, 1,0 %gacha qalay) tayyorlangan. Saksonin-chi yillarning boshida Yevropada ham xizmat ko'rsatilmaydigan batareyalarni ish-


lab chiqarish yo'lga qo'yilib, bu yerda akkumulatorlarning panjarasidagi surma miqdori 1,25 %gacha kamaytirildi. Keyin Yevropada musbat plastina panjarasida surma miqdori 2,0...2,5 % doirasida bo'lgan, har xil legirlovchi elementlar (mish-yak, qalay, mis, selen va hokazo) qo'shilgan va manfiy plastinasi qo'rg'oshin-kalsiy qotishmasidan tayyorlangan gibrat batareyalar ishlab chiqarila boshlandi. Bu akkumulatorlar «kam xizmat ko'rsatiladigan» nom bilan yuritilib, ularda suv sarfi va o'z o'zidan razryad bo'lish ko'rsatkichlari oldingi batareyalarga nisbatan ancha yaxshilandi.

90-yillarning oxirida AQSH va G'arbiy Yevropada har ikkala plastina panjaralari qo'rg'oshin-kalsiyli qotishmadan tayyorlangan va ko'p komponentli legirovchi elementlar, shu jumladan kumush qo'shilgan batareyalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu akkumulatorlar kuchli razryad qilinganda ham qo'rg'oshin-kalsiyli texnologiya bo'yicha tayyorlangan birinchi avlod batareyalariga nisbatan sig'imini kamroq va sekinroq yo'qotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Bu batareyalarda suvning sarfi juda kam bo'lganligi uchun qopqoqdagi suyuqlik quyish teshiklari olib tashlandi va akkumulator butun ishslash davrida mutlaqo suv quyilmaydigan holga keltirildi.

Albatta, batareyalar konstruksiyasining bu darajada o'zgarishi va xizmat ko'rsatilmaydigan akkumulatorlarning imkoniyatlardan to'la foydalanish uchun avtomobilning generator qurilmasi benuqson ishlashi, belgilangan zaryad kuchlanishi $\pm 0,1 V$ aniqlik bilan barqaror ta'minlanishi zarur bo'ladi. Shuning uchun avtomobilarni ishlatish davrida generator va kuchlanish rostlagichlarini me'yorida ishlashtiga, elektr jihozlarda tokning oqib ketish hollari bo'lmashligiga katta e'tibor berish kerak.

«Xizmat ko'rsatilmaydigan» va «kam xizmat ko'rsatiladigan» akkumulatorlarda separatorlarning yangi turi – «separator-konvert» (1.47- b rasm) o'rnatilmoqda. Bu separatorlar yuqori g'ovaklikka ega bo'lgan polietilenden konvert ko'rinishida tayyorlanib, ikki yoni va ostki qismi kavsharlangan bo'ladi. Separator-konvertga akkumulatorning musbat qutbli (ba'zi hollarda manfiy qutbli) plastinasi joylashtiriladi. Bu ko'rinishdagagi separatorlarni qo'llash, elektrodlarning aktiv massasidan to'kiladigan cho'kmalar orqali plastinalar orasida qisqa tutashuv yuzaga kelishi istisno qiladi. Natijada, akkumulator yaxlit qobig'ining tubidagi qovurg'alarga ehtiyoj yo'qoladi. Separator-konvertlar ishlatilishi, plastina bloklarini bevosita akkumulator qobig'ining tubiga joylashtirish va shuning hisobiga qobiq balandligini o'zgartirmasdan plastinalar yuzasini hamda akkumulatorga quyiladigan elektrolit miqdorini oshirish imkonini beradi (1.47-rasm).

«Xizmat ko'rsatilmaydigan» batareya plastinalarining shaklanish jarayoni odatda blok usulida amalga oshiriladi. Bu usulda akkumulator batareyasi avval to'la yig'iladi, keyin unga zichligi $1,25 \text{ g/sm}^3$ bo'lgan elektrolit quyiladi va tasdiqlangan tartibda plastinalarning shakllanishi o'tkaziladi.




1.47-rasm. Separator-konvert ishlataliganda akkumulatorga quyiladigan elektrolit miqdorini ortishi:

a) oddiy batareya; b) separator-konvertli xizmat ko'rsatilmaydigan batareya; 1 – tiqin; 2 – batareyadagi elektrolit sathi; 3 – plastinalar; 4 – separator-konvert; 5 – plastinalar bloki o'rnatiladigan qovurg'alar; 6 – oddiy separator; H – batareyaning balandligi; h_1 – plastina balandligi; h_2 – oddiy separator qo'yilgan batareyadagi elektrolit zaxirasi; h_3 – tayanch qovurg'alarning balandligi; $h_2 + h_3$ – separator-konvert qo'yilan batareyalardagi elektrolit zaxirasi.

«Xizmat ko'rsatilmaydigan» akkumulatorlarning ba'zi turlari elektrolit quyiladigan tuynuksiz, ichki bo'shilg'i atrof-muhitga umumiyoq qopqoqning chekka qisimidagi kichik shamollatish teshiklari orqali bog'langan bo'ladi. Bu akkumulatorlarning razryadlanganlik darajasining elektrolit zichligi orqali aniqlash imkoniyati yo'q. Shuning uchun, bunday akkumulatorlarning qopqog'ida maxsus razryadlanganlik ko'rsatkichi – indikator o'rnatiladi (1.48-rasm). Indikator shaffof yorug'lik o'tkazgichdan tashkil topgan bo'lib, uning pastki qismiga bitta yoki ikkita rangli zoldirli (odatda zoldircha bitta bo'lsa, rangi yashil bo'ladi, ikkita bo'lsa biri yashil, ikkinchisi esa qizil rangda bo'ladi) kasseta joylashtirilgan. Zoldirchalar kassetaning qiya kanallarida yuqoriga va pastga harakatlanishi mumkin. Zoldircha kislotaga chidamli polimerdan yasalgan bo'lib, uning zichligi akkumulatorni ishlatalish jarayonida elektrolitning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan eng minimal zichligiga teng qilib olinadi. Akkumulatorning zaryadlanganlik darajasi 65 %dan yuqori bo'lsa, elektrolitning zichligi yashil zoldircha materialining zichligidan yuqori bo'ladi va zoldircha kassetaning yuqori qismiga qalqib chiqadi. Yorug'lik o'tkazgichdan tushgan nur zoldirchadan qaytib indikatorning ko'zchasiga yashil rang beradi (1.48- a rasm).

Batareya razryadlanib, elektrolitning zichligi kamaysa, zoldircha kasseta kanalining pastki qismiga cho'kadi va yorug'lik o'tkazgichdan tushgan nur elektrolitdan qaytib indikatorning ko'zchasini qora rangga bo'yaydi (1.48- b rasm).



1.48-rasm. Akkumulatorning zaryadlanganlik darajasini ko'rsatuvchi indikator:

- akkumulator zaryadlangan (zaryadlanganlik darajasi 65 %dan ortiq) – yashil rang;
- akkumulator razryadlangan (zaryadlanganlik darajasi 65 %dan kam – qora rang;
- elektrolit sathi pasayib ketgan – oq yoki sariq rang.

Agar elektrolit sathi belgilangan me'yordan pasayib ketsa, zoldircha kasse-ta kanalining pastki qismida bo'ladi va yorug'lik o'tkazgichdan tushgan nur kas-setaning yuqori qismi, ya'ni plastmassadan qaytadi va indikator ko'zchasi oq yoki sariq rangga bo'yaladi (1.48- c rasm). Bu akkumulator batareyasini darhol diagnostika qilish va elektrolit sathini me'yordan pasayib ketish sababini aniqlashni taqo-z zoqlidi.

Zaryadlanganlik darajasini ko'rsa-tuvchi indikatordan olinadigan ma'lumot oltita bankadan faqat bittasiga, ya'ni indikator o'rnatilgan bankaga tegishli bo'ladi. Agar batareyaning indikator o'rnatilmagan bankalarida nosozlik yuzaga kelsa, indikator buni aks ettirmaydi.

Quyiqlashtirilgan elektrolitli akkumulatorlar

To'la xizmat ko'rsatilmaydigan qo'rg'oshin-kislotali akkumulator yaratish, musbat elektroldardan ajralib chiqadigan gazni manfiy elektrod yuzasiga singdirish usullarini (ya'ni, kislorod siklining amalga oshishi) ishlab chiqish bilan bog'liq. Buning uchun akkumulatorlardagi manfiy plastinalarning sig'imi musbat plastinalarnikiga nisbatan bir necha foizga kamroq bo'lishi kerak. Unda, zaryad jarayonida musbat plastinalar manfiy plastinalarga nisbatan tezroq to'la zaryadlanib bo'ladi. Shuning uchun, musbat plastinadan kislorodni aktiv holda ajralib chiqsa boshlashi manfiy plastinada vodorod ajralib chiqishidan oldinroq boshlanadi. Natijada ajralib chiqayotgan kislorod manfiy plastina aktiv massasi bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadi.


Kislorodning musbat elektroddan manfiy elektrodga kelishini tezlatish uchun erkin elektrolit hajmini cheklash zarur. Shu sababli bu turdag'i akkumulatorlarni ishlab chiqish uchun suyuq elektrolitni bog'lash usullari ishlab chiqilgan:

- Quyuqlashtirilagan, gel shaklidagi elektrolit tayyorlash;
- Suyuq elektrolitni katta hajmiy g'ovaklikka ega (masalan, shisha namatga) bo'lgan separatorlarga singdirish

Quyuqlashtirilgan elektrolitli qo'rg'oshin-kislotali batareyalarning musbat plastinalarining sig'imini va elektrolit hajmini sun'iy ravishda cheklash ularning sig'imining suyuq elektrolitli batareyalarnikidan 15–20 %ga kam bo'lismiga olib keladi. Gelsimon elektrolit hosil qilish uchun silikagel, alyumogel va boshqa quyyuqlashtiruvchi moddalar sulfat kislota bilan aralashtiriladi. Elektrolit separatorga singdirilgan zichlashtirilagan akkumulatorlarda juda ham yupqa tolali shisha namat ishlatiladi [bunday separatorlar AGM (Absorbed Glass Mat) – separatorlari deb yuritiladi]. Zamonaviy shisha separatorlarning hajmiy g'ovakligi 90...95 %ni tashkil qiladi. Elektrolit separatorga singdirilgan batareyalarning ishlab chiqarish texnologiyasi gelsimon elektrolitli akkumulatorlarga nisbatan birmuncha arzon, lekin sig'im ko'rsatkichlari pastroq bo'ladi. Bu batareyadagi elektrolit miqdorini yanada kamayishi bilan bog'liq.

Quyuqlashtirilgan elektrolitli qo'rg'oshin-kislotali akkumulator batareyalarning tuzilishi 1.49-rasmda keltirilgan.

Quyuqlashtirilgan elektrolitli qo'rg'oshin batareyalarga VRLA (Valve Regulated Acid Batteries) turidagi rostlovchiligi klapan o'rnatilgan. Bu klapan akkumulatorni ishlatish davrida, uning ichidagi bosimni ushbu batareyaning qobiq qismalarining mustahkamligi nuqtai nazaridan belgilangan bosimdan oshib ketmasligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Chunki musbat plastinalarning sig'imini cheklash choralarining qo'llanishiga qaramasdan razryad jarayonida (ayniqsa, yakunlovchi bosqichda) manfiy plastinalardan vodorod ajralib chiqishini to'la bostirish mumkin emas. Buning ustiga, zaryad jarayonining oxirida vodorod ajralib chiqish tezligi kislород ajralib chiqish tezligidan bir-muncha yuqori bo'ladi. Vodorodning ortiqcha qismi akkumulatorning ichidagi bosimning ortishiga olib keladi. Bosim ortishining belgilangan chegaralardan oshib ketmasligini cheklash saqlovchi klapan zimmasiga yuklatilgan. Batareya qobig'iga joylashtirilgan bir tomonli yuqori bosim klapani g'ovak gidrofob filtrlardan tashkil topgan bo'lib, u gazlarni tashqariга chiqarib yuboradi, lekin elektrolitni chiqarmaydi. Akkumulatorning ish-



1.49-rasm. Ochiq (suyuq elektrolitli) va yopiq (AGM separatori bilan) akkumulatorlarda gaz oqimlarining yo'nalishi

lashi jarayonida hosil bo`ladigan bug` har bir batareyaning qobig`idagi murakkab havo yo`llarida katalitik usul bilan kondensatga aylantiriladi va suv akkumulatorda qoldiriladi.

Zichlashtirilgan qo`rg`oshin akkumulatorlarini me`yorida ishlatish uchun kuchlanish rostlagichlarining ishiga yanada qattiqroq talab qo`yiladi. Zichlashtirilgan qo`rg`oshin batareyalar uchun zaryad kuchlanishining maksimal qiymati 14,35 V ni tashkil qiladi. Agar bu ko`rsatkich hatto 0,05 V ga oshirilsa, gaz ajralib chiqish jarayoni keskin ortib ketadi va kislorod siklining barqarorligi buziladi. Nati-jada, ortiqcha gaz ajralib chiqish jarayoni plastinalardagi aktiv massa bilan elektrolit orasidagi kontaktning buzilishiga va batareyaning ish qobiliyati to`la yo`qolishiga olib keladi.

Zaryad kuchlanishi darajasini cheklash bo`yicha juda yuqori talablar va narxining «xizmat ko`rsatilmaydigan» akkumulatorlarga nisbatan ancha balandligi zichlashtirilgan quyuq elektrolitli batareyalarni avtotransport texnikasida keng ko`lamda ishlatilishiga to`sinqlik qilmoqda.

1.3.3. Akkumulatorlar batareyasining asosiy ko`rsatkichlari

Akkumulatorning elektr yurituvchi kuchi (EYuK)

Elektr yurituvchi kuch akkumulatorning asosiy ko`rsatkichlaridan biri bo`lib, u tashqi zanjir uzilgan holda musbat va manfiy elektrodlar orasidagi potensiallar ayirmasiga teng. Qo`rg`oshin-kislotali akkumulatorning EYuK faqat razryadlanish-zaryadlanish jarayonlarida ishtirot qilayotgan moddalarning kimyoviy va fizik xususiyatlariiga bog`liq. Plastinalarning kattaligi va aktiv massanining miqdori EYuKga mutlaqo ta`sir ko`rsatmaydi.

Qo`rg`oshin-kislotali akkumulatorning EYuK – E quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$E = 2,047 + \frac{RT}{F} \ln \left[\frac{\alpha(H_2SO_4)}{\alpha(H_2O)} \right]. \quad (1.18)$$

Bunda: R – universal gaz doimiysi, T – absolut temperatura, F – Faradey soni, $\alpha(H_2SO_4)/\alpha(H_2O)$ – elektrolit aktivligi.

RT/F ning 25 °C dagi qiymati 0,02565 V ga teng. Elektrolit aktivligi uning kon-sentratsiyasiga, ya`ni zichligi ρ ga bog`liq. Elektrolitning akkumulatordagи elektro-kimyovly jarayonlarda ishtirot qilishi natijasida, zichligi va plastinalar orasidagi potensiallar ayirmasi o`zgaradi va ularga mos ravishda EYuK ham o`zgaradi.

Amaliyotda akkumulatorning EYuK ini aniqlash uchun tajriba yo`li bilan topil-gan ifodadan foydalilanildi:

$$E = 0,84 + p_{25} \cdot 10^{-3}, V$$

Bunda: p_{25} – elektrolitning 25 °C ga keltirilgan zichligi, kg/m³ da.

Elektrolit zichligi o'lchanayotgandagi temperatura 25 °C dan farqli bo'lganda, quyidagi keltirish formulasi qollaniladi:

$$\rho_{25} = \rho_t + 0,7(t - 25), \text{ kg/m}^3.$$

Bunda: ρ_t – elektrolitning mavjud temperaturadagi zichligi, kg/m^3 da; t – elektrolitning temperaturasi, °C da.

Elektrolitning zichligi uning temperaturasiga bog'liq, shuning uchun EYuK ham temperaturaga bog'liq bo'ladi. Lekin temperaturaning EYuKga ta'siri juda ham kam (har 100 °C da EYuK atigi 0,04 V ga o'zgaradi) bo'lganligi sababli amalda hisobga olinmaydi.

Qutblanish EYuKi

Akkumulator tashqi zanjirga ulanganda, uning elektrodlari orasidagi potensiallar ayirmasining o'zgarishi **qutblanish** deb yuritiladi. Qutblanish asosan razryadlanish va zaryadlanish jarayonining boshlanishida, elektrolitning plastinalarga yaqin qatlamlaridagi zichligi o'zgarishi bilan bog'liq.

Razryad vaqtida plastinalarga yaqin qatlamlardagi elektrolit zichligi kamayadi, natijada akkumulatorning EYuK ham qutblanishning razryad EYuK (E_{q1}) qiymatiga teng miqdorda kamayadi. Zaryadlanish vaqtida, buning aksi elektrolit zichligi ortadi, demak akkumulatorning EYuK ham qutblanishning zaryad EYuK (E_{q2}) qiymatiga teng miqdorda ortadi.

Qutblanish – o'tish jarayonidir. Batareyani razryadga qo'yilgandan so'ng qutblanishning davom etishi razryad tokining kattaligiga va elektrolit temperurasiga bog'liq. Masalan, akkumulator katta tok (startyor rejimida) razryad qilinganda va elektrolit temperaturasi –30 °C gacha bo'lganda, qutblanish vaqt 10 sekunddan ortmaydi. Razryad toki kamayishi bilan qutblanish vaqt ortadi.

Razryad vaqtidagi qutblanish EYuKning maksimal qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$E_{KR} = m \cdot \ln \left(\frac{0,1I}{(n-1)S} \right) \cdot \left(\frac{4300 - 45t_{el}}{110 + t_{el}} \right) \cdot 10^{-3}, \text{ V}$$

Bunda: m – batareyada ketma-ket ulangan akkumulatorlar soni, n – akkumulatorlarning plastinalar soni, S – plastinalarning umumiyligini yuzasi, m^2 ; t – elektrolit temperaturasi, °C.

Akkumulatorning ichki qarshiligi

Akkumulatorning ichki qarshiligini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$R = R_o + R_q.$$

Bunda: R_o – aktiv qarshilik, R_q – qutblanish qarshiligi.

Aktiv qarshilik R_o – elektrodlar, elektrolit, separatorlar va akkumulator-dagi metall qismalarning (elementlararo ulagichlar, plastina panjaralari va hokazo) qarshiliklari yig'indisidan iboratdir. Tadqiqotlar aktiv qarshilik R_o akkumulator to'la zaryadlangan holda eng kichik qiymatga ega bo'lishini ko'rsatadi. Razryadlanish jarayoni boshlangandan so'ng elektrodlardagi aktiv massaning kimyoviy tarkibi o'zgara boshlaydi, elektrolitning zichligi pasayadi. Bu esa, o'z navbatida, R_o ning ortishiga olib keladi, chunki g'ovak qo'rg'oshinining solishtirma qarshiligi $1 \cdot 8 \cdot 10^{-4} \Omega \cdot sm$, qo'rg'oshin ikki oksidiniki – $74 \cdot 10^{-4} \Omega \cdot sm$ bo'lsa, qo'rg'oshin sulfat tuzining solishtirma qarshiligi $1 \cdot 10^7 \Omega \cdot sm$ ni tashkil qiladi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, razryad natijasida hosil bo'ladigan qo'rg'oshin sulfat tuzining qarshiligi birlamchi moddalarning (Pb , PbO_2) qarshiligidan ancha katta qiymatga ega.

Elektrolitning qarshiligi uning zichligi va temperaturasiga bog'liq. Zichlik va temperatura qancha past bo'lsa, elektrolitning qarshiligi shuncha yuqori bo'ladi. Demak, aktiv qarshilik R_o asosan akkumulatorning razryadlanganlik darajasiga va elektrolit temperaturasiga bog'liq ekan.

Zaryadlanish va razryadlanish vaqtida qutblanish EYuK – akkumulatorning ichki zanjirlaridagi kuchlanishning pasayishi (yoki ortishi) sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, qutblanish EYuKini shartli ravishda qutblanish qarshiligi R_q orqali ifoda etish mumkin, ya'ni:

$$E_Q = I R_q$$

Qutblanish qarshiligi elektrolit temperaturasi pasayishi bilan ortadi va tok ortishi bilan (razryadlanish va zaryadlanish vaqtida) kamayadi.

Akkumulatorning sig'im

Akkumulatorning asosiy parametrlaridan biri sig'imdir. Sig'imning ikki turi bor: nominal va razryad sig'im.

Akkumulatorlarni bir-biri bilan taqqoslash uchun nominal sig'im – C_{20} nomli shartli tushuncha kiritilgan. *Nominal sig'im* deb, qat'iy belgilangan shart – sharoitda akkumulator to'plashi va berishi mumkin bo'lgan elektr miqdoriga aytildi va u $A \cdot soat$ da o'chanadi. Davlat standarti bo'yicha nominal sig'im C_{20} elektrolitning temperaturasi $25^{\circ}C$, razryad vaqtি $20 soat$, razryad toki $I_r = 0,05 C_{20}$ bo'lganda aniqlanadi. Razryad $6 V$ li batareyalar uchun kuchlanish $5,25 V$ gacha, $12 V$ li batareyalar uchun $10,5 V$ gacha kamayganda, to'xtalishi kerak.

Razryad sig'imi deb, to'la zaryadlangan akkumulator ma'lum cheklangan kuchlanishgacha (U_{cheb}) qiymati o'zarmas tok bilan razryad qilinganda, tashqi zanjirga bergen maksimal elektr miqdoriga aytildi.

Sig'im quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$C = I_r \cdot t$$

Bunda: I_r – razryad toki, A; t – razryad davom etgan vaqt, soat.


Akkumulatorning razryad sig'imi o'zgaruvchan bo'ladi va asosan quyidagi omillarga bog'liq:

- manfiy va musbat plastinalardagi aktiv massanening miqdori va g'ovakligi;
- razryad tokining qiymati;
- elektrolit temperaturasi;
- elektrolit zichligi va kimyoviy tozaligi.


Plastinalar qalinligini kamaytirish, sonini ko'paytirish va aktiv massanening g'ovakligini oshirish – elektrolitning ta'sir yuzasini kengaytiradi, aktiv massanening ichki qatlamlarga o'tishini yengillashtirib, kimyoviy reaksiyada ishtirot qilayotgan moddalarning miqdorini oshiradi va, natijada, akkumulatorning sig'imi ortadi. Lekin plastinalar qalinligini me'yordan ortiq kamaytirish, ularning mexanik mustahkamligiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun, zamonaviy avtomobillaridagi akkumulator plastinalarining qalinligi 1,4–2,4 mm oralig'ida belgilangan.

Razryad tokining qiymati akkumulatorning sig'imiغا katta ta'sir ko'rsatadi. U qanchalik kichik bo'lsa, akkumulatorning sig'imi, ya'ni undan olish mumkin bo'lgan elektr miqdori shunchalik katta bo'ladi (1.50-rasm). Chunki, razryad toki kichik bo'lganda, akkumulatorda sodir bo'layotgan kimyoviy jarayonlar sekinklik bilan davom etadi, elektrolit aktiv massanening eng ichki qatlamlarigacha singib boradi va natijada, reaksiyada ishtirot qilayotgan moddalarni miqdori ortadi, demak sig'lm ham ortadi.

Aksincha, razryad tokining qiymati qanchalik katta bo'lsa, akkumulatorning sig'imi shunchalik kichik bo'ladi (1.50-rasm). Chunki, razryad toki katta bo'lsa (ayniqsa, startyor ulanganda), akkumulatorda sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar jadallahadi, elektrolit asosan aktiv massanening ustki qatlami bilan reaksiyaga kirishti va katta tezlik bilan hosil bo'layotgan qo'rg'oshin sulfat ($PbSO_4$) tuzining kristallari, plastinalardagi mayda g'ovak teshikchalarini yopib qo'yadi va kislota aktiv massanening ichki qatlamlariga o'tib, u yerdagi moddalarni bilan reaksiyaga kirishishiga yo'l qo'ymaydi. Elektrolitning plastinalar yuzasiga yaqin qatlamlaridagi zichligi keskin pasayadi va unga mos ravishda akkumulatorning EYuKi E va kuchlanishi U ham kamayadi. 1.51-rasmda 80 A·soat sig'imga ega bo'lgan akkumulatorning elektrolit temperaturasi 25 °C bo'lganda, qiymati har xil bo'lgan tok bilan razryad qilingandagi tavsifnomasi keltirilgan. Tavsifnomadan ko'rinish turibdiki, razryad tokining qiymati 4A va razryad vaqtiga 20 soat bo'lganda,



1.50-rasm. Akkumulator sig'iming razryad toki va elektrolit temperaturasiga bog'liqligi



1.51-rasm. Akkumulator razryad tokining turli qiymatlaridagi razryad tavsifnomasi (Elektrolit temperaturasi 25 °C)

akkumulatorning kuchlanishi 1,75 V gacha kamayib, uning sig‘imi 80 A·soat ni tashkil qiladi, ya’ni u nominal sig‘imining hammasini beradi. Endi razryad tokining qiymati 240 A gacha oshirilsa, akkumulatorning kuchlanishi 5 daqiga davomida 1,5 V gacha kamayadi va u faqat 20 A·soat elektr miqdorini, ya’ni nominal sig‘imining atigi 25 %ini beradi. Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu holda aktiv massaning faqat 0,1 mm qalinlikdagi qatlami reaksiyada ishtirok etadi.

Razryad sig‘imiga elektrolitning temperaturasi ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Temperaturaning pasayishi uning qovushqoqligini oshiradi, natijada akkumulatorning kimyoviy jarayonlar sekinlashadi, elektrolit plastinalarning mayda g‘ovak teshikchalaridan ichki qatlamlariga o’tishini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, oldingi bo‘limlarda qayd qilingandek, elektrolit temperaturasining pasayishi akkumulatorning aktiv va qutblanish qarshiliklarini oshiradi. Yuqorida aytilgan sabablaraga ko‘ra elektrolit temperaturasi pasayishi bilan akkumulatorning sig‘imi kamayadi. Razryad toki qanchalik katta bo‘lsa, elektrolit temperaturasining pasayishi sig‘imga shunchalik kuchli ta’sir qiladi. Elektrolit temperaturasi +25 °C dan +45 °C gacha ortganda akkumulatorning sig‘imi 10–15 %gacha ortadi. Lekin Bunda: plastinalar qattiq qayishib, aktiv massa to‘kilib, musbat plastina panjaralari yemirilib ketish havfi bor.

Elektrolit zichligining ma’lum chegaradan oshirilishi, akkumulator sig‘imini ham bir muncha ortishiga olib keladi. Chunki zichlik ortishi bilan elektrolit tarkibidagi reaksiyada ishtirok qilishi mumkin bo‘lgan kislota miqdori nisbatan ko‘proq

bo‘ladi, batareyaning EYuK ortadi, ichki qarshiligi esa kamayadi. Lekin elektrolit zichligini belgilangan me'yordan oshirib yuborish, akkumulator plastinalarining yemirilishiga va uning muddatidan oldin ishdan chiqishiga olib keladi.

Akkumulatorning quvvati va energiyasi

Akkumulatorning quvvati quyidagi ifoda bilan belgilanadi:

$$P = U \cdot I_r.$$

Bunda: P – akkumulatorning quvvati, W ; U – kuchlanishi, V ; I_r – razryad toki, A .

Ma’lum t vaqt davomida akkumulator berishi mumkin bo‘lgan energiya quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$W_r = \int_0^{t_r} I_r \cdot U_r \cdot dt, \text{ W · soat.}$$

Akkumulator ishlaganda bir qism elektr energiya isrof bo‘lib, u asosan elektrolizga (suvning kislorod bilan vodorodga parchalanishiga), o‘z-o‘zidan razryadga va issiqlik ajralib chiqishiga sarf bo‘ladi. Shuning uchun, zaryadlash vaqtida akkumulatorga, razryad vaqtida olinishi mumkin bo‘lganga nisbatan ko‘proq elektr miqdori berilishi kerak.

Akkumulatorning sig‘im bo‘yicha foydali ish koeffitsiyenti razryad vaqtida olingan elektr miqdorni, zaryadlash davomida berilgan elektr miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$\eta_s = \frac{C_r}{C_z} = \frac{\int_0^{t_r} I_r \cdot dt}{\int_0^{t_z} I_z \cdot dt}.$$

Sig‘lm bo‘yicha foydali ish koeffitsiyenti, zaryadlash jarayoni qanchalik to‘la o‘tkazilganligiga, elektrolit temperaturasiga va razryad tokiga bog‘liq. To‘la zaryadlangan akkumulatorni nominal tok bilan ($I_r = 0,05 S_{20}$) razryad qilinganda η_s ning qiymati 0,9–0,95 ga yaqinlashadi.

Akkumulatorning energiya bo‘yicha foydali ish koeffitsiyenti, razryad vaqtida uzatilgan energiyani zaryadlash vaqtida berilgan energiyaga nisbati orqali ifodalandi:

$$\eta_w = \frac{W_r}{W_z} = \frac{\int_0^{t_r} U_r I_r dt}{\int_0^{t_z} U_z I_z dt}.$$

Akkumulatorning energiya bo'yicha foydali ish koefitsiyenti, u nominal tok bilan razryad qilinganda 0,75–0,85 doirasida bo'ladi. Bu koefitsiyent, asosan, razryad oxiridagi elektroliz va o'z-o'zidan razryad hisobiga yuzaga keladigan energiya isrofini bildiradi. η_w ning qiymati η_s ga nisbatan kamroq, chunki bu yerda yuqorida ko'rsatilgan isroflardan tashqari issiqlik energiyasiga aylangan elektr miqdori ham hisobga olinadi.


1.3.4. Akkumulatorning razryadlanish va zaryadlanish tavsifnomalari

Akkumulator qiymati o'zgarmas tok bilan razryad (zaryad) qilinganda uning EYuKi E , kuchlanishi U_{akk} , elektrolit zichligi ρ ni razryadlanish (zaryadlanish) vaqtiga t ga bog'liqligi, akkumulatorning razryadlanish (zaryadlanish) tavsifnomasi deb ataladi.

Akkumulatorning razryadlanish tavsifnomasi. Akkumulatorlar batareyasi qiymati o'zgarmas bo'lgan tok bilan razryad qilinganda, elektrolit zichligi ρ to'g'ri chiziqli qonuniyat bo'yicha o'zgaradi (1.52-rasm), chunki har daqiqada reaksiyaga kirishayotgan kislota va aktiv moddaning miqdori bir xil bo'ladi.

Akkumulatorning EYuKi E to'g'ridan to'g'ri elektrolitning zichligiga bog'liq bo'lganligi sababli, u ham zaryadlash vaqtiga o'tishi bilan to'g'ri chiziqli qonuniyat bo'yicha kamayib boradi.

Akkumulatorning kuchlanishi U_r , nisbatan murakkab qonuniyat bo'yicha o'zgaradi. Razryadning boshlanish davrida kuchlanishning keskin kamayishi kuzatiladi (« $a-b$ » kesma). Kuchlanishning bu kamayishi akkumulatorning ichki aktiv qarshiligi R_0 ning zanjirga ulanishi bilan bog'liq. Bundan keyin, kuchlanish U_r tez, lekin bir tekisda kamayadi (« $b-c$ » kesma). Kuchlanishning bu kamayishi, akkumulatordagi qutblanish jarayoni bilan bog'liq. Bizga ma'lumki, qutblanish EYuKi akkumulator razryadga qo'yilgan birinchi daqiqalarda kimyoiy reaksiyalar natijasida plastina ning aktiv massa g'ovaklari ichidagi elektrolit zichligi, umumi idishdagiga nisbatan kam bo'lib qolishi, ya'ni konsentratsiyalar farqi yuzaga kelishi bilan bog'liq. Qutblanish EYuKining ortib borishi, yoki U_r ning qutblanish qarshiligidagi kamayib borishi plastinalarga singayotgan kislota miqdori bilan umumi idishdan plastina g'ovaklariga kelayotgan



1.52-rasm. Akkumulatorning razryadlanish tavsifnomasi

kislota miqdori diffuziya hisobiga muvozanatga kelmaguncha davom etadi («c» nuqta).

Razryad jarayonining keyingi qismida («c-d» kesmasi) kuchlanish nisbatan ravon kamayadi, chunki elektrolitning zichligi kamayishi bilan unga mos ravishda akkumulatorning EYuKi ham kamayadi. Bu yerda qutblanish EYuKi E_q o'z-garmaydi, chunki kimyoviy reaksiyada ishtirok qilayotgan H_2SO_4 bilan diffuziya hisobiga umumiylidishdan aktiv massaning mayda g'ovak teshikchalariga yetib kelayotgan kislota miqdori teng bo'ladi. Razryad oxiriga kelib, plastina yuzasidagi aktiv moddalar qo'rg'oshin sulfat $PbSO_4$ tuziga aylanib, kislota aktiv massaning ichki qatlamlariga o'tishini qiyinlashtirib qo'yadi. Kimyoviy reaksiyaning borishi sekinlashadi, elektrolit zichligi kamayadi, natijada akkumulatorning aktiv qarshiligi R_0 ham, qutblanish qarshiligi R_q ham tez pasayadi («d-e» kesmasi). Shunday qilib, razryad vaqtida akkumulatorning kuchlanishi U_r quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$U_r = E - I_r R_0 - I_r R_q$$


Akkumulatorning razryad jarayoni 10 saat bilan cheklansa, U_r ning qiymati 1,7 V gacha, agar 20 saat + li rejim bo'lsa – 1,75 V gacha kamayganda razryad to'xtatiladi. Agar razryad bu nuqtada to'xtatilmasa, kuchlanish juda ham keskin kamayib, akkumulator uchun zararli bo'lgan qaytmash kimyoviy jarayonlar boshlanishi mumkin. Masalan, plastinalar sulfatlanib qoladi, ya'ni $PbSO_4$ tuzlarining erimaydigan yirik kristallari hosil bo'ladi.

Demak, razryad jarayonining tugallanishini quyidagi belgililar orqali bilish mumkin:

- akkumulator kuchlanishining ma'lum cheklangan qiymatgacha kamayishi (masalan, 2,11 V dan 1,75 V gacha);
- elektrolit zichligining belgilangan eng kichik qiymatgacha kamayishi (masalan, $1,25 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ dan $1,09 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ gacha).

Razryad zanjiri uzilgandan so'ng, akkumulatorning kuchlanishi birdaniga aktiv qarshilik R_0 da kuchlanishning pasayish qiymati $I_r R_0$ ga ortadi («e-f» kesmasi). So'ngra, diffuziya hisobiga, aktiv massaning g'ovaklaridagi va umumiylidishdagi elektrolitning konsentratsiyasi tenglasha boshlaydi. Natijada kuchlanish U_r , bir tekisda akkumulatorning EYuK qiymatigacha ko'tariladi («f-i» kesmasi). Bu hodisani akkumulatorning «dam olishi» deb ataladi va u amaliyotda katta ahamiyatga ega. Masalan, startyorni qayta ulashdan oldin kamida 1 daqiga tanaffus qilib, akkumulatorga «dam» berish tavsija qilinadi. Bu «dam» vaqtida elektrolitning plastina oldi qatlamlari bilan umumiylidagi zichligi bir muncha tenglashadi va akkumulatorning EYuKi va quvvati ortadi.

Akkumulatorning zaryadlanish tavsifnomasi. Zaryadlanish tavsifnomasi akkumulator nominal sig' imining 0,05 qismiga teng va qiymati o'zgarmas bo'lgan tok bilan zaryad qilinganda olinadi (1.53-rasm).



1.53-rasm. Akkumulatorning zaryadlanish tavsifnomasi

Akkumulatorni zaryad qilish qiymati o'zgarmas tok bilan amalga oshirilganligi sababli, aktiv massaning g'ovaklarida vaqt birligi ichida bir xil miqdorda sulfat kislota H_2SO_4 ajralib chiqadi va suv yutiladi. Natijada elektrolit zichligi va unga bog'liq bo'lgan EYuK to'g'ri chiziqli qonuniyat bo'yicha o'sib bora-di (zichlik $1,09 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ dan $1,25 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ gacha, EYuK esa $1,95 \text{ V}$ dan $2,11 \text{ V}$ gacha). Zaryadlash jarayoni boshlanganda, kuchlanish – U_z birdaniga akkumulatorning aktiv qarshiligi R_0 da kuchlanish pasayishiga teng qiymatga, ya'ni $R_0 I_z$ ga oshadi («a–b» kesmasi).

Zaryadlash jarayonining bundan keyingi qismida («b–c» kesmasi) kuchlanish tez, lekin ravon ortadi. Bu aktiv massaning g'ovaklaridagi elektrolit zichligi umumiylidishdagiga nisbatan oshib borishi, natijada, qutblanish EYuK hosil bo'lishi va uning o'sib borishi bilan bog'liq. Bu jarayon, plastina g'ovaklarida hosil bo'lgan sulfat kislota miqdori bilan umumiylidishdagisi elektrolitga qo'shilib ketayotgan kislota miqdori diffuziya hisobiga muvozanatga kelmaguncha davom etadi («c» nuqta).

Zaryadlash jarayonining keyingi qismi («c–d» kesmasi) kuchlanishi sekin va ravon ortishi bilan tavsiflanadi, chunki elektrolit zichligi ortishi bilan unga mos ravishda akkumulatorning EYuK ham ortadi. Zaryadlash davrining bu qismida qutblanish EYuK o'zgarmaydi, chunki plastina g'ovaklaridagi va umumiylidishdagisi elektrolit zichliklarining farqi o'zgarmaydi.

Zaryadlash jarayonining oxirida aktiv massaning ko'p qismi PbO_2 va Pb ga aylanadi, shuning uchun plastinalardan ajralib chiqayotgan kislorod va vodorod ionlarining bir qismi reaksiyaga kirishmaydi, razryadlanadi va havo pufakchalarini

tarzida tashqariga chiq qilib boshlaydi. Bu, elektrolitni «qaynash» tasavvurini beradi va zaryadlash tugayotganligining belgisidir. Gaz ajralib chiqishi, akkumulator kuchlanishi 2.4 V ga yaqinlashganda, boshlanadi (« d » nuqtasi).

Zaryadlash vaqtida akkumulator qisqichlaridagi kuchlanish quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$U_z = E + I_z R_0 + I_z R_q$$

Akkumulatorning kuchlanishi 2.7 V ga yetganda, zaryadlash tugadi deb hisoblangsana bo‘ladi, lekin aktiv massa yanada to‘laroq tiklanishini ta’minlash maqsadida zaryadlash jarayoni elektrolit miltillab «qaynash» sharoitida yana 2 soat davom ettiriladi (« $e-f$ » kesmasi). Bu davrda elektrolitning zichligi va akkumulatorning kuchlanishi o‘zgarmaydi.

Shunday qilib, akkumulatorning zaryadlanish jarayoni tugallanish belgilari quyidagilardan iborat:

- a) kuchlanish va elektrolit zichligi o’sishdan to‘xtaydi va 2 soat davomida o‘zgarmaydi;
- b) elektrolitdan gaz ajralib chiq qilib boshlaydi, ya’ni u «qaynaydi».


Zaryadlash zanjiri uzilgandan so‘ng, akkumulatorning kuchlanishi U_z birdaniga aktiv qarshilik R_0 da kuchlanishning kamayishi qiymati $I_z R_0$ pasayadi (« $f-i$ » kesmasi). Bundan keyin, akkumulator plastinalarining g‘ovaklaridagi elektrolit zichligi bilan umumiylidagi elektrolit zichligi diffuziya ta’sirida asta tenglashishi natijasida qutblanish EYuKi E_q yo‘qola boshlaydi va kuchlanish U_z akkumulatorning EYuKi E_0 qiymatigacha asta-sekin kamayadi (« $i-j$ » kesmasi).

1.3.5. Akkumulatorlarning volt-amper tavsifnomasi

Dvigatelni ishga tushirish tizimini loyihalashda va hisoblashda akkumulatorlar batareyasining volt-amper tavsifnomasi muhim ahamiyatga ega. Akkumulatorning volt-amper tavsifnomasi deb, razryad kuchlanishi U , ning razryad toki I , ga bog‘liqligiga aytildi (1.54-rasm). Akkumulatorning volt-amper tavsifnomasi tajriba yoki razryadlanishning berilgan shartlari asosida hisoblash yo‘li bilan olinadi.

Volt-amper tavsifnomasining asosiy qismi deyarli to‘g‘ri chiziqli qonuniyat bo‘yicha o‘zgaradi, lekin razryadning boshlanishida va oxirida akkumulatororda sodir bo‘ladigan qutblanish jarayonlari ta’sirida tavsifnomasi egri chiziq ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

Startyor rejimidagi razryad toklarining qiymati asosan volt-amper tavsifnomaning to‘g‘ri chiziqli qismida bo‘lganligi sababli, dvigatellarning ishga tushirish tizimini hisoblashda, egri chiziqli qismi to‘g‘rilangan tavsifnomadan foydalaniadi. Buning uchun volt-amper tavsifnomaning to‘g‘ri chiziqli qismini kuchlanish va tok bilan kesishguncha ikkala tomonga davom ettiriladi. Bu to‘g‘ri chiziq-



1.54-rasm. Akkumulatorlar batareya-sining volt-amper tavsifnomasi
($I_+ = \text{const}$, $D_r = 0$, $t_e = +40 \dots -40^\circ\text{C}$)

latorlar soni; t_e – elektrolit temperaturasi, $^\circ\text{C}$; D_r – akkumulatorning razryadlanganlik darajasi, %.

Volt-amper tavsifnomani shartli ravishda chiziqli deb qabul qilinganligini e'tiborga olinsa va uning hech bo'lmasa bitta nuqtasining qiymati (U_b , I_i) ma'lum bo'lsa, akkumulatorning qisqa tutashuv toki quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$I_{qt} = \frac{U_{br} \cdot I_i}{U_{br} - U_i}.$$

Har xil sig'imli, lekin bir o'lchamli plastinalardan tashkil topgan akkumulatorlarning volt-amper tavsifnomalarini tahlil qilish uchun bitta musbat plastinaga to'g'ri keladigan qisqa tutashuv toki I_q qulay ko'rsatkichdir va u quyidagi ifoda orqali hisoblanishi mumkin:

$$I_+ = \frac{I_{qt}}{n_+}.$$

Bunda: n_+ – akkumulatorlar batareyasining bitta bankasidagi musbat plastinalar soni.

Akkumulatorning volt-amper tavsifnomasi uning ichki qarshiligiga bog'liq va demak ichki qarshilikka ta'sir qiluvchi barcha omillarga ham bog'liq bo'ladi. Elektrolit temperaturasining pasayishi razryadlanganlik darajasining oshishi – akkumulator ichki qarshiligining va volt-amper tavsifnomasining absissa o'qiga og'ish burchagini oshiradi, ya'ni bir xil qiymatga ega bo'lgan razryad tokiga to'g'ri keladigan kuchlanish kamayadi.

ning koordinata o'qlari bilan kesishgan nuqtasida boshlang'ich razryadlanish kuchlanishi U_{br} va qisqa tutashuv toki I_{qt} ga mos keladigan kesmalar ajratiladi. Bu ikki nuqtadan o'tkazilgan to'g'ri chiziq akkumulatorning to'g'rilangan volt-amper tavsifnomasini ifodalaydi.

Akkumulatorning volt-amper tavsifnomasini olish uchun quyidagi hisoblash uslubidan foydalaniladi.

Boshlang'ich razryadlanish kuchlanishi U_{br} ni hisoblash ifodasi:

$$U_{br} = m (2,02 + 0,00136 t_e - 0,001 D_r).$$

Bunda: m – batareyadagi akkumu-

latorlar soni; t_e – elektrolit temperaturasi, $^\circ\text{C}$; D_r – akkumulatorning razryadlanganlik darajasi, %.

Bo'lsa, akkumulatorning qisqa tutashuv toki quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$I_{qt} = \frac{U_{br} \cdot I_i}{U_{br} - U_i}.$$

Har xil sig'imli, lekin bir o'lchamli plastinalardan tashkil topgan akkumula-

torlarning volt-amper tavsifnomalarini tahlil qilish uchun bitta musbat plastinaga

to'g'ri keladigan qisqa tutashuv toki I_q qulay ko'rsatkichdir va u quyidagi ifoda

orqali hisoblanishi mumkin:

$$I_+ = \frac{I_{qt}}{n_+}.$$


Bunda: n_+ – akkumulatorlar batareyasining bitta bankasidagi musbat plastinalar soni.

Akkumulatorning volt-amper tavsifnomasi uning ichki qarshiligiga bog'liq va demak ichki qarshilikka ta'sir qiluvchi barcha omillarga ham bog'liq bo'ladi. Elektrolit temperaturasining pasayishi razryadlanganlik darajasining oshishi – akkumulator ichki qarshiligining va volt-amper tavsifnomasining absissa o'qiga og'ish burchagini oshiradi, ya'ni bir xil qiymatga ega bo'lgan razryad tokiga to'g'ri keladigan kuchlanish kamayadi.


1.3.6. Generator va akkumulatorlar batareyasining birgalikda ishlashi

Avtomobilda generator va akkumulatorlar batareyasi bir-biriga parallel ulanib birgalikda ishlaydi. Elektr energiyaning avtomobildagi asosiy manbayi generator bo'lib, u hamma iste'molchilarni tok bilan ta'minlaydi va akkumulatorni zaryadlaydi. Dvigatel ishlarayotganda, hamma iste'molchilarga tokni akkumulatorlar batareyasi beradi. Dvigatelnning aylanishlar chastotasi past bo'lganda, generatorning avj oldirgan quvvat iste'molchilarga keragidan kam bo'lishi mumkin. Bu holda akkumulator generator bilan birgalikda ishlab unga yordam beradi va yetishmayotgan quvvatni oplaydi. Generatorning akkumulatorlar batareyasi bilan birgalikda ishlash sxemasi 1.55-rasmda berilgan.

Generator va akkumulatorlar batareyasining birgalikda ishlash tavsifnomasi dvigatelnning ish rejimiga va generatorga tushayotgan yuklama qiymatiaga bog'liq. Tavsifnomani yuklama ga bog'liq holda tahlil qilish uchun grafik usulni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun generatorning aylanishlar chastotasi o'zgarmas bo'lgandagi ($n = \text{const}$) tashqi tavsifnomasi — $U_g = f(I_g)$ bilan akkumulatorlar batareyasining razryad — $U_b = f(I_{br})$ va zaryad — $U_b = f(I_{bz})$ tavsifnomalari birgalikda ko'rildi (1.56-rasm).



1.55-rasm. Generatorning akkumulatorlar batareyasi bilan birgalikda ishlash sxemasi



1.56-rasm. Generator va akkumulatorlar batareyasining birgalikda ishlagandagi tavsifnomasi

Generatorning toki faqat musbat, akkumulator toki esa ham musbat (zaryad toki), ham manfiy (razryad toki) qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Ulovchi simlar qarshiligini hisobga olmaganda, generator va akkumulatorlar batareyasining qisqichlaridagi kuchlanishlar qiymatini teng deb hisoblasak bo'ladi, ya'ni:

$$U_g \approx U_b$$

Bu holda, birqalikda ishlayotgan generator va akkumulatorning har qanday ish rejimi, ularning tavsifnomasini kesib o'tgan va muayyan kuchlanishga mos keladigan to'g'ri chiziq bilan belgilanadi.

Umumiy holda, generator ishlab chiqqan tok iste'molchilarini ta'minlashga va akkumulatorni zaryadlashga ketadi:

$$I_g = I_{yu} + I_{yu\perp}$$

Bunda: I_{yu} – yuklama toki.

Yuklama tokining qiymatiga ko'ra, generator va akkumulator batareyasining birqalikda ishlashida quyidagi o'ziga xos hollar mavjud bo'lishi mumkin.

1. Yuklama toki yo'q, ya'ni $I_{yu} = 0$. Bu holda, generator ishlab chiqqan hamma tok akkumulatorni zaryadlashga ketadi (1 nuqta):

$$I_g = I_{bz}$$

Generator va rostlanuvchi kuchlanishlarning qiymati teng, $U_g = U_{rost}$.

2. Generatorga qisman yuklama ulanadi, lekin generator va rostlanuvchi kuchlanishlarning tengligi saqlab qolinadi: $U_g = U_{rost}$. Bu holda, generator ishlab chiqqan tok iste'molchilarini ta'minlashga va akkumulatorni zaryadlashga sarflanadi (2 nuqta):

$$I_g = I_{bz} + I_{yu}$$

3. Generatorga ulangan yuklama qiymati orttiriladi. Generatorning kuchlanishi rostlanuvchi kuchlanishdan kam, lekin akkumulatorning EYuKidan katta bo'ladi, $E < U_g < U_{rost}$. Bu holda, generator ishlab chiqqan tok iste'molchilarga va akkumulatorni zaryadlashga ketadi (3 nuqta), lekin zaryad toki kamayadi:

$$I_g = I_{bz} + I_{yu}$$

4. Yuklama tokining qiymati yana orttiriladi va generatorning kuchlanishi akkumulatorning EYuKiga teng holat: $U_g = E_h$ yuzaga keladi. Bu vaziyatda, generator ishlab chiqqan tokning hammasi faqat iste'molchilarini ta'minlashga sarflanadi (4 nuqta):

$$I_g = I_{yu}, I_{bz} = 0.$$

5. Yuklama tokining qiymati yanada orttiriladi va generator kuchlanishi akkumulatorning EYuK dan kam bo'lib qolish holi yuzaga keladi, ya'ni $U_g < E_h$. Bun-

day vaziyatda, akkumulator generator bilan bиргаликда иштеп molchilarni tok bilan ta'minlaydi (5 nuqta):

$$I_{yu} = I_g + I_{br}.$$

Agar ulovchi simlar qаршилигидаги кучланышнинг пасайishi hisobga olinsa, yuklama tok qiymati ortishi bilan generatorning kuchlanishi kamayib boradi va bu $U_g > E_b$ bo'lganda ham akkumulatorni razryadlanishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun *avtomobilarni ishlatish jarayonida ulovchi simlar va ularning qis-qichlari ahvolini doimo nazorat qilib turish zarur!*

Generatorning rostlanuvchi kuchlanishi qiymatini o'zgartirish hisobiga akkumulatorning zaryad tokini oshirish yoki kamaytirish mumkin. Rostlanuvchi kuchlanishning qiymati oshirilsa, generatorning tashqi tavsifnomasi yuqoriga ko'tariladi va bu 1 nuqtani o'ngga surib akkumulator zaryadlash tokining ortishiga olib kela-di. Rostlanuvchi kuchlanish kamaysa, 1 nuqta chapga suriladi va zaryadlash toki ham kamayadi.

Akkumulatorning ichki qаршилигини oshiruvchi omillar (elektrolit temperaturasining pasayishi, razryadlanganlik darajasining ortishi va hokazo) ham zaryadlash tokining kamayishiga olib keladi, chunki bu holda zaryad tavsifnomasi ordinateda o'qiga nisbatan qiyaroq o'zgaradi.

Yuqorida keltirilgan, avtomobilning ikkita elektr tok manbayini bиргаликда ishlash tavsifnomasining tahlili shuni ko'rsatadiki, akkumulatororda to'plangan energiyani иштеп molchilarga berish va generator zarur zaryadlash tokini ta'minlagan hollarda sarf qilingan energiyani tiklash rejimlari mavjud bo'ladi. Akkumulator energiyasini tiklash tezligi yuklama tokining qiymatiga va generatorning aylanishlar chastotasiga bog'liqdir. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, avtomobilga o'rnatilgan generatorning quvvati, akkumulator razryad vaqtida sarflagan energiyasini zaryadlash vaqtida to'la qoplashi shart, ya'ni akkumulatorning musbat zaryad balansi ta'minlanishi kerak.

Bu shartni bajarish uchun zarur bo'lgan generator quvvati:

$$P_g = U_n \cdot I_{g\max}.$$

Bunda, U_n – nominal kuchlanish (14 yoki 24 V); $I_{g\max}$ – generatorning zarur bo'lgan maksimal toki.

$I_{g\max}$ ning qiymati иштеп molchilar soni va avtomobilning harakat rejimiga bog'liq. Yengil avtomobillar uchun $I_{g\max} = 1,15 I_n$, yuk avtomobilari uchun esa $I_g = 1,25 I_n$ tavsiya qilinadi. Bu yerda I_n generatorning quyidagi ish rejimlari bo'yicha hisoblangan yuklama toki qiymati:

- qishda, kechasi shahardan tashqaridagi shohko'chadagi harakat;
- qishda, kunduzi shahardan tashqaridagi shohko'chadagi harakat;
- qishda, kechasi shahar ko'chalaridagi harakat;
- qishda, kunduzi shahar ko'chalaridagi harakat.

P_g va $I_{g\max}$ qiymatlari asosida muayyan turdag'i generator va uzatma tanlab olinadi. Tanlangan generator tavsifnomasini qishda kechasi shahar ko'chalarida harakat qilish sharoitiga mos kelishini tekshirish maqsadida zaryad balansi hisoblanadi.

1.3.7. Qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarning asosiy nosozliklari

Akkumulatorlarning xizmat muddati asosan ularning ishlatalish shart-sharoitlariga, ularga ko'rsatiladigan texnik tadbirlarning sifati va o'z vaqtida o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi. Akkumulatorlar ishlatalishning belgilangan hamma qoidalariiga rioya qilinganda, ular 4–5 yilgacha xizmat ko'rsatishi mumkin.

Akkumulatorlarning ishdan chiqishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- plastinalarning sulfatlanib qolishi;
- me'yordan ortiq o'z-o'zidan razryad bo'lishi;
- plastinalarning yemirilishi va qayishib ketishi.


Plastinalarning sulfatlanib qolishi. Yuqorida ko'rsatilgandek, akkumulator razryad vaqtida sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar natijasida plastinalardagi aktiv massa (PbO_2 va Pb) $PbSO_4$ tuziga aylanadi va u tez eruvchan, mikroskopik kristallar ko'rinishida bo'ladi. Zaryadlash vaqtida esa $PbSO_4$ kristallari eriydi va elektrolit ionlari bilan reaksiyaga kirishib, yana PbO_2 va Pb ga aylanadi.

Lekin akkumulator ma'lum muddatga razryadlangan holda qoldirilsa, plastinalardagi $PbSO_4$ elektrolitda eriy boshlaydi. Bu jarayon elektrolit $PbSO_4$ tuziga to'yinguncha davom etadi. Shundan keyin elektrolitning to'yingan eritmasidan plastina yuzlariga $PbSO_4$ tuzining yirik va juda ham erishi qiyin bo'lgan kristallari o'tira boshlaydi.


Bu, $PbSO_4$ tuzining qayta kristallanish hodisasi, plastinalarning **sulfatlanib qolishi** deb yuritiladi va u akkumulatorlarni juda tez ishdan chiqaradigan jiddiy nosozliklardan biri hisoblanadi.

Plastinalar sulfatlanib qolishi natijasida $PbSO_4$ tuzining yirik erimaydigan kristallari plastinalarning yuzidagi mayda g'ovak teshikchalarini qoplab oladi va elektrolitning aktiv massaning ichki qatlamlariga o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Natijada aktiv massaning bir qismi kimyoviy reaksiyada ishtirok qilmaydi va akkumulatorning sig'imi kamayadi. Plastinalari sulfatlanib qolgan akkumulatorni zaryadlaganda, uning kuchlanishi va elektrolit temperaturasi notabiyy ravishda tez ortadi, elektrolit «qaynay» boshlaydi. Lekin, elektrolitning zichligi nisbatan kam oshadi. Plastinalari sulfatlanib qolgan akkumulatorlarning sig'imi kamayganligi sababli juda tez razryadlanadi. Bu ayniqsa, akkumulator katta tok bilan razryad qilinganda, ya'ni startyor rejimida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sulfatlangan plastinalar oqish tusga kiradi va o'ziga xos oq dog'lar bilan qoplanadi.

Sulfatlanishning yana bir sababi akkumulatordagи elektrolit sathi belgilangan me'yordan pasayib ketishi va plastinalar yuqori qismining ochilib qolishidir. Ochilib qolgan manfiy plastinalardagi g'ovak qo'rg'oshin havo bilan reaksiyaga kirishib, unda qo'rg'oshin gidrooksiidi $Pb(OH)_2$ hosil bo'ladi:



Manfiy plastinalarda hosil bo'lgan $Pb(OH)_2$, akkumulatordagи elektrolitning chayqalib sachrashi va aktiv massadagi kapillyarlar orqali keladigan H_2SO_4 bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, plastinalarning ochilib qolgan qismida $PbSO_4$ tuzining yirik, erishi qiyin bo'lgan kristallarini hosil qiladi, ya'ni plastinalarning ochilib qolgan qismi sulfatlanib qoladi:



Akkumulatorlarni me'yordan tashqari katta tok bilan razryad qilish (masalan, o'rinsiz ravishda startyorni ko'p ishlatalish), elektrolit zichligini belgilangan qiymatdan ortiq bo'lgan holda ishlatalish ham plastinalarni sulfatlanishga olib keladi.

Akkumulatorlarning sulfatlanib qolgan plastinalarini ish qobiliyatini tiklash uchun qiymati – sig'imining 0,05 qismidan katta bo'lmagan tok bilan, elektrolit zichligi $1,11 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ dan yuqori bo'lmagan holda, kamida 3–4 marta razryadzaryad amalini bajarish tavsiya qilinadi. Kuchli sulfatlangan plastinalar qayta tiklanmaydi.

Me'yordan ortiq o'z-o'zidan razryadlanish. Akkumulatorlarni ishlatalish va uzoq saqlash jarayonida har bir akkumulator unga tashqi iste'molchilar ulanmagan holda ham sekin-asta razryadlanib, o'z sig'imining bir qismini yo'qotadi. Bu akkumulatorning o'z-o'zidan razryadlanish hodisasi bo'lib, uning muqarrar ravishda sodir bo'lishiga aktiv massa va elektrolit tarkibida yot aralashmalar, asosan metallar borligi sabab bo'ladi. Ular plastinadagi moddalar bilan galvanik juftlar hosil qiladi va natijada akkumulatorda o'z-o'zidan razryadlanish jarayoni sodir bo'la boshlaydi. Xususan, yangi to'la zaryadlangan akkumulator elektrolit temperaturasi $+20\ldots25^\circ\text{C}$ bo'lgan holda saqlanganda, birinchi 14 kunda tabiiy ravishda o'z-o'zidan razryadlanish hisobiga sig'imining 10 %gacha kamayishi Davlat standarti tomonidan yo'l qo'yiladi va normal hol hisoblanadi.

Agar o'z-o'zidan razryadlanish natijasida akkumulator sig'imi yuqorida keltirilgan qiymatdan kamayib ketsa, bu akkumulatororda nosozlik borligini, ya'ni me'yordan ortiq o'z-o'zidan razryadlanish jarayoni sodir bo'layotganligining belgisidir.

Akkumulator me'yordan ortiq o'z-o'zidan razryadlanishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat: akkumulator qopqog'i ustiga to'kilgan elektrolit va kir, chang orqali qutb quloqlari orasidagi tutashuv; aktiv massaning to'kilishi natijasida hosil bo'lgan cho'kma orqali har xil qutbli plastinalarning o'zaro tutashivi; elektrolitning yot aralashmalar, ayniqsa metallarning va ularning turli oksidlari bilan ifloslanishi ularning zaryad vaqtida manfiy plastinaga o'tirib qolib, u yerdagi g'ovak

qo'rg'oshin – Pb bilan ko'p sonli mayda galvanik juftlar hosil qilishi va natijada «parazit» tok zanjirlarining paydo bo'lishi.

Akkumulator me'yоридан ортиқ о'з-о'зидан разряд бо'лишинге олдини олишнинг бирдан бир yo'li, уларни исхлатиш борасида тозаликка жидди е'tibor беришdir. Akkumulatorning qopqog'i doimo toza bo'лишини та'minlash zarur. Elektrolit tayyorlashda va uni yoki distillangan suvni akkumulatorga quyishda qo'llanadigan idishlar nihoyatda toza holda исхлатилиши ва saqlanishi lozim.

Elektrolit ifloslanishi natijasida me'yоридан ортиқ о'з-о'зидан разряд бо'ляютган аккумуляторнинг манғири пластиналарига о'tirib qolgan yot aralashmalar, xususan metallarni va ularning oksidlarini elektrolit eritmasiga o'tkazish maqsadi, sig'imining 0,1 qismiga teng bo'lgan tok bilan har bir akkumulator bankasidagi kuchlanish 1,1–1,2 V gacha kamayguncha разряд qilinadi. Shundan keyin akkumulatordagi hamma elektroli ehtiyyotkorlik bilan to'kiladi, har bir banka distillangan suv bilan bir necha bor yuviladi. So'ngra zichligi to'kilgan elektrolit zichligiga teng bo'lgan yangi elektrolit quyilib, batareya to'la zaryadlanadi.

Plastinalarning muddatidan avval yemirilishi va qayishib ketishi. To'la zaryadlanib bo'lgan akkumulatorni yana uzoq vaqt davomida zaryadlash toki ostida qoldirish plastinalarning muddatidan avval yemirilishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, o'ta zaryadlash vaqtida tok, asosan, suvning elektroliz bo'lishiga, ya'ni vodorod bilan kislroroda parchalanishiga sarf bo'ladi. Elektroliz natijasida ajralib chiqayotgan kislrorod musbat plastinalarning qo'rg'oshin panjaralarini oksidlab, uni sekin-asta PbO_2 ga aylantiradi va yemirilishga olib keladi.

Plastinalarning yemirilishi yana quyidagi hollarda sodir bo'lishi mumkin:

- zaryadlash jarayonining oxirida tok qiymatining katta bo'lishi va elektrolitning qattiq «qaynab» ketishi, aktiv massanening mayda g'ovaklaridan otilib chiqayotgan havo pufakchalarini tezligining ortishi va natijada, plastinadagi aktiv massanening yumshashi va ushalib tushib ketishi;

- elektrolit temperaturasining me'yоридан oshib ketishi, elektrolit tarkibida azot, xlorid va sirkva kislotalarining bo'lishi yoki kimyoviy toza bo'limgan sulfat kislota исхлатилиши – musbat plastina panjaralarining korroziyaga chalinishi;

- elektrolit tarkibidagi suvning muzlab qolishi;
- akkumulator avtomobilda yaxshi mahkamlanmaganligi.

Akkumulatorlar batareyasini zaruratsiz ketma-ket va katta tok bilan разряд qilinganda, masalan, startyor ulanganda plastinalar qizib qayishib ketishi mumkin. Ayniqsa bunday hodisa ko'proq musbat qutbli plastinalarda uchraydi. Plastinalar qayishishi natijasida separatorlarni teshib o'tib, o'zaro qisqa tuta-shishi mumkin. Bundan tashqari, plastinalar qayishishi ularni qoplab turgan aktiv massada darzlar hosil bo'lishiga va keyinchalik plastina panjarasidan tushib ketishi ga olib keladi.

1.3.8. Qo‘rg‘oshin-kislotali akkumulatorlarni ishlatishning o‘ziga xos tomonlari va ularning texnik holatini aniqlash

Akkumulatorlar batareyasini ishlatishga tayyorlash

Avtomobilarda ishlatishga mo‘ljallangan akkumulatorlar batareyasi zavod-dan, asosan, elektrolitsiz, quruq zaryadlangan plastinalar bilan chiqarilmoqda. Bunday akkumulatorlarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib o‘tish qulay, ularni nisbatan uzoq muddat davomida (2 yilgacha) avtokorxona omborlarida saqlash va zarurat tug‘ilganda tezda ishga tushirish mumkin. Quruq zaryadlangan akkumulatorlarni ishga tushirishdan oldin ularga elektrolit quyiladi va zaryadlanadi.

Avval ta‘kidlanganidek, qo‘rg‘oshin-kislotali akkumulatorlarda elektrolit sifatida toza sulfat kislotaning distillangan suvdagi eritmasi ishlataladi. *Elektrolit tayyorlash jarayonida suvni kislotaga quyish qat’iy man etiladi!* Chunki, bu holda suvning ustki qatlamlari juda katta tezlik bilan isib ketadi va qaynaydi, kislota bilan birligida atrofqa sachray boshlaydi va kishi terisiga tushib og‘ir kuyish jarohatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun elektrolit tayyorlashda faqat kislota suvgaga ingichka oqim ko‘rinishida jildillatib quyiladi va maxsus shisha tayoqcha yordamida uzluksiz aralashtirib turiladi. Elektrolit tayyorlash uchun ishlataladigan idishlarning materiali plastmassadan yoki sopoldan bo‘lishi tavsiya qilinadi. Shisha idishlarning elektrolit tayyorlash jarayonida ajralib chiqadigan issiqlik ta’sirida yorilib ketish xavfi bor.

Elektrolit tayyorlashda yoki uni akkumulatorga quyishda tegishli xavfsizlik choralarini ko‘rilishi zarur, xususan ko‘zoynak taqilishi, rezina qo‘lqop va etik, kislotaga chidamli materialdan tayyorlangan etak yoki kostyum kiyilishi kerak.

Sof kislotani ishlatish va saqlash o‘ta xavfli bo‘lganligi sababli, avtokorxonalarda odatda zichligi $1,4 \cdot 10 \text{ kg/m}^3$ ga teng bo‘lgan kislotaning distillangan suvdagi eritmasi ishlataladi va bu eritma yordamida zarur zichlikka ega bo‘lgan elektrolit tayyorlanadi. 1.4-jadvalda iqlim sharoitlari turlicha bo‘lgan mintaqalar uchun to‘la zaryadlangan akkumulator elektrolitlarining zichligi keltirilgan.

Quruq zaryadlangan akkumulatorlarga quyilayotgan elektrolit temperaturasi $+30^\circ\text{C}$ dan ortiq va $+15^\circ\text{C}$ dan past bo‘lmasligi zarur. Elektrolitning 25°C ga keltirilgan zichligi O‘rtta Osiyo iqlim sharoiti uchun yil davomida $1,25 \dots 1,27 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ oraliq‘idagi qiyatlarda bo‘lishi tavsiya qilinadi.

Quruq zaryadlangan akkumulatorlarga elektrolit quyishdan oldin, hamma shamollatish tuyuklari ochilishi va akkumulatorga havoni kiritmaslik maqsadida qo‘ylgan barcha narsalarni, xususan, tijinlar tagidagi rezina lappaklar, yopishqoq tasmalar olib tashlanishi, ba’zi tijinlarning shamollatish tuynugidagi plastmassa quyilmalar (1.4-jadval) qirqib tashlanishi zarur.

Iqlimi turli bo'lgan mintaqalar (yanvar oyining o'rtacha harorati °C da)	Yilning fasli	25 °C ga keltirilgan elektrolit zichligi, kg/m ³ da
Juda sovuq (-50... -30)	qishda	$1,37 \cdot 10^3$
	yozda	$1,27 \cdot 10^3$
Sovuq (-30... -15)	yil davomida	$1,29 \cdot 10^3$
Mo'tadir (-15... -4)	yil davomida	$1,27 \cdot 10^3$
Issiq (-4... +4)	yil davomida	$1,25 \cdot 10^3$
Issiq va nam (+ 4... +6)	yil davomida	$1,23 \cdot 10^3$

Eslatma. Elektrolit zichligi jadvalda keltirilgandan ± 10 kg/m³ ga farq qilishiga yo'l qo'yiladi.

Quruq zaryadlangan akkumulatorlarga elektrolit quyligandan 2 soat keyin elektrolit zichligi tekshiriladi. Agar shu vaqt davomida elektrolit zichligining pasayishi $0,3 \cdot 10^3$ kg/m³ dan oshmasa, bu akkumulatorlar batareyasini to'g'ridan to'g'ri ishlatalish mumkin. Agar zichlikning pasayishi $0,3 \cdot 10$ kg/m³ dan ortiq bo'lsa, bunday akkumulatorlarni ishga tushirishdan avval, albatta, zaryadlash va elektrolit zichligini belgilangan qiymatgacha yetkazish zarur.

Akkumulatorlar batareyasini zaryadlash usullari


Akkumulatorlarni zaryadlash uchun, odatda, maxsus o'zgarmas tok manbalariidan foydalilanadi. Hozirgi vaqtda avtokorxona sharoitida zaryadlashning asosan ikki usuli qo'llaniladi:

- zaryadlash tokining qiymati o'zgarmas bo'lganda;
- zaryadlash kuchlanishi o'zgarmas bo'lganda.

Tok qiymati o'zgarmas bo'lganda zaryadlash. Bu usulda zaryad qilinganda akkumulatorlar batareyasi o'zgarmas tok manbayiga ketma-ket ulanadi (1.57-a rasm). Zaryadlash mobaynida tok o'zgarmas holda saqlanadi va uning qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$I_z = \frac{U_z - E_b}{R_b}.$$

Bunda: U_z – akkumulator qisqichlaridagi kuchlanish, V; E_b – zaryadlanayotgan batareyaning EYuKi, V; R_b – akkumulatorlar batareyasining ichki qarshiligi, Ω.



1.57-rasm. Akkumulatorlar batareyasini tok qiymatini o‘zgarmas bo‘lganda zaryad qilish a) ularish sxemasi, b) tavsifnomasi

Zaryadlash davomida tok qiymatini o‘zgarmas holda saqlash va uni nazorat qilish uchun akkumulatorlarga ketma-ket reostat R va ampermetr ularadi.

Zaryadlash jarayoni bir yoki ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Bir bosqichli jarayonning boshidan oxirigacha zaryadlash tokining qiymati o‘zgarmaydi va u $0,05 C_{20}$ ga teng bo‘ladi (C_{20} – akkumulatorning nominal sig‘imi). Ikki bosqichli jarayonda, elektrolitda gaz ajralib chiqish boshlanguncha akkumulator qiymati $0,15 C_{20}$ ga teng tok bilan zaryadlanadi (I bosqich). Bunda: akkumulatorning har bir bankasidagi kuchlanish $2,4$ V gacha ortadi (1.56- b rasm). Shundan keyin, zaryadlash toki 2–3 marta kamaytiriladi va jarayon $0,05 \cdot C_{20}$ ga teng tok bilan tugalanganadi (II bosqich).

Ikki bosqichli zaryadlash jarayonining afzallik tomoni shundan iboratki, birinchidan akkumulatorlarni to‘la zaryadlash uchun ketadigan vaqt tejaladi (I bosqichda zaryadlash tokining oshirilishi hisobiga), ikkinchidan zaryadlash oxirida elektrolitning qattiq «qaynab» ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi (II bosqichda zaryadlash tokini sezilarli darajada kamaytirish hisobiga) va natijada, plastinalardagi aktiv massa muddatidan avval yemirilishining oldi olinadi.

Kuchlanishi U_{lm} ga teng bo‘lgan o‘zgarmas tok manbayiga ketma-ket ularishi mumkin bo‘lgan akkumulator bankalarining soni (reostat qarshiligi $R=0$ bo‘lganda) quyidagicha aniqlanadi:

$$n = \frac{U_{lm}}{2,7}.$$

Bunda, U_{lm} – o‘zgarmas tok manbayining kuchlanishi, V; $2,7$ – zaryadlash oxirida har bir akkumulator elementiga to‘g‘ri keladigan kuchlanish, V.

Zaryadlashga qo‘yilayotgan akkumulator batareyalarning sig‘imi bir xil yoki imkon boricha bir-biriga yaqin bo‘lishi kerak, aks holda zaryadlash toki qiymatini


sig'imi eng kichik bo'lgan batareya bo'yicha belgilashga to'g'ri keladi va sig'imi katta bo'lgan batareyalar juda sekin zaryadlanadi.

Tok qiymati o'zgarmas bo'lganda zaryadlash, hozirgi vaqtida akkumulatorlarni zaryad qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Bu usul yordamida akkumulatorlarni to'la zaryadlashga erishish mumkin. Bundan tashqari, zaryadlash tokining qiymatini ma'lum chegarada tanlash, uni rostlab turish va nazorat qilish imkoniyati borligi, yangi akkumulatorlarni birinchi bor zaryad qilishda, plastinalari sulfatlanib qolgan akkumulatorlarni tiklashda juda qo'l keladi.

Akkumulatorlarni zaryadlash uchun sarflanadigan vaqtning nisbatan ko'pligi, zaryadlash davomida tok qiymatini doimo nazorat qilish va rostlab turish zarurati – bu usulning asosiy kamchiliklariadir.

Kuchlanish qiymati o'zgarmas bo'lganda zaryadlash. Zaryadlashning bu usuli avtokorxona va zaryadlash stansiyalarida kam qo'llanadi va u, asosan, avtomobilda o'rnatilgan akkumulatorni generator yordamida qo'shimcha zaryadlab turishda ishlataladi. Bu usulda, akkumulatorlar o'zgarmas tok manbayiga parallel ravishda ulanadi (1.58- a rasm).

Tok manbayining kuchlanishi 12 V li akkumulatorlar batareyasi (yoki 6 elementli) uchun 14,4 V bo'lishi, ya'ni har bir elementga 2,4 V to'g'ri kelishi kerak. Kuchlanish maxsus moslamalar (avtomobilda-kuchlanish rostlagichi) yordamida rostlab turiladi va voltmetr orqali nazorat qilinadi.



1.58-rasm. Akkumulatorlar batareyasini kuchlanish o'zgarmas bo'lganda zaryadlash:
 a) ulanish sxemasi, b) tafsifnomasi.

Zaryad zanjiridagi tokning maksimal qiymati generator quvvatiga va akkumulatorlar batareyasining razryadlanganlik darajasiga bog'liq bo'lib quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$I_z = \frac{U_g - E_b}{R_b}.$$

Bunda: U_g – generatoring rostlangan kuchlanishi, V; E_b – batareyaning EYuK, V; R_b – batareyanining ichki qarshiligi, Ω .

Zaryadlash jarayonining boshlang'ich davrida, generator kuchlanishi U_g bilan razryadlangan akkumulatorning EYuK E_b orasidagi farq katta bo'lishi hisobiga zaryad tokining qiymati nisbatan yuqori qiymatlarga ega bo'lishi (1.58- b rasm) va ($1,0-1,5$) C_{20} gacha yetishi mumkin.

Akkumulator zaryadlana boshlagandan so'ng uning EYuK E , orta boradi, natijada zaryadlash toki keskin kamayadi va zaryadlash oxirida qiymati 0 ga yaqinlashadi. Tokning qiymati zaryadlash jarayonining boshlang'ich qismida katta bo'lganligi sababli akkumulator zaryad vaqtining birinchi 3–4 soatida sig'imining 80–90 %ga zaryadlanadi.

Kuchlanish o'zgarmas bo'lganda zaryadlashning asosiy afzalliklari quyidagi lardan iborat:

- zaryadlash toki avtomatik ravishda kamayib borganligi sababli, uni doimo nazorat qilish va rostlab turish zarurati yo'q;

- zaryadlash jarayoni oxirida tok qiymati juda kichik bo'lganligidan, elektrolit dan gaz ajralib chiqishi ham juda sust sodir bo'ladi va bu plastinalarning aktiv massasini va panjaralarini yemirilishdan saqlaydi;

- zaryadlashga har xil sig'imga ega bo'lgan akkumulatorlarni qo'yish mumkin, zaryadlash tokining qiymati har bir akkumulatorning razryadlanganlik darajasiga ko'ra avtomatik ravishda qaror topadi.

Yuqorida keltirilgan afzalliklarga qaramasdan, akkumulatorlarni zaryadlashning bu usuli – yordamchi usul hisoblanadi. Chunki, uning yordamida akkumulatorlarni oxirigacha to'la zaryadlab bo'lmaydi. Bundan tashqari, tok qiymatini rostlash imkoniyati bo'lmaganligi uchun, bu usul bilan plastinalari sulfatlanib qolgan akkumulatorlarni tiklab bo'lmaydi.

Akkumulatorlarni zaryadlashning boshqa usullari

Amaliyotda akkumulatorlarni zaryadlashning boshqa, masalan, baravarlash-tiruvchi, jadallashtirilgan va impuls usullari ham qo'llaniladi.

Baravarlashtiruvchi zaryadlash, asosan, uzoq muddat davomida ishlatilgan akkumulatorlarning alohida bankalarida elektrolit zichligi va razryadlanganlik darajasi har xil bo'lib qolish hollarini bartaraf qilish uchun qo'llaniladi. Bu usulda ham zaryadlash tokining qiymati o'zgarmas bo'lib, akkumulator sig'imining (0,05–0,1) C_{20} qismini tashkil qiladi. Baravarlashtiruvchi zaryadlash akkumulatorning hamma plastinalaridagi aktiv massani to'la tiklash va ularda hosil bo'lgan sulfatlanish o'choqlarini bartaraf qilish maqsadida amalga oshiriladi. Baravarlashtiruvchi zaryadlash hamma akkumulator bankalaridagi elektrolit zichligi va kuchlanishi 3 soat mobaynida bir xil o'zgarmas qiymatga ega bo'lguncha davom ettiriladi va odatdagisi zaryadlash usullaridan ancha ko'proq vaqt oladi.

Jadallashtirilgan zaryadlash kuchli razryadlangan akkumulatorlarning qisqa vaqt ichida ish qobiliyatini tiklashi uchun ishlatiladi. Bu usulda tok qiymati akkumulator sig'imining 0,7 C_{20} qismini tashkil qilishi mumkin. Zaryadlash toki qanchalik katta bo'lsa, zaryadlash vaqt shunchalik kam bo'ladi. Masalan, zaryad tokining qiymati 0,7 C_{20} bo'lganda – 30 daqiqa, 0,5 C_{20} bo'lganda – 45 daqiqa, 0,3 C_{20} bo'lganda – 90 daqiqa. Jadallashtirilgan zaryad davomida doimo elektrolit tem-

peraturasini nazorat qilib turish zarur va u 45 °Cga yetganda zaryadlashni darhol to'xtatish kerak.

Akkumulatorlarni **impuls** usulida zaryad qilish uchun keyingi yillarda ishlab chiqilgan 3Y-7 belgili turdag'i moslama ishlataladi. Impuls usulida akkumulatorlar quyidagi tartibda zaryadlanadi: 300 sekund davomida batareya nominal tok bilan zaryadlanadi, so'ngra 100 sekund davomida 100 mA tok bilan razryadlanadi. Bu jarayon avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Shunday «zaryadlash-razryadlash» davrining 80 tasidan keyin zaryadlash moslamasi batareyadan avtomatik holda uziladi. Mutaxassislarning fikricha, impuls usuli zaryadlash sifatini yaxshilashga, plastinalar sulfatlanib qolish darajasini kamaytirishga va natijada, akkumulatorlarning xizmat muddatini ikki baravar oshirishga yordam beradi.

1.3.10. Akkumulatorlarni ishlatish jarayonidagi qarovi va ularning texnik holatini aniqlash

Akkumulatorlarning xizmat muddati, asosan, ularni ishlatish davrida belgilangan qoida, tadbir-amallarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazishga bog'liq. Bu qoida, tadbir-amallar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- muntazam ravishda qutb qulolqarini tozalab ularga texnik vazelin suriladi, batareyaning ustki qismi 10 %li navshadir spirti eritmasi bilan tozalab turiladi, batareyaning yaxshi mahkamlanganligi tekshiriladi;

- kamida ikki haftada bir marta elektrolit sathi tekshiriladi va zarurat bo'yicha distillangan suv quyiladi;

- kamida 1 oyda bir marta elektrolit zichligi o'lchanadi va akkumulatorning razryadlanganlik darajasi aniqlanadi. Agar razryadlanganlik darajasi yozda 50 %dan, qishda 25 %dan ortiq bo'lsa, batareya darhol zaryadlashga qo'yiladi;


- generator kuchlanishining qiymati muntazam ravishda nazorat qilinadi va zarurat bo'yicha rostlanadi;

- bir yilda 1–2 marta akkumulatorni avtomobildan olib, tok qiymati o'zgarmas bo'lgandagi zaryad usuli bilan to'la zaryadlash tavsija qilinadi.


Elektrolit sathini o'lhash uchun akkumulator bankasining tiqinlari ochiladi va unga saqlovchi to'siqqa qadalguncha ichki diametri 3–4 mm bo'lgan shisha naycha tushiriladi (1.59-rasm).

So'ngra, shisha naychaning ustki tomoni barmoq bilan berkitiladi va akkumulatorlardan chiqariladi. Shisha naychada elektrolit sathiga teng bo'lgan suyuqlik ustun-chasi hosil bo'ladi. Akkumulatordagi elektrolit sathi saqlovchi to'siqdan 10–15 mm yuqori bo'lishi kerak. Agar elektrolit sathi bundan past bo'lsa, akkumulatorga distillangan suv quyiladi, yuqori bo'lsa, ortiqcha elektrolit noksimon rezinali so'rg'ich bilan olib tashlanadi.

Akkumulatorlarning razryadlanganlik darajasini ikki yo'l bilan aniqlash mumkin: elektrolit zichligi va akkumulator kuchlanishi orqali.



1.59-rasm. Ekektritolit sathini o'lichash



1.60-rasm. Elektrolit zichligini o'lichash asboblari: a) areometr; b) zichlik o'chagich.

Akkumulatordagи elektrolit zichligi, odatda, areometr yoki zichlik o'chagich bilan o'chanadi. Elektrolit zichligini areometr (1.60-*a* rasm) bilan o'chash uchun uning noksimon rezinali so'rg'ichi 1 siqiladi va naychasi 5 akkumulator bankasiга tushiriladi. So'ngra asta-sekin so'rg'ichni bo'shatib densimetр 3 qalqib chiqqunga qadar pipetkaga 2 elektrolit so'rildi. Shundan keyin naychani akkumulatordan chiqarmasdan elektrolitning mavjud temperaturadagi zichligi o'chanadi. Elektrolit zichligining temperaturaga bog'liqligini hisobga olib, uni quyidagi ifoda yordamida 25°C ga keltiriladi:

$$\rho_{25} = \rho_{o'ch} - 0,7(25 - t).$$

Bunda: ρ_{25} – elektrolitning 25°C ga keltirilgan zichligi, kg/m^3 ; $\rho_{o'ch}$ – elektrolitning mavjud temperaturada o'chanigan zichligi, kg/m^3 ; t – elektrolitning mavjud temperaturasi, $^{\circ}\text{C}$.

Akkumulatorning razryadlanganlik darajasi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$D_r = \frac{\rho_{tz} - \rho_{25}}{\rho_{tz} - \rho_{tr}} \cdot 100 \, \%$$

Bunda: D_r – akkumulatorning razryadlanganlik darajasi, %; ρ_{tz} – elektrolitning akkumulator to'la zaryadlangandagi zichligi, kg/m^3 ; ρ_{tr} – elektrolitning akkumulator to'la razryadlangandagi zichligi, kg/m^3 .

O'rta Osiyo iqlim sharoiti uchun yil bo'yи $\rho_{tz} = 1,25 \dots 1,27 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$, $\rho_{tr} = 1,09 \dots 1,11 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ qiymatlarga teng qilib olinadi.


Zichlik o'chagichning (1.60-*b* rasm) plastmassadan tayyorlangan qobig'i 6 ichiga massasi turlicha bo'lgan qalqovichlar 7 joylashtirilgan. Har bir qalqovich to'g'risiga unga to'g'ri keladigan zichlik qiymati yozilgan. Elektrolit zichligini

o'Ichash uchun noksimon rezinali so'rg'ich 1 yordamida zichlik o'Ichagich qobig'i ichiga elektrolit so'rildi. Elektrolitning zichligi, yuqoriga ko'tarilib chiqqan qalqovich orqali aniqlanadi.

Akkumulatorlar batareyasining razryadlanganlik darajasini kuchlanish orqali aniqlash uchun ЛЭ-2, ЛЭ-3 belgili yuklama sanchqilari yoki Э108, Э107 (elementlararo tutashtirgichlari yashirin bo'lgan umumiyligini qopqog'li akkumulatorlar batareyasi uchun) belgili akkumulatorsinov asboblari ishlataladi. Э108 belgili akkumulatorsinov asbobi sig'imi $40-190 A \cdot soat$ bo'lgan akkumulatorlar batareyasining ishga yaroqliligini tekshirish imkonini beradi. Tekshirishni boshlashdan avval, sinov asbobidagi kontakt gaykalar yordamida akkumulator sig'imiiga mos keladigan yuklama qarshiliklari zanjirga ulanadi. Tekshirish vaqtida sinov asbobi oyoqchalarining uchi akkumulatorning tashqariga chiqarilgan qulogqlariga qattiq bosiladi (1.61-rasm) va 5 sekund oxirida voltmetri ko'rsatishiga ko'ra kuchlanish aniqlanadi.

Ishga yaroqli akkumulatorning kuchlanishi $1,7-1,8 V$ chegarasida bo'ladi. Kuchlanishning qiymati $1,4-1,6 V$ chegarasida bo'lsa, akkumulatorni zaryad qilish lozim. Agar kuchlanish $1,4 V$ dan past bo'lsa, bunday akkumulatorlar ni tekshirish va zarurat bo'yicha ta'mirlash zarur. Akkumulatorning alohida bankalaridagi kuchlanish bir-biridan $0,1 V$ ga farq qilsa, ularni baravarlashtiruvchi usulida zaryadlash lozim. Ba'zan o'Ichash boshlangan daqiqalarda asbob $1,7-1,8 V$ kuchlanishni ko'rsatib, o'Ichashning 5-sekundiga kelib kuchlanish pasayib ketadi. Bu akkumulator plastinalarining sulfatlanib qolganligining belgisidir.

Umumiyligini qopqoqli sig'imi $190 A \cdot soat$ gacha bo'lgan akkumulatorlarning kuchlanishi Э107 belgili sinov asbobi (1.62-rasm) yordamida o'chanadi.



**1.61-rasm. Э-108 belgili
akkumulatorlarning sinov asbobi**

**1.62-rasm. Э-107 belgili akkumulatorlar
batareyasining sinov asbobi**

Uning kontakt oyoqchalaridan biri uchi o'tkir shchup bilan almashtirilgan. Umumiy qopqoqli 12 V li akkumulatorning yuklama ostida o'lchangan kuchlanishi 5-sekund oxirida 8,9 V dan katta bo'lsa, u ishga yaroqli hisoblanadi. Kuchlanishi 8,9 V dan kam bo'lgan akkumulatorlar batareyasi niyoyat darajada razryadlangan yoki unda jiddiy nosozlik mavjud bo'ladi.

1.3.11. GM-Uzbekistan avtomobillariga o'rnatilgan akkumulatorlarni ishlatisning o'ziga xos tomonlari

GM-Uzbekistan avtomobillarining barchasiga xizmat ko'rsatilmaydigan akkumulatorlar (1.3.2-bo'limga qarang) o'rnatilgan bo'lib, ularning umumiy qopqog'i germetik yopilgan holda tayyorlangan. Ish jarayonida batareyada oz miqdorda hosil bo'ladigan gazlarni tashqariga chiqarib yuborish uchun qopqoqning yon tomonida ikkita shamollatish tuynugi qoldirilgan.

GM-Uzbekistan avtomobillarini ishlatis bo'yicha yo'riqnomalarga ko'ra, ularga o'rnatilgan akkumulatorlar ikkita asosiy ko'rsatkich bilan tavsiflanadi:

- a) rezerv sig'im (RC ko'rsatkich);- b) sovuq aylantirish toki (CCA ko'rsatkich).

Rezerv sig'im (RC ko'rsatkich)

Akkumulatorlar batareyasining rezerv sig'imi (RC ko'rsatkichi) generator ishdan chiqqanda, avtomobilni kechasi, yoritish moslamalari minimal darajada ulangan holda, qancha vaqt davomida harakatlanishi mumkinligini belgilaydi. Elektr sig'im (RC ko'rsatkich)ning o'lchov birligi **daqqaq** bo'lib, u atrof-muhit harorati 25 °C bo'lganda, to'la zaryadlangan batareyani 25 A tok bilan razryad qilinganda, uning qisqichlaridagi kuchlanishning 10,5 V gacha pasayishiga ketgan vaqt bilan aniqlanadi.

Sovuq aylantirish toki (CCA ko'rsatkich)

Bu ko'rsatkich akkumulatorlar batareyasining atrof-muhit harorati past bo'ilgandagi elektr sig'imiini tavsiflaydi. CCA ko'rsatkich atrof-muhit harorati -18 °C bo'lganda, akkumulatorlar batareyasi 30 sekund davomida qisqichlaridagi kuchlanishni 7,2 V gacha pasayganda bergan maksimal tok kuchi bilan belgilanadi. Startyor valida avj oldiriladigan burovchi moment qiymati akkumulatorlar batareyasining CCA ko'rsatkichiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Akkumulatorlar batareyasini yuklama ostida tekshirish

Akkumulatorni yuklama ostida tekshirishdan avval elektrolit zichligi indikatorining ko'rinishiga qarab, batareyaning zaryadlanganlik darajasi aniqlanadi:

– indikator qora rangda, o‘rtasida yashil nuqtasi bor – akkumulatorni yuklama ostida tekshirishni darhol boshlash mumkin;

– indikator qora rangda, yashil nuqta yo‘q – akkumulator avval zaryadlanadi va so‘ngra, yuklama ostida tekshiriladi.

Akkumulatorlar batareyasini yuklama ostida tekshirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Akkumulator qisqichlariga voltmetr va tester ulanadi;

b) Akkumulatorlar batareyasiga 15 sekund davomida 300 A yuklama beriladi;

d) Batareyaning sig‘imini tiklash uchun 15 sekund vaqt berib, so‘ngra tavsifnomada ko‘rsatilgan nominal tok midorida (test yuklamasi) yuklama beriladi. 15 sekunddan keyin batareya qisqichlaridagi kuchlanish o‘lchanadi va yuklama olinadi;

e) Agar o‘lchangan kuchlanish 1,5-jadvaldagi ko‘rsatkichlardan past bo‘lmasa, akkumulatorlar batareyasi soz, uni ishlatish mumkin. Agar olingan natija jadvaldagi ko‘rsatkichlardan past bo‘lsa, bu akkumulatorni almashtirish zarur.

1.5-jadval

Elektrolit temperaturasi	21 °C	20 °C	0 °C	-16 °C	-18 °C	-18 °Cdan past
Kuchlanishning minimal qiymati, V	9,6	9,4	9,1	8,8	8,5	8,0

1.3.12. Akkumulatorlar batareyasini saqlash

Yangi elektrolit quyilmagan quruq zaryadlangan akkumulator batareyalar isi-tilmaydigan, quruq, havo harorati -50 °C dan past bo‘lmagan xonalarda saqlanadi. Bu batareyalarning tinqinlari yaxshi yopilgan holda bo‘lishi kerak. Elektrolit quyilmagan quruq zaryadlangan akkumulatorlarni saqlash muddati 3 yildan ortiq bo‘lmasligi kerak.

Ishlatilgan, avtomobildan yechib olingan akkumulatorlarni saqlashga qo‘yishdan avval, to‘la zaryadlanadi; elektrolit sathi tekshirilib, me’yoriga keltiriladi; akkumulator yuzi 10 %li navshadil spirit bilan yaxshilab artiladi; qutb qulqlari tozalanib, ularga texnikaviy vazelin surib qo‘yiladi. Akkumulatorlar imkon boricha harorati 0 °C dan yuqori bo‘lmagan havosi yaxshi almashib turadigan xonalarda saqlanishi zarur. Chunki havo harorati manfiy bo‘lganda, akkumulatorlarning me’yordan ortiq, o‘z-o‘zidan razryad bo‘lish darajasi juda past bo‘ladi. Akkumulatorlarni saqlash davrida, har oyda 1 marta elektrolit zichligi tekshiriladi va uning qiymati $0,4 \cdot 10^3\text{ kg/m}^3$ ga kamaysa, batareyalar zaryad qilinishi zarur. Musbat temperaturada saqlanayotgan akkumulatorlar har oyda 1 marta zaryad qilib turilishi kerak. Manfiy temperatura sharoitida akkumulatorlarning saqlash muddati 1,5 yildan, musbat temperatura sharoitida – 9 oydan oshmasligi kerak.

Ishlatilgan akkumulatorlarni nisbatan uzoq muddat davomida (2–3 yil) saqlash uchun, ular to‘la zaryadlanadi, so‘ngra ehtiyyotkorlik bilan elektrolit to‘kiladi va 2–3 marta yaxshilab distillangan suv bilan yuviladi. Shundan keyin akkumulatorga bor kislotasining 5 %li eritmasi normal sathgacha quyiladi va tiqinlar yopiladi. Eritma muzlab qolmasligi uchun akkumulator havo harorati doimo musbat bo‘ladigan xonalarda saqlanadi. Akkumulatorlarni bu usulda saqlashda me’yordan ortiq, o‘z-o‘zidan razryad hodisasi sodir bo‘lmaydi. Bu usulda saqlangan akkumulatorni ishga tushirish uchun unga quyilgan eritma to‘kiladi (akkumulator quyish teshiklarini pastga qaratib to‘ntarib qo‘yiladi), 20–25 daqiqadan keyin unga zichligi $1,38\text{--}1,40 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ bo‘lgan elektrolit quyiladi va 40–50 daqiqadan keyin batareya avtomobilga qo‘yiladi. Akkumulator 8–10 soat ishlaganidan keyin elektrolit zichligi o‘lchanadi va zarurat bo‘yicha me’yoriga keltiriladi.

1.4. AVTOMOBILLARNING ELEKTR TA’MINOT TIZIMINING TEXNIK QAROVI

Avtomobil elektr tarmog‘idagi kuchlanishning o‘zgarish doirasi belgilangan qiymatga nisbatan 3 %dan ortishi mumkin emasligini e’tiborga olib generator va kuchlanish rostlagichining ishonchligiga ancha yuqori talablar qo‘yiladi. Kuchlanish qiymatining tebranishi ± 5 %gacha ortsa, lampalardagi yorug‘lik oqimi 20 %gacha o‘zgaradi, kuchlanishning musbat qiymatlari esa ularning xizmat muddati deyarli 2 marta kamayadi. Rostlanayotgan kuchlanishning qiymati belgilangandan 10...12 %ga yuqori bo‘lganda akkumulatorlar batareyasining xizmat muddati 2...2,5 marta qisqarishi aniqlangan.

Generator qurilmasining samarali va ishonchli ishlashi uni dvigatelga yaxshi mahkamlanishi va yuritma tasmasining tortilish tarangligini belgilangan me’yorda bo‘lishiga ko‘p jihatdan bog‘liqidir.

Generator dvigatelga yaxshi mahkamlanmasa uning mahkamlash qulochchalarini uzilib tushishi mumkin. Yuritma tasmasining tortilish tarangligi me’yordan kam bo‘lishi uni shkvida sirpanishiga, rotorni aylanishlar chastotasi va generator ishlabi chiqayotgan kuchlanishining pasayishiga olib keladi.

Yuritma tasmasining tortilish tarangligini tekshirish uchun uning generator va suv nasosi shkvilari o‘rtasidagi qismiga belgilangan qiymatdagi kuch bilan bosiladi. Tasmaning egilish darajasi avtomobilning ishlatish yo‘riqnomasida qo‘rsatilgan qiymatga mos kelishi kerak. Masalan, BA3 avtomobillarining yuritma tasmasi 10 kG kuch bilan bosilganda, 10...15 mm chegarasida egilishi kerak.

Elektromagnit va kontakt-tranzistorli kuchlanish rostlagichlarining ishonchli ishlashi ko‘p jihatdan prujinalar taysifnomasining barqarorligi va kontaktlarning eroziyaga (metalni bir kontatdan ikkinchi kontaktga ko‘chishi) chidamliligi bilan belgilanadi. Kontaktsiz-tranzistorli va integral kuchlanish rostlagichlarning ishon-

chliligi esa o'rnatilgan elektron asboblarning (tranzistor, stabiliton, diod va hokazo) sifati va ularni yig'ish saviyasiga bog'liq bo'ladi.

Elektr ta'minot tizimiga taalluqli jihozlarning texnik holatini aniqlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha mo'ljallangan ishlar avtomobilga ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish (TXK-2) vaqtida yoki unga karrali muddatlarda amalga oshiriladi. Bunda: generator, to'g'rilagich bloki va kuchlanish rostlagichlarining asosiy ko'rsatkichlari chuqr va har tomonlama diagnostika qilinadi.

TXK-1 da elektr ta'minot tizimiga taalluqli barcha asboblar chang, moy va kirdan tozalanadi. Ularning yaxshi mahkamlanganligi va generator yuritma tasmasining tortilish tarangligi tekshiriladi va me'yoriga keltiriladi.

Har to'rtinchchi TXK-2 da generator dvigateldan yechib olinadi va uning cho'tka, kontakt halqalarining holati tekshiriladi. Buning uchun avval generator usti chang, moy va kirdan tozalanadi. Generatorning ichki bo'shlig'i bosim ostidagi havo oqimi bilan tozalanadi. Shundan keyin plastmassa cho'tkatutqich yechib olinadi. Cho'tkatutqichda, chutkalarni bemalol yurishi tekshiriladi, ularning balandligi o'lchanadi, bosib turuvchi prujinaning qayishqoqligi nazorat qilinadi. Agar cho'tka yaxshi yurmasa cho'tkatutqich devorchalarining ichki yuzi va cho'tka benzin bilan namlangan yumshoq latta yordamida artiladi. Me'yordan ortiq yeyilgan cho'tkalar yangisiga almashtiriladi. Ifoslangan kontakt halqalar benzin bilan tozalanadi. Diametr bo'yicha 0,5 mm dan ortiq yeyilgan (ya'ni ariqcha hosil bo'lgan) halqalar yo'niladi va silliqlanadi.

Generatorlarga texnik xizmat ko'rsatishda podshipniklarning holatiga alohida e'tibor berish zarur. Generatorning rotori qo'lda aylantirilganda yoki sinov qurilmasida tekshirilganda begona shovqin paydo bo'lsa generatormi alohida qismlarga ajratish, no'qsonli podshipnikni aniqlash va uni almashtirish kerak.

Elektromagnit va kontakt-tranzistorli kuchlanish rostlagichlariga generator bilan birga xizmat ko'rsatiladi. Elektromagnit kuchlanish rostlagichlarida rostlanayotgan kuchlanish qiymati o'lchanadi, kontaktlarning yemirilish darajasi aniqlanadi. Me'yordan ortiq yeyilgan kontaktlar kichkina egovcha yordamida tozalanadi, siqilgan havo bilan puflanadi va benzin bilan artiladi.

Elektromagnit kuchlanish rostlagichlari ushlab turadigan kuchlanish qiymati prujinani tortish kuchini o'zgartirish yo'li bilan rostlanadi. Buning uchun maxsus asbob yordamida prujina mahkamlangan ilgak tepaga (rostlanayotgan kuchlanish qiymatini kamaytirish uchun) yoki pastga (rostlanayotgan kuchlanish qiymatini oshirish uchun) bukiladi.

Kontaktsiz-tranzistorli va integral kuchlanish rostlagichlariga texnik xizmat ko'rsatish ko'zda tutilmagan. Faqat vaqt-i-vaqt bilan ularning yuzidagi chang va kirni tozalab turish kifoya.

Akkumulatorlar batareyasiga texnik xizmat ko'rsatish ularni ishchi holatga keltirish, ishlatish jaryonida belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish va to'g'ri saqlashni ta'minlashdan iborat.

O‘zini-o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Avtomobilarning elektr ta'minot tizimi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
2. Zamonaviy avtomobilarda qanday konstruksiyaga ega bo'lgan o'zgaruvchan tok generatorlari ishlatalidi?
3. Zamonaviy kompakt konstruksiyaga ega bo'lgan generatorlarning tuzilishining o'ziga xos tomonlarini tushuntiring.
4. O'zgaruvchan tok generatorlari o'zgarmas tok generatorlariga nisbatan qanday afzalliklarga ega?
5. O'zgaruvchan tok generatorining tuzilishini bayon qiling.
6. O'zgaruvchan tok generatorining elektr tavsifnomalarini chizing va izohlang.
7. O'zgaruvchan tok generatorlarida maksimal tokni cheklash qanday amalga oshiriladi?
8. Kontaktsiz o'zgaruvchan tok generatorlarining tuzillishi o'ziga xos tomonlarini izohlahg.
9. Generator kuchlanishini rostlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
10. Kuchlanish rostlagichlarining qanday turlari mavjud, ularning afzalliklar va kamchiliklari?
11. Elektromagnit kuchlanish rostlagichining ishlash prinsipini tushuntiring.
12. Elektromagnit kuchlanish rostlagichining tavsifnomasini yaxshilash usullarini tushuntiring.
13. Kontakt-tranzistorli kuchlanish rostlagichining ishlash prinsipini tushuntiring.
14. Kontaktisiz-tranzistorli kuchlanish rostlagichining ishlash prinsipini tushuntiring.
15. Integral kuchlanish rostlagichining tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntiring.
16. Akkumulatorlar batareyasining tuzilishini qisqacha tushuntiring.
17. «Xizmat ko'rsatilmaydigan» va «kam xiemat ko'rsatiladigan» akkumulatorlar tuzilishini o'ziga xos tomonlari nimadan iborat?
18. Qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarda razryadlash va zaryadlash jarayonlarida qanday fizikaviy-kimyoiy jarayonlar sodir bo'ladi?
19. Akkumulatorlar batareyasining sig'imi nima va u qanday omillarga bog'liq?
20. Akkumulatorlarning asosiy nosozliklari va ularning kelib chiqish sababllari?
21. Akkumulatorlar batareyasini zaryadlashning qanday usullari mavjud, ularning afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?
22. Elektr ta'minot tizimining texnik qarovida qanday ishlarni amalga oshirish zarurligini tushuntiring.


2-BOB. AVTOMOBIL DVIGATELLARINI ISHGA TUSHIRISH TIZIMI

2.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Avtomobil dvigatellarini ishga tushirish tizimi dvigatel tirsakli valini majburiy ravishda aylatirishni ta'minlovchi moslamalar majmuisidan iborat. Ichki yonuv dvigatellarini ishga tushirish uchun mexanik startyorli, benzin dvigatelli, pnevmatik, gidropnevmatik va elektrostartyorli tizimlar qo'llaniladi. Avtomobillarda boshqa usullarga nisbatan bir qator afzalliliklarga ega bo'lgan elektrostartyorli ishga tushirish tizimi qo'llaniladi. Bu tizim ixcham, ishlatalishdagi ishonchilik darajasi yetarli darajada yuqori va murakkab bo'ligan elekrotexnik va elektron moslamalar yordamida dvigateli ishga tushirish jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati bor.

Elektrstartyorli ishga tushirish tizimi tarkibiga (2.1-rasm) akkumulatorlar batareyasi II, startyor I va dvigateli ishga tushirishni yengillatuvchi moslamalar VII kiradi.

Akkumulatorlar batareyasi, elektr ta'minot va dvigateli ishga tushirish tizimlari uchun umumiyl element hisoblanadi. Elektr ta'minot tizimida akkumulatorning razryad toki ($0,5-0,7$) C_{20} dan ortmasa, startyor rejimida ishlaganda, qisqa vaqt davomida, lekin qiymati katta (~1500 A gacha) tok bilan razryad bo'ladi. Shuning uchun, akkumulatorning sig'imi, razryadlanganlik darajasi, elektrolit temperatura-si kabi batareya holatini belgilovchi omillar startyor tavsifnomasiga va demak, dvigateli ishga tushirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



2.1-rasm. Dvigateli ishga tushirish tizimining umumiyl sxemasi:

I – startyor; II – akkumulatorlar batareyasi; III – elektrodvigatel; IV – tortish relesi; V – yuritma mexanizmi; VI – dvigatel; VII – ishga tushirishni yengillatuvchi moslamalar. 1 – lappaksimon kontakt, 2 – elektromagnit chulg'ami, 3 – elektromagnit o'zagi, 4 – prujina, 5 – pishang, 6 – shesternya, 7 – maxovik, «K» – normal ochiq kontaktlar.

Akkumulatorlar batareyasi dvigatelni ishga tushirish jarayonida, kuchlanishi belgilangan minimal qiymatdan (12 V li tarmoq uchun $6-8 \text{ V}$) kamaymagan holda, ma'lum miqdorda elektr toki berishi zarur. Akkumulatorlar batareyasining kuchlanishini pasayishining bu chegarasi, bir tomonidan startyorni dvigatelning tirsakli valini ishga tushish chastotasidan kam bo'lgan chastota bilan aylantirishini ta'minlash vazifasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o't oldirish tizimi (benzinli dvigatellar uchun) barqaror ishlashi uchun zarur bo'lgan minimal kuchlanish qiymati bilan belgilanadi.

Startyor elektrodvigatel III, tortish relesi IV va yuritma mexanizmi V dan iborat. Elektrodvigatel sifatida ketma-ket yoki aralash uyg'otish tizimiga ega bo'lgan o'zgarmas tok mashinasi ishlataladi. U quyidagi asosiy nominal parametrleri bilan tavsiflanadi: kuchlanishi U_{sn} ($12,24 \text{ V}$) quvvati R_{sn} , aylanishlar chastotasi n , burovchi momenti M_{sn} va quvvatning maksimal qiymatidagi tok I_{sn} . Startyor juda qisqa vaqt davomida ($10-15 \text{ s}$) ishlaganligi tufayli uning zanjirlaridan o'tadigan tok va maksimal quvvati uning elektrodvigateli chulg'amlarining qizib ketish xavfi bilan cheklanmaydi.

Tortish relesi yuritma shesternyasi 6 ni maxovikning tishli gardishi 7 bilan ilashishi ta'minlaydi va lappaksimon kontakt I yordamida startyor elektrodvigateli zanjirini akkumulatorlar batareyasiga ulaydi.

Yuritma mexanizmi dvigatel VI ni ishga tushirish jarayonida startyor elektrodvigateli yakoridan tirsakli valga burovchi momentni uzatish va dvigatel ishga tushgandan keyin maxovikdan elektrodvigatel yakoriga, ya'ni teskari yo'nالishda aylanma harakat uzatilishiga yo'l qo'ymaslik vazifasini bajaradi.

Dvigateli ishga tushirish tizimi quyidagicha ishlaydi. O't oldirish kalitidagi normal ochiq kontaktlar «K» tutashtirilganda, tortish relesi chulg'ami 2 dan tok o'tadi va rele elektromagnitining tortish kuchi ta'sirida o'zak 3 chulg'am ichiga tortiladi. Bu bilan bir vaqtida o'zak o'qi bilan bog'langan pishang 5, yuritma mexanizmi shesternyasi 6 ni yakor vali bo'ylab harakatlantirib maxovikning tishli gardishi 7 bilan ilashtiradi. Startyor shesternyasi maxovikning tishli gardishi bilan to'la ilashishi daqiqasida elektromagnit o'zak o'qining ikkinchi uchida joylashgan relening lappaksimon kontakti elektrdvigatel zanjirini akkumulatorlar batareyasiga ulaydi. Elektrodvigatel ishga tushadi va dvigatel tirsakli valini aylantira boshlaydi. Dvигatel ishga tushgandan so'ng «K» kontakt o'zining oldingi, ya'ni normal ochiq holiga keltiriladi va tortish relesi chulg'aming zanjiri uziladi, natijada qaytarish prujinasi 4 ta'sirida elektromagnit o'zagi o'zining dastlabki holatiga qaytadi. Bunda: tortish relesining lappaksimon kontakti startyor elektrodvigateli zanjirini akkumulatordan uzadi va pishang 5 ning harakati natijasida yuritma mexanizmining shesternyasi maxovikning tishli gardishi bilan ilashishdan chiqadi va o'zining oldingi holatiga qaytadi.

Atrof-muhit harorati -30°C dan past bo'lgan hollarda dvigatel ishga tushishi ni yengillatuvchi moslamalar qo'llaniladi. Yengillatuvchi vositalar tirsakli val-

ning aylanishga qarshilik momentini kamaytirish hisobiga uning aylanish chas-totasi oshirish, yonilgi-havo aralashmasini tayyorlash va o't oldirish sharoitla-rini yaxshilash vazifasini bajarishga mo'ljallangan moslamalardan iboratdir. Ish-ga tushirishni yengillatuvchi usul va moslamalarni tanlash dvigatel turiga, uning tuzilishidagi o'ziga xos tomonlariga, ishlatish sharoitlariga va iqtisodiy omillarga bog'liq.

2.2. DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH SHARTLARI

Dvigatelni ishonchli ravishda ishga tushirish uchun zarur bo'ladigan starty-orning quvvati asosan ikki omilga: dvigatel tirsakli valining aylanishga qarshilik momenti M_q va dvigatelni ishga tushirish aylanish chastotasi n_{it} ga, bog'liq, ya'ni:

$$P = \frac{M_q \cdot n_{it}}{9550}.$$


Qarshilik momenti. Qarshilik momenti M_q kattaligi dvigatel qismlari orasidagi ishqalanish kuchi (porshenlarni silindrлarda, tirsakli valni podshipniklarda) va silin-drлarda havoning siqilishiga bo'lgan qarshilik (dizel dvigatellarida) qiymatlari bilan belgilanadi.

Dvigatelning harakatlanuvchi qismlari orasida suyuqlikli ishqalanish bo'l-ganligi va ishqalanuvchi qismlar orasi yupqa moy qatlami bilan ajralib turganligi sababli, ishqalanish qarshiliqi qiymati ko'p darajada motor moyining temperatu-

rasiga ($t, {}^{\circ}\text{C}$) va uning qovushqoqligiga (v, sSt) bog'liq. Moy harorati pasa-yishi bilan qovushqoqligi keskin ortadi (2.2-rasm) va demak, dvigatelning qarshilik momenti ham oshadi.

Dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi oshishi bilan ishqalanuvchi yuzalar orasidagi yupqa moy qatlamlaridagi tezlik gradientining o'sishi, silindrдagi bosimning ortishi va podshipniklarga tushayotgan yuklamaning kuchayishi tufayli qarshilik momenti (ayniqsa, past temperaturalarda) sezi-larli darajada ortadi (2.3-rasm).

Muayyan turdag'i dvigatelning qarshilik momentini eksperimental va hisoblash yo'li bilan aniqlash mumkin. Eksperimental usul uzoq vaqt va mashaqqatli mehnat, bir qator murak-



2.2-rasm. Motor moylari qovushqoqligining temperaturaga bog'liqligi:

1 – M-8B; 2 – M-10Г3; 3 – M-6B3.

kab tajribalar o'tkazilishini talab qiladi. Turli xil dvigatellarning qarshilik momentini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan ko'p sonli ilmiy tajribalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlab chiqish natijasida qarshilik momentini analitik usul bilan hisoblash uchun bir qator empirik ifodalar olingan, ular umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega:

$$M_q = k \cdot A \cdot v^x \cdot n_d^y. \quad (2.1)$$

Bunda: k – doimiy koefitsiyent; A – ishqalanish yuzalarini ifodalovchi kattalik; v – moyning qovushqoqligi; n_d – tirsakli valning aylanish chastotasi; x va y – dvigatel turiga bog'liq bo'lgan daraja ko'rsatkichlari.


Ishga tushirish aylanish chastotasi. Startyor dvigatelni ishga tushirish vaqtida, ya'ni tirsakli valni majburiy ravishda aylantirish jarayonida quyidagi qarshiliklarni yengishi zarur. Avvalo, startyor dvigatel va uning qo'shimcha mexanizmlaridagi harakatlanuvchi qismlarning ishqalanish kuchlari ta'sirida vujudga kelgan momentlarni yengishi kerak. Ayniqsa, past temperaturada moyning qovushqoqligi ortib, dvigatel qismlarining ishqalanish qarshiligi kuchayganda, bu momentining qiymati ancha katta bo'ladi.

Ishga tushirish vaqtida startyor dvigatelnning aylanuvchi qismlarini va asosan uning maxovigi inersiyasini yengishi kerak. Bundan tashqari, silindrлarda ishchi aralashmani siqishdan hosil bo'ladigan moment ham hisobga olinmog'i zarur.

Demak, tirsakli valni majburiy ravishda aylantirish uchun startyor ancha katta burovchi momentga ega bo'lishi kerak. Bu momentning qiymati, albatta, dvigatelnning turiga, ishchi hajmi va silindrлar soniga bevosita bog'liq.

Dvigatelnning ishonchli ravishda ishga tushishi uchun tirsakli valni aylantirish chastotasi ma'lum belgilangan eng kichik qiymatdan kam bo'lmasligi kerak. Benzinli dvigateli 10 s, dizel dvigatelin 15 s davomida, ikki urinishda (urinishlar oraligidagi vaqt – 1 daqiqa) ishga tushib ketishini ta'minlovchi aylanish chastotasi dvigatelnning **minimal ishga tushish aylanish chastotasi** deb ataladi. Uning qiymati dvigatelnning silindrлar soniga, ularning joylashishiga, temperaturaga, moyning qovushqoqligiga, yonilg'i sifatiga bog'liq.

Benzinli dvigatelnning tirsakli vali minimal ishga tushish chastotasi bilan aylantirilganda, kiritish quvurida zarur siyraklanish hosil qilinishi va yonilg'i-havo aralashmasini kondensatsiya bo'lmasdan, yetarli tezlik bilan yonish kamerasiga kiri-



2.3-rasm. Qarshilik momentini dvigatelnning aylanishlar chastotasi va moy temperurasiga bog'liqligi

shi ta'minlanadi. Benzinli dvigatellar uchun ishga tushirish chastotasining minimal qiymati $40\text{--}60 \text{ min}^{-1}$ ni tashkil qiladi.

Dizel dvigatellarida ishga tushirish chastotasi yuqoriroq bo'ladi, chunki silindrqa purkaladigan yonilg'i o'z-o'zidan o't olishi uchun siqish taktining oxirida havoning temperaturasini yetarli darajada ($600\text{--}700^\circ\text{C}$) katta bo'lishi zarur. Dvigatelni muvaffaqiyatlari ishga tushirish uchun havoni siqish jarayoni tez sodir bo'lishi kerak. Aks holda, havoning siqilishi natijasida ajralgan issiqlikning ko'p qismi silindr devorlari orqali sovitish suyuqligiga (yoki havoga) o'tib ketadi va siqilish takti oxirida havoning temperaturasini zarur qiymatga erishmaydi. Bundan tashqari, ishga tushish chastotasi yonilg'i so'rg'ichi (nasiisi) me'yorida ishslashini ta'minlab, yonilg'ini purkash uchun zarur bosim hosil qilishi kerak.

Yonilg'i bevosita yonish kamerasiga purkaladigan dizel dvigatellarida ishga tushish chastotasining minimal qiymati $100\text{--}150 \text{ min}^{-1}$, ajratilgan yonish kamerasiga (old kamera, uyurmali kamera va hokazo) ega bo'lgan dizel dvigatellarida esa $150\text{--}250 \text{ min}^{-1}$ oralig'ida qabul qilingan.

Dvigatelni ishonchli ishga tushirish mumkin bo'lgandagi atrof-muhitning eng past harorati, ishonchli ishga tushirishning chegaraviy temperaturasi deb ataladi. Chegaraviy temperaturaning qiymati benzinli dvigatellar uchun moyning qovush-qoqligiga qarab $-20\text{...}25^\circ\text{C}$, dizel dvigatellar uchun esa $-12\text{...}17^\circ\text{C}$ ni tashkil qiladi. Harorat bundan ham pasaysa, dvigatelni ishga tushirishni yengillatuvchi maxsus moslamalar qo'llaniladi.

2.3. STARTYOR ELEKTRODVIGATELINING ELEKTROMEXANIK TAVSIFNOMASI

Startyor elektrodvigatelining elektromexanik tavsifnomasi deb, uning asosiy parametrlarining (kuchlanish U_s , aylanish chastotasi n , burovchi moment M_s , quvvat P_s) iste'mol toki I_s ga bog'liqligiga aytildi.

Elektromexanik tavsifnomasi startyor ish rejimining o'ziga xos tomonlari bilan belgilanadi:

a) iste'mol toki quvvati cheklangan akkumulatorlar batareyasidan olinganligi tufayli startyor qisqichlaridagi kuchlanish doimiy qiymatga ega bo'lmaydi va yuklama ortishi bilan ma'lum chegaragacha kamayadi;

b) startyor qisqa vaqt davomida ($10\text{--}15 \text{ s}$) ishlaganligi uchun uning quvvati elektrodvigatel chulg'amlarining qizib ketish xavfi bilan cheklanmaydi va tavsifnomasidagi maksimal qiymat bilan belgilanadi;

d) startyor to'la tormozlanish (yoki qisqa tutashish) va salt yurish rejimlarida ishslashga mo'ljallangan va uning qismlari bu chegaraviy rejimlarda yuzaga keladigan yuklamalarga chidamli qilib hisoblangan va yasalgan.

Odatda, startyorlarda ketma-ket uyg'otish tizimiga ega bo'lgan elektrosvigatellar ishlataladi, ba'zi hollarda elektrosvigatelning aylanishlar chastotasini chegaralash maqsadida aralash uyg'otish tizimi ham qo'llaniladi.

Elektrotexnika kursidan ma'lumki, ketma-ket uyg'otish tizimiga ega bo'lgan o'zgarmas tok elektrosvigatelining yakor validagi elektromagnit burovchi moment quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$M_{elm} = \frac{p \cdot N}{2\pi \cdot a} \cdot I_s F = c_m \cdot I_s \cdot F \quad (2.2)$$

Bu yerda: p – just qutblar soni; N – yakor chulg'ammlaridagi o'tkazgichlar soni; a – yakor chulg'amidagi parallel tarmoqli juftlar soni; I_s – yakor chulg'amidagi tok; F – elektrosvigateldagi havo tirqishi va yakordan o'tuvchi asosiy magnit oqimi; $c_m = rN/2a$ – elektrosvigatelning faqat konstruktiv tuzilishiga bog'liq bo'lgan koeffitsiyent.

Startyorning burovchi momenti – M_s , elektrosvigatel yakor validagi elektromagnit burovchi momenti M_{elm} dan podshipnik va cho'tkalardagi mexanik isroflar qiymati M_{nex} ga kam bo'ladi, ya'ni:

$$M_s = M_{elm} - M_{nex} = c_m \cdot I_s \cdot F - M_{nex} \quad (2.3)$$

Mexanik isroflar qiymatini taqriban o'zgarmas deb qabul qilinsa, startyorning burovchi momenti elektrosvigatelnning konstruktiv parametrlariga, undagi asosiy uyg'otish magnit oqimiga va yakor chulg'amidagi tok qiymatlariga bog'liqligi ravshan bo'ladi.

Yakorning aylanishlar chastotasi n ni yakor chulg'ammlarida induksiyalanadigan teskari EYuKni aniqlash formulasidan topsa bo'ladi:


$$E_{ya} = \frac{p \cdot N}{a \cdot 60} \cdot n \cdot F = c_e \cdot n \cdot F \quad (2.4)$$

Demak:

$$n = \frac{E_{ya}}{c_e \cdot F}. \quad (2.5)$$

Yakorning aylanishlar chastotasi ortishi bilan uning chulg'ammlarida qiymati oshib boradigan teskari EYuK – E_{ya} induksiyalanadi va u akkumulator kuchlanishiga qarshilik ko'rsatib, yakor chulg'amidagi va unga ketma-ket ulangan uyg'otish chulg'amidagi tok kuchini kamaytiradi. Natijada, uyg'otish magnit oqimi F kamayib, yakorning aylanish chastotasi yo'l qo'yib bo'lmaydigan katta qiymatgacha ortib ketishi mumkin. Bu – podshipniklarni, cho'tka va kollektorni me'yordan ortiq yeyilishga olib keladi. Bundan tashqari, markazdan qochma kuch ta'sirida yakor o'zagidagi o'tkazgichlar va kollektor plastinalari sochilib ketishi ham mumkin.

Salt holda ishlaganda, elektrosvigatel yakorining aylanishlar chastotasini cheklash maqsadida, ba'zi startyorlarda (Ct.221, 29.3708) uyg'otish chulg'ammlarini ara-



2.4-rasm. Startyor elektrosvigatelinining tok zanjirini hisoblash sxemasi

Startyor elektrosvigatelinining tok zanjirini hisoblash sxemasidan (2.4-rasm), Kirxgof qonuniga asosan:

$$E_{s,a} = E_b - I_s (R_b + R_z + R_s). \quad (2.6)$$

Bunda, R_b – akkumulator batareyasining ichki qarshiligi; R_z – tok zanjiridagi o'tkazgichlar $R_{o,nk}$ va «massa» R_m qarshiligi; $R_s = R_{uch} + R_{ya} + 2R_{ch}$ – elektrosvigatelning umumiyligi ichki qarshiligi; R_{uch} – uyg'otish chulg'amlarining qarshiligi; R_{ya} – yakor chulg'amlarining qarshiligi; $2R_{ch}$ – cho'tka va cho'tka bilan kollektor orasidagi kontakt qarshiligi.

Akkumulator batareyasi qisqichlaridagi kuchlanish:

$$U_b = E_b - I_s R_b, \quad (2.7)$$

Startyor qisqichlaridagi kuchlanish:

$$U_s = U_b - I_s R_z, \quad (2.8)$$

Startyorning tok zanjiridagi kuchlanishining pasayishi 1000 A hisobiga 2 V dan ortmasligi, ya'ni o'tkazgichlar va «massa» ning qarshiligi $0,002 \Omega$ dan kam bo'lishi kerak.

Cho'tka bilan kollektor orasidagi kontakt qarshiligi R_{ch} yakor ning aylanishlar chastotasiga va undagi tok qiymatiga bog'liq. Elektrosvigatellarni hisoblashda cho'tka kontaktlaridagi kuchlanish pasayishi doimiy deb qabul qilinadi va qo'llanadigan cho'tkalarning turiga qarab $1,5\text{--}2,5 \text{ V}$ ga teng olinadi.

Startyor elektrosvigatelinining elektromagnit quvvati, elektromagnit burovchi moment M_{elm} ni yakor aylanishining burchak tezligi ω ga ko'paytmasi bilan aniqlanadi:

$$P_{elm} = M_{elm} \cdot \omega, \quad (2.9)$$

$\omega = \frac{2\pi \cdot n}{60}$ ekanligini hamda (2.2) va (2.5)larni hisobga olsak:

$$P_{elm} = M_{elm} \cdot \frac{2\pi \cdot n}{60} = \frac{p \cdot N \cdot 2\pi \cdot 60 \cdot a \cdot E_{ya} \cdot I_s}{2\pi \cdot a \cdot 60 \cdot p \cdot N} = E_{ya} \cdot I_s. \quad (2.10)$$

Bu ifodaga E_{ya} ning (2.6) dagi qiymatini qo'ysak:

lash ulash sxemasi qo'llaniladi, ya'ni uyg'otish g'altaklarining bir qismi parallel, ikkinchi qismi ketma-ket ulanadi. Bunday ularish sxemasida yakorning teskari EYuK uyg'otish chulg'a mining parallel ulangan g'altaklaridagi tokka qarshilik ko'rsata olmaydi, uyg'otish magnit oqimi F ning qiymati yetarli darajada katta bo'ladi va bu, yakorning aylanish chastotasini cheklaydi.

$$P_{elm} = I_s E_b - I_s^2 (R_b + R_z + R_s). \quad (2.11)$$

Elektromagnit quvvatning (2.11) ifodasi simmetrik parabola bo'lib, u quyida-
gi ildizlarga ega:

$$I_{s1} = 0 \text{ va } I_{s2} = \frac{E_b}{R_b + R_z + R_s} = I_{qt}. \quad (2.12)$$

Bunda: I_{qt} – startyor elektrodvigateli to‘la tormozlangan rejimdagи «qisqa tutashuv toki» nomi bilan yuritiladigan tok. Bu rejimda yakor aylanishlar chastotasi n_s va yakor chulg‘amlarida induksiyalangan teskari EYuK – E_{ya} nolga teng bo‘ladi.

$P = f(I_s)$ funksiyaning (2.11) ekstremal qiymati, elektrodvigatelning maksimal quvvatiga to‘g‘ri keladigan yakor tokini aniqlash imkonini beradi:

$$I_{P_{max}} = \frac{E_b}{2(R_b + R_z + R_s)} = 0,5 \cdot I_{qt}. \quad (2.13)$$


Demak, startyorning elektrodvigateli o‘zining maksimal quvvatiga qisqa tutashuv tokining yarim qiymatida erishadi.

$I_{P_{max}}$ ning (2.13)dagи qiymatini elektromagnit quvvatning ifodasi (2.11)ga qo‘ysak, elektrodvigatelning maksimal elektromagnit quvvatini aniqlash ifodasi hosil bo‘ladi:

$$\begin{aligned} P_{elm_{max}} &= I_{P_{max}} E_b - I_{P_{max}}^2 (R_b + R_z + R_s) = \\ &= \frac{E_b^2}{4(R_b + R_z + R_s)} = \frac{1}{4} E_b I_{qt}. \end{aligned} \quad (2.14)$$

Startyorning elektromexanik tavsifnomasi 2.5-rasmida keltirilgan. Elektrodvigatelning iste’mol toki ortishi bilan uyg‘otish magnit oqimi F ham magnitlanish egri chizig‘i bo‘ylab ortib boradi.

Yuklama qiymati kam bo‘lganda magnit oqiminining o‘sishi tokning ortishiga proporsional bo‘ladi, yuklama qiymati ortishi bilan po‘latning magnit to‘yinishi natijasida tavsifnomaning bu qismida magnit oqimi juda ham sekin o‘sadi va amalda uni doimiy deb hisoblasa bo‘ladi. Startyor validagi burovchi moment M_s yuklama tok past bo‘lganda parabola bo‘ylab, yuklama ortishi bilan



2.5-rasm. Startyorning elektromexanik tavsifnomasi

tok qiymatiga proporsional holda ortadi va o‘zining eng katta qiymatiga startyor to‘la tormozlangan rejimda, ya’ni qisqa tutashuv tokida erishadi. Startyorning salt ishlash rejimiga to‘g‘ri keladigan tok qiymatida, ya’ni $I = I_0$ bo‘lganda burovchi moment M_s ning qiymati nolga teng bo‘ladi, yakor aylanishlar chastotasi n_s esa maksimal qiymatga erishadi. Startyorga yuklama berishning boshlang‘ich qismida yakorning aylanishlar chastotasi taxminan giperbola bo‘yicha kamayadi, yuklama qiymati $I > 0,5 I_{qf}$ dan ortganda, aylanish chastotasining tavsifnomasi deyarli to‘g‘ri chiziq ko‘rinishiga o‘tadi va nihoyat $I = I_{qf}$ bo‘lganda, ya’ni to‘la tormozlanish rejimida $n_s = 0$ bo‘ladi.

Startyor validagi mexanik quvvat P_s elektrdvigatelining elektromagnit quvvati P_{elm} dan mexanik, magnitli isroflar qiymaticha kam bo‘ladi:

$$P_s = P_{elm} - P_{mex} - P_{mag}$$

Bunda: P_{mex} – podshipnik va cho‘tkalardagi ishqalanishga isrof bo‘lgan quvvat; P_{mag} – yakorning po‘lat o‘zagini qayta magnitlashga va undagi uyurma toklarga isrof bo‘lgan quvvat.

Startyolarning elektromexanik tavsifnomasida quyidagi rejimlar alohida ahamiyatga ega:

– **salt ishlash rejimi** – bu rejimda yakorning aylanish chastotasi eng katta qiymatga ($n_s = n_{max}$) ega bo‘ladi, burovchi moment qiymati nolga ($M_s = 0$), tok qiymati salt ishlash tokiga ($I_s = I_0$) teng bo‘ladi;

– **startyor validagi quvvatning maksimal qiymatidagi nominal rejim**. Aynan shu rejimda startyorning nominal parametrlari belgilanadi: quvvati P_{sn} , burovchi momenti M_{sn} , aylanishlar chastotasi n_{sn} va nominal toki I_{sn} . Nominal rejimda startyor qisqichlaridagi kuchlanish qiymati berilmaydi, lekin odatda, u akkumulatorlar batareyasining qisqichlaridagi kuchlanish U_b ning taxminan 75 %ni tashkil qiladi. Masalan, 12 V li startyorlar uchun $U_s = 8 V$ bo‘ladi;

– **to‘la tormozlanish rejimi**. Bu rejimda tokning qiymati qisqa tutashuv tokiga ($I = I_{qf}$), burovchi moment maksimal qiymatiga ($M_s = M_{max}$), aylanish chastotasi nolga ($n_s = 0$) teng bo‘ladi.

Salt ishlash va to‘la tormozlanish rejimlari – nazorat rejimlari bo‘lib, ularning ko‘rsatkichlari startyolarning texnik holatini tekshirish uchun xizmat qiladi.

Elektrolit temperaturasining pasayishi yoki kuchli zaryadsizlanish natijasida akkumulatorlar batareyasining sig‘imi kamayib, dvigateli ishga tushirish tavsifnomasi yomonlashadi, ya’ni startyorning quvvati va burovchi momenti kamayadi.

2.4. STARTYOLARNING TUZILISHI VA ISHLASH PRINSIPI

Avtomobil elektrostartyorlarining uyg‘otish va boshqarish usulini yuritma mexanizmining turi va atrof-muhit ta’siridan himoya qilinganlik darajasi bo‘yicha tasniflash mumkin.

Startyorlarda uyg'otish uslubiga qarab ketma-ket va aralash uyg'otish tizimli elektrosvigatellar qo'llaniladi. Dvigatelni ishga tushirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tortish xususiyatlari ustunligi tufayli ketma-ket uyg'otish tizimli elektrosvigatellar ancha keng qo'llaniladi. Startyor salt ishlaganda, uning yakori ayanish chastotasini cheklash maqsadida, ba'zan aralash uyg'otish tizimli elektrosvigatellar ham ishlatiladi (masalan, Ct.221, 26.3708 belgili startyorlarda). Keyingi vaqt-da ba'zi startyorlarda doimiy magnit yordamida uyg'otiladigan elektrosvigatellar ham ishlatilmoqda. Bu elektrosvigatellarning tuzilishi sodda, uyg'otish chulg'arni bo'Imaganligi tufayli elektroenergiyani nisbatan kam iste'mol qiladi. Ammo, bu elektrosvigatellar va ichki yonuv dvigatellarning mexanik tafsifnomalari bir-biriga yaxshi mos tushmaydi. Shu sababli, doimiy magnitli elektrosvigatellar kam quv-vatli startyorlarda qo'llaniladi.

Barcha turdag'i startyorlarning elektrosvigatellari deyarli bir xil tuzilgan bo'lsa, ulardagi yuritma mexanizmlari tuzilishi va ishlashi bo'yicha bir-biridan ko'p jihat-dan farq qilishi mumkin.

Yuritma mexanizmlarning turi va ishslash prinsipi bo'yicha quyidagi guruuhlarغا ajratish mumkin:

- yuritma shesternyasini mexanik yoki elektromexanik usulda majburiy ravishda harakatlantirish;
- shesternyani elektromexanik usulda majburiy ravishda maxovikning tishli gardishiga ilashtirish va dvigatel ishga tushgandan keyin shesternyani avtomatik ravishda ilashuvdan chiqarish;
- shesternyani inersiya kuchi ta'sirida harakatlantirish;
- shesternyani elektromagnit kuchlar ta'sirida, ya'ni elektrosvigateli yakorining harakatlanishi hisobiga ilashuvga kiritish.

Hamdo'stlik mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan avtomobilarda, asosan, yuritma shesternyasini elektromexanik usulda majburiy harakatlantirish hisobiga ilashuvga kiritish prinsipida ishlaydigan startyorlar qo'llanilgan (2.6-rasm).

Bu turdag'i startyorlarda dvigatel ishga tushgandan keyin teskari burovchi moment ta'sirida yakor o'zaklari va chulg'amlari sochilib ketmasligi uchun erkin yurish muftasi o'rnatiladi. Erkin yurish muftasi burovchi momentni bir tomonlama, ya'ni startyor yakoridan shesternyaga va u orqali dvigatel maxovigiga uzatadi. Dvigatel ishga tushib, shesternya maxovik tomonidan aylantirilganda, erkin yurish muftasi sirg'aladi va teskari tomonqa, ya'ni shesternyadan yakor valiga harakatni uzatmaydi.


Startyorlarning quvvati ortishi bilan erkin yurish muftalarining ishonchlilik darajasi kamayadi. Shuning uchun, quvvati katta bo'lgan va asosan dizel dvigatellariiga o'rnatiladigan startyorlarda shesternyani ilashtirish majburiy, dvigatel ishga tushgandan keyin ilashishdan chiqarish avtomatik ravishda amalga oshriladigan yuritma mexanizmlari qo'llaniladi.

Shesternysi inersiya kuchlari ta'sirida ilashuvga kiradigan va undan chiqadi-

gan yuritma mexanizmlar tuzilishi soddaligi, o'lchamlari kichik va tannarxi pastligi bilan tavsiflanadi. Ammo bu turdag'i yuritma mexanizmlarida ilashuv jarayoni shesternyani maxovikning tishli gardishiga kuchli uralish hollari bilan bog'liq. Shuning uchun, bu turdag'i yuritma mexanizmlarning qo'llash doirasasi quvvati 1 kW gacha bo'lgan startyorlar bilan cheklangan.

Elektrodvigatel qutblarining magnit yuritish kuchlari ta'sirida yakorni harakatga keltirib, shesternyani ilashtirish prinsipiiga asoslangan startyorlar, asosan, xorijiy mamlakat avtomobillarida qo'llaniladi. Bu yuritma mexanizmi quvvati 3–5 kW bo'lgan startyorlarga o'rnatiladi. Bunday yuritma mexanizmi o'rnatilgan startylarning tuzilishi ixcham, dvigatelga mahkamlash qulay bo'ladi, ammo ularda qimmatbaho mis nisbatan ko'p ishlatalishi va avtomobillar qiyalikda turganda yuritma mexanizmining ishonchilik darajasining pasayishi (yakorning og'irlilik kuchi ta'sirida) ularning asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

Startyorlar tuzilishini Cr130-A3 belgili (Rossiya) startyor misolida ko'rish mumkin. Startyor (2.6-rasm) quyidagi detallardan tashkil topgan: qutb boshmoqlari 22 va uyg'otish chulg'amining g'altaklari 21 o'rnatilgan qobiq 15; asosiy chulg'am 20 va kollektor 18 joylashtirilgan yakor 16; erkin yurish muftasi 12, shesterna 11 va bufer prujinasi 13 ni o'z ichiga olgan yuritma mexanizmi; elektromagnit tor-



2.6-rasm. Cr130-A3 belgili startyor:

- 1 – tortish relesining kontaktlari; 2 – o't oldirish g'altagini qo'shimcha qarshiligini ulovchi kontakt; 3 – tortish relesining chulg'amlari; 4 – tortish relesining yakori; 5 – rostlash vint-tortqichi; 6 – himoya qobiq'i; 7 – pishang; 8 – shesternyaning yurish doirasini rostlash vinti; 9 – yuritma tomondagi qopqoq; 10 – tiralish halqasi; 11 – shesterna; 12 – erkin yurish muftasi; 13 – prujina; 14 – yetaklash muftasi; 15 – qobiq; 16 – yakor; 17 – himoya tasmasi; 18 – kollektor; 19 – kollektor tomondagi qopqoq; 20 – yakor chulg'ami; 21 – uyg'otish chulg'ami; 22 – qutb boshmog'i.

tish relesi; yuritma va kollektor tomonidagi qopqoqlar 9, 19; cho'tkalar o'rnatilgan cho'tkatutqichlar.

Startyor qobig'i yaxlit tortilgan quvurdan yoki po'lat tilimni kavsharlash yo'li bilan tayyorlanib, elektrosvigatel magnit sistemasining bir qismini tashkil qilishi bilan birga startyor qopqoqlari mahkamlanuvchi qurilma xizmatini ham bajaradi. Qobiqning ichki yuziga vintlar yordamida to'rtta qutb boshmoqlari 22 mahkamlanadi. Yakor va qutb boshmoqlari orasida doimiy tirqish bo'lishini ta'minlash maqsadida qutb o'zagining ichki yuzi yo'niladi. Qutb boshmoqlariga uyg'otish chulg'amining g'altaklari 2/ o'rnashtirilgan. G'altaklar soni qutblar soniga teng, ya'ni ular ham to'rtta. Ketma-ket ulangan uyg'otish chulg'amining g'altaklari ko'ndalang kesimi to'rt burchak bo'lgan, izolyatsiya qilinmagan ПММ markali mis simdan o'raladi. Ba'zan misni kamroq ishlatish va startyorning massasini kamaytirish maqsadida g'altaklar aluminiy simlaridan o'raladi. Bunda: g'altaklar bir-biriga sovuq kavsharlash yo'li bilan ulanadi.


Soni uncha ko'p bo'lмаган g'altak o'ramlari bir-biridan 0,2–0,4 mm qalinligi elektrkarton bilan ajratiladi. G'altaklar tashqi tomonidan lok singdirilgan paxta ip yoki polimer tasmalar bilan izolyatsiya qilinadi. Ketma-ket uyg'otish tizimli startyorlarda g'altaklar ketma-ket, juft-parallel yoki parallel usulda ulanishi mumkin. Aralash uyg'otish tizimli startyorlarda parallel ulangan uyg'otish chulg'amining g'altaklari emal izolyatsiyali, yumaloq kesimli mis simdan o'raladi.

Tok uyg'otish chulg'amiga elektrmagnit tortish relesining asosiy kontaktlari 1 orqali qobiq yoki kollektor tomonidagi qopqoqlar o'rnatilgan izolyatsiya vtulkadan o'tgan ko'p tolali sim (yoki mis shina) bo'ylab keladi.

Startyor yakori 16 po'lat valning ariqchalari bo'ylab o'rnatilgan, qalinligi 1,0–1,2 mm bo'lgan po'lat plastina paketlardan iborat o'zak, paket o'zaklar oralig'iga joylashtirilgan asosiy chulg'am 20 va startyor valiga presslangan kollektor 18 dan iborat. Yakor o'zagining yupqa plastina paketlardan tayyorlanishi, ularda uyurma toklarga bo'ladigan isrofni kamaytiradi.

Startyor elektrosvigatelinining yakorlarida bir va ikki o'ramli seksiyadan iborat oddiy to'lqinsimon yoki halqasimon chulg'amlar qo'llaniladi. Bir qator afzalliklari borligi tufayli startyor yakorlarida ko'proq to'lqinsimon chulg'amlar qo'llanilgan. Yakor chulg'amining bir o'ramli seksiyasi izolyatsiya qilinmagan, kesim yuzi to'rtburchak bo'lgan PMM markali simdan tayyorlanadi. Ikki o'ramli seksiya chulg'amlari esa yumaloq kesimli izolyatsiya qilingan simdan o'raladi. Yakor ariqchalari ochiq, yarim ochiq holda tayyorlanib, ular to'g'ri to'rtburchak yoki noksimon ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin (2.7-rasm).

To'g'ri to'rtburchak ko'rinishdagi ariqchalarga kesim yuzi to'rtburchak bo'lган simlar yaxshi joylashadi. Bu holda simlar ikki qatlam ko'rinishida joylashtiriladi va ular bir-biridan va yakor o'zagidan «S» simon shakldagi elektrkarton yoki polimer plenka yordamida izolyatsiya qilinadi. Noksimon ko'rinishga ega bo'lgan ariqchalar, asosan, chulg'amlari ikki seksiyali o'ramlarga ega bo'lgan, quvvati kat-



2.7-rasm. Startyor yakori ariqchalariniнг схемаси:

a – очиқ; b – жарып очиқ; 1 – yakor chulg‘amining simi, 2 – ariqchadagi izolyatsiya, 3 – pona.

massa asosli silindrsimon va ko‘ndalang kollektor ishlataladi (2.8-rasm).


Quvvati katta bo‘lgan startyorlarda qo‘llaniladigan yig‘ma silindrsimon kollektorlar (2.8- a rasm) alohida mis plastinalardan yig‘ilib, bir-biridan qalinligi 0,4–0,9 mm bo‘lgan mikanit, slyudinit yoki slyudoplastdan tayyorlangan qistirmalar, yakor valiga presslangan metall vtulka 3 dan esa, silindrsimon mikant vtulka 4 yordamida izolyatsiya qilinadi. Kollektorning mis plastinalari 5 ikkala tomonda joylashgan konussimon siquvchi metall halqalari 1, konussimon izolyatsiya halqalari 2 va gayka 6 yordamida siqib mahkamlanadi.

Quvvati 3,5 kW gacha bo‘lgan startyorlarda o‘rnatiladigan plastmassa asosli silindrsimon kollektorlarda (2.8- b rasm) plastmassa – kollektorni shakllantiruvchi element bo‘lib, mis plastinalarni yakor validan izolyatsiya qiladi va yuklama ta’sirini qabul qiladi. Kollektorning mustahkamligini oshirish maqsadida plastmassa asosga metalldan ishlangan sinch halqlar 7 joylashtirilgan.

Ko‘ndalang kollektorlarning (2.8- c rasm) ishchi yuzasi yakorning aylanish o‘qiga tik holda joylashtiriladi. Ularning o‘lchamlari kichik va mis nisbatan kam ishlataladi. Kollektorning har bir plastinasining orqa tomonida halqa bo‘ylab tayanch tumshuqlar ishlangan va ularga plastmassa asos presslangan. Bu kollektorning yuqori mexanik mustahkamligini ta’minlaydi. Bu turdagи kollektorlarda cho‘tkali kontaktlar uzoq va barqaror ishlaydi. Ko‘ndalang kollektorlarning qo‘llanilishi startyorlarning umurniy uzunligini va massasini kamaytirish imkonini beradi.

ta bo‘lmagan startyorlarda qo‘llaniladi. Yakor chulg‘amlarining kollektor tomonidagi qismiga (peshana qismiga) bir necha o‘ram po‘lat simdan, sintetik lok singdirilgan paxta ip yoki shisha tolasidan tayyolangan chilvirdan belbog‘ qo‘yiladi. Yakor chulg‘ami seksiyalarining uchi kollektor plastinalari orasidagi ariqchaga kiritiladi, chekiladi va payvandlanadi.

Startyorlar ishchonchli ishlashi nuqtai nazaridan elektrdvigatellarning eng muhim qismi mis plastinalardan yig‘ilgan kollektor hisoblanadi. Yakorning aylanishlar chastotasi yuqori, cho‘tkali kontaktlardan o‘tayotgan tok zichligi katta va vibratsiya (titrash) mavjud bo‘lganligi tufayli kollektorlarga qiymati anchra katta bo‘lgan mexanik, issiqlik va elektr yuklamalar ta’sir ko‘rsatadi. Startyorlarda metall vtulkaga joylashtirilgan yig‘ma silindrsimon, plast-




2.8-rasm. Startyorlarning kollektorlari:

a – yig‘ma silindrsimon, metall vtulkada; b – silindrsimon, plastmassa asosda; c – ko‘ndalang, plastmassa asosda. 1 – konussimon siuvchi halqalar; 2 – konussimon izolyatsiya halqalar; 3 – metall vtulka; 4 – izolyatsiya trubkasi; 5 – kollektor plastinalari; 6 – gayka; 7 – metall sinch halqalar; 8 – plastmassa asos; 9 – izolyatsiya plastinasi.

Startyoring kollektor tomonidagi qopqog‘i cho‘yandan, po‘latdan, aluminiyidan yoki rux qotishmasidan quyiladi, ba‘zan esa, po‘latdan shtamplash yo‘li bilan tayyorlanadi. Qopqoqqa yoki traversaga parchinlash yo‘li bilan yoki vintlar yordamida cho‘tkatutqichlar o‘rnataladi. Cho‘tkatutqichlar qopqoqdan tekstolit yoki boshqa turdag‘ izolyatsiya materialidan tayyorlangan va qalinligi 1,5–2,0 mm bo‘lgan qistirma yordamida ajratiladi. Cho‘tkatutqichlar cho‘tkalar to‘g‘ri joylashishini va ular zarur kuchlanish bilan kollektorning ishchi yuziga bosilib turilishini ta‘minlaydi. Ko‘ndalang kollektorli startyorlarda (2.9-rasm) cho‘tkalar 6 plastmassa yoki temir traversga joylashtiriladi va kollektorning ishchi yuziga o‘rama silindrsimon prujinalar 4 vositasi bilan bosib turiladi.

Startyorlarda qo‘rg‘oshin va qalay qo‘shilgan mis-grafit cho‘tkalar ishlataladi. Cho‘tkalar tarkibidagi qo‘rg‘oshin va qalay kollektor yeyilishini kamaytiradi va cho‘tka kontaktlaridagi qarshilikni pasaytiradi. Quvvati katta va tok zichligi yuqori bo‘lgan startyorlarga tarkibida grafit miqdori yuqoriroq bo‘lgan cho‘tkalar o‘rnataladi.

Startyolarning yuritma mexanizm tomonidagi qopqoqlari aluminiy qotishmasidan yoki cho‘yandan quyiladi. Qopqoqning konstruksiyasi uning qanday materialdan tayyorlanganligiga, yuritma mexanizm turiga, startyorni dvigateunga mahkamlash usuliga va tortish relesining tuzilishiga bog‘liq. Odatda startyor, dvigatele karterining yon tomonida joylashtirilib, yuritma tomonidagi qopqog‘i maxovik tomonga qaratiladi va uning ilashish mexanizmi karteridagi tirqishga kira-di. Startyorni dvigatelda mahkamlash usuli, startyor yechilganda va qayta joyi-




2.9-rasm. Ko'ndalang kollektorli 26.3708 belgili startyor:

- 1 – kollektor tomonidagi qopqoq; 2 – shayba; 3 – kollektorning plastmassa asosi; 4 – silindrsimon prujina; 5 – kollektor plastinasi; 6 – cho'tka; 7 – uyg'otish chulg'ami; 8 – tortish relesining qopqog'i; 9 – tortish relesining qobig'i; 10 – tortish relesining tor-tuvchi chulg'ami; 11 – tortish relesining ushlab turuvchi chulg'ami; 12 – tortish relesining yakori; 13 – qaytarish prujinasи; 14 – yuritma pishangi; 15 – pishang o'qi; 16 – yuritma tomonidagi qopqoq; 17 – bufer prujina; 18 – yuritma shesternyasi; 19 – podshipnik; 20 – quplovchi halqa; 21 – tirkalish halqasi; 22 – erkin yurish muftasi; 23 – yakor vali; 24 – startyor qobig'i; 25 – elektrdvigatel yakori.

ga qo'yilganda yuritma shesternyasi va maxovik o'qlarining markazlari orasidagi masofaning o'zgarib ketmasligini ta'minlashi zarur. Bu talabga gardishli (flanets-li) mahkamlash usuli ko'proq javob beradi. Gardishli mahkamlash usulida startyoring yuritma mexanizmi tomonidagi qopqog'ida maxsus o'rnatish gardishi bo'lib, unda mahkamlash boltlari uchun mo'ljallangan ikki yoki uchta teshik va to'g'ri o'rnatish chiqiq'i mavjud bo'ladi. Qopqoqda yuritma shesternyasi maxovikning tishli gardishi bilan ilashishi uchun imkon beradigan maxsus tirqish qoldirilgan.

Plunjер-rolikli muftalarda (2.10-rasm) shlitsali vtulka 1 ga yetakchi halqa 4 qotirib mahkamlangan, yetakchi halqada to'rtta ponasimon ariqchalar bo'lib, ularغا roliklar 3 o'rnatilgan. Prujina 10 va plunjер 9 roliklarni ariqchalarining tor qismiga siqib turadi. Shesternya 8 yetaklanuvchi halqa 7 bilan butun qilib yasalgan. Prujinalar surilib ketmasligi va bosim kuchlanishining barqarorligini ta'minlash uchun ular maxsus tirkalish halqlari 11 ga o'rnatilgan. Tirkalish shaybalari 5 va 6 roliklar-




2.10-rasm. Plunjер-rolikli erkin yurish muftasi

ning o‘q bo‘ylab siljishini cheklaydi. Mufta yupqa metall qobiq 2 bilan qoplangan. Mexanik mustahkamligini va yeyilishga chidamliligini oshirish maqsadida yuritma shesternysi va mufta halqalari kuchli legirlangan po‘latlardan tayyorlanadi.

Tortish relesining yakori bilan bog‘langan pishang yordamida yuritma shesternysi maxovikning tishli gardishiga to‘la ilashganda va startyor chulg‘amlariga tok ularни, u ishga tushganda aylantiruvchi moment yetakchi halqa 4 va yetaklanuvchi halqa 7 orasidagi ponasimon ariqchaning tor joyiga plunjер 9 va prujina 10 ta’sirida siqilgan rolik orqali yuritma shesternyasiga uzatiladi. Dvigatel ishga tushgandan keyin, maxovikning tishli gardishi yuritma shesternyasini startyorga nisbatan tezroq aylantiradi. Natijada, yetaklanuvchi halqa 7 yetakchi halqa 4 dan o‘zib ketadi va roliklar ponasimon ariqchaning keng joyiga chiqib ikkita halqani bir-biridan, va demak, startyorning yakor valini shesternya-maxovik tishli juftdan ajratib yuboradi. Shu tarzda harakatni teskari tomonga, ya’ni dvigateldan startyor valiga uzatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi va markazdan qochma kuch ta’sirida yakor chulg‘amlari va kollektor sochilib ketishdan saqlab qolnadi.

Plunjersiz rolikli muftalarda (2.11-rasm) yetakchi halqa 10 shlitsali vtulka bilan yaxlit ishlangan bo‘lib, ularda ham roliklar 1 joylashtirilgan to‘rtta ponasimon ariqcha mavjud. Roliklar ariqchaning tor joyiga Г-simon turkich 2 orqali prujina 3 yordamida bosib turiladi. Shesternya 5 yetaklanuvchi halqa bilan bir butun yasalgan. Tiralish shaybasi 8, roliklar va shesternyaning o‘q bo‘ylab siljishini cheklaydi. Namatdan tayyorlangan zichlagich 7 muftani ifloslanishdan saqlaydi. yetaklanuvchi halqaning shlitsali vtulkasiga ikkita yarim muftadan iborat yetaklash muf-



2.11-rasm. Plunjersiz rolikli erkin yurish muftasi:


1 – rolik; 2 – Г simon turkich; 3 – rolikni bosuvchi prujina; 4 – vtulkalar; 5 – yetaklanuvchi halqa bilan birga ishlangan shesternya; 6 – mufta qobig'i; 7 – namat zichlagich; 8 – tirkalish shaybasi; 9 – prujinaning tutqichi; 10 – shlitsli vtulka bilan birga ishlangan yetakchi halqa; 11 – markazlashtiruvchi halqa; 12, 17 – tayanch pallalari; 13 – bufer prujinasi; 14 – yetaklash muftasi; 15, 18 – quflash halqlarli; 16 – prujina.

tasi 14 o'rnatilgan. Startyor ishga tushish jarayonida yarim muftalarning biri (2.11-rasmida o'ng tomondagisi) bufer prujinasi 13 ga ta'sir qilsa, startyorning tok zanjiri uilib, yuritma shesternya ilashishdan chiqish jarayonida yarim muftalarning ikkinchisi (rasmida chap tomondagisi) prujina 16 ga ta'sir qiladi. Qulflovchi halqa 15 ikkita yarim muftani dastlabki holatda ushlab turadi. Plunjersiz rolikli mufta plunjerli mufta kabi ishlaydi.

Gardishli mahkamlash usuli bilan burovchi moment uzatilayotganda vujudga keladigan zo'riqish va startyorning og'irlik kuchi ta'sirida o'matish gardishiga katta yuklama tushadi. Shuning uchun quvvati 4,4 kW dan yuqori, qobiq diametri 130–180 mm bo'lgan startyorlar, odatda, dvigatellardagi maxsus botiqqliklarga o'rnatilib, metall tasmalar yoki quyma tutqichlar bilan mahkamlanadi. Startyorlar burovchi moment uzatilayotganda vujudga keladigan yuklamalar ta'sirida mahkamlangan joyida aylanib ketmasligi uchun shponka yoki shtiftga o'rnatiladi. Startyor qopqoqlarida va oraliq tayanchlarda sirpanish podshipniklari o'rnatiladi. Oraliq tayanchlarni qobiq diametri 115 mm va undan ortiq bo'lgan startyorlarga qo'yish mo'ljallangan. Cho'yan, po'lat yoki aluminiy qotishmasidan tayyorlangan, lappak shaklida bo'lgan oraliq tayanch startyor qobig'i bilan old tomondagi qopqoq orasiga siqiladi yoki old qopqoqning o'ziga mahkamlanadi. Podshipniklar, dastlab, startyorni ishlab chiqarish jarayonida va zarurat bo'yicha, ishlatish davrida moylanadi. Katta quvvatli startyorlarda podshipniklar moydon va moylash filsalariga ega bo'ladi (2.12-rasm, 10).

BA3-2108 avtomobillarida kollektor tomonidagi qopqoqda bitta tayanchga ega bo'lgan 29.3708 belgili startyorlar o'rnatilgan. Yuritma tomonidagi ikkinchi tayanch dvigatel maxovigining karterida joylashgan.

Startyolarning ichki qismiga chang, loy va suv kirmasligi uchun ular odatda yopiq yoki germetik zichlangan holda ishlab chiqiladi. Ayniqsa, og'ir, yo'lsizlik



2.12-rasm. Cr142 belgili startyor:

1 – rezinali zichlagich; 2 – oraliq tayanch (podshipnik bilan); 3 – belbog'; 4 – yakor; 5 – qobiq; 6 – kollektor tomondagi qopqoq; 7 – kollektor; 8 – cho'tkatutqich traversasini mahkamlash bolti; 9 – kollektor tomondagi podshipnik; 10 – namatlifils; 11 – cho'tkatutqich traversalari; 12 – cho'tkalar; 13 – uyg'otish chulg'ami; 14 – ulovchi shinalar; 15 – asosiy qisqichlar; 16 – tortish relesining qisqichi; 17 – lappaksimon kontakt; 18 – tortuvchii chulg'am; 19 – ushlab turuvchii chulg'am; 20 – qaytarish prujinasi; 21 – tortish relesining yakori; 22 – rezinali silfon; 23 – yuritma pishangi; 24 – ekssentrik o'q; 25 – xrapovikli erkin yurish muftasi; 26 – shesternya; 27 – yuritma tomondagi qopqoq; 28 – yuritma tomondagi podshipnik; 29 – tirkalish halqasi.

sharoitlarida ishlaydigan, ko'p yuk ortadigan avtomobillar uchun mo'ljallangan katta quvvatli startyorlarning germetik zichlashga jiddiy e'tibor beriladi. Masalan, dizel dvigatellariga o'matiladigan Cr142 belgili startyorda (2.12-rasm) germetik zichlash, ajraladigan qismlar orasiga maxsus rezina halqlari 1, yumshoq plastik materiallardan tayyorlangan qistirmalar qo'yish yo'li bilan ta'minlanadi. Tortish relesining pishang mexanizmi rezinali silfon 22 yordamida zichlanadi.


Hozirgi zamon avtomobillarida o'matilayotgan startyorlarning aksariyatida shesternya maxovikning tishli gardishi bilan elektromekanik usulda majburiy ilashtirish prinsipiiga asoslangan yuritma mexanizmlar qo'llaniladi. Bu yuritma mexanizmlari dvigatel ishga tushayotganda aylantiruvchi momentni startyor validan dvigateling maxovigi orqali tirsakli valga uzatilishini va dvigatel ishga tushgandan keyin, startyorni dvigateldan avtomatik ravishda ajratilishini ta'minlovchi rolikli, friksion va xrapovikli erkin yurish muftalariga ega.

Quvvati 4...5 kW gacha bo'lgan startyorlarda rolikli erkin yurish muftasiga ega bo'lgan yuritma mexanizmlar eng keng tarqalgan. Bu muftalarning ishlashi, roliklar tutash sirtlar orasidagi ishqalanish kuchi ta'sirida qisilib qolishiga asoslan-

gan. Roliklarni ishchi yuzga zarur darajada bosib turuvchi moslamalarning tuzilishi-ga ko'ra plunjersiz erkin yurish muftalari mavjud.

Dvigateli ishga tushirish jarayonida startyor elementlari quyidagicha ishlaydi (2.6-rasmga qarang). Tortish relesi chulg'amlari 3 magnit maydon ta'sirida uning yakori 4 tortilib pishang 7 va u bilan bog'langan yetaklash muftasi 14 ni harakatga keltiradi. Bunda: yuritma shesternyasi 11 ham shlitsa bo'ylab harakatlantib, maxovikning tishli gardishi bilan ilashadi. Tortish relesining qo'zg'aluvchi kontakti «akkumulatorlar batareyasi – startyor chulg'amlari» elektr zanjirini ulaydi va yakor aylana boshlaydi. Agar shesternyaning tishi maxovik gardishining tishlariga to'g'ri kelmasdan, ilashish sodir bo'lmasa, ya'ni shesternya maxovik gardishiga «tiralib» qolsa, pishang 7, yetaklash mufta 14 orqali prujina 13 ni siqib harakatni davom ettiraveradi. Tortish relesining asosiy kontaktlari 1 ulanib, yakor aylana boshlagandan keyin shesternya ham buralib, uning tishlari maxovik gardishi tishlari orasidagi botiqlikka to'g'ri kelishi bilan prujina 13 ning bosim kuchi ta'sirida ilashish sodir bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, quvvati 5–6 kW dan yuqori bo'lgan startyorlarda rolikli muftalar ishonchli ishlamaydi. Shu sababli ular uchun maxsus tuzilishga ega bo'lgan yuritma mexanizmlari ishlab chiqilgan. 2.13-rasmda dizel dvigatellari (ЯМЗ-740, КамАЗ) uchun mo'ljallangan Ct142 belgili startyorlarning xrapovikli erkin yurish muftasi ko'rsatilgan.



2.13-rasm. Xrapovikli erkin yurish muftasi:

- 1 – vkladish; 2 – shesternya; 3 – segment;
- 4 – yo'naltiruvchi shtift; 5, 15 – qulflovchi halqalar;
- 6 – yetaklanuvchi xrapovik;
- 7 – konuslivtulka; 8 – yetaklovchi xrapovik;
- 9, 13 – shaybalar; 10 – prujina; 11 – mufta qobig'i;
- 12 – shlitsli yo'naltiruvchi vtulka;
- 14 – rezinali yumshatish halqasi.

Xrapovikli erkin yurish muftasi quyidagi qismlardan iborat: qobiq 11, yetaklovchi 8 va yetaklanuvchi 6 xrapoviklar, yuritma shesternyasi 2, prujina 10, shlitsli yo'naltiruvchi vtulka 12, yetakchi va yetaklanuvchi xrapoviklarni bir-biridan ajratib, ushlab turish uchun xizmat qiladigan konusli vtulka 7, tekstolit segmentlar 3 va yo'naltiruvchi shtiftlar 4 dan tashkil topgan markazdan qochma mexanizm.



Tortish relesi chulg'amlari tok manbayiga ulanganda, uning yakori yuritma pishangi va mufta qobig'i 11 orqali xrapoviklar 6 va 8 o'matilgan yo'naltiruvchi mufta 12 ni valdag'i shlitsa bo'ylab harakatlantirib, shesternya 2 ni maxovikning tishli gardishi bilan ilashiradi. Yuritma shesternyasi harakating oxirida tortish relesining kontaktlari ulanadi va yakor vali aylana boshlaydi.

Bunda: aylantiruvchi moment shlitsali vtulka 12, yetakchi 8 va yetaklanuvchi 6 xrapoviklar orqali shesternya 2 ga va undan maxovikning tishli gardishiga uzatiladi. Aylantiruvchi momentni uzatish jarayonida vtulka 12 ning tashqi va yetakchi xrapovikning ichki ko'p kirimli tasmasimon rezbasining o'qi bo'ylab hosil bo'ladigan kuchlanishni prujina 10 orqali rezinali yumshatish halqasi 14 qabul qiladi.

Agar ilashish jarayonida shesternya tishi maxovik gardishi tishlari orasidagi botiqlikka to'g'ri kelmasdan qadalib qolsa, yuritma pishangining ta'sirida prujina 10 siqlidi va yetakchi xrapovik 8 vtulka 12 ning ko'p kirimli tasmasimon tashqi rezbsasi bo'ylab harakatni davom ettirib, tishlari bilan yetaklanuvchi xrapovikni va u bilan birga ishlangan shesternyani ilashish uchun zarur bo'lgan burchakka (30° gacha) buradi. Dvigatel ishga tushgandan so'ng shesternya va yetaklanuvchi xrapovikning aylanish chastotasi yakor vali va yo'naltiruvchi vtulkanikidan ancha yuqori bo'ladi. Shuning uchun, yetakchi xrapovik 8 vtulka 12 ning ko'p kirimli rezbsasi bo'ylab harakatlanib, yetaklanuvchi xrapovikdan ajraladi va yuritma shesternyasini salt holda aylana boshlaydi. Konusli vtulka 7 yetakchi xrapovik bilan birgalikda surilib, shtiftlar 4 vositasida tez aylanayotgan yetaklanuvchi xrapovik bilan bog'langan tekstolit segmentlar 3 ni bo'shatadi. Natijada, markazdan qochma kuch ta'sirida segmentlar shtiftlar bo'ylab radial yo'nalishda harakatlanib ikkala yarim mustani ajralgan holda qotirib qo'yedi va xrapovik tishlarini shikastlanishdan va yeyilishdan saqlaydi. Startyor tortish relesining zanjiri uzilgandan keyingina yuritma shesternyasi maxovikning tishli gardishi bilan ilashuvdan chiqadi. Bunda: yetakchi xrapovik 8 prujina 10 ning ta'sirida yetaklanuvchi xrapovik 6 ga taqaladi va konusli vtulka 7 segmentlar 3 ni dastlabki holatiga qaytaradi.

Yuqori darajadagi mustahkamligi, ta'mirlashga yaroqliligi va o'chamlari kichik bo'lgan holda, katta aylantiruvchi momentlarni uzatish imkoniyati borligi, xrapovikli muftalarning rolikli muftalarga nisbatan asosiy afzallikkleri hisoblanadi.

Elektrodvigatel qutblarining magnit yuritish kuchlari ta'sirida yakorning harakatlanishi hisobiga shesternyani ilashtrish prinsipiiga asoslangan startyorlar mamlakatimizda keng tarqalgan Vengriya Respublikasining Ikarus 260, 280 avtobuslariga o'rnatilgan. Bu startyorlarda qo'llanilgan to'rt qutbli elektrodvigateling (2.14-rasm) o'ziga xos tomoni – unda o'rnatilgan sir-



2.14-rasm. Ikarus avtobuslarining startyori:
a – sxemasi; b – tuzilishi.

g‘aluvchi yakor, qo‘sishmcha uyg‘otish chulg‘ami va yakor valida joylashgan disk-li tishlashish mexanizmidan iborat. Ulash tugmasi 6 bosilganda tok tortish relesi 5 chulg‘amiga va qo‘sishmcha uyg‘otish chulg‘ami 11 ga keladi. Bunda: yakor 10 sekin-asta aylanib startyor qobig‘iga tortila boshlaydi, shesternya 9 esa maxovik 8 ning tishli gardishi bilan ilashadi. Yakorning harakati davom etib, disk 1 pis-hang 2 ni ko‘tarib ulagich 4 ning kontakt ko‘prikchasi 3 ni bo‘shatadi va avtomatik ravishda tok manbayini asosiy uyg‘otish chulg‘ami 7 ga ulaydi, shundan keyin startyor dvigatelning tirsakli valini aylantira boshlaydi. Yakorning o‘q bo‘ylab harakati jarayonida vintli shlitsali vtulka 13 yordamida ko‘pdiskli tishlashish mexanizmi 12 ulanadi. Yakorni dastlabki holatga keltirish qaytarish prujinasi yordamida amalga oshiriladi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, bu turdag'i startyorlarning asosiy kamchili-gi – tepaliklarda, tog‘li joylarda yetarli darajada ishchonchli ishlamasligidir.

Hozirgi zamон avtomobilлari startyorlarining deyarli hammasida shesternani majburiy ravishda elektromagnit usulda ilashtirish va ilashuvdan chiqarishni boshqarish uchun uzoqdan turib boshqariladigan tortish relesi o‘rnatalgan. Elektro-magnit tortish releleri bir-biridan tuzilishi va startyorga mahkamlanish usuli bilan farqlanadi. Startyorlarning ko‘philigi yuritma tomonga joylashtirilgan qopqoqdagi maxsus joyga o‘rnatalgan ikki chulg‘amli tortish relesiga ega.

Startyorning ikki chulg‘amli relesi (2.9-rasmga qarang) jez vtulkaga joy-lashtirilgan tortuvchi va ushlab turuvchi chulg‘amlarga ega. Vtulkaning ichki yuzi bo‘ylab po‘lat yakor 4 erkin harakat qiladi. Ushlab turuvchi chulg‘am faqat yakorni tortilgan holda saqlab turish vazifasini bajaradi. U kesim yuzi kichik bo‘lgan sim bilan o‘raladi, nisbatan uzoq vaqt davomida ishlaydi va ko‘proq qiziydi. Tortuvchi chulg‘am relening asosiy kontaktlari 1 ga parallel ulanadi. Rele tok manbayiga ulanganda tortuvchi va ushlab turuvchi chulg‘amilar birgalikda zarur tortish kuchini hosil qiladi. Relening asosiy kontaktlari ulanishi bilan tortish chulg‘amining zan-jiri uziladi. Tortish relesi pishang 7 vositasida yuritma mexanizmi bilan bog‘langan. Pishangning pastki ikkiga ayrilgan barmoqlari yetaklash muftasi 14 ga mahkamlan-gan. Quvvati uncha katta bo‘lmagan startyorlarda bir chulg‘amli tortish relesi ham ishlatilishi mumkin (masalan, Cr221).

Ichki reduktorli va doimiy magnitlardan uyg‘atiladigan startyorlar. Ichki yonuv dvigateli va ishga tushirish sistemasining tavsifnomalarini bir-biriga ratsio-nal moslashtirishda yuritmaning startyordan dvigatelga bo‘lgan uzatish soni *i* katta ahamiyatga ega. Har bir dvigatel va uni ishga tushirish sharoitlari uchun yuritma-ning, elektrostartyor quvvatini eng to‘la ishlatilishini ta‘minlaydigan uzatish son-lari mavjud. Ammo, reduktorsiz yuritma mexanizmlarida, shesternyaning mexanik mustahkamlik shartlariga ko‘ra *i* ning qiymati 16 dan katta bo‘lmaydi.


Ikkinci tomonidan, *i* ning ortishi startyor elektrondvigatelining o‘lchamlarini va massasini kamaytirish imkonini beradi. Keyingi yillarda elektrostartyorlarning o‘lchamlari va massasini kamaytirish maqsadida elektrondvigatel chulg‘amlarini yengil aluminiyidan tayyorlash, issiqqa chidamli yuqori sifatli izolyatsiya mate-

riallar ishlatalishi bilan birga, ichki qismiga reduktor o'rnatilgan o'chamlari kichik, aylanish chastotasi yuqori bo'lgan startyorlar tobora keng qo'llanilmoqda.

Reduktorli startyorlarda yakor vali bilan startyoring chiqish vali orasiga aylanish chastotasini 3–4 marta pasaytiradigan reduktor o'rnatilgan. Bunda: elektrodvigatel salt ishlagandagi aylanishlar chastotasi $15000\text{--}20000 \text{ min}^{-1}$ gacha orttiriladi, yakor validagi aylantiruvchi moment qiymati esa sezilarli darajada pasayadi.

Tuzilishi jihatidan reduktorlar oddiy qatorli ichki (2.15-rasm) va tashqi ilashgan yoki planetar mexanizmli bo'lishi mumkin. Ayniqsa bu maqsadlarda Djems nomi bilan yuritiladigan planetar reduktorlarini (2.16-rasm) ishlatish maqsadga muvofiq. Bu reduktorlar kuchlanishning simmetrik uzatilishi, ixchamligi va foydali ish koeffitsiyenti (FIK) yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Reduktorli startyorlar bir qator afzallikkarga ega, xususan, ularning o'chamlari va massasi kichik, elektrodvigatellardagi aylantiruvchi momenti pasayishi hisobiga dvigatelni ishga tushirish jarayonida akkumulatorlar batareyasiga tushadigan yuklama qiymati ancha kamayadi, past temperaturalarda dvigatellarning ishonchli ishga tushirish imkoniyati ortadi. Shu bilan birga reduktorli startyorlar kamchi-



2.15-rasm. Ichki ilashgan reduktorli startyor:


1 – old tomondagi qopqoq; 2 – yuritma pishangi; 3 – tortish relesining yakori; 4 – tortish relesining chulg'ami; 5 – kontaktli lappak; 6 – uyg'otish chulg'ami; 7 – cho'tka; 8 – podshipnik; 9 – kollektor; 10 – elektrodvigatel yakori; 11 – reduktorning yetakchi shesternasi; 12 – ishki ilashgan yetaklanuvchi tishli g'ilgirak; 13 – erkin yurish muftasi; 14 – yuritma shesternysi; 15 – yuritma vali.

liklardan ham holi emas va ularning eng asosiyлари quyidagilar: erkin yurish muf-talariga tushadigan yuklama ortadi va ularning ishonchli ishlash darajasi pasayadi; reduktor tufayli va elektrotdvigatel yakorining aylanish chastotasi yuqoriligi sababli startyor ortiqcha shovqin bilan ishlaydi; yakor aylanish chastotasining yuqorililigi cho'tka va kollektorlarning ishlash sharoitini og'irlashtiradi va ularning yeyilishini tezlashtiradi.

Reduktorli startyorlarning qo'llanishi ularning ishlab chiqarish texnologiyasi-sini sezilarli darajada o'zgartilishiga olib keldi. Xususan, tez aylanuvchi qism-larning mexanik mustahkamligi oshirildi, yakor chulg'amlarini izolyatsiya qilish uchun pishiqligi yuqoriroq bo'lgan materiallar qo'llaniladigan, elektrotdvigatelning asosiy zanjirlaridagi qalaylash yo'li bilan ulanadigan birikmalar payvandlanadigan, aylanuvchi qismalarni aniq muvozanatlashtirish amalgga oshiriladigan bo'ldi.

Keyingi vaqtida quvvati 2 kW dan katta bo'limgan startyorlarda doimiy magnitlardan uyg'otilish usuli tobora keng tatbiq etilmoqda (2.16-rasm, 6). Odatda soni oltita bo'lgan doimiy magnitlar startyor qobig'ining ichki qismiga diametri bo'y lab mahkamlanadi. Doimiy magnit koersitiv kuchi nisbatan katta bo'lgan stronsiy ferritidan tayyorlandadi. Kce'sitiv kuchi katta bo'lgan doimiy magnitlar startyor ishga tushirilayotgan jarayonda yuzaga keladigan «yakor reaksiyasи» ta'sirida magnitsiz-ланishga chidamli bo'ladi va o'zining magnit xususiyatlarini uzoq vaqt davomida barqaror saqlaydi. Mamlakatimizda chiqarilayotgan NEXIA avtomobilining start-yori elektrotdvigateli ham doimiy magnitlardan uyg'otilish prisipiga asoslangan.

Bu turdagи startyorlarning yangi avlodiga temir-neodim-bor qotishmasidan tayyorlangan yuqori energiyali doimiy magnitlar o'rnatilmoqda. Bu magnitlar «Magnakvench» nomi bilan yuritiladi. Energiyasi 22–30 kJ/m³ bo'lgan stronsiy ferritiga nisbatan «Magnakvench» magnitlarining energiyasi sezilarli darajada katta



2.16-rasm. Planetar reduktorli va doimiy magnitli startyor:

1 – yuritma shesternyasi; 2 – yuritma pishangi; 3 – tortish relesi; 4 – kollektor; 5 – cho'tka; 6 – doimiy magnitlar; 7 – yakor; 8 – planetar reduktor; 9 – erkin yurish mustasi.

bo‘lib, $100\text{--}290 \text{ kJ/m}^3$ doirasida yotadi. Bu magnitlar asosida tayyorlangan startyolar juda ixcham va yengilligi bilan ajralib turadi. Temir-neodim-bor qotishmasining ancha qimmatligi, ochiq havoda oksidlanishga moyilligi va temperaturaga ta’sirchanligi bu magnitlarning jiddiy kamchiligi hisoblanadi. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun tayyorlash jarayonida magnitga maxsus ishlov berish zarur bo‘ladi.

2.5. STARTYORLARNI BOSHQARISH ELEKTR SXEMALARI


Ma’lumki, ichki yonuv dvigatellarini ishga tushirish tizimlarida startyor elektrmagnit tortish relesi yordamida masofadan, ya’ni haydovchi kabinasidan turib boshqariladi. Dizel dvigatellarda bu jarayon, kontaktlari tortish relesining iste’mol qiladigan tok ta’siriga chidamli, startyor ulagichlari yordamida amalga oshiriladi. Benzinli dvigatellarda esa tortish relesi, ba’zan bevosita o’t oldirish kaliti orqali (kam quvvatli startyorlarda), lekin aksariyat hollarda, chulg‘amlari o’t oldirish kaliti orqali ulangan qo’shimcha rele vositasida boshqariladi. Chunki, dvigatelni ishga tushirish jarayonida tortish relesining iste’mol toki $30\text{--}40 \text{ A}$ ni tashkil qiladi va o’t oldirish kalitining kontaktlari bu qiymatdagi toklar bilan ishlashga mo’ljallangan emas.

BA3 2101, 2103, 2106 avtomobilларидаги о’натилган Ct221 старторларидаги бир чulg‘ами tortish relesi bevosita o’t oldirish kaliti orqali boshqarilish usuliga misol bo‘ла oladi (2.17-rasm).


Tortish relesining chulg‘ами $TRCh$, o’t oldirish kaliti $O'OK$ «стартор» holatiga buralganda akkumulatorlar batareyasi bilan уланади. Tortish relesining yakori elektromagnit maydon ta’sirida tortilib pishang yordamida yuritma shesternyasini maxovikning tishli gardishi bilan ilashadiradi va harakat yo’lining oxirida elektrodvigatel «M»ni tok manbayiga ulaydigan tortish relesining kontaktlari $TRKn$ tutashtiradi. Elektrodvigatel ishga tushadi va yuritma mexanizmi dvigatel tirsakli valini aylantira boshlaydi. Dvigatel ishga tushgandan keyin $O'OK$ «o’t oldirish» holatiga o’tkaziladi va tok zanjiri uzilgan tortish relesining yakori va yuritma mexanizmi prujina ta’sirida o’tzining dastlabki holatiga qaytadi.

Startyorlarda ko‘pincha dvigateli ishga tushirish jarayonida akkumulatorlar batareyasi energiyasini tejash imkonini beradigan ikki chulg‘ами (tortuvchi – «TCh» va ushlab turuvchi – «UTCh») tortish releleri ishlataladi. Ikki chulg‘ами tortish relesining ishlashi 2.18-rasmda tasvirlangan.

O’t oldirish kaliti уланаб, qo’shimcha rele kontaktlari – QRK tutashganda, akku-



2.17-rasm. CT 221 startyorini boshqarish elektr sxemasi



2.18-rasm. Startyorlarning ikki chulg‘amli elektromagnit tortish relesining ishlash principi: a – qo’shimcha rele ulangan hol; b – tortish relesining asosiy kontaktlari ulangan hol; c – qo’shimcha rele kontaktlari uzilgan hol.


Mulatorlar batareyasidan keladigan tok ikkita chulg‘am – $UTCh$ va TCh dan o’tadi (2.18- a rasm). Bu ikki chulg‘am hosil qilgan elektromagnit maydoni ta’sirida tortish relesining yakori tortilib, pishang vositasida yuritma mexanizmini harakatga keltirib, shesternya va maxovikni tishli gardishining ilashishini ta’minlaydi. Yakor harakatining oxirida, o’zining ikkinchi uchidagi kontaktli lappak yordamida tortish relesining asosiy kontaktlari TRK ni tutashtiradi va tok manbayini bevosita elektro-dvigatel chulg‘amlariga ulaydi (2.18- b rasm).

Tortish chulg‘ami TCh sxemaga shunday ulanganki, TRK tutashishi bilan TCh shuntlanadi, chunki dvigateli ishga tushirish jarayonining bu bosqichida tortish rele kontaktlarini tutash holda saqlab turish uchun ushlab turuvchi chulg‘am magnit maydonining tortish kuchi yetarli bo‘ladi.

Dvigatel ishga tushgandan keyin, qo’shimcha rele kontaktlari QRK uziladi va tok, tortish relesining kontaktlari TRK , TCh va $UTCh$ chulg‘amlari orqali ketma-ket o’tadi (2.18- c rasm). Bunda: $UTCh$ chulg‘amdan o’tayotgan tok yo‘nalishi oldindiday bo‘lsa, TCh dan tok teskari yo‘nalishda o’tadi. Har ikkala chulg‘amdagagi o’rmlar soni va ulardan o’tayotgan tok bir xil bo‘lganligi sababli bu chulg‘amning magnit yurituvchi kuchlar yig‘indisi nolga teng bo‘ladi. Natijada, rele elektromagnetti magnitsizlanadi, qaytarish prujinasi rele yakorini dastlabki holiga qaytarib rele kontaktlari TRK ni uzadi va yuritma mexanizmining pishangiga ta’sir ko‘rsatib, shesternyanı ilashishdan chiqaradi.

Dvigatel ishga tushgandan keyin startyorni tasodifan yana tok manbayiga ularsh, yuritma shesternysi va maxovik gardishining tishlarini shikastlanishiga yoki erkin yurish muftasining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Dvigatel ishga tushgandan keyin bexos startyorni qayta ularshining oldini olish uchun maxsus blokirovka releleri ishlatiladi. Bu relega ta’sir qilish uchun dvigateli to‘la ishga tushganligi haqidagi signal har xil datchiqlardan kelishi mumkin. Masalan, bu maqsadda tirsakli valning aylanishlar chastotasini, dvigateli moylash sistemasidagi moy bosimini yoki generatorning kuchlanishini nominal qiymatga erishganligini qayd qiluvchi datchiklar ishlatilishi mumkin.

БелАЗ, КамАЗ, дизель dvigatelli KA3, Урал avtomobillarida qo’llanilgan dvi-



2.19-rasm. Dvigatel ishgaga tushgandan keyin, startyorni avtomatik o'chirishning elektr sxemasi

gatel ishgaga tushgandan keyin startyor tok zanjirini avtomatik ravishda uzib, uni blokirovka qiladigan sistemaning elektr sxemasi 2.19-rasmda keltirilgan. Sistema tarkibiga boshqarish elektron bloki va tirsakli valning aylanish chastotasini qayd qiluvchi datchik (taxometr) kiradi. Boshqarish bloki startyor o'chirilishi lozim bo'lgan aylanishlar chastotasi rostlab qo'yilgan. Tirsakli valning aylanishlar chastotasi belgilangan qiymatga erishganda datchikdan kelgan signal ta'sirida boshqarish bloki tortish relesining tok zanjirini uzadi va startyorni o'chiradi.

Almashlab ulagich S ning «K3» holatida, VT2 va VT3 tranzistorlardan tashkil topgan trigger o'zining boshlang'ich turg'un holatida bo'ladi, ya'ni VT2 yopiq, VT3 esa ochiq bo'ladi. Almashlab ulagich S «CT» (ishga tushirish) holatiga o'tkazilganda startyorni ularsh relesidagi KV1 chulg'amiga tok uzatiladi va uning KV1.1 kontaktlari tutashib, startyorni ishgaga tushiradi. Aylanish chastotasi datchigining musbat qutbli impulsları VT1 tranzistor va VD2, VD3 stabilitronlardan tashkil topgan shakkantirgichiga uzatiladi. VT1 tranzistor kollektoridan VD2 va VD3 stabilitronlar yordamida amplitudasi cheklangan impulslar kondensatorlar C5, C6, rezistorlar R8, R9 va diodlar VD5, VD6 dan tashkil topgan o'zgartirgichga keladi. Tirsakli valning aylanish chastotasi belgilangan qiymatga erishganda (ya'ni, dvigatel to'la ishgaga tushganda) o'zgartirgichning chiqish joyidagi kuchlanish VD7 stabilitron ochilishi uchun yetarli bo'ladi. Stabilitron VD7 ning ochilishi triggerni ikkinchi turg'un holatiga o'tkazadi. Bunda: VT2 tranzistor ochiladi, VT3 esa yopiladi va KV1 relening tok zanjiri uziladi, startyor o'chiriladi.


Endi, startyorni qayta ishgaga tushirish uchun almashlab ulagich S dastlabki holatiga qaytarilishi kerak. Termorezistor R7 va unga parallel ulangan qarshilik R6, diod VD4 atrof-muhit temperaturasiga qarab, startyor o'chirilishi lozim bo'lgan aylanishlar chastotasi qiymatini o'zgartirish (odatda qishda va yoz-

da) imkonini beradi. Sistemaning boshqa elementlari sxema barqaror ishlashini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

2.6. DVIGATELLARNI ISHGA TUSHIRISHNI YENGILLATUVCHI VOSITALAR

Atrof-muhit harorati past bo'lganda dvigatellarni ishga tushirishni yengillatish uchun turli xil cho'g'lanish shamlari, dvigatel silindrlariga kirayotgan havo isitgichlari va yonish kamerasiga maxsus moslamalar yordamida purkaladigan, tez alanga oluvchi suyuqliklar qo'llaniladi. Ishga tushirishni yengillatuvchi vositalar ko'proq dizel dvigatellarida qo'llaniladi.

Yonish kamerasi ajratilgan dizel dvigatellarini past temperaturada ishga tushirishni yengillatish uchun ularning old yoki uyurma kamerasiga qizdirish elementi ochiq yoki yopiq (shtiftli) turdag'i cho'g'lanish shamlari o'rnatiladi. Cho'g'lanish elementi ochiq bo'lgan shamlarni (2.20- a rasm) yonish kamerasiga joylashtirilayotganda, uning qizib turgan spirali – 3 purkalayogan yonilg'i konusidan tashqarida bo'lishiga erishish zarur. Aks holda, yonilg'i qizigan spiralga tushib o't olish jarayoni bir muncha tezlashsa ham, shamlar tez ishdan chiqadi. Cho'g'lanish elementi ochiq bo'lgan shamlar ikki qutbli qilib tayyorlanadi, ya'ni spiralining ikkala uchi ham qobiqdan izolyatsiya qilinadi. Sham spirali 40–60 s vaqt ichida 1000–




2.20-rasm. Cho'g'lanish shamlari:
 a) qizdirish elementi ochiq;
 b) shtiftli; 1 – markaziy elektrod, 2 – qobiq, 3 – spiral, 4 – chiqish uchi, 5 – spiral qobig'i.

a) 1100 °C gacha qiziydi va 1,7 V kuchlanishda 50 A gacha tok iste'mol qiladi. Shtiftli shamlarning (2.20- b rasm) cho'g'lanish elementi 3 issiqlik o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan material bilan to'ldirilgan himoya qobig'i 5 ga joylashtiriladi. Sham qobig'i temir-nikel-xrom qotishmasi bo'lgan inkoneldan tayyorlanadi.

Yonish kamerasiga o'rnatilgan shtiftli shamlar qobig'inining qizib turgan uchi purkalayotgan yonilg'i chegarasida bo'lishi kerak. Shtiftli shamlarning mexanik mustahkamligi va ishlash muddati yuqori bo'ladi. Ular odatda bir qutbli (cho'g'lanish elementining ikkinchi uchi «massa»ga ulanadi) qilib ishlanadi va kuchlanishning 24 va 12 V qiymatiga mos ravishda 5 va 10 A tok iste'mol qiladi.

Cho'g'lanish shamlari yordamida dizel dvigatellarni, atrof-muhit harorati $-10\text{--}15$ °C, tir-sakli valning aylanish chastotasi $60\text{--}80$ min $^{-1}$ bo'lganda, ishga tushirilishini ta'minlash mumkin.



2.21-rasm. Havo isitgich shamlari:

- a) CH-150; b) gardishli; 1 – cho‘g‘lanish spirali, 2 – o‘zak, 3 – zichlagich shayba, 4 – qobiq, 5 – izolyatsiya shaybasi, 6 – kontakt gaykasi, 7 – izolyatsiya vtulkasi.

Dizel dvigatellarida silindrلarga kirayotgan havo haroratini ko‘tarib, yonilg‘ining o‘t olishini yengillashtirish uchun kiritish kollektorlariga isitgich shamlari o‘rnataladi. Quvvati 400 W, iste’mol toki 45–50 A bo‘lgan CH-150 belgili isitgich shamning (2.21- a rasm) spirali akkumulatorga ulangandan 40–60 s o‘tgandan keyin, 900–1000 °C gacha qiziydi. Bu isitgich shamlari kiritish kollektorining bosh qismida yoki silindrлarga bo‘lingan joylarga o‘rnataladi.

Gardishli isitgich shamlarining (2.21- b rasm) spirali 1 ning yuzi nisbatan katta bo‘lganligi va u havo oqimining markaziga joylashtirilganligi tufayli, bu turdag‘ isitgichlar silindrغا kirayotgan havoni bir muncha yuqori darajada isitadi. Gardishli isitgich shamlari, odatda, kiritish kollektorining ajraladigan joylariga qotiriladi. Isitgich shamlar yordamida silindrлarga kirayotgan havo haroratini 20–35 °C gacha orttirish, dvigateli ishga tushirish minimal temperurasini 5–10 °C ga pasaytirish mumkin.

Ammo isitgich shamlarining quvvati nisbatan pastligi (400–1000 W), kiritish kollektoridagi issiqqlik isrofining kattaligi, ularning ishlatalish doirasini ish hajmi 5 / dan katta bo‘lмаган dvigatellar bilan cheklaydi.

Katta ish hajmiga ega bo‘lgan dizellarni ishga tushirish uchun elektr mash’alli shamlar qo‘llaniladi. Dvigateli ishga tushirishdan avval shamning cho‘g‘lanish spiraliga tok yuboriladi va u qizdiriladi. So‘ngra maxsus elektromagnit klapan ochilib, qizib turgan spiralga yonilg‘i purkaladi. Yonilg‘i bug‘lanadi, kirayotgan havo bilan aralashadi va alanga oladi. Hosil bo‘lgan mash’ala silindrлarga kirayot-

gan havoni isitib, dvigatelning ishga tushishini yengillashtiradi. Bu havo isitgichlar sovuq dvigateli ishga tushirish minimal temperaturasini $10\text{--}15^{\circ}\text{C}$ gacha pasaytirish imkonini beradi.

Dvigatellarni ishga tushirishni yengillatuvchi usullardan yana biri, bu yonish kamerasiga tez alanga oluvchi suyuqliklarni purkashdir. Hozirgi vaqtida karbyuratorli dvigatellarni ishga tushirishni yengillatish uchun tarkibida dietil efir (45–60 %), gaz benzini (35–55 %), izopropilnitrat (1–1,5 %) va yeyilishga, oksidlanishga qarshi qo'shimchalari (2,5 %) bo'lgan «Арктика» nomli tez alanga oluvchi suyuqlik qo'llaniladi. Dizel dvigatellari uchun mo'ljallangan shunga o'xshash suyuqlik «Холод Д-40» tarkibiga ham dietil efir (58–62 %), izopropilnitrat (13–17 %) va kema gaz turbinalarining moyi (8–12 %) kiradi. Ishga tushirish suyuqligi silindrlarga bevosita asosiy yonilg'i bilan birga yoki maxsus moslamalar yordamida kiritish kollektoriga purkalishi mumkin.

Bundan tashqari, dvigatellarni ishga tushirishni yengillatish uchun karterdag'i moyni, yoki sovitish sistemasidagi suyuqlikni isitish kabi boshqa usullar ham mavjud.

2.7. ISHGA TUSHIRISH TIZIMINING TEXNIK QAROVI

Zamonaviy avtomobillarga o'rnatilayotgan startyorlar ancha yuqori ishonchilik darajasiga ega va ular texnik qarov va rostlash ishlarini ko'p talab qilmaydi.

Avtomobilda ikkinchi texnik xizmat (TXK-2) o'tkazilayotganda startyor zanjiridagi hamma kontaktlarni tekshirish zarur. Avtomobil 40000 km yurgandan keyin startyorni yechib, quyidagi ishlarini amalga oshirish tavsija qilinadi: yakor valining bo'ylama tirqishini va cho'tkalar tutqichlarda erkin harakat qilishini tekshirish; cho'tkalarning yeyilganlik darajasini ko'rish, zarurat bo'yicha ularni almashtirish; dinamometr yordamida cho'tka prujinalarining bosim kuchini o'chash; yuritma mexanizmining ishlashini tekshirish.

Startyor yechilib, qismlarga ajratilgandan so'ng uyg'otish va yakor chulg'amlari, kollektor, podshipniklar va tortish relesi holatlari aniqlanadi. Startyor qayta yig'ilgandan keyin uning ishga yaroqligi maxsus qurilmalarda (Э211, 532М) salt ishslash va to'la tormozlanish rejimlarida tekshiriladi.

Salt ishslash rejimida tekshirilganda startyorning aylanishlar chastotasi n va iste'mol toki I_0 qiyamatlari o'chanadagi. Olingan tajriba ma'lumotlari, aynan tekshirilayotgan turdag'i startyorlar uchun belgilangan ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Startyorni salt ishlaganda tekshirib, ta'mirdan keyingi yig'ilish sifati va mexanik nosozliklari aniqlanadi. Nosozliklar mavjudligi (yakor valining podshipniklarda qiyinlik bilan aylanishi va hokazo) salt rejimda iste'mol tokining belgilangan qiyamatdan ortib ketishiga va yakor aylanishlar chastotasining esa kamayib ketishiga olib keladi.

To'la tormozlanish rejimida startyorning avj oldirgan maksimal moment M_{\max} , qisqa tutashish toki I_{gt} va uning qisqichlaridagi kuchlanish U_{st} o'lchanadi. Bu parametrlarga ko'ra, startyorning elektr va magnit zanjirlari holati aniqlanadi. Masalan, cho'tkalar va kollektor orasidagi kontakt yaxshi emasligi iste'mol toki va aylantiruvchi moment qiymatini me'yordagidan kamayishiga olib keladi. Yakor chulg'amlarini startyor qobig'iga (ya'ni «massaga») tutashivi yoki uyg'otish chulg'amlaridagi qisqa tutashuv iste'mol tokining keskin ortib ketishiga, burovchi momentni esa kamayishiga olib keladi. Startyor qisqichlaridagi kuchlanishning tafsifnomasidagi qiymatidan kamliqi akkumulator-startyor zanjirida yoki akkumulaturning o'zida nosozlik mavjudligidan darak beradi.

Startyorni salt va to'la tormozlanish rejimlarida tekshirganda akkumulatorlar batareyasi ishga yaroqli va kamida 75 %ga zaryadlangan bo'lishi kerak.

Startyorni avtomobildan yechmasdan turib ishga yaroqligini tekshirish uchun kesim yuzi katta bo'lgan sim bilan tortish relesidagi kontakt boltlarini o'zaro tutashtirish kerak. Elektrodvigatelning aylanishi uning ishga yaroqliligining belgisidir. Tortish relesini tekshirish uchun uning chulg'amlarining umumiyligi chiqish simi bevosita akkumulatorlar batareyasining musbat qutbiga ulanadi. O't oldirish kaliti va uning zanjiri qo'shimcha rele chulg'amlarini bevosita akkumulatorga ularash yo'li bilan tekshiriladi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Dvigatelni ishga tushirish tizimi qanday asosiy elementlardan tashkil topgan?
2. Startyor qanday qismlardan tuzilgan?
3. Erkin yurish mustasining vazifasi nimadan iborat?
4. Dvigateling aylanishga qarshilik momenti qanday omillarga bog'liq?
5. Dvigateling minimal ishga tushish aylanishlar chastotasi nima va u qanday omillarga bog'liq?
6. Akkumulatorlar batareyasining volt-amper tafsifnomasi o'zgarganda startyorning elektromexanik tafsifnomasi qanday o'zgaradi?
7. Startyor elektrodvigateling zarur quvvati qanday tanlanadi?
8. Startyorning texnik holati qanday tekshiriladi?
9. Ishga tushirish tizimining texnik qarovi qanday amalga oshiriladi?
10. Ishga tushirish tizimining asosiy nosozliklari va ularni bartaraf qilish usul-larini izohlang.
11. Startyorning konstruksiyasining rivojlanish istiqbollari qanday yo'nalishlarda boradi?

3-BOB. O'T OLDIRISH TIZIMI

3.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

3.1.1. O't oldirish tizimi va uning asosiy elementlarining vazifasi

O't oldirish tizimi, benzinli dvigatelning silindrлarida yonilg'i-havo aralashmasini silindrлarning ishlash tartibiga mos ravishda, o'z vaqtida va ishonchli o't oldirish uchun xizmat qiladi. Ishchi aralashmani o't oldirish, har bir silindrning yonish kamerasiga o'rnatilgan o't oldirish shami elektrodlari orasidagi elektr razryad natijasida hosil bo'ladigan uchqun vositasi bilan amalga oshiriladi. O't oldirish shamlarining elektrodlari orasida uchqun hosil bo'lishi, ularga uzatilgan yuqori kuchlanish (~12000 V) ta'sirida sodir bo'ladi. Ishchi aralashmani ishonchli o't oldirish uchun o't oldirish sham elektrodlari orasidagi uchqunli razryad yetarli energiyaga ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamон dvigatellarida uchqunli razryad energiyasi 20–100 mJ ni tashkil qiladi va u dvigateli hamma ish rejimlarda me'yorida ishlashini ta'minlaydi.

Benzinli dvigatelga ega bo'lgan avtomobillarda, akkumulatorlar batareyasi yoki generatorning past kuchlanishini elektr razryad hosil bo'lishi uchun yetarli bo'lgan qiymatga ko'tarish va uni kerakli daqiqada taalluqli silindrning o't oldirish shamiga uzatish imkoniyatini beruvchi turli xil o't oldirish sistemalari ishlataladi. Bu sistemalar uchqunli razryad uchun zarur energiyani bevosita akkumulator yoki generatordan emas, balki oraliq energiya to'plagichdan oladi. To'plagich turiga qarab o't oldirish sistemalari ikkiga bo'linadi:

- energiyani magnit maydonda (induktivlikda) to'plash;
- energiyani elektr maydonda (sig'imdi) to'plash.


Avtomobil dvigatellarida, aksariyat holda, energiyani induktiv g'altakning magnit maydonida to'plash asosida ishlaydigan o't oldirish sistemalari tatbiq topgan bo'lib, ularning quyidagi turlari mavjud:

- kontaktli;
- kontakt-tranzistorli;
- kontakttsiz-tranzistorli;
- mikroprotsesorli.

Kontaktli o't oldirish tizimi (3.1-rasm) asosan quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1. Tok manbayi – akkumulatorlar batareyasi va generator. Dvigateli ishga tushirish jarayonida va generator ishlab chiqayotgan kuchlanish nominal qiymatdan (12 V) kam bo'lganda, o't oldirish tizimining tok manbayi vazifasini akkumulatorlar batareyasi, qolgan hollarda generator bajaradi.

2. O't oldirish g'altagi. U tok manbayining past kuchlanishini (12–14 V), o't oldirish shamlarining elektrodlari orasida uchqunli razryad hosil qilish uchun zarur bo'lgan yuqori kuchlanish impulslariga (12000–24000 V) aylantirib beradi.



3.1-rasm. Kontaktli o't oldirish tizimining umumiy sxemasi:

1 – akkumulatorlarlar batareyasi; 2 – o't oldirish kaliti; 3 – o't oldirish g'altagi; 4 – uzgich-taqsimlagich; 5 – kondensator; 6 – o't oldirish shamlari.

3. Uzgich-taqsimlagich. Uzgich-taqsimlagich bir o'qqa o'tkazilgan ikki mexanizm – uzgich va taqsimlagichdan iborat. Uzgich, zarur daqiqada past kuchlanish zanjirini uzish uchun xizmat qilsa, taqsimlagich – o't oldirish g'altagida hosil bo'lgan yuqori kuchlanish impulslarini ishlash tartibiga mos ravishda o't oldirish shamlariga yetkazish vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, uzgich – taqsimlagichiga o't oldirishni ilgarilatish burchagini, dvigatelning ishlash sharoitiga mos ravishda o'zgartiruvchi asboblar – markazdan qochma va vakuum rostlagichlar hamda oktan-korrektor o'rnatshirilgan.

4. O't oldirish shamlari. O't oldirish shamlari dvigatel silindrlarining yonish kamerasida uchqunli razryad hosil qilish uchun xizmat qiladi.

3.1.2. O't oldirish tizimiga bo'lgan talablar va uning asosiy ko'rsatkichlari

Ichki yonuv dvigatellarining ishlash sharoitlariga ko'ra, o't oldirish sistemalari quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim:


- dvigatelning hamma ish rejimlarida o't oldirish shami elektrodlari orasidagi tirkishini teshib o'tish uchun yetarli bo'lgan yuqori kuchlanishni avj oldirish;
- o't oldirish shami elektrodlari orasida hosil bo'ladigan uchqun dvigatelni ishga tushirish jarayonida va boshqa barcha ish rejimlarida yonilg'i aralashmasini ishonchli o't oldirish uchun yetarli energiyaga ega bo'lishi;
- ishchi aralashma aniq belgilangan daqiqada o't oldirilib, dvigatelning ishlash sharoitiga mos tushishini ta'minlanish;
- dvigatelning me'yorida va tejamli ishlashini ta'minlashda alohida o'rin tutganligi sababli, o't oldirish tizimining hamma qismlari yuqori ishonchilik darajasiга ega bo'lishi;

– o‘t oldirish shami elektrodlarining yemirilish darajasi belgilangan chegara-da bo‘lishi.

Yuqorida keltirilgan talablardan kelib chiqib, o‘t oldirish tizimi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- avj oldiradigan yuqori (ikkilamchi) kuchlanish, U_{max} ;
- teshib o‘tish kuchlanishi, U_{to} ;
- yuqori kuchlanish bo‘yicha zaxira koeffitsiyenti, K_z ;
- uchqunli razryad parametrlari;
- o‘t oldirishni ilgarilatish burchagi;
- yuqori kuchlanishning o‘sish tezligi.

Teshib o‘tish kuchlanishi. O‘t oldirish sham elektrodlari orasidagi tirkishni teshib o‘tadigan darajadagi qiymatlarga ega bo‘lgan kuchlanishga teshib o‘tish kuchlanishi U_{to} deb ataladi. U Pashen qonuniga binoan dvigatel silindrлaridagi bosimga va sham elektrodlari orasidagi tirkish kattaligiga to‘g‘ri proporsional va yonilg‘i aralashmasi haroratiga teskari proporsional bo‘ladi. Teshib o‘tish kuchlanishi yonilg‘i aralashmasining temperaturasi va silindrdagi bosimga bog‘liqligi 3.2- a rasmida ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, U_{to} yonilg‘i aralashmasining tarkibiga, sham elektrodlari materialiga, shakliga va temperaturasiga, uzatilgan yuqori kuchlanishli impulsining davomiyligiga va uning qutb ishorasiga va nihoyat dvigatelnning ishlash sharoitlariga ham bog‘liq. Masalan, atrof-muhit harorati past bo‘lganda dvigatelnli ishga tushirishda silindr devorlari va sham elektrodlari sovuq, so‘rilayotgan yonilg‘i aralashmasining temperaturasi past va yaxshi aralashmagan bo‘ladi. Natijada, siqish taktida aralashma yaxshi qizimaydi va yonilg‘i tomchilarining bug‘lanishi sust sodir bo‘ladi. Sham elektrodlari orasidagi tirkishga tushgan bunday aralashma U_{to} qiymatining 15–20 %ga oshirilishini talab qiladi.



3.2-rasm. Turli omillarning teshib o‘tish kuchlanishiga ta’siri:

a) Silindrдagi bosim va yonilg‘i aralashmasi temperaturasining U_{to} ga ta’siri; b) U_{to} ning dvigatel yuklamasining turli qiymatlarida tirsakli valning aylanish chastotasiga bog‘liqligi: 1 – to‘la yuklama bo‘lgan hol; 2 – yuklama yarim qiymatga ega bo‘lgan hol; 3 – yuklama eng kichik qiymatga ega bo‘lgan hol; 4 – dvigateli ishga tushirish va u salt ishlagan hol.

Dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi ortishi va silindrlardagi bosimning o'sishi hisobiga U_{lo} dastlab ortadi, lekin keyinchalik kamaya boshlaydi, chunki yonilg'i aralashmasining yangi ulushi bilan silindrlarning to'lish darajasi pasa-yadi va shamlarning markaziy elektrodi temperaturasi ortadi. Teshib o'tish kuchlanishining maksimal qiymati dvigatel ishga tushishi va to'la yuklama bilan ishlashi hollariga to'g'ri keladi (3.2-*b* rasm).

Yangi avtomobillar dastlabki 20 ming kilometr masofani bosib o'tganda, sham elektrodlarining shakli o'zgarishi (chekkalari yumaloqlanishi) hisobiga U_{lo} qiymati 20–25 %ga oshadi. Keyinchalik, elektrodlar yeyilishi va ular orasidagi tirkish ortishi sababli U_{lo} sekin-asta oshib boradi. Shuning uchun, avtomobil har 10–15 ming kilometr yo'l bosib o'tganda sham elektrodlari orasidagi tirkishni tekshirib, zarurat bo'yicha rostlab turish kerak. U_{lo} ning eng katta qiymati (12000 V) dvigateli ishga tushirish va aylanish chastotasini oshirish jarayonida, eng kichik qiymati (5000–6000 V) esa dvigatel maksimal quvvat bilan barqarorlashgan rejimda ishlaga ganda kuzatiladi. Uchqunli razryad parametrlari (energiyasi va davom etish vaqtisi, elektrodlar orasidagi tirkish) silindrdagi yonish jarayonining boshlang'ich qismiga, dvigateli ishga tushirishda, salt ishlaganda hamda barqarorlashmagan va qisman yuklamali rejimlarda ishlaganda katta ta'sir ko'rsatadi.

Yuqori kuchlanishning o'sish tezligi o't oldirish tizimi ishchonchli ishlashini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Yuqori kuchlanish teshib o'tish kuchlanish qiymatiga qanchalik tez erishsa, o't oldirish shami izolyatoridagi qurum orqali isrof bo'ladi gan tok miqdori shunchalik kam bo'ladi. Kontaktli va kontakt tranzistorli o't oldirish tizimlarida yuqori kuchlanishning o'sish tezligi **250–350 V/mks**, zamonaviy avtomobillardagi elektron o't oldirish tizimlarida uning qiymati **700...800 V/mks** ni tashkil qiladi.

Yuqori kuchlanish bo'yicha zaxira koeffitsiyenti K_z . O't oldirish tizimi ishchonchli ishlashi uchun, avj oldiradigan yuqori kuchlanish $U_{2\max}$ teshib o'tish kuchlanishi U_{lo} qiymatidan ancha katta bo'lishi kerak. Chunki, bir tomonidan avtomobilarni ishlatish borasida o't oldirish g'altagi va yuqori kuchlanish o'tkazgichlarining izolyatsiyasi eskirishi natijasida o't oldirish tizimi avj oldiradigan yuqori kuchlanish tobora pasayib boradi. Masalan, 50000 km yo'l yurgan avtomobillarda yuqori kuchlanish 20 %gacha kamayishi mumkin. Ikkinci tomonidan, yuqorida ko'rsatilganidek, teshib o'tish kuchlanish qiymati ham dvigatelning ishslash sharoitiga ko'ra o'zgarib turadi va dvigatelning ishslash muddati oshgan sari u ham ortib boradi.

Yuqori kuchlanish bo'yicha zaxira koeffitsiyenti K_z , o't oldirish tizimi avj oldirgan yuqori kuchlanish qiymati $U_{2\max}$ ning teshib o'tish kuchlanishi U_{lo} ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$K_z = \frac{U_{2\max}}{U_{lo}}.$$


O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ish natijalariga ko'ra, yangi avtomobillar yoki o't oldirish tizimining yangi komplekti uchun yuqori kuchlanish bo'yicha zaxira koefitsiyenti $K_z=1,5\dots1,8$ dan kam bo'lmasligi kerak.

O't oldirish daqiqasi. Bizga ma'lumki, porshen yuqori chekka nuqta (YuChN) dan o'tgandan keyin gaz bosimi mumkin qadar katta bo'lishini ta'minlash maqsadida yonilg'i aralashmasini o't oldirish, siqish taktining oxirida, ya'ni porshen YuChNga yetib bormasdan amalga oshiriladi. Chunki, yonilg'i aralashmasining yonish jarayoni bir lahzada sodir bo'lmasdan, balki ma'lum vaqt (bir necha millisekund) davom etadi. Dvigatelning quvvati, tejamlili shahlashi, ishqalanuvchi qismilarini yejilishi va chiqindisi gazlarning zaharliligi ko'p jihatidan sham elektrodlari orasida uchqun hosil bo'lish, ya'ni o't oldirish daqiqasiga bog'liq bo'ladi. Dvigatelning har bir ish rejimi uchun uning eng yaxshi ko'rsatkichlarini ta'minlovchi optimal o't oldirish daqiqasi mavjud bo'ladi. U tirsakli valning silindrغا uchqun berilgan ondag'i holatidan porshen YuChNga borgungacha buralgan burchagi bilan ifodalanadi. Bu burchak o't oldirishning ilgarilatish burchagi deb ataladi.

3.3-rasmda silindrлardagi bosim o't oldirishning ilgarilatish burchagiga bog'liq ravishda o'zgarishi ko'rsatilgan. Yonilg'i me'yordan ertaroq o't oldirilsa (1-egri chiziq, o't oldirishning ilgarilatish burchagi katta), yonish jarayonining deyarli hammasi siqish taktida sodir bo'ladi va porshen YuChNga gazlar bosimi keskin oshishi, ya'ni katta qarshilikni yengish sharoitida harakatlanadi. Natijada, dvigatelning quvvati va tejamliligi pasayadi, chiqindisi gazlar zaharliligi ortadi. Dvigatel qizib ketadi va detonatsiya shovqinlari paydo bo'ladi (1-egri chiziqdagi «tishchalar»).


Aksincha, agar yonilg'i me'yordan kechroq o't oldirilsa (3-egri chiziq, o't oldirishning ilgarilatish burchagi kichik), yonish jarayoni asosan kengayish taktilida sodir bo'ladi. Natijada, yonilg'i yonib ulgurmeydi, gazlarning bosimi zarur qiymatga erisha olmaydi, dvigatel quvvati va tejamliligi pasayib ketadi. Chiqindisi gazlarning temperaturasi oshib, dvigatelning qizib ketish hollari kuzatiladi.

Yonish jarayoni me'yorida bo'lishi uchun o't oldirishning ilgarilatish burchagi eng manfaatli qiymatga ega bo'lishi kerak (2-egri chiziq). Dvigate maksumal quvvatini avj oldirishi uchun silindrдаги gaz bosimining eng katta qiymati porshen YuChNdan o'tgandan keyin, tirsakli valning 10-15° ga burilgan holatiga to'g'ri kelishi kerak.



3.3-rasm. Dvigate silindrларидаги босими, о't oldirishни ilgarilatish burchagiga bog'liqligi:

1 – ertaroq o't oldirish; 2 – me'yorida o't oldirish; 3 – kechroq o't oldirish. A – o't oldirish daqiqasi; B – detonatsiya.



3.4-rasm. O't oldirishni ilgarilatishning eng manfaatli burchagi Θ ning aylanishlar chastotasi (a) va yuklamaga (b) bog'liqligi.


O't oldirishning ilgarilatishni eng manfaatli burchagi turli dvigatellar uchun 28–45° chegarasida bo'ladi. Uning qiymati tirsakli valning aylanish chastotasiga, yuklamaga, ishlatalayotgan yonilg'i tarkibiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi (3.4-rasm). Masalan, tirsakli valning aylanish chastotasi ortishi bilan yonish kamerasidagi yonilg'i aralashmasi yonishi uchun ajratilgan vaqt kamayib boradi va demak, o't oldirishning ilgarilatish burchagini orttirish kerak.

Dvigatel yuklamasi ortishi bilan drossel to'siqchasi kattaroq ochiladi va silindrلarga so'rileyotgan yonilg'i aralashmasining miqdori va uning yonish tezligi ortadi. Bu esa, o't oldirishning ilgarilatish burchagini kamaytilishini talab qiladi. Aksincha, yuklama kamayganda drossel to'siqchasi kamroq ochiladi va silindrлarga kirayotgan yonilg'i miqdori kamayadi, uning yonish tezligi sekinlashadi va demak, o't oldirishning ilgarilatish burchagini orttirish zarur.

3.2. KONTAKTLI O'T OLDIRISH TIZIMI

3.2.1. Kontaktli o't oldirish tizimining ishlash prinsipi

Avtomobil transporti taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ishlab chiqilgan avtomobillarda, o't oldirish tizimining tok manbayi vazifasini faqat akkumulatorlar batareyasi bajargan. Keyinchalik, akkumulator bilan parallel ravishda generator ham ishlatala boshlandi. Lekin, hozirgi kungacha «batareyali o't oldirish tizimi» degan atama keng ishlatalmoqda. Bu 50 yildan ortiq vaqt mobaynida avtomobillarda qo'llanilgan yagona o't oldirish tizimi bo'lib keldi. Natijada, bu sistema «klassik o't oldirish tizimi» deb ham atala boshlandi. Keyingi vaqtarda, yarimo'tkazgichlar qo'llanilgan turli xil o't oldirish tizimlari paydo bo'lishi munosabati bilan batareyali (yoki klassik) o't oldirish tizimi tuzilishining o'ziga xos tomonlarini eng to'la aks ettiradigan «kontaktli o't oldirish tizimi» atamasi tobora ko'proq ishlatalmoqda.



3.5-rasm. Kontaktli o't oldirish tizimining umumiy sxemasi

lib, u nisbatan yo'g'on simdan, ikkilamchi chulg'am o'ramlar soni, aksincha juda katta (~18000...26000) bo'lib, u ingichka simdan o'raladi. O't oldirish g'altak chulg'ammlari avtotransformator sxemasi bo'yicha ulangan, ya'ni birlamchi chulg'amning oxiri ikkilamchi chulg'amning boshiga tutashtirilgan.

Klassik o't oldirish tizimidagi uzgich – aylanuvchi kulachok 9, pishangchaga o'rnatilgan qo'zg'aluvchi 7 va massaga ulangan qo'zg'almas kontakt 8 lardan iborat mexanik moslamadir. Uzgich kulachoklari qirralarining soni dvigatel silindrlari soniga teng. Pishangcha o'z o'qi atrofida harakatlana oladi va u, uzgich kulachoklari qirralariga qadalib turadigan tekstolit yostiqcha bilan ta'minlangan. Uzgich kulachogi aylanib, kontaktlarni navbatma-navbat uzib-tutashtirib turadi.

Taqsimlagich aylanuvchi rotor 11, taqsimlagich qopqog'iga o'rnatilgan qo'zg'almas yon kontaktlar 12 va markaziy elektroddan iborat. Yon kontaktlar silindrlar soniga teng bo'lib, ular yuqori voltli o'tkazgichlar yordamida taalluqli o't oldirish shamlari bilan tutashtirilgan. Taqsimlagichning markaziy elektrodi yuqori voltli o'tkazgich vositasida o't oldirish g'altaginiq ikkilamchi chulg'ami bilan ulangan. Yuqori kuchlanish rotorga markaziy elektrod orqali sirpanuvchi ko'mir kontakt yordamida uzatiladi. Uzgich kulachogi 9 va taqsimlagich rotorini 11 bir valga o'rnatilgan bo'lib, harakatni tishli uzatma orqali dvigatelning gaz taqsimlash validan oladi va demak, tirsaklı valga nisbatan ikki marta kichik tezlik bilan aylanadi.

Kontaktli o't oldirish tizimi quyidagicha ishlaydi: O't oldirish kaliti 2 ulanganda, tok akkumulatorlar batareyasi 1 ning musbat qutbi, o't oldirish kaliti 2, qo'shimcha qarshilik 4, o't oldirish g'altagi 5 ning birlamchi chulg'ami va uzgich kontaktlari 7, 8 (ular tutash bo'lganda) orqali massaga o'tadi va massadan batareyaning manfiy qutbiga qaytib keladi. Birlamchi chulg'amdan o't oldirish g'altaginiq har ikkala chulg'amini kesib o'tadi va g'altak o'zagi orqali tutashadi. Aylanayotgan kulachok kontaktlarni uzganda, birlamchi chulg'amdan

Kontaktli o't oldirish tizimining prinsipial sxemasi 3.5-rasmida keltirilgan va u quyidagi asosiy elementlaridan iborat: akkumulatorlar batareyasi 1, o't oldirish kaliti 2, o't oldirish g'altagi 5, bir o'qqa o'tkazilgan uzgich-taqsimlagich 6–12, kondensator 14 va o't oldirish shamlari 13.

O't oldirish g'altagi tok manbayining past kuchlanishini yuqori kuchlanishga aylantirib berish uchun xizmat qiladi va u o'zakka o'ralgan ikkita chulg'amdan iborat. Birlamchi chulg'am o'ramlar soni kichik (~180...330) bo-

o'tayotgan tok zanjiri uziladi va natijada u hosil qilgan magnit maydon katta tezlik bilan yo'qola boshlaydi. Yo'qolib borayotgan magnit maydon har ikkala chulg'amda o'zinduksiya EYuK hosil qiladi va elektromagnit induksiya qonuniga asosan, uning kattaligi magnit maydonning yo'qolish tezligiga va chulg'amlardagi o'ramlar soniga to'g'ri proporsional bo'ladi. Natijada, o'ramlar soni katta bo'lgan ikkilamchi chulg'amda, o't oldirish shami elektrodlari orasidagi tirqishni teshib o'tishga yetarli bo'lgan 15000–20000 V kuchlanish induksiyalanadi va taqsimlagich rotori R orqali o't oldirilishi lozim bo'lgan navbatdagi silindriddagi shamga uzatiladi. Yuqori kuchlanishli tok sham elektrodlari orasidagi tirqishdan uchqun sifatida o'tib, massa, akkumulatorlar batareyasi va qo'shimcha qarshilik orqali o't oldirish g'altagiga qaytib keladi.

Kontaktlar uzilganda, birlamchi chulg'amda ham kattaligi 200–400 V ga yetadigan, yo'nalishi birlamchi tok yo'nalishida bo'lgan va uning yo'qolishiga qarshilik ko'rsatadigan o'zinduksiya EYuKi hosil bo'ladi. Bu EYuK uzgich kontaktlari uzilganda, ular orasida kuchli elektr yoyini hosil qilib kontaktlar kuyishiga va ular juda tez ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Bu zararli jarayonning oldini olish uchun uzgich kontaktlariga parallel ravishda kondensator 1/4 ulanadi. Bu holda birlamchi chulg'amda hosil bo'lgan o'zinduksiya EYuK kondensator 1/4 ni zaryadlaydigan tok hosil qiladi. Keyingi davrda kondensator o't oldirish g'altagini birlamchi chulg'ami, qo'shimcha qarshilik 4 va akkumulatorlar batareyasi 1 orqali, ya'ni birlamchi tok yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalishda razryadlanadi. Shunday qilib, uzgich kontaktlariga parallel ulangan kondensator, birinchidan kontaktlar orasida uchqun hosil bo'lishini deyarli bartaraf qilib, kontaktlar ishslash muddatini oshirsa, ikkinchidan birlamchi zanjirdagi tokni va, demak, magnit maydonning yo'qolishini tezlatish hisobiga ikkilamchi chulg'amda induksiyalanadigan yuqori kuchlanishni ma'lum darajada orttirishga yordam beradi.

Qo'shimcha qarshilik 4 dvigatelni ishga tushirish vaqtida o't oldirish tizimi me'yorida ishlashini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, startyor ulanganda (ayniqsa, qishda), akkumulatorlar batareyasining kuchlanishi belgilangan chegarada keskin kamayadi. Natijada, akkumulatoridan tok iste'mol qiluvchi o't oldirish g'altagida induksiyalanadigan yuqori kuchlanish qiymati ham kamayib ketadi va bu, silindrardagi yonilg'l aralashmasini o't oldirishda uzilishlarga olib kelishi mumkin. Bu hodisani bartaraf qilish maqsadida, startyor ulanishi bilan bir vaqtda o't oldirish kaliti yoki startyor relesiga o'matilgan qo'shimcha kontaktlar 3 ulanib, qarshilik 4 qisqa tutashtiriladi. Shu tarzda, dvigatel startyor yordamida ishga tushirilayotgan vaqtida, tok akkumulatoridan o't oldirish g'altagini birlamchi chulg'amiga qo'shimcha qarshilik 4 orqali emas, balki qo'shimcha kontaktlar orqali o'tadi. Bu esa o't oldirish g'altagida talab qilingan darajada yuqori kuchlanish induksiyalanishini va o't oldirish tizimi startyor ulangan vaqtida ham ishonchli ishlashini ta'minlaydi.

3.2.2. O't oldirish tizimining ish jarayoni

O't oldirish tizimida sodir bo'ladigan jarayonlarni uch bosqichga bo'lish mumkin:

- 1) uzgich kontaktlari tutashishi va o't oldirish g'altagining birlamchi chulg'amida tokning ortib borishi;
- 2) uzgich kontaktlarining uzilishi va o't oldirish g'altagining ikkilamchi chulg'amida yuqori kuchlanish induksiyalanishi;
- 3) o't oldirish shamlari elektrodlari orasida uchqunli razryad hosil bo'lishi.

Bu uch bosqichni batafsil ko'rib chiqamiz.

Birinchi bosqich. Uzgich kontaktlari tutashganda akkumulatorlar batareyasining kuchlanishi U , birlamchi tok i ni hosil qiladi va u quyidagi zanjir bo'yicha o'tadi (3.5-rasm): akkumulatorlarlar batareyasining musbat qutbi – qo'shimcha qarshilik – o't oldirish g'altagining birlamchi chulg'ami – uzgich kontaktlari – massa – akkumulatorlar batareyasining manfiy qutbi. Kirxgofning ikkinchi qonungi ga ko'ra:

$$U + e_s = iR. \quad (3.1)$$

Bunda: $R = R_1 + R_q$ birlamchi zanjirning umumiy qarshiligi; R_1 – birlamchi chulg'ami qarshiligi; R_q – qo'shimcha qarshilik; e_s – birlamchi chulg'ami o'ramlarida induksiyalangan o'zinduksiya EYuKi:

$$e_s = -L \frac{di}{dt}.$$

Bu ifodani (3.1) ga qo'ysak, birlamchi tok o'sish jarayonining differensial tenglamasi hosil bo'ladi:

$$U - L \frac{di}{dt} = iR.$$

Bu differensial tenglama yechilsa, quyidagi ifoda hosil bo'ladi:

$$i = \frac{U}{R} \left(1 - e^{-\frac{R}{L}t} \right). \quad (3.2)$$

Demak, uzgich kontaktlari ulangan holda birlamchi tok eksponenta bo'ylab ortib, o'zining maksimal – barqaror qiymatiga intiladi (3.6- a rasm):


$$I_1 = \frac{U}{R}.$$

Ikkinchi bosqich. Uzgich kontaktlari birlamchi tok o'zining maksimal qiymatiga erishishi uchun zarur bo'lgan t vaqtidan kamroq – t_1 , vaqt davomida tutashgan holda bo'ladi. Shuning uchun, uzgich kontaktlari uzilish daqiqasida birlamchi tok **uzilish toki** I_u , deb yuritiladigan qiymatga erishadi va u birlamchi tokning maksimal qiymatidan kam bo'ladi:

$$I_u = \frac{U}{R} \left(1 - e^{-\frac{R}{L} t_u} \right) \leq I_1. \quad (3.3)$$

Uzgich kontaktlari uzilgandan keyin o't oldirish g'altagini birlamchi zanjirida L_1 induktivlikka, C_1 sig'imga va R qarshilikka ega bo'lgan tebranish konturi hosil bo'ladi. Natiyada, bu kontur kondensatorida so'nuvchi tebranma razryadlanish sodir bo'ladi va o't oldirish g'altagini magnit maydonida to'plangan energiya kontur qarshiliqi R da chiqadigan joul issiqligiga sarf bo'lguncha birlamchi tok i ham bir necha davr davomida tebranadi.

Ikkilamchi chulg'am ham ikkilamchi zanjir sig'imi C_2 (ya'ni, yuqori voltli kuchlanish o'tkazgichlari va ikkilamchi chulg'am o'ramlarining sig'imi) bilan ikkilamchi tebranish konturini tashkil qilib, u bevosita birlamchi tebranish konturiga bog'langan. Shuning uchun, birlamchi chulg'amdag'i magnit oqimining har bir o'zgarishi ikkilamchi chulg'amda o'zinduksiya EYuKining induksiyalanishiga olib keladi. Agar o't oldirish shami elektrodlari orasidagi tirqish uchqunli razryad hosil bo'lmaydigan darajada kattalashtirilsa, ikkilamchi chulg'amda hosil bo'lgan yuqori kuchlanish U_2 ham, birlamchi tok i kabi bir necha so'nuvchi tebranish sodir qiladi (3.6- b rasmdagi punktir chiziqlar).



3.6-rasm. Uzgich kontaktlari ulanganda va uzilganda birlamchi tok i_1 va ikkilamchi kuchlanish U_2 ning o'zgarishi

(kontakt uzilgan daqiqadan boshlab vaqt masshtabi 10 marta oshirilgan).

O't oldirish g'altagi avj oldirishi mumkin bo'lган ikkilamchi kuchlanishning maksimal qiymatini tebranish jarayonidagi energiyalar balansiga ko'ra aniqlash mumkin. Uzgich kontaktlari uzilish daqiqasidan oldin birlamchi tok – uzilish toki I_u qiymatiga erishadi va o't oldirish g'altagini magnit maydonida $LI_u/2$ ga teng energiya to'planadi. Uzgich kontaktlari uzilgandan keyin, yuqorida ko'rsatilgandek (3.6-rasm), birlamchi tok i kosinusoida bo'ylab kamayadi, ikkilamchi kuchlanish U_2 esa sinusoida bo'ylab o'sa boshlaydi. Birlamchi tok nolgacha kamayganda, magnit maydonning hamma energiyasi C_1 va C_2 sig'imlarning elektr maydon energiyasiga o'tadi va bu daqiqada birlamchi va ikkilamchi kuchlanishlar o'zining maksimal qiymatiga erishadi. Demak, ushbu daqiqa uchun energiyalar balansi tenglasi (tebranish konturlaridagi energiya isroflarini hisobga olmaganda) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{LI_u^2}{2} = \frac{C_1 U_{1\max}^2}{2} + \frac{C_2 U_{2\max}^2}{2}.$$

$U_{1\max} = \frac{W_1}{W_2} U_{2\max}$ ni (W_1 va W_2 – o't oldirish g'altagini birlamchi va ikkilamchi chulg'amlaridagi o'ramlar soni) e'tiborga olsak, ikkilamchi kuchlanishning maksimal qiymatini analitik usulda hisoblash imkoniyatini beruvchi quyidagi ifodaga ega bo'lamiz.

$$U_{2\max} = I_u \sqrt{\frac{L}{C_1 \left(\frac{W_1}{W_2}\right)^2 + C_2}}. \quad (3.4)$$

Bu ifoda taqrifiy bo'lib, unda energiyaning turli ko'rinishdagi isroflari (taxminan 25 %) hisobga olinmagan. Amalda bu ifodaga konturlardagi energiya isroflarini hisobga olish koeffitsiyenti η kiritiladi va uning qiymati kontaktli o't oldirish sistemalari uchun 0,75–0,85 ni tashkil qiladi.

U holda (3.4)ni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$U_{2\max} = I_u \sqrt{\frac{L}{C_1 \left(\frac{W_1}{W_2}\right)^2 + C_2}} \cdot \eta. \quad (3.5)$$

Bu ifodadan o't oldirish g'altagini ikkilamchi chulg'amida induksiyalangan ikkilamchi kuchlanishning qiymati bevosita birlamchi tokning uzilish toki I_u kattaligiga bog'liqligi ko'riniib turibdi. Bundan tashqari, $U_{2\max}$ qiymatiga birlamchi zanjir induktivligi L , birlamchi va ikkilamchi zanjir sig'imlari C_1 va C_2 kattaliklari ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Ifodaga ko'ra, kondensator C_1 sig'imning kamaytirilishi ikkilamchi kuchlanish ortishiga olib kelishi kerak. Ammo bu jarayon ma'lum chegaragacha sodir bo'ladi. C_1 sig'imning yanada kamaytirilishi $U_{2\max}$ ning keskin pasayishiga sabab bo'ladi. Chunki (3.4) ifodada C_1 sig'imning

uzgich kontaktlari orasida uchqun hosil bo'lishiga ta'siri hisobga olinmagan. Amalda kondensator sig'imi ma'lum chegaradan ortiq kamaytirilsa, uzgich kontaktlari orasida hosil bo'ladigan uchqun keskin kuchayib, g'altakning magnit maydonida to'plangan energiyaning katta qismi ana shu uchqunli yoyga isrof bo'ladi. Natijada o't oldirish g'altagi avj ettirayotgan $U_{2\max}$ pasayadi.

Kondensator C_1 sig'imi me'yordan ortiq orttirilishi hisobiga, uzgich kontaktlari orasida uchqun hosil bo'lishini butunlay bartaraf qilish mumkin. Ammo kondensatorning zaryadlanish va razryadlanish davri ortadi va bu g'altak o'zagining magnitsizlanish jarayonini sekinlatib, ikkilamchi chulg'amda induksiyalanidagan EYUK va kuchlanish U_2 ni pasaytiradi. Bu esa dvigatelning aylanish chastotasi katta bo'lganda, o't oldirish tizimida uzilishlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Kontaktli o't oldirish tizimi uchun kondensator C_1 sig'imiining optimal qiymati 0,17–0,25 mF chegarasidaligi aniqlangan.

Nazariy jihatdan ikkilamchi zanjir sig'imi C_2 ning kamaytirilishi $U_{2\max}$ ni ortishiga olib kelishi kerak. Ammo, amalda C_2 ni 40–70 pF dan iborat chegaraviy qiymatidan pasaytirish imkoniyati yo'q, chunki bu yuqori voltli o'tkazgichlarni talab darajasidagi izolyatsiya bilan ta'minlash shartlari bilan bog'liq.

Uchinchi bosqich. Yuqorida qayd qilinganidek, ikkilamchi kuchlanishning so'nuvchi tebranishi sham elektrodlari orasida uchqunli razryad bo'lmagan holda sodir bo'ladi. Amalda esa, teshib o'tish kuchlanishi U_{lo} , ikkilamchi kuchlanishning maksimal qiymati $U_{2\max}$ dan ancha kam bo'ladi va shuning uchun $U_2 = U_{lo}$. bo'lganda, sham elektrodlari orasida uchqunli razryad sodir bo'ladi va tebranma jarayon uziladi (3.6- b rasm).

Uchqunli razryad sig'im va induktiv fazalaridan iborat bo'ladi. Sig'im fazasi – sham elektrodlari orasidagi uchqunli tirqishni teshib o'tilish daqiqasigacha C_1 va C_2 sig'implarda to'plangan energiyaning razryadlanishi bo'lib, u ikkilamchi kuchlanish keskin kamayishi bilan sodir bo'ladi. Sig'im razryadi juda qisqa vaqt (~1 mks) davom etganligi tufayli, sig'im fazasining oniy tok qiymati katta bo'ladi va bir necha o'n amperlarga yetishi mumkin. Razryadning sig'im fazasi yorqin, havo rang uchqun ko'rinishiga ega.

Uchqunli razryad o't oldirish g'altaginiq ikkilamchi kuchlanishi o'zining maksimal qiymatiga erishmasdan sodir bo'lganligi uchun sig'im razryadiga g'altak magnit maydonida to'plangan energiyaning faqat kichik bir qismi (5–15 mJ) sarf bo'ladi. Energianing qolgan asosiy qismi (30–60 mJ) uchqunning induktiv fazasi sifatida razryadlanadi.

Induktiv razryad ikkilamchi kuchlanish ancha pasaygan (~300 V) sharoitda sodir bo'ladi, tok esa 0,1 A dan oshmaydi, ammo razryadning bu qismi sig'im razryadiga nisbatan ancha uzoq vaqt (bir necha millisekund) davom etadi. Uchqunning induktiv qismi och-sariq yoki qizg'ish-binafsha nurlanish sifatida kuzatiladi.

Dvigatel silindrlaridagi yonilg'i aralashmasi asosan uchqunning sig'im fazasi ta'sirida o't oladi. Ammo induktiv fazaning ham o'ziga xos foydali tomoni bo'lib,

u nisbatan uzoq vaqt davom etishi tufayli yonilg'i aralashmasini qizdirishga, uning bug'lanishiga yordam beradi va sovuq dvigatelni ishga tushirishda ancha ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3.2.3. O't oldirish tizimining tavsifnomasi

O't oldirish g'altaginiq ikkilamchi chulg'amida induksiyalangan kuchlanishing maksimal qiymati dvigatelning aylanishlar chastotasi va silindrlar soniga bog'liqligi, o't oldirish tizimining tavsifnomasi deb ataladi, ya'ni $U_{2\max} = f(n, z)$.

To'rt taktli dvigatellarda tirsakli val ikki marta aylanganda hamma silindrlarda o't olish jarayoni sodir bo'lishi kerak. Shuning uchun bu vaqt ichida o't oldirish tizimida hosil bo'ladigan uchqunlar soni dvigatelning silindrlar soniga teng bo'lishi kerak. Demak, agar dvigatelning aylanishlar chastotasi n bo'lsa, 1 sekundda hosil bo'ladigan uchqunlar soni quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$z \cdot \frac{n}{2 \cdot 60} = \frac{n \cdot z}{120}.$$

Har bir uchqunga uzgich kontaktlari tutashib va uzilib turish vaqtlarini (t_t, t_u) o'z ichiga olgan bir davr T to'g'ri keladi. U holda uzgich ishining bir davriga to'g'ri keladigan vaqt:

$$T = t_t + t_u = \frac{120}{n \cdot z} \cdot c$$

Kontaktlar tutashib turish vaqtini t , uzgich ishidagi to'la davrning bir qismini tashkil qiladi, ya'ni:

$$t_t = kT = k \frac{120}{n \cdot z} \cdot c. \quad (3.6)$$

Bunda: k – uzgich kulachogining shakliga bog'liq bo'lgan kattalik bo'lib, u kontaktlarning tutashib turish koeffitsiyenti deb yuritiladi.

Demak, uzgich kontaktlarining tutashib turish vaqtini t_t , dvigatelning aylanishlar chastotasi va silindrlar soniga bevosita bog'liq ekan.

Yuqorida keltirilgan ikkilamchi kuchlanishing maksimal qiymati $U_{2\max}$ ni va uzilish toki I_u ni ifodalovchi (3.3), (3.4) formulalardan:

$$U_{2\max} \approx I_u \sqrt{\frac{L}{C_1 \left(\frac{W_1}{W_2}\right)^2 + C_2}} = \frac{U}{R} \left(1 - e^{-\frac{R}{L} t_t}\right) \sqrt{\frac{L}{C_1 \left(\frac{W_1}{W_2}\right)^2 + C_2}}.$$

Hosil bo'lgan ifodani (3.6) formula bilan birlgilikda tahlil qilib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1) Dvigatelning aylanishlar chastotasi ortishi bilan uzgich kontaktlarining tutashib turish vaqtini kamayadi, birlamchi tok o'zining maksimal qiymati-

ga erisha olmaydi va uzilish toki I_u ning qiymati kamaya boshlaydi. Uzilish toki I_u ning kamayishi ikkilamchi kuchlanish $U_{2\max}$ ning ham pasayishiga olib keladi.


2) Silindrlar sonining oshirilishi ham uzbek kontaktlarining tutashib turish vaqtini kamaytiradi va demak, uzilish toki I_u , ikkilamchi kuchlanish $U_{2\max}$ ham pasayadi.

Kontaktli o't tizimining ishchi tavsifnomasi 3.7-rasmida keltirilgan. Dvigatel aylanishlar chastotasining juda past qiymatlarida ($n < 1000$) birlamchi chulg' AMDAGI tok o'zining maksimal qiymatiga erishishga ulguradi va aylanish chastotasi qiymatlarining bu chegarasida ikkilamchi kuchlanish eng katta qiymatga erishib, o'zgarmas bo'lishi kerak (3.7-rasmida, yuqoridagi gorizontal punktir chiziq). Amalda esa, aylanish chastotasining past qiymatlarida ham ikkilamchi kuchlanishning kamayishi kuzatiladi, chunki kontaktlarning uzilish tezligi kamayib ketishi natijasida ular orasida uchqun hosil bo'la boshlaydi va energiyaning bir qismi shu jarayonga isrof bo'ladi. Agar 3.7-rasmida dvigatel me'yorida ishlashi uchun zarur bo'lgan ikkilamchi kuchlanishning minimal qiymatidan (~11000 V) gorizontal chiziq o'tkazsa, bu chiziqning tavsifnomasi bilan kesishgan nuqtasi aylanish chastotasining maksimal qiymati (n_{\max})ni belgilaydi. Aylanish chastotasining bundan katta qiymatlarida o't oldirish g'altagi zarur kuchlanishni avj oldira olmaydi va silindrлardagi yonilg'i aralashmasini o't oldirishda uzilish sodir bo'la boshlaydi. 3.7-rasmdan ko'rinib turibdiki, $z=6$ bo'lgan dvigatellarda o't oldirish tizimining aylanishlar chastotasi bo'yicha ishlash chegarasi n_{\max} $z=4$ bo'lgan dvigatellarga nisbatan kam bo'ladi. Bu, uzbek kulachogi qirralari silindrлar soniga mos ravishda oshirilishi (ya'ni, 6 ta bo'lishi) tufayli, bir davr ichida kontaktlarning uzilib-tutashish soni ortishi va natijada, birlamchi zanjirdagi uzilish toki I_u qiymatining kamayishi bilan bog'liq.

Demak, dvigatelning aylanishlar chastotasi va silindrлar soni ortishi bilan o't oldirish tizimi zarur yuqori kuchlanishni avj oldirishi qiyinlashadi.

Kontaktli o't oldirish tizimining tavsifnomasini yaxshilash. O't oldirish tizimining tavsifnomasini o't oldirish g'altagini parametrlarini tanlash, variator qo'llash yo'llari bilan yaxshilash mumkin.

1. O't oldirish g'altagini parametrlarini tanlash. Birlamchi tokning aniqlash ifodasi (3.3) ga ko'ra o't oldirish g'altagi induktivligi qancha kichik




3.7-rasm. Kontaktli o't oldirish tizimining ishchi tavsifnomasi

bo'lsa, uzilish tokining qiymati ham shuncha katta bo'ladi Lekin, ikkinchi tomonidan, induktivlik L ikkilamchi kuchlanishni aniqlash formulasi (3.4)ning ildiz ostidagi kasr suratiga kiradi va uni me'yordan ortiqcha kamaytilishi $U_{2\max}$ ning ham pasayishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtida o't oldirish g'altaginiq induktivligi va o'ramlar sonining eng optimal qiymatlari elektron-hisoblash mashinalari yordamida aniqlanadi.

2. Variatori qo'llanish. Ikkilamchi kuchlanish formulasi (3.4) o't oldirish tizimining tafsifnomasini yaxshilash, avvalo, uzilish toki I_u ni oshirish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu tokni oshirish uchun birlamchi zanjir qarshiligini kamaytirish kerak. Ammo uzgich kontaktlari kuymasdan uzoq vaqt ishlashi uchun ulardan o'tadigan tok $4,5 A$ dan ortmasligi kerak. Shuning uchun birlamchi zanjir qarshiligini uzgich kontaktlarining ishonchli ishlashini ta'minlaydigan qiymatidan kamaytirish mumkin emas. Ammo birlamchi zanjir qarshiligini undan o'tayotgan tok qiymatiga qarab avtomatik ravishda o'zgartirish mumkin. Buning uchun birlamchi zanjirga, odatda, temperatura koefitsiyenti katta bo'lgan nikel simdan o'rалган qo'shimcha qarshilik R_q variator ulanadi. Variatordan qanchalik katta tok o'tsa, u shunchalik ko'p qiziydi va o'z qarshiligini bir necha marta oshiradi. Variatorning bu xususiyatidan birlamchi zanjir qarshiligini, undan o'tayotgan tok qiymatiga ko'ra o'zgartirish uchun foydalilanadi.

O't oldirish tizimi va g'altak parametrlari shunday hisoblanadiki, dvigatelning eng past aylanishlar chastotasida variator qizib eng katta qarshilikka ega bo'lganda, o't oldirish tizimi me'yorda ishlaydi va silindrlarda ishonchli o't oldirish jarayoni ta'minlanadi. Bu holda birlamchi zanjirdan o'tayotgan tok eng katta qiymatga ega bo'ladi.

Endi, aylanishlar chastotasi ortishi bilan uzgich kontaktlarining tutashib turish vaqtiga t , kamaya boshlaydi va birlamchi zanjirdan o'tayotgan tok i_1 qiymati ham pasaya boshlaydi. Birlamchi tok i_1 ning pasayishi variator o'ramlarining sovushiga va qarshiligining kamayishiiga olib keladi. Birlamchi zanjirdagi qo'shimcha qarshilik qiymatining kamayishi, birlamchi tok qiymatining nisbatan ortishiga olib keladi. Xulosa qilganda, o't oldirish tizimida variator qo'llanishi dvigatelning aylanishlar chastotasi ortishi bilan birlamchi tok i_1 va ikkilamchi kuchlanish $U_{2\max}$ ning pasayish tezligi kamayib, o't oldirish tizimining aylanishlar chastotasi bo'yicha ishlash doirasini kengaytirish imkoniyatini beradi (3.8-rasm).



3.8-rasm. Kontaktli o't oldirish tiziminining variatorsiz (1) va variator ulangandagi (2) tafsifnomasi


3.2.4. O't oldirish ilgarilatish burchagini rostlash usullari

Dvigatelning o'zgarib turuvchi ish tartibiga mos ravishda o't oldirishning ilgarilatish burchagini rostlash uchun o't oldirish tizimi avtomatik va dastaki rostlagichlari bilan jihozlanadi. Dvigatelning aylanishlar chastotasiga bog'liq ravishda o't oldirishni ilgarilatish burchagini avtomatik o'zgartirish markazdan qochma rostlagich, yuklamaga bog'liq ravishda esa – vakuum rostlagich yordamida amalga oshiriladi. Ilgarilatish burchagining boshlang'ich kattaligini o'rnatish yoki yonilg'inining turiga ko'ra uni dastaki rostlash uchun oktan-korrektor ishlataladi.


Markazdan qochma rostlagich. O't oldirish ilgarilatish burchagini markazdan qochma rostlagichi quydagicha tuzilgan (3.9-rasm). Yetakchi val 4 ga plastina mahkamlangan bo'lib, uning chetiga o'rnatilgan ikki o'q 7 ga yukchalar 2 joylashtirilgan. Yukchalar o'qlar 7 atrofida aylana oladi va o'zaro prujinalar 6 vositasida bog'langan. Har bir yukchaga shtift 5 o'rnatilgan bo'lib, u kulachok 1 vtulkasiya mahkamlangan flanets 3 ning qiya ariqchasiga kirib turadi. Harakat val 4 dan yukchalar 2 orqali kulachok 1 ga uzatiladi.

Rostlagich quydagicha ishlaydi. Dvigatelning aylanish chastotasi ortishi bilan (taxminan 400 min⁻¹ dan boshlab) yukchalar markazdan qochma kuch ta'sirida prujinalar kuchini yengib, o'z o'qi atrofida ikki tomonga ajrala boshlaydi. Bu vaqtida yukchalardagi shtiftlar flanetsning qiya ariqchalariga kirib turganligi tufayli, uni va u bilan birga kulachokni valning aylanish yo'nalishi bo'ylab ma'lum burchakka buradi. Natijada, kulachok qirralari uzgich kontaktlarini oldinroq uzib, o't oldirishning ilgarilatish burchagini oshiradi. Aylanishlar chastotasi kamayganda yukchalar prujinalar ta'sirida o'zining dastlabki holatiga qaytadi. Prujinalar har xil qayishqoqlikka ega va bu dvigatel aylanishlar chastotasi o'zgarganda o't oldirishning ilgarilatish burchagini talab qilingan qonuniyat bo'yicha o'zgartirish imkoniyatini beradi.

Vakuum-rostlagich. Vakuum-rostlagich o't oldirishning ilgarilatish burchagini dvigatelning yuklamasiga ko'ra rostlash uchun xizmat qiladi. Yuklama kam bo'l ganda silindrarning yonilg'i aralashmasi bilan to'lish darajasi, va demak, o't olish da-qiqasidagi bosim pasayadi. Shu bilan birga yonilg'i aralashmasining qoldiq gazlar bilan ifloslanishi kuchayadi, natijada yonish tezligi kamayadi. Bu esa o't oldirishning ilgarilatish burchagini oshirish zaruriyatini tug'diradi. Yuklama ortishi bilan silindrarning yonilg'i aralashma bilan to'lish darajasi ortib boradi,



3.9-rasm. Markazdan qochma rostlagich



3.10-rasm. Vakuum-rostlagich

lashtirish kamerasi bilan bog'langan. Ikkinci yarim bo'shlig'i esa atmosfera bilan tutashtirilgan. Diafragma 4 ga tortqi 6 mahkamlangan bo'lib, u sharnirli birikma yordamida uzgich o'rnatilgan qo'zg'aluvchi plastina 7 bilan bog'langan. Qo'zg'aluvchi plastina zoldirlri podshipnikka o'rnatilgan bo'lib, bu vakuum-rostlagichning sezuvchanlik darajasini oshiradi.

Vakuum-rostlagich quyidagicha ishlaydi. Dvigatel yuklamasi kamayganda drossel to'siqchasi qiya berkitiladi va vakuum rostlagich naychasi 2 ulangan joyda, demak, diafragmaning o'ng tomonidagi yarim bo'shliqda havoning siyraklashishi ortadi. Natijada, ikkita yarim bo'shliqlar orasida vujudga kelgan bosimlar farqi ta'sirida diafragma 4 prujina 3 kuchini yengib harakatga keladi va u bilan birga harakatlangan tortqi 6 qo'zg'aluvchi plastina 7 ni, unga joylashtirilgan uzgichni kulachok aylanishiga qarama-qarshi yo'nalishda buradi. Bu o't oldirishning ilgarilatish burchagini oshiradi. Dvigatel yuklamasi ortishi bilan drossel to'siqchasi ham ochila boshlaydi, diafragmaning o'ng tomonidagi bo'shliqda havoning siyraklashishi kamayadi va prujina 3 diafragmani, u bilan bog'liq bo'lgan tortqini o'ng tomonga harakatlantiradi. Tortqi qo'zg'aluvchi plastinani va uzgichni kulachok aylanishi yo'nalishida burib, o't oldirishning ilgarilatish burchagini kamaytiradi.

Dvigatel salt ishlaganda drossel to'siqchasi naycha 2 ning karbyuratorga tutashgan teshikchasini berkitib qo'yadi va vakuum-rostlagich ishlamaydi.

Oktan-korrektor. Oktan-korrektor (3.11-rasm) o't oldirishning ilgarilatish burchagini qo'llanilayotgan yonilg'ining oktan soniga ko'ra $\pm 12^\circ$ doirasida o'zgartirish imkoniyatini beradi. Oktan-korrektor yordamida o't oldirishning ilgarilatish burchagini o'zgartirish uzgich-taqsimgach qobig'inii yetakchi valga nisbatan burash hisobiga amalga oshiriladi. Buning uchun mahkamlovchi boltlar 2 va

qoldiq gazlar miqdori esa aksincha, kamayib boradi va yonish tezligi ortadi. Demak, bu holda o't oldirishning ilgarilatish burchagini kamaytirish kerak bo'ladi.


Vakuum-rostlagichning tuzilishi 3.10-rasmda keltirilgan. U ichki bo'shlig'i elastik diafragma 4 bilan bo'lingan qobiq 5 va uning qopqog'i 1 dan iborat bo'lib, uning prujina 3 joylashtirilgan o'ng yarim bo'shlig'i naycha 2 yordamida drossel to'siqchasingin yuqori qismidagi karbyuratorning ara-

3 bo'shatiladi va rostlagich gaykalar 6 ni aylantirish hisobiga uzgich-taqsimlagich qobig'i u yoki bu tomonga buraladi. Rostlash tugatilgandan keyin mahkamlanuvchi boltlar va rostlagich gaykalar yana tortib mahkamlanadi. Yuqorida keltirilgan uch moslama bir-biriga bog'liq bo'limgan holda uzgich-taqsimlagichning turli qismlariga ta'sir qiladi. Xususan, markazdan qochma rostlagich – uzgich kulachogini, vakuum-rostlagich – qo'zg'aluvchi plastina bilan birgalikda uzgichni va oktan-korrektor – uzgich-taqsimlagich qobig'iniburaydi.

Amalda o't oldirishning ilgarilatish burchagini real qiymati boshlang'ich burchak (Θ_0) va oktan-korrektor, markazdan qochma (Θ_1), vakuum rostlagichlar (Θ_2) o'rnatgan burchaklar yig'indisiga teng bo'ladi (3.12-rasm).


Uzgich kontaktlari orasidagi tirkishning o'zgarishi va uzgich pishangchasi yostiqchasining yeyilishi ham o't oldirishning ilgarilatish burchagi ortishiga yoki kamayishiga olib keladi. Shuning uchun, dvigatelda o't oldirish daqiqasini o'rnatishda hamda markazdan qochma vakuum-rostlagichlarni tekshirish va rostlashdan avval uzgich kontaktlari orasidagi tirkishni va uning pishangchasi yostiqchasining yeyilganlik darajasini tekshirish tavsiya qilinadi.

O't oldirish tizimi ishchonchli ishlashini ta'minlashda uzgich kontaktlari orasidagi tirkishning belgilangan qiymat doirasida bo'lishi katta ahamiyatga ega. Chunki bu tirkish kattaligi kontaktlar tutashib turish burchagi qiymatini (3.11-rasmga qarang) yoki o't oldirish



3.11-rasm. Oktan-korrektor:

I – o't oldirish daqiqasini o'rnatish pishangi; 2 – pishangning mahkamlash bolti; 3 – oktan-korrektorning mahkamlash bolti; 4 – uzgich-taqsimlagich qobig'i; 5 – oktan-korrektor shkalasi; 6 – rostlagich gaykali; 7 va 8 – uzgich kontaktlari.I va II – kontaktlar orasidagi tirkishning katta va kichik bo'lgan hollari.



3.12-rasm. Markazdan qochma va vakuum-rostlagichlar birgalikda ishlaga, o't oldirishning ilgarilatish burchini o'zgarishi:

1 – markazdan qochma rostlagich tavsifnomasi; 2 – vakuum-rostlagichning, dvigatelning yuklamasi turli qiymatlarga ega bo'lgandagi tavsifnomasi.

g'altagini birlamchi chulg'amidagi tok kuchining avj olish vaqtini belgilaydi. Kontaktlarning tutashib turish burchagi maxsus qurilmalar yoki ko'chma asboblar yordamida rostlanadi.

Dvigatelning silindrlar soniga ko'ra uzgich kontaktlarning tutashib turish burchagi va ular orasidagi tirkish (agar ishlab chiqaruvchi zavod ko'rsatmasi bo'lmasa) quyidagi qiymatlarga ega bo'ladi:


Silindrlar soni	4	6	8
Kontaktlarning tutashib turish burchagi, grad	$43^\circ \pm 3$	$39^\circ \pm 3$	$30^\circ \pm 3$
Kontaktlar orasidagi tirkish, mm	$0,4 \pm 0,05$	$0,4 \pm 0,05$	$0,35 \pm 0,05$

3.2.5. Kontaktli o't oldirish tizimi jihozlarining tuzilishi

O't oldirish g'altagi. Magnit zanjirining tuzilishiga ko'ra, o't oldirish g'altaklarining ikki turi mavjud: magnit o'tkazichlari uzuq va tutash g'altaklar. Kontaktli o't oldirish tizimida tuzilishi sodda bo'lgan magnit o'tkazgichlari uzuq g'altaklar qo'llaniladi. Bundan tashqari, o't oldirish g'altaklar chulg'amlarining o'rالish tartibi bilan ham farqlanib, birlamchi chulg'ami ichki va tashqi o'rالgan g'altak bo'lishi mumkin. Sovitish sharoitlari yaxshiligi va ikkilamchi chulg'amga sarflanadigan sim hajmi va uning qarshiligi kam bo'lishini hisobga olib, hamdo'stlik mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan avtomobillarda asosan birlamchi chulg'ami tashqi o'rالgan o't oldirish g'altaklari ishlataladi. O't oldirish g'altagini tuzilishi 3.13-rasmda keltirilgan.

G'altak o'zagi \neq , uyurma toklarni kamaytirish maqsadida qalinligi 0,35 mm bo'lgan, bir-biridan kuya bilan izolyatsiya qilingan elektrotexnik po'latdan tayyorlangan alohida plastinalardan yig'ilgan. O'zakka transformator moyi singdirilgan karton quvurcha 5 kiygizilib, uning ustiga diametri 0,07–0,09 mm ubti sirlangan mis simli, o'ramlar soni 18000–25000 chegarasida bo'lgan ikkilamchi chulg'am 6 o'rالgan. Bu chulg'am yuqori kuchlanishli tok ta'sirida ishlaganligi uchun uning har bir o'ram qatlamlari bir-biridan kabel qog'ozi bilan ajratiladi. Bundan tashqari, qisqa tutashish xavfini kamaytirish maqsadida oxirgi qatlamlardagi o'ramlar orasi da 2–3 mm tirkish qoldiriladi.

Diametri 0,52–0,86 mm o'ramlar soni 180–330 chegarasida bo'lgan sirlangan mis simli birlamchi chulg'am 8 ikkilamchi chulg'am ustidan o'rالadi. Ikkilamchi va birlamchi chulg'amlar orasiga elektrotexnik kartondan tayyorlangan quvurcha 7 joylashtirilgan. Chulg'amlarning bu tarzda joylashtirilishi ish jarayonida ko'proq qiziydigan birlamchi chulg'amdan ajralib chiqqan issiqlikni tashqi muhitga tarqatishni osonlashtiradi. G'altak chulg'amlari sirtqi tomonidan 5–6 qavat transformator qog'ozi bilan o'rالadi.



3.13-rasm. O't oldirish g'altagi

G'altak o'zagi va unga o'ralgan chulg'ammlar po'latdan shtamplash yoki aluminiy qotishmalaridan quyish yo'li bilan tayyorlangan qobiq 2 ning tagidagi chinni izolyator 9 ga o'rnatiladi. G'altak chulg'ammlari atrofidagi magnet oqimini kuchaytirish maqsadida qobiq bilan chulg'ammlar orasiga elektro- texnik po'latdan yasalgan ikkita yarim silindr sirtdan iborat magnit o'tkazgich 3 joylashtirilgan. Chulg'ammlar va qobiq orasidagi bo'shliqlarga izolyatsiya to'ldirgichlar quyiladi: erish temperaturasi $145-160^{\circ}\text{C}$ bo'lgan rubraks (Б1, Б7... belgili g'altaklarda) yoki transformator moyi (Б13, Б115, Б117... belgili g'altaklarda).

G'altak qobiq'i ustki tomonidan karbolit qopqoq 13 bilan berkitiladi. Zichlikni ta'minlash uchun qobiq 2 va qopqoq 13 orasiga rezina halqa 12 joylashtiriladi. Qopqoqdan to'rtta klemma chiqarilgan. Past kuchlanishli klemmalar 17 (BK)


va 18 (belgisiz)ga birlamchi chulg‘am uchlari ulanadi. Ikkilamchi chulg‘amning bir uchi kontakt plastina / orqali yuqori kuchlanish klemmasi 16 ga chiqariladi, ikkinchi uchi esa birlamchi chulg‘amning bir uchiga g‘altakning ichida ulanadi (avtotransformator sxemasi bo‘yicha ulanish). Prujina 15 plastina / ni klemma 16 ga siqib turadi va ular orasida kontakt yaxshi bo‘lishini ta’minlaydi. Qopqoq ichida plastina 4 ni yuqori kuchlanish klemmasi 16 ga tutashgan joyi izolyatsiya vtulkasi 14 bilan qo‘srimcha ravishda himoyalangan. Qopqoqdagi past kuchlanishli klemmalar 17 (BK) va 19 (BK-B) ga qo‘srimcha qarshilik (variator) ulanadi. Variator ikki qismdan iborat sopol ushlagichlar 10 orasiga joylashtirilgan spiralsimon qarshilik 11 dan iborat bo‘lib, u o‘t oldirish g‘altagidagi tayanchga mahkamlangan. G‘altakning klemmalari tashqi zanjir bilan quyidagicha bog‘langan: yuqori kuchlanishli klemma 16 – taqsimglagichning markaziy klemmasiga, klemma 18 – uzgichga, klemma 19 – tok manbayiga va klemma 17 – o‘t oldirish kalitidagi startyor ulagichiga ulanadi.

Ba’zi o‘t oldirish tizimlarida (masalan, BA3 turkumidagi avtomobillarida) elektrishga tushirish tizimlarining tavsifnomalari yuqori samaradorli bo‘lgani tufayli, dvigatelni ishga tushirish jarayonida akkumulatorlar batareyasi kuchlanishining pasayishi uncha katta bo‘lmaydi va birlamchi tok zanjiriga qo‘srimcha qarshilik (variator) qo‘yishga ehtiyoj qolmaydi.

Uzgich-taqsimlagich. Uzgich-taqsimlagich, o‘t oldirish g‘altagini birlamchi chulg‘am tok zanjirini belgilangan davriylik bilan uzib-ulab turish va yuqori kuchlanishni silindrarning ishlash tartibiga mos ravishda o‘t oldirish shamlariga taqsimlash hamda o‘t oldirishning ilgarilatish burchagini dvigatelning aylanishlar chastotasi va yuklamasiga ko‘ra avtomatik ravishda o‘zgartirib turish uchun xizmat qiladi.


3.14 rasmida ЗИЛ-130 avtomobillarida o‘rnatilgan Р-4Д belgili uzgich-taqsimlagichning tuzilishi keltirilgan. U uzgich, taqsimlagich, markazdan qochma va vakuum rostagichlar, oktan-korrektor va kondensatordan tashkil topgan. Cho‘yan qobiq 3 ga ikkita mis-grafit vtulkalar 4 presslangan bo‘lib, ularda uzgich kulachogi 14, taqsimlagich rotorini 9 va o‘t oldirish ilgarilatish burchagini markazdan qochma rostagichi 5 ning yuritmasi bo‘lgan val / aylanadi. Odatda, uzgich-taqsimlagich vali harakatni shesternya-shlitsli yoki kulachokli yuritma yordamida dvigatelning gaz taqsimlash validan yoki moy nasosi valining yuritmasidan oladi. Moy nasosi yuritmasining vali bilan to‘g‘ri holatda ilashishini ta’minalash maqsadida val / ning pastki qismi nosimmetrik kesikka ega. Parchin mix yordamida mahkamlangan vtulka 2, valni o‘q bo‘yicha siljishdan cheklaydi.

Uzgichning qo‘zg‘almas lappagi 6 qobiq 3 ga ikkita murvat bilan mahkamlangan. Qo‘zg‘almas lappakka o‘rnatilgan zoldirlri podshipnik 16 ning ichki halqasiga uzgichning qo‘zg‘aluvchi plastinasi 15 o‘tkazilgan bo‘lib, bu vakuum-rostagich



3.14-rasm. Р-4Д belgili uzgich-taqsimlagich

18 ning ishlash jarayonida plastina 15 yengil harakatlanishini ta'minlaydi. Birlamchi zanjir qarshiligini kamaytirish va podshipnik orqali tok o'tib, u ishdan chiqishi ga yo'l qo'ymaslik uchun uzgichning qo'zg'almas lappagi va qo'zg'aluvchi plastinalar o'zaro ko'p jilg'ali egiluvchan mis o'tkazgich 20 yordamida ulanadi. Uzgich qo'zg'almas kontaktining plastinasi uzgich pishangchasi 23 o'qiga o'rnatilgan va eksentrik 22 yordamida uni bu o'q atrofida aylantirish va shu yo'sinda kontaktlar orasidagi tirkishni rostlash mumkin. Qo'zg'almas kontakt plastinasi murvat 24 bilan lappak 6 ga mahkamlangan. Uzgich kontaktlari qattiqligi va erish temperaturasi yuqori bo'lgan volframdan yasaladi. Uzgich pishangchasi 23 ga tekstolitdan tayyorlangan yostiqcha va plastinasimon prujina mahkamlangan. Prujina pishangcha uchiga o'rnatilgan qo'zg'aluvchi kontakt ni qo'zg'almas kontaktga tirab turadi. Prujinaning ikkinchi uchi murvat yordamida tirkakchaga mahkamlangan. Tirkakcha qobiqdan izolyatsiya qilingan bo'lib, u egiluvchan mis o'tkazgich bilan uzgich qisqichi 26 ga ulangan. Prujinadan tok o'tib, uning qayishqoqligi yo'qolishining



3.15-rasm. 30.3706 belgili uzgich-taqsimlagich:

1 – moy qaytaruvchi lappak, 2 – shtift, 3 – shayba, 4 – qobiq, 5 – fils, 6 – moydon, 7 – uzgich, 8 – markazdan qochma rostlagich, 9 – taqsimlagich yugurdagi, 10 – ko'mir kontakt, 11 – qopqoq, 12 – yugurdakni mahkamllovchi murvati, 13 – prujinali mahkamlagich, 14 – kulachok, 15 – val, 16 – vtulka, 17 – kondensator, 18 – kondensatorni mahkamlash murvati.

oldini olish uchun, u bilan birga (ya'ni parallel zanjir sifatida) qalaylangan mis plastinasi mahkamlanadi.

Sakkiz qirrali uzgich kulachogi vtulka 17 ga presslangan. Kulachok aylanganda uning qirralari uzgich pishangchasiga mahkamlangan tekstolit yostiqchaga ta'sir qilib, kontaktlarni uzibulab turadi. Kulachok namatdan tayyorlangan fils-cho'tka 25 ga singdirilgan moy bilan moylanib turadi. Kulachok o'q bo'ylab yuqoriga harakatlanishi val 1 ning yuqori uchiga mahkamlangan qulfi halqa 13 bilan cheklanadi. Namat fils 8 val 1 dan uzgich ustiga moy sachrashidan saqlaydi.

Kulachok vtulkasi 17 ning yuqori uchidagi kesikka kat'iy belgilangan holatda taqsimlagich yugurdagi 9 o'rnatiladi. Uzgich-taqsimlagich qobig'i karbolitdan tayyorlangan qopqoq bilan berkitilib, ikkita plastinasimon prujinalar 7 bilan mahkamlanadi. Qopqoqning markazida joylashgan uyachadan o't oldirish g'altaginiq ikkilamchi chulg'amiga tutashgan markaziy, yuqori kuchlanishli o'tkazgich kiritilib, chekka qismida doira bo'ylab joylashgan va soni silindrlar soniga teng bo'lgan uyachalar 11 dan o't oldirish shamlari ga tutashadigan yuqori kuchlanishli o'tkazgichlar chiqariladi. Qopqoqning markaziy uyachasi ga ko'mir kontakt 12 joylashti-


rilib, u prujina yordamida yugurdakni jezdan yasalgan tok taqsimlash plastinasi-ga tirkab turadi. Ko'mir kontakt yugurdakning plastinasi va qopqoq chekkasidagi uyachalarga o'rnatilgan jez kontaktlar orqali yuqori kuchlanishli tok, dvigatel silindrlerining ish tartibiga mos ravishda o't oldirish shamlariga uzatiladi. Yugurdak plastinasi va qopqoq chekkasidagi kontaktlar orasidagi tirqish 0,25–0,8 mm ni tashkil qiladi. Taqsimlagichning ish jarayonida bu tirqishda hosil bo'ladigan uchqun ta'sirida uzgich-taqsimlagichning ichki qismida ozon va azot kislotasining bug'lari yig'ilib, uzgich kontaktlari, podshipnik va boshqa elementlar korroziyalanishi mumkin. Bu zararli hodisaning oldini olish uchun taqsimlagich qopqog'ida maxsus shamollatish teshikchasi qo'yildi.

30.3706 belgili uzgich-taqsimlagich (3.15-rasm) BA3 2103, 2106, 2107 avtomobillariga o'rnatilib, tuzilishi bo'yicha yuqorida ko'rilgan Р-4Д turkumidagi uzgich-taqsimlagichlardan jiddiy farq qiladi. Xususan, unda markazdan qochma rostlagich 8 uzgich-taqsimlagichning yuqori qismida to'rt qirrali uzgich kulachogi 14 ning ustiga joylashtiriladi. Bu kulachokni uzgich-taqsimlagich vali 15 ning tayanchlariga yaqinroq joylashtirish va shuning hisobiga vtulka yeyilishini kamaytirish hamda val podshipniklaridagi lyuftning uzgich kontaktlari orasidagi tirqishga ta'sirini susaytirish imkonini beradi.

Taqsimlagich yugurdag'i 9 ikki murvat 12 yordamida markazdan qochma rostlagichning yetaklovchi plastinasiga mahkamlanadi. Yugurdakda maxsus burt bo'lib, u yetaklovchi plastinadagi to'rt burchakli teshikchaga kiradi va yugurdaking to'g'ri holatda joylashishini ta'minlaydi.

30.3706 uzgich-taqsimlagichning qobig'i 4 aluminiy qotishmasidan quyilgan bo'lib, unga joylashtirilgan metalokeramikadan yasalgan vtulkalarda yetakchi val 15 aylanadi. Moydon 6 dan namat fils 5 orqali val va vtulka orasiga moy tomizib turiladi.

Kondensator uzgich-taqsimlagich qobig'inining ichki yoki tashqi qismiga o'rnatilishi mumkin. Kondensator (3.16-rasm) bir-biridan kondensator qog'ozisi 3 bilan izolyatsiya qilingan va rulon shakkida o'ralgan ikkita aluminiy tasmalar 2 dan iborat. Aluminiy tasmalar izolyatsiya qog'oziga nisbatan eni bo'yicha ikki tomoniga surilgan bo'lib, rulonga o'ralgandan keyin ularning ikki ko'ndalang chekkasi kondensatorning chiqish joyi bo'lib xizmat qiladi. Kabel qog'oziga o'ralgan rulonga, transformator moyi singdiriladi va rux qoplangan po'lat qobiq 1 ga joylashtiriladi. Alumin tasmaning biri kondensator



3.16-rasm. Kondensator


qobig'iga (ya'ni «massa»ga), ikkinchisi qobiqdan plastmassa qistirmalar bilan izolyatsiya qilingan po'lat shayba orqali tashqi o'tkazgichga ulangan.

Uzgich-taqsimlagichning ichki qismiga o'rnatiladigan kondensator o'lchami kichik bo'lib, qisqa tutashuv natijasida qoplamlarning teshilgan joyini o'zi tiklash xususiyatiga ega. Ular kondensator qog'ozsi ustida yupqa qalay va rux qatlamlarini hosil qilish yo'li bilan tayyorlanadi. O't oldirish tizimlarida sig'imi 0,17–0,25 mkF bo'lgan kondensatorlar ishlataladi.

O't oldirish kaliti. O't oldirish kaliti o't oldirish tizimi, startyor, nazorat-o'Ichov asboblari, radiopriyomnik va boshqa elektr jihozlarni avtomobilning tok manbayiga ulash va uzish uchun xizmat qiladi. U qulf va uzgichdan iborat (3.17-rasm). Qulfnинг barabani 6 ga kiritilgan kalit 7, barabanni va u bilan bog'langan rotor 3 ni aylanib ketishidan ushlab turadigan jez plastinalar 5 ni uyachalariga cho'ktiradi. Kalit aylantirilganda qo'zg'aluvchi kontakt 9 tok manbayiga ulangan markazi qisqich 10 (AM)ni IIP, K3 va CT klemmalari bilan ulangan 11, 12 va 13 kontaktlar bilan tutashtiradi.

Rotor 3 va baraban 6 joylashtirilgan qobiq 4 bir tomondan chiqarish klemmalarini bo'lgan karbolit qopqoq 1, ikkinchi tomondan mahkamash gaykasi 8 bilan berkitilgan. Fiksator 2 qulf rotorini ma'lum holatlarda ushlab turish uchun xizmat qilib, uning zoldirchalari prujina ta'sirida qobiqdagi uchburchak shaklidagi chuqurchalarga kirib turadi.

Qulf rotori uch holatni egallashi mumkin. Kalit 7 o'ng tomonga buralganda (I holat) o't oldirish tizimi, radiopriyomnik va nazorat-o'Ichov asboblari ulanadi. Kalitni o'ng tomonga burashni davom ettirsak (II holat) yuqoridagilarga qo'shimcha startyor ulanadi. II holatda kalitni (rotorni) qo'lda ushlab turish kerak, chunki fiksator zoldirchalari qobiqdagi yuza chuqurcha A ga kira olmaydi. Kalit chap tomoniga buralsa (III holat) radiopriyomnik ulanadi, va odatda, bu holat dvigatel ishlama-yotganda qo'llaniladi.



3.17-rasm. O't oldirish kaliti

3.2.6. Kontaktli o't oldirish tizimining kamchiliklari

Kontaktli o't oldirish tizimi bir qator afzalliklarga ega, jumladan ularning tuzilishi sodda, jihozlarining tannarxi nisbatan past, ikkilamchi kuchlanish qiymatini o'zgartirmasdan o't oldirishning ilgarilatish burchagini keng doirada rostlash imkonini bor. Shu bilan birga, bu tizim kontaktli uzgich va o't oldirishning ilgarilatish burchagini rostlovchi mexanik avtomatlarning ishi bilan bog'liq bo'lgan qator kamchiliklarga ega:

– mexanik kontaktlar mavjudligi birlamchi tok, va demak, ikkilamchi kuchlanish qiymatini cheklaydi. Bundan tashqari, kontaktlar uzilganda ular orasida hosil bo'ladigan elektr uchqunlar, kontaktlar korroziyaga uchrashiga va asta-sekin yemirilishiga olib keladi. Natijada, kontaktlar nisbatan tez ishdan chiqadi, ularda tok o'tkazmaydigan oksid qatlamlari hosil bo'ladi va o't oldirishda uzilishlar sodir bo'lish hollari kuzatiladi. Bu zararli hodisaning oldini olish uchun uzgich kontaktlari orasidagi tirqishni muntazam ravishda tekshirish va tozalab turish talab qiliлади;

– dvigatellarning yuqori va past aylanishlar chastotasida (ayniqsa, ko'p silindrli va aylanishlar chastotasi katta bo'lgan dvigatellar uchun) ikkilamchi kuchlanish qiymati yonilg'i ni barqaror o't oldirish uchun yetarli bo'lmaydi;

– o't oldirishning ilgarilatish burchagini rostlash uchun qo'llaniladigan mexanik avtomatlar o't oldirishni ilgarilatishning eng manfaatlari burchagini $8-10^\circ$ gacha xatolik bilan belgilaydi va ularda yonish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillarni (sovitish suyuqligining harorati, drossel to'siqchasingin holati, detonatsiya va hokazo) hisobga olish imkoniyati yo'q.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklar kontaktli o't oldirish tizimining ishonchli ishlash darajasini pasaytiradi (ayniqsa, yuqori aylanish chastotali va ko'p silindrli dvigatellarda), yonish jarayonini yomonlashtirib, dvigatelning quvvati va tejamliligining kamayishiga olib keladi.

3.3. KONTAKT TRANZISTORLI O'T OLDIRISH TIZIMI

Dvigatellarni takomillashtirish yo'nalishi, ularning tejamliligin oshirish va $1 kW$ quvvatga to'g'ri keladigan massasini kamaytirish bilan bir qatorda, aylanishlar chastotasi va silindrлarda yonilg'i-havo aralashmasini siqish darajasining tobora ortib borishi bilan ham tavsiflanadi. Zamonaviy dvigatellarda aylanishlar chastotasi $5000-8000 \text{ min}^{-1}$ ga yetgan, yonilg'i aralashmasini siqish darajasi hozirgi kunda $7,0-8,5$ ni tashkil qilayotgan bo'lsa, kelajakda bu ko'rsatkichni $9,0-10,0$ va undan yuqoriroq qiymatlarga ko'tarish mo'ljallanmoqda. Aylanishlar chastotasi va siqish darajasining bu tarzda ortishi, yonilg'i me'yorida o't olishini ta'minlash uchun, o't oldirish tizimining ikkilamchi kuchlanishini sezilarli darajada oshirilishini talab qiladi. Bundan tashqari, dvigatellar tejamliligin oshirishga intilish ularda, aksariyat

holda, suyultirilgan yonilg'i aralashmasini ishlatishga majbur qiladi. Suyultirilgan yonilg'i aralashmasini ishonchli ravishda o't oldirish uchun o't oldirish shamingning elektrodlari orasidagi tirqishni kattalashtirish, ya'ni uchqun uzunligini va quvvatini oshirish kerak bo'ladi. Hozirgi zamon dvigatellarida o't oldirish shamingning elektrodlari orasidagi tirqish $0,8\text{--}1,2 \text{ mm}$ ni tashkil qiladi. Demak, dvigatelni tejamli ishlashini ta'minlash uchun ham ikkilamchi kuchlanish qiyamatini oshirish zarur.

Shunday qilib, aylanish chastotasi va siqish darajasi katta bo'lgan tejamli ishlaydigan hozirgi zamon dvigatellariga o'rnatiladigan o't oldirish tizimiga ancha yuqori talablar qo'yiladi. Xususan:

- ikkilamchi kuchlanish qiyamatini oshirish bilan birga ishonchlilik darajasini va xizmat muddatini ko'tarish;

- uchqunli razryad energiyasining qiymati, dvigatelning hamma rejimlarida yonilg'i aralashmasini ishonchli o't oldirish uchun yetarli bo'lishi kerak ($15\text{...}50 \text{ mJ}$ va undan ortiq);

- turli xil ekspluatatsiya sharoitlarida (o't oldirish shamlarining ifoslanishi, atrof-muhit haroratining o'zgarishi, tok manbayi kuchlanishining kamayib-ortishi va hokazo) barqaror uchqun hosil bo'lishini ta'minlash;


- hamma elementlar katta mexanik yuklamalar ta'sirida barqaror ishlashini ta'minlash.

Kontaktli (klassik) o't oldirish tizimi yuqoridaq talablarga ko'p jihatdan javob bera olmaydi. Chunki unda ikkilamchi kuchlanishni oshirishning amalda yagona yo'li – uzilish toki I_u qiyamatini oshirishdir. Ammo uzilish tokining $4,0\text{--}4,5 \text{ A}$ dan ortishi, uzgich kontaktlari kuyishiga va tezda ishdan chiqishiga olib keladi. Zamonaviy dvigatellarda o't oldirish jarayonining ishonchliligin oshirish talabi yangi turdag'i o't oldirish tizimlarining yaratilishiga olib keldi.

O't oldirish tizimi avj oldiradigan ikkilamchi kuchlanishni oshirish yo'llaridan biri, birlamchi tok zanjirini uzish uchun boshqaruvchi kalit vazifasini bajaruvchi yarimo'tkazgich asboblarini ishlatishdir. Kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimi, yarimo'tkazgichlar ishlatilgan birinchi tizimlar qatoriga kiradi.

Kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimi asosan quyidagi elementlardan iborat (3.18-rasm): tranzistorli kommutator 6 (TK-102), o't oldirish g'altagi 8 (Б114), uzgich-taqsimalgich 7,9 (Р4-Д, Р13-Д, Р133, Р137 va boshqa), rezistorlar bloki 4, 5 (СЭ107).

Tranzistorli kommutator o't oldirish tizimining birlamchi zanjirini unga uzatilayotgan signalga mos ravishda uzib-ulab turish uchun xizmat qiladi. Uning tarkibiga katta quvvatli germaniyli tranzistor VT (ГТ701А), stabiliton VD1 (Д817В), diod VD2 (Д226), impuls transformatori IT, kondensatorlar C1 (1,0 μkF) va C2 (50 μkF), rezistorlar R1 (1,0 Ω) va R2 (200 Ω) kiradi. Tranzistor VT ning emitter-kollektor o'tish joyi o't oldirish g'altagini birlamchi chulg'ami zanjiriga, baza-si esa impuls transformatorining birlamchi chulg'ami orqali uzgich 6 kontaktiga ulangan.



3.18-rasm. Kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimining elektr sxemasi

Tizim quyidagicha ishlaydi. O't oldirish kaliti 2 ulanib va uzgich kontaktlari tutashgan holda tranzistor VTning emitter-baza o'tish joyidan quyidagi zanjir bo'yicha boshqarish toki o'ta boshlaydi: akkumulatorlar batareyasi 1 ning musbat qutbi → o't oldirish kaliti 2 → rezistorlar bloki C3107 → o't oldirish g'altagi 8 ning birlamchi chulg'ami → tranzistor VT ning emitter-baza o'tish joyi → impuls transformator IT ning birlamchi chulg'ami W1 → uzgich kontaktlari → «massa» → akkumulatorlar batareyasi 1 ning manfiy qutbi.

Boshqarish toki I_b ning qiymati $0,8 \text{ A}$ dan ortmaydi. Dvigatel tirsakli valining va demak, uzgich kulachogining aylanish chastotasi ortishi bilan uzgich kontaktlarining tutashib turish vaqtı kamayishi tufayli boshqarish tokining qiymati $0,3 \text{ A}$ gacha kamayadi. Tranzistorning emitter-baza o'tish joyidan boshqarish toki o'tishi natijasida tranzistorning emitter-kollektor o'tish joyining qarshiligi keskin kamayadi va nolga yaqinlashadi. Tranzistor VT ochiladi va birlamchi zanjir bo'ylab tok I_1 o'ta boshlaydi: akkumulatorlar batareyasi 1 ning musbat qutbi → o't oldirish kaliti 2 → rezistorlar bloki C3107 → o't oldirish g'altagi 8 ning birlamchi chulg'ami → tranzistor VT ning emitter-kollektor o'tish joyi → «massa» → akkumulatorlar batareyasi 1 ning manfiy qutbi. Birlamchi tok I_1 ning qiymati $7-8 \text{ A}$ ni tashkil qiladi va tirsakli valning aylanishlar chastotasi ortishi bilan $3,0 \text{ A}$ gacha kamayib boradi.

Dvigateli ishga tushirish jarayonida o't oldirish tizimi me'yorida ishlashini ta'minlash uchun, startyor tok manbayiga ulanib turgan vaqt davomida tortish relesining kontaktlari vositasi bilan rezistorlar bloki C3107 dagi qo'shimcha qarshilik 4 qisqa tutashtiriladi, ya'ni birlamchi tok zanjiridan chiqarib turiladi.

Uzgich kontaktlarining ajralishi boshqarish toki I_b ning zanjiri uzilishiga va tranzistorning emitter-kollektor o'tish joyi qarshiligi keskin ortishiga olib keldi. Tranzistor yopiladi, birlamchi tok zanjiri uziladi va uning ta'sirida o't oldirish g'altagida hosil bo'lgan magnit maydon katta tezlik bilan yo'qola boshlaydi. Yo'qolib borayotgan magnit maydonning kuch chiziqlari o't oldirish g'altagi chulg'ammlarini kesib o'ta boshlaydi va ularda o'zinduksiya EYuK induksiyalaydi. Birlamchi zanjirdan o'tayotgan tok I_1 ning qiymati 7–8 A gacha oshirilganligi tufayli ikkilamchi kuchlanish $U_{2\max}$ ning qiymati ham ortib 25000–30000 V ni tashkil qiladi. Ikkilamchi kuchlanish zanjiri: o't oldirish g'altagi 8 ning ikkilamchi chulg'ami → taqsimlagich 9 → o't oldirish shami 12 → «massa» → o't oldirish g'altaginiq ikkilamchi chulg'ami.

O't oldirish g'altaginiq birlamchi chulg'amida induksiyalangan 100 V ga yaqin o'zinduksiya EYuK, C1 kondensatorni zaryad qilishga ketadi va tranzistor yopilish davrida yo'qotadigan quvvatini kamaytiradi va uni ortiqcha qizib ketishdan saqlaydi.

Impuls transformatori IN tranzistor VT ning yopilishini tezlatish uchun xizmat qiladi. Uning birlamchi chulg'ami uzgich kontakti bilan ketma-ket ulangan. Uzgich kontaktlari uzilganda, It ning ikkilamchi chulg'ami W2 da hosil bo'lgan o'zinduksiya EYuK impulsi qarshilik R2 ga uzatiladi. R2 qarshilikda yuzaga kelgan kuchlanish, tranzistorning emitter-baza o'tish joyiga, boshqarish tokiga teskari yo'nalishda ta'sir qiladi, ya'ni tranzistor bazasiga musbat, emitterga esa manfiy potensial uza tiladi. Natijada, tranzistor yopilishi, o't oldirish g'altagidagi magnit maydonining yo'qolishi tezlashadi va ikkilamchi kuchlanish qiymati ortadi. Rezistor R1 tranzistorni berkituvchi impulsni shakllantiradi va uning ta'sir vaqtini uzaytiradi.

Dvigatelning aylanishlar chastotasi kam bo'lganda yoki yuqori kuchlanish zanjirida uzilish mavjud bo'lsa, o't oldirish g'altaginiq birlamchi chulg'amida induksiyalanadigan EYuK qiymati ortib ketib, tranzistor qizib ketishi va kuyishi mumkin. Buning oldini olish maqsadida kondensator C1 ga parallel ravishda VD2 diod va VD1 stabilitoridan iborat zanjircha ulanadi. Diod VD2 akkumulatorlar batareyasi toki o't oldirish g'altaginiq birlamchi chulg'amidan o'tmasdan, stabilitor VD1 orqali o'tib ketishiga yo'l qo'yaydi. O't oldirish g'altaginiq birlamchi chulg'amida hosil bo'ladigan o'zinduksiya EYuKi 80 V dan ortishi bilan stabilitor VD1 teshilib, o'zidan o'zinduksiya tokini o'tkazib yuboradi va tranzistorni kuyishdan saqlaydi. O'zinduksiya EYuKi 80 V dan kam bo'lganda VD1 stabilitor yopiq bo'ladi va o'zinduksiya EYuK C1 kondensatorini zaryad qilishga sarflanadi. Elektrolitik kondensator C2 generatorga parallel ravishda ulangan bo'lib, u filtr vazifasini bajaradi va tranzistorni generator — akkumulatorlar zanjirida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan o'ta kuchlanish impulslaridan saqlaydi.

Tranzistorli kommutator TK-102 (3.19-rasm) issiqlikni yaxshiroq tarqatish uchun qovurg'ali qilib yasalgan quyma aluminiy qobiq I ga yig'ilgan. Tranzistor 5 maxsus chuqurchaga o'matilib, zichlashtirish uchun ustidan epoksid yel'm 4 quyil-


gan. Kommutatorning elektrolitik kondensatori 6 va impuls transformatori 3 dan boshqa elementlari umumiy blok 2 ga birlashtirilib, poliefir kompaundi bilan zichlashtirilgan. Stabilitron qizib ketmasligi uchun blok 2 issiqlik tarqatgich 8 bilan ta'minlangan. Pastki tomonidan kommutator qobiq 1 ga parchin mixlar bilan mahkamlangan metall taglik 7 bilan berkitilgan. Kommutatorning yon tomoniga chiqish qisqichlariga ega bo'lgan taxtacha mahkamlangan («P», «K», M va bitta qisqichi belgisiz).

Tranzistorli kommutator, odatda, harorati dvigatel bo'linmasiga nisbatan ancha past bo'ladigan haydovchi kabinasiga o'rnashtiriladi va bu tranzistorni qizib ketib ishdan chiqishdan saqlaydi.


Rezistorlar bloki CЭ107 (3.20-rasm) metall qobiq 1 ga joylashtirilgan, chinni izolyatorlar 2 ga mahkamlangan va konstantan simdan spiral 3 ko'rinishida o'ralgan qarshiliklar R_q1 ($0,5 \Omega$) va R_q2 ($0,5 \Omega$) dan iborat. Qarshiliklarning chiqish uchlari 4 ga plastina 5 vositasida K, BK, BK-Б belgilariga ega bo'lgan uchta chiqish qisqichlari ulangan.

Б114 belgili o't oldirish g'altagi kontaktli o't oldirish tizimida qo'llaniladigan g'altaklarga (Б115, Б117 va boshqa) nisbatan quyidagi konstruktiv farqlarga ega. O't oldirish g'altagineg birlamchi chulg'amining o'ramlar soni 250–300 dan 180 gacha kamaytirilib, diametri $1,25 \text{ mm}$ bo'lgan ПЭВ markali simdan, ikkilamchi chulg'ami o'ramlar soni esa aksinchcha 17000–26000 dan 41000 gacha oshirilib, diametri $0,06 \text{ mm}$ bo'lgan ПЭЛ markali simdan o'ralgan. Birlamchi chulg'am o'ramlar sonining kamaytirishi, birinchidan, uning qarshiligi kamayishiga va birlamchi tok I_1 qiymati ortishiga olib kelsa, ikkinchidan, chulg'am induktivligi kamayib, uzgich kontaktlari uzilganda hosil bo'ladigan o'zinduxsiya ЕҮК qiymati ham pasayadi va bu tranzistorni kuyishdan saqlaydi.


Kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimida qo'llaniladigan uzgich-taqsimlagichlarga kondensator qo'yilmaydi. Keyingi vaqtida kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimlarda yuqorida ko'rilgan Р4-Д va Р13-Д belgili uzgich-taqsimlagichlar bilan bir qatorda Р133 va Р137 belgili uzgich-taqsimlagichlar (3.21-rasm) ishlatalmoqda.



3.19-rasm. Tranzistorli kommutator TK-102



3.20-rasm. Rezistorlar bloki CЭ-107



3.21-rasm. P133 va P137 belgili uzgich-taqsimlagichlar:

a – umumiy ko‘rinishi; b – yuqoridaan ko‘rinishi c) markazdan qochma rostagich; 1 – val; 2 – mufta; 3 – oktan-korrektorni mahkamlash bolti; 4 – qobiq; 5 – bronza vtulka; 6 – markazdan qochma rostagich; 7 – podshipnik; 8 – kuzg‘almas lappak; 9 – qo‘zg‘aluvchi lappak; 10 – plastinasimon prujina; 11, 30 – filslar; 12 – yugurdak; 13 – rezistor; 14 – qopqoq; 15 – chiqish joylari; 16 – prujina; 17 – kontakt ko‘mirchasi; 18 – qopqoqdagi yon elektrodlar; 19 – kulachok; 20 – oktan-korrektor; 21 – vakuum-rostagich; 22 – tortqi; 23 – qo‘zg‘aluvchi lappakni qobiqga ulaydigan o‘tkazgich; 24 – gayka; 25 – ekssentrik; 26 – qo‘zg‘almas kontakt ushlagichi; 27 – pishangcha; 28 – murvat; 29 – kontaktlar; 31 – o‘tkazgich; 32 – qisqich; 33 – kulachok vtulkasi; 34 – prujina; 35 – yetaklovchi plastina ustunchasi; 36 – kulachokni yetaklovchi platinasi; 37 – yukchalarining yetaklovchi platinasi; 38 – yukcha; 39 – yukcha o‘qi; 40 – kulachokning yetaklovchi platinasidagi shtift.

Ularda taqsimlagich yugurdagi va markazdan qochma rostagich tuzilishi o‘zgartirilgan. Taqsimlagich yugurdagiga qarshiliqi $4-5\text{ k}\Omega$ bo‘lgan va simdan yasalgan shovqin bosqich rezistor 13 o‘rnatilgan. Markazdan qochma rostagich tuzilishiga jiddiy o‘zgartirish kiritilgan. Rostlagichning ishlash jarayonida, yukchalar o‘z o‘qlari atrofida aylanadi. Tirsaklı valning aylanishlar chastotasi ortishi bilan yukchalar o‘zining ishchi yuzasi A bilan kulachokning yetaklovchi platinasini bosadi va prujina 34 ning tortish kuchini yengib, kulachokni o‘t oldirishni ilgarilatish burchagini oshirish yo‘nalishida buradi. Markazdan qochma rost-

lagichning zarur tavsifnomasi, yukchalarini ishchi yuzasi A ga kerakli shakl berish va prujina bikirligini tanlash yo'li bilan ta'minlanadi.


3.4. ELEKTRON O'T OLDIRISH TIZIMLARI

3.4.1. Umumiy ma'lumotlar


Kontaktli o't oldirish tizimi tarkibiga tranzistor kiritilishi, bu sistemaga xos bo'lgan barcha kamchiliklarni bartaraf qilish imkoniyatini bermaydi. Xususan, ko'p silindrli dvigatellarda aylanishlar chastotasining katta qiymatlarda uzgich pishangchasining dirillash hodisasi ro'y berib, bu bir sikl (ya'ni bir uchqun hosil bo'lish uchun ajratilgan vaqt) davomida kontaktlarni ko'p marta uzilib-tutashishi-ga olib keladi. Natijada, bir uchqun o'rniqa quvvati ancha kam bo'lgan bir necha uchqun hosil bo'ladi, o't oldirishni ilgarilatish burchagini belgilangan qiymati o'zgarib ketadi, o't oldirish ishonchli amalga oshirilmaydi. Bundan tashqari uzgich kontaktlarining yeyilishi, oksidlanishi va ifloslanishi o't oldirish tizimining ishonchlik darajasini pasaytiradi. Kontaktlar oksidlanishi, ifloslanishi va moylanib qolishi, ularning kontakt qarshiligi ortib ketishiga va tranzistorning boshqarish toki I_b qiymatining kamayib ketishiga olib keladi. Bu tranzistorning ochilmaslik va o't oldirish tizimini ishlamaslik hollarini vujudga keltiradi. Ishlatish davrida qo'shimcha mehnat va vaqt sarf qilib, muntazam ravishda, uzgich kontaktlarining tutashib turish burchagini rostlab turish ehtiyoji ham kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimining kamchiliklariga kiradi.

Zamonaviy avtomobillarda keng qo'llanilayotgan kontaktlitsiz-tranzistorli o't oldirish tizimlari yuqorida keltirilgan kamchiliklardan holdir. Bu o't oldirish tizimlaridagi asosiy yangilik – uzgich kontaktlari ning yo'qligidir. Uning vazifasini kontaktlitsiz datchiklar bajaradi. Kontaktlitsiz-tranzistorli o't oldirish tizimlari bir-biridan asosan datchiklarning turi va tuzilishi bilan farq qiladi.

Magnitoelektr datchik (3.22-rasm) uzgich-taqsimlagich 2 valiga o'rnatilgan doimiy magnit 3 va o'zakka o'ralgan statyor chulg'ami 4 dan iborat. Doimiy magnit aylangan-da, uning magnit maydon ta'sirida startyor chulg'amida o'zgaruvchan EYuK induksiyanadi.



3.22-rasm. Magnitoelektr datchikli kontaktlitsiz-tranzistorli o't oldirish tizimi



3.23-rasm. Magnitoelektr datchik sxemasi:

1 – magnit, 2 – statyor, 3 – chulg‘am.


silindrli dvigatellar uchun datchikning just magnit qutblari soni silindrler soniga teng bo‘lishi kerak.

3.23-rasmda 4 silindrli dvigatellar uchun mo‘ljallangan magnitoelektr datchikning sxemasi keltirilgan.

Magnitoelektr datchik ishlashining o‘ziga xos tomonlaridan biri, statyor chulg‘amida hosil bo‘ladigan EYuK amplitudasi doimiy magnitni, ya’ni tirsakli valning aylanishlar chastotasiga bog‘liqligidir. Aylanish chastotasi ortishi bilan EYuK amplitudasi ham ortadi. Bu esa tranzistor ochilishi va yopilishi va demak o‘t oldirish daqiqasi o‘zgarishiga olib keladi.

Aylanish chastotasi va yuklamaning o‘t oldirishning ilgarilatish burchagi ta’siri kontaktsiz-tranzistorli o‘t oldirish tizimining to‘ngich avlodlarida ham markazdan qochma va vakuum rostlagichlar yordamida hisobga olinadi.

Magnitoelektr datchiklar avj oldiradigan EYuK qiymati juda kichik va u tranzistorni ochish uchun yetarli bo‘lmaganligi tufayli kontaktsiz o‘t oldirish sistemalarining amaliy sxemalarida maxsus bir necha bosqichli ko‘chaytirgichlar qo‘llaniladi.



3.24-rasm. Yuqori chastotali generator-datchikning umumiy sxemasi

Datchik kuchlanishining musbat yarim davri qiymati ta’sirida tranzistor 5 ochiladi va akkumulatorlar batareyasi 8 dan o‘t oldirish g‘altagi 6 ning birlamchi chulg‘ami hamda tranzistorning kollektor-emitter o‘tish joyi orqali birlamchi tok I_1 o‘ta boshlaydi. Datchik kuchlanishi manfiy bo‘lganda tranzistor yopiladi, o‘t oldirish g‘altagineg ‘birlamchi chulg‘amidan o‘tayotgan tok zanjiri uziladi va ikkilamchi chulg‘amda yuqori kuchlanish induksiyalanadi. Shunday qilib, datchik magniti bir aylanganda chulg‘am 4 da EYuKning bitta musbat va bitta manfiy impulsi mavjud bo‘ladi va natijada tranzistor bir marta ochilib, bir marta yopiladi, ya’ni o‘t oldirish g‘altagida yuqori kuchlanishning bir impulsi hosil bo‘ladi. Ko‘p

ikkilamchi chulg'am o'zaklari orasidagi havo tirkishining magnit qarshiligiga bog'liq. Bu magnit qarshilik dvigatel silindrlar soniga teng teshiklarga ega bo'lgan po'lat rotor yordamida davriy ravishda o'zgartirilib turadi. Transformator o'zaklari orasiga rotor teshiklari to'g'ri kelganda, havo tirkishining magnit qarshiliqi eng katta va aksincha, o'zaklar orasi rotor tanasi bilan berkitilganda eng kichik qiymatga ega bo'ladi. Transformatorning ikkilamchi chulg'amida hosil bo'ladigan kuchlanish ham shunga mos ravishda o'zgaradi.

Fotoelektr datchik (3.25-rasm) eng umumiyo ko'ri-nishda yorug'lik manbayi, darchalari silindrlar soniga teng bo'lgan aylanuvchi lappak va yorug'lik sezuvchi elementdan iborat bo'ladi. Uzgich-taqsimlagich valiga mahkamlangan lappak aylanganda yorug'lik manbayi 1 dan chiqqan nur lappak darchasidan o'tib, yorug'lik sezuvchi element 2 ga tushganda, unda o'zgaruvchan kuchlanish hosil bo'ladi. Yorug'lik sezuvchi element sifatida fotodiод, fototranzistor yoki fotoelement ishlatalishi mumkin. Fotoelektr datchiklarning qo'llanilishi vibratsiyaga chidamli, uzoq muddat davomida ishllovchi yorug'lik manbayi yo'qligi bilan cheklanadi. Keyingi vaqtida, bu maqsadda, o'zidan yorug'lik chiqaruvchi diodlar ishlatalishi fotoelektr datchiklarni keng tatbiq qilish imkonini yaratmoqda. Masalan, o'zimizning mamlakatimizda chiqarilayotgan Matiz avtomobilining o't oldirish tizimida aynan fotoelektr datchik o'rnatilgan.


Mikroelektronikaning rivojlanishi tufayli kontaktsiz o't oldirish sistemalarida Xoll effektiga asoslangan yarimo'tkazgichli datchiklar ishlatala boshlandi. Xoll elementi germaniy, kremniy va boshqa yarimo'tkazgichlardan tayyorlangan yupqa ($h = 10^{-4} \div 10^{-6} \text{ m}$) to'rt elektrodli plastinadan iborat (3.26-rasm).

Agar bunday platinadan tok I o'tishi bilan bir vaqtida unga magnit induksiya vektori B , platinan tekisligiga tik yo'nalagan magnit maydon ta'sir qilsa, uning tok yo'naliishiga parallel bo'lgan qirralarda Xoll EYU-Ki E_x hosil bo'ladi:


$$E_x = k_x \cdot I \cdot B / h.$$

Bunda: k_x – platinan materialiga bog'liq bo'lgan Xoll doimiysi; h – platinan qalinligi.


Xoll elementida hosil bo'ladigan signal juda ham kichik qiymatga ega bo'lib, u tok manbayi kuchlanishiga va temperaturaga bog'liq. Shuning uchun Xoll datchigi (3.27- a rasm) Xoll elementi 3 dan tashqari ko'chaytirgich 4, signalni



3.25-rasm. Fotoelektr datchik ning umumiyo sxemasi



3.26-rasm. Holl elementining ishlash prinsipi



3.27-rasm. Xoll datchigi:


a) tarkibiy sxemasi (tushuntirish matnda); b) tashqi ko'rini; 1 – doimiy magnit, 2 – darchali rotor, 3 – Xoll datchigining mikrosxemasi.

shakkantiruvchi blok (komparator) 5, barqarorlik bloki 7, chiqish tranzistori 6 ni o'z tarkibiga olgan mikrosxemadan iborat (3.27-*b* rasm, 3). Magnit maydon doimiy magnit 1 yordamida hosil qilinib, uzgich-taqsimlagich valiga o'rnatilgan va maxsus darchalarga ega bo'lgan rotor 2 magnit kuch chiziqlarini damba-dam uzish uchun xizmat qiladi. Rotor aylanib, darchalari doimiy magnit to'g'risiga kelganda, magnit kuch chiziqlari Xoll elementi 3 yuzini kesib o'tadi va uning chiqish elektrodlarida EYUK hosil bo'ladi. Kuchaytirgich 4 da kuchaytirilgan va komparator 5 da kerakli shaklga keltirilgan signal, chiqish tranzistori 6 ning bazasiga uzatiladi va uni ocha-di. Keyingi daqiqada rotor 2 ning tishchasi doimiy magnit qutbi qarshisiga to'g'ri bo'ladi va magnit kuch chiziqlari yo'lini to'sadi, ya'ni ularni uzadi. Natijada, Xoll EYUK yo'qoladi va chiqish tranzistori 6 yopiladi. Datchik signaliga tok manbayi kuchlanishining oshib-kamayishi va temperatura o'zgarishi ta'sirini istisno qilish uchun sxemaga barqarorlik bloki 7 ulangan.

Energiya dvigatel silindrleriga mexanik usul bilan taqsimlanishi, o't olishni ilgarilatish burchagini mexanik rostlagichlarining nuqsonlari, tirsakli valdan taqsimlagich valigacha bo'lgan mexanik uzatmalar tufayli o't oldirish daqiqasini aniqlashdagi xatoliklar kontaktsiz o't oldirish sistemalarining asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

3.4.2. Energiya to'planishi boshqarilmaydigan o't oldirish tizimi

Bu turdag'i o't oldirish tizimiga misol tariqasida 8 silindrli dvigatellar uchun mo'ljallangan, tarkibiga elektron kommutator 13.3704, datchik-taqsimlagich 24.3706, rezistorlar bloki 14.3729 va o't oldirish g'altagi Б116 bo'lgan magnitoelektr datchikli o't oldirish tizimini keltirish mumkin (3.28-rasm).



3.28-rasm. Magnitolektr datchikli kontaktsiz o't oldirish tizimining umumiy sxemasi


O't oldirish tizimi quyidagicha ishlaydi. O't oldirish kaliti O'OK ulanib, dvigatel ishlamay turgan holda tranzistor VT1 ning baza va emitter potensiallari teng bo'lganligi tufayli u yopiq bo'ladi. VT1 tranzistor yopiq bo'lganda VT2 tranzistor bazasining potensiali emitternikidan yuqori bo'ladi va uning baza-emitter o'tish joyidan quyidagi zanjir bo'ylab boshqarish toki o'ta boshlaydi: akkumulatorlar batareyasi AB ning musbat qutbi \rightarrow o't oldirish kaliti O'OK \rightarrow kommutator drosseli Dr \rightarrow diod VD6 \rightarrow rezistorlar R5, R6 \rightarrow VT2 tranzistorning baza-emitter o'tish joyi \rightarrow rezistorlar R10, R11 \rightarrow «massa» \rightarrow akkumulatorlar batareyasining manfiy qutbi. Boshqarish toki ta'sirida tranzistor VT2 ochiladi. VT2 tranzistorining ochilishi qo'shma tranzistor VT3-VT4 da ham boshqarish toki hosil bo'lishiga va uni ochilishiga olib keladi. VT3-VT4 qo'shma tranzistorning ochilishi bilan o't oldirish g'altagini birlamchi zanjiri tok manbayiga ulanadi va undan I_1 tok o'ta boshlaydi: AKB ning musbat qutbi \rightarrow O'OK \rightarrow rezistorlar bloki (14.3729) \rightarrow o't oldirish g'altagini birlamchi chulg'ami \rightarrow VD7 diodi \rightarrow VT3-VT4 qo'shma tranzistorning kollektor-emitter o'tish joyi \rightarrow «massa» \rightarrow AKB ning manfiy qutbi. Bunda: o't oldirish g'altagini magnit maydonida elektromagnit energiya to'plana boshlaydi. Tirsakli val startyor yordamida aylantirilganda magnitli elektr datchikda o'zgaruvchi EYuK induksiyananadi va u kommutatorning «D» qisqichiga uzatiladi. Datchik signali «D» qisqichdan VD1 diod va R1, C3 zanjir orqali VT1 tranzistorning bazasiga keladi. VD1 diod datchikning faqat musbat qutbli impulslarini o'tkazadi. VT1 tranzistor bazasiga datchikdan kelgan musbat impuls ta'sirida baza potensiali emitternikiga nisbatan ortadi va tranzistordan boshqarish toki o'ta boshlaydi: datchik chulg'ami \rightarrow VD1 diod \rightarrow R1, C3 zanjircha – VT1 tranzistorning baza-emitter o'tish joyi \rightarrow «massa» \rightarrow datchik chulg'ami. Natijada VT1 tranzistor ochiladi va VT2 tranzistorning baza-emitter o'tish joyini shuntlaydi va u yopila-

di. VT2 tranzistorning yopilishi VT3–VT4 qo'shma tranzistor ham yopilishiga olib keladi, chunki uning baza toki zanjiri uzeladi. VT3–VT4 qo'shma tranzistorning yopilishi o't oldirish g'altagini birlamchi chulg'amidan o'tayotgan tok I_1 zanjiri keskin uzelishiga va ikkilamchi chulg'amda yuqori kuchlanish induksiyalanishiga olib keladi va u taqsimlagich yordamida tegishli o't oldirish shamiga yetkaziladi. Keyingi daqiqada datchikdan kelayotgan musbat impuls yo'qoladi, VT1 tranzistor yopiladi, VT2, VT3–VT4 tranzistorlar ochiladi va o't oldirish g'altagini magnit maydonida yana elektromagnit energiya to'plana boshlaydi. Bu jarayon davriy ravishda davom etadi.

13.3704 elektron kommutator tarkibiga, sxemaning ishlash sharoitlarini yaxshilash, uni himoya qilish vazifalarini bajaruvchi bir qator elementlar kiritilgan. Stabilitron VD5 va kondensator C7 tranzistor VT1 ochilganda, o't oldirish g'altagini birlamchi chulg'amida induksiyalanadigan EYuK ta'sirida VT3–VT4 qo'shma tranzistor kuyib qolishidan saqlaydi. VD3 diodi datchikdan kelgan impuls amplitudasini cheklab, VT1 tranzistorning baza-emitter o'tish joyini kuyishdan saqlaydi. VD6 va VD7 diodlar sxemani tok manbayining teskari qutbli EYuKdan himoya qiladi. Kondensator C6 va rezistor R7 teskari aloqa zanjirini tashkil qilib, VT1 tranzistorning ochilishini tezlatadi. C4, C5 kondensatorlar VT2, VT3–VT4 tranzistorlarning baza-emitter o'tish joyida kuchlanish keskin o'sish hollaridan himoya qilib, ularni barqaror ishlashini ta'minlaydi. Rezistor R12 va kondensator C8, VT3–VT4 tranzistor yopilishi jarayonida sarflanadigan quvvatni kamaytirib, uni ortiqcha qizib ketishdan saqlaydi. C1, C2 kondensatorlar va drossel Dr kommutator zanjiridagi kuchlanish pulsatsiyasini kamaytiradi.

Stabilitronlar – VD2, VD4 va rezistorlar – R2, R3 dan tashkil topgan zanjir elektron kommutatorni tok manbayi kuchlanishini belgilangan chegaraviy qiymatidan oshib ketishidan himoya qiladi. Tok manbayi kuchlanishi 17–18 V ga ko'tarilganda, VD2 stabilitron teshiladi va VT1 tranzistor bazasi tok manbayining musbat qutbiga ulanib qoladi va ochiladi. Natijada VT2, VT3–VT4 tranzistorlar yopiladi va dvigatel ishlashdan to'xtaydi.

Elektron o't oldirish tizimlariga o'rnatilgan ochiq magnit tizimli g'altaklar kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimiga o'rnatilgan B114 g'altagi kabi chulg'amlari bir-biridan ajratilgan holda o'raladi va undan asosan o'ramlar soni bilan farqlanadi. Ularning o'ziga xos tomonlarini Rossiya avtomobillarining kontaktsiz o't oldirish tizimlari tarkibida keng qo'llanilgan (masalan, BA3 2108 avtomobilida) 27.3705 rusumli g'altakda ko'rib chiqish mumkin. Bu g'altak ochiq zanjirga ishlaganda ikkilamchi chulg'amida 35000...40000 V kuchlanish avj oldirishi mumkin. Shu sababli uning izolyatsiya xususiyatlari ancha kuchaytirilgan. Yuqori kuchlanishli qopqog'l uchqun-yoyga chidamli materialdan tayyorlangan. G'altak birlamchi chulg'amining qarshiligini nisbatan kichik ($0,4\ldots0,5 \Omega$) bo'lishi, tok manbayini minimal qiymatlarda (6 V) ham o't oldirish tizimini barqaror ishlashi uchun yetarli bo'lgan yuqori kuchlanish ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. Elektron kommutator




3.29-rasm. O't oldirish g'altaklari:

a) 27.3705; b) 3009.3705; 1 – qopoq; 2 – chiqish joyi.

ishdan chiqqanda, birlamchi zanjirdagi tok ortib ketib, g'altak qizishiga va uning ichidagi moyning bosimi keskin ortib, g'altakni portlashiga olib kelishi mumkin. Bu xavfli hodisani oldini olish maqsadida o't oldirish g'altagiga maxsus himoya klapani o'rnatilgan.

O't oldirish g'altaklarining tavsifnomalarini yaxshilash, tutash magnit tizimli g'altaklarning tuzilishi va ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Bu turdag'i g'altaklar ochiq magnit tizimli g'altaklardan (masalan, yuqorida ko'rilgan 27.3705 g'altakdan) energiyani uzatish koeffitsiyentini kattaligi, uchqunli razryad vaqtini uzoqroq davom etishi bilan farqlanadi. Zamonaviy avtomobillarda, xususan mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan Nexia, Matiz, Lacetti, Spark avtomobillarida ham aynan magnit tizimi tutash bo'lgan g'altaklar o'rnatilgan. 3009.3705 rusumli (Rossiya) tutash magnit tizimli ikki chiqishli g'altak (3.29-rasm) quyidagicha tuzilishga ega. G'altakning ikkilamchi chulg'ami ($R_2=6,3\text{ k}\Omega$; $L_2=29\text{ Gn}$; $W_2=8008$) plastmassadan tayyorlangan ko'p seksiyali karkasga o'ralgan. Karkasning ichki qismiga birlamchi chulg'am ($R_1=0,52\text{ }\Omega$; $L_1=5,9\text{ mGn}$; $W_1=115$) joylashtirilgan. Har ikkala chulg'am plastmassa korpusga joylashtiriladi va unga epoksid kompaund quyiladi. Tutash magnit tizimli bir chiqishli va to'rt chiqishli g'altaklar ham shu texnologiya asosida tayyorlanadi.

Datchik-taqsimlagich 24.3706 (3.30-rasm) elektron kommutator ishini boshqarish, yuqori kuchlanishni o't oldirish shamlariga belgilangan navbatda taqsimlash, o't oldirish daqiqasini dvigate'l aylanishlar chastotasi va yuklamasiga ko'ra rostlash va o't oldirishni ilgarilatish burchagini boshlang'ich qiymatini o'rnatish uchun xizmat qiladi. Datchik-taqsimlagichning aluminidan quyilgan qobig'i 3 ga (3.30-a rasm) quyidagi asosiy qismlar joylashtirilgan: startyor 13 va rotor 21 dan iborat generatorli magnitoelektr datchik, markazdan qochma rostlagich 16, vakuum rostlagich 6. Qobiqning pastki qismiga oktan-korrektor plastinasi 2 o'mashtirilgan bo'lib, u o't oldirishning ilgarilatish burchagini boshlang'ich qiymatini qo'yish va datchik-taqsimlagichni dvigate'lga mahkamlash uchun xizmat qiladi.



3.30-rasm. 24.3706 belgili datchik-taqsimlagich

Datchik-taqsimlagich harakati val 18 ga o'rnatilgan maxsus ilashish tishi 1 orqali amalga oshiriladi. Podshipnik 19, val 18 va tirkak podshipnigi 17 ni moylab turish uchun qobiqqa moydon 4 o'rnatilgan.

Datchik rotori (3.30- b rasm) ikki tomonidan sakkiz qutbli magnit o'tkazgichlar 25 va 27 bilan siqilgan halqasimon doimiy magnit 26 dan iborat. Rotor bronza vtulka 12 ga mahkamlab joylashtirilgan bo'lib, vtulkaning yuqori qismiga taqsimlagich yugurdagi 11 o'rnatiladi, pastki qismi esa markazdan qochma rostlagichning yetaklovchi plastinasiga mahkamlangan.

Datchik startyori 13 bir-biriga parchin mixlar yordamida mahkamlangan sakkiz tishli plastinalar 22, 24 va ular orasiga joylashtirilgan chulg‘am 23 dan iborat bo‘lib, u tayanch 14 vositasida qo‘zg‘aluvchan plastinaga o‘rnatilgan. Qo‘zg‘aluvchan plastina esa zoldirli podshipnik 15 ning ichki halqasiga presslab o‘rnatilgan bo‘lib u vakuum-rostlagichning tortqisi bilan sharnirli bog‘langan. Podshipnik 15 ning tashqi halqasi qobiq 3 ga qo‘zg‘almas qilib o‘rnashtirilgan.

Demak, markazdan qochma rostlagich o‘t oldirishning ilgarilatish burchagini vtulka 12 vositasida datchik rotorini startyorga nisbatan burish hisobiga rostlasa, vakuum-rostlagich qo‘zg‘aluvchan plastina yordamida startyorni rotorga nisbatan aylantirish hisobiga rostlaydi.


Uzgich-taqsimlagich qopqog‘i 7 ning ichki tomonidagi markaziy uyachaga yugurdak 11 ning elektrodi 10 bilan o‘t oldirish g‘altagidan kelgan yuqori kuchlanishli o‘tkazgichni bir-biriga ularidigan qo‘zg‘aluvchan ko‘mir kontakt 8, chekkasidagi uyachalarga esa chiqarish elektrodlari 9 joylashtirilgan. Ko‘mir kontaktning qarshiligi 6–15 k Ω chegarasida bo‘lib, u yuqori kuchlanishni o‘tkazish bilan birga radioxalaqtirlarni bostiruvchisi vazifasini ham bajaradi.

O‘t oldirishni ilgarilatish burchagining boshlang‘ich qiymatini o‘rnatish uchun datchik-taqsimlagichning rotorini va startyorida maxsus belgilari 20 qo‘yilgan.

3.4.3. Energiya to‘planishi boshqariladigan o‘t oldirish tizimi

Bu turdaggi o‘t oldirish tizimida o‘t oldirish g‘altagida energiya to‘planishini boshqarish hisobiga o‘t oldirish tizimlarining avvalgi avlodlariga mansub bo‘lgan eng asosiy kamchilik – dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi ortishi bilan yuqori kuchlanish $U_{2\max}$ ning kamayishini bartaraf qilish mumkin. Energiya to‘planishini boshqarishning asosiy mazmuni shundan iboratki, aylanishlar chastotasi ortishi bilan o‘t oldirish g‘altagining birlamchi zanjir tarmog‘iga ulanishi, ya’ni undan I_1 tokning o‘tish vaqtini orttiriladi.

3.31-расмда to‘rt silindrli dvigatellarga (BA3-2108, BA3-2109) o‘rnatishga mo‘ljallangan o‘t oldirish g‘altagida energiya to‘planishi boshqariladigan o‘t oldirish tizimining tarkibiy sxemasi keltirilgan. Bu o‘t oldirish tizimi tarkibiga elektron kommutator 36.3734, datchik-taqsimlagich 40.3706 va 27.3705 belgili o‘t oldirish g‘altagi kiradi. Ushbu tizim elementlarida quvvat yo‘qotilishi 2–3 marta kamaytirilgan bo‘lib, bu o‘lchamlari kichik va ixcham bo‘lgan integral sxemali elektron kommutator ishlab chiqarish imkonini berdi. Xoll datchigi o‘rnatilgan o‘t oldirish tizimining uchqunli razryad energiyasi 50 mJ ga yetkazilgan (boshqa tizimlarda 20–30 mJ) va bu dvigateli suyultirish darajasi katta bo‘lgan yonilg‘ida ishlatalish imkonini berib, uning tejamliligini oshiradi. Ko‘rilayotgan o‘t oldirish tizimining bu afzalliklari o‘t oldirish g‘altagining magnit maydonida energiy to‘planish vaqtini dvigatel aylanishlar chastotasi va tok manbayi kuchlanishi o‘zgarishiga bog‘liq ravishda rostlash hisobiga erishiladi.



3.31-rasm. O't oldirish g'altagida energiya to'planishi boshqarilidigan o't oldirish tizimining funksional sxemasi

Xoll effektiga asoslangan yarimo'tkazgichli datchikning ishlash prinsipi yuqorida ko'rib chiqildi (3.26–3.27-rasmlarga qarang). Datchik-taqsimlagich 40.3706 ning vali aylanganda datchik «D»ning chiqish joyida to'g'ri burchakli signal paydo bo'ladi va u kommutator I (36.3734)ning kirish joyiga uzatiladi.

Signal, elektromagnit energiya to'planish vaqtini me'yorlash bloki II ning invertori «I» orqali integratori A1.2 ga keladi va undan chiqqan «arra tishi» shakliga ega bo'lgan signal – kuchlanish komparatori A1.3 ga uzatiladi va unda tayanch kuchlanish U_{12} bilan taqqoslanadi. Agar integratoridan chiqqan kuchlanish tayanch kuchlanishdan katta bo'lsa, komparator A1.3 ning chiqish joyida (d nuqta) musbat kuchlanishli signal shakllanadi (mantiqiy 1). Integratoridan chiqqan kuchlanish tayanch kuchlanishdan kichik bo'lgan holda komparatorning chiqish joyida kuchlanish bo'lmaydi (mantiqiy 0). Signal komparator A1.3 dan chiqish bloki IV dagi tranzistor VT ishini boshqaruvchi mos tushish sxemasi I_1 ga keldi. Komparator A1.3 mantiqiy 1 holdan mantiqiy 0 holatga o'tish vaqtida mos tushish sxemasi tranzistor VTni ochadi va o't oldirish g'altagi O'OG'ning bir-lamchi chulg'ami $L1$ dan I_1 tok o'ta boshlaydi. Komparator A1.3 dan mos tushish sxemasi I_1 ga mantiqiy 1 signal kelishi bilan tranzistor VT yopiladi, tok I_1 zanjiri uziladi va o't oldirish g'altagini ikkilamchi chulg'ami $L2$ da yuqori kuchlanish induksiyananadi.


I_1 tok o't oldirish g'altagidan o'tish vaqtini zarur darajada me'yorlash, datchikning boshqaruvchi signaliga nisbatan chiqish tranzistori VT ulanishini kechiktirish hisobiga amalga oshiriladi. Bu kechiktirish kattaligi kondensator $C1$ da to'planishi

mumkin bo'lgan eng katta kuchlanish va tayanch kuchlanishi U_{12} orasidagi farq bilan belgilanadi. Dvigatelning aylanishlar chastotasi qanchalik yuqori bo'lsa, C_1 kondensatordagi kuchlanish shuncha kam bo'ladi va demak, energiyani to'plash vaqtin kamayadi.

Magnitelektr energiya to'plash vaqtini, tok manbayi kuchlanishining o'zgarishiga mos ravishda, tayanch kuchlanishi U_{12} ni o'zgartirish yo'li bilan rostlanaadi. Birlamchi zanjirdagi tok qiymati kommutatorning V bloki yordamida cheklanadi. Birlamchi zanjirda tranzistor VT bilan ketma-ket ulangan qarshilik R_4 dagi kuchlanish pasayishi undan o'tayotgan tok I_1 qiymatiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Bu kuchlanish komparator A1.4 ga uzatiladi va tayanch kuchlanishi U_{13} bilan taqqoslanadi. Agar I_1 tok belgilangan qiymatdan (8–9 A) yuqori bo'lsa, komparator A1.4 dan mantiqiy signal 1 mos tushish sxemasi I_1 ga uzatiladi va I_1 tranzistor VT ning emitter-kollektor o'tish joyi qarshiligini oshiradi va tok I_1 belgilangan qiymatgacha kamayadi. Blok VI, o't oldirish kaliti ulangan, ammo dvigatel ishga tushmagan holda chiqish tranzistori VT yopilib turishini ta'minlaydi. Blok III sxemani tok manbayi kuchlanishi belgilangan qiymatdan ortib ketishi dan saqlaydi.

Datchik-taqsimlagich 40.3706 (3.32-rasm) dvigatelga gorizontal holda joylashtiriladi. Datchik-taqsimlagich mufta 1 va val 2 orqali harakatni bevosita dvigatelning gaz taqsimlash validan oladi. Val 2 ning ikkinchi uchiga taqsimlagich yugurdagi 11 o'rnatilgan. Datchik-taqsimlagich qopqog'i 10 qobiq 5 ga uchta murvat 12 bilan mahkamlanib, uning yuqori kuchlanishli moslamalari qolgan qismidan to'siq 9 bilan ajratilgan. Val 2 vtulka 3 va sharsimon vkladish 6 da aylanadi. Salnik 4 moyni qobiqnинг ichki qismiga o'tishdan saqlaydi. Sharsimon vkladish qo'zg'almas plastina 8 ga o'rnatilgan. Vakuum-rostagich tortqisi mahkamlangan qo'zg'aluvchan plastina 7, podshipnikning ichki halqasi bilan burilishi mumkin. Podshipnik tashqi halqasi bilan qo'zg'almas plastina 8 ga presslangan. Qo'zg'aluvchan plastinaga yarimo'tkazgichli datchik 13 va uning magnitni o'rnatilgan. Datchikning tirqishida vtulka 15 ga o'rnatilgan darchali rotor 14 aylanadi. O'z navbatida vtulka 15, markazdan qochma rostagich 16 ning yetaklovchi plastinasiga mahkamlab biriktirilgan. Shu tarzda markazdan qochma rostagich ishlaganda uning yetaklovchi plastinasi, rotorni datchikka nisbatan buraydi, vakuum-rostagich ishlaganda esa, qo'zg'aluvchan plastina datchik bilan birgalikda darchali rotorga nisbatan buraladi.

O't oldirish g'altagi 27.3705 tuzilishi bo'yicha kontaktli sistemalarning g'altagiga o'xshashdir, ya'ni uning chulg'amlari avtotransformator sxemasi bo'yicha ulangan. Bu g'altakning o'ziga xos tomoni – birlamchi chulg'amining qarshiliги nisbatan kichik bo'lganligi ($0,5 \Omega$) tufayli, tok manbayi kuchlanishi 6 V gacha kamayganda ham o't oldirish jarayoni me'yorida amalga oshiriladi. G'altak, elektron kommutator ishdan chiqqanda portlashdan himoya qiluvchi moslama bilan ta'minlangan.



3.32-rasm. 40.37006 belgili datchik-taqsimlagich

3.4.4. Mikroprotsessori o't oldirish tizimi

Elektronika va ayniqsa mikroelektronika tez va izchil rivojlanishi tufayli, mexanik boshqaruv moslamalari (markazdan qochma va vakuum rostlagichlar) bo'lgan, va demak, ularga xos kamchiliklardan holi bo'lgan o't oldirish tizimlarining yangi avlodni yaratilmoqda. Bu tizimlarda o't oldirish daqiqasini belgilashda dvigateleaning aylanishlar chastotasi va yuklamasi bilan birga yonish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator qo'shimcha omillar ham hisobga olinadi va o't oldirishni ilgarilatish burchagi, o'zining eng manfaatli qiymatiga yaqinlashtiriladi.

Bunday tizimlardan amalda tatbiq qilinganlari sifatida analogli, raqamli va mikroprotsessori o't oldirish tizimlarini keltirish mumkin. Analogli sistema elektron boshqarish tizimlarining to'ng'ich avlodlariga mansub bo'lib, ular jiddiy kamchiliklarga ega bo'lganligi sababli deyarli qo'llanilmadi. Xotira qurilmasiga ega bo'lgan raqamli o't oldirish tizimida ancha keng imkoniyatlar mavjud. Bu tizim dasturi funksional moslamalar orasidagi mantiqiy aloqalar asosida ishlaydi, ushbu moslamalarni tavsiflovchi ma'lumotlar esa zarurat bo'yicha tizim tomonidan chiqarib beriladi. Raqamli o't oldirish tizimining afzal tomonlaridan biri o't oldirishni ilgarilatish burchaklar to'g'risidagi juda katta hajmdagi ma'lumotni xotirada saqlash imkoniyatining mavjudligidir. Lekin o't oldirish tizimining tafsiflari yoki ishlash algoritmlari o'zgarganda moslamaning apparat qismini (elek-

tron blokni) almashtirish zarurligi raqamli o't oldirish tizimining jiddiy kamchili-gi hisoblanadi.

Mikroprotsessorli o't oldirish tizimi (MPO'OT) bu kamchilikdan holi bo'lib, unda ish algoritmi o'zgarsa, doimiy xotira qurilmasidagi boshqaruv dasturini almashtirish kifoya bo'ladi.

MPO'OT o't oldirish tizimlarining oldingi avlodlariga nisbatan quyidagi tomonlar bilan farq qiladi:


- ularning boshqarish moslamalari diskret tartibotida ishlovchi va mikroelektron texnologiya asosida (katta integral sxemalar) yaratilgan elektron-hisoblash blokidan iborat bo'lib, u o't oldirish daqiqasini avtomatik boshqarish vazifasini bajaradi. Odatda bu elektron bloklar **kontroller** deb yuritiladi;

- mikroelektron texnologiyasining joriy qilinishi o't oldirish tizimining ishon-chililagini oshiradi, elektron boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kontroller o't oldirish tizimdan tashqari yana bir qator, xususan, yonilg'i purkash, majburiy salt ishslash ekonomayzeri va bordagi diagnostika tizimlarini ham boshqaradi;

- bu o't oldirish tizimlarida yuqori kuchlanishni mexanik uzgich-taqsimilagich o'mniga aksariyat hollarda statik yoki ko'p kanalli usul bilan taqsimlash joriy qilingan.

MPO'OTda (3.33-rasm) o't oldirish jarayoni ko'rsatkichlari uning davom etish vaqt bilan emas, balki elektr impulslar soni bilan shakllantiriladi. Bu yerda raqamli signallarni elektron hisoblash vazifasini mikroprotsessor bajaradi. Shuning uchun, mikroprotsessorli o't oldirish tizimining elektron boshqarish blokida datchiklar va protsessor orasiga analog-raqamli o'zgartirkich qo'yiladi. Analog-raqamli o'zgartirkich datchiklardan kelayotgan analog ko'rinishidagi signallarni raqam shakliga aylantiradi va protsessorga uzatadi.

MPO'OT muayyan benzinli dvigatel uchun avvaldan tayyorlangan boshqarish dasturi asosida ishlaydi. Shuning uchun MPO'OTning protsessori tarkibida tezkor va doimiy xotira qurilmalari mavjud. Yangi yaratilayotgan benzinli dvigatelning boshqarish dasturi uni ishlab chiqarish jarayonida o'tkazilgan sinov natijalari asosida tuziladi. Dvigatel maxsus qurilmaga o'rnatilib uni ishlatish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha sharoit va rejimlarda sinaladi. Har bir eksperimental nuqta uchun o't oldirishni ilgarilatish burchagining eng manfaatli qiymati tanlanadi va qayd qilinadi. Shu tarzda, o't oldirishni ilgarilatish burchaklarining eng manfaatli qiymatlarining ko'p sonli to'plami yaratiladi. Bu to'plamdagi o't oldirishni ilgarilatish burchagining har bir qiymati kirish datchiklaridan kelayotgan signallarning ma'lum belgilangan qat'iy munosabatlariга to'g'ri keladi. Bu raqamlar to'plami protsessorning doimiy xotira qurilmasiga «tikib qo'yiladi» va dvigateli real sharoitlarda ishlatish jarayonida o't oldirish daqiqasini aniqlash uchun tayanch ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.



3.33-rasm. Mikroprotsessori o't oldirish tizimining tarkibi sxemasi:

1...4 – kirish datchiklari; 5...8 – noelektr kattaliklarni analogli elektr signallarga aylantiruvchi moslama; 9 – absolut bosim datchigi; 10 – analog-raqamli o'zgartirkich; 11 – mikroprotsessoring integral sxemasi; 12 – tezkor xotira qurilmasi; 13 – doimiy xotira qurilmasi; 14, 15 – kommutatorlar; 16, 17 – ikki chiqish joyli o't oldirish g'altagi; 18 – o't oldirish shamlari.

MPO'OT ga asosiy datchiklardan tashqari qo'shimcha datchiklar o'rnatilsa (masalan, detonatsiya datchigi), bu datchiklardan kelayotgan signallarga ko'ra protsessorda shakllantiralayotgan o't oldirishni ilgarilatish burchagi qiymatiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Zamonaviy avtomobilarda MPO'OTning barcha boshqarish vazifalari bortdagi markaziy kompyuterga integrallashgan va o't oldirishni boshqaruvchi alohida blok bo'lmasligi ham mumkin. Bunday hollarda ichki yonuv dvigatellarini avtomatik boshqarish tizimiga o'rnatilgan datchiklar bir vaqtning o'zida o't oldirish daqiqasini aniqlash uchun ham xizmat qiladi. O't oldirishning asosiy signali elektron kommutatorga bortdagi kompyuterdan bevosita uzatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, MPO'OTda yuqori kuchlanish asosan statik yo'i bilan taqsimlanadi va bu usul silindrlardagi o't oldirish daqiqasini belgilashni juda katta aniqlik ($\sim 0,3 \dots 0,5^\circ$) bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqori kuchlanishni statik taqsimlash bir necha usul bilan amalga oshirilishi mumkin:

- ikki yuqori kuchlanishli chiqish joyiga ega bo'lgan o't oldirish g'altagi yordamida;


- to'rtta yuqori kuchlanishli chiqish joyiga ega bo'lgan o't oldirish g'altagi yordamida, ya'ni 4 silindrga bitta g'altak. Bu sxemani amalga oshirish uchun har bir silindrga boruvchi zanjirga yuqori voltli yarimo'tkazgichli diodlar o'rnatiladi;

- har bir silindr uchun alohida o't oldirish g'altagi o'rnatish yo'li bilan.


Ikki yuqori kuchlanishli chiqish joyiga ega bo'lgan o't oldirish g'altagi o'rnatilgan tizimlarda (3.34-rasm) bir vaqtning o'zida ikkita silindr-dagi shamlarda uchqun hosil bo'ladi. Ularning biri ishchi uchqun bo'lib, u siqish taktining oxirida, ikkinchisi salt uchqun bo'lib u chiqarish taktida sodir bo'ladi. Siqish taktining oxirida aralashmaning harorati hali ancha past (200...300 °C), bosim esa yuqori (1,0...1,2 mPa) bo'ladi, shuning uchun bu yerda teshib o'tish kuchlanishi katta qiymatga (10,0...12,0 kV) ega bo'ladi va uning ta'sirida yonilg'i-havo aralashmasi o't oladi. Chiqarish taktida chiqindi gazlarning harorati ancha baland (800...1000 °C), bosim esa juda kichik (0,2...0,3 mPa) bo'lganligi sababli teshib o'tish kuchlanishi past bo'ladi (~ 5,0...7,0 kV), natijada o't oldirish g'altagida to'plangan energiyaning asosiy qismi ishchi uchqun orqali uzatiladi.

To'rtta yuqori kuchlanishli chiqish joyiga ega bo'lgan o't oldirish g'altaklar bir-biriga qarama-qarshi o'ralgan ikkita birlamchi va bitta ikkilamchi chulg'amga ega (3.35-rasm). Ikkilamchi kuchlanishning qutblanish belgisi birlamchi chulg'am o'ramlarining o'ralish yo'nalishi bilan aniqlanadi.


Agar S nuqtada kuchlanish musbat qutblansa, VD1, VD4 yuqori kuchlanish diodlari ochiladi va ularga mos silindrлardagi shamlarda uchqun hosil bo'ladi (salt va ishchi). Birlamchi chulg'amning ikkinchisi birinchisiga nisbatan teskari o'ralgan va undan o'tayotgan tok zanjiri uzunganda ikkilamchi chulg'amda induksiyalanadigan yuqori kuchlanish S nuqtada manfiy qutblanadi. Bunda: VD2, VD3 diodlar ochiladi va uchqunli razryad endi №2, №3 shamlar o'rnatilgan silindrлarda sodir bo'ladi. Birlamchi




3.34-rasm. Ikki chiqish joyiga ega bo'lgan o't oldirish g'altagini ularash sxemasi



3.35-rasm. To'rtta chiqish joyiga ega bo'lgan o't oldirish g'altagini ularash sxemasi



3.36-rasm. Har bir silindrغا alohida o'rnatilgan g'altaklarning ularash sxemasi



3.37-rasm. O't oldirish transformatori:

- 1 – past kuchlanish kirish joyi;
- 2 – o'zak;
- 3 – birlamchi chulg'am;
- 4 – ikkilamchi chulg'am;
- 5 – yuqori kuchlanish chiqish joyi;
- 6 – o't oldirish shami.

chulg'amlarning o'zaro ta'sirini istisno qilish maqsadida ularning chiqish joylariga ajratuvchi VD5 va VD6 diodlari ulangan.

Ikki va to'rt chiqish joyiga ega bo'lgan g'altaklarning umumiy kamchiligi shundan iboratki, ulardag'i juft shamlardan o'tadigan yuqori kuchlanish impulslarining «massa»ga nisbatan turli qutblanishidir. Shuni hisobiga teshib o'tish kuchlanish qiymati juft shamlar orasida 1,5...2,0 kV ga farq qilishi mumkin.

Energiyani to'plash tartibotida ishlaydigan zamonaviy o't oldirish tizimlarida o't oldirish g'altagi faqat kuchlanishni oshiradigan impuls transformator vazifasini bajaradi va uning o'lchamlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu har bir silindr uchun alohida g'altak (o't oldirish transformatori) yasash va uni bevosita o't oldirish shamiga joylashtirish imkoniyatini beradi (3.36–3.37-rasmlar).

Bunday tizim uchun yuqori kuchlanish o'tkazgichlariga zarurat yo'qoladi va ularda salt uchqun hosil bo'lmaydi.

3.4. O'T OLDIRISH SHAMLARI

3.4.1. Umumiy ma'lumotlar

O't oldirish shamlari benzinli dvigatellarning silindrlaridagi yonilg'i aralashmasini o't oldirish uchun xizmat qiladi. O't oldirish sham elektrodlari orasida davriy ravishda hosil bo'ladigan uchqunli razryad hisobiga amalga oshiriladi.

Dvigatelning yonish kamerasiga o'rnatilgan o't oldirish shamlari qiymati katta bo'lgan elektr, issiqlik va mexanik yuklamalar ta'siri ostida ishlaydi. Benzinga tarkibida aggressiv metallar (qo'rg'oshin va marganes) bo'lgan detonatsiyani pasaytiruvchi qo'shimchalar qo'shilishi shamlarning ishslash muddatini qisqartadi.

Shamning o't oldirish kamerasidagi qismining temperaturasi 70 °C dan (silindrga uzatilayotgan yonilg'i aralashmasining yangi ulishining harorati) 2000–700 °C gacha (siklning eng maksimal temperaturasi) o'zgarib tursa, yonish kamerasidan tashqaridagi qismining temperaturasi –60 °C dan +100 °C gacha (kapot

osti bo'shliq harorati) bo'lishi mumkin. Shamning ikki qismi har xil temperaturaga ega bo'lishi va uni turli materiallardan (keramika, metall) tayyorlangan elementlarini chiziqli kengayish koefitsiyentlari turli bo'lganligi, shamlarda issiqlik deformatsiyalari va kuchlanishlarni vujudga keltiradi.

Shamlarning o't oldirish kamerasiga kiritilgan qism yuziga silindrda gazlarning 10 mPa gacha bo'lgan bosimi ta'sir qiladi. Bundan tashqari, o't oldirish shamlariga ishlayotgan dvigateldan vibratsiya yuklamalari ta'sir qilib turadi. Ishlash jarayonida o't oldirish shamlari, uning elektrodlariga uzatiladigan va uchqunli tirqishni teshib o'tish kuchlanishiga teng bo'lgan (20 kV gacha) yuqori kuchlanish ostida bo'ladi.


Demak, o't oldirish shamlarining tuzilishi, uning elementlarini tayyorlashga ishlatiladigan materiallar, yuqorida keltirilgan yuklamalarga chidamli bo'lishi va ular ta'sirida o'z ish qobiliyatini yo'qotmasligi kerak.

Uchqun hosil bo'lish jarayonida va yonilg'i aralashmasi yonishi davomida hosil bo'ladigan mahsulotlardagi aggressiv moddalarning ta'siri natijasida sham elektrodlari korroziyaga uchraydi va yemirila boshlaydi. Dvigatelning ishlash jarayonida o't oldirish shamlari elektrodlari orasidagi tirqish, avtomobil har 1000 km masofani bosib o'tganda o'rta hisobda 0,015 mm ga kattalashadi.

Yonilg'i to'la yonmasligi natijasida shamning issiqlik konusi 9 (3.38-rasm) yuzida, elektrodlarida tok o'tkazuvchi qurum hosil bo'ladi va u uchqunli tirqishni shuntlaydi, ya'ni yuqori kuchlanishning bir qismi qurum orqali o'tib, uchqun hosil bo'lish jarayonining susayishiga olib keladi. Sham izolyatorining ifloslanishi va namlanishi ham yuqoridagi hodisaga sabab bo'lishi mumkin.

3.4.2. O't oldirish shamlarining tuzilishi

Zamonaviy o't oldirish shamlari (3.38-rasm) bo'laklarga ajralmaydigan konstruksiyaga ega bo'lib, metall korpus 4, izolyator 1, markaziy elektrod 7, yon elektrod 8 dan iborat. Shamni silindr kallagiga o'rnatish uchun korpusning pastki qissmi rezbali qilib ishlangan. Silindr kallagi bilan o't oldirish shami orasiga metall zichlagich qistirma 6 o'rnatiladi. Zichlashtirish maqsadida korpus 4 va izolyator 1 orasiga yuqori issiqlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan mis qistirma 5 joylashtirilib, korpusning yuqori qirrasi jo'valanadi. Izolyatorning o'rta qismiga kontakt – o'zak



3.38-rasm. «Issiq» (a) va «sovuv» (b)
o't oldirish shamlari

2 o'rnatilib, u markaziy elektrod 7 bilan tok o'tkazuvchi shisha – zichlagich 3 orqali tutashadi.

Markaziy elektrod materiali korroziya va erroziyaga chidamli, issiqlikka bar-doshli, yuqori issiq o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Markaziy elektrodlar yuqoridagi talablarga javob beruvchi xrom-titanli (13X25T) yoki xrom-nikelli (X20H80) po'latlardan tayyorlanadi. Oxirgi vaqtida zamonaviy jadallashtirilgan dvigatellar uchun o'zagi mis, ustki qismi nikel-xrom qotishmasidan tayyorlangan, poyga avtomobil dvigatellariga esa kumushdan yasalgan markaziy elektrodlar o'rnatilmoqda. Mis va ayniqsa kumushning juda yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik qobiliyati markaziy elektrodnini nisbatan ingichka qilib tayyorlash va o't oldirish jarayonini ancha yaxshilash imkoniyatini beradi. Lekin kumush elektrodlari shamlarning ishlash muddati ancha qisqa bo'ladi.

Markaziy elektrodi platinadan tayyorlangan o't oldirish shamlari ishlash muddati va ishonchilik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Platinaning korroziya va eroziyaga o'ta chidamliligi, yaxshi issiqlik o'tkazuvchanlik xususiyatlariiga ko'ra markaziy elektrod juda ingichka qilib tayyorlanadi. Bu ishchi yonuvchi aralashmani uchqunli razryad tirkishiga bemalol kirib kelishi va uni kafolatli o't oldirilishini ta'minlaydi. Markaziy elektrod o'chamlarining kichikligi, yon elektrodlarning uchli shakli va platinaning katalitik xususiyatlari teshib o'tish kuchlanish qiymatining ancha kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga platiniali shamlarning narxi oddiy shamlarga nisbatan 4...5 barobar yuqori ekanligini ham qayd qilish lozim.

Yon elektrodlar nikel-marganetsli qotishmalardan (masalan, HMu-5) tayyorlanib, korpusga kontaktli payvandlash usuli bilan mahkamlanadi. O't oldirish jarayonining barqarorligini ta'minlash, shamlarning ishlash muddatini oshirish maqsadida ba'zi firmalar (masalan, BOSCH) yon elektrodi ikki, uch va to'rtta bo'lgan o't oldirish shamlarini ishlab chiqmoqdalar.

Markaziy va yon elektrodlar orasidagi tirkish 0,6–0,9 mm ni tashkil qiladi, elektron o't oldirish tizimlarida tirkish 1,0–1,2 mm gacha kattalashtirilishi mumkin.

O't oldirish shamlarining eng og'ir sharoitda ishlaydigan qismi izolyator 1 bo'lib, uni materialining xususiyatlari shamning sifatini va tavsifnomasini belgilaydi. Izolyator tarkibi asosan aluminiy oksidi Al_2O_3 dan tashkil topgan keramik materiallardan tayyorlanadi. Bunday materiallar qatoriga uralit (75 % Al_2O_3), bor-korund (95 % Al_2O_3 va 0,16 % B_2O_3), sinoksal (98 % Al_2O_3), xilumin (97–98% Al_2O_3) va boshqalar kiradi.

O't oldirish tizimi ekranlangan dvigatellarga ekranlangan va odatda zichlash-tirilgan o't oldirish shamlari o'rnatiladi. Yuqori kuchlanishli o'tkazgich o't oldirish shami bilan KY-20 belgili maxsus kontakt moslamasi yordamida tutashadi. Shamni namdan saqlash vazifasini rezina zichlagich va ekranga buraladigan ustama gayka bajaradi.

3.4.3. O't oldirish shamlarining issiqlik tavsifnomasi va ularni belgilash


O't oldirish shamlari me'yorida ishlashi uchun izolyatorning issiqlik konusi 9 (3.38-rasm) temperaturasi 400–900 °C doirasida bo'lishi kerak. Yonilg'i va moy to'la yonmasligi natijasida izolyatorning issiqlik konusida hosil bo'ladigan qurum, issiqlik konusining temperaturasi 500–600 °C ni tashkil qilganda kuyib, tozalanib turadi. Bu temperatura shamning o'z-o'zini tozalash temperaturasi deb ataladi.

Izolyatorning issiqlik konusi temperaturasi 400 °C dan past bo'lsa, unga tushayotgan yonilg'i va moy to'la yonmaydi va natijada, issiqlik konusi yuzida qurum hosil bo'lishi va elektrodlarning «moylanib» qolish hodisasi ro'y berishi mumkin. Bu, yuqori kuchlanish qurum orqali o'tib ketishiga va o't oldirishda uzilishlar paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'p qurum qoplagan shamlar umuman ishlayaydi.

Agar izolyatorning issiqlik konusi temperaturasi 900 °C dan ortib ketsa, yonilg'i aralashmasi elektrodlar orasidan uchqun chiqmay turib, shamning cho'g'lanib turgan elementlaridan (issiqlik konusi va markaziy elektrod) o't olib ketishi mumkin. Bunday hol cho'g'dan o't olish hodisasi deb yuritiladi. Bu jarayon o'ta zararli bo'lib, silindriddagi gazlar bosimi keskin ortib ketishiga, dvigatel kuchli detonatsiya bilan ishlashiga va natijada, krivoship-shatun mexanizmining alohida qismlarining tez ishdan chiqishiga olib keladi. Cho'g'dan o't olish natijasida izolyatorning pastki uchi oq tusga kiradi, issiqlik konusi va markaziy elektrodning erish hollari kuza tilishi mumkin.

Shamning issiqlik konusi o'z-o'zini tozalash temperaturasida bo'lishini ta'minlash uchun shamlarning konstruksiyasi ortiqcha issiqliknini tashqi muhitga chiqarishga moslashgan bo'ladi. Yonish kamerasida shamga uzatilgan issiqlik, uning turli elementlari (korpus, izolyator, markaziy elektrod) va yonilg'i aralashmasi orqali tashqi muhitga chiqariladi (3.39-rasm). Masalan, shamga uzatilgan issiqliknинг 10 % korpus, yana 10 % – izolyator va 30 % markaziy elektrod orqali tashqariga chiqariladi. Yonilg'i aralashmasiga esa 20 %ga yaqin issiqlik o'tadi.

Yonish kamerasida ajralib chiqadigan issiqlik miqdori dvigatelning aylanishlar chastotasiga, siqish darajasiga va uning quvvatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar bilan farq qiladigan dvigatellarga, issiqlik chiqarish qobiliyati har xil bo'lgan o't oldirish shamlari o'rnatiladi. Aylanishlar chastotasi, siqish darajasiga va quvvati uncha katta bo'lmagan, issiqlik rejimi o'rtamiyona bo'lgan dvigatellarga mo'ljallangan




3.39-rasm. O't oldirish shamidan issiqliknini chiqish yo'llari

shamlarning issiqlik konusi nisbatan uzun qilib yasaladi (3.38- *a* rasm) va uning uchidan issiqlikni tashqariga chiqarish qiyinroq bo‘ladi. Bunday shamlar «issiq» sham deb yuritiladi. Va aksincha, aylanishlar chastotasi, siqish darajasi va quvvati katta, issiqlik rejimi ancha og‘ir bo‘lgan dvigatellarga o‘rnataladigan shamlarning issiqlik konusi kalta (3.38- *b* rasm) va issiqlik uzatish qobiliyati yuqori bo‘ladi. Bunday shamlar «sovuvq» sham deb yuritiladi.

«Issiq» shamni tez yurar, siqish darajasi katta, jadallashtirilgan dvigatelga qo‘yilsa, izolyatorining issiqlik konusi qizib ketadi va uning temperaturasi 900 °C dan ortib ketadi. Bu muqarrar ravishda dvigatel silindrida cho‘g‘dan o‘t olish hodisasi sodir bo‘lishiga olib keladi. Aksincha, agar «sovuvq» sham issiqlik rejimi mo‘tadil, aylanishlar chastotasi va siqish darajasi past bo‘lgan dvigatelga o‘rnatilsa, tez orada issiqlik konusining yuzi va elektrodlar orasidagi tirqish qurum bilan qoplanadi, chunki izolyator temperaturasi 400 °C dan kamayib ketadi.

O‘t oldirish shamlarining issiqlik tavsifnomasi ularning cho‘g‘lanish soni bilan belgilanadi. Cho‘g‘lanish soni shartli kattalik bo‘lib, u maxsus bir silindrli dvigatelga o‘rnatalgan shamni sinash vaqtida cho‘g‘dan o‘t olish sodir bo‘la boshlagan daqiqadagi o‘rtacha indikator bosim qiyamatiga proporsional qilib qabul qilingan. Hozirgi vaqtida cho‘g‘lanish sonlarining quyidagi qatori kiritilgan: 8, 11, 14, 17, 20, 23, 26. Cho‘g‘lanish soni qanchalik katta bo‘lsa, izolyatorning issiqlik konusi shunchalik kalta bo‘ladi va shamning issiqlik chiqarish xususiyati yuqori bo‘ladi.

Sobiq ittifoq mamlakatlarida islab chiqarilgan o‘t oldirish shamlari quyidagi cha belgilanadi:



3.40-rasm. NEXIA avtomobilining o‘t oldirish shami

– birinchi harf korpusdagi rezba o‘lchamini va turini bildiradi:

$$A - M14 \times 1,25; M - M18 \times 1,5;$$

– keyingi bitta yoki ikkita raqam cho‘g‘lanish sonini bildiradi;

– keyingi harf korpusning rezbali qismining uzunligini ko‘rsatadi:

$$H-11 \text{ mm}; D-19 \text{ mm}; \text{harf bo‘lmasa} - 12 \text{ mm};$$

– izolyatorning issiqlik konusini korpusdan tashqariga chiqib turishi B harfi bilan ko‘rsatiladi;

– izolyator bilan markaziy elektrondorasi termosegment bilan zichlashtirilgan bo‘lsa T harfi qo‘yiladi, zichlashtirish boshqa usulda amalga oshirilgan bo‘lsa belgilanmaydi.

O‘t oldirish shamlarining belgilash misollari:

A17ДВ – korpusdagi rezbasi – M14×1,25, cho‘g‘lanish

soni – 17, korpus rezbali qismining uzunligi – 19 mm, izolyatorning issiqlik konusi korpusdan tashqariga chiqib turuvchi o‘t oldirish shami.

M8T – korpusdagi rezbasi – M18×1,5, cho‘g‘lanish soni – 8, korpus rezbali qismining uzunligi – 12 mm, izolyator bilan markaziy elektrod orasi termosement yordamida zichlashtirilgan o‘t oldirish shami.

GM-Uzbekistan qo‘shma korxonasining NEXIA avtomobilida konussimon zichlashtiruvchi qirrali o‘t oldirish shamlari (3.40-rasm) o‘rnatilgan. Ularda zichlashtiruvchi halqalar qo‘yilmaydi. Temperaturaga chidamli keramik materiallardan tayyorlangan izolyator o‘rtasiga markaziy elektrod joylashtirilgan.

NEXIA avtomobiliga o‘rnatilgan shamlar quyidagi tartibda belgilanadi:

– birinchi harf odatda sham turini ko‘rsatadi. Masalan, R harfi shamga elektrmagnit xalaqtirlarni kamaytiruvchi qarshilik o‘rnatilganligini bildiradi;

– sham belgisidagi birinchi raqam sham qobig‘idagi rezba o‘lchami va turini bildiradi:

Belgidagi raqam	Ma’nosi	Belgidagi raqam	Ma’nosi
4	M14	2	1/2", konussimon
8	M18	5	1/2"
10	M10	6	3/4"
12	M12	7	7/8"

– sham belgisidagi ikkinchi raqam shamning cho‘g‘lanish sonini bildiradi:

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

«Sovuq shamlar» ←-----→ «Issiq shamlar»

– sham belgisidagi keyingi harflar odatda rezba uzunligini bildiradi. Masalan, XL – 19 mm;

– izolyator issiqlik konusining korpusdan chiqib turishi S harfi bilan ko‘rsatiladi.

3.5. O‘T OLDIRISH TIZIMINING TEXNIK QAROVI

Avtomobil o‘t oldirish tizimiga xizmat ko‘rsatishdagi ishlarning eng katta qismi uzgich-taqsimlagichga to‘g‘ri keladi. Uzgich-taqsimlagichning ishqalanuvchi qismlari ishslash jarayonida yeyiladi va mutazam ravishda moylab turishini talab qiladi. Bunday elementlar qatoriga uzgich-taqsimlagich vali va vakuum rostlagich podshipniklari, markazdan qochma rostlagichning alohida qismlari, uzgich pishangchasining o‘qi va kulachokli mustalar kiradi.

Har to'rtinchi TXK-2 da uzgich-taqsimlagich avtomobildan yechib olinadi va unga chuqurlashtirilgan texnik xizmat ko'rsatiladi.

Uzgich-taqsimlagichning yuqori kuchlanish ta'sirida ishlaydigan qopqoq va yugurdak holatiga, ayniqsa katta e'tibor berish zarur. Qopqoqning tashqi yuzida darz, kuyish izlari bo'lmasligi kerak. Uning tashqi va ichki yuzi kir, moy va namlikdan, yon elektrodlar esa kuyukdan tozalanishi zarur. Markaziy ko'mir kontakt erkin harakatlanishi va «osilib» qolmasligi kerak.

Uzgich kontaktlari toza va kuymagan bo'lishi kerak. Kuygan kontaktlar haydovchining asboblar to'plamidagi abraziv plastina yordamida tozalanadi. Kuchli va nosimmetrik yejilgan kontaktlar almashtiriladi.

O't oldirish tizimining me'yorida ishlashiga uzgich kontaktlarning orasidagi tirkishning kattaligi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Qo'zg'aluvchi kontakt pishangchasiga o'rnatilgan tekstolit yostiqcha va uzgich kulachogining yejilishi uzgich kontaktlari orasidagi tirkishning kamayishiga olib keladi. Bu kontaktlar orasida uchqun hosil bo'lishini kuchaytirib, volframni qo'zg'aluvchi kontaktidan qo'zg'almas kontaktga o'tish hodisasini (eroziya) yuzaga keltiradi. Natijada yuqori kuchlanish qiymati pasayadi, o't oldirish shamlaridagi uchqun hosil bo'lish jarayonida uzelishlar sodir bo'ladi. Kontaktlar orasidagi tirkishning ortishi kontaktlarning tutashib turish burchagini kamaytiradi, ya'ni birlamchi tokning o'sish vaqt qisqaradi va yuqori kuchlanish qiymati pasayadi. Shunday qilib uzgich kontaktlari orasidagi tirkishning me'yorida kamayishi ham, ortishi ham o't oldirish tizimining ishini yomonlashtirar ekan. Uzgich kontaktlarining tutashib turish burchagi СП3-8, СП3-12 belgili qurilmalar yordamida rostlanadi.

Kondensatorni tekshirish uchun taqsimlagich qopqog'i va yugurdagi yechiladi va o't oldirish g'altagidan kelgan yuqori kuchlanish o'tkazgichini «massa»ga yaqinlashtirildi (taxminan 5...7 mm ga) va dastak yordamida dvigatelning tirsakli vali aylantiriladi. Bunda: agar yuqori kuchlanish o'tkazgichi va «massa» orasida uchqun hosil bo'lmasa (yoki uchqun barqaror bo'lmasa), lekin uzgich kontaktlari orasida kuchli uchqun chiqqa boshlasa – kondensator nosoz yoki kondensator ulangan joydagи kontakt shikastlangan.

Vakuum va markazdan qochma rostlagichlarning nosozligi dvigatelning quvvati, tejamkorligini pasaytiradi, u notejis ishlaydi. Vakuum va markazdan qochma rostlagichlarning sozligi maxsus asbob – stroboskop yordamida aniqlanadi.

Bundan tashqari, TXKda uzgich-taqsimlagichning ishqlananuvchi yuzalariga ham e'tibor berish zarur. Pishangcha o'qi va kulachok valchasing namatl filsi bir yoki ikki tomchi, kulachok vtulkasi esa to'rt-besh tomchi motor moyini tomizish yo'li bilan moylanadi. Podshipnik o'qini moylash uchun taqsimlagich qobig'iga joylashtirilgan moydon murvati 1-2 marta buraladi.

Taqsimlagich diskining podshipnigi o'z o'qi atrofida erkin aylanishi kerak. Har TXK-2 da podshipnikdagi eski moy qoldiqlarini kerosin bilan yuvish va yangi moy bilan to'ldirish kerak.

O't oldirish shamlariga har TXK-2 da xizmat ko'rsatiladi. Shamlar dvigateldan yechilib ularning texnik holati tekshiriladi. Zarurat bo'yicha sham kuyukdan tozalanadi., elektrodlar orasidagi tirqish rostlanadi. Shamlarning holati o't oldirish tizimi va dvigatelni ishi haqida ko'p ma'lumot berishi mumkin.

Shamning hamma elementlari qurum bilan qoplangan bo'lsa, uzgich kontaktlarining tutashib turish burchagi yoki ular orasidagi tirqish me'yorida emasligi, kondensatorning nosozligi, dvigatelni uzoq vaqt davomida salt ishlaganligi, ishchi aralashmani quyuqligi to'g'risida belgi bo'ladi.

Hamma shamlarning moylanib qolishi silindr va porshen halqalarining yeyilganligini ko'rsatadi. Sham elektrodlari va uning boshqa elementlarining kuyishi o't oldirishning ilgarilatish burchagining noto'g'ri o'rnatilganligi, ishchi aralashmaning suyilib ketganligi, oktan soni kichik bo'lgan benzin ishlatilganligi haqida dalolat beradi Shamlarni bosim ostida qum sochuvchi maxsus qurilma yordamida tozalash maqsadga muvofiqdir. Shamlarni ochiq olovda qizdirish yo'li bilan tozalash mumkin emas. Chunki bunday usulda tozalangan shamlarning izolyatsiya xususiyati keskin kamayadi va ko'p hollarda ular to'la ishdan chiqadi.

O't oldirish shamlarini avtomobil har 20...30 ming km yurganda almashtirish tavsiya qilinadi.

O't oldirish g'altaklari va tranzistor kommutatorlarga texnik xizmat ko'rsatish ularning ustini chang, moydan tozalab turish, elektr kontaktlarning ishchoncli ulanganligini tekshirishdan iborat.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. O't oldirish tizimlarining qanday turlari mayjud?
2. O't oldirish tizimlari qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
3. Kontakli o't oldirish tizimi qanday elementlardan tashkil topgan va ularning vazifalari?
4. O't oldirish tizimidagi ish jarayonining uch bosqichini tushuntiring.
5. Kontakli o't oldirish tizimining birlamchi zanjiridagi tok qanday o'zgaradi?
6. O't oldirish tizimining birlamchi zanjiridan o'tadigan tok qanday omillarga bog'liq?
7. O't oldirish g'altagi avj oldiradigan yuqori kuchlanishning maksimal qiymati qanday omillarga bog'liq?
8. Kontakli o't oldirish tizimi qanday kamchiliklarga ega?
9. Kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimining ishlash prisipini tushuntiring.
10. Kontakt-tranzistorli o't oldirish tizimi qanday afzallik va kamchiliklarga ega?
11. Kontaktisiz-tranzistorli o't oldirish tizimining ishlash prisipini tushuntiring va o'ziga xos tomonlarini izohlang.

-
12. Zamona viy elektron o't oldirish tizimlarida qo'llanilayotgan kontaktsiz dat-chiklarning o'ziga xos tomonlarini tushuntiring.
 13. Energiya to'planishi boshqariladigan o't oldirish tizimining ishlash prinsipi va afzalliklarini tushuntiring.
 14. Mikroprotsessorli o't oldirish tizimini ishlash prinsipi va afzalliklarini tushuntiring.
 15. Yuqori kuchlanishni statik taqsimlash necha usul bilan amalga oshiriladi?
 16. O't oldirish shamlarining tuzilishini tushuntiring va ularni tayyolashda ishlatiladigan materiallarni izohlang.
 17. O't oldirish shamlarining issiqlik tavsifnomasi nima va u qanday ko'rsatkich bilan ifodalanadi?
 18. Shamlarning o'z-o'zini tozalash temperaturasini izohlang.
 19. «Cho'g'dan» o't olish nima va qanday sabablarga ko'ra yuzaga keladi?
 20. «Issiq» va «sovuq» shamlar to'g'risidagi tushunchalarini tavsiflab bering.
 21. O't oldirish tizimining texnik qarovida qanday ishlar bajariladi?

4-BOB. NAZORAT-O'LCHOV ASBOBLARI

4.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Nazorat-o'lchov asboblari (NO'A) haydovchiga avtomobilning agregatlari, alohida tizimlarining holati va me'yorida ishlayotganligi haqida xabar berib turish uchun xizmat qiladi.

Haydovchiga ma'lumotni uzatish usuli bo'yicha nazorat-o'lchov asboblari ko'rsatuvchi va darak beruvchi guruhlarga bo'linadi.

Ko'rsatuvchi asboblarning shkalasi va ko'rsatkich mili holatiga ko'ra o'lchanayotgan kattalikning qiymati aniqlanadi. Bu asboblar nazorat qilinayotgan parametrning aniq qiymatini o'lhash va avtomobilning butun bir tizimi yoki alohida aggregatining holati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Lekin, haydovchi bu ma'lumotni olish uchun bir daqiqaga bo'lsa ham diqqatini yo'ldan asbobga olishi kerak va bu harakat havfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Darakchi asboblar nazorat qilinayotgan ko'rsatkichning faqat bitta, odatta avariya qiymatidan ta'sirlanadi va haydovchiga bu to'g'risida yorug'lik yoki tovush yordamida xabar beradi. Darakchi asboblarning afzalligi shundan iboratki, ularni doimo kuzatib borish zarurati yo'q va haydovchining diqqati avtomobilni boshqarish jarayonidan kamroq chalg'iysi. Kamchiligi – asboblardan haydovchiga kelayotgan ma'lumot avtomobilning ma'lum tizimining ishi me'yordan chiqib bo'lganda yoki chiqish holatida uzatiladi.

Avtomobillarda nazorat qilinuvchi parametrlar soni tobora o'sib borayotganligi sababli va haydovchining diqqatini kamroq chalg'itish maqsadida, keyingi vaqtida hamma turdag'i avtomobillarda darakchi asboblar soni ortib borayotgani kuzatilmoida. Ba'zi avtomobillarda ularni birga ishlatish hollari ham uchrab turadi.

Avtomobillarda o'rnatiladigan nazorat-o'lchov asboblari elektr toki yoki mexanik kuch ta'sirida ishlashi mumkin. Elektr asboblar uchun tok avtomobilda manba (akkumulator, generator)dan olinadi. Mexanik asboblarda esa, kattaligi o'lchanayotgan muhit energiyasidan foydalilanadi (masalan, mexanik manometrlarda dvigatelni moylash tizimidagi bosim).

Nazorat-o'lchov asbob datchik va ko'rsatkichdan iborat bo'lib, signal uzatish uchun ular o'zaro simlar bilan ulangan. Nazorat qilinishi zarur bo'lgan muhit yoki joyga (harorat, bosim, tezlik va hokazo) – datchik, kuzatiladigan joyga, odatta, haydovchi kabinasidagi asboblar paneliga ko'rsatkich joylashtiriladi. Datchik nazorat qilinayotgan muhit yoki joydag'i o'zgarishni sezuvchi element va bu o'zgarishni elektr tokiga aylantiruvchi o'zgartirgichdan iborat bo'ladi. Ko'rsatkich – datchik dan kelayotgan signalni sezuvchi element, elektr toki ko'rinishidagi signalni zarur mexanik harakatga aylantiruvchi o'zgartirgich va o'lchanayotgan parametr birligida darajalangan shkaladan iborat. Darakchi asboblarda ko'rsatkich sifatida avtomobilning asboblar panelida joylashtiriladigan xabarchi lampalar xizmat qiladi.

Bajaradigan vazifasiga ko'ra, avtomobilarning nazorat-o'lchov asboblari quyidagi guruhlarga bo'linadi: temperatura o'lchaydigan (termometrlar); bosim o'lchaydigan (manometrlar); yonilg'i sathini o'lchaydigan; akkumulatorlar batareyasini zaryadlash rejimini nazorat qiladigan, tezlik va o'tilgan yo'lni o'lchaydigan (spidometrlar); aylanish chastotasini o'lchaydigan (taxometrlar). Bundan tashqari, nazorat-o'lchov asboblari turkumiga taxograflar ham kiradi.

Avtomobilga o'rnatilgan nazorat-o'lchov asboblarining ishslash sharoiti ancha og'ir bo'lganligi uchun, ular Davlat standartlarining quyidagi talablariga javob berishi kerak:

- 50 Hz chastotada, dvigatelga o'rnatilgan asboblar 10 d, boshqa agregatlarga o'rnatilganlar esa 5 d vibratsiya yuklamasiga chidashi kerak;
- dvigatelga o'rnatilgan asboblar 15 d gacha, boshqa agregatlarga o'rnatilganlar 10 d gacha zarba yuklamasiga chidashi kerak;
- atrof-muhit harorati -45°C dan $+80^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan chegarada me'yorida ishlashi kerak;
- tok manbayining qiymati 12V li tizimlar uchun 10–16 V doirasida, 24 V li tizimlar uchun 22–30 V doirasida va atmosfera bosimi 86–106 kPa (650–800 mm, simob ustuni) doirasida o'zgarganda, nazorat-o'lchov asboblarning o'lhash xatoligi ortmasligi kerak;

Ishlatish jarayonida asboblarga suv, moy, yonilg'i, loy tushishi, ular chang bilan qoplanishi mumkin. Shuning uchun asboblarning ustki qismi bu narsalar ta'siriga chidamli, ichki qismi tashqi muhitdan yaxshilab zichlangan bo'lishi kerak.

Bulardan tashqari, nazorat-o'lchov asboblari bevosita transport vositalarida qo'llanilishining o'ziga xos tomonlaridan yuzaga keladigan quyidagi talablar ham mavjud:

- avtomobil nazorat-o'lchov asboblari fazoga, radio-teleko'rsatuvlarga zarar ko'rsatuvchi xalaqitlar tarqatmasligi kerak;
- ko'rsatuvchi asboblardan ma'lumot olish, ya'ni uni o'qish haydovchi uchun qulay bo'lib, uning diqqatini ortiqcha jalb qilmasligi kerak;
- darak beruvchi chiroqlar yongan vaqtida, haydovchi diqqatini darhol jalb qiladigan joyga o'rnatilgan bo'lishi kerak;
- ko'rsatuvchi asboblarni haydovchining nazar doirasiga joylashtirishda, muhandislik psixologiyasi tavsiyalari va asboblar panelini estetik jihozlash talablari hisobga olinishi kerak;
- nazorat-o'lchov asboblarini ishlab chiqarish tannarxi arzon va ularga xizmat ko'rsatish qulay bo'lishi kerak.

Nazorat-o'lchov asboblarining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi, avtomobil va uning alohida qismlarini ishlatishdagi, nosozliklarni o'z vaqtida aniqlashdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ularning avtomobilning to'liq qiymatidagi ulushi ancha kichik, lekin qimmatbaho aggregatlarning texnik holatini nazorat qilish va me'yorida ishslash qobiliyatini uzoq vaqt davomida saqlashdagi ahamiyati juda katta.

Avtomobil texnikasining rivojlanishi, uning alohida qismlari takomillashuvvi nazorat qilinishi zarur bo'lgan nuqtalar ortishiga, nazorat-o'chov asboblari ning yangi turlari paydo bo'lishiga, ularning tuzilishi mukammalashuviga olib kelmoqda.


4.2. TEMPERATURA O'LCHASH ASBOBLARI

Dvigatellarning issiqlik rejimini nazorat qilish uchun temperatura o'lchash asboblari va avariya temperaturasi to'g'risida xabar beruvchi yorug'lik darakchilari o'rnatiladi. Ba'zi avtomobillarda gidrotransmissiya va moylash tizimidagi suyuqlik, akkumulatordagi elektrolit haroratini nazorat qilish uchun ham termometrlar dan foydalilanadi.

Hozirgi vaqtida avtomobillarda ikki turdag'i termometrlar ishlatalmoqda: termobimetall impulsli va termorezistorli magnitolelektr (logometrik).

Termobimetall impulsli termometr. Termobimetall impulsli termometr datchik va strelkali ko'rsatkichdan iborat (4.1-rasm).

Datchik konusli rezbaga ega bo'lgan metall qobiq 6 ga mahkamlangan yupqa devorli jez ballon 9 dan iborat. Datchikning termobimetall plastinasi 3 asos izolyatori 8 ga mahkamlangan. Termobimetall plastina umumiy qalinligi 0,25 mm bo'lgan ikki qatlamdan iborat bo'lib, ustki qatlam issiqlikdan kengayish koeffitsiyenti nisbatan past bo'lgan invardan (36 % nikel + 63 % temir va boshqa metallar), pastki qatlam esa issiqlikdan kengayish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan kam magnitli pq'latdan tayyorlangan. Bimetall plastinaga konstantan yoki manganin simdan tayyorlangan qizdiruvchi chulg'am 4 o'ralgan. Bu chulg'amning bir uchi bimetall plastina uchi-



4.1-rasm. Termobimetall impulsli termometr

dagi qo'zg'aluvchi kontakt 2 bilan ulangan, ikkinchi uchi kontakt sim 5 orqali chiqish qisqichi 7 ga biriktirilgan. Qo'zg'almas kontakt 1 datchik qobig'i, ya'ni mas-sa bilan tutashtirilgan.

Termometrning ko'rsatkichi Π simon termobimetall plastina 10 dan iborat bo'lib, uning ishchi yelkasiga qizdiruvchi chulg'am 13 o'ralgan. Bimetall plastina-ning ishchi yelkasi strelka 12 ga sharnirli biriktirilgan, termokompensatsiya yelkasi esa rostlanadigan sektor 11 ga mahkamlangan. Rostlash zarur bo'lganda sektor 11 o'z o'qi 14 ga nisbatan harakatlanishi mumkin.

Sektor 16 elastik plastinasi 15 yordamida strelkani bimetall plastina uchidagi ilmoqqa tirab, unga sharnirli asos hosil qiladi. Bu sektor rostlash tishchalariga ega.

Datchik va ko'rsatkich chulg'amlari tok manbayiga ketma-ket uylanadi (4.1-rasm).

Termometr tok manbayiga uylanmagan holda datchik kontaktlari tutash, ko'rsatkich bimetall plastinasining ishchi yelkasi 13 egilmagan va strelka 12 shkalanling chap chekkasida, ya'ni 110 °C belgi tomonda bo'ladi. O't oldirish kaliti ulanganda datchik va ko'rsatkich termobimetall plastinalaridagi qizdiruvchi chulg'amlardan tok o'ta boshlaydi. Datchik plastinalari qiziydi, yuqori tomonga egiladi va kontaktlarni uzadi. Bir necha daqiqadan keyin plastina soviydi va yana o'z holiga qaytib kontaktlarni tutashtiradi va tok yana qizdiruvchi chulg'amlardan o'ta boshlaydi. Atrof-muhit harorati o'zgarmas bo'lganda, datchik kontaktlar ham bir xil chastota bilan uzilib-tutashib turadi. Kontaktlarning tutashib turish vaqtining, tutashib-uzilish davrining umumiy vaqtiga nisbati atrof-muhit haroratiga bevosita bog'liq. Termobimetall plastina atrofidagi muhit harorati qanchalik baland bo'lsa, u egilib kontaktlarni uzgandan keyin sovushi shunchalik qiyin bo'ladi, kontaktlar tutashgandan keyin esa tez qizib ketadi.

O't oldirish kaliti ulanib, termometr chulg'amlariga tok berilganda, dvigatelning sovitish tizimidagi, demak datchik atrofidagi harorat ham past bo'ladi. Bu holda datchik kontaktlarining tutashib-uzilish chastotasi katta ($40\text{ }^{\circ}\text{C}$ da minutiga taxminan 80–120 marta) va demak, I_{eff} qiymati ham katta bo'ladi. Bu ko'rsatkichdagi bimetall plastinani ko'proq egilishiga va strelka shkalanling o'ng tomoniga, ya'ni past temperaturalar tomonga og'ishiga olib keladi.

Dvigatelning ish jarayonida uning sovitish tizimidagi suyuqlik isiy boshlaysidi va bu, albatta shu muhitga joylashtirilgan datchikning termobimetall plastinasi-ga ta'sir qiladi. Natijada, kontaktlar uzilgandan keyin plastinaningsovushitezligi sekinlashadi, kontaktlarning tutashib-uzulish chastotasi ham kamayadi. ($110\text{ }^{\circ}\text{C}$ da minutiga taxminan 8–10 marta). Bu ko'rsatkich bimetall plastinasi chulg'amidan o'tayotgan I_{eff} tokning kamayishiga, plastina sovib, egilgan holdan sekin-asta to'g'rilanishiga va strelkani shkalanling chap tomoniga, ya'ni yuqori temperaturalar tomoniga og'ishiga olib keladi.

Ko'rsatkichdagi termobimetall plastinaning qizishi nafaqat uning chulg'amidan o'tayotgan I_{eff} tokka, balki ko'rsatkich joylashtirilgan asboblar paneli atrofida-

gi muhit haroratiga ham bog'liq. Atrof-muhit haroratini termometrning o'Ichash aniqligiga ta'sirini istisno qilish maqsadida ko'rsatkichning termobimetall plas-tinasida termokompensatsiya yelka mavjud (4.1-rasmida u sektor II ga mahkam-langan). Asboblar paneli atrofidagi harorat o'zgarganda, masalan, ortganda, bime-tall plastinaning har ikkala yelkasi baravar egiladi va strelkaning shkalaga nisbatan holati o'zgarmaydi.


Termobimetall impulsli termometrlarning tuzilishi sodda va tannarxi past. Lekin termometrning ishonchli ishlashini pasaytiradigan, radioqabulga xalaqit beradigan kontaktlarning mavjudligi bu turdag'i termometrlarning jiddiy kamchili-gi hisoblanadi. Bundan tashqari, termobimetall impulsli termometrlarning o'Ichash aniqligi tok manbayining barqarorligiga bevosita bog'liq. Agar tok manbayining kuchlanishi biror sababga ko'ra o'zgarsa, termometrning o'Ichash aniqligi keskin kamayadi.

Hozirgi vaqtida avtomobilarda yuqorida keltirilgan kamchiliklardan ko'p jihat-dan holi bo'lgan magnitoelektr (logometrik) termometrlar keng qo'llanilmoqda.


Magnitoelektr (logometrik) termometrlar. Logometrik termometr tuzili-shi va ishslash prinsipi bo'yicha termobimetall impulsli termometrlardan jiddiy farq qiladi. Uning datchigi (4.2-rasm) jezdan tayyorlangan ballon 1 ko'rinishida bo'lib, pastki tekis qismiga tok o'tkazadigan prujina 3 yordamida qisib turiladi-gan tabletkasimon termorezistor 4 joylashtirilgan. Prujina 3 bir uchi bilan qis-qich 2 ga qadalib turadi va vtulka 5 yordamida datchik balloonning ichki devor-chasidan izolyatsiya qilingan. Temperatura o'zgarishi bilan termorezistor qarshili-gi katta doirada o'zgaradi. Masalan, sovitish tizimidagi suyuqligining temperatu-rasi 40°C dan 90°C gacha ortsa, termorezistor qarshiliqi $450\ \Omega$ dan $70\ \Omega$ gacha kamayadi.

Logometrik termometrlarning ko'rsatkichi ikki bo'lakli plastmassa karkas 2 dan iborat bo'lib (4.3-rasm), ular bir-biriga tortuvchi murvatlar bilan biriktiril-gan. Karkasga uchta o'Ichov g'altaklari 5 o'ralgan. Asbobning sezuvchanligini orttirish uchun birinchi va uchinchi g'altaklar bitta darchaga, lekin bir-biriga teskar'i o'ralgan. Ikkinci g'altak ikkinchi darchaga, birinchi va uchinchi g'altaklarga nis-batan 90° burchak bilan o'ralgan. Karkasning ichki qis-midagi o'q 9 da doimiy magnit 3 joylashtirilgan. O'q bir tomonдан rostlanadigan tayanch 4 ga qadalgan bo'lsa, ikkinchi tayanch sifatida shkala ko'prikhiasi 10 ishla-tilgan.


Asbob tok manbayiga ulanganda uning chulg'amlari dan tok o'tib, g'altaklar atrofida magnit maydonni hosil qiladi. Doimiy magnit 3 ning maydoni uchta g'altakning natijaviy magnit maydoni bilan o'zarot ta'sirlanib, doimiy magnitni ma'lum burchakka buradi. O'q 9 ning tashqi



4.2-rasm.
Termorezistorli
temperatura datchigi



4.3-rasm. Logometrik ko'rsatkich



4.4-rasm. Logometrik termometrning umumiy sxemasi

uchiga mahkamlangan ko'rsatkich strelkasi ham doimiy magnit bilan birga shkala 11 nisbatan buralib o'lchanayotgan temperaturaning kattaligini ko'rsatadi. Tok manbayi uzilgandan keyin strelkani dastlabki, ya'ni nol holatiga qaytarish uchun karkas tanasiga qo'shimcha doimiy magnit o'rnatilgan. Yig'ilgan ko'rsatkich mexanizmi po'lat qobiq / ga joylashtiriladi. Qobiq bir vaqtning o'zida ko'rsatkich chulg'amlarini tashqi magnit maydonlar ta'siridan saqlovchi ekran vazifasini ham bajaradi. G'altaklarning chiqish similari qisqichlar 6 ga ulanadi. Ko'rsatkich shkaliasi po'lat qobiqdagi maxsus uyachaga o'rnatiladigan lampa yordamida yoritiladi.

Termometr quyidagicha ishladi. (4.4-rasm). O't oldirish kaliti ulanganda tok ikkita parallel zanjir orqali o'ta boshlaydi: ko'rsatkichdagi L_1 va L_2 g'altaklar – termokompensatsiya qarshiliği R ; ko'rsatkichning L_3 g'altagi – datchik termorezistori 4.

L_1 va L_2 g'altaklardan o'tayotgan tok qiymati asbob ishlashi davomida deyarli o'zgarmaydi va ularda hosil bo'ladigan magnit oqimlar amalda doimiy bo'ladi. L_3 g'altakdan o'tayotgan tok kuchi va demak, unda hosil bo'ladigan magnit oqimining quvvati termorezistor 4 ning qarshiligiga bog'liq. Datchik o'rnatilgan muhit harorati past bo'lganda termorezistor qarshiligi yuqori bo'ladi (4.4-rasm). Natijada, L_3 g'altakdan o'tayotgan tok kuchi va unda hosil bo'ladigan magnit oqimi juda kichik bo'ladi. Bu holda L_2 g'altakda hosil bo'lgan magnit oqimi, L_3 g'altakdagi magnit oqimidan ancha kuchli bo'ladi. Uchta g'altak magnit maydonlarining o'zarota'sirida hosil bo'lgan natijaviy magnit

oqim doimiy magnit 2 ni va u bilan strelka / ning chap tomoniga, ya'ni shkalaning past temperaturalar tomoniga buraydi.

Datchik o'rnatilgan muhit harorati oshishi bilan termorezistor qarshiligi kamaya boshlaydi. Bu L_3 g'altakdan o'tayotgan tok kuchi ortishiga, unda hosil bo'layotgan magnit oqimining kuchayishiga olib keladi. Bu, uchta g'altakda hosil bo'lgan magnit maydonlarning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan umumiyl magnit oqimi qiymatining o'zgarishiga, doimiy magnit 2 va u bilan birga strelka / ning sekin-asta o'ng tomoniga, ya'ni shkalaning yuqori temperaturalar tomoniga burilishi-ga olib keladi. Shu tarzda, ko'rsatkich strelkasi datchik o'rnatilgan muhit harorati o'zgarishiga mos ravishda o'z holatini o'zgartirib turadi.


O't oldirish kaliti o'chirilganda, harakatlanuvchi doimiy magnit 2 va karkas-ga joylashtirilgan doimiy magnitlar 3 ning o'zaro ta'siri natijasida strelka dastlabki, ya'ni 0 holatga qaytariladi.

Logometrik termometrlar termobimetall impulsli termometrlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Uning datchiklarida ishonchlikni pasaytiradigan harakatlanuvchi kontaktlar yo'q. Ko'rsatkichida strelkaning harakatlanish burchagi nisba-tan katta, shkaladagi ma'lumotni tez va yengil o'qish imkoniyati bor. Logometrik ko'rsatkichning o'lhash aniqligiga tok manbayining kuchlanishi va atrof-muhit harorati deyarli ta'sir ko'rsatmaydi, chunki bularning o'zgarishi uchta g'altakdag'i magnit maydonga proporsional ta'sir ko'rsatib, natijaviy magnit oqimi o'zgarmay qoladi, demak strelkaning holati ham o'zgarmaydi.

Avariya temperaturasi xabarchilar. Avtomobilarda strelkali temperatu-ra ko'rsatkichlarining o'rnatilishi, dvigatelning issiqlik rejimining birdan buzili-shi (masalan, suv nasosining ishdan chiqishi, suv nasosini harakatga keltiruvchi tasmaning uzilishi yoki sovutuvchi suyuqlikning oqib ketishi va boshqa sabablar-ga ko'ra) natijasida, uning temperaturasi yo'l qo'yib bo'lmaydigan qiyatlargacha ko'tarilib ketishini haydovchi darhol sezadi va tegishli chora ko'radi deb kafolatlab bo'lmaydi. Shuning uchun ba'zi avtomobilarda strelkali termometrga qo'shimcha avariya temperaturasi xabarchilari ham o'rnataladi.

Suyuqlikli sovitish tizimiga ega bo'lgan dvigatellarda avariya temperaturasi xabarchisining datchigi radiatorming yuqori bakiga, havo bilan sovutiladigan dviga-tellarda esa, moylash tizimiga o'rnataladi.

Avtomobilarda avariya temperaturasi xabarchisi sifatida termobimetall plastinasi datchiklar ishlataladi. Datchiklarning tuzilishining o'ziga xos tomonlarini TM104, TM111 va PC403-B belgili datchiklar misolida ko'rishimiz mumkin (4.5-rasm). TM104 datchigida (4.5- a rasm) uchiga kontakt 5 o'rnashtirilgan bimetall plastina 4 jez ballon 3 ga joylashtirilgan va qobiqdan izolyatsiya qilingan. U qalin sim 9 orqali, izolyator 2 ga mahkamlangan qisqich / bilan tutashtirilgan. Cheklagich 6 bimetall plastina 4 ni ballon 3 ga tegib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Kontakt plastinasi 8 ga mahkamlangan qo'zg'almas kontakt 7, qobiq orqali «massa»ga ulangan.



4.5-rasm. Avariya temperaturasi xabarchilarining datchiklari:

a – TM104 datchigi va uning ulanish sxemasi: 1 – chiqish qisqichi, 2 – izolyator, 3 – ballon, 4 – bimetall plastina, 5, 7 – kontaktlar, 6 – cheklagich, 8, 9 – tok o’tkazgich plastinalar, 10 – xabarchi chiroq. b – TM111 datchigi: 1 – chiqish qisqichi, 2 – izolyator, 3 – rostlash murvati, 4, 6 – kontaktlar, 5 – qobiq, 7 – qisuvchi shayba, 8 – bimetall plastina, 9 – shtekker. c – PC403-Б datchigi: 1 – chiqish qisqichi, 2 – izolyator, 3 – rostlash murvati, 4 – tirkak, 5 – rostlanuvchi plastina, 6, 9 – kontaktlar, 7 – bimetall plastina, 8 – ballon.

Nazorat qilinayotgan muhit harorati ortishi bilan bimetall plastina 4 ham qiziydi va past tomonga qarab egila boshlaydi. Temperatura ma’lum xavfli qiymatga yetganda, bimetall plastinaning egilishi shu darajaga yetadiki, u kontaktlar 5 va 7 ni tutashtiradi. Bu holda avtomobilning asboblar panelida joylashtirilgan qizil xabarchi chiroq 10 yonadi.

Datchik TM111 (4.5- b rasm) qalin jez qobiq 5 dan iborat bo‘lib, uning ichki qismiga uchiga kontakt 5 joylashtirilgan sirtmoqsimon termobimetall plastina 8 shayba 7 yordamida qisib qo‘yilgan. Murvat 3 bilan birgalikda yasalgan tarelkasimon kontakt 4 izolyator 2 ning ichiga o‘rnashtirilgan chiqish qisqichi 1 ning rezbasi bo‘ylab harakatlanishi mumkin. 4 va 6 kontaktlar orasidagi masofani o‘zgartirish hisobiga datchik kontaktlari tutashish temperaturasini 92...98 °C doirasida o‘rnatish mumkin. Bu turdagи datchiklar КамАЗ avtomobilalarida qo‘llangan.

Datchik PC403-Б (4.5- c rasm) ЛАЗ va ЛиАЗ avtobuslarining avtomatik

uzatma qutisidagi moy haroratini nazorat qilish uchun ishlataladi. Uchiga kontakt 9 o'rnatilgan bimetall plastina 7 korpusga biriktirilgan. Kontakt 6 esa rost-lanuvchi plastina 5 ga o'rnatilgan bo'lib, u chiqish qisqichi 1 ga ulangan. Kontaktlarning tutashish temperaturasi, 127...143 °C doirasida murvat 3 yordamida o'rnatiladi.


4.3. BOSIM VA SIYRAKLANGANLIKNI O'LCHASH ASBOBLARI

Avtomobilarda o'rnatilgan bosim o'lhash asboblari dvigateldagi va gidromexanik uzatmalardagi moy, pnevmatik tormoz tizimidagi havo bosimini nazorat qilish uchun xizmat qiladi. Moy va havo bosimini nazorat qiluvchi asboblari nosoz bo'lgan avtomobillarni ishlatalish qat'yan man etilgan, chunki bu avariya rejimlarini yuzaga keltirishi mumkin. Haydovchi diqqatini shoshilinch tarzda jalb qilish maqsadida, deyarli hamma avtomobillarda strelkali manometr bilan birga avariya bosimi xabarchisi ham o'rnatiladi.

Hozirgi zamon avtomobillarda kiritish kollektoridagi havoning siyaklanganligini nazorat qiluvchi asbob – ekonometr keng ko'lamda ishlatalmoqda. Bu asbobdan olingan ma'lumot asosida haydovchi eng kam yonilg'i sarf bo'ladigan harakat rejimini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'lhash usuliga ko'ra, manometrlar bevosita ta'sirlanuvchi (mexanik) va elektr asboblarga bo'linadi. Bevosita ta'sirlanuvchi asboblar turiga naychasimon prujinali manometrlar, elektr asboblariga termobimetall impulsli va reostat datchikli logometrik manometrlar kiradi.

Naychasimon prujinali manometrlaming (4.6-rasm) o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ularda sezuvchi element naychasimon prujina va ko'rsatkich bitta qilib ishlangan va asboblar paneliga joylashtirilgan, nazorat qilinayotgan muhit-



4.6-rasm. Bevosita ta'sirlanuvchi manometr mexanizmi


dan suyuqlik yoki havo bosimi ostida naycha orqali sezuvchi elementga uzatiladi. Naychasimon prujinali manometrning asosiy elementi sifatida elastik yassi naycha 4 ishlatalilib uning ko'ndalang kesimi asosiy o'qlar X va Y ga nisbatan simmetrik holda yasalgan. Naycha aylana yoyi bo'ylab bukilgan bo'lib, bitta to'la tugatilmagan o'ramdan iborat. Naychaning bir uchi shtutser 7 ga kavsharlangan bo'lib, u orqali suyuqlik yoki havo nazorat qilinayotgan tizimdan naychasimon prujinaliga uzatiladi. Naychaning ikkinchi uchi tortma 6 ga biriktirilgan bo'lib, u korpus 1 ga mahkamlangan uzatma mexanizmi orqali asbob strelkasi 2 ni harakatga keltiradi. Ichidagi bosim ta'sirida naycha kengayadi (ko'ndalang kesim o'lchami Y o'qi bo'yicha kattalashadi, X o'qi bo'yicha – kichiklashadi), lekin A va A_1 yoylarning uzunligi amalda o'zgarmaydi. Natijada prujina yoyining egriligi kamayadi, naycha to'g'rilanadi. Naycha to'g'rilanish vaqtida tortma 6 va uzatma mexanizmi orqali strelka 2 ni harakatga keltiradi. Yuritish mexanizmi tarkibiga tishli sektor 5 va trubka (aylanish o'qi bilan birga yasalgan 6 tadan 16 tagacha kichik modulli tishchallarga ega bo'lgan g'ildirak) 10 kiradi. Strelka o'qidagi qil prujina 3 uzatma mexanizmidagi tirqishlarning asbob aniqligiga ta'sirini kamaytiradi. Manometr murvat 9 ni bo'shatib, uzatma mexanizm asosi 8 ni kerakli tomonga harakatlantirish hisobiga rostlanadi.

Keyingi vaqtida avtomobilarda keng joriy qilinayotgan ekonometrning tuzilishi va ishslash prinsipi ham yuqorida keltirilgan naychasimon prujinali manometrning ishslash prinsipiga aynan o'xshashdir. Ekonometr larga o'rnatilgan naychasimon prujinalar bosimdan emas, balki havoning siyraklanishidan ta'sirlanadi. Ekonometr shkalasidagi strelkaning holatiga qarab, tanlangan harakat rejimining tejamkorligiga baho berish va dvigatelning bir qator nosozliklari haqida ma'lumot olish mumkin.

Naychasimon prujinali manometrlarning sezuvchanlik darajasi yuqori bo'lib, ular o'lchashni katta aniqlik bilan ta'minlaydilar. Shu bilan birga, bu turdagи asboblar katta bosimlarga va vibratsiyaga chidamsiz bo'ladi. Shuning uchun naychasimon prujinali manometrlar asosan, pnevmatik tormoz tizimlarida qo'llanildi. Bu tizimlarda havo bosimi belgilangan maksimal qiymatidan uzog'i bilan 25 %gacha ortishi mumkin.

Termobimetall impulsli manometr. Termobimetall impulsli manometr datchik va ko'rsatkichdan iborat bo'lib, bimetall plastinali ko'rsatkichning tuzilishi impulsli termometr ko'rsatkichi tuzilishi bilan aynan bir xil (4.3-rasm).

Manometr datchigi (4.7-rasm) bron-




4.7-rasm.Terobimetall impulsli manometr datchigi

zadan tayyorlangan membrana 12 ga ega bo'lib, uning markazi qismiga turtib chiqqan joyi 14 bilan elastik plastina 3 tayanib turadi. Elastik plastinaning uchiga joylashtirilgan kontakt «massa» bilan ulangan.

Datchikda Π simon termobimetall plastina joylashtirilgan va u «massa»dan izolyatsiya qilingan. Plastinaning ishchi yelkasi 4 ga konstantan simli chulg'am o'ralgan bo'lib, uning bir uchi termobiplastinaga payvandlangan bo'lsa, ikkinchi uchi 11 elastik qal'in sim 7 orqali chiqish qisqichi 8 ga ulangan. Termobimetall plas-tinaning ishchi yelkasining uchiga ikkinchi kontakt 6 o'rnatilgan. Membrana ostida bosim bo'lmaganda kontakt 6, elastik plastina 3 dagi kontakt bilan tutash holda bo'ladi. Termobimetall plastinaning ikkinchi termokompensatsiya yelkasi elastik tutqich 9 ga mahkamlangan va uning datchik bo'shilig'idagi holatini rostagich 10 ni burash yo'li bilan o'zgartirsa bo'ladi. Masalan, rostagichni soat strelkasi yo'naliishi bo'yicha buralsa, elastik tutqich va u bilan birga termobiplastina pasayadi va kontaktlarning bir-biriga qadalish darajasi ortadi. Datchik mexanizmi, asosi 1 bilan birgalikda himoya qobig'i 2 bilan yopilgan. Datchik nazorat qilinayotgan muhitga shutser 13 yordamida ulanadi.

Termobimetall impulsli manometr quyidagicha ishlaydi (4.8-rasm). Mem-brana 8 ostida bosim bo'lmaganda (o't oldirish kaliti ulangan, lekin dvigatel ishla-mayotgan hol) datchikdagi kontaktlar bir biriga minimal kuch bilan tiralgan va ter-mobimetall plastina chulg'ami 7 dan o'tayotgan tok uning ishchi yelkasini qizdiradi va u egilib kontaktlarni uzadi. Bir necha daqiqadan keyin plastina soviydi va to'g'rilanib, kontaktlarni yana tutashiradi. Shu tarzda datchik kontaktlari davriy ravishda tutashib-uzilib turadi. O'z navbatida, ko'rsatkichdagi Π simon plastinaning ishchi yelkasi, unga o'ralgan chulg'amdan o'tayotgan effek-tiv tok I_{eff} ta'sirida qiziysi va u egilib ko'rsatkich strelkasi 10 ning ishchi holatga, ya'ni shkalaning nol belgisiga keltriadi.

Datchik membranasi ostida bosim paydo bo'lganda (dvigatel ishga tushgandan keyingi hol) elastik plastina 9 kontakt bilan birgalik-da ko'tariladi va termobimet-all plastinani yuqori tomonga egadi. Endi kontaktlar uzili-shi uchun bimetall plastinada-gi chulg'amdan ko'proq vaqt tok o'tkazilishi talab qilina-



4.8-rasm. Termobimetall impulsli manometr:

- 1 – shutser;
- 2 – asos;
- 3 – qobiq;
- 4 – rezistor;
- 5 – kontakt vinti;
- 6 – termobimetall plastina;
- 7 – ishchi yelka chulg'ami;
- 8 – membrana;
- 9 – elas-tik plastina;
- 10 – ko'rsatkich strelkasi.

di. Bu esa, ko'rsatkichdagi termobimetall plastinaning ishchi yelkasi ko'proq qizishiga, ko'proq egilishiga, va demak, strelkaning kattaroq burchakka og'ishiga olib keladi. Ko'rsatkich bimetall plastinasining ishchi yelkasi qanchalik ko'p egilishi, ya'ni strelka qanchalik katta bosim ko'rsatishi, datchik membranasini ostidagi bosimning kattaligiga va elastik plastinadagi kontakt bimetall plastina ishchi yelkasida kontaktga qanchalik katta kuch bilan tirilib, uni deformatsiya qilish darajasiga bog'liq.


Termobimetall plastinalarning ishchi yelkalari atrof-muhit harorati ta'sirida ham qizishi mumkinligini hisobga olib, bu turdag'i manometrlardagi bimetall plastinalarning har ikkala sida ham termokompensatsiya yelkalari ko'zda tutilgan.

Impulsli asboblaming tuzilishi nisbatan sodda va ularda tashqi muhit harorati o'zgarishini yaxshi kompensatsiya qilish mexanizmi mavjud. Ammo kontaktlarning tutashib-uzilish jarayoni, ular orasida uchqun chiqishiga va bu sezilarli radioxalaqitlarni vujudga kelishiga olib keladi. Ish jarayonida kontaktlar kuyadi, yemiriladi, o'lchamlari o'zgaradi va natijada, datchikning ham dastlabki ko'rsatkichlari o'zgaradi, o'lhash aniqligi pasayadi. Shuning uchun oxirgi vaqtida bu turdag'i bosim o'lhash asboblari reostat datchikli logometrik manometrlar bilan almashtirilmoqda.

Magnitoelektr (logometrik) manometrlar. Logometrik manometrlar reostatlili datchik va magnitoelektr ko'rsatkichdan iborat (4.9-rasm).

Reostatlili datchik shtutserli asos 1 dan iborat bo'lib, unga po'lat baxyva yordamida bronzadan tayyorlangan qat-qat burama membrana mahkamlangan. Asos 1 ustiga reostat 4 va uzatma mexanizmi joylashtirilgan. Membrana markaziga turkich 11 o'rnatilgan bo'lib, unga rostlash murvati 10 orqali tebranma pishang 9 tayanib turadi. Tebranma pishang reostatning sudralgichi 5 ga ta'sir qilib, uni o'q 6 atrofida aylantirishi mumkin. O'q 6 ga o'ralgan prujina 8 sudralgich 5 harakatini belgilangan doirada cheklab turadi. Nazorat qilinayotgan tizimdag'i bosimning keskin o'zgarishi asbob ko'rsatishlariga ta'sirini kamaytirish maqsadida shtutser 12 ga kalibrlangan kichik teshikchali uchlik o'rnatilgan.

Logometrik manometr quyidagicha ishlaydi (4.10-rasm). Datchikka moy yoki havo uzatilganda membrana 9 bosim ostida yuqori tomonga ko'tariladi va tebranma pishang, tayanch maydoncha orqali sudralgichni reostat 8 bo'y lab harakatlantiradi. Bosim kamayganda membrana o'zining elastikligi ta'sirida pastga tushadi.



4.9-rasm. Logometrik manometrnning reostatlili datchigi

Reostat datchikli logometrik manometr


ko'rsatkichi, logometrik termometr ko'rsatkichlari tuzilishiga (4.3-rasm) aynan o'xshash, faqat ular bir-biridan g'altaklarning o'ramlar soni va ulanish sxemasi bilan farq qiladi. Datchik reostati qarshiligining o'zgarish doirasi (163Ω dan 20Ω gacha) logometrik termometrdagi termorezistor qarshiligining o'zgarish doirasidan (450Ω dan 50Ω gacha) ancha kam. Asbobni sezuvchanligini oshirish uchun logometrik manometr ko'rsatkichidagi g'altaklar 4.10-rasmida keltirilgan sxema bo'yicha ulanadi.

Reostat datchikli manometrlar impulsli manometrlarga nisbatan qator afzalliklarga ega. Ko'rsatkich shkalasida strelkaning harakatlanish doirasi ancha keng, bu haydovchiga ma'lumotni tez va aniq o'qib olish imkoniyatini beradi. Logometrik manometrlarning o'lchash anqliigi yuqori va ular radioxalaqtinarni vujudga keltirmaydi.

Avariiali minimal bosim xabarchilari. Avariiali bosim xabarchilari nazorat qilinayotgan tizimda suyuqlik yoki havo bosimining yo'l qo'yib bo'lmaydigan qiyamatlargacha kamayib ketganligi to'g'risida xabar berib, haydovchining diqqatini shoshilinch ravishda jalb qilish uchun xizmat qiladi. Bu xabarchilarning asosiy elementi datchik bo'lib, u nazorat qilinayotgan muhitga joylashtiriladi. Avariiali bosim mavjud bo'lganda, datchik sezuvchi elementining kontaktlari tutashib, asboblar panelidagi lampa yonadi. Avtomobillarda o'matiladigan avariiali bosim xabarchilarida sezuvchi element sifatida membrana va prujina ishlatalidi.


Membranalni datchik MM10 (4.11-*a* rasm) shtutser / mahkamlangan asos 2 dan va membrana 3 dan iborat. Chiqish qisqichi 7 bilan ulangan plastinaga qo'zg'almas kontakt 5 o'rnatilgan. Qo'zg'aluvchi kontakt 6 o'rnatilgan pishang 4 turkich orqali membrana bilan bog'langan. Datchikning ustki qismi yupqa metall qobiq 9 bilan yopilgan.

Ishchi holatda, ya'ni membrana ostidagi bosim me'yorida bo'lganda, u yuqori tomonga egilib turkich va pishang 4 orqali kontaktlar 5 va 6 ni uzilgan holda ushlab turadi. Membrana ostidagi bosim me'yordan kamayishi bilan kontaktlar tutashadi va asboblar panelidagi xabarchi lampa yonadi. Tayanch 8 yordamida datchikni ma'lum chegarada rostlash mumkin.



4.10-rasm. Magnitoelektr (logometrik) manometrning umumiyy sxemasi:

1, 2 va 3 – logometr g'altaklari, 4 – ko'rsatkich strelkasi, 5, 6 – qo'zg'aluvchan va o'zg'almas doimiy magnitlar, 7 – termokompensatsiya qarshiligi, 8 – datchik reostat; 9 – membrana.



4.11-rasm. Avariyalı bosim xabarchila-rining datchiklari:
a – MM10 (membranali); b – MM120 (prujinali).


BA3 va KamA3 turkumidagi avtomobilarning dvigatellarini moylash tizimiga o'rnatilgan MM120 belgili datchiklar boshqacha tuzilishga ega (4.11- b rasm). Datchik shtutser bilan birga yasalgan korpus 9 dan iborat bo'lib, uning ichki bo'shlig'i yupqa poliefir plynokadan tayyorlangan diafragma bilan ikki qismiga ajratilgan. Diafragma ostidagi bo'shliqa dvigatel moylash tizimidagi moy kirib diafragma va turtkich 6 ni yuqoriga ko'taradi. Diafragmaning ustki qismiga qo'zg'almas 7 va qo'zg'aluvchi 1 kontaktlar va diafragmaning yuqori tomonga egilishiga qarshilik ko'rsatuvchi sezuvchi element prujina 5 joylashtirilgan.

Korpusning ustki qismi chiqish qisqichi 2 mahkamlangan izolyator 4 bilan yopilgan. Diafragmaning yuqori qismidagi bo'shliq maxsus filtr 3 orqali tashqi muhit bilan bog'langan. Diafragma ostidagi bo'shliqdida, demak dvigatelning moylash tizimida bosim me'yorida bo'lsa, u egiladi va kontaktlar 1 va 7 ni uzilgan holda ushlab turadi. Bosim me'yordan kamayib ketsa, kontaktlar darhol tutashadi va asboblar panelidagi xabarchi lampa yonadi. Bu turdagagi datchiklar o'lchamlari kichikligi, ishonchliligi va barqaror ishlatishi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, avariyalı (yoki minimal) bosim xabarchilari pnevmo-yuritmalarda, eshiklarni ochishning vakuum tizimida va avtomobilning boshqa tizimlarida ham ishlatiladi.

4.4. YONILG'I SATHINI O'LCHASH ASBOBLARI

Yonilg'i sathini o'lchash asboblari avtomobil bakidagi yonilg'i hajmini va u qancha masofaga yetishini baholash imkonini beradi. Hozirgi zamonda avtomobillarida yonilg'i sathini o'lchash uchun elektr asboblar ishlatiladi. Bu asboblarning datchigi yonilg'i bakiga, ko'rsatkich esa, haydovchi kabinasidagi asboblar paneli-




4.12-rasm.Yonilg'i sathini o'lhash asbobining reostatli datchigi

ga joylashtiriladi. Ko'rsatkich shkalasi bak hajmi ulushida darajalanadi: O, 1/4, 1/2, 3/4, Π (yoki F). Ko'rsatkich sifatida ikki turdag'i asboblar joriy topgan: elektromagnitli va logometrik. Har ikkala ko'rsatkich bilan yonilg'i sati o'zgarganda qarshili-gi o'zgaradigan bir xil reostatli datchiklar ishlataladi. Ba'zi datchiklarga qo'shimcha kontaktlar o'rnatilib, ular bakdagi yonilg'i ma'lum minimal qiymatgacha (taxminan 50–100 km masofaga yetadigan darajagacha) kamayganda, tutashadi va asboblar panelidagi lampa yonadi.

Reostatli datchikning (4.12-rasm) sezuvchi elementi sifatida kaprondan tayyorlangan silindriq qalqi 1 ishlatalib, u pishang 7 bilan birga o'q 2 atrofida buralishi mumkin. Shu o'qning o'ziga reostatning bronzali sudralgichi 9 mahkamlangan va u harakatlanganda reostat chulg'ami 12 ustida sirg'aladi. Reostat chulg'ami 0,2 mm li nixrom simdan tekstolit taxtacha 10 ga o'ralsan. Rux qotishmasidan tayyorlangan datchik korpusi ikki bo'lakdan (3 va 4) iborat bo'lib, ular bir-biriga murvat 6 yordamida biriktirilgan. Korpusning ustki bo'lagi 4 dagi chiqish qisqichi 5 ga reostat chulg'amining bir uchi 11 ulangan. Reostat sudralgichi sim halqa 8 yordamida datchik korpusiga ulangan. Yonilg'i sati kamaysa datchik qalqisi pastga tushadi va u bilan birga sudralgich ham buralib reostat qarshiligini kamaytiradi.

KamA3 avtomobillariga o'rnatilgan BM158-A belgili datchik boshqacharoq tuzilgan bo'lib, ularga qo'shimcha juft kontaktlar o'rnatilgan. Bu kontaktlar tutashganda, asboblar panelida (odatda, yonilg'i sati ko'rsatkichining ichida) signal lampa yonadi va haydovchini yonilg'i tugayotganligidan ogoh qiladi. BA3 avtomobil-lariga o'rnatilgan datchiklar ham shunga o'xshash tuzilishga ega.

Elektromagnitli ko'rsatkich (4.13-rasm) asos 4 ga mahkamlangan yumshoq po'lat o'zakli bir-biriga nisbatan 90° burchak ostida joylashtirilgan ikki g'altak 5 va 7 dan iborat bo'lib, ularning usti qutb poynaklari 6 va 8 bilan qoplangan. G'altaklarning o'qlari kesishgan nuqtada joylashgan o'qda ko'rsatkich strelkasi 2,



4.13-rasm. Elektromagnitli yonilg'i sathi ko'rsatkichi

hosil bo'lgan natijaviy magnit maydon po'lat yakorchani va u bilan birga strelkani o'z magnit kuch chiziqlari bo'ylab yo'naltiradi.

Yonilg'i sathi o'zgarganda datchik reostatining qarshiligi ham o'zgaradi. Nati-jada 5 va 7 g'altaklardan o'tayotgan tok va ularda hosil bo'layotgan magnit may-donlarning o'zaro ta'siri o'zgaradi. Bu, natijaviy magnit maydon va unga mos ravishda strelkaning holati o'zgarishiga olib keladi. Asbob tok manbayidan ajratil-ganda, posangi 1 strelkani dastlabki holatiga qaytaradi.

Yonilg'i sathini o'lhash asboblaridagi logometrik ko'rsatkichlar tuzilishi, temperatura va bosim o'lhash asboblarining logometrik ko'rsatkichlari (4.3-rasm) bilan bir xil bo'lib, bir-biridan – g'altaklardagi o'ramlar soni va rezistorlar kattaligi bilan farq qiladi. Logometrik ko'rsatkichlarning o'lhash aniqligi elektromagnitli ko'rsatkichlarga nisbatan ancha yuqori, chunki ularda temperatura o'zgarishi bilan o'zining magnit o'tkazuvchanligini o'zgartirib turuvchi ancha salmoqli magnit o'tkazgichlar yo'q. Bundan tashqari, logometrik ko'rsatkichlarda strelkaning burilish burchagi nisbatan katta. Strelka va yakorchaga posangi kerak emas, chunki ular dastlabki holatiga ko'rsatkich qobig'iغا joylashtirilgan kichkina doimiy mag-nit yordamida qaytariladi.

4.5. AKKUMULATORLAR BATAREYASINING ZARYAD REJIMINI NAZORAT QILISH ASBOBLARI


Akkumulatorlar batareyasining zaryadlash rejimini nazorat qilish bir vaqtning o'zida generator va rele-rostlagichning texnik holatini ham nazorat qilish imkoniyatini beradi. Zaryadlash rejimini nazorat qilish ampermetr, voltmetr yoki signal lampa yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ampermetr zaryadlash zanjiriga ketma-ket, ya'ni akkumulator va generatorning musbat qutblari orasiga ulanadi. Avto-mobil ampermetrlari elektromekanik asboblar turkumiga mansub bo'lib, ularning elektromagnitli yoki magnitoelektr turlari mavjud.

Elektromagnitli yoki qo'zg'almas magnitli ampermetrlar sodda tuzilishga ega bo'lganligi sababli kengroq qo'llanilmoqda. Ampermetr (4.14-rasm) asos 4, doimiy


jez posangi 1 va po'lat yakorcha 10 mahkamlangan. O't oldirish kaliti 5 ulanganda tok akkumulatorlar batar-eysidan ampermetr va ko'rsatkichning B qisqichi orqali g'altak 5 dan o'tadi, keyin ikki zanjirga bo'linadi: g'altak 7 orqali korpusga va datchik reosta-ti 9 orqali korpusga. G'altaklar 5 va 7 dan tok o'tganda, ular atrofida magnit maydon hosil bo'ladi. Bu ikkala magnit maydonlarning o'zaro ta'sirida

magnit 3, jezdan tayyorlangan o'tkazgich 1, yakorcha 5 va strelka 2 dan iborat. Asbob zanjirida tok bo'lmaganda yakorcha 5 doimiy magnit yo'naliishi bo'ylab gorizontall holda bo'ladi va strelka ko'rsatkich shkalasining o'rtasida, ya'ni 0 belgisi ro'parasida turadi. Asos 4 va jez o'tkazgich 1 orqali tok o'ta boshlasa, uning atrofida hosil bo'lgan magnit maydon ta'sirida yakorcha 6 va u bilan birga strelka 1 tok yo'naliishiga ko'ra u yoki bu tomonga og'a boshlaydi. Agar strelka o'ng tomonga og'sa zar-yadlanish, chap tomonga og'sa razryadlanish jarayoni ni ko'rsatadi. O'tayotgan tokning qiymati qanchalik katta bo'lsa, strelkaning burlish burchagi shunchalik ko'p bo'ladi.

Generator qurilmasi haydovchi kabinasidan uzoqroq joylashgan bo'lsa (masalan, ЙАЗ avtobuslari) yoki generatorlarning quvvati va o'lchanadigan tok qiymati katta bo'lgan hollarda, kesim yuzi katta bo'lgan simmlarni kamroq ishlatish maqsadida magnitoelektr tizimga mansub qo'zg'aluvchi magnitli ampermetrlar qo'llaniladi. Bu turdag'i ampermetrlarning tuzilishi logometrik ko'r-satkichlarning (4.3-rasm) tuzilishiga juda o'xshash. Po'lat qobiq 4 (4.15-rasm) ichida murvatlar yordamida ikkita plastmassa karkas 3 mahkamlangan. Yig'ish jarayonida karkaslar orasiga qo'zg'aluvchi, lappaksimon magnit 6 joylashtirilib, unga o'q va strelka 7 harakatini cheklagich 8 mahkam biriktirilgan. Strelka o'qi podshipnik va ustki karkasning yo'naltiruvchisida aylanadi. Qo'zg'aluvchi magnit 6, cheklagich 8 bilan birgalikda karkaslar orasidagi halqasimon bo'shiqliqa, ustki karkasda o'yilgan yoysimon teshik doirasi bilan cheklangan burchakka buriishi mumkin. Karkasga kichkina simdan g'altak 5 o'ralgan. G'altakka parallel ravishda shunt 1 ulangan. Po'lat qobiqning tashqi sirtiga qo'zg'almas doimiy magnit 2 o'matilgan. G'altakda tok bo'lmagan holda qo'zg'aluvchi 6 va qo'zg'almas 2 doimiy magnitlarning o'zaro ta'siri natijasida strelka shkalaning nol belgisi ro'parasiga turadi. G'altakdan tok o'tganda uning atrofida qo'zg'aluvchi magnit 6 ning magnit maydonga 90° burchak ostida yo'nalgan magnit maydon hosil bo'ladi. Bu ikkala magnit maydonlarini o'zaro ta'siri natijasida qo'zg'aluvchi magnit 6 va u bilan birga strelka 7 ma'lum burchakka buriadi. G'altakdan o'tayotgan tok miqdori ortishi bilan uning atrofida hosil bo'layotgan magnit maydon ham kuchayadi va strelka yana kattaroq burchakka og'adi. G'altakdag'i tok yo'naliishing o'zgarishi (masalan, razryadlanish jarayoni) uning atrofida hosil bo'layotgan magnit oqim yo'naliishing ham o'zgarishiga olib keladi va strelka teskari tomonga og'adi.



4.14-rasm. Elektromagnitli tizimdag'i ampermetr



4.15-rasm. Magnito-elektr tizimdag'i ampermetr


4.6. AVTOMOBIL TEZLIGINI VA DVIGATEL VALINING AYLANISH CHASTOTASINI NAZORAT QILISH ASBOBLARI

Harakat tezligi bosib o'tilgan yo'l va dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasini nazorat qilish uchun avtomobillar spidometr va taxometrlar bilan jihozlanadi.

Spidometrlar ishlash prinsipi bo'yicha magnitoinduksiyali va elektrli turliga bo'linadi. Spidometr harakatni egiluvchan val (po'lat tros) yordamida uzatmalar qutisiga o'rnatilgan reduktordan yoki uzatmalar qutisiga joylashtirilgan generatorda hosil bo'lgan EYuK ta'sirida aylantiriladigan elektrodvigateldan oladi.

Spidometr tezlik o'lhash va hisoblash mexanizmlaridan iborat. Tezlik o'lhash mexanizmi, spidometrning kirish validagi aylanma harakatni ko'rsatkich-strelkaning shkalaga nisbatan harakatiga aylantirib beradi. Hisoblash mexanizmi spidometrning kirish validagi aylanma harakatni, sirtiga bosib o'tilgan yo'lni ko'rsatuvchi raqamlar yozilgan, hisoblash barabanchalarining aylanma harakatiga o'zgartirib beradi.

Tezlik o'lhash mexanizmi. Tezlik o'lhash mexanizmi (4.16-rasm) quyidagi qismlardan iborat: kirish vali 1 va unga mahkam biriktirilgan doimiy magnit 5 va shunt 4, qopqoqsimon kartushka 6, magnit ekrani 7, o'q 8, strelka 12, qil-prujina 11, pishangcha 9 va km/soat larda darajalangan shkala. Qil-prujinaning bir uchi o'q 8 ga ikkinchi uchi pishangcha 9 ga mahkamlangan. Kirish vali aylanma harakatni uzatma qutisidagi reduktorga ulangan egiluvchan valdan oladi.



4.16-rasm. Spidometrning tezlik o'lhash mexanizmi

Avtomobil harakatlanganda, doimiy magnit aylanadi va uning magnit maydon ta'sirida aluminiy kartushka tanasida uyurma toklar induksiyanadi. Uyurma toklar kartushkaning o'zida ham magnit maydonni hosil qiladi. Magnit va kartushka magnit maydonlarining o'zaro ta'siri natijasida kartushkani va u bilan birga o'q 8 va avtomobil tezligini ko'rsatuvchi strelka 12 ni magnit aylanishi yo'nalishida buraydigan moment hosil bo'ladi. Doimiy magnitning aylanish chastotasi qanchalik katta bo'lsa, kartushka va demak, strelka shunchalik katta burchakka buraladi. Qil-prujina 10 qaramaqarshi moment hosil qiladi. Strelka 12 ning aylanishlar chastotasiga bog'liq ravishda buralishi, faqt doimiy magnit hosil qilgan moment va qil-prujina qarshilik momentlarining o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Bu kartushka va strel-


kaning burchagini aylanishlar chastotasiga to'g'ri proporsional o'zgarishini, ya'ni chiziqli bog'lanishni ta'minlaydi.

Yumshoq po'latdan yasalgan halqasimon magnit ekran 7, kartushka orqali o'tayotgan magnit oqimini kuchaytirish hisobiga asbobning sezuvchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Atrof-muhit harorati ko'tarilishi bilan kartushkaning qarshiligi ortadi va uyurma toklar kuchi pasayib, kartushka bilan strelka kamroq burchakka buriladi. Temperatura o'zgarishi asbobning o'lhash aniqligiga ta'sirini kamaytirish maqsadida doimiy magnit tagiga shunt 4 o'rnatilgan. Doimiy magnit hosil qilgan magnit oqimining katta qismi kartushka orqali o'tsa, kichik qismi magnit shunt orqali o'tadi. Atrof-muhit harorati ko'tarilishi bilan magnit shunt qiziydi va uning magnit qarshiligi ortadi. Shunt orqali o'tayotgan (ya'ni past tomonga) magnit oqimi kamayadi, kartushka orqali o'tayotgan magnit oqimi esa aksincha ortadi. Shu tariqa, temperatura o'zgarganda kartushka qarshiligi o'zgarishiga mos ravishda unda hosil bo'layotgan uyurma tok kuchini ortishi yoki kamayishi hisobiغا, atrof-muhit haroratini asbobning ko'rsatish aniqligiga ta'siri bartaraf qilinadi.

Yuqorida keltirilgan qopqoqsimon kartushkali tezlik o'lhash mexanizmlari ko'pchilik avtomobilarning spidometrlarida qo'llangan. Lekin ba'zi avtomobilarning (ЗИЛ, Москвич, ЗАЗ) spidometrlarining tezlik o'lhash mexanizmlarida yassi ko'rinishdagi kartushkalar ishlataligan. Bu turdag'i tezlik o'lhash mexanizmlarining ishlash prinsipi qopqoqsimon kartushkali mexanizmlarning ishslash principidan farq qilmaydi.

Spidometrlarning hisoblash mexanizmi. Hisoblash mexanizmi yuritmani 14, 13 valchalar orqali qo'chqaroqli(chervyakli) shesternyadan oladi. Oraliq valchalarining o'zi ham qo'chqaroqli juftlarga ega. Hisoblash mexanizmi umumiyo o'qqa erkin joylashtirilgan silindr barabanchalari 6 to'plamidan iborat (4.17-rasm). Har bir barabanchaning gardishiga 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar tushirilgan. Barabanchalar spidometr shkalasining orqasiga joylashtirilgan bo'lib, ulardagi ko'rsatkichlarni o'qish uchun maxsus darcha qoldirilgan.

Spidometr hisoblash mexanizmlarining barabanchalari tashqi yoki ichki ilashishli bo'lishi mumkin. Hisoblash mexanizmi tuzilishini va ishlashini barabanchalari tashqi ilashishli bo'lgan mexanizm misolida ko'rib chiqamiz. O'ng tomonidagi birinchi barabancha (agar hisoblash mexanizmiga oldi tomonidan qaralsa) oraliq valcha 13 (4.16-rasm) bilan doimo ilashgan holda bo'lganligi sababli, avtomobil harakatlanganda u aylanadi. Hisoblash mexanizmining har bir barabanchasi (birinchisidan tashqari) o'ng tomonini chekka sirtida yigirmatadan tishcha 4 ga



4.17-rasm. Tashqi ilashishli hisoblash mexanizmi

(4.17-rasm), chap tomonida esa ikkita tishcha 7 ga ega. Harakat bir barabanchadan keyingi barabanchaga bir o'qqa joylashtirilgan maxsus kichik modulli shesternylar (tribkalar) yordamida uzatiladi.

Tribka 8 ning barabanchalar bilan ilashishga kirishadigan oltita tishchasi bo'lib, uning uchtasi (bitta oralatib) kaltalashtirilgan. Birinchi barabancha aylan-ganda, uning ikki tishchali tomoni tribkaning kaltalashtirilgan tishi bilan ilashib uni aylananing 1/3 qismiga buradi va o'z harakatini davom ettiradi. O'z navbatida tribka o'zining uzun tishlari bilan keyingi barabanchani ikki tishchaga, ya'ni aylananing 1/10 qismiga buradi. Boshlang'ich barabanchaning ikki tishchali tomoni bir marta to'la aylanmaguncha, tribka aylana olmaydi, chunki uning ikkita uzun tishchasi barabanchaning silindr qismi bo'ylab sirg'anadi. Bu har bir barabancha 1/10 qismiga buralishi uchun oldingi barabancha albatta bir marta to'la aylanishi ni ta'minlaydi. Olti barabanchali spidometrlarda boshlang'ich barabancha 100000 marta aylanganda, qolganlari dastlabki holatiga qaytadi va hisoblash mexanizmning shkalasidagi ko'rsatkichlar yana noldan boshlanadi.

Spidometrlarning tezlik va hisoblash mexanizmlarini aylantirish uchun egiluvchan val juda keng qo'llaniladi. Ularning tuzilishi sodda, ishonchlilik darajasi yuqori. Shu bilan birga egiluvchan vallar bir qator kamchiliklarga ega: tez yeyilishi, aylanishining notekisligi, ishlatalish mumkin bo'lgan uzunligining cheklanganligi (3500 mm gacha) va uni avtomobilda joylashtirishining ancha murakkabligi. Dvigateli orqa tomonida joylashgan (ЛАЗ) yoki kabina-si ko'tariladigan (МАЗ, КПАЗ) avtomobillarida elektr yuritmali spidometrlar ishlataladi.

Elektr yuritmali spidometrlarda ham mexanik yuritmali spidometrlarda ishlataladigan tezlik o'lhash va hisoblash mexanizmlari qo'llanadi. Elektr yuritma-uzatmalar qutisiga o'rnatilgan datchik, tezlik o'lhash mexanizmining kirish valini aylantiruvchi uch fazali sinxron elektrodvigatel va elektrodvigateli boshqaruvchi elektron sxemadan iborat. Elektrodvigatel rotori tutashgan doimiy magnit ko'rinishida tayyorlangan. Elektrodvigatel va boshqarish sxemasi spidometrning tezlik o'lhash mexanizmi bilan birga bitta qobiqqa joylashtirilgan. Datchik sifatida uch fazali o'zgaruvchan tok generatori ishlatalib, unda rotor vazifasini to'rt qutbli doimiy magnit bajaradi. Egiluvchan val singari datchik rotori ham harakatni uzatmalar qutisining yetaklanuvchi validan oladi. Elektrodvigatel va generator statorlarining uchtadan g'altagi bo'lib, ular bir-biriga nisbatan 120° burchak ostida joylashtirilgan va «yulduz» sxemasi bo'yicha ulangan (4.18-rasm).

Generator (datchik) rotori aylanganda, statorning L1, L2 va L3 chulg'amlarida faza bo'yicha bir-biriga nisbatan 120° ga surilgan sinusoidal EYuK induksiyalanadi. EYuK impulslari chastotasi rotoring aylanishlar chastotasiga proporsional bo'ladi. EYuK ning musbat yarim davri biron tranzistorning bazasiga uzatilsa, ushbu tranzistorda boshqarish toki paydo bo'ladi. Natijada, bu tranzistor ochiladi va elektro-dvigatel statorining L1', L2' va L3' g'altaklarining biriga tok manbayidan tok o'tadi

(4.18-rasmda punktir strelkalar bilan tokning L1 g'altakka borish yo'li ko'rsatilgan). Generator rotori 120° ga burilganda, uning statoridagi boshqa g'altakda hosil bo'lgan EYuK impulsi ta'sirida keyingi tranzistor ochiladi. Bu holda tok manbayidan kelayotgan tok elektrodvigatel statorining ham keyingi g'altagidan o'tadi. Shunday qilib, elektrodvigatel statori chulg'ammlaridan tok manbayidan kelayotgan impulsli tok o'tadi va datchik rotorining aylanish chastotasiga sinxron bo'lgan aylanuvchi magnit maydon vujudga keladi. Bu aylanuvchi magnit maydon elektrodvigatel rotorining magnitlari bilan o'zaro ta'sirlanib, rotorni aylantira boshlaydi. Rotor esa, o'z navbatida, spidometrning tezlik o'lchash va hisoblash mexanizmlarini harakatga keltiradi. Elektrodvigatel rotorining aylanish chastotasi generator (datchik) rotorining aylanish chastotasi, demak avtomobilning harakatlanish tezligiga proporsional ravishda o'zgaradi. R1–R6 rezistorlar tranzistorlarni ochilib-yopilish sharoitlarini yaxshilash uchun xizmat qiladi.


Dvigatel tirsakli valining aylanish chastotasini uch xil usul bilan o'lchash mumkin:

- 1) aylanish chastotasini qayd qiluvchi maxsus datchiklar yordamida;
- 2) o't oldirish tizimidagi uzgich kontaktlarining uzilish chastotasini qayd qilish orqali;
- 3) generator fazalarining birida kuchlanish impulslarining chastotasini qayd qilish yo'li bilan.


Aylanish chastotasini qayd qiluvchi datchik bilan ishlaydigan taxometrning tuzilishi va ishlashi, elektr yuritmali spidometrlarnikiga o'xshash bo'lib, ular datchikning o'rnatilish joyi va shkalaning darajalanishi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, taxometrlarda hisoblash mexanizmiga ehtiyoj yo'q.

Benzinli dvigatellar tirsakli valining aylanishlar chastotasini nazorat qilish uchun ko'p hollarda **elektron taxometrlar** ishlatalidi. Elektron taxometrlarning ishlash prinsipi uzgich kontaktlari uzilishi daqiqasida o't oldirish tizimining birlamchi zanjirida vujudga keladigan impulslarni zarur shaklga keltirish va uni magnitoelektr asboblar yordamida o'lchashga asoslangan.

Elektron taxometr sxemasi (4.19-rasm) quyidagi asosiy qismlardan iborat: ishga tushirish impulslarini shakllantiruvchi blok, o'lichov impulslarini shakllantiruvchi blok (multivibirotor) va ko'rsatkichli magnitoelektr asbob. Taxometrning kirish joyiga o't oldirish tizimining birlamchi zanjiridan kirish signali / uzatilishi



4.18-rasm. Elektr yuritmali spidometr sxemasi



4.19-rasm. Elektron taxometr sxemasi

di. R1, R2 qarshiliklar, C1, C2, C3, C4 kondensatorlar va VD1 stabilitronidan iborat bo‘lgan ishga tushirish impulslarini shakllantiruvchi blok, so‘nuvchi sinusoida ko‘rinishdagi signal 1 dan, musbat ishorali yarimsinusoida shakliga ega bo‘lgan impuls 2 ni ajratib beradi. Bu impuls, o‘lchov impulslarini shakllantiruvchi blok tranzistori VT1 ning bazasiga uzatiladi. Boshlang‘ich holda VT2 tranzistor ochiq, chunki unda baza toki mavjud va u R11, R10 va R5 zanjir orqali o‘tadi. VT2 tranzistor ochiq holda bo‘lganda kondensator C5 to‘la zaryadlanadi. Bu vaqtida VT1 tranzistor yopiq bo‘ladi, chunki R5 qarshilikda kuchlanish ancha pasayishi hisobiga undagi emitterning potensiali baza potensialidan yuqori bo‘ladi. Musbat ishorali ishga tushirish impuls 2 VT1 tranzistorning bazasiga uzatiladi va u ochiladi. C5 kondensator, tranzistor VT1 orqali zaryadsizlanib, VT2 tranzistorning bazasida manfiy potensial hosil qiladi va VT2 tranzistor yopiladi. VT1 tranzistor R11, R9, R8 va R5 qarshiliklar orqali o‘tayotgan baza toki hisobiga ochiq holda ushlab turiladi. Tranzistor VT1 ochiq bo‘lganda, R11, R7, R3 va R5 zanjir va o‘lchov asbobni 4 orqali tok o‘tishi ta’milanadi. O‘lchov asbobidan o‘tayotgan tok impulsi 3 ning davomiyligi kondensator C5 ning zaryadsizlanish vaqtiga bog‘liq. Kondensator C5 zaryadsizlanib bo‘lgandan keyin VT2 tranzistor ochiladi (uning bazasidagi manfiy potensial yo‘qoladi), VT1 tranzistor esa yopiladi. Tok impulsi 3 ning chastotasi o‘t oldirish tizimi birlamchi tok zanjirining uzilish chastotasiga teng bo‘ldi. O‘lchov asbobni 4 tok impulslarining chastotasiga proporsional bo‘lgan effektiv tok I_{eff} qiy-matini ko‘rsatadi.

O‘zgaruvchan qarshilik R7 yordamida tok impulsining amplitudasi rostlanadi. Asbobning o‘lhash aniqligiga, atrof-muhit haroratining ta’siri termorezistor R3 hisobiga kompensatsiya qilinadi. Diod VD2 tranzistor VT1 ni himoya qilish vazifasini bajaradi. Avtomobilning elektr ta’milot tizimidagi kuchlanish qiymati o‘zgarishini taxometrning o‘lhash aniqligiga ta’sirini kamaytirish va uni barqaror ishlashini ta’minalash uchun sxemaga VD3 stabiliton kiritilgan.

O't oldirish tizimi bo'lmagan dizel dvigatelli ba'zi avtomobilarda generotorning bir fazasidagi kuchlanish impulslari chastotasini qayd qilishga asoslangan taxometrlar ishlataladi. Bu taxometrlarning ishlash principle yuqorida keltirilgan taxometrning ishlashiga o'xshash bo'lib, faqat ularda boshqaruvchi impuls sifatida generatorning bitta fazasidan olinadigan kuchlanish signali ishlataladi.

4.7. NAZORAT-O'LCHOV ASBOBLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLARI

Nazorat-o'lchov asboblari rivojlanishining keyingi bosqichlari avtomobilsozlikka elektronika va mikroprotessor texnikasi keng ko'lamda joriy qilina boshlanganligi bilan bog'liq.

Nazorat-o'lchov asboblarining yangi avlod - elektron indikatorlar (vakuumlyuminessentli, yorug'lik tarqatuvchi diodli va suyuqlik kristalli) ishlab chiqilishi va avtomobilarga o'rnatilishi haydovchiga zarus ma'lumotni nafaqat analogli (ya'ni strelkali ko'rsatkichlar) ko'rinishida, balki raqamli, grafikli va matn shaklida yetkazish imkonini beradi.

Hozirgi zamон avtomobillarida nazorat-o'lchov asboblari har xil qo'shimcha nazorat va diagnostik tizimlar (bortdagи nazorat tizimi, doimiy o'rnatilgan datchiklar tizimi, marshrut kompyuterlari, navigatsiya tizimi va hokazo) bilan birga axborot-diagnostika tizimini tashkil qiladi.

Bortdagи nazorat tizimi (BNT) avtomobilning agregat va tizimlaridagi bir qator parametrlar haqida xabar berib, ularga texnik xizmat ko'rsatish zarurligi haqida haydovchini ogohlantiradi. BNT yordamida ishlataladigan suyuqliklar satini, tor-moz ustquymalar holatini, yoritish tizimidagi lampalar sozligini, filtrlar holatini avtomatik ravishda nazorat qilish mumkin.

Diagnostikaga ketadigan vaqt va mehnat hajmini kamaytirish maqsadida avtomobillar doimiy o'rnatilgan datchiklar tizimi bilan jihozlanmoqda. Datchiklardan kelgan simlar shtekkerli bo'linma orqali diagnostik asboblarga ularadi. Bu juda qisqa vaqt davomida avtomobilning texnik holatini aniqlash imkonini beradi. Bunga misol tariqasida NEXIA avtomobillarining texnik holatini diagnostika qilish uchun ishlataladigan skanerlash moslamasi *Scaner-11* ni keltirish mumkin. Bu asbob ixcham, qo'lda olib yuriladigan qilib ishlangan bo'lib, unga juda kichik o'lchamlarga ega bo'lgan kompyuter joylashtirilgan. *Scaner-11* yordamida NEXIA avtomobillarining yonilg'i purkash, dvigatel toksinligini kamaytirish va boshqa elektron tizimlaridagi nosozliklarni juda tez aniqlash mumkin.

Keyingi vaqtida avtomobillar uchun marshrut kompyuteri nomi bilan yuritiladigan moslama ishlab chiqilib, u haydovchiga harakat tezligi, yonilg'i sarfi, bosib o'tilgan yo'l va vaqt bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha axborotlarni beradi.

Harakat xavfsizligini ta'minlashda avtomobilning harakatlanish rejimi, alohida tizim va agregatlarining texnik holati haqidagi ma'lumot bilan birga tashqaridan olinadigan, xususan, yo'lning holati (muz bilan qoplanganligi, ta'mirlanayotganligi va hokazo), ob-havo sharoiti, yo'llar xaritasi, manzilga yetib borishning eng qulay marshruti kabi qo'shimcha ma'lumotlar ham katta ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlar avtomobilning axborot-diagnostika tizimiga yo'l bo'ylab joylashtirilgan datchiklardan, maxsus radio uzatish stansiyalaridan, Yerning sun'iy yo'ldoshlaridan kelishi mumkin. Bu moslamalar avtomobil axborot-diagnostika tizimining eng yangi yo'nalishlariga oid bo'lgan navigatsiya tizimiga kiradi.

Avtomobillarda nutq sintezatorlari paydo bo'lishi axborot-diagnostika tizimi imkoniyatlarini yanada kengaytirib, ko'z bilan ko'rildigan ma'lumotlarni akustik axborotlar bilan to'ldirdi (masalan, «To'xtang va moy sathini tekshiring», «To'xtang va sovitish tizimini tekshiring» va hokazo).

4.8. NAZORAT-O'LCHOV ASBOBLARINING TEXNIK QAROVI

Odatda, nazorat-o'lchov asboblarini ishlatish davrida ularga texnik xizmat ko'rsatish ko'zda tutilmaydi. Avtomobilga kundalik texnik xizmat ko'rsatilayotganda, nazorat-o'lchov asboblarining to'g'ri ishlayotganligi nazorat qilinadi. Agar biror asbobni to'g'ri ishlayotganligiga shubha tug'ilsa, uni ishlash qobiliyati va ko'rsatish aniqligi tekshiriladi. Buning uchun tekshirilayotgan asbob o'rniga etalon asbob ulanadi va o'lchangan ko'rsatkichlar taqqoslanadi.

Etolon asbob sifatida M-256M belgili mikroampermetri ishlatish mumkin. Chunki ko'pchilik ko'rsatkichlar asosini o'lchanilayotgan kattalik birligida (masalan, temperatura – °C da, bosim – MP da va hokazo) darajalangan tok o'lhash asbobi tashkil qiladi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. *Avtomobilga o'rnatilgan nazorat-o'lchov asboblarining asosiy vazifasi nimadan iborat?*
2. *Nazorat-o'lchov asboblari qanday talablarga javob berishi kerak?*
3. *Termobimetall impulsli termometrning tuzilishi va ishlashini tushuntiring.*
4. *Termobimetall impulsli manometrning tuzilishi va ishlashini tushuntiring.*
5. *Termobimetall impulsli temperatura va bosim o'lhash asboblarining asosiy kamchikkleri nimadan iborat?*
6. *Magnitoelektr (logometrik) termometrning tuzilishi va ishlashini tushuntiring.*
7. *Magnitoelektr (logometrik) manometrning tuzilishi va ishlashini tushuntiring.*

-
8. Magnitoelektr (logometrik) temperatura va bosim o'lchash asboblarining asosiy afzalliklari nimadan iborat?
 9. Avariya temperatura va bosim xabarchilarining tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
 10. Akkumulatorni zaryadlash rejimini nazorat qilish asboblarining tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
 11. Yonilg'i sathini o'lchash asboblarining turlari, tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
 12. Mexanik yuritmali spidometrning (taxometrning) tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
 13. Elektr yuritmali spidometrning (taxometrning) tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
 14. Nazorat-o'lchov asboblarining qanday yangi turlarini bilasiz?

S-BOB. YORITISH VA YORUG'LIK XABARCHILARI TIZIMI

5.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Avtomobilarning harakat xavfsizligi, ayniqsa kunning qorong'i qismida va ko'rinish yomon bo'lgan hollarda, ko'p jihatdan yorug'lik asboblari holati va tavsifnomasiga bog'liq. Yorug'lik asboblari yo'lni yoritish, avtomobilning gabarit o'lchamlari haqida ma'lumot berish, haydovchining mo'ljallagan yoki amalga oshirayotgan harakati haqida darak berish, davlat raqami, kabina, kuzov saloni, nazorat-o'lchov asboblari, yukxonasi va kapot ostini yoritish uchun xizmat qiladi.

Avtomobilarning yorug'lik asboblari yoritish va yorug'lik xabarchilaridan tashkil topgan. Yorug'lik asbobining optik tizimi lampa, nur qaytargich va nur tarqatgichdan iborat.

Lampa yorug'lik manbayi vazifasini bajaradi. Nur qaytargich paraboloid shakkida bo'lib, lampadan kichik moddiy burchak ostida chiqqan yorug'lik oqimini to'playdi va optik o'q bo'ylab yo'naltiradi. Tiniq materialdan tayyorlangan, ichki yuzida linza va prizmalarga ega bo'lgan nur tarqatgichda yorug'lik oqimi vertikal va gorizontal tekislik bo'yicha qayta taqsimlanadi.

Uzoq vaqt davomida faralarning eng keng tarqalgan turi amerika lampa-farsi bo'lib keldi. Uning qismlarga ajralmaydigan optik elementi shishadan tayyorlangan va bir-biriga kavsharlangan nur qaytargich va nur tarqatgichdan iborat bo'lib, uning ichki bo'shlig'i inert gaz bilan to'ldirilgan. Nur tarqatgichning ichki qismiga bitta yoki ikkita cho'g'lanish tolasi joylashtirilgan.

50-yillardan boshlab Yevropada metall shishali optik elementlar keng tarqalib, ularda yorug'lik manbayini almashtirish mumkin bo'ldi. Tok manbayi sifatida oddiy yoki galogen lampalar ishlatalib, ular metall nur qaytargichdagi maxsus uyachaga o'rnatiladi.


Avtomobilsozlik sanoati rivojlanishining keyingi bosqichlarida ishlab chiqarilayotgan avtomobilarning aerodinamik tavsifnomalarini yaxshilash, ularning og'irligini kamaytirish muhim o'rinni egallamoqda, chunki bu ko'rsatkichlar yonilg'i tejamkorligini oshirish bilan bevosita bog'liqidir. Bu hozirgi zamon avtomobilarning yorug'lik asboblari konstruksiyasini va ularni ishlab chiqish texnologiyasining jiddiy o'zgarishiga olib kelmoqda. Avtomobilarning aerodinamik qarshilik koeffitsiyentini kamaytirish, faralarni vertikal o'lchamlarining taxminan ikki marta qisqartirilishini talab qiladi. Buni amalga oshirish uchun yorug'lik oqimi juda ham to'g'ri taqsimlanishini ta'minlash va faraning foydali ish koeffitsiyentini oshirish zarur. Faralarning yangi konstruksiyalari nur qaytargich va nur tarqatgichlarning shakllarini murakkablashishiga va ularni tayyorlash uchun zarur qolipga yengil tushadigan materiallarni (shisha, plastmassa) ishlatalish zaruratini tug'diradi.

Xalqaro avtomobil trassalarida tashish hajmlarining oshishi va avtoturizmning rivojlanishi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YEIK) tarkibida ichki transport bo'yicha qo'mita tuzilishiga olib keldi. Bu qo'mita doirasida 1958-yilda Jenevada «Predmet va mexanik transport vositalarining qismalarini rasman tasdiqlashning bir xil shartlari va uni o'zaro tan olish haqidagi shartnomaga» imzolandi. Bu shartnomani rivojlantirish borasidagi unga ilova shaklida bir qator qoidalar ishlab chiqildi. Hozirgi kunda Yevropaning 22 davlati shartnomani imzolab, BMT YEIK tarkibidagi ichki transport bo'yicha qo'mitaga a'zo bo'ldilar va ularga tegishli tartib raqami berildi (masalan, Olmoniya – 1, Fransiya – 2, Italiya – 3, Niderlandiya – 4, Buyuk Britaniya – 11, Rossiya – 22 va hokazo).

O'zbekiston hozircha bu qo'mitaga a'zo bo'lmasa ham, lekin Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan avtomobilarning yorug'lik asboblariga taalluqli standartlarda BMT YEIK qoidalarining talablari hisobga olinadi va to'liq bajariladi.

BMT YEIK qoidalari talablariga mos keladigan avtomobil yorug'lik asboblar rasmiy xalqaro tasdiqlanish belgisini oladi. Xalqaro tasdiqlanish belgisi (5.1-rasm) aylana shaklida bo'lib, uning ichiga E harfi yoziladi. Belgi yorug'lik asbobining nur tarqatgichiga tushiriladi. Belgi tagida yoki uning yonida rasman tasdiqlanish tartib raqami ko'rsatiladi. Belgi tagida, tartib raqaming ustida gorizontal ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Fara yo'l harakati chap tomonlama tashkil qilingan mamlakatlarda (masalan, Angliya, Hindiston va hokazo) ishlatish uchun mo'ljallangan bo'lsa, ko'rsatkich o'ng tomoniga yo'naltirilgan bo'ladi. Agar farani yo'l harakatining ham chap tomonlama va ham o'ng tomonlamasiga moslash imkoniyati bo'lsa, ko'rsatkich ikki tomoniga yo'naltirilgan bo'ladi. Yo'l harakati o'ng tomonlama tashkil qilingan mamlakatlar uchun (masalan, Rossiya, O'zbekiston va hokazo) ko'rsatkich umuman qo'yilmaydi. Belgi ustiga kvadrat tushirilib, uning ichiga C, R, S, H harflari yoziladi. C va R harflari faraning yaqinini va uzoqni yoritish bo'yicha xalqaro me'yorlarga mosligini ko'rsatadi. Kvadratda CR harflarining birga qo'yilishi faraning optik tizimi yaqinini va uzoqni yoritish rejimida ishlashga mo'ljallanganligini bildiradi. S harfi yaxlit shishali optik elementni (lampa-fara) belgilash uchun yoziladi. Faqat galogen lampalar bilan ishlatishga mo'ljallangan faralarga H harfi yoziladi.

Galogen lampali fara belgisining o'ng tomonidagi raqam uzoqni yoritish rejimida yorug'lik kuchining maksimal qiymatini ko'rsatadi.



5.1-rasm. Xalqaro tasdiqlanish belgisi

5.2. YORITISH TIZIMLARIDA YORUG'LIK TAQSIMLANISHINING ASOSIY PRINSIPLARI VA TURLARI

Kunning qorong'i qismida avtomobil yetarli darajada katta tezlik bilan harakatlanishi uchun yoritish tizimi avtomobil oldidagi yo'lni va yo'l chekkasini 50–250 m masofaga yoritishi zarur. Bu haydovchiga yo'ldagi vaziyatni to'g'ri va o'z vaqtida baholash, zarurat bo'yicha tegishli choralar ko'rish imkoniyatini beradi. Yo'lni yoritish uchun avtomobillarga paraboloid nur qaytargichli fara va projektorlar o'rnatiladi. Fara yorug'ligining yo'lda taqsimlanishi optik element va unga o'matilgan lampanning tuzilishiga bog'liq.

Nur qaytargichning fokus markazi F ga (5.2-rasm) nuqtali yorug'lik manbayi joylashtirilsa, undan chiqqan yorug'lik nurlari paraboloid qaytargichga tushib, undan qaytadi va bir to'p dasta shaklida optik o'qqa parallel ravishda kichik burchak 2α doirasida yo'naladi.

Qaytargichga yorug'lik manbayidan chiqqan yorug'lik oqimining faqat bir qismi tushadi:

$$\Phi_1 = I_{1o \cdot r_1} \cdot \omega_1.$$

Bunda: $I_{1o \cdot r_1}$ – yorug'lik manbayi yorug'lik kuchining o'rtacha qiymati; ω_1 – yorug'lik tarqaladigan burchak.


Qaytargichdan qaytgan yorug'lik oqimi:

$$\Phi_2 = I_{2o \cdot r_1} \cdot \omega_2.$$

Bunda: $I_{2o \cdot r_1}$ – qaytargichdan qaytgan yorug'lik kuchining o'rtacha qiymati; ω_2 – qaytgan yorug'lik tarqaladigan burchak

Qaytargichdagi yorug'likning qisman yo'qolishini hisobga olmasdan $\Phi_1 = \Phi_2$ deb olsak, $I_{1o \cdot r_1} \omega_1 = I_{2o \cdot r_1} \omega_2$ hosil bo'ladi. $\omega_1 \geq \omega_2$ ekanligidan qaytargichdan qaytgan yorug'lik kuchi yorug'lik manbayidan chiqqan yorug'lik kuchiga nisbatan sezilarli darajada oshadi.

Avtomobil faralarining paraboloid qaytargichlari lampanning yorug'lik kuchini 200...400 martagacha oshirib, yo'lning ancha katta masofaga zarur darajada yoritilishini ta'minlaydi.



5.2-rasm. Paraboloid qaytargichdan qaytgan yorug'lik oqimining taqsimlanishi

5.3-rasmidan ko'rinib turibtiki ω_1 burchak yoki qamrov burchagi 2ϕ qanchalik katta bo'lsa, yorug'lik manbayidan chiqqan yorug'lik oqimidan foydalanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Qamrov burchagi 2ϕ ni oshirish uchun farani yorug'lik tirkishining diametri D ni o'zgartirmasdan fokus masofasi f ni qisqartirish yoki f ni o'zgartirmasdan D ni oshirish kerak.

Lekin fokus masofasini kichik bo'lgan, chuqur shaklli paraboloidlarni shtamplash qiyin. Yorug'lik tirkishining diametrini oshirish, faralarni avtomobilga joylashtirishda ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Odatda, avtomobil faralaridagi qaytargichlarning qamrov burchagi 240° dan oshmaydi va bu yorug'lik manbayidan chiqqan yorug'lik oqimining 75 %idan foydalanishini ta'minlaydi.


Avtomobil faralari ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan talablarni qondirishi kerak: avtomobil oldidagi yo'lni yaxshi yoritishi va ro'paradan kelayotgan transport vositasi haydovchisining ko'zini qamashtirmasligi zarur. Faralarning yorug'lik nuri bilan ro'paradan kelayotgan avtomobil haydovchisining ko'zini qamashtirilishi harakat xavfsizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan juda jiddiy muammodir. Hozirgi vaqtida bu muammo ikki rejimli, ya'ni uzoqni va yaqinni yoritish faralarini qo'llash yo'li bilan hal qilinmoqda.

Faralarning uzoqni yoritish tizimi ro'parada transport vositasi bo'lmagan holda avtomobil oldidagi yo'lni yoritish uchun mo'ljallangan. Yaqinni yoritish tizimi esa avtomobil oldidagi yo'lni aholi yashaydigan va yoritilgan joylardan o'tganda, ro'paradan transport vositasi kelayotgan hollarda ishlatalindi.


Uzoqni va yaqinni yorituvchi yorug'lik dastalarini hosil qilish uchun ikki farali yoritish tizimiga ega bo'lgan avtomobillarda ikki cho'g'lanish tolasiga ega bo'lgan lampalardan foydalanadilar. Hozirgi zamон avtomobillarining bosh yoritish faralari yaqinni yoritishning asimetrik yorug'lik taqsimlanishiga ega bo'lgan Yevropa va Amerika tizimlari joriy qilingan. Asimetrik yorug'lik dastasi avtomobil harakatlanayotgan tomonni yaxshiroq yoritishni ta'minlashi bilan birga ro'paradan kelayotgan transport vositasi haydovchisining ko'zini qamashtishini kamaytiradi.

Amerika va Yevropa yorug'lik taqsimlanish tizimidagi fara lampalarida uzoqning yoritishini ta'minlovchi cho'g'lanish tolesi nur qaytargich fokusiga joylashtiladi. Shuning uchun, faraning uzoqni yoritish tizimi ulanganda optik o'qqa deyarli parallel bo'lgan yorug'lik dastasi hosil bo'ladi (5.4- c rasm va 5.5- c rasm-larga qarang).

Yevropa yorug'lik taqsimlanish tizimidagi faralarda silindrsimon yaqinni yoritish cho'g'lanish tolesi 2 (5.4- a rasm), uzoqni yoritish cho'g'lanish tolesi 1 ga nisbatan oldinga va optik o'qqa nisbatan ozgina tepaga ko'tarilgan. Yaqinni yoritish cho'g'lanish tolasidan chiqqan nur, qaytargichning ustki yarmiga tushadi, undan pastga qaytib yo'ning avtomobilga yaqin qismini yoritadi. Cho'g'lanish tolasining tagiga joylashtirilgan, yorug'lik o'tkazmaydigan ekran 3, yorug'lik nurlarini qaytargichning pastki qismiga tushishi va undan qaytib ro'parada kelayotgan transport vositasi haydovchisining ko'zini qamashtirishining oldini oladi. Yo'ning o'ng



5.3-rasm. Qaytargichning qamrov burchagi



5.4-rasm. Yevropa yorug'lik taqsimlash tizimidagi optik sistemalarda nur tarqalish sxemasi:


a – yaqinni yoritish; b – yaqinни yoritishdagи yorug'lik dog'i; c – uzoqni yoritish; e – lampa ekranı; 1 – uzoqni yoritish tolasi, 2 – yaqinни yoritish tolasi, 3 – ekran.

tomoni va o'ng chekkasining yoritilishini yaxshilash uchun ekran 3 ning chap tomoni (qaytargich tomonidan qaralganda) pastga 15° burchak ostida bukib qo'yildi (5.4- e rasm). Bu nur qaytargichning chap yarmidagi aktiv yuzani oshirishga va avtomobil harakatlanayotgan yo'Ining o'ng tomoni va o'ng chekkasining yoritilishini ancha yaxshilanishiga olib keladi.

Yevropa yoritish tizimiga oid faralardagi yaqinни yorituvchi yorug'lik dastasida yorug'lik-soya chegarasi aniq ifodaga ega bo'lib, uning o'ng tomoni 15° burchak ostida ko'tarilib boradi (5.4-rasm).

Amerika yorug'lik taqsimlanish tizimidagi faralarda yaqinни yoritish cho'g'-lanish tolasi 2 (5.5- a rasm) silindr shaklidagi spiral bo'lib, u uzoqni yoritish cho'g'-lanish tolasiga nisbatan sal yuqoriga va fokusga nisbatan chaproqqa (nur qaytargich tomonidan qaralganda), optik o'qqa ko'ndalang qilib joylashtiriladi. Cho'g'-lanish tolasini bunday joylanishi yaqinни yoritish yorug'lik dastasining asosiy qismini pastga va yo'Ining o'ng chekkasiga yo'naltirilishini ta'minlaydi (5.5- b rasm). Amerika yoritish tizimiga oid faralarning konstruksiyasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ularda uzoqni yoritishda ham, yaqinни yoritishda ham nur qaytargichning ishchi yuzi to'la ishlataladi. Amerika yoritish tizimiga oid faralarning yorug'lik dastasi aniq yorug'lik-soya chegarasiga ega emas.

Yevropa va Amerika yoritish tizimlarini bir-biriga taqqoslaganda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: Yevropa yoritish tizimiga taalluqli faralarda yaqinни yoritish to'g'riroq amalga oshirilgan, chunki unda yo'Ining o'ng tomoni va o'ng chekkasi yaxshi yoritilishi bilan birga ro'paradan kelayotgan transport vositasi haydovchisining ko'zini qamashtirish ehtimoli keskin kamaytirilgan. Amerika yoritish tizimidagi faralarda, uzoqni yoritishdan yaqinни yoritishga o'tilganda, yo'Ining deyarli hamma qismini yaxshiroq va bir tekis yoritiladi, ammo ularning yorug'lik dastasining ko'zni qamashtirish ta'siri kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun, yo'lda biri Yevropa, ikkinchisi Amerika yoritish tizimidagi faralar bilan jihozlangan avto-



5.5-rasm. Amerika yorug'lik taqsimlash tizimidagi optik sistemalarda nur tarqalish sxemasi:

a – yaqinni yoritish; b – yaqin ni yoritishdagi yorug'lik dog'i; c – uzoqni yoritish;
1 – uzoqni yoritish tolasi, 2 – yaqin ni yoritish tolasi.

mobillar uchraganda, Yevropa yoritish tizimiga oid fara bilan jihozlangan avtomobil haydovchisining ko'zi ko'proq qamashadi. Harakat xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan, yuqorida keltirilgan afzalliklarga ko'ra, hozirgi zamон avtommobilardida Yevropa yorug'lik taqsimlash tizimi ko'proq tatbiq qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston avtommobilari Nexia, Damas, Matiz va Sparklarda ham Yevropa yoritish tizimidagi faralar o'rnatilgan.

Ikki farali yoritish tizimi bir qator afzalliklarga ega, xususan lampalarning iste'mol quvvati nisbatan katta emas, ularni avtombilda ixcham joylashtirish mumkin, ishlab chiqarish qulay (ya'ni, texnologiyabop) va tannarxi ancha past. Lekin bitta optik elementda ikki rejimni birlashtirish zarurati uzoqni va yaqin ni yoritish tavsifnomalarini yomonlashishiga olib keladi. Shuning uchun, yuqorida keltirilgan afzalliklarga qaramasdan 1960-yillardan boshlab AQSHda ikki farali yoritish tizimi o'rniga to'rt farali yoritish tizimi tatbiq etila boshlandi. To'rt farali yoritish tizimi asosida uzoqni va yaqin ni yoritishni alohida faralarda amalga oshirish g'oyasi yotadi.

To'rt farali yoritish tizimi to'rtta faradan iborat bo'lib, ular juft qilib gorizontal yoki vertikal holda joylashtirilishi mumkin. Tashqi va yuqoridagi faralar doimo ikki rejimli qilib ishlanaadi, ichki va pastki faralar esa faqat uzoqni yoritish uchun xizmat qiladi. Ichki (pastki) faralarga Yevropa yorug'lik taqsimlash tizimiga ega bo'lgan va cho'g'lanish tolasi qaytargich fokusiga joylashgan lampalar qo'yiladi. Bu faralardagi nur tarqatgichlarga yorug'lik dastasini gorizontal tekislik bo'yicha tarqatilishini ta'minlaydigan mikroelementlar o'rnatilgan.

Tashqi (yuqoridagi) ikki rejimli faralarga ikki tolali Yevropa lampalari quyilib, yaqin ni yoritish tolasi qaytargich fokusiga, uzoqni yoritish tolasi esa optik o'q bo'ylab fokus markazidan orqaroqqa joylashtiriladi. Bu faralarning nur tarqatgichlari faqat yaqin ni yoritish nurlari uchun mo'ljalanganadi.

Avtomobilning uzoqni yoritish tizimi ulanganda to'rtta faraning hammasi baravariga yonadi va Bunda: ichki faralar aniq yo'naltirilgan, projektor turidagi yorug'-

lik dastasini hosil qilsa, tashqi faralardagi uzoqni yoritish tolalari esa ichki faralar-ning kuchli yorug'lik dastasiga qo'shimcha tarqalgan dasta hosil qilib, yo'lining avtomobilga yaqinroq bo'lган qismlarini yoritadi. Yaqinno yoritish tizimi ulangan-da faqat tashqi faralar yonadi va ularning umumiyligini quvvati 90–100 W ni tashkil qila-di. Uzoqni yoritish tizimidagi faralarning quvvati Yevropa yoritish tizimi uchun 150...240 W, Amerika yoritish tizimi uchun 150...260 W doirasida bo'ladi.

Shunday qilib, to'rt farali yoritish tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

– uzoqni va yaqinno yoritish tizimlarini ikki turdag'i faralar yordamida amalga oshirish har ikkala tizimni eng yaxshi xususiyatlaridan to'la foydalanish imkoniyati beradi;

– cho'g'lanish tolalarining umumiyligini quvvatining ancha orttirilishi va nur qay-targichlarning umumiyligini yuzining qisman (17 %ga) kattalashganligi hisobiga avto-mobilning uzoqni yoritish tizimining samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Shu bilan birga bu yoritish tizimi quyidagi jiddiy kamchiliklarga ega:

– cho'g'lanish tolalarining umumiyligini quvvati kamaymagani holda, faralarning ishchi yuzi sezilarli darajada kamayishi (40 %gacha) hisobiga yaqinno yoritish tizimining sifati va samarasining keskin yomonlashishi;

– quvvati kattaroq bo'lган generator qo'yilishi va avtomobilga o'rmashtirish uchun ko'proq joy talab qilinishi;

– tannarxining nisbatan kattaligi.

Bu kamchiliklar to'rt farali yoritish tizimini juda keng tarqalib, ikki farali yoritish tizimining o'rnnini to'la egallashga yo'l qo'ymaydi. Hozirgi zamonda avtomobil-larida ikki farali ham, to'rt farali yoritish tizimlari ham keng ko'lamda ishlatalib kelmoqda.

5.3. BOSH YORITISH FARALARINING YORUG'LIK-TEXNIK TAVSIFNOMALARINI ME'YORLASH

Bosh yoritish faralarining yorug'lik-texnik tafsifnomalarini me'yorlashning asosiy vazifasi – kunning qorong'i qismida avtotransportda tashishni daromad-lik bo'lishi bilan birga harakat xavfsizligini ta'minlovchi yorug'lik taqsimlanishiga bo'lган talablar majmuasini ishlab chiqishdir.

Tashishni asosiy iqtisodiy omillaridan biri yuklarni belgilangan manzilga yet-kazish tezligi bo'lGANI uchun, albatta, kunni qorong'i qismida ham avtomobil-larining imkon boricha tez harakatlanshini ta'minlash zarur. Kechasi avtomobilning harakatlanshing tezligini ta'minlash, faralarning uzoqni yoritish tizimi hisobiga amalga oshiriladi. Kechasi xavfsiz harakatlanshing asosiy omili – uzoqni yoritish das-tasi yordamida aniqlangan to'siqgacha bo'lган masofa avtomobilni o'z vaqtida to'xtatish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Avtomobilning tezlikka bog'liq bo'lган to'xtash yo'li quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$S_{to \cdot xt} = \frac{NT}{3,6} + \frac{K_e V^2}{254\varphi} + l_0.$$

Bunda: V – avtomobil tezligi, km/soat; T – to'siqni aniqlash uchun, haydovchi reaksiyasiga va tormoz yuritmasining tormozlanish boshlanguncha bo'lgan harakatiga sarflangan vaqtning umumiyligini miqdori, s; K_e – tormoz tizimining ekspluatatsion holatini belgilovchi koefitsiyent; φ – avtomobil shinalarini yo'l bilan tishlashish koefitsiyenti; l_0 – to'siqgacha to'xtash yo'l zaxirasi, m.

To'siqni vaqtida aniqlash uchun zarur bo'lgan yoritilganlik E_{kr} to'siq o'lchamlariga va yuzasining nur qaytarish koefitsiyentiga, atmosferaning tiniqlikiga va boshqa ko'p omillarga bog'liq bo'lib, uni yetarli darajada aniqlik bilan quyidagi empirik formula yordamida hisoblash mumkin.

$$E_{kr} = 0,2 + 0,01 S_{to \cdot xt}.$$

U holda faralarning zarur yorug'lik kuchi:

$$I = E_{kr} \cdot S_{to \cdot xt}^2.$$

Shunday qilib, to'xtash yo'l S_{to · xt} avtomobilning tezligi kvadratiga proporsional bo'lsa, zarur yorug'lik kuchi I esa to'xtash yo'l kvadratiga proporsional. Bunday faralarning zarur yorug'lik kuchi avtomobil tezligiga nisbatan to'rtinchi dara-jaga bilan o'sadi.

Yevropada tasdiqlangan me'yorlarga ko'ra 70–100 km/soat (mos ravishda ho'l va quruq yo'l uchun) tezlik bilan harakatlanayotgan avtomobil haydovchisining to'siqni vaqtida aniqlash uchun uzoqni yoritish faralarni yorug'lik kuchi 40000 kd dan kam bo'lmashligi kerak. Ba'zi bir avtomobilarga (shaharlar aro avtobuslarga va maxsus avtomobilarga) uzoqni yoritishni kuchaytirish uchun qo'shimcha fara va fara-proyektorlar o'rnatiladi. Avtomobilga o'rnatilgan hamma faralarning yorug'lik kuchining umumiyligi qiymati 225000 kd oshmasligi kerak. Bu avtomobil 110–140 km/soat tezlik bilan harakatlanganda to'siqni vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Yevropa va MDH davlatlarida yaqinini yoritishda asimetrik va aniq yorug'-lik-soya chegarasiga ega bo'lgan unifikatsiyalashgan faralar tizimi ishlataladi. Bu faralar tizimi uchun yorug'lik-texnik me'yorlar BMT YEIKning №1 va №20 qoidalari bilan belgilangan (№20 galogen lampali faralar uchun).


Bosh faralarning yaqinini yoritish rejimini tekshirish uchun maxsus ekranidan (5.6- a rasm) foydalaniladi. Vertikal chiziq VV' yo'lning o'ng harakatlanish qismining o'qiga to'g'ri keladi. HG va HG' chiziqlar (uzoqdan qaraganda) avtomobil harakatlanayotgan yo'lning o'ng qismining ikki chekka tomonini ko'rsatadi. HF chiziq yo'lning chap, ya'ni harakatga qarama-qarshi qismining tashqi chekkasini ifodalasa, HF' chiziq yo'lning chap qismining o'qiga to'g'ri keladi. Shunday qilib, HG' chiziq yo'lning umumiyligi, ya'ni uni o'ng va chap tomonlarga harakat qismilarga ajratadigan o'qini ifodalaydi. HE chiziq taxminan qarama-qarshi tomonidan

kelayotgan avtomobil haydovchisi ko'zining trayektoriyasiga mos keladi. 5.7-rasm ekranning yuqorida keltirilgan belgilanish ma'nosini tushuntiradi.


Asimmetrik faralarning yaqinni yoritish rejimidagi eng muhim quyidagi nuqtalar hisoblanadi: V50L – ro'paradan kelayotgan avtomobil 50 m masofada bo'lganda, uning haydovchisi ko'zining holatini belgilaydigan nuqta; 50R va 75R – faralarni yo'lning o'ng chekka qismini 50 va 75 m masofalarda yoritilganligini ifodalovchi nuqtalar.

Yorug'lik-soya chegarasidan yuqoridagi III zona – ro'paradan kelayotgan avtomobil haydovchisini ko'zini qamashtirish extimoli katta bo'lgan nuqtalar yig'indisidan iborat va bu zona uchun ruxsat berilgan yoritilganlik darajasining minimal qiymatlari o'rnatilgan. IV zona esa buning aksincha yo'l ko'tarmasining yoritilganlik darajasini ifodalaydi va uning uchun minimal ruxsat berilgan yoritilganlik darajasi o'rnatilgan.

25R va 25L nuqtalar avtomobil oldidagi 25 m masofada yo'lning ikki chekka-sini yoritilganligini ko'rsatadi. I zona yo'lning avtomobilga juda yaqin (10–25 m) bo'lgan qismining yoritilganligiga mos keladi va yo'lning yaqin qismlarini ortiqcha yarqirashiga, uzoqroq qismlarini yoritilganligidan juda ham keskin farq qili-shiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bu zona uchun ham yoritilganlikning ijozat beril-gan maksimal qiymatlarining eng kichik qursatkichlari o'rnatilgan.



5.6-rasm. Evropa yorug'lik taqsimlash tizimidagi bosh faralarni yaqinni (a) va uzoqni (b) yoritish rejimlarini tekshirish ekrani



5.7-rasm. Faralarni tekshirish ekranidagi (5.6-rasm) nazorat nuqtalarini yo'lning perspektiv ko'rinishidagi holati

Asimmetrik faralarning yaqinni yoritish rejimida yorug'lik taqsimlanishining nazorat nuqtalaridagi yoritilganlikning me'yoriy qiymatlari xalqaro standartlarda keltirilgan (5.1-jadval).

5.2-jadval

Nomi	BMT EIK ning qoidalariga ko'ra yoritilganlik, /k	
	1 va 5	8, 20 va 31
Chegaraviy qiymatlari	32 dan kam emas	48–240
Nazorat nuqtalari:		
O, kamida	$0,9E_{max}$	$0,8E_{max}$
A va A*, kamida	16	24
B va B*	4	6


Bosh faralarning uzoqni yoritish tizimini va nazorat nuqtalaridagi yoritilganlikni tekshirish ekrani 5.6-*b* rasmida ko'rsatilgan. Tekshirish quyidagicha amalga oshiriladi. Faralarni yaqinni yoritish tizimini tekshirilgan holatini o'zgarmasdan uzoqni yoritish tizimi yoqiladi. Bunda: uzoqni yoritishning yorug'lik dastasining o'qi NN' chiziqdan yuqorida joylashgan maksimal yoritilganlik nuqtasini hosil qiladi. Yoritilganlik NN' chizig'idan joylashgan beshta nazorat nuqtalarida o'lchanadi.

Bosh faralarning uzoqni yoritish tizimini va nazorat nuqtalardagi yoritilganlikni tekshirish ekrani 5.6-*b* rasmida ko'rsatilgan. Tekshirish quyidagicha amalga oshiriladi. Faralarning yaqinni yoritish tizimini tekshirilgan holatini o'zgartirmasdan uzoqni yoritish tizimi yoqiladi. Bunda: uzoqni yoritishning yorug'lik dastasining o'qi ekranda HH' chiziqdan yuqorida joylashgan maksimal yoritilganlik nuqtasi ni hosil qiladi. Yoritilganlik, HH' chizig'ida joylashgan beshta nazorat nuqtalarida o'chanadi. Uzoqni yoritishda talab qilinadigan yoritilganlik me'yorlari 5.2-jadvalda keltirilgan.

5.4. BOSH YORITISH FARALARINING TUZILISHI

Bosh yoritish faralari asosan korpus, optik element va rostlovchi me-xanizm dan tashkil topgan. Optik element tarkibiga nur qaytargich, nur tarqatgich, to'g'ri nurlarni to'suvchi ekran va bir yoki ikki rejimli yorug'lik manbayi kiradi. Faralarning optik elementi doira yoki to'g'ri burchakli shaklga ega bo'lishi mumkin. Avtomobilarda uzoq vaqt davomida doira shaklidagi faralar o'rnatilib kelib, ularga ikki farali tizim uchun $\varnothing 178$ mm bo'lgan, to'rt farali tizim uchun esa $\varnothing 146$ mm bo'lgan optik element qo'llanilgan.

MDHda keng tarqalgan Yevropa yorug'lik taqsimlanish tizimiga ega bo'lgan doira shaklidagi $\Phi\Gamma 140$ belgili faraning tuzilishi 5.8-rasmida keltirilgan. Korpus 5 ning ichki qismidagi qovurg'alariga optik elementning tayanch halqasi o'rnatilgan. Tayanch halqaning chekka qismida rostlash murvatlari 3 ning qalpoqchalari kirishi mo'ljallangan o'yiqlar ishlangan. Murvatlar korpusga mahkamlangan gaykalarga buraladi va faraning yorug'lik dastasini gorizontal va vertikal tekisliklarda $\pm 4^{\circ} 30'$ burchak doirasida rostlash imkoniyatini beradi.



5.8-rasm. $\Phi\Gamma 140$ belgili avtomobil farasi

Optik element tayanch halqada ichki gardish / yordamida uchta murvat /4 bilan mahkamlanadi. Optik elementni doimo bir xil muayyan o'mashishini ta'minlash uchun tayanch halqasi uchta nosimmetrik joylashtirilgan darchaga ega.

Metall shishali optik element fokus masofasi 27 mm bo'lgan paraboloid qaytargich 10, qaytargichga yelimlangan tarqatgich 11 va lampa 2 dan iborat. Qaytargich po'latdan shtamplash yo'li bilan tayyorlanadi. Qaytargichni korroziyadan asrash uchun avval uni yaxshilab sayqallangan yuziga lak va lak ustidan vakuumda bug'lash yo'li bilan yupqa qatlamlari (3-5 mkm) aluminiy qoplanadi. Aluminiylangan yuzning oksidlanib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun u maxsus lak bilan qoplanadi. Aluminiylangan yuz, unga tushayotgan yorug'lik nurini 90 %gacha qaytarish xususiyatiga ega.

Faraning optik elementining paraboloidsimon qaytargichining cho'qqi qismiga yorug'lik manbayi 6 o'rnatilib, uning uzoqni yoritish tolsi qaytargich fokusiga, yaqinini yoritish tolsi fokusdan oldinroq va yuqoriroqqa joylashtiriladi.


Hozirgi zamon faralarida A12-45+40 turidagi oddiy yoki H4 turidagi galogen lampalar ishlataladi. Tok lampaga shtekker dasta 7 va korpusdan ushlagich 9 dan o'tkazilgan simlar orqali uzatiladi.

Fara lampasining cho'g'lanish tolalaridan to'g'ridan to'g'ri chiqqan yorug'lik nurlar ta'sirida ro'paradan kelayotgan avtomobil haydovchisining ko'zini qamashishini kamaytirish maqsadida ushlagich 13 ga parchin mixlar yordamida to'suvchi ekran 12 o'rnatilgan. Ekran sfera shaklidagi yupqa metall tasmdan tayyorlanadi.

Optik elementning nur tarqatgichi, odatda, rangsiz silikat shishadan tayyorlanib, uning ichki yuzi silindrik va sferik linzalar, prizma va prizmalinza shaklida-gi nur sindirgich elementlar bilan qoplanadi. O'tgan asrning 90-yillaridan taqsimlagich sifatida polimer materiallar turkumiga taalluqli bo'lgan polikarbonat ishlatala boshlandi. Bu faralarning og'irligini deyarli 1 kg gacha kamaytirish imkonini berdi.

1960-yillardan boshlab avtomobillarda doira shaklidagi faralar bilan birga to'g'ri burchakli faralar ham qo'llanila boshlandi. Bu turdag'i faralarning konstruksiyasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ularda qaytargich sifatida yorug'lik teshigining diametri katta bo'lgan (250 mm gacha) kesik paraboloid ishlatalilgan. Bu qaytargichning gorizontal yo'nalishda ishlaydigan qismlarining yuzini ancha oshishiga va yaqinini yoritish rejimidagi yorug'lik taqsimlanishini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi. Bundan tashqari, to'g'ri burchakli faralar vertikal o'lchamlarining nisbatan kichik bo'lishi avtomobilning aerodinamik xususiyatlarini yaxshilaydi, yonilg'i tejamkorligini oshiradi. Shu bilan birga tayyorlash texnologiyasini nisbatan murakkabligi, tannarxi balandligi va o'matilish uchun kattaroq joy talab qilinishi bu turdag'i faralarning kamchiligi hisoblanadi.

To'g'ri burchakli faralarning tuzilishi 5.9-rasmda ko'rsatilgan. Plastmassadan tayyorlangan korpus 2 ga gardish vositasida murvatlar bilan tarqatgich 1 mahkamlangan. Qaytargich 3 prujinaning ichki qismiga uchta sharsimon tayanch sharnirlari 10 ga o'rnatilgan.




5.9-rasm. To'g'ri burchakli faralarning tuzilishi

Sharsimon sharnir 4 qo'zg'almas tayanch vazifasini bajaradi. Qaytargichni gorizontal tekislik bo'yicha aylantirish, sharnir 7 ni harakatlantiruvchi murvat 6 ni burash hisobiga amalga oshiriladi. Bu holda qaytargich, 4 va 5 sharnirlarning markazidan o'tadigan vertikal o'q atrofida buriladi. Qaytargichning eng chekka holati shtrix chiziq bilan ko'satilgan.

Faraning yorug'lik dastasining qiyaligi ikkita murvat 8 va 9 bilan rostlanaadi. Dastlabki rostlash murvat 9 bilan amalga oshiriladi. Bunda: qaytargich 4 va 7 sharnirlar markazidan o'tgan gorizontal o'q atrofida buriladi. Faraning yorug'lik dastasining qiyalik burchagiga tuzatish kiritish (masalan, avtomobilning yuklamasi o'zgarganda), ya'ni yorug'lik dastasining vertikal tekislikdagi holatini o'zgartirish murvat 8 yordamida amalga oshiriladi. Ba'zi avtomobilarda murvat 8 haydovchi kabinasidan boshqariladigan yuritma bilan jihozlangan.

Keyingi vaqtida avtomobilarda to'g'ri burchakli faralar asosida tayyorlangan blok-faralar (5.10-rasm) tobora keng qo'llanilmoqda. Blok-faralar bitta korpusda avtomobilning oldingi yorug'lik asboblarining hammasini yoki asosiy qismini birlashtiradi. Blok-faralarning tarqatgichi umumiy yoki qo'shma konstruksiyaga ega bo'lishi mumkin. Blok-faralarni turli avtomobillar uchun unifikatsiya qilib bo'lmasligi asosiy kamchilik hisoblanadi. Avtomobilning o'ng va chap tomonidagi blok-faralarni o'zarlo almashtirilib bo'lmaydi.



5.10-rasm. Blok-fara:

a – tashqi ko’rinishi; b – tuzilishi; 1 – gabarit chiroq lampasi, 2 – bosh yoritish farasining lampasi, 3 – burilish ko’rsatkichining lampasi, 4 – tarqatgich.

AQSH, Yaponiya va boshqa bir qator mamlakatlarda doira va to’g’ri burchak shaklidagi faralarning optik elementlari ajralmas, yaxlit lampafara ko’rinishida yasaladi. Bu optik asboblarning qaytargichi va tarqatgichi shishadan tayyorlanadi. Qaytargich yuzasi alyumin bilan qoplanadi, unga cho’g’lanish tolalari o’rnatalidi. Shundan keyin, qaytargich bilan tarqatgich bir-biriga payvandlanadi, hosil bo’lgan kolbadan havo so’rib tashlanib, u butunlay kavsharlab qo’yiladi.

Dunyoda yildan yilga yonilg’i taqsilchiligi kuchayib borishi, konstrukturlar oldiga avtomobilarning havo oqimiga bo’lgan aerodinamik qarshiligini kamaytirish masalasini qo’ydi. Bu muammoni hal qilish, avtomobilning oldindi qismini toraytirish va faralarning balandligini 120...150 mm dan 60...90 mm gacha kamaytirilishini talab qiladi. Bu talablar faraning konstruksiyasida an’anaviy yorug’lik-optik sxemalarni ishlatishga yo’l bermaydi, chunki bu holda yorug’lik oqimini saqlab qolish uchun qaytargichlarning chuqurligini ancha oshirish kerak bo’ladi va bu, ma’lum texnologik qiyinchiliklarni tug’diradi. Bundan tashqari, an’anaviy yorug’lik-optik sxemalarda ishlatiladigan nur taqsimlagichlarning vertikal tekislikka nisbatan 25° dan ortiq burchak bilan o’rnatalishi, ularning ishini buzilishga olib keladi.


Zarur yorug’lik oqimini saqlash va avtomobilning aerodinamik qarshiligini kamaytirishdek, bir-biriga qarshi muammolar prinsipial yangi konstruksiyaga ega bo’lgan faralarni ishlab chiqilishiga olib keldi. «Lukas» (Buyuk Britaniya) firma-si tomonidan faraning yangi konstruksiyasi taklif qilinib, unda qaytargich ikki yoki uchta kesik paraboloidlar yig’masi ko’rinishida ishlangan. Bu paraboloidlarning fokus masofasi har xil (20 va 40 mm) bo’lgani bilan ularning fokuslari bir nuqta-ga keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan prinsipga asoslangan qaytargichlar «gomofokal» qaytargichlar deb ataladi. Gomofokal yorug'lik-optik prinsipdan foydalanib, har xil fokusli qaytargichning alohida bo'laklarini tanlab olib, shunday qaytargich yig'ish mumkinki, u yaqinni va uzoqni yoritish rejimlaridagi **zarur yorug'lik taqsimlanishini faqat qaytargich hisobiga amalga oshirish imkonini beradi** (masalan, «Matiz» avtomobilida).

Gomofokal fara optik tizimining sxemasi 5.11-rasmda keltirilgan. Bu yerda IA va IB segmentlar qaytargichning ta'sir doirasini belgilaydi. II segment yo'lning yaqin qismlari va yon tomonlarining yoritilishini ta'mnlaydi. III segment faqat uzoqni yorituvchi yorug'lik dastasini shakllantiradi. Lampuning cho'g'lanish tolasi pastki tomonidan ekranganligi uchun yaqinni yoritishda qaytargichning bu qisimi ishlamaydi.


Bu yorug'lik-optik sxema asosida avtomobilsozlarni aerodinamika bo'yicha qo'yan hozirgi zamон talablarini to'la qondira oladigan faralar konstruksiyasi ishlab chiqildi. Gomofokal faralarning ishlab chiqarishga tatbiq qilinishi, faralarning tayyorlash texnologiyasini deyarli to'la o'zgartirishni talab qiladi, chunki qaytargichlarning ancha murakkab shakli yuqori aniqlik bilan faqat yengil qoliplanuvchi materiallardan (masalan, termoplastik, aluminiy, magniy, metallashgan plastik) tayyorlash mumkin. Bundan tashqari, galogen lampalarini ishlatalish uchun qaytargich materiallarining issiqlikka chidamlilik darajasi ancha yuqori bo'lishi kerak.

Gomofokal faralarni tayyorlash uchun ishlataladigan materialarning hozircha narxi ancha yuqoriligi, texnologik jarayonning murakkab va og'irligi, bu turdag'i faralarni keng ko'lama qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda.



5.11-rasm. Gomofokal faraning optik tizimining sxemasi:

a – yorug'lik nurlarining tarqalish yo'naliishlari; b – qaytargichning yig'ilgan holati; (I, II, III – alohida segmentlar); 1 – lampa, 2 – fokus masofasi kichik qaytargich, 3 – fokus masofasi katta qaytargich, 4 – tarqatgich.



5.12-rasm. Elliptik faraning optik tizimi:
1 – lampa, 2 – qaytargich, 3 – ekran, 4 – linza, 5 – tarqatgich.


«Xella» (Germaniya) firmasi tomonidan fara konstruksiyalarini rivojlanishining boshqa yo'nalishiga mansub bo'lgan ellipssimon qaytargichli bosh yoritish farasi taklif qilindi. Ularning tavsifnomasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, yaqinni yoritish rejimida lampaning yorug'lik oqimidan to'laroq foydalaniadi, ya'nii FIK nisbatan yuqori.

Bu turdag'i faralarning qaytargichi ellips ko'rinishiga ega bo'lib, yorug'lik oqimi horizontal tekislikda vertikal tekislikka nisbatan ancha kengroq taraladi. Elliptik qaytargichli faraning optik tizimida yorug'lik nurlarining tarqalish sxemasi 5.12-rasmida keltirilgan.

Lampa 1 ning cho'g'lanish tolasidan chiqqan yorug'lik nuri qaytargich 2 dan qaytib tashqi fokusdan o'tadi va qavariq linza 4 da to'g'rilanadi. Ekran 3 faraning yorug'lik soya chegarasini belgilaydi. Odatda, elliptik qaytargichli faralar uzoqni yoritish uchun mo'ljallangan parabolik qaytargichli faralar bilan bitta korpusga joylashtiriladi (5.13-rasm).

Bu yorug'lik-optik sxemalarning asosiy kamchiligi sifatida faralarni tayyorlash texnologiyasining murakkabligi, tannarxining yuqoriligi va faqat to'rt farali yoritish tizimida foydalanish mumkinligi bilan cheklanganligini ko'rsatish mumkin.

Hozirgi vaqtida avtomobilarning yoritish



5.13-rasm. Parabolik va elliptik qaytargichlar o'rnatilgan bosh yoritish farasi:

- 1 – uzoqni yoritish qaytargichi;
- 2 – yaqinni yoritish qaytargichi;
- 3 – gabarit chiroq.

tizimida qutblangan yorug'lik dastasi va tolali optik sxemalarni ishlatalish borasida izlanishlar olib borilmoqda.

5.5. TUMANGA QARSHI FARALAR

Tumanga qarshi faralar tuman, kuchli qor yog'ishi, jala va boshqa og'lr ob-havo sharoitlarida transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Bu sharoitlarda uzoqni yoritish faralarini yoqish yo'lni ko'rishni faqat yomon-lashtiradi, yaqinini yoritish faralari esa yetarli samara bermaydi.

Tuman va kuchli yog'ingarchiliklar sharoitlarida bosh faralarning yoqili-shi «oppoq xira pard» effektini beradi. Buning sababi shundan iboratki, tuman yoki yomg'ir zarrasiga tushgan yorug'lik oqimi qisman qaytadi, qisman yutiladi. Yorug'lik oqimining zarraga kirgan qismi ham ikkiga bo'linib, bir qismi zarrachani to'g'ri kesib o'tib chiqib ketsa, ikkinchi qismi zarraning ichki qirralarda ko'p marta qaytarilib, so'ngra zarradan turli yo'nalishdarda chiqib ketadi. Yorug'lik oqimining tuman zarralaridan qaytgan qismi yo'lning yoritiganlik darajasini ancha susaytirsa, yutilgan qismi yuqorida qayd qilingan «xira pardani» hosil qiladi.

Tumanga qarshi yorug'lik dastasini hosil qilish uchun quyidagi talablar bajari-lishi kerak:


a) yorug'lik oqimining tumanda qaytarilishi va yutilishini kamaytirish maqsadida yorug'lik nurlarining uzunligini kamaytirish zarur. Bu talabning bajarilishi uchun tumanga qarshi faralar asosiy faralardan pastroqqa joylashtirilishi kerak. Yo'l yuzi bilan tumanga qarshi faraning eng chekka nuqtasi orasidagi masofa 250 mm dan kam bo'lmasligi kerak;

b) yorug'lik oqimining vertikal tekislik bo'yicha tarqalish burchagi kamayti-rib, gorizontal tekislikdagisi oshirilishi kerak. Bu tumanga qarshi faralarda maxsus nur tarqatgichlar o'rnatilishi bilan amalga oshiriladi. Hozirgi zamon avtomobil-lariga o'rnatilayotgan tumanga qarshi faralarda yorug'lik dastasini gorizontal teki-slik bo'yicha taralish burchagi 70°...90° tashkil qiladi;

c) tumanga qarshi faralarning cho'g'anish tolasidan bevosita chiqqan barcha yorug'lik nurlari ekranlanishi kerak.

Tumanga qarshi faralarning konstruksiyasi 5.14-rasmida ko'rsatilgan. Tuzilishi bo'yicha bu faralar to'g'ri burchakli yoki doiraviy bo'lishi mumkin.

Tumanga qarshi faralarning qaytargichlari paraboloid shakliga ega bo'lib, uning fokus markaziga A-12-35 belgili oddiy va H1, H2, H3 belgili galogen lampalar o'rnatiladi. Lampadan bevosita chiqadigan to'g'ri nurlarni to'sish uchun ularning oldiga ekran joylashtirilgan. Nur tarqatgichning ichki yuziga yorug'lik dastasini gorizontal tekislik bo'ylab taratilishini ta'minlaydigan silindrik linzalar tushirilgan. Faraning ichki hajmining kichikligi va galogen lampalarning ishlatalishini hisobga olib tarqatgichlar shishadan tayyorlanadi.



5.14-rasm. Tumanga qarshi fara:

a – ФГ119 belgili fara; 1 – tarqatgich, 2 – qaytargich, 3 – ekran, 4 – lampa, 5 – patron, 6 – rostlash murvati. b – yorug‘lik nurlarining taqsimlanishi; 1 – tumanga qarshi faraniki, 2 – bosh yoritish faraniki, abcd – haydovchining ko‘rish chizig‘i. c – ФГ120-Б belgili fara; 1 – gardish, 2 – murvat, 3 – lampa patroni, 4 – lampa, 5 – tarqatgich, 6 – qaytargich, 7 – optik elementning tutqichi, 8 – korpus, 9 – o’tkazgich, 10 – kontakt plastinasi, 11 – isqich, 12 – zoldirliri tayanch.

Hozirgi zamон standartlariga ko‘ra tarqatgichlar oq yoki sariq rangli qilib tay-yorlanishi mumkin, lekin bu faralarning tuman sharoitida yo‘lni yoritish xususiyatlarga amalda ta’sir ko‘rsatmaydi. Tumanga qarshi faralar kuzov ichiga yoki maxsus tirkak yordamida buferga mahkamlanadi.

5.6. YORUG‘LIK-XABARCHI ASBOBLARI

5.6.1. Umumiy ma’lumotlar

Harakat xavfsizligini oshirish maqsadida barcha avtomobillar va boshqa transport vositalari xalqaro (BMT YEIK qoidalari) va mamlakatimiz standartlariga ko‘ra belgilangan tartibdagи yorug‘lik-xabarchi asboblar bilan jihozlanishi shart. Yorug‘lik xabarchilari yo‘l harakati ishtirokchilarini transport vositasi harakating o‘zgarishi (tormozlanish, burilish, quvib o‘tish, to‘xtash va hokazo), transport vositasining turi va uning o‘lchamlari haqidagi ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Bu ma’lumotlarni uzatish uchun yengil va yuk avtomobillarida quyidagi yorug‘lik-xabarchi asboblarining o‘rnatalishi shart deb belgilangan:

- oldingi va orqadagi gabarit chiroqlari;
- oldingi, orqadagi va yondagi burilish yorug‘lik ko‘rsatkichlari;
- orqaga joylashtiriladigan yorug‘lik qaytargichlari;
- avtomobilning davlat raqamini yorituvchi fonar.

Tasdiqlangan qoidalarga asosan ba'zi toifadagi avtomobillar quyidagi qo'shimcha yorug'lik xabarchilar bilan jihozlanishi kerak:

- yuk avtomobillardagi kontur chiroqlari;
- avtopoezd va tirkamali avtomobilarni tanituvchi chiroqlar;
- chorrahalardan o'tish ustunligini beruvchi maxsus chiroqlar.

Avtomobil jihozlanishi shart bo'limgan, lekin o'rnatishga ruxsat berilgan yorug'lik-xabarchilar toifasiga: tumanga qarshi orqa chiroq, to'xtab turish chirog'i, qo'shimcha tormozlanish xabarchisi, yon tomondagi chiroqlar, orqaga yurish fonari va boshqa shunga o'xhash asboblar kiradi.

Yorug'lik-xabarchilarining ishslash rejimiga qarab uzoq va qisqa vaqt doirasida ishlovchi asboblarga (tormozlanish xabarchisi va burilish ko'rsatgichlari) bo'linadi.

Ishlatilish sharoitlari va ko'rinish darajasiga ko'ra yorug'lik xabarchi asboblar faqat kechasi yoki ko'rinish yaxshi bo'limgan hollarda ishlatiladigan (chegaraviy, kontur, tanituvchi, yon chiroqlar) va doimiy ishlatiladiganlar (tormozlanish xabarchisi, burilish ko'rsatgichlari va avariya signalizatsiyasi) bo'linada.

Yorug'lik-xabarchi asboblarining bu tarzda bo'linishi ko'rinish shart-sharoitlari va asboblarning yorug'lik kuchi bilan belgilanadi. Faqat kechasi ishlatiladigan asboblardagi yorug'lik kuchi 2...12 kd doirasida bo'lsa yetarli hisoblanadi. Doimiy ishlatiladigan asboblarning quyoshli kunda ham yaxshi ko'rinishini ta'minlash maqsadida ularning yorug'lik kuchi 200...700 kd doirasida bo'lishi kerak. Bu asboblarning kuchli yorug'lik kuchi qorong'ida boshqa transport vositalarining haydovchilarining ko'zini qamashtirishi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan sabablargacha ko'ra, kechayu-kunduz ishlatiladigan yorug'lik xabarchilarining optik tizimi ancha murakkab sxema bo'yicha tayyorlanadi.

Avtomobilarda o'rnatiladigan yorug'lik-xabarchi asboblarining ko'pligi, ularni tegishli ranglar bilan ajratish zaruriyatini tug'diradi. Ko'pincha yorug'lik-xabarchi fonarlar qizil, to'q sariq, oq (rangsiz) rangda bo'ladi, ba'zi hollarda yashil va zangori ranglar ham ishlatiladi.

5.6.2. Gabarit chiroqlar

Gabarit chiroqlar kechasi yoki ko'rinish sharoitlari yomon bo'lganda transport vositasini gabarit o'lchamlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Yengil avtomobilarning hammasi old tomonida 2 ta oq rangli va orqasida 2 ta qizil rangli gabarit chiroqlari bilan jihozlanishi shart. Avtomobil o'lchamlarini aniq ko'rsatish uchun gabarit chiroqlar imkon boricha transport vositasining chekka qismlariga joylashtiriladi.

BMT YEIKning N 48 qoidasiga ko'ra uzunligi 6 m dan ortiq bo'lgan tortuvchi va tirkamali avtomobilarning yon tomoniga ham to'q sariq rangli gabarit chiroqlari o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Qoidalalar gabarit chiroqlarning o'rnatilishini

quyidagicha me'yorlaydi: minimal balandligi 350 mm, maksimal balandligi 1500 mm, maxsus kuzovli avtomobillar (ag'darma va yig'ishtiradigan mashinalar) uchun maksimal balandlik 2100 mm gacha oshirilishi mumkin; eni bo'yicha asboblar orasidagi minimal masofa 600 mm, kichik gabaritli avtomobillar uchun 400 mm.

5.6.3. Tormozlanish xabarchilar

Tormozlanish xabarchilar avtomobilning harakatini sekinlashishi yoki to'xtashi to'g'risida boshqa transport vositalari haydovchilarini ogohlantirish uchun xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga ko'ra barcha transport vositalarining orqa tomoniga 2 ta qizil rangli tormozlanish xabarchisi o'rnatilishi shart deb belgilangan.

Tormozlanish xabarchilar quyoshti kunda ham yaxshi ko'rinishini ta'minlash uchun ularning yorug'lik kuchi ancha katta bo'lishi talab qilinadi. Shu bilan birga, tormoz xabarchilarining kuchli yorug'lik dastasi kechasi orqada kelayotgan transport vositasi haydovchisining ko'zini qamashtirishi mumkin. Shuning uchun, bu asboblarning yorug'lik kuchi ma'lum darajada cheklanadi yoki kunduzi va kechasi har xil rejimda ishlaydigan tartibi qo'llaniladi. Tormozlanish xabarchilarining yorug'lik taqsimlash tafsifnomalari BMT YEIKning №6 va №7 qoidalari bilan me'yorashtiriladi.

Keyingi vaqtida tormozlanish xabarchilar ko'rinishini yanada yaxshilash maqsida avtomobil salonining orqa oynasiga qo'shimcha tormozlanish fonari qo'yish tatbiq etilmoqda. Bu transport harakatining hozirgi vaqtdagi nihoyatda tig'iz sharoitlarida, avtomobil to'xtashi (yoki sekinlashishi) to'g'risidagi ma'lumotni orqada kelayotgan transport vositalari haydovchilariga tezroq yetkazish imkonini beradi.

5.6.4. Burilish ko'rsatkichlari

Burilish ko'rsatkichlari avtomobilning harakat yo'nalishini o'zgarti-rishi (burilishi, orqa tomoniga qaytishi va hokazo) haqidagi ma'lumotni boshqa transport vositalari haydovchilariga yetkazish uchun xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga ko'ra hamma transport vositalarining old va orqa tomonlariga 2 tadan to'q sariq rangli burilish ko'rsatkichlari o'rnatish shart deb belgilangan. Hozirgi zamon qoidalari ko'ra qo'shimcha burilish ko'rsatkichlari avtomobilning yon tomoniga, qanoatlarga, kabinaga yoki kuzovga o'rnatiladi.

Burilish ko'rsatkichlari dam yarqirash, dam miltillash rejimida ishlaydi. Yarqirash-miltillash chastotasi 1 Hz dan (1 minutda 60 ta yarqirash-miltillash) kam, 2 Hz dan ko'p bo'lmasligi kerak.


Burilish ko'rsatkichlarining yorug'lik taqsimlash tafsifnomalari ham BMT YEIK ning №6 va №7 qoidalari bilan me'yorashtirilgan.

Burilish ko'rsatkichlari avariya xabarchisi vazifasini ham bajaradi. Bu hol-

da avtomobilning hamma burilish ko'rsatkichlari baravariga yarqirash-miltillash rejimida ishlaydi.

5.6.5. Yorug'lilik-xabarchi asboblarining tuzilishi

Avtomobilarga o'rnatilgan yorug'lilik-xabarchi fonarlar konstruksiyasining xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Bu yorug'lilik-xabarchi fonarlar avtomobilarning (ayniqsa, yengil avtomobilarning) muayyan modeliga, uning tashqi shakli, konstruksiyasining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi bilan bog'liqdir.




5.15-rasm. Bosh yoritish farasini ichiga joylashtirilgan gabarit chiroq:

1 – bosh yoritsh lampasi, 2 – gabarit chiroq lampasi.

Hozirgi zamon avtomobillarda o'rmatiladigan yorug'lilik-xabarchi chiroqlari, signal fonarlar blokiga birlashtirilgan alohida bo'linmalar ko'rinishida yasalmoqda. Faqat ba'zi asboblar, masalan, yon tomondag'i burilish xabarchilari alohida konstruksiyaga ega.

Avtomobilning old tomonidagi signal fonarlar bloki, gabarit chiroqlari va burilish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Oxirgi konstruksiylarda oldingi gabarit chiroqlar bosh yoritish faraning ichiga joylashtirilmoxda (5.13, 5.15-rasmilar). Buning uchun qaytargichga qo'shimcha yorug'lilik manbayi o'rnatiladi. Bu holda burilish ko'rsatkichlari bosh faraning yoniga alohida bo'linma shaklida joylashtiriladi.

Avtomobilarning oldingi signal fonarlar bloki (5.16-rasm) ikki bo'linmali korpus 1 dan iborat bo'lib, ularning biriga burilish xabarchisi, ikkinchisiga gabarit chiroq joylashtiriladi. Bo'linmalar bir-biridan yorug'lilik o'tkazmaydigan to'siq 3 bilan ajratilgan. Har bir bo'linma lampa tutqich 5 va lampalar bilan ta'minlangan. Yuqoridagi bo'linmaga, odatta, burilish xabarchisi joylashtirilib, uning lampasi qaytargich fokusiga o'rnatiladi. Burilish xabarchisining yarqirash-miltillash rejimida ishlashi elektroimpuls-issiqlik, elektro magnit va elektron turdag'i maxsus relelar yordamida amalga oshiriladi. Pastki bo'linmaga gabarit chiroq lampasi joylashtirilib, ularda linza (ya'ni, qaytargichsiz) sxemasi ishlatiladi. Sig-



5.16-rasm. Avtomobilarning oldingi signal fonarlar bloki

nal fonarlar blokidagi zarur yorug'lik taqsimlanishi ikki rangli tarqatgich 2 yordamida ta'minlanadi.


Avtomobilarning orqa signal fonarlar bloki ham alohida bo'limlardan iborat bo'lib, ularga gabarit chiroqlar, burilish va tormozlanish xabarchilar, orqaga yurish va davlat raqamini yoritish fonarlari, yorug'lik qaytargichlar joylashtiriladi. Yengil avtomobillar orqa signal fonarlarining konstruksiyasi va tashqi ko'rinishi, ularning dizayniga bevosita bog'liq bo'lib, har bir yangi model uchun yakka tartibda ishlab chiqiladi. Yuk avtomobilarning orqa fonarlari unifikatsiya qilingan va tuzilishi bo'yicha bir-biriga juda o'xshash. MDHda ishlab chiqilgan yuk avtomobilida keng tatbiq topgan $\Phi 11\text{--}30$ belgili orqa signal fonarining tuzilishi 5.17-rasmda keltirilgan. Signal fonari plastmassadan tayyorlangan korpus 4 va tarqatgich 3, lampa tutqich 2 va lampalar 1 dan iborat. Signal fonari blokiga burilish va tormozlanish xabarchilar, gabarit chiroqlar va yorug'lik qaytargichlar joylashtirilgan. Chap tomona joylashtiriladigan (avtomobilga orqa tomonidan qaralganda) signal fonari bloki, avtomobilning davlat raqamini yoritish lampasi o'rnatiladigan bo'linmaga ega.

Burilish va tormozlanish xabarchilar joylashtirilgan bo'linmalar nur qaytargich bilan ta'minlangan, qolgan bo'linmalar linzali optik tizimga ega. Yoritish lampalarining ishlash muddatiga vibratsion yuklamalarning ta'sirini kamaytirish maqsadida, lampa tutqichlar maxsus rezinali yumshatuvchi yostiqchalar orqali mahkamlanadi. Orqa signal fonarlar bloki gorizontal yoki vertikal holda o'rnatilishi mumkin.


Yorug'lik-xabarchi asboblar konstruksiyasini takomillashtirishning asosiy yonalishlari quyidagilardan iborat:

- zarur yorug'lik taqsimlanishni eng ratsional usullar bilan ta'minlash;
- tashqi muhitning yoritilanligini hisobga olib, signal lampalarining yorug'lik kuchini keng doirada o'zgartirish imkoniyatlarini ta'minlash;
- burilish va tormozlanish xabarchilaridagi fantom-effektni (yorqin quyosh yorug'ida, yoqilmagan chiroqni yoqilgan deb qabul qilish) bartaraf qilish.

Yorug'lik qaytargichlar kechasi, yo'lda chiroqlari o'chirilgan holda turgan transport vositasini belgilash uchun xizmat qiladi. Yorug'lik qaytargichlar passiv yorug'lik-xabarchi asbob bo'lib, u boshqa transport vositasi yoritish asboblaridan tushgan yorug'likni qaytarish hisobiga ishlaydi.



5.17-rasm. Yuk avtomobillarining orqa signal fonari



5.18-rasm. Uch qirrali uyacha shaklidagi yorug'lik qaytargich

Avtomobilarda kub shaklidagi yorug'lik qaytargichlar ishlatalib, ular uch qirrali uyachadan iborat (5.18-rasm). Uyacha qirrasi yorug'lik qaytargichning ichki tomonida joylashgan qirralar orasidagi burchak 90° ni tashkil qiladi. Bunday yorug'lik qaytargichning asosiy elementi to'g'ri burchakli, uch qirrali prizma bo'lib, u o'ziga tushgan yorug'lik nurini yuqori samara bilan qaytarish xususiyatiga ega. Yorug'lik qaytargichning optik elementi plastmassadan maxsus press-qoliplarda quyish yo'li bilan tayyorlanib, uning tashqi tomoni silliq qilib ishlanadi, ichki tomonida esa uch qirrali kubsimon uyachalar hosil qilinadi.


Tashqaridan tushayotgan yorug'lik nuri optik elementning silliq tomonidan kiradi va uyachaning qirralaridan uch karra qaytib, nur tushgan tomonga chiqib ketadi. Yorug'lik qaytargichlarning optik elementiga tushgan va qaytgan yorug'lik nurlari yo'naliishi deyarli bir-biriga mos keladi. Bu xususiyat, yorug'lik qaytargichlarga kirayotgan nurning tushish burchagi $\pm 20^\circ$ doirasida o'zgarganda ham saqlanib qoladi.

Yorug'lik qaytargichlar, odatda, avtomobilning old va orqa tomoniga joylashtiriladi. Uzunligi katta bo'lgan avtobus va yuk avtomobillarining yon tomoniga ham yorug'lik qaytargichlar o'rnatiladi. Avtomobilning orqa tomoniga o'rnatiladigan yorug'lik qaytargichlar qizil rangda, yon tomonidagisi – to'q sariq va old tomonidagilar – rangsiz bo'ladi. Avtopoezdning orqa tomonini belgilash uchun qizil rangli uch burchak yorug'lik qaytargich ishlataladi.

5.7. AVTOMOBIL LAMPALARI

Avtomobilarning yoritish asboblarida yorug'lik manbayi sifatida elektr cho'g'lanish lampalari ishlataladi. Elektr toki o'tganda lampaning cho'g'lanish tolasi qiziydi va ma'lum temperaturaga yetgandan keyin nur socha boshlaydi. Elektr lampa (5.19-rasm) kolba 1, tok uzatish elektrodlariga joylashtirilgan bitta yoki ikkita cho'g'lanish tolasi 2 va 3, sokol 6 va chiqish joyi 7 dan tashkil topgan. Ba'zi lampalarda (asosan, bosh yoritish faralariga o'rnatiladiganlarida) sokol fokuslovchi gardish 5 bilan birga ishlanadi. Ikki chulg'amli lampalar bosh yoritish faralarning yaqinni va uzoqni yoritish rejimlarida yoki tormozlanish xabarchilarini kechasi va kunduzi har xil rejimda ishlashini ta'minlaydi.

Cho'g'lanish tolasi o'chamlari kichik, katta haroratlarga chidamli bo'lishi kerak. Shuning uchun, u ingichka volfram simdan spiral yoki bispiral shaklida o'rab tayyorlanadi. Cho'g'lanish tolasi, nikeldan tayyorlangan elektrodlarga mah-kamlanadi va odatda, to'g'ri chiziq yoki aylana yoyi ko'rinishida bo'ladi.



5.19-rasm. Avtomobil faralarida ishlataladigan lampalar:

a – ikki tolali Yevropa standartidagi; b – ikki tolali, galogenli H4; c, d va e – bir tolali, galogenli mos ravishda H1, H2 va H3; f – ksenon (gazrazryadli); 1 – kolba, 2 – uzoqni yoritish tolasi, 3 – yaqinni yoritish tolasi, 4 – ekran, 5 – gardish, 6 – sokol, 7 – chiqish joyi.

Yorug'lik manbalari elektr, yorug'lik va ekspluatatsion xususiyatlarini belgilovchi bir qator ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- nominal kuchlanish, ($6,12,24\text{ V}$);
- elektr quvvati, W;
- chegaraviy kuchlanish, V; bu kuchlanish doirasida lampalar belgilangan muddat davomida ishlaydi deb hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan nominal kuchlanishlar uchun chegaraviy kuchlanish qiymatlari quyidagicha – 6,7; 13,5; 28 V.
- lamparning nominal yorug'lik oqimi, lyumenda (lm);
- yorug'lik kuchining maksimal qiymati, kandelda (kd) o'lchanadi.

Lampalarning cho'g'lanish tolasini tayyorlash uchun ishlataladigan volframing erish temperaturasini $3380\text{ }^{\circ}\text{C}$ ga teng. Spiral $2300\text{--}2700\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi. Spiralning qizdirish temperaturasi ortishi bilan lampani yoritish samarasini ham ortib boradi. Lekin, spiral harorati $2400\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan ortgandan keyin, volfram jadal ravishda porlaydi. Porlagan volfram zarralari lamparning shisha kolbasiga o'tirib va uni qoraytiradi va yorug'lik oqimini kamaytiradi.

1960-yillardan boshlab avtomobillarda cho'g'lanish toları temperaturasini $2700\text{--}2900\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarish va yoritish samarasini 1,5 baravarga oshirish imkonini beradigan galogen lampalar tatbiq etila boshladi. Galogen lampalar quyidagicha ishlaydi. Lampa kolbasi ichiga inert gazlar bilan birga oz miqdorda galogen (yod, brom yoki ularning birikmaları) bug'lari kiritiladi. Porlagan va lampa kolbasining issiq devorchalariga o'tirgan volfram zarralari yod (yoki brom) bilan reaksiyaga kirishib yodli volfram WJ_2 birikmasini hosil qiladi. Bug' holatidagi birikma lamparning qizib turgan cho'g'lanish tolasiga yaqinlashib, yuqori harorat ta'sirida yana yod va volframga ajraladi. Yod kolbaning gaz bo'shlig'ida qoladi, volfram esa cho'g'lanish tolasiga qayta o'tiradi. Shunday qilib, galogen sikl lamparning cho'g'lanish tolasidan porlagan volframni yana tolaga qaytarishga asoslangan. Lekin, bu galogen lampalar ishlash muddatini oshirmaydi, chunki qaytayotgan

volfram tola yuzi bo'ylab bir tekisda o'tirmaydi, balki sovuqroq (ya'ni, qalinroq) joylariga ko'proq, issiqroq (ya'ni, ingichkaroq) joylariga kamroq o'tiradi.


Galogen siklini amalga oshirish uchun lampa kolbasi devorlari temperaturasi ancha yuqori – 600...700 °C atrofida bo'lishi kerak. Shuning uchun galogen lampalarining kolbalari kvars shishadan tayyorlanib, o'lchamlari kichik bo'ladi. Volfram zarralari imkonli boricha bir tekisda o'tirishi uchun cho'g'lanish tolasining spirali to'g'ri silindr shaklida bo'lishi kerak.

BMT YEIKning 37-raqamli qoidasiga avtomobil faralari uchun ishlab chiqilgan bitta cho'g'lanish tolali H1-H3 turidagi va ikkita tolali H4 galogen lampalar kiritilgan. H1 va H2 lampalarda cho'g'lanish tolasi sokol o'qi bo'ylab, H3 da o'qqa perpendikulyar joylashtirilgan. Maxsus sokol bilan ta'minlangan H4 lampani ham uzoqni yoritish tolasi to'g'ri silindr shaklida bo'lib, optik o'qqa parallel joylashtirilgan. H1 va H3 lampalar tumanga qarshi faralarda, to'rt farali yoritish tizimlarida uzoqni yoritish uchun ishlatiladi. H4 galogen lampa ikki va to'rt farali bosh yoritish sistemalarda keng qo'llaniladi.

MDHda ishlab chiqilgan lampalar quyidagicha belgilanadi. Oddiy lampalar, masalan, A12-45+40 da A harfi lampa turini (ya'ni, avtomobilniki) bildiradi, birinchi raqam (6,12 yoki 24) – nominal kuchlanishni, + belgisi bilan birlashtirilgan ikkinchi va uchinchi raqamlar yaqinini va uzoqni yorituvchi cho'g'lanish tolalarining quvvatini ko'rsatadi. Agar lampa bitta tolali bo'lsa, uchinchi raqam bo'lmaydi. Galogen lampalar uchun A harfidan keyin ikkita harf kiritiladi – K (kvarsli) va Г (galogenli). Masalan, AKГ12-60+55.

O'tgan asrning 90-yillardan boshlab avtomobil faralariga juda samarali yorug'lik manbayi bo'lgan ksenon (gazorazryadli) lampalar o'rnatila boshlandi (5.19-j rasm). Ksenon lampa balloonining hajmi juda kichik (~0,03 sm³) bo'lib, kvars shishadan tayyorlanadi va ichki bo'shlig'i ksenon gazi hamda ba'zi metallarning xloridlari bilan to'ldiriladi. Ballon ichiga ikkita elektrod o'rnatilgan bo'lib ularning orasidagi tirkish 4,2 mm ni tashkil qiladi. Bu elektrodlarga 10 000...200 00 V kuchlanish uzatilganda ular orasidagi tirkishda elektr yoyi hosil bo'ladi. Natijada ballon ichidagi harorat keskin ko'tariladi (~4500 °K), xloridlar porlaydi va lampa ishchi rejimga o'tadi, ya'ni yorug'lik tarqata boshlaydi. Ishchi rejimda elektrolar orasidagi yoyning barqaror ushlab turishi uchun taxminan 100 V kuchlanish yetarli bo'ladi.

Ksenon lampaning yorug'lik oqimi galogen lampaga nisbatan ikki barobar yuqori, iste'mol quvvati esa 1,5–2,0 barobar kam. Bu turdag'i lampalarining yorug'lik spektri quyosh nuriga yaqin bo'lib, inson ko'zini unchalik qamashtirmaydi. Ksenon lampaning ishlash muddati galogen lampaga nisbatan uch barobar yuqori bo'lib, taxminan 1500 soatni tashkil qiladi. Shu bilan birga ksenon lampani me'yorida ishlatish uchun uyuqori kuchlanish impulsini ishlab chiqaruvchi qo'shimcha moslama va elektron boshqarish bloki bilan jihozlangan bo'lishi kerak (5.20-rasm).



5.20-rasm. Elliptik qaytargichli, ksenon lampali va elektron boshqarish blokli yaqinni yoritish farasi:


1 – qabariq linza, 2 – ekran, 3 – qaytargich, 4 – ksenon lampa, 6 – yuqori kuchlanish ishlab beruvchi blok, 7 – elektron boshqarish bloki.

Shu sababli ksenon lampalarining narxi galogen lampalarga nisbatan ancha baland. Avtomobil faralariga D1, D2, D2S turidagi ksenon lampalar o'rnatiladi.

5.8. YORITISH VA YORUG'LIK DARAKCHILARI TIZIMIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Transport vositalarini ekspluatatsiya qilish jarayonida yoritish asbob tavsifnomalari quyidagi sabablarga ko'ra asta-sekin yomonlashadi: vibratsiya yuklamalari ta'sirida faralarning rostlanganligining buzilishi, avtomobil osmasining bikirligining o'zgarishi, yorug'lik manbalarining almashtirilishi, qaytargich va tarqatgichlarning ishchi yuzlari ifloslanishi natijasida yorug'lik-texnik tavsiflarning yomonlashuvi, tarqatgich tashqi yuzining abraziv zarralar ta'sirida yeyllishi, kontaktlarning yemirilishi natijasida tok zanjiridagi kuchlanish pasayishi hisobiga yorug'lik manbalaridan chiqayotgan yorug'lik oqimining kamayishi va hokazo.

Yoritish asboblarining tavsifnomalarini yomonlashuvi yo'l-transport hodisalarining ko'payishiga, avtomobilarning tashish samaradorligini kamayishiga olib keladi va natijada bu, jamiyatga sezilarli darajada ma'naviy va moddiy zarar kelтирishi mumkin. Avtomobil transporti xavfsiz harakatlanshini va samarali ishlashini ta'minlash uchun Davlat standarti tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjalarga ko'ra, yoritish va yorug'lik xabarchilari tizimiga kundalik xizmat ko'rsatish (KXK), TXK-1 va TXK-2 da bajariladigan ishlar hajmi, ularning davriyligi belgilangan. KXK ga odatda, yuvish-yig'ishtirish va nazorat-ko'rikdan o'tkazish ishlari kiradi. TXK-1 ga KXK da bajariladigan ishlarga qo'shimcha faralar to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish va zarurat bo'yicha rostlash, faralar va yorug'lik –



5.21-rasm. Faralarning to'g'ri o'rnatilganligi tekshirish va rostlash uchun mo'ljallangan ekran va maydonchaning belgilanishi

optik asboblar yordamida amalga oshiriladi. Ekran yordamida rostlanganda Amerika yorug'lik taqsimlash tizimidagi faralar uzoqni yoritish yorug'lik dastasi bo'yicha, Yevropa yorug'lik taqsimlash tizimidagi faralar yaqinni yoritish yorug'lik dastasi bo'yicha rostlanadi.

Odatda, ekran vertikal devorga o'ziga xos maxsus chiziqlar chizish bilan belgilanadi (5.21-rasm).

Ekrandagi chiziqlar quyidagicha tavsiflanadi:

- $O-O$ – vertikal o'rta chiziq;
- $Ch-Ch$ va $O'-O$ – $O-O$ chiziqqa parallel bo'lgan undan avtomobil faralari orasidagi masofaning yarmi – α uzunkorda turadigan chap va o'ng chiziqlar;
- $U-U$ – $O-O$ chiziqqa perpendikulyar va nazorat maydonchasi yuzidan, faralarning optik elementi markazi balandligi H ga teng masofada turgan chiziq;

• $Ya-Ya$ – $U-U$ chiziqqa parallel va undan H_{ya} masofa pastroqda turgan chiziq;

H_{ya} masofa faralarning balandligi H va ekrangacha bo'lgan masofa L ga bog'liq ravishda tanlanadi. Faralarning to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish va rostlash uchun avtomobil ekran oldiga L masofaga ($L=5$ yoki 10 m bo'lishi mumkin) joylashtiriladi. Avtomobilning vertikal simmetriya tekisligi, $O-O$ va $O-A$ o'qlar hosil qilgan tekislik bilan mos tushishi kerak. Avtomobil joylashtirilgan maydoncha yetarli darajada tekis va ekran bilan to'g'ri burchak hosil qilishi kerak. Evropa tizimidagi faralar tekshirilganda, yaqin ni yoritish faralari yoqiladi va ularni rostlash yo'li bilan chap gorizontal yorug'lik-soya chegarasining $Ya-Ya$ chizig'i bo'ylab joylashishini, yorug'lik-soya chegarasini yuqoriga ko'tarilgan nuqtasini esa $Ch-Ch$ va $O'-O'$ chiziqlarning $Ya-Ya$ chiziq bilan kesishgan nuqtalari bilan mos tushishi ta'minlanadi.

xabarchi chiroqlar yorug'lik kuchi ni tekshirish, yoritish tizimidagi baracha jihozlarning yaxshi mahkamlanganligini nazorat qilish kabi ishlar amalga oshiriladi. TXK-1 dagi ishlar yoritish jihozlarini avtomobildan yechmasdan bajariladi.

TXK-1 o'tkazilayotganda nisbatan ko'proq uchraydigan nosozlik, faralarning noto'g'ri o'rnatilganligidir. Bu mahkamlanadigan elementlarning bo'shab qolishi, avtomobilning og'irlilik markazini o'zgarishi va uning osmasini elastik qismlarining deformatsiyalanishi sababli yuzaga keladi.

Faralarni rostlash tegishli chiziqlar bilan belgilangan ekran yoki maxsus

optik asboblar yordamida amalga oshiriladi. Ekran yordamida rostlanganda Amerika yorug'lik taqsimlash tizimidagi faralar uzoqni yoritish yorug'lik dastasi bo'yicha, Yevropa yorug'lik taqsimlash tizimidagi faralar yaqin ni yoritish yorug'lik dastasi bo'yicha rostlanadi.

Odatda, ekran vertikal devorga o'ziga xos maxsus chiziqlar chizish bilan bel-

gilanadi (5.21-rasm).

Ekrandagi chiziqlar quyidagicha tavsiflanadi:

• $O-O$ – vertikal o'rta chiziq;

• $Ch-Ch$ va $O'-O$ – $O-O$ chiziqqa parallel bo'lgan undan avtomobil faralari orasidagi masofaning yarmi – α uzunkorda turadigan chap va o'ng chiziqlar;

• $U-U$ – $O-O$ chiziqqa perpendikulyar va nazorat maydonchasi yuzidan, faralarning optik elementi markazi balandligi H ga teng masofada turgan chiziq;

• $Ya-Ya$ – $U-U$ chiziqqa parallel va undan H_{ya} masofa pastroqda turgan chiziq;


H_{ya} masofa faralarning balandligi H va ekrangacha bo'lgan masofa L ga bog'liq ravishda tanlanadi. Faralarning to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish va rostlash uchun avtomobil ekran oldiga L masofaga ($L=5$ yoki 10 m bo'lishi mumkin) joylashtiriladi. Avtomobilning vertikal simmetriya tekisligi, $O-O$ va $O-A$ o'qlar hosil qilgan tekislik bilan mos tushishi kerak. Avtomobil joylashtirilgan maydoncha yetarli darajada tekis va ekran bilan to'g'ri burchak hosil qilishi kerak. Evropa tizimidagi faralar tekshirilganda, yaqin ni yoritish faralari yoqiladi va ularni rostlash yo'li bilan chap gorizontal yorug'lik-soya chegarasining $Ya-Ya$ chizig'i bo'ylab joylashishini, yorug'lik-soya chegarasini yuqoriga ko'tarilgan nuqtasini esa $Ch-Ch$ va $O'-O'$ chiziqlarning $Ya-Ya$ chiziq bilan kesishgan nuqtalari bilan mos tushishi ta'minlanadi.

Amerika tizimidagi faralar tekshirilganda, uzoqni yoritish yorug'lik dastasi hosil qilgan yorug'lik dog'i markazini ushbu markazning ekrandagi nominal o'rni bilan ustima-ust tushishi ta'minlanadi. Faralarni rostlash uchun zarur ma'lumotlar 5.3-jadvalda keltirilgan.

5.3-jadval

Faralarni o'rnatish balandligi H (tar- qatgichlar markazi bo'yicha), mm	Yorug'lik dasta- sining vertikal tekislikdagi og'ish burchagi, min	Fara markazi va ekrandagi yorug'lik- soya chegarasi orasidagi H_{ya} masofa, (mm da). Ecran va fara orasidagi masofa:	
		5 m bo'lganda	10 m bo'lganda
600 gacha	34	50	100
600 dan 700 gacha	45	65	130
700 dan 800 gacha	52	75	150
800 dan 900 gacha	60	88	176
900 dan 1000 gacha	69	100	200
1000 dan 1200 gacha	75	110	220
1200 dan 1600 gacha	100	145	290

Ekran yordamida faralarning to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish va rostlash usuli sodda bo'lishiga qaramasdan bir qator jiddiy kamchiliklarga ega. Xususan, bu usulni qo'llash uchun ancha katta va qorong'ilashtirilgan joy zarur, avtomobilning to'g'ri joylashtirish ancha qiyin, faralarni yorug'lik kuchini o'lhash uchun avtomobil qaytadan joylashtirilishi kerak. Bularning hammasi ma'lum noqulayliklarни keltirib chiqaradi. Shuning uchun oxirgi vaqtida faralarni tekshirish va rostlash uchun yuqoridaagi kamchiliklardan holi bo'lgan optik element-regloskop keng joriy qilinmoqda (5.22-rasm).



5.22-rasm. Regloskop optik kamerasining tuzilishi:

1 – yig'uvchi linza, 2 – ekranni harakatlantirish mexanizmi, 3 – ko'rsatuvchi asbob,
4 – fotopriyomnik, 5 – ekran, 6 – ekrandagi belgi.

Regloskop optik kameraga ega bo'lib, u qisqa masofada (400...500 mm) uzoqni va yaqinni yoritish yorug'lik dastasini shakllantirish, 3...4 m² qorong'ilashtirilmagan maydonda faralarni rostlash va yorug'lik kuchini o'Ichash imkoniyatini beradi. Optik kameraning asosiy elementi fokus masofasi 400...500 mm bo'lgan yig'uvchi linza bo'lib, uning fokal tekisligida ekran 5, fokusida esa ko'rsatuvchi asbob 3 ga ulangan fotopriyomnik 4 joylashtirilgan. Regloskop ekrani standart belgilashga ega va vertikal tekislik bo'yicha harakatlanishi mumkin. Bu turli balandliklarda o'rnatilgan faralarni rostlash imkonini beradi.

Optik kamerani transport vositasiga nisbatan to'g'ri joylashtirish uchun regloskop orientirlash tizimiga ega. Regloskopning orientirlash tizimiga baza bo'lib avtomobilning oldingi yoki orqa g'ildiraklarini yoki kuzovning simmetrik nuqtalarini olish mumkin.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollari

1. Yoritish va yorug'lik xabarchilarining yo'l harakat xavfsizligini ta'minlashda qanday ahamiyati bor?
2. Yoritish tizimlarida yorug'lik taqsimlashning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
3. Yevropa va amerika yorug'lik taqsimlash tizimlarining bir-biridan farqini tushuntiring.
4. Iikki va to'rt farali yoritish tizimlarida yorug'lik taqsimlash qanday amalga oshiriladi?
5. Avtomobil bosh yoritish faralarining tuzilishini o'ziga xos tomonlari nima-dan iborat?
6. Gomofokal faralarning optik tizimining o'ziga xos tomonlarini tushuntiring.
7. Elliptik faralarning optik tizimining o'ziga xos tomonlarini tushuntiring.
8. Tumanga qarshi faralarning tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
9. Avtomobil lampalarining turlari va ularning tuzilishini tushuntiring.
10. Galogen lampalarining tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
11. Ksenon lampalarining tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
12. Yorug'lik manbalarining asosiy tavsifnomalari nimalardan iborat?
13. Yoritish tizimlarini tekshirish va rostlashning qanday usullari mavjud?

6-BOB. AVTOMOBILLARNING ELEKTRON BOSHQARISH TIZIMLARI

6.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

XX asrning oxirida elektronika va mikroprotsessor texnikasining katta sur'atlar bilan rivojlanishi, ularni avtomobilarda keng joriy qilinishiga, xususan dvigatel, transmissiya va qo'shimcha jihozlarning ishini elektron boshqarish tizimlarining (EBT) yaratilishiga olib keldi. Elektron boshqarish tizimlarning qo'llanilishi yonilg'i sarfini va chiqindi gazlarning zaharliligini kamaytirish, dvigatel quvvatini va avtomobil xavfsizlik darajasini oshirish, haydovchining ishlash sharoitlarini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Keyingi yillarda dunyoda sodir bo'layotgan energetik va ekologik tanglik ko'p rivojlangan mamlakatlarda avtomobillar chiqindi gazlarining toksinligini va yonilg'i sarfini chekllovchi me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi elektron boshqarish tizimlarining kengroq qo'llanilishiga kuchli turtki bo'ldi. Chunki, bu me'yoriy hujjatlarga ko'ra, dvigatelning deyarli barcha ish rejimlarida yonilg'i aralashmasi stexiometrik tarkibda ushlab turilishi, majburiy salt ishlash rejimida dvigatela yonilg'i uzatilishining to'xtatilishi, o't oldirish yoki yonilg'i purkash daqiqasining aniq va optimal rostlanishi talab qilinadi. O'tkazilgan ko'p ilmiy tadqiqotlar yuqoridaq talablarni faqat elektron boshqarish tizimlari yordamida amalga oshirish mumkinligini ko'rsatdi.

Dvigatellarning elektron boshqarish tizimlaridan eng keng qo'llanilayotganlari – yonilg'i purkash va o't oldirish (benzinli dvigatellarda) jarayonlarini boshqarishdir. Bu boshqarish tizimlari mustaqil va birgalikda ishlashi mumkin. Zamonaviy benzinli dvigatellarga o'rnatilayotgan elektron boshqarish bloklari yonilg'i purkash jarayonini boshqarish bilan birgalikda o't oldirishni ilgarilatish burchagini belgilash, majburiy salt ishlash ekonomayzери va kondisyoner ishini boshqarish kabi bir qator qo'shimcha vazifalarni ham bajaradi.

Elektron boshqariluvchi antiblokirovkali tormoz tizimi sirpanchiq yo'lda avtomobilning tormozlanish masofasini deyarli ikki marta qisqartiradi va uning yoni bilan surilib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Bu og'ir ob-havo sharoitlarida (yomg'ir, qor, yaxmalak) ko'p yo'l-transport hodisalarining oldini oladi.

Elektron boshqarish tizimi qo'shimcha jihozlardan oynatozalagich, burilish relesi, avtomobil darakchilarining ishini va bosh yoritish faralarning holatini ham boshqaradi.

6.2. BENZINLI DVIGATELLARNI ELEKTRON BOSHQARISH


6.2.1. Majburiy salt ishlash ekonomayzerining elektron boshqarish tizimi (MSIEEBT)

Avtomobil shahar sharoitida harakatlanganda 18-25 % vaqt davomida dvigatel majburiy salt ishlaydi. Masalan, avtomobil dvigatel yordamida tormozlanganda,

uzatma o'zgartirilayotgan vaqtida, avtomobil o'z inersiyasi bilan harakatlanganda va hokazo. Bu hollarda karbyuratorni drossel to'siqchasi to'liq yopiq (yonilg'i uza-tish bosqich to'liq qo'yib yuborilgan), dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi esa salt ishlashdagidan yuqori bo'ladi. Majburiy salt ishlash rejimida dvigateldan quvvat berish talab qilinmaydi, shuning uchun silindrlarga uzatilayotgan yonilg'i foydali ishlatilmaydi va uning yonishi atrof-muhitning yanada ko'proq ifloslanishiga olib keladi.

MSIEEBT dvigatel majburiy salt ishlaganda yonilg'inining uzatilishini to'xtatish uchun xizmat qiladi. Bu tizim joriy qilinishi yonilg'ini 2...3 %ga tejash va chiqindi gazlardagi zaharli moddalarning miqdorini 15...30 %ga kamaytirish imkoniyati beradi.

MSIEEBT quyidagicha ishlaydi (6.1-rasm). Majburiy salt ishlash rejimini aniqlash uchun dvigatel tirsakli valining aylanish chastotasi, karbyurator drossel to'siqchasingin holati datchiklari xizmat qiladi.



6.1-rasm. MSIEEBTning tarkibiy sxemasi

MSIEEBTning ishlashi uchun quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarili-shi kerak:

- dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi ma'lum belgilangan qiymatdan yuqori bo'lishi kerak;
- karbyurator drossel to'siqchasi to'la yopilgan bo'lishi kerak;
- sovitish tizimidagi suyuqlik temperaturasi 65 °C dan yuqori bo'lishi kerak.

Oxirgi shart sovuq dvigatel qizdirilayotganda, uni salt ishlashdagি aylanishlar chastotasi belgilangan qiymatdan baland bo'ladi va bu hol MSIEEBT tomonidan majburiy salt ishlash rejimi sifatida qabul qilinishi va yonilg'i uzatilishining to'xtatib qo'yilishi bilan bog'liq.


Dvigatel tirsakli valining aylanish chastotasi haqidagi signal sifatida o't oldirish g'altagining bilamchi chulg'amidan olingan signal ishlatiladi. Drossel to'siqchasingin holati datchigi sifatida karbyuratorga joylashtirilgan mikro almashlab-ulagich ishlatiladi. Agar drossel to'siqchasi ochiq bo'lsa, almashlab-ulagich kontaktlari tutash, yopiq bo'lsa, uzilgan bo'ladi.

Majburiy salt ishlash rejimi vujudga kelsa, elektron blok elektromagnit klapanga yopilish haqidagi boshqaruv signalini beradi va karbyuratorning salt ishlash tizimi orqali dvigatelga yonilg'i uzatilishi to'xtatiladi. Majburiy salt ishlash rej-

mi tugab, drossel to'siqchasi ochilsa yoki tirsakli valning aylanish chastotasi ortib ma'lum qiymatga yetganda, elektron blok elektromagnit klapanni ochadi va karbyuratorning salt ishslash tizimi orqali yana yonilg'i uzatila boshlaydi.

Majburiy salt ishslash ekonomayzeri elektron boshqarish blokining umumiy sxemasi 6.2-rasmda keltirilgan. Elektron boshqarish bloki ikkita kuchlanish komparatori, teskari aloqa zanjiri va nosimmetrik triggerdan iborat. Blok quyidagi-cha ishlaydi. O't oldirish tizimidagi uzgichdan kelayotgan signal mikrosxema A1 ning kirish qisqichi 4 ga uzatiladi. Mikrosxema A1 ning chiqish joyida (qisqich 3) davomiyligi doimiy bo'lgan impulslar shakllanib, ularni qaytarilish chasto-tasi kirish signalining chastotasiga mos bo'ladi. VT1 va VT2 tranzistorlari kalit vazifasini bajarib, ular A1 mikrosxemaning chiqish joyida impulslar vujudga kelganda, vaqt belgilovchi kondensator C1 ning zaryadsizlanishini ta'minlaydi. Impulslarning vujudga kelishi oraligidagi vaqt davomida kondensator C1-R1 va R2 rezistorlar orqali zaryadlanadi. Kirish signali chastotasi kamayishi bilan C1 kondensatorning zaryadlanishi mumkin bo'lgan kuchlanishning maksimal qiymati ortib boradi.

VT3 va VT4 tranzistorlar chegaraviy element vazifasini bajaradi. Kondensa-tor S1 dagi kuchlanish 8 V dan (tayanch kuchlanish) ortishi bilan bu tranzistorlar ochiladi. Shunday qilib, kirish signal chastotasi ulanish chegarasidan kam bo'lgan-da, kondensator C1 chegaraviy elementning tayanch kuchlanishidan ortiqroq qiymatga ega bo'lgan kuchlanishg acha zaryadlanib ulguradi. Bunda, VT3 va VT4 tranzistorlar ochiladi va mikrosxema A2 orqali VT6 tranzistor bazasiga yuborilgan signal ta'sirida VT6 tranzistor ochiladi. Bu esa, o'z navbatida VT8 tranzistorini ochilishi va shtekker X6 orqali elektromagnit klapan 2 ga kuchlanish uzatilishini



6.2.-rasm. MSIning elektron boshqarish blokining umumiy sxemasi:
A1 va A2 – komparatorlar, S1 – mikro o'chirgich, 1 – o't oldirish g'altagi, 2 – pnevmoklapan, X1, X2, X4, X5, X6 – MSIeni boshqarish blokining chiqish qisqichlari.

ta'minlaydi. Shtekker X5, drossel to'siqchasi holati datchigi C1 kontaktlari orqali, «massa» bilan ulanganda (ya'ni, drossel to'siqchasi yopiq holat), elektromagnit klapanga uzatilayotgan kuchlanish kirish signali chastotasiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Shtekker X5 «massa»dan ajratilsa (ya'ni, drossel to'siqchasi ochilsa), tranzistor VT7 yopiladi, VT5 tranzistor esa ochiladi. Bu chiqish tranzistori VT8 ni ochilishiga va tok manbayi «+» qutbining (kirish signali chastotasidan qat'i nazar) elektromagnit klapaniga ularnishiga va karbyuratorning salt ishlash jiklerining ochilishiga olib keladi.

Shunday qilib, majburiy salt ishlash rejimida, ya'ni tirsakli valning aylanishlar chastotasi, elektron boshqarish blokining komparatorini ishga tushish chegarasidan yuqori bo'lganda elektromagnit klapanga tok kelmaydi va dvigatelga yonilg'i uzatilmaydi. Aylanish chastotasi komPARATORNI ishga tushishi chegarasidan pasayganda elektromagnit klapan ochiladi va dvigatelga yonilg'i uzatilish jarayoni tiklanadi. Agar drossel to'siqchasi ochiq bo'lsa, tirsakli valning aylanish chastotasi qiymatidan qat'i nazar, dvigatelga yonilg'i uzatilishi davom etadi.

Majbuliy salt ishlash rejimida dvigatel silindrlarida havoning keskin siyraklanishi vujudga kelishi sababli moy sarfining ortishi – bu tizimning kamchiligi hisoblanadi.

6.2.2. Benzinli dvigatellarda yonilg'i uza tilishini elektron boshqarish

Hozirgi kunda benzinli dvigatellarda qo'llanilayotgan yonilg'i uza tilishini elektron boshqarishning ikki turi mayjud: elektron boshqariladigan karbyurator va purkash tizimlari. Purkash tizimlari yonilg'ining uza tilish joyiga qarab 3 turga bo'linadi: markaziy bir nuqtali, taqsimlangan ko'p nuqtali va bevosita yonish kamerasinga purkash tizimlari. Yonilg'inini bevosita yonish kamerasinga purkash tizimi, ishlatilishi zarur bo'lgan jihozlarning juda murakkabligi tufayli hozircha ishlatilish darajasi past. Zamonaviy avtomobil dvigatellarida asosan bir nuqtali va taqsimlangan ko'p nuqtali purkash tizimlari ishlatiladi. Har ikkala tizimda ham yonilg'i dvigatel silindrlarining kirish yo'liga purkaladi.

Yonilg'i purkashning elektron boshqarish tizimlari quyidagi prinsip bo'yicha ishlaydi. Elektr yonilg'i nasosi yonilg'ini taqsimlash quvurida taxminan **0,2 MP** bosim bilan o'zgarmas holda ushlab turganligi sababli, silindrarga purkaladigan yonilg'ining miqdori elektromagnit forsunka (injektor)ning ochilib turish vaqtini bilan belgilanadi. Elektron boshqarish tizimi (EBT) injektorlarni ochilib – yopilishining, ya'ni yonilg'ini silindrarga majbuliy purkash impulsining davomiyligini drossel to'siqchasingin ochilish burchagi, tirsakli valning aylanish chastotasi, sovituvchi suyuqlik harorati va kiritish quvuridagi absolut bosimga bog'liq ravishda boshqaradi. Purkalishi zarur bo'lgan yonilg'i miqdori haqidagi ma'lumot ikki raqamli kod ko'rinishida doimiy xotira qurilmasida (DXQ) saqlanadi. Elektron boshqarish bloki datchiklardan kelayotgan ma'lumot asosida, DXQ dan zarur kodni tanlab olib, unga

mos keladigan miqdordagi yonilg'ining dvigatel kiritish klapanlari atrofiga purkashini ta'minlaydi.

Benzinli dvigatellarda yonilg'i purkalishini elektron boshqarish tizimining tarkibiy sxemasi 6.3-rasmda ko'rsatilgan.


Maxovikning tishli g'ildiragining tepasiga joylashtirilgan induktiv datchik dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi haqidagi ma'lumotlarni impuls signal sifatida shakllantiradi. Bu signal analog-raqamli o'zgartirgich (ARO') 4 ga uzatiladi va raqamli kod ko'rinishiga keltiriladi. Drossel to'siqchasing holatini belgilovchi datchik 1 dan kelgan signal ham ARO' 4 yordamida raqamli kodga aylanriladi. Takt generatori 3 ARO' ishlashi uchun zarur bo'lgan doimiy chastotali impulslarini shakllantirib beradi.

Raqamli kod shaklidagi aylanishlar chastotasi va drossel to'siqchasing holati haqidagi signallar EBTning doimiy xotira qurilmasi 5 ga uzatiladi. DXQda dvigatel aylanish chastotasi va drossel to'siqchasing ochilish burchagiga bog'liq ravishda elektromagnit klapan ochilish vaqtini belgilovchi raqamli signal hosil qilinadi va mikroprotsessor 6 ga uzatiladi.

Mikroprotsessor 6 DXQdan kelgan signalning zarur yonilg'i miqdoriga proporsional bo'lgan injektorlarning ochilib turish vaqtining davomiyligi ko'rinishiga o'zgartiradi. Datchik 2 bilan bog'liq bo'lgan sinxronizatsiya moslamasi 10, yonilg'inin dvigatel ish jarayonining tegishli nuqtasida purkalishini ta'minlaydi va kiritish quvurining devorlarida o'tirib qolayotgan yonilg'i zarralarining miqdorni kamaytiradi.

Dvigatelning issiqlik holati va atrof-muhit sharoitlarini hisobga olib injektorlari ochilib turish vaqtiga tuzatish kiritish uchun sovitish suyuqligi harorati 10, absolut bosim 11, so'rilayotgan havo temperaturasi 12 datchiklaridan mikroprotsessorga qo'shimcha ma'lumot uzatadi. Bundan keyin signal quvvat kuchaytirgich 7 da kuchaytiriladi va elektromagnit forsunkalar 8 ga uzatiladi.

Yonilg'i purkashning elektron boshqarish tizimi o't olish va yonish jarayoniga ta'sir qiluvchi ko'p omillarni hisobga oladi va yonilg'i uzatilishini murakkab bog'lanishlar orqali amalga oshiradi. Bu dvigatelning ancha tejamlili ish-



6.3-rasm. Benzinli dvigatellarda yonilg'i purkalishini elektron boshqarish tizimining tarkibiy sxemasi

lashini ta'minlaydi. Shu bilan birga tuzilishining murakkabligi va unga xizmat ko'rsatish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarurligi – bu tizimning kamchiligi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida yonilg'i purkashni boshqarish tizimlarida optimal boshqarish prinsipiiga asoslangan sistemalar keng joriy qilinmoqda. Bu prinsipning mazmuni shundan iboratki, yonilg'i purkash jarayoni mikroprotessor shakllantirayotgan boshqaruvi signalini dvigatelning ekspluatatsion tavsifnomasiga ko'rsatayotgan ta'sirini baholash asosida amalga oshiriladi. Optimallashtiruvchi omillar sifatida, odatda, yonilg'i sarfi, chiqindi gazlarning zaharliligi va dvigatelning tortish tavsifnomalari ishlataladi. Lekin bu parametrlarni bir vaqtning o'zida optimallashtirish imkoniyati yo'q. Shuning uchun dvigatelning maksimal quvvati yonilg'i aralashmasini boyitish, tejamliligi esa uni suyiltirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgandek, zamonaliv benzinli dvigatellarda yonilg'i, silindr larning yonish kamerasiga karbyurator vositasida yoki purkash tizimi yordamida uzatiladi.

Karbyurator yordamida yonilg'i uzatish usuli quyidagi kamchiliklarga ega:

- Kiritish kollektorida turli silindr largacha bo'lgan masofa har xil. Bundan tashqari hatto to'la qizdirilgan dvigatela ham kollektor devorlarining harorati bir xil emasligi aniqlangan. Buning natijasida dvigatelning silindr lariga uzatilgan yonilg'i miqdori bir xil bo'lmaydi. Bu esa dvigatelning quvvatini oxirigacha avj oldira olmasligi, tirsaklı valdagı burovchi momentning ravon bo'lmasisligi, dvigatel tejamkorligining pasayishi, chiqindi gazzardagi zaharli moddalarning ortishiga olib keladi.

- Karbyuratorpulverizator prinsipi bo'yicha ishlaydi, ya'ni yonilg'i so'rileyotgan havo oqimi ichida mayda zarrachalarga aylantiriladi. Bunda: yonilg'i yaxshi parchalanimaydi va benzinning nisbatan yirik ($100\text{--}120 \text{ mkm}$) tomchilari hosil bo'ladi. Bu havo va benzinning yaxshi aralashmasligiga, bir qism yonilg'ini kollektor va silindr devorlarida qolib ketishiga olib keladi. Bu ham albatta dvigatelning tejamkorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yonilg'i purkash tizimi ishlatilganda esa, ya'ni injektorning kalibrlangan teshididan yonilg'i majburiy bosim ostida purkalganda yonilg'i tomchilari ancha kichik bo'ladi (markaziy forsunkadan $1,1 \text{ bar}$ bosim bilan purkalganda, yonilg'i tomchisining diametri $50\text{...}60 \text{ mkm}$ dan oshmaydi). Ayniqsa, benzinning kattaroq bosim ostida tor dasta shaklida purkalishi yaxshi natija beradi (yopiq turdag'i forsunkadan $5,2 \text{ bar}$ bosim bilan purkalgan yonilg'i tomchisining o'lchами $20\text{--}30 \text{ mkm}$ doirasida bo'ladi).

Purkalgan yonilg'i tomchilari diametri $10\text{--}15 \text{ mkm}$ doirasida bo'lsa, benzinni havo bilan aralashishi molekulalar darajada sodir bo'ladi. Bunday aralashmaning dvigatelning barcha ish rejimlarida silindr larga uzatilayotgan (ya'ni, purkalanayotgan) miqdorini juda katta aniqlik bilan ulushlash mumkin. Bu esa

o‘z navbatida ichki yonuv dvigatellarining tejamkorligini oshirish, barcha aylanishlar chastotasida burovchi momentning barqarorligini ta’minalash, quvvatini oshirish, chiqindi gazlardagi kanserogen (zaharli) moddalar miqdorini kamaytirish imkonini beradi.

Yonilg‘i purkash tizimi birinchi bor Mersedes firmasi tomonidan 1949-yili Mersedes S300 belgili avtomobil dvigateliga qo‘yilgan. O‘tkazilgan sinovlar bu tizimni karbyuratorдан barcha asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha mutlaq ustunligini ko‘rsatdi. Shundan keyin, yonilg‘i purkash tizimini ishlab chiqarish va takomillash tirish yo‘nalishida dunyoning juda ko‘p mashhur firmalari shug‘ullana boshladilar va o‘zlarining turli konstruksiyalarini taklif qildilar. Ular orasida tannarxi va ishonchliligi bo‘yicha eng muvaffaqiyatli deb tan olingani *BOSCH* (Germaniya) firmasining 1951-yilda taqdim etgan *K-Jetronic* mexanik uzlusiz purkash tizimi bo‘ldi.

K-Jetronic tizimining nomi uchta so‘zni qisqartirish natijasida yuzaga kelgan. *K* – nemischa *kontinuerlich* (uzluksiz) so‘zidan, *Jet* – ingilizcha *oqim* so‘zidan olingan bo‘lib, *ronic* – zamonaviy texnik atamalarning an‘anaviy yakuni sifatida qabul qilingan.

Keyinchalik «*K*» guruhiga dunyoning boshqa davlatlarida ishlab chiqilgan mexanik uzlusiz purkash tizimlar ham kiritiladigan bo‘ldi.

BOSCH firmasining ma’lumotiga ko‘ra 1951-yildan 1989-yilgacha mexanik yonilg‘i purkash tizimi dunyoda 50 min dan ortiq avtomobillarga o‘rnatalgan. Sobiq Ittifoq hududida, jumladan, O‘zbekistonda ham hozirgi kunda 200 000 ga yaqin mexanik purkash tizimi bilan jihozlangan avtomobillar ishlatilmoqda.

Zamonaviy avtomobillarda yonilg‘i purkash tizimi bilan jihozlangan benzинli dvigatellar tobora keng qo‘llanilmoqda.

Ishlash prinsipiغا ko‘ra yonilg‘i purkash tizimlarini quyidagi 5 ta asosiy guruha bo‘lish mumkin: «*K*», «*Mono*», «*L*», «*M*», «*D*».

- «*K*» guruhiga ko‘p nuqtali, mexanik uzlusiz yonilg‘i purkash tizimlari kiradi (*K-Jetronic*, *KE-Jetronic*. Bu tizimlar 1989 yilgacha chiqarilgan).

- «*Mono*» guruhi markaziy (bir nuqtali), impulsli elektron bloki yordamida boshqariladigan purkash tizimlaridan tashkil topgan (*Mono-Jetronic*, *Opel-Multik*, *G-Motors*, *BA3*).

- «*L*» guruhiga elektron blok yordamida boshqariladigan, ko‘p nuqtali, impulsli yonilg‘i purkash tizimlari kirib, ular zamonaviy avtomobillarda keng qo‘llanilmoqda (*L-Jetronic*, *LE-Jetronic*, *LH-Jetronic*, *BA3*).

- «*M*» guruhi dvigateli avtomatik boshqarish elektron tizimi tarkibidagi «*L*» yoki «*M*» guruhining yonilg‘i purkash tizimi. Bu guruhgа kirgan tizimlarda yonilg‘i purkash va o‘t oldirish jarayonlari birgalikda boshqariladi. (*Motronic*, *L-Motronic*, *Mono-Motronic*, *Fenix*, *Mukac*, *BA3*).


- «*D*» guruhi bortdagи markaziy kompyuterdan boshqariladigan va yonilg‘ini impulsli usulda har bir silindrning *bevosita* yonish kamerasiga purkash tizimi. Bu

istiqbolli tizim bo'lib, u o'rnatilgan dvigatellar o'ta yuqori tejamli ishlaydi. Lekin tizim elementlari konstruksiyasining juda murakkabligi va hozircha narxining ancha balandligi, uni keng joriy qilinishiga to'sqinlik qilmoqda (*Toyota*, 2000-yildan).

«K-Jetronic» yonilg'i purkash tizimi. *BOSCH* firmasining K-Jetronic purkash tizimi yonilg'ini uzlusiz purkovchi mexanik tizim bo'lib, u AUDI-80 va -100; BMW-320i va 520i; Mersedes-Benz-450 va boshqa rusumdag'i avtomobillarga o'rnatilgan. Yonilg'i bosim ostida kiritish kollektoridagi kiritish klapnları oldida joylashgan forsunkalarga uzatiladi. Forsunka yonilg'i bosimining ta'sirida ochiladi va uni uzlusiz ravishda purkab turadi. Yonilg'i bosimi motorning yuklamasi va sovitish tizimi haroratiga bog'liq bo'ladi.

K-Jetronic tizimining asosiy elementlaridan biri me'yorlagich-taqsimlagichdir. U silindriga kiritilayotgan havo miqdori va boshqaruvchi bosim qiymatiga ko'ra purkalishi lozim bo'lgan yonilg'i miqdorini belgilaydi.

K-Jetronic tizimi quyidagicha ishlaydi (6.4-rasm). Yonilg'i nasosi 2 bak 1 dan yonilg'i to'plagich 3 va tozalagich 4 orqali benzinni ~0,5 MPa bosim ostida me'yorlagich-taqsimlagich 6 ning A kamerasiga uzatadi. Purkalayotgan yonilg'i va kiritilayotgan havo miqdorlari orasidagi talab qilinadigan 1 : 14.7 nisbatni ta'minlash uchun bosim diskii 5 dan iborat havo o'chagich va yonilg'ini me'yorlagich-taqsimlagichi 6 dan foydalilanadi.




6.4-rasm. K-Jetronic yonilg'ini mexanik uzlusiz purkash tizimi

Havo o'lchagich (6.5-rasm) yuqori aniqlik bilan tayyorlangan mexanizm bo'lib, uning juda ham yengil qilib tayyorlangan bosim diskiga (qalinligi 1 mm, diametri 100 mm) maxsus pishangga o'rnatiladi. Pishangning aylanish o'qi zoldirli podship-nikli tayanchga ega bo'lganligi sababli bosim diskiga havo sarfini o'zgarishiga juda «sezgir» bo'ladi. Bosim diskiga 5 pishangining aylanish o'qiga rolikli ikkinchi pishang mahkamlangan. Rolik bevosita me'yorlagich-taqsimlagich plunjeringining pastki uchiga tiralib turadi. Demak, bosim diskining harakati taqsimlagich plunjeringining harakatlanishiga olib keladi. Havo sarfi bilan benzin sarfini chiziqli bog'lani-shini ta'minlash maqsadida me'yorlagich-taqsimlagichda differensial klapanlar tizimi ishlataligan. Bu ishchi aralashmadagi havo-benzin tarkibini stexiometrik nisbatda, ya'ni 14,7:1 da bo'lishini ta'minlaydi.

Lekin IYODlar boshqa, hususan sovuq motorni ishga tushirish, salt ishlash, qisman va to'la yuklama bilan ishlash rejimlariga ham moslashgan bo'lishi kerak. Bu rejimlarda ishchi aralashmani boyitish yoki suyultirish zarur bo'ladi. Ishchi aralashmaning tarkibini motorning ish rejimiga moslash maqsadida plunjerning yuqori tomonidan taqsimlagichga «C» kanali orqali boshqaruvchi bosim uzatiladi. Bu bosim motorning ish rejimiga bog'liq bo'lib, uning qiymatini boshqaruvchi bosim rostlagichi 7 belgilaydi.*


Elektr benzonasos 2 motor tirsakli valining aylanishlar chastotasiga bog'liq bo'Imagan holda ishlaydi. U o't oldirish kaliti ulangan va tirsakli val aylanayotgan hollarda ishga tushadi. Nasosning bosim bo'yicha ikki karra, uzatish bo'yicha esa o'n karra zaxiraga ega bo'lganligi sababli, purkash tizimiga bosim rostlagichi o'rnatiladi. Bu rostlagich 4 me'yorlagich-taqsimlagich ichiga joylashtirilib, u «A» (yonilg'i uzatish) va «B» (ortiqcha yonilg'inibakga qaytarish) kanallari bilan tut-ashtirilgan.

Motorni ishga tushirish vaqtida benzonasos 8 purkash tizimida yonilg'i bosimini hosil qiladi. Agar motor sovuq bo'lsa (harorati 35 °C dan past), elektromagnit boshqaruvga ega bo'lgan ishga tushirish forsunkasi 11 ma'lum vaqt davomida kiritish kollektoriga qo'shimcha yonilg'l purkaydi. Ishga tushirish forsunkasining ishlash vaqtiga motorning haroratiga ko'ra termorele 12 tomonidan belgilanaadi. Sovuq motorning salt ishlash rejimida aylanishlar chastotasini oshirish uchun klapan 10 orqali motorga qo'shimcha havo uzatiladi. Sovuq motorni ishga tushirish



6.5-rasm. Havo o'lchagich:

- a) ishlamayotgan hol; b) havo sarfi mavjud bo'lgan hol; 1 – bosim diskiga.



6.6-rasm. Me'yorlagich-taqsimlagich:

1 – yonilg'i uzatish kanali; 2, 7 – differensial klapanning mos ravishda yuqori va pastki kameralari; 3 – plunjer; 4 – klapan prujinasi; 5 – klapan diafragmasi; 6 – gilza.

harakatlanadi. Bu juftlikdagi zichlik minimal tirkish va ishqalanuvchi yuzalarning tozaligi hisobiga ta'minlanadi.

Plunjerga pastdan bosim diskining pishangi, yuqoridan esa – boshqaruvchi bosim ta'sir qiladi. Taqsimlagich va chiqish kanallari **E** orasiga differensial klapalar joylashtirilgan. Differensial klapalar, yuqorida ta'kidlangandek, plunjer harakati bilan forsunkalarga uzatilayotgan yonilg'i sarfi orasida chiziqli bog'lanishni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Differensial klapan pastki 7 va yuqori 2 kameralardan iborat bo'lib, ular po'lat diafragma 5 bilan ajratilgan. Differensial klapalarning pastki kameralarining hammasi halqali kanal vositasi bilan tutashtirilgan va ishchi bosim ostida bo'ladi. Po'lat diafragmaga pastki tomonidan yonilg'ining ishchi bosimi ta'sir qilsa, yuqoridan prujina 4 bosib turadi.

Plunjer tirkishlari orqali differensial klapanning yuqori kamerasiga yonilg'i uzatilganda, prujina 4 ning bosim kuchiga yonilg'i bosimi qo'shiladi va diafragma 5 pastga egilib, yonilg'inini **E** kanaliga o'tish tirkishini kattalashtiradi (6.7-rasm).

Yuqori kameralagi yonilg'i bosimi pasayadi, diafragma bir munchato'g'rilanadi va natijada dinamik muvozanat, ya'ni plunjer harakati bilan forsunkalarga uzatilayotgan yonilg'i orasidagi ta'minlashishi zarur bo'lgan chiziqli bog'lanish yuzaga keladi.


Yonilg'i bosimi rostlagichi purkash tizimidagi yonilg'i bosimining qiymatini o'zgarmas holda ushlab turadi. Bosim belgilangan qiymatdan ortishi bilan porshen prujinani siqib o'ng tomoniga harakatlanadi va ortiqcha yonilg'inini **B** kanal orqali bakka qaytarilishiga imkon beradi.

va uni qizdirish jarayonida ishchi aralashmani boyitish boshqaruvchi bosim rostlagichi 7 tomonidan taqsimlagich plunjeri ustidagi bosimning kamaytirilishi va plunjerning ko'proq ko'tarilish hisobiga amalga oshiriladi.

Motor harorati 35 °C dan oshgandan keyin termorele 12 ishga tushirish forsunkasi 11 o'chiradi va motorga yonilg'i ishchi forsunkalar orqali uzatiladi.

Me'yorlagich-taqsimlagich benzona-sosdan **A** kanali orqali kirgan yonilg'inini motorning ish rejimiga ko'ra me'yorlaydi va **E** kanali orqali silindr forsunkalariga (injektorlari) taqsimlaydi.

Taqsimlagich plunjeri 3 (6.6-rasm) ning holati bosim diskining harakati bilan bog'liq. Plunjer 3 tirkishli gilza 6 da harakatlanadi. Bu juftlikdagi zichlik minimal tirkish va ishqalanuvchi yuzalarning tozaligi hisobiga ta'minlanadi.




6.7-rasm. Forsunkalarga uzatilayotgan yonilg'i ulushiga ko'ra differentsiyal klapanning holati:

a) yonilg'i ulushi kichik bo'lganda; b) yonilg'i ulushi katta bo'lgannda.

Boshqaruvchi bosimning rostagichchi (6.8-rasm) boshqaruvchi bosimni asosan sovuq motorni ishga tushirish va qizdirishda, salt va to'la yuklamalar bilan ishlaganda o'zgartiradi.

Rostlagich yuqori 2 va pastki 4 diafragmalariga ega. Yuqori diafragma 2 ning o'rta qismida yonilg'ini qaytarish kanalni **B** berkitishi mumkin bo'lgan klapan 3 o'rnatilgan. Bu kanal ochiq bo'lganda yonilg'i bosim rostagichchi orqali bakga qaytariladi.

Bimetall plastinali prujina 1 motor harorati $35\text{--}40\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan kam bo'lganda diafragma 2 ni pastga egadi va diafragma ustidagi ikkita kanalni bir-biri bilan tutashtiradi. Bu jarayonda pastki diafragma 4 ning ikkita silindrishimon prujinasi siqiladi. Boshqaruvchi bosim rostagichchi silindrlar blokida maxsus tayyorlangan maydonchaga o'rnatiladi va uning ta'sirida isiydi. Bundan tashqari bimetall prujina 1 ga elektr isitgich ham o'ralgan. Bu yonilg'inining boyitilish jarayonini to'xtatishni tezlatish uchun zarur.



6.8-rasm. Boshqaruvchi bosim rostagichi

Motorni ishga tushirish va qizdirish vaqtida rostlagich quyidagicha ishlaydi: prujina 1 diafragma 2 ni pastga egadi va ikkita kanalni tutashtiradi. Bu holda boshqaruvchi bosim qiymati kichik bo'ladi va taqsimlagich plunjeri tepaga ko'tariladi – ishchi aralashma boyitiladi. Motor harorati ko'tarilgan sari issiq ta'sirida bimetall plastina 1 yuqoriga ko'tarilib diafragma 2 ning egilish darajasini kamaytira boshlaydi. Motor harorati 35–40 °C ga yetganda, plastina 1 diafragma 2 ni to'la qo'yib yuboradi va klapan 3 qaytarish kanalini bekitadi.

Pastki diafragmaning holati kanal rostlagichning yuqori bo'shlig'iga dvigatel drossel to'siqchasing pastidan uzatiladigan siyraklashishga va diafragma 4 ning tagidagi bo'shliqqa ulangan atmosfera bosimiga bog'liq. Motor salt yoki qisman yuklamada ishlaganda drossel to'siqcha qisman berkitilgan bo'ladi va undan keyingi bo'shliqda ma'lum siyraklanish yuzaga keladi. Natijada pastki diafragma atmosfera bosimi ta'sirida ichki prujinani siqib yuqori tirkakka qadaladi. Yuqori diafragma klapan 3 ni berkitadi. Boqaruvchi bosim ortadi, ishchi aralashma suyultilradi.

Motor to'la yuklama bilan ishlay boshlaganda drossel to'siqcha to'la ochiq bo'ladi va undan keyingi bo'shliqda siyraklashish kamayadi, ya'ni bosim ortadi. Pastki diafragma pastki chekka holatgacha egilib, ichki prujinani siqish kuchini keskin kamaytiradi. Natijada yuqori diafragma pastga egilib klapan 3 ni ochadi. Boshqaruvchi bosim kamayadi, ishchi aralashma boyitiladi.

«KE-Jetronic» yonilg'i purkash tizimi. Avtomobil dvigatellarida yonilg'i purkash jarayonini avtomatik elektron boshqarish birinchi bor KE-Jetronic tizimi yordamida amalga oshirildi. Bu tizim Audi-80 va 100, Ford Escort, Mercedes-Benz-190 va boshqa avtomobillarga o'rnatilgan.

KE-Jetronic tizimida K-Jetronic tizimida kabi yonilg'i uzlusiz mexanik purkash yo'li bilan, ya'ni yopiq turdag'i gidromexanik forsunka orqali amalga oshirilsa, yonilg'i-havo aralashmasining sifati elektron boshqariladi. Shuning uchun yonilg'i-havo aralashmasining sifati elektron boshqarish tizimi bilan takomillashtirilgan K-Jetronic tizimi KE-Jetronic nomi bilan yuritila boshlandi (*E – elektronic* so'zidan).

Yonilg'i-havo aralashmasining elektron boshqarilishini ta'minlash maqsadida KE-Jetronic tizimi tarkibiga to'rtta yangi moslama kiritilgan:

- Boshqaruvchi bosimning elektrogidravlik rostlagichi;
- Membranali bosim rostlagichi;
- Potensiometrli datchik bilan ta'minlangan havo o'lchagich;
- Elektron boshqarish bloki (EBB)

Bimetallik plastinali boshqaruvchi bosim rostlagichi KE-Jetronic tizimidan chiqarib tashlangan, me'yorlagich-taqsimlagich esa o'zgacha tuzilishga ega.

Avtomobil dvigatelinining turiga ko'ra EBBga kirish datchiklarining soni 4 dan 11 gacha bo'lishi mumkin. Masalan, Audi-80 avtomobil dvigatellariga o'rnatishga mo'ljallangan KE-III-Jetronic tizimida bunday datchiklarning soni 10

ta: dvigatelning harorati datchigi, drossel to'siqchasing holati datchigi, dengiz sathidan balandlik datchigi, dvigatelning yuklama datchigi (bosim diskining hолати бо'йича), aylanishlar chastotasi datchigi, hisob boshi datchigi, kislorod konentratsiyasi datchigi (λ -zond), avtomatik uzatish qutisining ulanish datchigi, salt ish-lash datchigi, konditsionerni ularash datchigi.

Bu datchiklar EBB va me'yorlagich-taqsimlagich bilan birgalikda mexanik yonilg'i purkash tizimida yonilg'i va havoning zarur darajada aralashishini ta'minlaydi.

KE-Jetronic tizimida yonilg'i-havo aralashmasini tayyorlash va uning miqdorini boshqarish *K-Jetronic* tizimidagi kabi amalga oshirilsa, uning sifati boshqaruvchi bosimning elektrogidravlik rostagichi (BBEGR) orqali avtomatik tarzda boshqariladi. BBEGR me'yorlagich-taqsimlagichning ichiga joylashtirilgan bo'lib, uning yonilg'i o'tkazish darajasi elektromagnit boshqariladigan jiklerli klapanlarning holatiga bog'liq.


Yonilg'i bosim ostida kiritish klapanlari oldiga o'rnatilgan forsunka 11 ga uzatiladi. Forsunka uzlusiz ravishda yonilg'i ini purkab turadi. Purkalanayotgan yonilg'i miqdori IYOD yuklamasiga bog'liq bo'lган bosim kattaligiga va sovitish suyuqligining haroratiga bog'liq bo'ladi. Zarur yonilg'i miqdorini rostagashni havo o'lchagich 6 va boshqaruvchi bosimni elektrogidravlik rostagichi 8 tomonidan boshqariladigan me'yorlagich-taqsimlagich 7 amalgaga oshiradi. BBEGR esa o'z navbatida IYODning sovitish suyuqligi harorati datchigi 13, drossel to'siqchasi holati datchigi 14 tirsakli valning aylanish chastotasi datchigidan (rasmida ko'rsatilmagan) kelayotgan ma'lumotlarga ko'ra EBB 15 tomonidan boshqariladi.

KE-Jetronic tizimi quyidagicha ishlaydi. (6.9-rasm). Elektronasos 2 yonilg'i ini bak 1 dan olib yonilg'i tozalagich 3 va yonilg'i to'plagich 4 orqali bosim ostida me'yorlagich-taqsimlagich 7 ga uzatadi. Yonilg'i bosim ostida me'yorlagich-taqsimlagich differensial klapanlarining yuqori kameralariga keladi. Bu kameralardagi yonilg'i bosimi me'yorlagich-taqsimlagich plunjeringining holatiga ko'ra bosim rostagichi 5 tomonidan o'zgartirilib turadi.

Ishchi forsunkalar 11 ga uzatilayotgan yonilg'i miqdori, boshqaruvchi bosim ta'sirida forsunkalarga uzatish quvur teshiklariga qadaladigan differensial klapanning diafragmasi yordamida rostlanadi.

K-Jetronic tizimidan farqli o'laroq, *KE-Jetronic* tizimida taqsimlagich plunjeringining yuqori tomoniga boshqaruvchi bosim uzatilmaydi. Yuqorida ko'rsatilgan-dek, boshqaruvchi bosim rostagichi 8 elektr klapan bo'lib, u EBB tomonidan boshqariladi.

Dvigatel to'la yuklama bilan ishlaganda drossel to'siqchasi holati datchigida hosil bo'lган signal EBBga uzatiladi. EBB me'yorlagich taqsimlagichning boshqaruvchi bosim rostagichi orqali yonilg'i tarkibini boyitadi.



6.9-rasm. KE-Jetronic yonilg'ini mexanik uzluksiz purkash tizimi:

1 – yonilg'i baki, 2 – yonilg'i nasosi, 3 – yonilg'i filtri, 4 – yonilg'i to‘plagich, 5 – tizimdag'i yonilg'i bosimining rostlagichi, 6 – xavo o'lchagich, 7 – me'yorlagich-taqsimlagich, 8 – boshqaruvchi bosimning elektrogidravlik rostlagichi, 9 – qo'shimcha havo uzatish klapani, 10 – ishga tushiruvchi elektromagnit forsunka, 11 – forsunka (injektor), 12 – termorele, 13 – sovitish suyuqligining harorati datchigi, 14 – drossel to‘sinqchasi holati datchigi, 15 – elektron boshqarish bloki. Kanallar: A – yonilg'ining benzobakdan uzatish kanali, B – yonilg'ining benzobakka qaytish kanali, C – boshqaruvchi bosim kanali (me'yorlagich-taqsimlagich ichida). D – bosim rostlagichi kanali, E – yonilg'ini forsunkalarga uzatish kanali, F – yonilg'ini ishga tushirish elektromagnit forsunkaga uzatish kanali.

Salt yurish tizimini tuzilishi va ishlashi *K-Jetronic* tizimiga o‘xshash. Drossel to‘sinqchasisiga parallel ravishda yana ikkita havo kanalchalari o’tkazilgan. Bittasiga motorni salt yurishidagi aylanishlar chastotasini rostlovchi konussimon vint (miqdoriy vint) o’rnatilgan. Bu vint yordamida havo o'lchagichning bosim diski ostida minimal siyraklanish yuzaga keltiriladi va motorning salt yurish rejimida barqaror ishlab turishi ta’minlanadi. Qo’shimcha havo uzatish klapani 9 sovuq motorni ishga tushirish va qizdirish jarayonida xuddi *K-Jetronic* tizimidagidek ishlaydi.

Sovuq dvigatelni ishga tushirish. Sovuq dvigatelni ishga tushirishda elektronasos 2 bir lahzada yonilg'i uzatish tizimida zarur bosimni yuzaga keltiradi. Sovitish suyuqligining haroratga ko‘ra ishga tushirish forsunkasi 10 ma’lum vaqt davomida yonilg'ini kiritish kollektoridagi mikser (alarashtirgish) doirasiga purkab, ishchi aralashmani zarur darajada boyitilishini va motorning ishonchli ishga tushiri-


lishini ta'minlaydi. Ishga tushirish forsunkasining ishlab turish vaqtiga termorele 12 tomonidan belgilanadi. Klapan 9 orqali kiritish kollektoriga qo'shimcha havo uzatiladi va dvigatelni qizdirish vaqtida aylanishlar chastotasining yuqoriroq bo'lishini ta'minlaydi.

Sovuq dvigatelni ishlash jarayonida aralashmani boyitish boshqaruvchi bosim rostlagich 8 tomonidan amalga oshiriladi. Temperatura datchigi 13 dan kelgan ma'lumot asosida elektron boshqarish bloki 15 rostlagich bimetall plastinasini o'ng tomonga egib, differensial klapanlarning pastki kamerasidagi bosimni kamaytiradi. Aralashmani boyitish jarayoni sovitish suyuqligi harorati datchigi 13 signali bo'yicha to'xtatiladi.

KE-Jetronic tizimining K-Jetronic tizimidan asosiy farqi – boshqaruvchi bosim rostlagichi 1 silindrlar blokiga o'rnatilmaydi, balki bevosita taqsimlagich-me'yorlagichning ichiga joylashtiriladi (6.10-rasm).


Boshqaruvchi bosim taqsimlagich plunjeringining tepasidan emas, balki differensial klapanning pastki kamerasidan uzatiladi. Differensial klapanlarning yuqori kameralari va plunjerning tepasi ishchi bosim (ya'ni, benzonasos bosimi) ostida bo'ladi.

Tizimdagi yonilg'i bosimining rostlagichi 7 nafaqat tizimdagi bosimning o'zgarish doirasini belgilaydi, balki differensial klapanlar 4 ning yuqori va pastki kameralaridagi bosim farqini ham boshqaradi.



6.10-rasm. KE-Jetronic yonilg'i purkash tizimining me'yorlagich-taqsimlagichi va bosim rostlagichi:

1 – elektrodravlik bosim rostlagichi, 2 – klapan chulg'ami, 3 – elektroklapanning bimetall plastinasi, 4 – differensial klapan, 5 – taqsimlagich gilzasi, 6 – taqsimlagich plunjeri, 7 – tizimdagi yonilg'i bosimining rostlagichi. Kanallar: A – yonilg'i uzatish (tizim bosimi); B – yonilg'ini bakga qaytarish; C – boshqaruvchi bosim kanali; D – yonilg'i bosimini rostlash kanali; E – yonilg'ini purkash forsunkalariga uzatish kanali; F – yonilg'ini ishga tushirish forsunkasiga uzatish kanali.



6.11-rasm. KE-Jetronic tiziminining me'yorlagich-taqsimlagichining ishlash rejimlari:

a – dvigatelning barqaror ishlashi ($n = \text{const}$), b – tirsakli val aylanishlar chasteotasining pasayishi, c – sovuq dvigatelni ishgaga tushirish, tirsakli val aylanishlar chasteotasining ortishi.

Boshqaruvchi bosimning elektrogidravlik rostlagichi dvigatelning ish rejimiiga ko'ra elektron boshqarish blokining signallari asosida differensial klapanlarning pastki kamerasidagi bosimni o'zgartirib turadi. Natijada, ishchi forsunkalar tomonidan purkalanayotgan yonilg'i ulushi o'zgaradi.

Bosh me'ylash tizimi ishlaganda bimetall plastina holati o'zgaradi (6.11-rasm). Tirsakli val aylanishlar chasteotasi oshganda plastinaning yuqori uchi o'ng tomonga egiladi (6.11- c rasm) va yonilg'i keladigan kanal teshigini qiya berkitadi, natijada tizimdag'i yonilg'i bosimi ta'sirida diafragma pastga ko'proq egiladi – forsunkalarga yuborilayotgan yonilg'i miqdori ortadi.


Tirsakli valning aylanish chasteotasi kamayganda, plastinaning yuqori uchi chap tomonga egilib (7.11- b rasm), yonilg'i keladigan kanal teshigini kattaroq ochadi, diafragmaning pastki qismidagi bosim ortadi va uzatish kanaliga qadalib, uzatilayotgan yonilg'i miqdori kamaytiriladi. Dvigatel ravon ishlaganda (ya'ni tirsakli valning aylanish chasteotasi o'zgarmas bo'lganda), plastina tik holda bo'iadi va uzatilayotgan yonilg'i miqdori faqat me'yorlagich-taqsimlagich plunjeringining holati bilan belgilanadi.

Havo bosimi diskining potensiometri va drossel to'siqchasining holati datchigi dvigatelning joriy yuklamasi va drossel to'siqchasining harakati to'g'risidagi ma'lumotni EBB ga uzatib turadi.

«L-Jetronic» yonilg'i purkash tizimi. «L-Jetronic» – bu elektron blok yordamida boshqariladigan, ko'p nuqtali, taqsimlangan yonilg'i uzib-uzib purkaladigan tizimdir. Bu tizimning K-Jetronic va KE-Jetronic tizimlaridan asosiy farqi unda me'yorlovchi-taqsimlagich va boshqaruvchi bosim rostlagichining yo'qligidir. Hamma forsunkalar (ishchi va ishgaga tushiruvchi) elektromagnit boshqaruvli. Shuning uchun «L-Jetronic» tizimdag'i yonilg'i bosimi mexanik purkash tizimlarda giga nisbatan ikki marta kam bo'ladi. Me'yorlagich-taqsimlagich yo'q bo'lganligi sababli havo o'chagichlarda ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

«L-Jetronic» – bu dvigatelni tejamkorligini ancha oshiruvchi, chiqindi gazlari zaharli moddalarni kamaytiruvchi va avtomobilning umumiy dinamikasini yaxshilovchi ancha takomillashtirilgan tizimdir.

«L-Jetronic» yonilg'i purkash tizimi quyidagicha ishlaydi: elektr benzin nasi 2 yonilg'ini bak 1 dan olib (6.12-rasm) yonilg'i tozalagich 3 orqali $\sim 0,25 \text{ MPa}$ bosim bilan taqsimlagich quvuri 4 ga uzatadi. Taqsimlagich quvuri maxsus shlanglar yordamida ishchi forsunkalar 9 bilan tutashtirilgan. Taqsimlagich quvurining ikkinchi uchiga joylashtirilgan bosim rostlagichi 5 tizimdagи yonilg'i bosimini belgilangan qiymat darajasida ushlab turish va ortiqcha yonilg'ini bak 1 ga qaytarish uchun xizmat qiladi. Shu tarzda yonilg'ining uzlusiz aylanib turishi va tizimda bug' tiqinlari hosil bo'lmasligi ta'minlanadi.



6.12-rasm. «L-Jetronic» yonilg'i purkash tizimining tarkibiy sxemasi:

- 1 – yonilg'i baki;
- 2 – yonilg'i nasi;
- 3 – yonilg'ini mayin tozalash filtri;
- 4 – taqsimlash quvuri;
- 5 – yonilg'i bosimining rostlagichi;
- 6 – ishchi forsunka (injektor);
- 7 – ishga tushirish forsunkasi;
- 8 – salt yurishda aralashmaning miqdor vinti;
- 9 – drossel to'siqchasi;
- 10 – drossel to'siqchasing holati datchigi;
- 11 – qo'shimcha havo klapani;
- 12 – havo o'chagich;
- 13 – salt yurishda aralashmaning sifat (tarkib) vinti;
- 14 – termorele;
- 15 – sovitish suyuqligi harorati datchigi;
- 16 – datchik-taqsimlagich;
- 17 – akkumulatorlar batareyasi;
- 18 – o't oldirish kaliti;
- 19 – relelar bloki;
- 20 – elektron boshqarish bloki.

Purkalanayotgan yonilg'i miqdori elektron boshqarish bloki 7 tomonidan silindrlerlarga kiritilayotgan havo hajmi, bosimi va harorati, shuningdek tirsakli valning aylanishlar chastotasi, dvigatel yuklamasi va sovitish suyuqligi haroratini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Silindrlerlarga kiritilayotgan havoning hajmi yonilg'i me'yorini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Havo hajmi potensiometrli havo o'chagich yordamida aniqlanadi. Kirib kelayotgan havo oqimi havo o'chagichning o'chov to'siqchasini ma'lum burchakka buradi va bu burlish burchagi potensiometr yordamida elektr kuchlanish ko'rinishiga keltiriladi. Bu elektr signal asosida EBB dvigatelning shu ish rejimiga mos keluvchi yonilg'i miqdorini aniqlaydi va ishchi forsunkalarining elektromagnit klapanlariga yonilg'ining purkalish davomiyligini belgilovchi impulslarни yuboradi. Kiritish klapanlarining qaysi holatda bo'lishidan qat'i nazar dvigatel tirsakli valining bir yoki ikki aylanishida injektorlar tegishli yonilg'i ulushini kiritish kollektoriga purkaydilar.

Purkash daqiqasida kiritish klapani yopiq holatda bo'lsa, yonilg'i klapan oldidagi bo'shilqda to'planadi va klapanning keyingi ochilishida silindrlga havo bilan birgalikda kiradi.

Qo'shimcha havo uzatish klapani 13 drossel to'siqchasiga parallel ishlangan havo kanaliga o'matilgan bo'lib,sovutq dvigatelni ishga tushirish va qizdirishda dvigatelga qo'shimcha havo uzatadi va tirsakli valning aylanish chastotasini oshirish imkonini beradi.

Sovutq dvigatelni ishga tushirishni yengillatish uchun, yuqorida ko'rilmagan purkash tizimlaridagi kabi «L-Jetronic» tizimida ham ishga tushirish forsunkasi 11 ishlataladi. Ishga tushirish forsunkasining ochilish davomiyligi sovitish suyuqligining haroratiga bog'liq bo'lib, uni termorele 14 belgilaydi.

«L-Jetronic» tizimida sovutq havoning zichligi issiq havonikidan yuqori ekanligi hisobga olingan. So'rileyotgan havo harorati qanchalik katta bo'lsa, silindrlerni to'lish darajasi shunchalik past bo'ladi. Havo harorati haqidagi ma'lumot EBBga havo o'chagich ichiga joylashtirilgan temperatura datchigidan keladi.

«L-Jetronic» tizimidagi havo o'chagich quyidagicha ishlaydi. Havo oqimi to'g'ri burchakli shaklga ega bo'lgan o'chovchi to'siqchaga ta'sir qiladi. Maxsus kanaldagi o'qqa joylashtirilgan to'siqchaning burlishi potensiometr yordamida kuchlanishga aylantiriladi. Potensiometr kontakt yo'lakchalarga parallel ulangan rezistorlar zanjiridan iborat moslamadir. Havo oqimining o'chov to'siqchasiga ta'siri prujina yordamida muvozanatlashiriladi.

O'chov plastinaning tebranishini so'ndirish uchun havo o'chagichda maxsus dempfer ko'zda tutilgan. Dempfer plastinasi o'chov plastinasi bilan yaxlit qilib ishlangan. Dempfer kamerasidagi siqlgan havoning plastinaga ta'siri o'chov plastinaning keskin tebranishiga yo'l qo'yaydi.

Havo o'chagichning kirish joyida temperatura datchigi o'matilgan. Havo o'chagichning yuqori qismida yonilg'i aralashmasining sifat vinti o'matilgan aylanma kanal joylashtirilgan.

«LH-Jetronic» yonilg'i purkash tizimi. «LH-Jetronic» tizimi «L-Jetronic» tizimidan asosan boshqa turdag'i havo o'chagich ishlataligligi bilan farqlanadi. Elektron boshqarish bloki purkalishi lozim bo'lgan yonilg'i miqdorini dvigatelning tegishli joylariga o'rnatilgan datchiklardan kelgan quyidagi omillarga bog'liq ravishda hisoblaydi:

- so'rilayotgan havo miqdori;
- tirsakli valning aylanishlar chastotasi va burchak holati;
- sovitish suyuqligining harorati;
- drossel to'siqchasining holati.

Olingan ushbu ma'lumotlar asosida EBB kiritish klapanlari oldiga o'rnatilgan injektorlarning hammasiga purkashning davomiyligi va demak yonilg'l miqdorini belgilovchi boshqarish impulsini yuboradi.

«LH-Jetronic» tizimida termoanemometrik havo o'chagich (grekcha anemos – shamol) ishlataligan. Bu havo o'chagichning ishlash prinsipi havo oqimiga joylashtirilgan isitgich element bilan uning atrofidan o'tayotgan havo o'rtasidagi temperatura farqini doimiy ushlab turish uchun zarur bo'lgan issiqlik energiyasini belgilangan kesim yuzasidan o'tayotgan havo miqdoriga to'g'ri proporsionalligiga asoslangan. Isitgich element sifatida diametri 0,07 mm bo'lgan platina sim ishlatalib, u silindrik havo kanalining o'rtasiga joylashtiriladi. So'rilayotgan havo harorati bilan tok yordamida qizdirilayotgan platina sim temperaturasi orasidagi farq doimo 150 °C darajasida ushlab turiladi. Simdan o'tadigan tok 500 mA dan 1500 mA gacha o'zgaradi. Havo bilan sim haroratlari orasidagi farqni doimiy holda saqlash uchun simdan o'tkazish zarur bo'lgan tok miqdori dvigatelga kiritilayotgan havo massasining o'chovi hisoblanadi. Bu tokning qiymatiga ko'ra EBB havo miqdorini hisoblaydi va purkalishi zarur bo'lgan yonilg'i ulushini belgilaydi. Havoning o'chash doirasini 9...360 kg/saat ni tashkil qiladi. Ishlash jarayonida platina sim organik moddalar bilan qoplanadi va ifloslanadi. Uni tozalash maqsadi da dvigatel har to'xtaganda sim avtomatik ravishda 1000...1100 °C gacha qizdirilib, unga yopishib qolgan moddalar kuydirib yuboriladi.

Termoanemometrik havo o'chagichlar dvigatelga kiritilayotgan havo va yonilg'i massalari orasida bog'lanishni katta aniqlik bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi. Lekin bu turdag'i havo o'chagichlarning narxi ancha yuqoriligi, ularning keng doirada ishlatalishini cheklaydi.


Bir nuqtali «Mono-Jetronic» purkash tizimi. Yengil avtomobilarning benzinli dvigatellari uchun bir nuqtali purkash tizimi birinchi bor 1975-yilda *BOSCH* (Germaniya) firmasi tomonidan ishlab chiqildi. Bu tizim «Mono-Jetronic» nomini oldi va birinchi bor «Volkswagen» avtomobiliga o'rnatildi. *Mono-Jetronic* tizimida faqat bitta elektromagnit forsunka bo'lib, u yonilg'ini *L-Jetronic* tizimidagi singari ulushlab purkaydi. Lekin ko'p forsunkali purkash tizimlaridan farqli, *Mono-Jetronic* tizimida yonilg'i kiritish klapanlarining atrofiga emas, balki aralashtirish kamerasiga purkaladi. Markaziy purkash tizimining muhim afzalliklaridan biri

shuki u standart karbyurator o'rniga o'rnatilishi mumkin. Bundan tashqari bu tizimda yonilg'i bosimi 1,0...1,1 bar gacha pasaytirilishi va ba'zi hollarda oddiy membranali benzin nasosini ishlatish imkoniyatini beradi.

Mono-Jetronic purkash tizimining tarkibiy sxemasi 6.13-rasmida keltirilgan. U tutash yonilg'i halqadan iborat bo'lib, quyidagi elementlardan tashkil topgan: benzobak 2, elektrobenzonasos 1, yonilg'i mayin tozalash filtri 3, markaziy purkash forsunkasi 4, yonilg'i bosimini rostlagich 15.

Tutash yonilg'i halqasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bosim rostlagichiga yordamida yonilg'i magistralida zarur doimiy bosimni (*Mono-Jetronic* tizimi uchun 1...1,1 bar) ushlab turadi;
- bosim rostlagichiga o'rmatilgan prujinalangan diafragma yordamida dvigatel o'chirilganida ham yonilg'i quvurlarida ma'lum qoldiq bosimni (~0,5 bar) saqlab turadi. Bu dvigatel o'chgandan keyin yonilg'i quvurlarida havo va bug' tizinlarning yuzaga kelishini oldini oladi;
- yonilg'ining tutash halqa orqali doimiy harakati hisobiga purkash tizimi elementlarining sovitib turilishini ta'minlaydi;



6.13-rasm. Bir nuqtali *Mono-Jetronic* yonilg'i purkash tizimi:

1 – yonilg'i nasosi; 2 – yonilg'i baki; 3 – yonilg'i filtri; 4 – markaziy forsunka; 5 – havo o'chagich; 6 – elektron boshqarish bloki; 7 – qo'shimcha havo klapani; 8 – drossel to'siqcha holati datchigi; 9 – relelar bloki; 10 – o't oldirish kaliti; 11 – akkumulatorlar batareyasi; 12 – datchik-taqsimlagich; 13 – sovitish suyuqligining harorati datchigi; 14 – λ-zond; 15 – yonilg'i bosimi rostlagichi.

Mono-Jetronic purakash tizimi narxi uncha katta bo‘lмаган avtomobilarga, masalan, «Volkswagen-Passat», «Volkswagen-Pego», «Audi-80» va boshqa shunga o‘xshash juda ko‘p avtomobilarga o‘rnatalgan.

Elektron boshqarish bloki (EBB) ichki yonuv dvigatelining joriy holati va ish rejimini qayd qiluvchi datchiklardan keladigan ma’lumot asosida ishlaydi. Datchiklardan kelgan ma’lumotlar asosida va boshqarish blokining doimiy xotira qurilmasiga joylashtirilgan purakash tizimining uch o‘lchamli tavsifnomasidan foydalaniib EBB markaziy elektromagnit forsunkaning ochilish daqiqasi va uning davomiyligini aniqlaydi. Amalga oshirilgan hisoblashlar asosida EBBda markaziy purakash forsunkasining boshqarish uchun elektrimpulsli signal shakllanadi. Bu signal forsunkaning magnit solenoidi chulg‘amiga ta’sir qiladi va yuzaga kelgan magnit maydon berkituvchi klapanni ochadi. Natijada markaziy forsunka 4 orqali benzin 1,0...1,1 bar bosim ostida majburan aralashish kamerasiga purkaladi.

Benzin to‘la va samarali yonishi uchun yonilg‘i-havo aralashmasidagi benzin va havo massasining o‘zaro nisbati qat’iy belgilangan qiymatda bo‘lib u 1:14,7 ga teng bo‘lishi kerak. Bu stexiometrik nisbat deb yuritiladi va unda havoning ortiqlik koeffitsiyenti $\alpha = 1$ ga teng bo‘ladi.

Demak, har qanday yonilg‘i purakash tizimida silindrلarga kiritilayotgan havo massasini o‘lchovchi mexanizm bo‘lishi shart.

Mono-Jetronic tizimida havo massasi ikkita ko‘rsatkich, ya’ni so‘rilayotgan havo harorati va drossel to‘sinqhasining holat datchiklaridan kelayotgan ma’lumotlar asosida EBB yordamida hisoblanadi. Havo harorati datchigi juda kichik o‘lchamli yarimo‘tkazgichli termistor bo‘lib, u markaziy purakash forsunkasining yuqori qismiga, bevosita havo oqimi yo‘liga o‘rnataladi. Drossel to‘sinqhasi holati datchigi 8 rezistorli potensiometr bo‘lib, uning surilgichi drossel to‘sinqhasining burilish o‘qiga mahkamlangan. Drossel to‘sinqhasining har bir muayyan holatiga qat’iy belgilangan hajmdagi o‘tkazilgan havo miqdori mos keladi. Shuning uchun bu tizimda drossel potensiometri havo o‘lchagich vazifasini bajaradi. Bunday tashqari *Mono-Jetronic* tizimida u dvigatelning yuklama datchigi vazifasini ham bajaradi.

Lekin silindrлarga so‘rilayotgan havoning massasi sezilarli darajada haroratga bog‘liq bo‘ladi. Sovuqda havo zichroq, demak og‘irroq bo‘ladi. Harorat ortishi bilan havoning zichligi ham, uning massasi ham kamaya boshlaydi. So‘rilayotgan havo massasiga haroratning ta’siri havo harorati datchigi yordamida hisobga olinadi.

Havo harorati datchigining qarshiligi manfiy temperatura koeffitsiyentiga ega bo‘lib, harorat -30°C dan $+20^{\circ}\text{C}$ gacha o‘zgarganda uning qarshiligi $10 \text{ k}\Omega$ dan $2,5 \text{ k}\Omega$ gacha kamayadi. Bunda: yonilg‘ining tayanch purkalish vaqtiga EBB tomonidan $20...0\%$ doirasida tuzatish kiritiladi. Agar so‘rilayotgan havoning harorati $+20^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo‘lsa, havo harorati datchigining signali EBB tomonidan hisobga olinmaydi, ya’ni datchikdan foydalaniilmaydi.

Drossel to‘sinqhasi holati va havo harorati datchiklari ishlamay qolgan taqdirda

EBB dvigatelning aylanishlar chastotasi va sovitish suyuqligi harorati datchiklari dan kelayotgan signallardan foydalananadi.

So'rligan havo massasi va dvigatelning aylanishlar chastotasi haqidagi ma'lumotlar asosida EBB markaziy purkash forsunkasining ochilib turish vaqtini aniqlaydi.

Yonilg'i uzatish quvurlaridagi bosim o'zgarmas bo'lganligi (Mono-Jetronic tizimi uchun $R=1,0\ldots1,1 \text{ bar}$) va forsunka tirqishlari o'zgarmas kattalikka ega bo'lganligi sababli forsunkaning ochilib turish vaqtini purkalayotgan yonilg'i miqdorini belgilaydi. Yonilg'i purkash daqiqasi yonilg'i-havo aralashmasini o't oldi-rish daqiqasi bilan bir vaqtida sodir bo'ladi (to'rt silindrli IYODlar uchun tirsakli valning har 108° ga aylanganida).


Shunday qilib, yonilg'i-havo aralashmasini hosil qilish jarayoni elektron boshqarilganda o'lcangan havo massasiga purkalayotgan benzinni yuqori aniqlik bilan me'yorlash muammosi juda oson hal qilinadi, lekin pirovardida, yonilg'i ini me'yorlashning aniqligi elektron avtomatika bilan emas, balki kirish datchiklari va purkash forsunkalarining yasalish aniqligi va funksional ishonchlik darajasi bilan belgilanadi.

Markaziy purkash forsunkasi (6.14-rasm) benzoklapan bo'lib, u EBBdan kela-yotgan elektr impuls yordamida ochiladi. Buni amalga oshirish uchun forsunkaga harakatlanuvchi magnit nayzali solenoid 4 o'rnatilgan. Impulsli purkash tizimlari uchun klapanlarni yaratishdagi asosiy muammo – klapanlarning berkitish

mexanizmini yetarli katta tezlik bilan ishlashini ta'minlashdan iborat. Bu muammo solenoid nayzasining vaznni kamaytirish, boshqaruvchi impuls signalidagi tokning qiymatini oshirish, qaytarish prujinasi 3 ning zarur elastikligini topish va purkash tirqishlari 1 ning shaklini tanlash hisobiga yechiladi.

Forsunka tirqishlari karnaysimon kapillyar quvurchalar ko'rinishida ishlangan bo'lib, ularning soni odatda oltitadan kam bo'lmaydi. Bunday tuzilishga ega bo'lgan tirqish uchida-gi burchak yonilg'i ni ham karnaysimon shaklda purkalashini ta'minlaydi.

Mono-Jetronic tizimining markaziy forsunkasi purkagich tirqishlarini $1\pm0,1 \text{ ms}$ davomida ochiq holda bo'lishini ta'minlaydi. Bu vaqt davomida (ishchi bosim 1 bar ga teng) yuzasi $0,08 \text{ mm}^2$ bo'lgan purkagich tirqishi dan 1 milligramga yaqin benzin purkala-di. Bu qizdirilgan dvigatel minimal aylanish-



6.14-rasm. Markaziy purkash forsunkasi:

- 1 – yonilg'i purkash tirqishi;
- 2 – berkitish klapani; 3 – qaytarish prujinasi; 4 – elektromagnit solenoid chulg'ami;
- 5 – magnitli nayza;
- 6 – havo harorati datchigi.

lar chastotasi bilan (600 l/min) salt ishlaganda yonilg'ining sarfi 4 l/soat ga to'g'ri keladi.

Sovuq dvigatelni ishga tushirish va qizdirishda forsunkaning ochilish davomiyligi katta-roq bo'lib $5\ldots7 \text{ ms}$ ni tashkil qiladi.

Mono-Jetronic tizimida drossel to'siqchasi holati datchigi (6.15-rasm) juda katta aniqlik bilan tayyorlanishiga alohida e'tibor beriladi.

Uning yurgizgich burilishiga sezuvchanligi drossel o'qining burilish burchagiga nisbatan $\pm 0,5^\circ$ ni tashkil qilishi kerak. Drossel o'qining burilish burchagiga ko'ra dvigatelning ikki ish rejimining boshlanishi belgilanadi: salt ($3\pm 0,5^\circ$) va to'la yuklama ($72,5\pm 0,5$) bilan ishlash rejimlari. Potensiometrning soni 4 ta bo'lgan rezistiv yo'lakchalarни yuqori aniqligini va ishonchlilagini ta'minlash maqsadida ular 1.15-*b* rasmida keltirilgan sxema bo'yicha ulangan. Potensiometrning ikki kontaktli yurgizgichining o'qi esa teflondan tayyorlangan lyufti yo'q darajadagi sirpanish podshipnigiga o'matilgan.


Potensiometr va EBB bir-biri bilan kontaktli ulagich orqali to'rt o'tkazgichli kabel yordamida ulangan. Ishonchlilagini oshirish maqsadida kontaktlar oltin bilan qoplangan. 1 va 5 kontaktlar potensiometrlarga tayanch kuchlanishni ($5\pm 0,01 \text{ V}$) uzatish uchun mo'ljallangan. 1 va 2 kontaktlardan drossel to'siqchasi $0\ldots 24^\circ$ ga burilganda ($0\ldots 3^\circ$ – dvigatelning salt ishlash rejimi; $3\ldots 24^\circ$ – kichik yuklamar rejimi), 1 va 4 kontaktlar esa drossel to'siqchasi $18\ldots 90^\circ$ doirasida burilganda ($18\ldots 72,5^\circ$ – o'rta yuklama; $72,5\ldots 90^\circ$ – to'la yuklama) signal kuchlanishni EBBga uzatish uchun xizmat qiladi.

Drossel potensiometridan olinadigan signal-kuchlanishdan yana quyidagi maqsadlarda foydalilanildi:

- avtomobil tezligini oshirganda (ya'ni tezlashganda) yonilg'i – havo aralashmasini boyitish uchun (potensiometrdan kelayotgan signalning o'zgarish tezligi qayd qilinadi);


- dvigatel to'la yuklama bilan ishlaganda yonilg'i – havo aralashmasini boyitish uchun (drossel to'siqchasingin burilishi $72,5^\circ$ dan oshmaganda qayd qilinadi);

- majburiy salt ishlash rejimida yonilg'i purkashini to'xtatish uchun (drossel to'siqchasingin burilish burchagi 3° dan kichikligi, dvigatelning aylanish chastotasi 2100 min^{-1} dan yuqoriligi qayd qilinadi).



6.15-rasm. Drossel to'siqchasi holati datchigi:

a – tuzilishi; b – sxemasi; 1, 2, 4, 5 – potensiometrning kontakt chiqish joyi; 3 – sirk'aluvchi kontaktlar; 6 – rezinali zichlashtirgich; 7 – Ra rezistori; 8 – Rb rezistori; 9 – prujina; 10 – Rc rezistori; 11 – Rd rezistori; 12 – keramik taglik; 13 – yurgizgich o'qi; 14 – qobiq.



6.16-rasm. Drossel to'siqchasining servoyuritmasi:


1 – shesternya; 2– qo'shqaroqli (chervyakli) val; 3 – elektromotor; 4 – servoyuritma vali; 5 – drossel to'siqchasining yopiq holati; 6 – drossel to'siqchasining ochiq holati; 7 – ulanish qisqichlari.

Mono-Jetronic tizimiga keyingi yillarda dvigatel salt ishlaganda aylanishlar chastotasining barqarorligini ta'minlash uchun drossel to'siqchasining holatini o'zgartirish imkonini beruvchi maxsus elektr yuritma joriy qilindi (6.16-rasm). Drossel to'siqchasi orqali o'tayotgan havo miqdorini oshirish yoki kamaytirish, dvigatel aylanishlar chastotasining oniy qiymatini, EBBning doimiy xotira qurilmasiga yozilgan nominal qiymatidan chetlanishiga ko'ra amalga oshiriladi. Bu holda EBBdan kelgan signal ta'sirida qadamli elektrodvigatel ishga tushib drossel to'siqchasini sal ochib (yoki sal bekitib) qo'yadi.

Mono-Jetronic tizimi EBBning asosini mikroprotsessor tashkil qilib u doimiy va tezkor xotira qurilmalariga ega.

Mikroprotsessorning doimiy xotira qurilmasiga purkashning uch o'lchamli etalon tavsifnomasi «tikib» qo'yilgan. Bu tavsifnomaning kirish koordinatalari sifatida dvigatelning aylanishlar chastotasi va so'rيلayotgan havo hajmi qabul qilingan. Chiqish parametri sifatida esa markaziy purkash forsunkasining ochilib turish vaqtini olingan. Etalon tavsifnomada dvigatelning barcha ish rejimlari va sharoitlari to'g'ri keladigan yonilg'i – havo aralashmasidagi benzin va havoning stexiometrik tarkibi haqidagi tayanch ma'lumot mujassamlangan. Dvigatelning aylanishlar chastotasi, drossel to'siqchasining holati, so'rيلayotgan havoning harorati datchiklidan kelgan signallar va doimiy xotirasidagi tayanch ma'lumotlar asosida mikroprotsessor dvigatelinining muayyan ish rejimi uchun markaziy forsunkaning ochilish onini va davomiyligini, ya'ni purkalish lozim bo'lgan yonilg'i miqdorini aniqlaydi. Bu ko'rsatkichga sovitish suyuqligi harorati va kislород datchigidan kelgan signallar asosida ma'lum tuzatish kiritiladi.

«Motronic» tizimi. Turli turdagи purkash va o't oldirish tizimlarining birlashtirish asosida Bosch firmasi tomonidan umumiy «Motronic» nomi bilan bir qator dvigateli kompleks boshqarish tizimlari ishlab chiqildi: «Mono-Motronic», «Motronic-1.1-1.3», «Motronic 1.7», «Motronic 3.1-3.2» va boshqalar.



6.17-rasm. «Motronic 3.1» yonilg'i purkash tizimining tarkibiy sxemasi:

1 – aktivlashtirilgan ko'mirli idish, 2 – havo kiritish klapani, 3 – ko'mirli idishiga havoni puflash klapani, 4 – yonilg'i bosimining rostlagichi, 5 – forsunka, 6 – bosim rostlagichi, 7 – o't oldirish g'altagi, 8 – fazaviy datchik, 9 – qo'shimcha havo ulushini uzatish nasosi, 10 – havoni berkitish uchun yordanchi asbobi, 11 – termoanemometrik havo o'lchagich, 12 – EBB, 13 – drossel to'siqchasining holati datchigi, 14 – salt yurish tizimidagi ijrochi mexanizm, 15 – havo harorati datchigi, 16 – chiqindi gazlarni rekuperatsiya qilish klapani, 17 – yonilg'i filtri, 18 – detonatsiya datchigi, 19 – tirsakli valning aylanishlar chastotasi datchigi, 20 – sovitish suyuqligi harorati datchigi, 21 – kislород datchigi (λ -zond), 22 – akkumulatorlar batareyasi, 23 – skanerga ularash qisqichlari, 24 – diagnostika chi-roqchasi, 25 – bosimlar farqi datchigi, 26 – elektr yuritmali yonilg'i nasosi.

6.17-rasmda «*Motronic 3.1*» tizimi bilan jihozlangan dvigatearning elektron boshqarish sxemasi keltirilgan.

«*Motronic 3.1*»ning o't oldirish tizimida yuqori kuchlanishni qo'zg'almas qismilar orqali taqsimlash usuli ishlataligan, ya'ni bu yerda uzbek-taqsimlagich yo'q, har bir silindr uchun alohida o't oldirish g'altagi 7 o'rnatilgan. Bu usul yuqori kuchlanishni «statik» taqsimlash nomini olgan (3.4.4-bo'limga qarang). Bu tizimda yuqori kuchlanish qiymati 32 kV gacha oshirilishi bilan birga zarurat bo'yicha har bir silindrda o't oldirishni ilgarilatish burchagini tezkor o'zgartirish imkoniyati mavjud. O't oldirishni ilgarilatish burchagini o'zgarish chegarasi tahminan 10° ga oshirilib, 59° ni tashkil qildi.

«*Motronic 3.1*»dagi purkash tizimi quyidagi yo'nalishda takomillashtirilgan:

- elektron boshqarish blokining tezligi va unumdorligi oshirilgan;
- termoanemometrik havo o‘lchagich ishlataligan;
- yonilg‘ini ketma-ket purkash rejimi tatbiq qilingan.

Har bir forsunka EBBning alohida chiqish kaskadi tomonidan boshqariladi. Bu purkalayotgan yonilg‘ini yuqori aniqlik bilan me’yorlashni va dvigatelning yuklamasi o‘zgarishiga tizimning tezkor aks ta’sirini ta’minlaydi.

Avtomat uzatma qutisi bo‘lgan avtomobilarda gidrotransformator ulangan-da dvigatelning aylanishlar chastotasining pasayishini qoplash uchun, «*Motronic 3.1*» tizimining elektron bloki selektorning «I», «II», «III» yoki «D» holatga qo‘yilganligi to‘g‘risida signalni qabul qilib oladi va salt yurish rostlagichi uzata-yotgan yonilg‘i ulushini oshiradi.

Konditsioneri bor avtomobilarda, konditsionerning ishga tushirilganligi to‘g‘-risidagi signal EBBga uzatilgan daqiqasidan boshlab elektron blok motorning salt yurish rejimini nazoratga oladi va zarurat bo‘yichaunga tegishli tuzatish kiritadi.

Chiqindi gazlardagi zaharli moddalarning ta’sirini kamaytiruvchi moslama o‘rnatilgan avtomobilarda kislorod datchigi (λ -zond) signali bo‘yicha «*Motronic 3.1*» tizimining elektron bloki ishchi aralashmani o‘ta boyitilgan yoki o‘ta suyultirilgan holiga ko‘ra mos ravishda yonilg‘ini purkash davomiyligini va demak aralashma tarkibini o‘zgartiradi.

Yonilg‘i bakini adaptiv (moslanuvchan) boshqarish yo‘li bilan shamollatadigan klapani 3 quyidagicha ishlaydi. Yonilg‘i bug‘i, yonilg‘i bakidan aktivlashtirilgan ko‘mirli idish 1 orqali dvigatelning kiritish kollektoriga uzatiladi. Ko‘mirli idish-dan motorning kiritish kollektoriga boradigan quvurga puflash klapani 3 o‘rnatilgan bo‘lib, u dvigatelning ish rejimiga ko‘ra yonilg‘i bug‘larining uzatilishini to‘xtatib turadi yoki to‘xtatmasdan o‘tkazib yuboradi. Klapan dvigatelning aylanishlar chas-totasi va yuklamasiga ko‘ra EBB tomonidan boshqariladi.

6.2.2. Datchiklar va ijrochi mexanizmlar

Ichki yonuv dvigateli va avtomobilning boshqa agregatlarini elektron boshqarishni amalga oshirish uchun transport vositasini ishlatalish davrida yuzaga keladigan turli xil jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish va ularga tegishli ishlov berish zarur bo‘лади. Bu ma’lumotlar asosida ijrochi mexanizmlar uchun boshqarish signallari ishlab chiqiladi.

Avtomobilarning elektron boshqarish tizimlarida quyidagi turdagি datchiklar tatbiq etilgan:

- IYODni boshqarish tizimida – sovitish suyuqligi harorati, moy bosimi, silindrلarga kiritilayotgan havo sarfi va harakati, drossel to‘sinqchasining hola-ti, detonatsiya, kislorod konsentratsiyasi, tirsakli valning aylanishlar chastotasi va burilish burchagi datchiklari;
- Transmissiyani boshqarish tizimida – ichki yonuv dvigateli tirsakli valining

aylanishlar chastotasi, uzatmalar qutisining chiqish valini aylanishlar chastotasi, dvigatelning sovitish suyuqligining harorati; drossel to'siqchasing holati; avtomobil tezligi datchiklari;

- Harakatni boshqarish tizimida – harakat tezligi, rul chambaragining burilish burchagi, drossel to'siqchasing ochilish burchagi, tormoz pedalining holati, avtomobil g'ildiragining burchak tezligi tezlanish datchiklari;

- Ma'lumot-diagnostika tizimida – yonilg'i sarfi va sathi, harakat tezligi, tirsakli valning aylanish chastotasi, sovitish suyuqligi harorati, moylash tizimidagi moy bosimi, shinadagi bosim datchiklari;

- Servis-kompyuter tizimida – avtomobil salonidagi havo harorati, tashqi muhit harorati, sovitish suyuqligi harorati, konditsioner bug'latgichidagi harorat, quyosh nurining kuchi, yoritilganlik, namlik darajasi datchiklari.

Avtomobil datchiklari ancha murakkab sharoitlarda ishlaydi. Sovitish suyuqligi va silindrlarga kiritilayotgan havo harorati datchiklarining ishlash doirasи +150...160 °C, chiqindi gazlarining tarkibini aniqlash datchiklariniki esa 1000 °C chegarasida bo'ladi.

IYODdagi vibrotezlanishning 0,4... 10 g (ba'zi hollarda 16 g) qiymatlarida vibratsiya darajasi 2...10⁴ Hz ga yetishi mumkin.

Namlik juda keng doirada o'zgarib, ba'zi hollarda 100 %ni tashkil qiladi. Yuqori namlik, o'tkazgichlarning izolyatsiya qarshiligining kamayishi natijasida, elektr qisqa tutashuv sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ishlayotgan elektr jihozlar yuzaga keltiradigan magnit maydon turli xalaqitlarni vujudga keltirib, datchiklarni me'yorida ishlashini qiyinlashtiradi va zarur himoya choralarini ko'rilmasa, ularni ishdan chiqarishi ham mumkin.

Agressiv muhit (yonilg'i, moy, antifriz, tuz, ishqor, kislota eritmalarini va hokazo) ta'siridan himoya choralarini ko'rilmasa, datchiklarning elektr va mexanik elementlari korroziyaga uchrashi va yemirilishi mumkin.

Avtomobilarni ishlatish jarayonida hosil bo'ladigan turli ifloslanishlar datchiklarning ko'rsatkichlarini buzilishiga, ularning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Akkumulatorlar batareyasining razryadlanishi yoki yuklamaning o'zgarishi natijasida avtomobilning bortdagи elektr tarmog'ida, 5 ms gacha davom etishi mumkin bo'lgan 30 V gacha (tarmoqning nominal kuchlanishi 14 V bo'lganda) bo'lgan kuchlanish impulsleri yuzaga kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan barcha sharoitlarda avtomobil datchiklari zarur metrologik tavsif va yuqori ishonchlilikni ta'minlashi kerak.

Temperatura datchiklari. Avtomobil turli tizimlarining ishini tavsiflovchi asosiy omillardan biri temperatura hisoblanadi. Sovitish suyuqligi, moy, silindrlarga kiritilayotgan havo, yonilg'i-havo aralashmasi, chiqindi gazlarning haroratini o'chash uchun datchik sifatida yarimo'tkazgichli termorezistorlar keng ko'lamda ishlatiladi.

Elektron boshqaruv tizimlarida temperatura datchiklarining takomillashtirilgan turlari tatbiq topgan bo'lib, ular yuqori barqarorlik va texnologik xususiyatlari, inersiyasining kichikligi, hamda tuzilishining soddaligi bilan tavsiflanadi. Bu integral temperatura datchiklari bo'lib, ular tashqi tarmoqli sxemaga (kuchaytirgich) ega bo'lgan bir kristalli issiqlik sezuvchan yarimo'tkazgichli elementdan tashkil topgan. Datchikning chiqish signali kuchlanish ko'rinishida bo'ladi.

Yarimo'tkazgichli datchiklar yuqori sezuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi bilan birga, tavsifnomasining barqarorligi yetarli emas va ularning eskirishga moyilligi yuqori. Shu sababli keyingi yillarda yarimo'tkazgichli temperatura datchiklarining o'rmini tobora ko'proq metall datchiklar egallab bormoqda. Metall (platina, nikel va boshqa) datchiklar yuqori barqarorlikka ega bo'lib, ularning sezuvchanlik darajasining nisbatan pastligini tegishli kuchaytirish hisobiga bar-taraf qilish mumkin.

Keyingi vaqtida avtomobilsozlikda metall temperatura datchiklarining yangi avlodи – yupqa pylonkali platina, iridiy va molibdenden tayyorlangan datchiklar ishlatala boshlanadi. Yuqori sifatlari issiqlik sezuvchi materiallar, kimyoiy chidamli tagliklar, keramika va shishadan tayyorlangan himoya vositalari yuqori barqarorlikka ega bo'lgan datchiklarni tayyorlash imkonini beradi. Yupqa plenkali texnologiya tannarxi nisbatan past bo'lgan kichik o'lchamli datchiklarni ishlab chiqarish uchun asos bo'ldi.

Yupqa pylonkali temperatura datchiklarini yaratish usullaridan biri – vakuum sharoitida alyumin oksididan tayyorlangan taglikga issiqlik sezuvchan materialni katodli purkash yo'li bilan qoplashdir. Qarshilikning zarur qiymati lazer yordamida moslash yo'li bilan ta'minlanadi. Shundan keyin, sezuvchi element shisha-li himoya qatlami bilan qoplanadi, chiqish simlarining atrofi shisha bilan kavsharlab qo'yildi. Bu usul bilan platinali, iridiyi va molibdenli yassi temperatura datchiklari tayyorlanadi. Ularning nominal qarshiligi 100, 550 va 1000 Ω bo'lib, yuzasi $2 \times 10 \text{ mm}^2$, qalinligi 1,2 mm ni tashkil qiladi. Shuningdek, yuzasi $2 \times 5 \text{ mm}^2$, $2 \times 2,3 \text{ mm}^2$, $1 \times 5 \text{ mm}^2$ bo'lgan datchiklar ham chiqarildi.

Platinali datchiklar uchun haroratni o'lhash doirasi $-50...+600 \text{ }^{\circ}\text{C}$ ni, iridiyli datchiklar uchun $-200...+400 \text{ }^{\circ}\text{C}$ ni va molibdenli datchiklar uchun esa $-200...+200 \text{ }^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qiladi.

Yupqa plenkali temperatura datchiklari chiqindi gazlarning haroratini nazorat qilish uchun qulay, chunki tuzilishining yassi ko'rinishida bo'lishi datchikni gaz oqimining 120 km/soat tezligiga, 10 kHz chastotali vibratsiyaga va 20 g gacha bo'lgan zo'riqishga chidashini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan yupqa plenkali datchiklar tormoz suyuqligi temperaturasini va avtomobil salonidagi haroratni ham nazorat qilish uchun ishlataladi.


Bosim datchiklari. Avtomobilarda bosim o'lhash uchun uzoq vaqt davomida rezistav turdagи datchiklar ishlatalib keldi. Bu membranasimon, silfon yoki porshenli sezuvchi element yordamida potensiometr yurgizgichini harakatlantirish

hisobiga amalga oshiriladi. Keyinchalik, ularning o‘rnini induktiv yoki induksion turdag‘i kontaktsiz datchiklar egallay boshladi.

Mexanik elementlarning mavjudlig‘i va ma‘lumot uzatish zanjirida bo‘g‘imlar-ning ko‘pligi membranalı sezuvchi elementli bosim datchiklarining (6.18- a rasm) jiddiy kamchiligi hisoblanadi.

Kontaktsiz induktiv datchiklarda (6.18- b rasm) sezuvchi element – membranalı kamera 9 ning bosim ta’sirida yuqori yoki pastga harakatlanishi magnit o‘tkazgichda havoli tirkishni, magnit o‘tkazgichning magnit qarshiligini va g‘altakning induktivligining o‘zgarishiga olib keladi. G‘altak ko‘priklı o‘lchov sxe-masiga ulangan. Ko‘prikdagi muvozanatning buzilishi elektr signalni yuzaga keltiradi va u boshqarish blokiga uzatiladi.

Mikroelektron texnologiyaning joriy qilinishi statik tuzilishiga ega bo‘lgan datchiklarning yaratilishiga olib keldi. 6.18- c rasmida yarimo‘tkazgichli tenzoelementli integral bosim datchigi keltirilgan.



6.18-rasm. Bosim datchiklari:

- a) membranalı sezuvchi elementli; b) kontaktsiz induktiv; c) yarimo‘tkazgichli tenzoelementli, integral; 1 – potensiometr; 2 – membranalı mexanizm qobig‘i; 3 – membrana; 4 – prujina; 5 – shtok; 6 – amortizator; 7 – po‘lat o‘zak; 8 – birlamchi chulg‘am; 9 – membranalı kamera; 10 – qobiq; 11 – ikkilamchi chulg‘am; 12 – elektr kontaktlar; 13 – yarimo‘tkazgichli tenzorezistor; 14 – kontakt maydonchasi.

Hozirgi vaqtida avtomobil elektronikasida asosan tenzorezistorli (metall yoki yarimo'tkazgichli tenzoelementli) sig'im va pyezoelektr bosim datchiklari ishlatalmoqda. Tolali optik va boshqa istiqbolli datchiklarni yaratish borasida izchil ish olib borilmadagi.

O'lhash doirasi $0\dots1,2 \text{ mPa}$ bo'lgan bosim datchiklari benzinli dvigatellar da yonilg'ini purkash va o't oldirish jarayonlarining elektron boshqarish tizimlari da ishlataladi.

Ichki yonuv dvigatellarining elektron boshqarish tizimlari pyezolektr bosim datchiklari keng ko'lama ishlatalmoqda. Pyezolektr hodisaning mohiyatini quyidagicha izohlasa bo'ladi: pyezokristall (kvars, segnet tuzi va boshqa) plastinaga mexanik ta'sir ko'rsatilganda, uning tok o'tkazuvchan qatlamlarida elektr potensiallar ayirmasi (elektr signal) hosil bo'ladi. Elektr signalining kattaligi va shakli plastinaning egilish darajasiga proporsional bo'ladi.

Pyezolektr element chorqirrali tayoqcha, yassi plastina, doiraviy shayba, quvursimon silindr shakllarida bo'lishi mumkin. Pyezoelement mexanik ta'sirni qabul qilish va uzatilishini ta'minlovchi moslama bilan birgalikda pyezolektr datchikni hosil qiladi.

O'lchamlarining kichikligi, o'lhash inersiyasining yo'qligi va aktiv tarzda ishlashi (ya'ni, ishlashi uchun tashqi tok manbayi talab qilinmaydi) pyezolektr datchiklarning asosiy afzalligi hisoblanadi.

Avtomobilda pyezolektr datchik benzinli dvigatellarining kiritish kollektoriga o'rnatiladigan absolut bosim datchigi va detonatsiya datchigi sifatida ishlataladi.


Absolut bosimning pyezolektr datchigi (6.19-rasm) mikrosxema (silikon chip) 1 va pyezoelement 3 dan tashkil topgan. Uning o'lchamlari: yuzasi 3 mm^2 , qalinligi $0,25 \text{ mm}$. Kiritish kollektoridagi bosim membrana 2 ga ta'sir qiladi. Membrana pyezoelement 3 ni siqadi va natijada pyezolektr toki hosil bo'ladi.

Datchikka qisqich 6 orqali kattaligi 5 V bo'lgan etalon kuchlanish uzatiladi. Vakuum kamera (undagi bosim $\sim 0,1 \text{ kgs/sm}^2$ ni tashkil qildi) 4 dagi va kiritish kollektoridagi bosimlar farqi membrana 2 orqali pyezoelementga ta'sir qiluvchi

kuchni yuzaga keltiradi. Bosim qanchalik yuqori bo'lsa, pyezolektr toki ham shunchalik katta bo'ladi va demak chiqish joyi 7 da etalon kuchlanishning pasayishi shunchalik kam bo'ladi.

Drossel to'siqchasi yopiq bo'lganda (IYODning salt ishlaganda), kiritish kollektoridagi bosim minimal qiymatgacha ($0,2\dots0,3 \text{ kgs/sm}^2$) kama-yadi. Datchikning chiqish joyidagi kuchlanish esa $1,3\pm0,2 \text{ V}$ gacha pasayadi. Elektron boshqarish bloki bu ma'lumot asosida purkalayotgan yonilg'i ulushini kamaytiradi.

Drossel to'liq ochilgan holda (IYOD kat-



6.19-rasm. Pyezolektr absolut bosim datchigi

ta yuklama bilan ishlaganda) kiritish kollektoridagi bosimning qiymati atmosfera bosimigacha ($0,85 \dots 0,95 \text{ kgs/sm}^2$) ko'tariladi. Datchikning chiqish joyidagi kuchlanish esa $4,6 \pm 2$ V gacha ko'tariladi. Elektron boshqarish bloki bu signal asosida purkalayotgan yonilg'i ulushini oshiradi.

Drossel to'siqchasining holati datchigi. Drossel to'siqchasining holati va uni burilish tezligini aniqlash uchun Potensiometrli datchiklardan foydalaniladi (6.20-rasm). Potensiometrli datchikning asosini bir nechta kontakt yo'lkalariga ega bo'lган plenkali rezistor tashkil qiladi. Datchikning o'qi bilan bog'langan va u bilan birga harakatlanuvchi elastik tok uzatish elementi kontakt yo'lkalari bo'ylab sirpanadi. Tok uzatuvchi element drossel to'siqchasi keskin ochilganda signal o'zgarishini, dvigatelning salt ishlashi va drossel to'siqchasining holati haqidagi ma'lumotlarni uzatishni ta'minlaydi.


Drossel to'siqchasining holati datchiklaridan kontaktlar dirillamasdan uzoq muddat davomida va barqaror ishlashi talab qilinadi. Bu talablarni qondirish uchun yo'lkachalar va tok uzatish elementining kontakt maydonchasi mustahkam va yeyilishga chidamli materiallardan tayyorlanadi.

Yonilg'i uzatish tizimlarini boshqarish uchun drossel to'siqchasining holati haqidagi ma'lumotdan tashqari uning ochilish tezligi to'g'risidagi ma'lumot ham zarur, chunki aylanishlar chastotasi keskin ortganda dvigatelning dinamik xususiyatlarini yaxshilash uchun yonilg'i aralashmasini ma'lum darajada boyitish talab qilinadi.

Oddiy karbyuratorlarda bu jarayon tezlatuvchi nasos yordamida amalga oshiriladi, elektron boshqaruvli tizimlarida esa har bir uzatilayotgan yonilg'i ulushi oshiriladi. Buning uchun elektron boshqarish blokiga maxsus moslamadan drossel to'siqchasining ochilish tezligiga proportional bo'lган bir qator impulslar uzatiladi.


Drossel to'siqchasining holati va ochilish tezligi datchiklari drossel to'siqchasining yoniga mahkamlangan bitta qobiq ichiga joylashtirilgan.

Kontaktli elektromekanik datchiklar ga xos bo'lган kamchiliklar kontakt-siz datchiklarda, xususan kodlovchi diskli optoelektron datchiklarda bo'lmaydi. Pretsizion kodlovchi disklar va optik yoki fotoelektr moslamalarining ishlatalishi hisobiga bu turdag'i datchiklar 1° ham



6.20-rasm. Drossel to'siqchasining holati va burilish tezligi datchigi:

1 – kontaktli yo'lkalar; 2 va 5 – chegaraviy o'chrigich; 3 – chegaraviy o'chrigich kulachogi; 4 – drossel to'siqchasi bilan bog'langan yetaklagich.




6.21-rasm. Detonatsiya datchigi:

1 – asos, 2 – pyezoelementlar,
3 – inersiya massasi, 4 – jez folga,
5 – qopqoq, 6 – kabel.

rasha elementlari titan qotishmasidan tayyorlangan asos 1 ga mahkamlanadi. Pyezoelektr o'zgartkich bir-biriga parallel ulangan ikkita kvarsli pyezoelementlardan tashkil topgan. Detonatsiya yuzaga kelganda inersiya massasi 3 pyezoelementlar 2 ga ma'lum chastota va kuch bilan ta'sir qiladi. Pyezoeffekt natijasida kvars plastinalarida o'zgaruvchan signal yuzaga keladi va u yupqa jez folga 4 yordamida tashqariga uzatiladi.

Dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi va holati datchiklari. Dvigatellarni avtomatik boshqarishning elektron tizimlarining zamonaviy turlari da aylanishlar chastotasi datchigi sifatida induktiv datchiklar ishlataladi. Datchik, nazorat qilinayotgan valdan harakat olayotgan tishli g'ildirak tepeisiga 0,8...1,5



6.22-rasm. Aylanishlar chastotasi va tirsakli valning holati datchigi:

1 – doimiy magnit; 2 – ayanishlar chastotasi datchigi; 3 – dvigatel karteri; 4 – g'altak; 5 – tishli g'ildirak; 6 – tirsakli valning holati datchigi; 7 – tirsakli valning holatinini ko'rsatuvch belgi.

kichik bo'lgan burilish burchaklarini o'lhash imkoniyatini beradi. Kodlovchi diskda darchalar bo'lib, uning bir tomoniga yorug'lik manbayi, ikkinchi tomoniga fotoelement joylashtiriladi. Disk aylanganda yorug'lik nuri fotoelementlarga tushadi va bu diskni, hamda disk bilan bog'langan drossel to'siqchasining burilish burchagini aniq o'lhash imkoniyatini beradi.

Detonatsiya datchigi. Detonatsiya datchiklarining tuzilishi va ishlash prinsipi bo'yicha har xil turlari mavjud. Detonatsiyani aniqlashda pyezokvarsli vibratsiya datchigidan foydalanish eng keng tarqalgan usuldir. Datchikning (6.21-rasm) barcha elementlari titan qotishmasidan tayyorlangan asos 1 ga mahkamlanadi. Pyezoelektr o'zgartkich bir-biriga parallel ulangan ikkita kvarsli pyezoelementlardan tashkil topgan. Detonatsiya yuzaga kelganda inersiya massasi 3 pyezoelementlar 2 ga ma'lum chastota va kuch bilan ta'sir qiladi. Pyezoeffekt natijasida kvars plastinalarida o'zgaruvchan signal yuzaga keladi va u yupqa jez folga 4 yordamida tashqariga uzatiladi.

Dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi va holati datchiklari. Dvigatellarni avtomatik boshqarishning elektron tizimlarining zamonaviy turlari da aylanishlar chastotasi datchigi sifatida induktiv datchiklar ishlataladi. Datchik, nazorat qilinayotgan valdan harakat olayotgan tishli g'ildirak tepeisiga 0,8...1,5

mm tirkish bilan qo'zg'almas holda joylashtiriladi. Datchik magnit yumshoq po'latdan tayyorlangan, qutb uchligiga ega bo'lgan doimiy magnitdan va induktiv g'altakdan tashkil topgan. Ferromagnitli tishli g'ildirakning tishi, datchik o'zagi oldidan o'tganda g'altakda o'zgaruvchan tok hosil bo'ladi. Havoli tirkish kattaligi va tishning o'lchamlari signal amplitudasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Impulsarning o'tish chastotasi g'ildirakdagi tishlarning soniga bog'liqligi ayanishlar chastotasini qiyinchiliksiz aniqlash imkoniyatini beradi. Tirsakli valning holatini qayd qilish uchun tishli g'ildirakka maxsus belgi «tish» qo'yilgan. U, porshen 1-silindrning yuqori chekka nuqtasidan o'tganda impuls beraadi. Tirsakli valning holati ikkita alohida (6.22-rasm) yoki bitta datchik yordamida aniqlanishi mumkin.

Aylanishlar chastotasi va burchak holatini o'Ichash uchun avtomobil elektronikasida yarimo'tkazgichli Xoll datchiklari ham keng ko'lama ishlataladi. Masalan, fransuz olimlari tomonidan taklif qilingan burchak tezligini o'Ichash uchun mo'ljallangan Xoll datchigi samariy-kobaltdan tayyorlangan doimiy magnit va Xoll elementi orasidagi tirqishda aylanadigan tishli g'ildirakdan iborat. Datchikning barqarorlik darajasi yuqori, o'Ichamlari kichik, o'rnatishda havo tirqishining yuqori aniqligi talab etilmaydi.

Ferromagnit elementlarning qarshiligini tashqi magnit maydonning kattaligi va yo'nalishiga bog'liqligiga asoslangan magnit-rezistiv datchiklar istiqbolli o'zgartkichlar sirasiga kiradi. Bu datchiklar narxi pastligi, yuqori sezuvchanligi va kichik o'Ichamlari bilan ajralib turadi.

Havo sarfini o'Ichash asboblari. Benzinli ichki yonuv dvigatellarini elektron boshqarish tizimlarida silindrلarga kiritilayotgan havo miqdorini aniq o'Ichash muhim ahamiyatga ega, chunki ko'pchilik hollarda havo miqdori, purkalanayotgan yonilg'i ulushini belgilash uchun asosiy boshqaruvchi omil hisoblanadi.


Dvigatellarni elektron boshqarish tizimlarida havo miqdorini aniqlash uchun nisbiy usul (kiritish kollektoridagi absolut bosim, havo harorati va tirsakli valning aylanishlar chastotasi asosida), potensiometrik va termoanemometrik havo o'Ichagichlar ishlataladi.

Bosch firmasi tomonidan *L-Jetronic* purkash tizimi uchun ishlab chiqilgan potensiometrik havo o'Ichagichning sxemasi 6.23-rasmida keltirilgan. Havo o'Ichagich quyidagicha ishlaydi. To'rt burchakli o'Ichov to'siqchasi 2 maxsus shaklga keltirilgan quvurdagi o'qqa mahkamlangan. Havo oqimi o'Ichov to'siqchasiiga ta'sir qilib uni ma'lum φ burchakga buradi. Potensiometr 5 bu burilishni sarflanayotgan havo hajmiga proporsional bo'lgan kuchlanishga aylantirib beradi.

Havo oqimining to'lqinlanishi natijasida yuzaga keladigan tebranishlarni so'ndirish uchun havo o'Ichagichda o'Ichov to'siqchasi bilan yaxlit tayyorlangan va plastina ko'rinishidagi demper mavjud. Demper havo o'Ichagichning maxsus kamerasiga joylashtirilgan.

Dvigatel salt ishlaganda havo silindrлarga baypas (aylanma) kanal 1 orqali uzatiladi.

Yuqori texnologiyalar asosida tayyorlangan bu havo o'Ichagich yetarli ishonchlilik va metrologik tavsifga ega. Shu bilan birga potensiometrda harakatlanuvchi elementlar va kontaktlarning borligi bu




6.23-rasm. Potensiometrik havo o'Ichagich:

1 – baypas kanal; 2 – o'Ichov to'siqchasi; 3 – demper kamera; 4 – demper plastinasi; 5 – potensiometr; 6 – yonilg'i aralashmasining sifat vinti; 7 – temperatura datchigi.

turdagi havo o'Ichagichlarning jiddiy kamchiligi hisoblanadi. Avtomobilarni ishlatalish sharoitlarida o'Ichagichning barcha elementlarini statik, ya'ni qo'zg'almas bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu talabga uyurmali, ultratovushli va termoanemometrik havo o'Ichagichlar javob beradi. Lekin uyurmali va ultratovushli o'Ichov tizimlari potensiometri o'Ichagich kabi havoning hajmini aniqlaydi. Faqat termoanemometrik o'Ichagich yordamida sarflanayotgan havoning massasi to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

Termoanemometrik havo o'Ichagichning ishlash prinsipi, qizdirilgan element yuzasining issiqlik quvvatini, uni yuvib o'tayotgan havo oqimining miqdoriy tezligiga bog'liqligiga asoslangan. Demak, qizdirilgan element bilan uni yuvib o'tayotgan havo orasidagi temperatura farqini vaqt birligi davomida bir xilda ushlab turish uchun zarur bo'ladigan issiqlik energiyasi, oqimning belgilangan kesim yuzasidan o'tgan havo massasiga proporsional bo'лади.

Bosch firmasi tomonidan LH-Jetronic purkash tizimi uchun ishlab chiqilgan termoanemometrik havo o'Ichagich (6.24-rasm) drossel to'siqchasi qobig'i va havo tozalagich orasiga o'rnatilgan qisqa quvurchadan iborat. Havo o'Ichagich kirish va chiqish joylari maxsus to'r yordamida himoyalangan bo'lib, bu ma'lum darajada havo oqimini shakkantirishga yordam beradi. O'Ichagich qobig'inining tashqi yuzasidagi kameraga, dastlabki ma'lumotlarga ishlov beruvchi, o'Ichami kichik elektron blok o'rnatilgan. O'Ichov elementi vazifasini bajaruvchi va diametri 70...100 mkm bo'lgan platina sim o'Ichagichning quvurida, havo oqimiga tik holda joylashtirilgan.



6.24-rasm. Termoanemometrik havo o'Ichagich:

1 – pretzision qarshilik; 2 – o'Ichov elementi; 3 – termokompensatsion element; 4 – barqororashtiruvchi to'r; 5 – plastmassali qobiq; 6 – ichki o'Ichov quvuri (unga 1, 2, 3 elementlar joylashtiriladi).

Elektron blok, elektr toki bilan qizdirilayotgan platina sim va uni yuvib o'tayotgan havo oqimi orasidagi temperatura farqini 150°C darajasida o'zgarmas holda saqlab turadi. Oqim qanchalik katta bo'lsa (demak havo sarfi ham), temperatura farqini o'zgarmas holda ushlab turish uchun platina simdan shunchalik katta tok o'tkazish zarur bo'лади. Purkash tizimlarida o'chanayotgan havo sarflari uchun tok kuchi 500 dan 1500 mA gacha o'zgaradi. Havo sarfi haqidagi ma'lumot sifatida ko'priklı sxema bo'yicha ulangan maxsus rezistorli elementdagi kuchlanishning pasayishi olindadi. Tokning o'zgarishiga qarab elektron boshqarish bloki (EBB) silindrarga kiritilayotgan havoning massasini aniqlaydi.

Termoanemometrik havo o'Ichagichlarning o'ziga xos tomonlaridan biri –


ish jarayonida platina sim ustini qoplaydigan qurum va qasmoqlarni tozalash xususiyatidir. Buning uchun, undan platina simni 1000–1100 °C gacha qizdiradigan tok o'tkaziladi. Bu harorat ta'sirida sim ustini qoplagan barcha qurum va qasmoqlar kuyib ketadi va o'chagichning barcha metrologik xususiyatlari tiklanadi.

Kislorod konsentratsiyasi datchigi (λ -zond).

Avtomobil dvigatellarining chiqindi gazlarda zaharli moddalarning miqdorini kamaytirish muammosi o'ta zaharli bo'lgan birikmalar, birinchi navbatda uglerod va azot oksidlarini zararsizlantirish bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi ishlarni amalga oshirilishini taqoza qiladi. Uch tarkibli katalitik zararsizlantirgich bu masalani yetarli darajada hal qiladi, lekin uni me'yorida ishlashi uchun dvigatel stexiometrik tarkibida ($\alpha=1$), ya'ni yonilg'i-havo aralashmasining nisbati 1:14,7 bo'lgan holda ishlashini ta'minlash talab etiladi.

Bu muammoni hal qilish uchun yonuvchi aralashmaning hajmiy tarkibini chiqindi gazlarda kislorod miqdoriga ko'ra aniqlaydigan maxsus datchik ishlab chiqilgan. Datchik dvigatelning chiqish kollektoriga o'rnatilgan bo'lib, chiqindi gazlar tarkibida kislorod paydo bo'lganda ($\alpha>1$), datchik kontaktlaridagi kuchlanish keskin pasayadi. Agar kislorod miqdori ortsa, yonuvchi aralashma stexiometrik tarkibga o'ta boshlaydi (suyultirilgan holdan boyitilgan holga). Shu tariqa, datchik rejejimida ishlaydi va undan yonilg'ini stexiometrik tarkibda avtomatik ravishda ushlab turish uchun foydalniladi.

Kislorod konsentratsiyasi datchigi quyidagiicha tuzilgan (6.25-rasm). Datchikning sezuvchi elementi sifatida sirkoniy ikki oksididan (ZrO_2) tayyorlangan g'ilofcha ishlatiladi. G'ilofchaning ichki va tashqi yuzasi platina yoki uning qotishmalari bilan qoplangan bo'lib, u katalizator va tok o'tkazuvchi elektrod vazifasini bajaradi. Yuqori temperaturada sirkoniy ikki oksidi elektrolit xususiyatiga ega bo'ladi, datchik esa galvanik elementga aylanadi. G'ilofchaning tashqi yuzasi chiqindi gazlar bilan yuvilib turilsa, ichki qismi



6.25-rasm. Sirkoniylar kislorod datchigi:

- 1 – metall qobiq; 2 – zichlashtirgich; 3 – ulanish kabeli;
- 4 – g'ilof; 5 – kontakt o'zag'i;
- 6 – sirkoniy ikki oksidli aktiv element;
- 7 – himoya qalpoqchasi.

tarkibida kislorod miqdori o'zgarmas bo'lgan atrof-muhit havosining ta'sirida bo'ladi.

Datchikning me'yorida ishlash chegarasi – +350...900 °C. Harorat 900 °C dan yuqori bo'lsa, datchik tez yemiriladi va ishdan chiqadi.

Datchikning me'yorida ishlashi, ko'p jihatdan, uning dvigatelning chiqish quvuriga o'rnatiladigan joyiga bog'liq. Datchik dvigatelga qanchalik yaqin o'rnatilsa, kuchlanish shunchalik yuqori, signalning kechikish darajasi esa nisbatan kichik bo'ladi. Datchikning o'rnatilish joyi, amalda deyarli har bir dvigatel uchun tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Datchik dvigatelga yaqin joylashtirilganda, temperaturaviy cheklardan tashqari, chiqarish kollektoriga turli silindrlardan kela-yotgan chiqindi gazlar tarkibining bir xil emasligi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, datchik dvigateldan uzoqroq joylashtirilsa, signalning kechikish darajasi ortadi. Kislorod datchigini chiqarish quvurini kollektorga mahkamlangan joy dan 300...500 mm masofada o'rnatish eng yaxshi natija berishi ko'p sonli tajribalarda aniqlandi.

Harorat 300 °C dan past bo'lganda datchik amalda ishlaymaydi. Shuning uchun, sovuq dvigateli qizdirish yoki past yuklamalarda ishlash jarayonlarida, ayniqsa atrof-muhit harorati past bo'lganda, chiqindi gazlarni zararsizlantirish tizimi ishining samarasini past bo'ladi. Tizimning ishlash doirasini kengaytirish maqsadida elektr isitgichli datchiklar ishlatiladi.

Sirkoniylar ikki oksidli kislorod datchiklaridan tashqari titan ikki oksidi TiO_2 asosida ishlaydigan datchiklar ham ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. Titan ikki oksidi TiO_2 yarimo'tkazgich bo'lib, u ma'lum aktiv qarshilikka ega. Dvigatel boyitilgan aralashmada ishlaganda, chiqindi gazlardagi kislorodning parsial bosimi past bo'ladi va TiO_2 ning qarshiligi kamayadi. Chiqindi gazlarning harorati ortishi bilan bu jarayon yana ham jadalroq sodir bo'ladi.

Demak, TiO_2 asosidagi kislorod datchiklari, joylashtirilgan muhit holatiga ko'ra, o'z qarshiligini o'zgartiradigan rezistor sifatida ishlaydi.

Benzinli dvigatellarda yonilg'i purkashning elektron boshqarish tizimlarida elektr element sifatida ishlovchi sirkoniylar kislorod datchiklari kengroq tatbiq etilgan.

Benzinli dvigatellar uchun yonilg'i purkash forsunkalari. Forsunka (injektor) har qanday yonilg'i purkash tizimida asosiy ijrochi moslamalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi IYODning kiritish kollektoriga yoki bevosita silindrarga yonilg'ini mayda zarrachalar ko'rinishida purkab berishdir.

Forsunkalarning gidromexanik, elektromagnitli, magnitoelektr va elektrogidravlik turlari mavjud. Zamonaviy yonilg'i purkash tizimlarida asosan gidromexanik va elektromagnitli forsunkalar ishlatiladi.

Vazifasiga ko'ra forsunkalarning ishga tushiruvchi va ishchi turlari mavjud. Ishchi forsunkalar o'z navbatida bir nuqtali, impulsli markaziy va taqsimlangan

ko'p nuqtali turlarga bo'linadi. Keyingi yillarda IYODning bevosita silindrlariga yonilg'ini yuqori bosim ostida purkash uchun mo'ljallangan ishchi nasos-forsunkalar ishlab chiqildi.

Benzin purkash uchun mo'ljallangan forsunkalar odatda har bir dvigatel uchun alohida yasaladi, ya'ni ular unifikatsiya qilinmaydi, bir turdag'i dvigateldagi forsunkalarni boshqa turdag'i dvigatela qo'yib bo'lmaydi. Faqat K-Jetronic mexanik purkash tizimi uchun Bosch firmasi tomonidan ishlab chiqilgan universal gidromexanik forsunkalar bundan istisno.


Deyarli barcha forsunkalarning ichiga kichik to'rli, mayin benzin tozalagichi (filtr) qo'yilgan. Bu ko'p hollarda, ayniqsa sifatsiz benzin ishlatilganda, forsunkaning ish qobiliyatini yo'qotishga sabab bo'ladi. Ifoslangan forsunkanining ish qobiliyatini tiklash uchun benzinka maxsus erituvchi suyuqlik qo'shiladi va dvigatelin salt ishlash rejimida 30–40 minut davomida ishlatib, yonilg'i uzatish tizimi yuviladi. Forsunkalarning dvigateldan yechib olib atsetonga «bo'ktirish» yoki siqilgan havo yordamida tozalashga urinish odatda samara bermaydi.

Elektromagnitli forsunkalar. Elektromagnitli forsunkalar yonilg'ini IYODning kiritish kollektoriga kerakli miqdorda va mos kelgan vaqtida purkash uchun xizmat qiladi. Bosch firmasining elektromagnitli forsunkasi (6.26-rasm) berkituvchi nayzali klapan 1, qobiqda joylashgan va prujina 3 bilan bosib turiladigan yakor 2 va chulg'am 4 dan iborat. Elektron boshqarish blokidan (EBB) kelgan signalga ko'ra chulg'am 4 ga tok berilganda, uning atrofida magnit maydoni hosil bo'ladi. Magnit maydon ta'sirida yakor 2 prujina 3 ning bosim kuchini yengib, yuqoriga ko'tariladi va purkagichdagi teshik ochiladi. Natijada IYODning kiritish kollektoriga yonilg'i purkash jarayoni sodir bo'ladi.

Berkitish klapanining turiga ko'ra elektromagnitli forsunkalarning 3 ta ko'rinishi mavjud:

- Berkitish elementi sfera ko'rinishiga ega bo'lgan forsunka;
- Shtift klapanli forsunka;
- Disksimon klapanli forsunka.

Elektr benzonasoslar. Yonilg'i purkash tizimlarida benzinni taqsimlash quvuriga uzatish va yonilg'i bosimini belgilangan chegarada ushlab




6.26-rasm. Elektromagnitli forsunka.

- 1 – berkituvchi nayzali klapan;
- 2 – po'lat yakor;
- 3 – prujina;
- 4 – elektromagnit chulg'ami;
- 5 – yonilg'i kiritish shtutseri.

turish uchun turli xildagi benzonasoslar ishlataladi. Masalan, dastlabki tizimlarda nasosdan ikki qatlamlı zichlagichlar bilan ajratilgan, o'zgarmas tok dvigatelli yuritmaga ega bo'lgan shesternyali nasoslardan foydalaniłgan. Ammo shu darajadagi zichlashtirish ham benzin bug'larining elektrodvigatelning ichki qismlariga o'tish ehtimolini butunlay istisno qilmas edi. Kollektor va cho'tka orasidagi uchqundan benzin bug'larini o't olib ketishi natijasida nasosning ishdan chiqish, ba'zi hollarda esa avtomobilning o'zi ham yonib ketish hollari yuzaga kelardi. Bu xususda, elektrodvigateli benzobak tashqarisida, o'zi esa bakning ichiga joylashtiriladigan nasoslar ayniqsa xavfli edi.

Ba'zi tizimlarda foydali ish koeffitsiyenti yuqoriroq bo'lgan plastinali nasoslar ishlataligan. Lekin, ularni tayyorlash texnologiyasi murakkab, yonilg'i xavfsizligi esa shesternyali nasoslardan yuqori emas.

Yonilg'i xavfsizligi, sovitish, zichlashtirish va boshqa bir qator muammo-lar Bosch firmasi tomonidan ishlab chiqilgan rolikli nasoslarda hal qilindi (6.27-rasm). Bu nasoslar elektrodvigatel bilan bir korpusga joylashtirilib, ular yonilg'i ga to'la cho'ktirilgan holda ishlaydi, ya'ni elektrodvigatel yakori kollektor bilan birga yonilg'i ichida aylanadi. Bu nasoslarda elektrokontakt juftlik «cho'tka-kollektor plastinasasi» ish jarayonida to'lig'icha benzinga botirilganligi va havoning yo'qligi



6.27-rasm. Benzinga «cho'ktirladigan» elektrobenzonasos:

1 – bosim cheklagich, 2 – rolikli nasos, 3 – yakor, 4 – yonilg'i ni bir tomoniga o'tkazuvchi klapan, 5 – disksimon rotor, 6 – rolik.

o‘t chiqish ehtimolini istisno qiladi. Bundan tashqari, bu juftlik kichik energiyali tok zanjirini amalda uzmashdan almashlab-ulash rejimida ishlaydi va uning elementlari maxsus elektr o‘tkazuvchan materiallardan tayyorlanadi.

Bu turdagи nasoslarda quvvatni 10...20 %gacha kamaytiradigan zichlash-tirish tizimiga ehtiyoj qolmaydi. Oqib o‘tayotgan yonilg‘i yakorni jadal ravishda sovitishi, chulg‘amlardan o‘tayotgan tok zichligini oshirish, demak elektrodvigatel o‘lchamlarini kichraytirish imkonini beradi. Yonilg‘i oqimi bilan sovitila-yotgan kollektordan uchqun kam chiqadi, cho‘tkalarning yeyilish darajasi ham ancha kamayadi.

6.3. AVTOMOBILLARNING TORMOZLASH TIZIMINI ELEKTRON BOSHQARISH

6.3.1. Umumiy ma'lumotlar

Avtomobilarning gidravlik tormoz tizimini elektron boshqarish o‘tgan asrning 70-yillaridan joriy qilina boshladi. Bu antiblokirovkali tormozlash tizimi (*ABTT – ABS*) edi. *ABT* tizimining ishlatalish tajribasi asosida avtomobil harakatini boshqarishning bir qator yangi tizimlari yuzaga keldi. Bu o‘rinda quyidagi to‘rtta tizimi keltirish mumkin; antiblokirovkali tormozlash tizimi (*ABS – Antiblock Brems system*), yetakchi ko‘prikl differentialini blokirovka qilish tizimi (*EDS – Electronen differential system*), tormozlash kuchlarini oldingi va orqa ko‘priklar orasida qayta taqsimlash tizimi (*EBV – Electronen Bremse Variation*) va yetakchi g‘ildiraklarni shataklanishiga qarshi tizim (*ASR – Assistance Stabiliti Rucken* yoki *DSA – Dynamic Stabiliti Assistance*).

ABS va *EBV* avtomobilni sirg‘almasdan va har tomonga surilmasdan ravon tormozlashni, *EDS* va *ASR* (*DSA*) esa avtomobilni joyidan qo‘zg‘alishida va shig‘ovlanishidagi harakatini barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi.

6.3.2. Avtomobilarning tormoz tizimidagi g‘ildiraklarning blokirovka bo‘lish shartlari

Tormoz tizimida avtomobilni ishchi tormozlashning samarasi ikki tormoz kuchi hisobiga erishiladi: R_{ishq} tormoz ustquymalari va tormoz disklari orasidagi ishqalanish kuchi; R_y – shina va yo‘l orasidagi ishqalanish kuchi.

Agar $R_{ishq} < R_y$ bo‘lsa, tormozlanish jarayoni barqaror bo‘ladi;

Agar $R_{ishq} > R_y$ bo‘lsa (agar tormoz pedali keskin bosilsa), g‘ildiraklar blokirovka bo‘lishi – avtomobil kuzovi inersiya bo‘yicha harakatlanishida davom etgan holda g‘ildiraklarni aylanishdan to‘la to‘xtashidir. G‘ildiraklarni blokirovka bo‘lishi avtomobilni sirpanishiga va har xil tomonga surilib ketishiga olib keladi va yo‘lda o‘ta xavfli vaziyatni yuzaga keltiradi.

G'ildarak blokirovkasining quyidagi turlari mavjud:


- Oldingi g'ildiraklarning blokirovka bo'lishi. Bu holda avtomobilning rul mexanizmining boshqarilishi yo'qoladi;
- Orqa g'ildiraklarning blokirovka bo'lishi. Bunda: agar $R_{o'ng} - R_{chap} > 0$ bo'lsa, avtomobil o'ngga, agar $R_{o'ng} - R_{chap} < 0$ bo'lsa, chapga suririb ketadi ($R_{o'ng}$ va R_{chap} mos ravishda avtomobilning o'ng va chap g'ildiraklarning yo'l bilan ishqalanishga qarshiliqi);
- Avtomobilning baravariga 4 ta g'ildiragi blokirovka bo'lishi, Bu holda avtomobilni boshqarish to'la yo'qotiladi.

6.3.3. Avtomobilning antiblokirovkali gidravlik tormoz tizimi

Antiblokirovkali tormoz tizimining har bir g'ildiragi alohida boshqariladigan gidravlik konturga ega bo'lgan avtomobil misolida ko'rish mumkin (6.28-rasm). Bu holda bosh tormoz silindridan (BTS) uzatilgan tormoz suyuqligi 4 ta oqimga bo'linadi va avtomobilning har bir g'ildiragi alohida tormozlanadi.

Avtomatik boshqariladigan 4 konturli tormoz tizimini amalga oshirish uchun har bir kanalga elektromagnitli klapanlar o'rnatiladi va ular yordamida g'ildirak tormoz silindrleridagi (G'TS) tormoz suyuqligining bosimi rostlanadi.

Elektromagnit klapanlar konstruktiv ravishda gidromodulyator deb ataluvchi qurilmaga birlashtirilib, u ABTTning elektron boshqarish bloki (EBB) tomonidan uzatilgan elektr signallar yordamida boshqariladi. G'ildirak datchigidan uzatilgan



6.28- rasm. ABTT li 4 tarmoqli gidravlik tormoz tizimi

g'ildirakning aylanish tezligi haqidagi ma'lumot asosida EBB tegishli ijro impulslarini yuboradi. Elektroklapanlarni avtomatik boshqarish algoritmi, g'ildiraklarning aylanish tezligini avtomobil kuzovining keltirilgan harakat tezligi bilan solish-tirish yo'li bilan hosil qilinadi. EBBda to'rtta g'ildirakning hammasini aylanish tezliklari solishtiriladi, signallar farqi aniqlanadi va gidromodulatordagi tegishli elektroklapanga uzatiladi. Shu tarzda g'ildirak tormoz silindrillardagi suyuqlik bosimi avtomatik ravishda o'zgartiriladi va g'ildiraklarni blokirovka bo'lishi istisno qilinadi. G'ildiraklar avtomatik antiblokirovka tizimiga ega bo'lgan zamonaviy tormoz tizimining asosiy tamoyili shundan iborat.

Antiblokirovkali tormoz tizimi ishlashining nazariy asoslari quyidagilardan iborat:

Tormozlanish jarayonida avtomobil g'ildiraklarining erkin g'ildirash holatini saqlab turish uchun g'ildirakka ta'sir qilayotgan tormoz momenti yo'lning reaktiv momenti bilan muvozanatga keltirilishi kerak. Reaktiv moment g'ildirakka ta'sir qilayotgan normal yuklama P_z va yo'l bilan bo'ylama tishlashish koefitsiyenti φ_b , larning ko'paytmasiga teng. Tishlashish koefitsiyenti φ_b ning kattaligi yo'lning holati, shina protektori shakli va uning ichki bosimiga bog'liq. Shu bilan birga, φ_b ga g'ildirakning yo'l yuziga nisbatan sirpanish darajasi ham katta ta'sir ko'rsatadi. G'ildirakning sirpanish darajasi o'lchamsiz koefitsiyent S bilan baholanadi va u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:


$$S = \frac{(V_a - V_\tau)}{V_a}.$$

Bunda: V_a – avtomobil tezligi, V_τ – g'ildirakning yo'l bilan tutashgan nuqtasi-dagi tezligi.

Sirpanish darajasi S dan S_{kr} qiymatgacha oshganda, φ_b ham ma'lum maksimum qiymatgacha ortib boradi (6.29-rasm). S qiymatning keyingi o'sishi φ_b qiymatini kamayishiga olib keladi.

Avtomobilni optimal tormozlash, ya'ni uning maksimal sekinlashishi va minimal tormozlanish masofasini ta'minlash uchun tormozlanish vaqtidagi g'ildiraklarning sirpanish darajasi S bo'ylama tishlashish koefitsiyenti φ_b ning maksimal qiymatiga mos kelishini ta'minlash zarur. Bu murakkab masalani antiblokirovkali tormozlash tizimlari hal qiladi.

Avtomobil shoshilinch tarzda tormoz-



6.29-rasm. Avtomobil g'ildiraklarining yo'l bilan bo'ylama φ_b va ko'ndalang φ_k yo'nalishdagи tishlashish koefitsiyentlarining sirpanish S ga bog'liqligi:

Sidirg'a chiziq – quruq yo'l.

Punktir chiziq – ho'l yoki muzlagan yo'l.

langanda, oddiy tormoz tizimi g'ildiraklarni blokirovka chegarasigacha tormozlanishini ta'minlaydi. Antiblokirovkali tormozlash tizimlari yordamida amalga oshiriladigan **optimal tormozlash**, g'ildiraklarni blokirovka chegarasigacha tormozlash usuliga nisbatan avtomobilning tormozlanish masofasini quruq yo'lda 20 %gacha, ho'l va muz bilan qoplangan yo'llarda 50...60 %gacha kamaytiradi va bu ko'p yo'l-transport hodisalarini oldini olish imkoniyatini beradi. Optimal tormozlashda yo'l bilan ko'ndalang yo'naliishdagi tishlashish koeffitsiyenti φ_k ham ancha katta qiymatlarga ega bo'lib (7.7-rasm), bu tormozlanish jarayonida avtomobilning turg'unlik va boshqarish darajasini oshiradi.


6.3.4. Antiblokirovkali gidravlik tormoz tizimining ishlash prinsipi

Antiblokirovkali tormoz (ABT) tizimi tarkibiga asosan quyidagi elementlar kiradi:

1. G'ildiraklarning aylanish tezligi (G'D).
2. G'ildiraklarning tormoz silindrlari (G'TS).
3. Bosh tormoz silindri (BTS).
4. ABTT ning gidromodulyatori.
5. ABTT ning elektron boshqarish bloki (EBB).

Antiblokirovkali tormoz tizimining asosiy elementi gidromodulyator bo'lib, u quyidagi qismlardan iborat:

- gidravlik nasos;
- uchta teskari ta'sir qiluvchi reduksion klapanlar K_1, K_2, K_3 ;
- ikkita berkituvchi klapanlar K_4 va K_5 dan iborat uch holatlari elektromagnitli gidroklapan (GK).



6.30-rasm. ABT tizimining funksional modeli.

ABT tizimini ishlash prinsipini bitta g'ildirakning tormozlanish rejimi misolida ko'rish qulay bo'ladi (6.30-rasm).

Tormozlanish rejimiga ko'ra 5 ta vaziyat yuzaga kelishi mumkin:

1. «*ABT tizimisiz tormozlash*» rejimi.

Bu holda:

$$a) V_{ti} = V_a;$$

b) Tormoz pedali datchigi PD bosilishi bilan ABT tizimi ulanadi, lekin u ishlamaydi, chunki g'ildiraklarning aylanish tezligida farq yo'q;

d) Tormoz suyuqligi BTSdan avval M kanalga, so'ngra K_4 klapani orqali

G'TSga uzatiladi. K_1 va K_3 klapanlar yopiq va ular L , N kanallarni berkitadi. K_5 klapan ham yopiq. Bu holda odatdagи tormozlanish jarayoni sodir bo'ladi va unda ABT tizimi ishtirok etmaydi;

e) Tormoz pedali qo'yib yuborilgandan keyin G'TSdagi suyuqlikning teskari bosimi ta'sirida K_3 klapan ochiladi va tormoz suyuqligini BTSga qaytib o'tkazib yuboradi.

2. G'TSda «*bosimning pasayishi*» rejimi (ya'ni g'ildiraklarning tormozlash kuchlarini susayishi).

Bu rejim g'ildirak datchigi G'Ddan EBBga g'ildirakning sekinlashganligi haqidagi (g'ildiraklarning blokirovkaga yaqin bo'lgan hol) C signal uzatilganda yuzaga keladi.

Bu holda:

a) $V_a > V_{rl}$;

b) ABT tiziminining EBB C signal asosida « A » kontaktlarga $U_k=10$ V kuchlanish uzatadi va bosh gidroklapanning elektromagnit g'altagi W orqali ~ 5 A tok o'ta boshlaydi. Shu bilan bir vaqtida gidronasos N ning « B » kontaktiga 12 V kuchlanish uzatiladi va gidronasos ishlay boshlaydi;

d) Gidronasos N ning bosimi ta'sirida K_1 va K_2 klapanlar ochiladi. Bosh elektrogidroklapandagi K_5 klapan ham ochiladi. K_4 klapan esa elektromagnit g'altak W ning ninasi ta'sirida yopiladi;

e) Yuqorida o'tkazilgan amallar, tormoz suyuqligini G'TSdan BTSga qaytaruvchi kanalni ochadi: suyuqlik K_5 klapan so'ngra K_2 va K_1 klapanlar orqali BTSga qaytadi.

3. G'TSda «*bosimni ushlash*» rejimi.

Bu rejim ABT tizimi avtomatik ravishda «*bosimning pasayishi*» rejimidan chiqqanda yuzaga keladi. Bu jarayon G'Ddan uzatilgan C signal bo'yicha, yana $V_{rl} = V_a$ bo'lganda sodir bo'ladi;

a) ABT tiziminining EBB « A » kontaktlarga ~ 4 V kuchlanish uzatadi, elektromagnit g'altak W dagi tok $2 A$ gacha kamayadi. « B » kontaktlarga 12 V kuchlanish uzatilishi saqlanib qoladi va gidronasos N ishlashda davom etadi;

b) Elektromagnit g'altak W dagi tok $2 A$ gacha kamayishi natijasida bosh elektromagnit klapan K_4 va K_5 ishchi klapanlarni berkitadi va G'TSdagi tormoz suyuqligining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, chunki bu holda suyuqlik G'TSda K_3 , K_4 , K_5 klapanlar bilan yopib qo'yilgan bo'ladi.

4. G'TS dagi «*bosimning oshirish*» rejimi.

Bu rejim G'Ddan EBBga g'ildirakning aylanish tezligi ortganligi haqidagi signal C uzatilganda, ya'ni $V_{rl} > V_a$ bo'lganda yuzaga keladi.

a) ABT tiziminining EBB C signal bo'yicha « A » kontaktlarga uzatilayotgan tok zanjirini uzadi ($I_w = 0$), ammo 12 V kuchlanish « B » kontaktlardan gidronasos N ga uzatilishi davom etadi va bosh gidrokapan K_4 klapanni ochadi, K_5 klapanni esa berkitadi;

b) G'TSdagi bosim ortadi, chunki gidronasos N tormoz bakchasi B dan suyuqlikni K_1 , K_2 va K_4 klapanlari orqali G'TSga uzatadi.

5. Yuqorida ko'rilgan 4 rejimning barchasida tormoz pedalining orqaga yurishiда suyuqlik G'TSga teskari klapan K_3 orqali qaytariladi. Tormoz pedali to'la orqaga qaytganda chegaraviy o'chirgich PD EBBni o'chiradi va ABT tiziminining ishi to'xtatiladi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Majburiy salt ishlash ekonomayzerining vazifasi nima va u qanday ishlaydi?
2. Yonilg'ini purkash tizimi karbyuratorli yonilg'i uzatish tizimiga nisbatan qanday afzalliklarga ega?
3. K-Jetronic tizimiga qaysi elementlar kiradi va u qanday ishlaydi?
4. KE-Jetronic tizimida yonilg'ini boshqaruvchi bosimining elektrogidravlik rostlagichchi qanday ishlaydi?
5. L-Jetronic tizimida purkalayotgan yonilg'i miqdori qanday me'yorlanadi?
6. Mono-Jetronic tizimining o'ziga xos tomoni nimadan iborat?
7. Motronic 3.1 tizimining tarkibi va ishlashini qisqacha izohlang.
8. Kiritish kollektoridagi absolut bosim datchigining tuzilishi va ishlashini izohlang.
9. Termoanemometrik havo o'lchagich qanday qonun asosida ishlaydi?
10. Kislorod konsentratsiyasi datchiklarining qanday turlari mavjud va ular nima maqsadda ishlatiladi?
11. Elektromagnitli boshqarishga asoslangan forsunkalarning tuzilishi va ishlashini tushintiring.
12. Yonilg'iga to'liq cho'ktirilgan benzonasoslarning tuzilishi va ishlashini tushintiring.
13. Antiblokirovkali tormoz tiziminining vazifasi nima?
14. Antiblokirovkali tormoz tizimini elektron boshqarish qanday amalga osdiriladi?

7-BOB. AVTOMOBILNING QO'SHIMCHA ELEKTR JIHOZLARI

7.1. Avtomobil agregatlarining elektr yuritmalari

Hozirgi zamon avtomobillarida harakat xavfsizligini ta'minlash, haydovchi va yo'lovchilarga qulaylik yaratish, yonilg'ini tejash bilan bog'liq bo'lgan mexanizmlarni harakatga keltiradigan elektryuritmalar keng ko'lamda ishlatalmoqda. Elektrodvigatel, uzatish mexanizmi va boshqarish asboblaridan iborat bo'lgan elektromexanik tizimga elektr yuritma deb ataladi. Elektr yuritmalar avtomobilning quyidagi moslamalarida ishlatalidi: isitgichlar va ventilyatorlar, avtomobilning oldi-orqa oynalari va faralarning tozaqagichlar, yon oynalar va radioantennani ko'tarish-tushirish mexanizmlari, o'rindiqlarni harakatlantiruvchi mexanizmlar va hokazo.

Avtomobillarda kollektorli o'zgarmas tok elektrodvigatellari qo'llanadi. Mexanik energiyani uzatish uchun tishli va qo'chqaroqli uzatmalar, krivoship-shatun mexanizmlari ishlataladi. Elektrodvigatelei boshqarish tizimi turli xil relelar, elektron moslamalar, datchiklar, uzgich va almaslab ulagichlardan iborat. Elektrodvigatel, mexanik energiyani uzatish moslamasi, bajaruvchi mexanizm va boshqarish sxemasining elementlari konstruktiv jihatidan bitta umumiy qurilmaga birlashtirilgan bo'lishi mumkin. Masalan, elektrodvigatel oynatozalagich reduktori bilan birikib motoreduktorni hosil qildi. Elektr oynatozalagich va oynayuvgichlar ham elektrodvigatel va bajaruvchi mexanizmnning birikishidan hosil bo'lgan moslama-lardir.


Ishlatish joyi va sharoitiga qarab eletrodvigatellar uzoq, qisqa vaqt davomida yoki qisqa vaqt takroriy rejimlarda ishlashi mumkin.

Avtomobillarning elektryuritmalarida faqat o'zgarmas tok elektrodvigatellari ishlatalib, ularning elektromagnit va doimiy magnitlardan uyg'otiladigan tur-lari mavjud.

Elektromagnitli uyg'otish tizimiga ega bo'lgan elektrodvigatelning tuzilishi
7.1-rasmda keltirilgan.

Elektrodvigatel yakori *1*, ikkita o'zi o'mashadigan metalokeramik podship-niklar *7* da aylanadi. Podshipniklar qopqoq va korpus *11* da prujinalar *5* va *14* bilan ushlab turiladi va namatdan tayyorlangan tiqma *6* ga shimdirlig'an moy bilan moylanib turadi. Qopqoq va korpus murvat *3* yordamida bir-biriga tortib qo'yilgan. Yakorning halqasimon usulda o'ralgan chulg'amlari kollektor *8* ga ulangan. Kollek-tor shtampalash yo'li bilan mis tasmalardan tayyorlanadi. Cho'tka *9* kollektorga prujina *10* yordamida bosib turiladi. Cho'tkatutqichlar traversa *4* ga mahkamlan-gan. Korpusning ichki silindrik sirtiga stator joylashtirilgan bo'lib, uning qutblari *12* ga uyg'otish chulg'ami *13* o'matilgan. Quvvati katta bo'lgan elektrodvigatel-larning yakori zoldirli podshipniklarga o'matiladi.

Avtomobillarda ketma-ket, parallel va aralash uyg'otish tizimiga ega bo'lgan



7.1-rasm. Elektromagnitli uyg'otish tizimidagi elektrodvigatel:

a – ko'ndalang kesimi; b – elektr sxemasi; 1 – yakor, 2 – qopqoq, 3 – murvat, 4 – traversa, 5 va 14 – plastinasimon prujinalar, 6 – tiqma, 7 – metallokeramik podshipnik, 8 – kollektor, 9 – cho'tka, 10 – prujina, 11 – korpus, 12 – stator qutblari, 13 – uyg'otish chulg'ami, 15 – yakor vali, 16 – almashlab ulagich, 17, 18 – uyg'otish chulg'ami g'altaklari.


elektrodvigatellar ishlataladi. Ketma-ket uyg'otish tizimili elektrodvigatellar ishga tushirish momenti katta bo'lishi talab qilinadigan mexanizmlarda (oynako'targich, antennani chiqarib-tushirish moslamalari), parallel va aralash uyg'otish tizimli elektrodvigatellar esa, tavsifnomasi barqaror va aylanish chastotasi yuklama ortish

bilan o'zgarmaydigan mexanizmlarda (oyna-fara tozalagichlar va hokazo) ishlataladi. Reversiv elektrodvigatellarning ikkitan uyg'otish chulg'ami bo'lib, ular zanjirga galma-gal ulanadi.

Hozirgi zamon avtomobillarda elektromagnitli uyg'otish tizimili elektrodvigatellar o'rniغا doimiy magnitlar ta'sirida uyg'otiladigan elektrodvigatellar o'rnatilmoxda. Elektrodvigatelning uyg'otish tizimida doimiy magnit ishlatalishi, uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash, xususan massasi va o'lchamlarini kamaytirish, foydali ish koefitsiyentini 1,5 baravar oshirish imkonini beradi. Elektrodvigatelda ichki ulanishlarning soddaligi ularning ishonchligini oshiradi. Bundan tashqari, mustaqil uyg'otish tizimi barcha doimiy magnitli elektrodvigatellar reversiv bo'lishini ta'minlaydi.

7.2-rasm. Doimiy magnitli elektrodvigatel:

1 va 7 – podshipniklar, 2 – doimiy magnit, 3 – cho'tkatutqich, 4 – cho'tka, 5 – traversa, 6 – kollektor, 8 va 14 – qopqoqlar, 9 – drossel, 10 – mahkamlash plastinasi, 11 – magnitni mahkamlash prujinasi, 12 – yakor, 13 – korpus, 15 – yakorning chekka izolyatsiya plastinasi.




Doimiy magnitli elektrosvigatelning tuzilishi 7.2-rasmida keltirilgan. Doimiy magnitlar 2 qobiq 13 ning ichki sirtiga ikkita yassi po'lat prujinalar 11 yordamida mahkamlanadi. Elektrosvigatel yakori 12 ikkita o'zi o'mashadigan sirg'anuvchi podshipniklar 1 va 7 da aylanadi. Grafit cho'tkalar 4 kollektor 6 ga prujinalar yordamida bosib turiladi.

Doimiy magnitli elektrosvigatelning ishlash prinsipi yakor va stator magnit maydonlarining o'zaro ta'siriga asoslangan.

Hozirgi kunda avtomobil elektyuryuritmalar uchun kontaktsiz o'zgarmas tok elektrosvigatellarini yaratish yo'nalishida izchil ish olib borilmoqda.

7.2. OYNATOZALAGICHLAR

Oynatozagichlar avtomobilning oldi tomonidagi (ba'zi avtomobillarda orqa tomonidagini ham) oynasini atmosfera yog'inlaridan (qor, yomg'ir), har xil ifloslar dan tozalash uchun xizmat qiladi. Oyna tozalagich aralash uyg'otish tizimiga ega bo'lgan doimiy magnitli elektrosvigatel, almashlab ulagich, qo'chqaroqli reduktor, krivoship, pishang va tortqilar, cho'tkalar, termobimetall plastinali saqlagichdan iborat. Yakor 1 ning (7.3-rasm) aylanma harakati uning o'qidagi qo'chqaroq



7.3-rasm. Oynatozagich:

a – cho'tkalaryuritmasi; b – elektr sxemasi; 1 – yakor, 2 – almashlab ulagich, 3 – cho'tkalar yuritmasining reduktori va chegaraviy uzgich, 4 – krivoship, 5 – tortqi, 6 – pishanglar, 7 – cho'tka pishanglarining tayanchi, 8 – cho'tkalar, 9 – almashlab ulagichning kontakt lappagi, 10 – rezistor, 11 – chegaraviy uzgichning kontakt lappagi, 12 – shesternya, 13 – reduktor qo'chqarog'i (chervyak), 14 – o't oldirish kaliti, 15 – termobimetall saqlagich, 16 – chegaraviy uzgichning kontakt plastinasni, 17 va 18 – uyg'otish chulg'ami g'altaklari; Sh va Ya – o'tkazgichlarni ulash qisqichlari.


13 orqali reduktorning plastmassadan tayyorlangan shesternysi 12 ga uzatiladi. Krivoship 4, shesternya valiga qattiq mahkamlangan bo'lib, uning aylanishi rezina tozalovchi cho'tka pishanglari 8 ni o'z tayanchlari 7 ga nisbatan tebranishga olib keladi. Krivoship harakati cho'tkalarga tortqilar 5 va pishanglar 6 orqali uza tiladi. Elektrodvigatelni tok manbayiga ulash va uzish, uning yakorining tezligini o'zgartirish al mashlab ulagich 2 yordamida amalga oshiriladi.

Oynatozalagich cho'tkalari kichik tezlikda ishlashini ta'minlash uchun al mashlab ulagich 2 ning kontakt lappagi 9, tok elektrodvigatel uyg'otish chulg'amining parallel ulangan g'altaklariga, qarshilik 10 dan o'tmasdan boradigan I holatga keltiriladi.

Tozalovchi cho'tkalar tezligini oshirish uchun al mashlab ulagichning kontakt lappagi boshqa holatga keltiriladi (II holat). Bu holda elektrodvigatel uyg'otish chulg'amining parallel g'altagi zanjiriga qarshilik 10 ulanadi. Uyg'otish zanjirida tok kuchi susayishi, uyg'otish magnit oqimini kamaytiradi, natijada yakor aylanishlar chastotasi ortadi. Al mashlab ulagich o'chirilgandan keyin ham (0 holat), plastina 16, kontakt lappak 11 ning kesilgan joyiga o'rashguncha elektrodvigatel ishlab turadi. Bu daqiqada chegaraviy uzgich zanjirni uzadi va elektrodvigatel to'xtaydi. Bunda, cho'tkalar avtomobil oldi tomonidagi oynasining eng chekka past qismida, haydovchiga xalaqt bermaydigan joyda to'xtaydi. Yuklama ortishi va qisqa tutashuv natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan katta tok kuchidan elektrodvigatel chulg'amlarini himoya qilish uchun, uning zanjiriga takroriy ishlaydigan termobimetall plastinali saqlagich 15 ulangan.

7.4-rasmida doimiy magnetli elektrodvigatelga ega bo'lgan СЛ-136 belgili oynatozalagich elektr yuritmasining sxemasi keltirilgan. Bu turdag'i oynatozalagichlarining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ularda tozalovchi cho'tkalarning kichik va katta tezlikda harakatlanishi bilan birga to'xtab-to'xtab harakatlanish rejimida ishlash ham ko'zda tutilgan. Oynatozalagichning to'xtab-to'xtab harakatlanish rejimi al mashlab ulagich I ning III holatga qo'yilishi bilan amalga oshiriladi. Bu

holda elektrodvigatelnинг yakor zanjiriga rele 7 ular nadi. Releda qizdiruvchi spiral 8 bo'lib, u termobimetall plastina 9 ni qizdiradi. Bimetall plastina qizishi davomida yuqori tomoniga egiladi va kontaktlar 10 ni uzadi. Bu, o'z navbatida, rele 11 ning ta'minot zanjiri toksizlanishiga va uning kontaktlari 12 elektrodvigatelnинг yakori zanjirini



7.4-rasm. СЛ-136 belgili oynatozalagich elektr yuritmasining umumiyy sxemasi

uzishga olib keladi. Bimetall plastina 9 soviganidan keyin dastlabki holatiga qaytib, kontaktlar 10 ni tutashtiradi, rele 11 ga tok keladi va uning kontaklari 12 tutashib yana elektrodvigatelni tok manbayiga ulaydi. Oynatozalagichdagi bu jarayon bir minutda 7...19 marta qaytariladi.

Oynatozalagich cho'tkalari kichik tezlikda harakatlanishini ta'minlash uchun almashib ulagich II holatiga keltiriladi. Bu holatda tok elektrodvigatel yakori 4 ga asosiy cho'tkalarga nisbatan burchak ostida joylashtirilgan qo'shimcha cho'tkalar 3 orqali uzatiladi. Bu rejimda tok yakor chulg'amlarining faqat ma'lum bir qismidan o'tganligi tufayli, uning aylanish chastotasi va aylantiruvchi momenti kamayadi. Oynatozalagich cho'tkalarini katta tezlikda harakatlantirish uchun almashlab ulagich I holatga o'tkaziladi. Bunda: elektrodvigatel ta'minoti asosiy cho'tkalar orqali amalga oshiriladi va tok yakorning hamma chulg'amlaridan o'tadi. Almashlab ulagichning IV holatida tok birdaniga oynatozalagich va oynayuvgich elektrodvigatellarining yakorlari 4 va 2 ga uzatiladi va ular birgalikda ishlaydi.


Oynatozalagich o'chirilgandan keyin ham (almashlab ulagichning 0 holati) kulachok 6 aylanib, qo'zg'aluvchi kontakt 5 ni uzunguncha elektrodvigatel ishlab turadi. Kontakt 5 uzilgandan keyin elektrodvigatel to'xtaydi. Elektrodvigatelnинг tok zanjiri belgilangan daqiqada uzilishi, oynatozalagich cho'tkalarining dastlabki holatida to'xtashini ta'minlash bilan bog'liq. Elektrodvigatelnинг yakor zanjirlarini ortiqcha yuklama va qisqa tutashuv toklaridan xalos qilish uchun termobimetall saqlagich 13 o'rnatilgan.

Yomg'ir tomchilab yoqqanda yoki qor uchqunlab turganda avtomobil oldi oynasi kam namlanib, oynatozalagich cho'tkalarining ishqalanishini va ularni yeyilishi kuchaytiradi. Ishqalanish kuchining ortishi energiya sarfini oshiradi va yuritma elektrodvigateli qizib ketishi mumkin. Oynatozalagichni bir-ikki taktga, qo'l bilan ishga tushirish noqulay va xavfli, chunki bu bir necha daqiqaga bo'lsa ham haydovchi diqqatini jalb qiladi. Hozirgi zamon avtomobillarida oynatozalagich qisqa vaqt davomida ishlashini ta'minlash uchun elektrodvigatelning boshqarish tizimiga maxsus elektron sxema kiritilib, u ma'lum vaqt oralig'ida (2...30 s) oynatozalagich elektrodvigatelinii bir-ikki takt ishlashi uchun ulab turadi.

7.3. TOVUSH SIGNALLARI

Tovush signallari avtomobillarning harakat xavfsizligini ta'minlash va yo'lovchi hamda boshqa haydovchilarni transport vositasi yaqinlashayotganligi haqida ogohlantirish uchun xizmat qiladi. Keyingi vaqtida tovush signallari avtomobillarning o'lcov-nazorat asboblari bilan ham ishlatilib, haydovchiga agregatlarining holati to'g'risida xabar beradi. Shuningdek tovush signallari «avtomobil qo'riqchisi» tizimida ham ishlatiladi. Avtomobillarda asosan elektr va pnevmatik tovush signallari ishlatiladi.

Elektr tovush signallarining ohangli va shovqinli turlari mavjud. Ohangli



7.5-rasm. Elektr tovush signali

biriga moslanadi va baravariga sadolanadi.


Elektr tovush signali (7.5-rasm) qoliplangan po'lat korpus 1 ga mahkamlangan o'zak 4, qo'zg'almas kontakt plastinasi 3, qo'zg'aluvchi kontakt o'rnatilgan prujinasimon plastina 7 lardan iborat. Korpus 1 va rezonator 12 orasiga legirlangan va toblangan po'latdan tayyorlangan membrana 11 qistirib qo'yilgan.

Membranaga shtift 5 o'mashtirilgan yakor 10 mahkamlangan. Elektromagnit chulg'ami 9 uzgich kontaktlar 6 ga ketma-ket ulangan. Kontaktlar orasidagi tirkish gaykalar 2 bilan rostlanadi. Kontaktlar orasidagi hosil bo'ladigan uchqun kuchi ni pasaytirish uchun ularga parallel ravishda rezistor 5 (ba'zi hollarda kondensator) ulangan. Volfram kontaktlar 6 plastinalarga payvandlangan va normal holda tutashgan bo'ladi.


Elektromagnit chulg'ami 9 tok manbayiga ulanganda, o'zak 4 magnitlanadi va yakor 10 ni o'ziga tortadi. Bu esa yakor mahkamlangan membrananing egilishi ga olib keladi. Shu daqiqaning o'zida yakorga o'rnatilgan shtift yuqoriga harakat qilib prujinasimon plastinaga ta'sir qiladi va kontaktlar 6 ni uzadi. Kontaktlarning uzilishi natijasida elektromagnit chulg'amining tok zanjiri ham uziladi, o'zak 4 magnitsizlanadi membrana 11 o'zining elastikligi hisobiga daslabki holatiga qaytadi. Kontaktlar 6 yana tutashadi va signalning ishi takrorlanadi. Membrana harakati ta'sirida vujudga kelgan havoning tebranishi ma'lum chastotaga (200...400 Hz) ega bo'lgan tovush hosil bo'lishini ta'minlaydi. Signalning zarur ohangi membrananing qalilnigi va karnayning shaklini tanlash yo'li bilan ta'minlanadi. Karnay qanchalik

kalta va membrana qanchalik qalin bo'lsa signal ohangi shunchalik yuqori bo'ladi.

Avtomobilarga ikki yoki undan ortiq karnayli tovush signallari o'rnatilganda, signalni ulaydigan tugma kontaktlari orgali o'tadigan tok qiymati 20...25 A gacha yetib, uni kuydirishi mumkin. Signal tug-



7.6-rasm. Signallar relesining ularish sxemasi



7.7-rasm. Shovqinli (karnaysiz) tovush signali:

1 – qopqoq, 2 – rostlash shlitsasi, 3 – qisuvchi shayba, 4 – shponka chiqig'i, 5 – uzgich prujinasi, 6 – rostlash murvatining prujinasi, 7 – rostlash murvati, 8 – qobiq, 9 – uzgich kontaktlari, 10 – markazlashtiruvchi prujina, 11 – sterjen tayanchi, 12 – sterjen, 13 – elektromagnit o'zagi, 14 – kondensator, 15 – chulg'am, 16 – prujinali osma, 17 – yakorcha, 18 – membrana, 19 – rezonator.

masi kontaklarini saqlash va uni ishlash muddatini uzaytirish uchun signallar relesi (7.6-rasm) ishlataladi. Tovush signalining tugmasi 5 bosilganda rele chulg'ami 4 dan tok o'tadi, uning o'zagi magnitlanadi va yakorcha 3 ni tortib kontaktlar 2 ni tutashtiradi. Rele kontaktlarining ulanishi tovush signallari 1 ning tok manbayiga ulanishini ta'minlaydi. Signalni ulovchi tugma 5 kontaktlaridan o'tadigan tok, rele o'zagini magnitlash uchun yetarli bo'lib, uning qiymati katta bo'lmaydi.

Shovqinli (karnaysiz) tovush signali kosasimon disk ko'rinishidagi rezonator 19 ga ega bo'lib, u membrana 18 bilan birga tebranadi. Shovqinli signallarda kontaktlar 9 orasidagi tirkish murvat 7 yordamida tashqaridan rostlanadi. Yakorcha 17 va o'zak 13 orasidagi tirkish esa sterjen 12 ni burash yo'li bilan rostlanadi. Uni burash rostlash shlitsasi 2 yordamida amalga oshirilib, dastlab gayka bo'shatilishi kerak. Rostlash jarayoni tugatilgandan keyin, gaykani yana yaxshilab burab qo'yish zarur (7.7-rasm).

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollari

1. Elektr yuritma avtomobilning qanday qurilmalarida ishlataladi?
2. Elektromagnitli uyg'otish tizimli elektrosvigatellarning tuzilishi qanday?
3. Doimiy magnitli elektrosvigateling tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
4. СЛ-136 belgili oynatozalagichning elektr yuritmasining o'ziga xos tomonlarini izohlang.
5. Tovush signallarining turlari va ishlashi. Signallar relesining vazifasi nima dan iborat?

8-BOB. AVTOMOBIL ELEKTR JIHOZLARINING SXEMASI. KOMMUTATSIYA APPARATLARI

8.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Avtomobildagi elektr tarmog‘ining asosiy vazifasi elektr energiyani iste’molchilarga uzatish va taqsimlashdan iborat. Avtomobil elektr tarmog‘i nominal kuchlanishi 12 yoki 24 V bo‘lgan o‘zgarmas tok zanjirlaridan tuzilgan. O‘tkazgichlarning sarfini kamaytirish va elektrjihozlarini o‘rnatishni soddalashtirish maqsadida avtomobilarda elektr energiyani uzatishning bir o‘tkazgichli tizimi joriy qilingan; hamma elektr jihozlar uchun tok o‘tkazgich sifatida avtomobil korpusi («massa») ishlataliladi.

Avtomobilarda elektr energiya markazlashgan usulda taqsimlanadi. Tok manbalari o‘tkazgichlar bilan markaziy taqsimlash qurilmasiga ulanadi va undan iste’molchilarga uzatiladi. Avtomobilarda markaziy taqsimlash qurilmasi vazifasini asboblar paneli bajarib, unga asosiy himoya va kommutatsiya apparatlari joylashtiriladi. Ba’zi zamonaviy avtomobilarda rele va saqlagichlarning markaziy bloki alohida qurilma sifatida ishlab chiqarilmoqda.

Elektr energiya manbasini taqsimlash qurilmasi bilan ulovchi tarmoq magistral tarmoq deb yuritiladi. Uning uzunligi 3...15 m doirasida bo‘lib, kommutatsiya va himoya moslamalariga ega bo‘lmaydi. Ba’zi zamonaviy avtomobilarda ikki kanalli magistral tarmoqlar ham ishlataladi. Birinchi kanal o‘t oldirish va axborot-diagnostika tizimlarini elektr energiya bilan ta’minlasa, ikkinchi kanal orqali esa start-yorning tortish relesi, oynatzosalagich, isitgich, tovush signallari va boshqa jihozlarga tok uzatiladi. Ikkinchi kanalning kiritilishi elektr ta’minot tizimining ishonchiliginи va elektr energiya tejamkorligini oshiradi.

Hozirgi kunda avtomobil elektr tarmog‘ida ishlataladigan simlarning sarfini kamaytirish muammosi yuzaga chiqdi. Chunki yengil avtomobil elektr tarmoq‘ida 180...300 m, yuk avtomobillarida 250...700 m gacha mis sim ishlataladi. Mis sarfini kamaytirish uchun avtomobilarda elektr energiya taqsimlashning prinsipial yangi tizimlari, xususan multipleks tizimi (ikkita shina bo‘yicha 5–6 ta datchikdan olin-gan ma’lumot o‘tadi) yoki tolali optika joriy qilish. Lekin hozirgi kunda bu tizimlarni avtomobilarda keng qo’llanilishi ularning tannarxini balandligi bilan cheklanmoqda.

8.2. KOMMUTATSIYA APPARATLARI

Avtotransport vositalarining elektr jihozları tarkibiga elektr ta’minot tizimi va iste’molchlardan tashqari kommutatsiya apparatlari ham kiradi.

Kommutatsiya apparatlarini uch turga bo‘lish mumkin:

– o‘chirgichlar va almashlab ulagichlar;

– elektromagnit rele va kontaktolar;

– qisqichlar va ulash panellari.

O'chirgich va almashlab ulagichlar nominal kuchlanishi nominal kuch ulanish sxemasi, kontaktlardagi kuchlanishning pasayishi, ulab-o'chirishlarining maksimal soni bo'yicha tavsiflanadi.


Avtomobilarda bajarayotgan vazifasiga ko'ra quyidagi o'chirgich va almashlab ulagichlarni ko'rsatsa bo'ladi: o't oldirish kaliti (bosh o'chirgich), yoritish tizimining markaziy alamashlab ulagichi, burilishni ko'rsatuvchi chiroqlarni alamashlab ulagichi va hokazo.

O't oldirish kalitining tuzilishi va ishlashi ushbu darslikning III bobida batafsil yoritilgan.

Yoritish tizimining markaziy almashlab ulagichi sirg'aluvchi kontaktli konstruksiya bo'lib (8.1-rasm), uning korpusida kareta 7 joylashtirilgan. Kareta shtok 8 vositasida harakatlanib zoldirlar 5 yordamida uchta muayyan mahkamlangan holatni egallashi mumkin. Karetada kontakt plastina 3 o'rnatilgan va u prujinalar 6 bilan tekstolit plastina 2 ga siqilib turadi. O'z navbatida tekstolit plastinaga qisqich 9 bilan ulangan kontaktlar joylashtirilgan. Turli holatlarda plastina 3 ma'lum kontaktlarni tutashtiradi. Ba'zi almashlab ulagichlar tok manbayiga termobimetall saqlagich 1 orqali ulanadi.


Zamonaviy avtomobilarda klavisha turidagi almashlab ulagichlar keng tatbiq etilgan. Klavishali almashlab ulagichlarning daslabki holatiga o'zi qaytadigan va dastlabki holatiga majburiy qaytariladigan turlari mavjud.

Dastlabki holatiga o'zi qaytadigan klavishali almashlab ulagich (8.2- a



8.2-rasm. Klavishali almashlab ulagichlar:

a) dastlabki holatiga o'zi qaytuvchi; b) dastlabki holatiga majburiy qaytariluvchi.



8.3-rasm. Montaj bloki:

1 – fara tozalagichni ularash relesi; 2 – orqa peshoyna tozalagichning vaqt ularash relesi; 3 – burilishni ko’rsatuvchi va avariya signaling rele-uzgichi; 4 – oyna tozalagich ularash relesi; 5 – lampalarini sozligini nazorat qilish ularash relesi o’rnidagi kontakt ulagichlar; 6 – orqa oyna isitgichini ularash relesi; 7 – zaxira saqlagich; 8 – uzoqni yoritish farasini ularash relesi; 9 – yaqinни yoritish farasini ularash relesi; 10 – saqlagich; 11 – ventilyator elektrosvigatelinini ularash relesi; 12 – tovush signalini ularash relesi.

orqa peshoyna isitgichlari, salon isitgichlari, fara tozalagichlarini ularash uchun ishlataladi. Bu relelar avtomobil elektr jihozlariga taalluqli yuqorida keltirilgan asboblar ni boshqarish zanjirlaridagi tok qiymatini ancha pasaytirish imkonini beradi.

Keyingi vaqtida ishlab chiqarilgan avtomobilarda elektromagnit relelar, saqlagich va boshqa elementlar *montaj bloki* deb yuritiluvchi bitta qurilmaga o’rnatilmoqda (8.3-rasm).

Montaj bloki orqali dvigatel bo’limidagi o’tkazgichlar avtomobil salonidagi o’tkazgichlar bilan ularadi.

rasm) asosi 1 ning shtekkerli chiqish joyiga qo’zg’almas kontaktlar 7 o’rnatilgan. qo’zg’aluvchi kontakt 6 ko’prikcha shaklida yasalgan. Asosga qisqichlar yordamida mahkamlangan korpus 2 dagi o’qqa klavisha 3 o’rnatilgan. Klavisha qo’zg’aluvchi kontakt 6 ni qo’zg’almas kontakt 7 bilan turtqich 5 yordamida tutashtiradi. Turtkich 5 ni klavisha korpusiga joylashtirilgan prujina bosib turadi. Klavisha bosilganda turtqich 5 prujina ta’sirida tashqariga chiqib, ko’priksimon qo’zg’aluvchan kontaktlarning holatini o’zgartiradi. Natijada qo’zg’aluvchan kontakt boshqa qo’zg’almas kontaktlarni tutashtiradi. Klavisha qo’yib yuborilgandan keyin prujinalangan shtok 4 uni dastlabki holatiga qaytaradi.

Dastlabki holatiga majburiy qaytarilmaydigan klavishali almashlab ulagichlarda (8.2- b rasm) orqaga qaytarish mexanizmi yo’q. Ba’zi konstruksiyalarda almashlab ulagichga yoritish lampasi 8 o’rnatilab, u almashlab ulagichning ishchi holatda ekanligini ko’rsatadi.

Avtomobil elektr jihozlarida *elektromagnit relelar* tobora keng qo’llanmoqda. Ular startyor, tovush signallari, uzoq va yaqinни yoritish faralari, dvigatelning sovitish tizimidagi ventilyator,

ishchi holatiga majburiy qaytarilmaydigan klavishali almashlab ulagichlarda (8.2- b rasm) orqaga qaytarish mexanizmi yo’q. Ba’zi konstruksiyalarda almashlab ulagichga yoritish lampasi 8 o’rnatilab, u almashlab ulagichning ishchi holatda ekanligini ko’rsatadi.

8.3. SAQLAGICH VA O’TKAZGICHLAR

Avtomobil elektr tarmoqlarini me’yoridan ortiq yuklamalar va qisqa tutashuvlardan asrash uchun ularga saqlagichlar qo’yiladi. Dvigateli ishga tushirish va o’toldirish tizimlaridan boshqa barcha zanjirlar saqlagichlar bilan himoyalananadi. Avtomobilarda asosan eruvchan va termobimetall saqlagichlar ishlataladi.

Saqlagichlarni tanlashda ularning ta'sirlanish tezligi, nominal va kritik toklarning nisbati hisobga olinadi. Saqlagichlarning asosiy tavsifnomasi — saqlagichning ta'sirlanish vaqtining yuklama tokiga bog'liqligidir. Agar saqlagichning ta'sirlanish vaqtini o'tkazgichning haroratini chegaraviy temperaturaga cha ko'tarilish (qisqa tutashuv toki ta'sirida) vaqtidan kam bo'lsa, bunday saqlagich ushbu zanjirni ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydi.

Ervchan saqlagichlar yengil eruvchi metall yoki kesimi kichik bo'lgan qalaylangan mis simli qistirmaga ega. Nominal tok qiymati 50 % oshganda, ervchan qistirma 1 minut davomida erib ketadi. Ishlatish qulay bo'lishi uchun ervchan saqlagichlar uchta va undan ortiq saqlagichlarga ega bo'lgan bloklarga birlashtiriladi.


Termobimetall saqlagichlar. Avtomobilarda uzluksiz va bir marta ishlaydigan termobimetall saqlagichlar ishlataladi. Bu turdag'i saqlagichlar yuklama nominal qiymatidan 150 %ga ortganda, zanjirni uzadi. Saqlagich ta'sirlashish vaqtini 20 sekunddan oshmaydi.

Uzluksiz ishlaydigan bimetall saqlagichlar ko'proq yoritish va oynatozalagich zanjirlariga o'rnatiladi.

Saqlagich (8.4-rasm) himoya zanjiriga chiqish joyi 1 orqali ulanadi. Kontakt plastinalar 2 bir biridan qalin qog'oz 3 bilan izolyatsiyalangan. Kontakt plastinka-larga o'rnatilgan kumush kontaktlar 4 elastik bimetall plastina 5 ning tarangligi hisobiga tutashib turadi. Plastina 5 tayanch 7 dan plastmassa shaybalar 6 bilan ajratilgan.


Uzluksiz ishlaydigan saqlagichlarning ishlash printsipi quyidagicha. Tok nominal qiymat doirasida bo'lganda plastina 5 uncha qizimaydi va deyarli deformatsiyalanmaydi. Bu holda kontaktlar tutash bo'ladi. Zanjirdagi tok chegaraviy qiymatdan oshganda, bimetall plastina qizib deformatsiyalanadi va kontaktlarni uzadi. Kontaktlar uzilgandan keyin bimetall plastinadan tok o'tmaydi va u soviydi. Natijada kontaktlar yana tutashadi. Kontaktlarni uzilib-tutashish jarayoni zanjirdagi tokni oshib ketish sababi bartaraf qilinmagunicha uzluksiz davom etadi.

Bir marta ishlaydigan termobimetall saqlagichlar (8.5-rasm) ham himoya zanjiriga chiqish joyi 1 orqali ulanadi. Tok plastinalar 2, kontaktlar 3, 4, bimetall plastina 5 orqali o'tadi. Saqlagich qismlari plastmassa korpus 6 ga yig'lladi.



8.4-rasm. Uzluksiz ishlaydigan termobimetall saqlagichlar

zanjirni ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydi.



8.5-rasm. Bir marta ishlaydigan termobimetall saqlagichlar

Yuklama ortib ketganda yoki qisqa tutashuv bo‘lganda, plastina 5 qiziydi va teskari tomonga egilib kontaktlar 3, 4 ni uzadi. Plastina sovugandan keyin ham o‘zining dastlabki holatiga qaytmaydi. Zanjirni ulash uchun tugma 7 ni qaytadan bosish kerak. Prujina 8 tugma 7 ni dastlabki holatiga qaytarish uchun xizmat qiladi. Uzilish tokining qiymati vint 9 yordamida rostlanadi.

Bir marta ishlaydigan saqlagichlar chegaraviy tokning 5, 10, 15, 20 A va undan ortiq qiymatlariga mo‘ljallab chiqariladi.

O‘tkazgichlar. Elektr energiyasini tok manbayidan iste’molchilarga uzatish uchun ishlatiladigan o‘tkazgichlar avtomobilda vibratsiya, temperatura, neft mahsulotlarining doimiy ta’sirida ishlaydi. Shuning uchun ularga qo‘yiladigan talablar ancha yuqori bo‘ladi.

Rossiyada ishlab chiqarilgan avtomobilning past kuchlanish zanjirlarida ПТВА ва ПВА belgili o‘tkazgichlar ishlatiladi. Bu o‘tkazgichlar zarur egiluvchanlikni ta’minlash uchun ko‘p jilg‘ali qilib tayyorlanadi. O‘tkazgichlarning polivinilklorid plastikdan tayyorangan izolyatsiyasi neft mahsulotlari ta’siriga va ishqalanishga chidamli, egiluvchanligi yuqori. ПТВА belgili o‘tkazgichning izolyatsiyasi –40 °C dan +70 °C gacha, ПВА belgiliniki esa –40 °C dan +105 °C gacha o‘z xususiyatlarini yo‘qotmaydi.

O‘tkazgichning kesimi yuzasi kattaligi zanjirdan o‘tadigan yuklama toki qiymati, kuchlanishning pasayishi va simning mexanik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tanlanadi.

0,5...16 mm² kesim yuzaga ega bo‘lgan o‘tkazgichlardan o‘tishi mumkin bo‘lgan tok kuchi qiymatlari 8.1-jadvalda keltirilgan.

8.1-jadval

O‘tkazgichning kesimi yuzasi, mm ²	Atrof-muhitning turli haroratida (°C) o‘tkazgichdan o‘tishi mumkin bo‘lgan tok kuchi qiymati, A				O‘tkazgichning kesimi yuzasi, mm ²	Atrof-muhitning turli haroratida (°C) o‘tkazgichdan o‘tishi mumkin bo‘lgan tok kuchi qiymati, A			
	20	30	50	80		20	30	50	80
0,5	17,5	16,5	14,0	9,5	2,5	45,5	43,5	37,5	26,0
0,75	22,5	21,5	17,5	12,5	4,0	61,5	58,5	50,0	35,5
1,0	26,5	25,0	21,5	15,0	6,0	80,5	77,0	68,0	47,0
1,5	35,0	32,0	27,0	19,0	18,0	149,0	142,5	122,0	88,5

8.4. AVTOMOBIL ELEKTR JIHOZLARINING SXEMALARI

Avtomobil elektr jihozlarining sxemasini ishlab chiqish ma’lum qoidalar asosida amalga oshiriladi. Elektr energiya manbayi bo‘lgan akkumulatorlar batareyasi va generator bir biriga parallell ulanadi. Agar ularning orasiga ampermestr

o'rnatilsa, iste'molchilar elektr energiya manbayi ulanadigan joyga qarab ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga ampermetr-akkumulatorlar batareyasi zanjiriga ulanadigan iste'molchilar kiradi. Bu guruhga qisqa vaqt davomida ishlovchi, lekin katta tok iste'mol qiladigan yoki avariya holatlarda ishlataladigan asboblar kiradi. Birinchi guruh asboblari jumlasiga startyor, tutatqich, tovush signali, avariya xabarchilari va boshqa asboblar kiradi.

Ampermetr-generator zanjiriga ulanadigan asboblar ikkinchi guruhini tashkil qiladi. Bu iste'molchilar o'z navbatida quyidagi kichik guruhlarga bo'linadi:

- o't oldirish kaliti orqali ulanadigan asboblar;
- markaziy almashlab ulagich orqali ulanadigan yoritish tizimi asboblari;
- ampermetr-generator zanjiriga bevosita ulanadigan asboblar (kam tok iste'mol qiluvchi va uzoq vaqt davomida ishlovchi iste'molchilar).

Avtomobil elektr jihozlari uchun uch turdag'i elektr sxemalar mavjud: prinsipial, ulanishlar va aralash.

Prinsipial (umumiy) sxema barcha elektr jihozlarining birgalikda ishlashi haqida to'la tasavvur beradi. U elektr jihozlarining ishlash printsipi va ularning o'zaro bog'lanishlarini yaxshiroq tushunish, nosozliklarni aniqlashni osonlashtirish vazifasini bajaradi. Prinsipial sxemadan rostlash, nazorat qilish va ta'mirlash ishlarini bajarishda foydalaniladi.

Prinsipial sxemada ba'zi jihozlar shartli grafik belgilar ko'rinishida berilib, ularda elementlarning ichki ulanish sxemalari keltiriladi. Sxemasi murakkab (kuchlanish rostlagichlari, elektron bloklar, radiopriyomniklar va hokazo) hamda vazifa-si aniq bo'lgan jihozlarning (nazorat-o'chov asboblari, tovush signali va hokazo) ichki ulanishlari ko'rsatilmasa ham bo'ladi.

Prinsipial elektr sxemalarda asosiy ta'minlovchi zanjirlar (musbat qutb) gorizontall joylashtiriladi. Avtomobil «massa»sini (manfiy qutb) ifodalovchi zanjir eng pastdag'i gorizontal chiziq bilan ko'rsatiladi. Iste'molchilar musbat va manfiy qutblar orasiga joylashtiriladi. Zarurat bo'yicha elektr jihozlar raqamlar yoki o'tkazgich rangi bilan belgilanadi. Sxemada ko'rsatilgan elektr jihozlarga harf-raqamli yoki raqamli belgilar qo'yilishi kerak. Jihozlarga qo'yiladigan tartib raqamlari sxemada o'ngdan chapga va tepadan pastga qarab qo'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston», 2008-y. -368 b.
2. Акимов А.В., Акимов С.В., Лейкин Л.П. Генераторы зарубежных автомобилей, Москва, «За рулём», 2003 г. -128 с.
3. Акимов С.В., Боровских Ю.И., Чичиков Ю.П. Электрическое и электронное оборудование автомобилей, Москва, «Машиностроение», 1988 г. -288 с.
4. Акимов А.В., Акимов О.А. и др. Электрооборудование автомобилей, Справочник, Москва, «Транспорт», 1993 г. -223 с.
5. Акимов С.В., Чижков Ю.П. Электрооборудование автомобилей, Москва, «За рулём», 2001 г. -384 с.
6. Mahmudov G'.N. Avtomobilarning elektr va elektron jihozlari, Toshkent, «Istiqlol», 2000 y. -202 b.
7. Сига Х., Мидзутани С. Введение в автомобильную электронику. Перевод с японского, Москва, «Мир», 1989 г. -159 с.
8. Соснин Д.А. Автотроника. Москва, Солон-Р, 2001. -273 с.
9. Ютт В.Е. Электрооборудование автомобилей. Москва, «Транспорт», 2006 г. -440 с.
10. Курзуков Н.И., Ягнятинский В.М. Аккумуляторные батареи. Краткий справочник. Москва, «За рулём», 2006. -88 с.
11. Данов Б.А. Системы управления зажиганием автомобильных двигателей. Москва, Горячая линия-Телеком, 2005 г. -184 с.

Mundarija

So'zboshi	3
Avtomobil elektr jihozlariga qo'yiladigan asosiy texnik talablar	6

1-bob. AVTOMOBILLARNING ELEKTR TA'MINOT TIZIMI UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Avtomobil generatorlari	8
1.1.1. O'zgaruvchan tok generatorlarining ishlash prinsipi	9
1.1.2. O'zgaruvchan tok generatorlarining elektr tavsifnomalari	16
1.1.3. O'zgaruvchan tok generatorlarining konstruksiysi va ularning o'ziga xos tomonlari	20
1.1.4. Kontaktsiz (cho'tkasiz) o'zgaruvchan tok generatorlari	26
1.2. Avtomobil generatorining kuchlanishini avtomatik rostlash	28
1.2.1. Generator kuchlanishini rostlash asoslari	28
1.2.2. Elektromagnit kuchlanish rostlagichlari	29
1.2.3. Elektromagnitli kuchlanish rostlagichlarining tavsifnomasini yaxshilash	36
1.2.5. Yarimo'tkazgichli kuchlanish rostlagichlari	41
1.3. Akkumulatorlar batareyasi	51
1.3.1. Umumiylumotlar	51
1.3.2. Akkumulatorlar batareyasining ishlash prinsipi, tuzilishi va asosiy ko'rsatkichlari	54
1.3.3. Akkumulatorlar batareyasining asosiy ko'rsatkichlari	74
1.3.4. Akkumulatorning razryadlanish va zaryadlanish tavsifnomalari	80
1.3.5. Akkumulatorlarning volt-amper tavsifnomasi	83
1.3.6. Generator va akkumulatorlar batareyasining birgalikda ishlashi	85
1.3.7. Qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarning asosiy nosozliklari	88
1.3.8. Qo'rg'oshin-kislotali akkumulatorlarni ishlatishning o'ziga xos tomonlari va ularning texnik holatini aniqlash	91
1.3.10. Akkumulatorlarni ishlatish jarayonidagi qarovi va ularning texnik holatini aniqlash	96
1.3.11. GM-Uzbekistan avtomobillariga o'rnatilgan akkumulatorlarni ishlatishning o'ziga xos tomonlari	99
1.3.12. Akkumulatorlar batareyasini saqlash	100
1.4. Avtomobillarning elektr ta'minot tizimining texnik qarovi	101

2-bob. AVTOMOBIL DVIGATELLARINI ISHGA TUSHIRISH TIZIMI

2.1. Umumiylumotlar	104
2.2. Dvigatelni ishga tushirish shartlari	106
2.3. Startyor elektrodvigatelinining elektromexanik tavsifnomasi	108
2.4. Startyorlarning tuzilishi va ishlash prinsipi	112
2.5. Startyorlarni boshqarish elektr sxemalari	127

2.6. Dvigatellarni ishga tushirishni yengillatuvgchi vositalar	130
2.7. Ishga tushirish tizimining texnik qarovi	132

3-bob. O'T OLDIRISH TIZIMI

3.1. Umumiy ma'lumotlar	134
3.1.1. O't oldirish tizimi va uning asosiy elementlarining vazifasi	134
3.1.2. O't oldirish tizimiga bo'lgan talablar va uning asosiy ko'rsatkichlari	135
3.2. Kontaktli o't oldirish tizimi	139
3.2.1. Kontaktli o't oldirish tizimining ishlash prinsipi	139
3.2.2. O't oldirish tizimining ish jarayoni	142
3.2.3. O't oldirish tizimining tavsifnomasi	146
3.2.4. O't oldirish ilgarilatish burchagini rostlash usullari	149
3.2.5. Kontaktli o't oldirish tizimi jihozlarining tuzilishi	152
3.2.6. Kontaktli o't oldirish tizimining kamchiliklari.....	159
3.3. Kontakt tranzistorli o't oldirish tizimi	159
3.4. Elektron o't oldirish tizimlari	165
3.4.1. Umumiy ma'lumotlar	165
3.4.2. Energiya to'planishi boshqarilmaydigan o't oldirish tizimi	168
3.4.3. Energiya to'planishi boshqariladigan o't oldirish tizimi	173
3.4.4. Mikroprotessorli o't oldirish tizimi	176
3.4. O't oldirish shamlari	180
3.4.1. Umumiy ma'lumotlar	180
3.4.2. O't oldirish shamlarining tuzilishi	181
3.4.3. O't oldirish shamlarining issiqlik tavsifnomasi va ularni belgilash	183
3.5. O't oldirish tizimining texnik qarovi	185

4-bob. NAZORAT–O'LCHOV ASBOBLARI

4.1. Umumiy ma'lumotlar	189
4.2. Temperatura o'lhash asboblari	191
4.3. Bosim va siyraklanganlikni o'lhash asboblari	197
4.4. Yonilg'i sathini o'lhash asboblari	202
4.5. Akkumulatorlar batareyasining zaryad rejimini nazorat qilish asboblari	204
4.6. Avtomobil tezligini va dvigatel valining aylanish chastotasini nazorat qilish asboblari	206
4.7. Nazorat-o'lchov asboblarining rivojlanish istiqbolari	211
4.8. Nazorat-o'lchov asboblarining texnik qarovi	212

5-bob. YORITISH VA YORUG'LIK XABARCHILARI TIZIMI

5.1. Umumiy ma'lumotlar	214
5.2. Yoritish tizimlarida yorug'lik taqsimlanishining asosiy prinsiplari va turlari	216
5.3. Bosh yoritish faralarining yorug'lik-texnik tavsifnomalarini me'yorlash	220

5.4. Bosh yoritish faralarining tuzilishi	224
5.5. Tumanga qarshi faralar	230
5.6. Yorug'lik-xabarchi asboblari	231
5.6.1. Umumiylumotlar	231
5.6.2. Gabarit chiroqlar	232
5.6.3. Tormozlanish xabarchilari	233
5.6.4. Burilish ko'rsatkichlari	233
5.6.5. Yorug'lik-xabarchi asboblarining tuzilishi	234
5.7. Avtomobil lampalari	236
5.8. Yoritish va yorug'lik darakchilari tizimiga texnik xizmat ko'rsatish	239

6-bob. AVTOMOBILLARNING ELEKTRON BOSHQARISH TIZIMLARI

6.1. Umumiylumotlar	243
6.2. Benzinli dvigatellarni elektron boshqarish	243
6.2.1. Majburiy salt ishlash ekonomayzerining elektron boshqarish tizimi (MSIEEBT)	243
6.2.2. Benzinli dvigatellarda yonilg'i uzatilishini elektron boshqarish	246
6.2.2. Datchiklar va ijrochi mexanizmlar	268
6.3. Avtomobilarning tormozlash tizimini elektron boshqarish	281
6.3.1. Umumiylumotlar	281
6.3.2. Avtomobilarning tormoz tizimidagi g'ildiraklarning blokirovka bo'lish shartlari	281
6.3.3. Avtomobilning antiblokirovkali gidravlik tormoz tizimi	282
6.3.4. Antiblokirovkali gidravlik tormoz tizimining ishlash prinsipi	284

7-bob. AVTOMOBILNING QO'SHIMCHA ELEKTR JIHOZLARI

7.1. Avtomobil agregatlarining elektr yuritmalari	287
7.2. Oynatozalagichlar	289
7.3. Tovush signallari	291

8-bob. AVTOMOBIL ELEKTR JIHOZLARINING SXEMASI. KOMMUTATSIYA APPARATLARI

8.1. Umumiylumotlar	294
8.2. Kommutatsiya apparatlari	294
8.3. Saqlagich va o'tkazgichlar	296
8.4. Avtomobil elektr jihozlarining sxemalari	298
Foydalilanigan adabiyotlar	300

УДК: 629.33.0025(075)
БВК 75.03я73

G‘olib Nasimjonovich MAHMUDOV

**AVTOMOBILLARNING ELEKTR VA
ELEKTRON JIHOZLARI**

Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik

Toshkent — «Noshir» — 2011

Muharrir *M.Sa’dullayev*
Texnik muharrir *D.Mamadaliyeva*
Sahifalovchi *A.Tillaxo’jayev*

Litsenziya AI №096. 23.11.2007 Bosishga ruhsat etildi 03. 11 2011.
Bichimi 60x84^{1/16}, «Times New Roman» garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘ 19,0
Adadi 400 nusxa. 22-sonli buyurtma.

«NOSHIR» nashriyoti,
Toshkent sh., Langar ko‘chasi 78-uy.

«NOSHIR» O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma
korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Langar ko‘chasi 78-uy.